

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY  
VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

# **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASI**

*Oliy va o'rta maxsus ta'lism vazirligi tomonidan kasb-hunar kollej-larining 3141700 – «Maktabgacha ta'lism» tayyorlov yo'nalishi bo'yicha 3141701 – «Maktabgacha ta'lism muassasalari tarbiyachisi» kasbi o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

«Faylasuflar» nashriyoti  
Toshkent – 2013

**UO'K: 159.9-053.3**

**KBK: 88.8**

**A-74**

**Jalilova S.X.**

**A-74 Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi:** kasb-hunar kollejleri uchun o'quv qo'llanma / S.X. Jalilova, S.M. Aripova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi; O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. — Toshkent: «Faylasuflar» nashriyoti, 2013. — 496 b.

**UO'K: 159.9-053.3**

**KBK: 88.8ya722**

Ushbu o'quv qo'llanma o'rta maxsus kasb-hunar ta'liming «Maktabgacha ta'lif» yo'nalishi bo'yicha ta'lif olayotgan o'quvchilar uchun mo'ljallangan.

«Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi» o'quv qo'llanmasida umumiy psixologiya fanining asoslari, ilmiy-tadqiqot metodlari, ilmiy tushunchalar va kategoriyalarni; psixika va ong, shaxs, motivatsiya, faoliyat, muomala, shaxsning psixik jarayonlari, holatlari, xususiyatlari, hamda maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi; bola psixik taraqqiyotining asosiy qonuniyatları, faoliyati, psixik jarayonlari, bolalar shaxsining shakllanishi, bolalar psixodiagnostikasi kabi masalalar keng yoritib berilgan. Mavzularni o'qitish va o'zlashtirish uchun turli metodlar, o'quv vositalari va ularga mos o'qitish shaklini tanlash, pedagogik amaliyot bilan bog'lash o'qituvchining kasbiy mahoratidan keilib chiqadi.

«Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi» o'quv qo'llanmasi o'qitishning dolzarb masalalariga bag'ishlanib, undan pedagogika yo'nalishidagi kasb-hunar kolleji psixologiya fani o'qituvchilari va o'quvchilar, maktabgacha ta'lif mutaxassislari keng foydalanishlari mumkin.

**Taqrizchilar:**

**Z.T. Nishonova** — Nizomiy nomidagi TDPU professori,  
psixologiya fanlari doktori.

**F.N. Vahobova** — «Lider» bolalar muktabi direktori,  
psixologiya fanlari nomzodi.

**S.T. Madaliyeva** — 1-TPK psixologiya fani o'qituvchisi.

## KIRISH

Respublikamizda «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni amalga oshirish jarayonida hayotimizning barcha jabhalarida inson omilining roli ortib borayotgani kuzatilmoqda. Ta’lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish, uni jahon andazalari darajasiga ko‘tarish, fan sohasidagi yangiliklarni amaliy hayotga tatbiq etish muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish, ularda fan asoslariga nisbatan bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov «Tarbiyachi – ustoz bo‘lishi uchun boshqalarning aql-idrokini o‘stirishi, ma’rifat ziyosidan bahramand qilishi, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun eng avvalo tarbiyachining o‘zi aynan shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo‘lishi kerak» – degan edi. Ta’limning yangi modelida jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirishga e’tibor berilar ekan, psixologiya fanining vazifalari ham malakali mutaxassislar sifatida o‘zligini, o‘z qobiliyatları, individualligi, ya’ni shaxsiy fazilat, xislatlarini bilgan tarzda ta’lim-tarbiya faoliyatini oqilona tashkil etish va ijtimoiy foydali mehnatning barcha sohalarida iqtidori li kasb sohibi sifatida faoliyat ko‘rsata oluvchi shaxslarni tarkib toptirishdir.

Psixologiya fanini o‘qitishning asosiy maqsadi o‘quvchilarni psixologiya fanining asoslari, tarixiy taraqqiyoti, hozirgi zamон psixologlarining ilmiy yondashishlari bilan, shuningdek, turli yoshdagи insonlarda o‘qish jarayonida shaxs fazilatlarini shakllantirish qonuniyatları va kasbiy malakalarni egallash xususiyatlari bilan tanishtirishdir. Hozirgi zamон tarbiyachisi ijtimoiy-kasbiy vazifalarini bajarish uchun yuksak ma’naviy xislatlarga ega bo‘lishi, umumiy va kasb madaniyati, ziyoliligi, axloqiy pokligi, faolligi, shaxsiy hissiyotlarga berilmasligi, ijodiy tasavvur egasi, psixik jihatdan sog‘lom, davlatimiz fuqarosi sifatida mas’uliyatni his eta bilishi lozim. Tarbiyachilik kasbiga xos psixik holatlar va xarakter muktabgacha yoshdagи bolalar psixikasining o‘ziga xos xususiyatlarini tarbiyalashning psixik asoslari va qonuniyatları

haqida bilim, ko'nikma va malakalar berishdan va ularni kasbiy faoliyatga tatbiq etishdan iborat.

Pedagogika yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlarida psixologiya fanining asosiy vazifasi o'quvchilarni barcha psixik jarayonlar va hodisalarining mohiyatini, hamda maktabgacha yoshda shaxsning shakllanishi bilan bog'liq holda shu jarayon va hodisalarining rivojlanishini ilmiy jihatdan to'g'ri tushuntirib berishga o'rgatishdir. O'quvchilar psixologiyani o'rganish natijasida bolalarning psixik xususiyatlarini tushuntirib bera oladigan tarbiyachi bo'libgina qolmay, balki shaxsning voyaga yetishida mas'ul o'rinnegallaydilar.

Ushbu o'quv qo'llanma bolalar psixologiyasi fanining asosiy muammolarini o'z ichiga olib, u pedagogika yo'nalishidagi kasb-hunar kolleji va akademik litsey o'quvchilari va o'qituvchilariga mo'ljallangan. O'quv qo'llanma umumiy psixologiya va bolalar psixologiyasi asoslaridan iborat bo'lib, 10 bobdan iborat. Har bir bob o'zining mazmuniga asosan yoritilgan bo'lib mavzu oxirida mustahkamlash uchun nazorat savollari berilgan.

Psixologiyani o'rganish jarayonida o'quvchilar o'z-o'zini tarbiyalash, kasbiy xislatlar: diqqatlilik, kuzatuvchanlik, esda qoldira olish, oqilona ishlash xislatlarini o'stirish bilan shug'ullanishi, o'z xayoli, ijodiy mustaqil fikrlashi, o'z hislarini boshqara olishi, qobiliyatini o'stirish zarurligi masalasi qo'yiladi va rivojlantiriladi.

# I bob. PSIXOLOGIYAGA KIRISH

## 1.1. Psixologiya fanining predmeti

Barcha fanlar kabi psixologiya fanining ham o‘ziga xos predmeti bor. Masalan, fizika fani harakatdagi materiyaning fizik xossalarni, kimyo fani kimyoviy xossalarni, biologiya biologik xossalarni o‘rganadi. Psixologiya o‘rganadigan hodisalarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash murakkabroqdir. Bu hodisalarni tushunish psixologiya fanini o‘rganishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yan odamning dunyoqarashi va qiziqishiga bog‘liqdir. Psixologiya insoniyatga tanish bo‘lgan eng murakkab ilm haqidagi fandir. Psixologiya bo‘yicha adabiyotlarda uning predmetini qisqacha qilib psixika deb ta’rif berishadi. Psixika – bu inson ruhiyatining shunday holati-ki u tashqi olamni (ichki ruhiy olamni ham) ongli tarzda aks ettirishimizni, ya’ni bilishimiz, anglashimizni ta’minlaydi. Psixologiyaning vazifalari boshqa fan vazifalaridan ancha murakkabroq, chunki psixologiyada bilishning obyekti va subyekti o‘zaro bir-biriga bog‘liq bo‘ladi.

Har bir odam tevarak-atrofdagi narsalarni sezish va idrok qilish qobiliyatiga ega. Odam osmonning moviyligini, daraxt barglarining yashilligini ko‘radi, ko‘cha tomondan qulqoqa chalinuvchi har xil tovushlarni eshitadi, ba’zi narsalarning sovuqligini, boshqalarining issiqligini sezadi. Odam o‘ylaydi va gaplashadi, ya’ni u tafakkur hamda nutqqa egadir. Biz ilgari bo‘lib o‘tgan narsa va hodisalarni xotira va xayol tufayli esda saqlaymiz va ke-lajak haqida orzu qilamiz. Bizning sezgilarimiz, idrokimiz, xotiramiz, tafakkurimiz, nutqimiz, xayolimiz **psixik jarayonlar** deb ataladi.

Ko‘pgina voqealar odamni to‘lqinlantiradi, quvontiradi yoki uning g‘azabini qo‘zg‘atadi, ya’ni odamda ma’lum his-tuyg‘ular uyg‘otadi. Odam nimagadir intiladi, o‘z oldiga qo‘yan maqsadlariga erishish yo‘lida sabot va matonat ko‘rsatadi, irodasini ishga soladi. Ba’zi hollarda psixik jarayonlar ancha murakkab va barqaror ko‘rinishga ega bo‘ladi, ularning aktivligi kuchaygan yoki susaygan holda namoyon bo‘ladi, ma’lum kechinmalarni maydonga keltiradi. Bular **psixik holatlar** deb ataladi. Bunga dars-

ga o‘quvchining diqqat-e’tiborlilik yoki parishonlik holati, odamlarda sodir bo‘lib turuvchi quvnoqlik yoki achchiqlanish va shu kabi psixik holatlar misol bo‘la oladi.

Har bir odam boshqalardan o‘zining ayrim shaxsiy barqaror xususiyatlari, ma’lum darajadagi barqaror psixik sifatlari bilan ajralib turadi. Ba’zi odamlarda qiziqishlar kuchli bo‘lsa, boshqa bir odam ulkan qobiliyatları (matematika yoki musiqaga) bilan undan farq qiladi. Ba’zi bir odam qiziqqonroq bo‘ladi, bunday odamni jo‘sinqin temperamentli odam deyiladi, boshqa odam haqidagi og‘ir, vazmin, yaxshi xarakterli odam deb o‘ylaymiz va hokazo. Qobiliyatlar, temperament, xarakter odamning psixik xususiyatlardir.

Psixik jarayonlar, psixik holatlar va psixik xususiyatlar bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq hodisalar bo‘lib, ularning barchasi birgalikda psixika hisoblanadi. Psixologiya fani psixik jarayonlar, holatlar va shaxs xususiyatlarini faqat tasvirlabgina qolmay balki ularning yuzaga kelish sabablarini ham tushuntiradi.

Psixika nima? Olamning taraqqiyoti tarixida psixika va ong bo‘lmagan davr ham bo‘lgan. Jonsiz tabiat va o‘simliklar dunyosi hech qanday psixik hayotga ega bo‘lmagan, chunki ularda sezish, fikrlash va his qilish qobiliyati yo‘q edi. Psixika moddiy olam taraqqiyotining eng yuqori bosqichida – tirik mavjudodlar, hayvonlar va odamlar paydo bo‘lgan bosqichida vujudga kelgan. Evolutsion taraqqiyot davomida psixikaning maxsus organlari – nerv sistemasi, keyinroq esa psixikaning oliy bo‘limi – miya tarkib topgan. Yuksak taraqqiyot darajasiga erishgan hayvonlar va odamda psixikaning taraqqiyoti bosh miya katta yarimsharlari po‘stlog‘ining rivojlanishi bilan uzviy bog‘langan. Psixik jarayonlar, holatlar va xususiyatlar o‘zgarmas hodisalar emas, ular odamning hayoti va faoliyati davomida rivojlanadi hamda o‘zgarib boradi. Bu o‘zgarishlar tabiat va jamiyatdagi barcha o‘zgarishlar singari muayyan qonunlarga bo‘ysunadi.

Tashqi olam, tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar odamga ta’sir ko‘rsatadi. Obyektiv voqelikdagi narsa va hodisalar odamning sezgi a’zolariga, nerv sistemasiga ta’sir etar ekan, ular miyada aks ettiriladi. Psixik jarayonlar – sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol – mana shular aks ettirish shakllaridir. Odamning obyektiv

voqelikdagi narsa va hodisalarni aks ettirishi shu voqelikni bili-shi demakdir. Tashqi muhitning miyaga ta'siri orqali narsalarning shakli, rangi, hajmi, kabilarni bilib oladi. Voqelikni aks ettirish jarayoni natijasida odamning sezgilarini, uning intilishlari, ish-harakatlari, odam shaxsining sifatlari, ehtiyoji, qiziqish va havaslari, qobiliyatlarini va xarakteri vujudga keladi, uning turmush tajriba-si hosil bo'ladi. Demak, barcha psixik jarayonlar, barcha aks ettirish jarayonlari odam bilan tashqi olamning bir-biriga aktiv ta'siri tufayli yuzaga keladi. Odam psixikasini ijtimoiy hayot sharoitlari belgilaydi. Odam amaliy faoliyatda, ya'ni o'yin, ta'lim, mehnat jarayonida aks ettirishning to'g'ri yoki noto'g'riliqini tekshirib bo-radi va shu yo'sinda obyektiv haqiqatni bilishga erishadi.

Odamning aks ettiruvchanlik faoliyati obyektiv va subyektiv birlikdan iboratdir.


Birinchidan, aks ettirish o'z mazmuni jihatidan obyektiv, chun-ki bu tashqi olam to'g'risida odamga to'g'ri tasavvur va bilimlar beradi. Ikkinchidan, aks ettirish nerv-fiziologik jarayondan iborat bo'lib, odam faoliyatining xilma-xil ko'rinishida ifodalanadi.

Aks ettirishning subyektiv tomoni shundan iboratki, konkret odam o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan shaxsni aks ettiradi. Shaxsning aks ettirishi uning oldiga qo'ygan maqsadi va vazifa-siga bog'liq bo'ladi. Ikkinchidan odam atrofdagi voqelikni bilib borar ekan narsa va hodisalarga nisbatan ma'lum munosabati-ni ifodalaydi. Shuning uchun ham obyektiv olamdagи narsalarni miyamizda aks etishi obyektiv olamning subyektiv obrazi bo'lib qoladi.

Biz psixikaning falsafiy mohiyatidan tashqari uning aks ettirish mexanizmlarini ham bilishimiz kerak bo'ladi. Buning uchun psixikaning nerv-fiziologik asoslaridan xabardor bo'lishimiz lo-zim. Rus fiziologi I.M. Sechenov o'zining «Bosh miya reflekslari» (1863) nomli kitobida psixik hodisalar inson organizmidagi boshqa hamma funksiyalar kabi tabiiy hodisa ekanligini, biron-bir sababsiz yuzaga kelmasligini, nerv sistemasining reflekslarini aks ettirish bosh miya faoliyatining natijasi ekanligini ko'rsatib berdi. Demak, odam tevarak-atrofdagi voqelikni faoliyat jarayonida, tabiatga va odamlarga ta'sir ko'rsatish jarayonida bilib bora-di. Ana shu jarayonda odamda sezgi va idrok sodir bo'ladi, bular

odamning sezgi organlari orqali miyasiga ta'sir ko'rsatib, ongida aks etgan narsa va hodisalarning (yoki ulardagi ayrim xususiyatlarning) obrazlaridir. Psixik aks ettirish obyektiv olamning subyektiv obrazi, voqelikning miyadagi aksidir.

Odam psixikasini, odam psixik faoliyatining qonuniyatlarini, uning kelib chiqish mexanizmlarini o'r ganuvchi fan **psixologiya** deb ataladi.



**Kundalik turmush va ilmiy psixologiya.** Har qanday fan negizida ma'lum darajada odamlarning turmushi va amaliy tajribasi o'z aksini topadi. Har qanday shaxs kundalik turmushning o'ziga xos psixologik bilimlarini egallagan bo'lib, o'z saviyasi, salohiyati bilan turlicha kamolot ko'rsatkichiga egadir, hatto uning turmush tajribasi va bilimlari ilmiy psixologik bilimlardan ustunroq bo'lishi mumkin (masalan: «Qari bilganni pari bilmas»). Kundalik muloqot davomida boshqa odamlarni kuzatib borgan kishilarning o'zaro birgalikda harakat qilishga ehtiyoji, ularni tashqi xulq-atvor ortida yashirinib yotgan psixik jarayonlarni farqlay bilishga majbur qilgan. Maqsadlar, mayllar, u yoki bu voqeadan

ta'sirlanish zamirida esa xarakteriga xos asosiy belgilar tushunilgan. Shuning uchun ham psixik holatlar, jarayonlar, xususiyatlar ilmiy predmetga aylanishidan ancha ilgari kishilarda bir-birlari to'g'risida sodda psixologik bilimlar to'plana boshlagan. Bu bilimlar avloddan avlodga o'tgan holda tilda, xalq ijodiyoti yodgorliklarida, san'at asarlarida o'z ifodasini topa bordi. Jumladan, maqol va matallarda, «O'n marta eshitgandan bir marta ko'rgan afzal», «Odat — kishining ikkinchi tabiat» va hokazolar. Kishing shaxsiy hayot tajribasi ham unga psixika haqida muayyan tasavvur bera oladi; biron-bir matnni qaytadan o'qib chiqish kishi xotirasida yaxshiroq saqlanib qolishiga yordam berishini, garchi «Takrorlash — ilmnning onasi» degan maqol unga tanish bo'lmasa ham, o'z shaxsiy tajribasidan bilib oladi. Masalan, bola o'z talabini qondirish istagida o'z yaqinlariga turli uslubda ta'sir o'tkazadi, ya'ni katta yoshdagilarning individual-psixologik xususiyatlarini o'zi anglamagan holda hisobga olib ish tutadi. Demak, kundalik turmushning psixologik bilimlari farosatlilik, sezgirlik, topqirlik intuitiv tarzda namoyon bo'ladi.

Ilmiy psixologiya ma'lum metodlar, vositalar, operatsiyalar yordamida ma'lumotlar to'plash va ularni umumlashtirishga intiladi. Izlanayotgan obyektning xususiyati, holati, munosabati, bog'lanishi kabilarni aks ettiruvchi ilmiy tushunchalar, ta'riflar, qonuniyatlar yordamida psixologik mexanizmlarni kashf qiladi. Insonning ichki imkoniyati, iste'dodi, ishchanligi, qobiliyati, xarakteri yuzasidan umumiylar xulosalar chiqariladi. Buning natijasida shaxs psixikasini aniqlash, bashorat qilish, ayrim nuqsonlarni tuzatish, noxush kechinmalarning oldini olish imkoniyati tug'iladi. Turmush mashaqqatlarini, jismoniy va ruhiy zo'riqishlarni kamaytirish, shaxslararo nizolarni oldini olish, bartaraf etish singari harakatlar faqat ilmiy psixologik ma'lumotlarga asoslangan holda amalga oshiriladi.

Ijtimoiy va shaxsiy tajribada yuzaga kelgan sodda psixologik ma'lumotlar ilmiy psixologiyagacha yaratilgan psixologik bilimlarni tashkil qiladi. Ilmiy psixologiyaning predmeti deyilganda, avvalo, psixik hayotning aniq dalillari nazarda tutiladi. Turli psixologik tajribalar juda muhim faktlarni aniqlagan. Masalan, qorong'ida ham qog'oz oppoq deb idrok qilinadi. Ilmiy jihatdan

bilish hodisalarni tasvirlashdan tushuntirib berishga o‘tishni tabab qiladi. Shuning uchun ham psixologik faktlar bilan birgalikda psixologik qonunlar psixologiyada o‘rganiladigan predmet bo‘lib yuzaga chiqadi.

### *Taraqqiyotning turli bosqichlarida psixika haqidagi ta’limotlar*

Psixologiya bundan 2–2,5 ming yillar muqaddam qadimgi Gretsiyada vujudga kelgan. Psixologiya tarixi ikki davrga ajratiladi:

**1-davr.** Psixologiya fanining falsafa tarkibida rivojlangan davri. Bu davr eramizdan avvalgi VI asrdan XIX asr o‘rtasigacha 2,5 ming yillar davom etgan davrdir.

**2-davr.** Psixologiya fanining mustaqil fan sifatida rivojlangan davri. Bu davr XIX asr o‘rtasidan hozirgi kungacha davom etib kelayotgan davrdir.

Qadim zamonlardanoq odamlar olamni har xil tushuntirganlar. Bizning qadimiy ajdodlarimiz tabiatdagi ko‘p hodisalarni tushuntirishga ojiz bo‘lganlar va shu sababli ular tabiatdagi hodisalar go‘yo olamga keng tarqalgan g‘ayritabiyy, moddiy bo‘limgan, ko‘zga ko‘rinmas kuchlar tufayli yuz beradi, deb hisoblaganlar. Odamning sezgilari, his-tuyg‘ulari, fikrlarini ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydi, shu sababdan ularni odamlar moddiy bo‘limgan alohida mavjudod – jonning ishi deb bilganlar, joni esa odam tanasida vaqtincha yashovchi va odam o‘lgandan keyin tanani tark etuvchi narsa deb bilganlar. Ijtimoiy hayot ehtiyojlari qadim zamonlardan buyon kishini tevarak-atrofda-gi odamlarning psixik jihatdan tuzilish xususiyatlarini farqlay bilishga va ularni o‘z xatti-harakatida hisobga olishda majbur etib kelgan. O‘scha davrdagi mutafakkirlar jon (ruh)ni tanadan xoli ravishda o‘rganishga harakat qilganlar. Bunday tasavvurlar uyqu, o‘lim, xushdan ketish holatlarini noilmiy talqin qilish oqibatida tarkib topgan.

Keyinchalik jamiyat taraqqiy eta borgan sari jonning moddiylikdan xoli tabiat haqidagi g‘oyalar paydo bo‘la borgan. Bunday qarashlar keyinchalik filosofiyada o‘z ifodasini topgan. Eramizdan avvalgi VII–IX asrlar oralig‘ida yashab o‘tgan mutafakkirlar Fales, Anaksimen, Geraklit, Demokrit, Epikur, Plo-

ton, Lukretsiyalar ta’limotidan keyin ruh tanaga jon bag‘ishlovchi moddiy asos, hayotiy jarayonni boshqaruvchi, idora etuvchi a’zo sifatida qaralgan.

Psixika haqidagi ta’limotlarning rivojlanishi uchun Aflatun (er.av. 427–347-yillar) alohida sharoit yaratib berdi. U jonning qismlari to‘g‘risidagi tushunchani yaratdi. Aflatunning shogirdi Arastuning «Jon to‘g‘risida»gi asari psixologiyaning bu davrga kelib bilimlar sohasi sifatida ajralib chiqishiga sabab bo‘ldi. Antik psixologiyaning eng yuqori cho‘qqisi Aristotelning ruh haqidagi mashhur ta’limoti hisoblanadi. Mashhur faylasuf Gegel aytganidek: «Biz psixologiyada ega bo‘lgan yaxshi narsalar bu Aristoteldan olgan narsalarimizdir».

Shimoliy Gretsianing Stariga shahrida tabib oilasida tavallud topgan Aristotel 17 yoshida Platonga shogird bo‘lib tushgan. Ammo Platonning qarashlari yo‘lidan bormadi. Aristotel «О душе», ya’ni «Jon haqida» nomli traktatida ruh muammosini izchil o‘rganishga bag‘ishlangan o‘z g‘oyalarini yoritib beradi. Aristotelga ko‘ra, ruh organik tananing shakli. Bu tanani Aristotel quyidagi metafora bilan tushuntirdi: «Agar ko‘z alohida tirik mavjudod bo‘lsa, ko‘rish qobiliyati uning ruhi bo‘lar edi. Ko‘rish qobiliyatini yo‘qotgan ko‘z aslida ko‘z bo‘lmaydi, u faqatgina ko‘z degan nomni saqlab qoladi, xolos. Bunday nomni chizilgan yoki biror narsadan yasalgan ko‘zga ham berish mumkin. Tiriklik ruhsiz bo‘lmaydi. Ruh tanani tirik qiladi. Tananing barcha xususiyatlari o‘sish, nafas olish, fikrlash asosida ruh turadi». Boshqacha aytganda tana va boshqa organlar ruh xizmatidagi quroldir. «Tana ruh uchun mayjuddir», — deb yozadi Aristotel va «Ruhni tanadan ajratib bo‘lmaydi», — degan qat’iy xulosaga keladi. Ruh harakat qilmaydi, tana harakat qiladi, lekin bunday tana ruhlidir. Shu tariqa Aristotel Platonning tana va ruh ajralishi, ruhning qismlarga bo‘linishi haqidagi g‘oyasini o‘tkir tanqid qiladi.



Aristotel (er.av. 384–322-yy.)

Arastu kishilik tafakkuri tarixida bиринчи bo‘lib ruh va jon tananing ajralmas qismlari ekanligi g‘oyasini ilgari surdi. Shu sababli ham Arastu psixologiya fanining otasi sifatida talqin qilinadi. «Psixologiya», ya’ni jon haqidagi fan so‘zi (yunoncha «psyche» – ruh, jon, «logos» – fan, ta’limot ma’nosini anglatadi) bizning davrimizda ham saqlanib qolgan.

«Tibbiyotning otasi» Gippokrat (er.av. 460–377-yy.) tafakkur va sezgi organi miya ekanligini ta’kidlaydi. Uning yozishicha: «Mana shu qism bilan biz fikrlaymiz, yaxshi va yomonni ajratamiz, tanamizning mana shu qismi bilan ko‘ramiz. Miya sog‘ holatda bo‘lgandagina biz sog‘ fikrlaymiz». Gippokratning ishlari orasida eng katta shuhrat keltirgani temperament haqidagi ta’limotdir.

Bu barcha anatomo-fiziologik ma’lumotlarni rimlik tabib Klavdiy Galen (er.av. II asr) umumlashtirdi va yangilari bilan boyitdi. Uning asarlaridan XVII asrgacha keng foydalanildi. Har xil muskullarga boruvchi nervlarni kesish bilan Galen shu xulosaga keldiki, tananing nervsiz birorta qismi yo‘q, birorta harakat, birorta hissiyot ularning ishtirokisiz kechmaydi. Ekspertmentlar orqali Galen orqa miyaning funksiyalarini ham aniqladi. Agar orqa miyani ko‘ndalang kessa, kesilgan joydan pastda joylashgan barcha tana qismlari harakatchanligi va sezuvchanligini yo‘qotadi, degan xulosani olim asoslab berdi. Geraklit, Demokrit, Aflatun, Arastularning ta’limotlari keyingi asrlarda psixologik g‘oyalarning rivojlanishi uchun tayanch nuqta bo‘ldi. «Bu – ruhiy dunyosi ulkan odam» deganda biz jismsiz va abadiy barhayot narsani emas, balki psixikani nazarda tutamiz.

XVII asr psixologlar ko‘z o‘ngida psixikaga bo‘lgan qarashlarning tubdan o‘zgarish davri sifatida namoyon bo‘ladi. Psixologik fikr taraqqiyotidagi yangi davrni «fanlar malikasi» bo‘lib hisoblangan mexanika ta’sirida paydo bo‘lgan konsepsiylar ochib berdi. Bu ta’limotlarning asosida fanning ulug‘ zahmatkashlari Rene Dekart (1598–1660), Benedit Spinoza (1632–1677), Tomas Robbe (1588–1679), Djon Lokk (1632–1704), Gomfrits Leybnits (1646–1716) kabilar turar edi.

Fransuz matematigi, tabiatshunos va faylasufi Dekartning ismi bilan psixologiya tarixidagi g‘oyat muhim bosqich boshlanadi. Ay-nan u o‘zining ong haqidagi ta’limoti bilan Aristotelning ruh ha-

qidagi ta’limotidan psixika to‘g‘risidagi tushunchalarning ajralib chiqishi uchun asos yaratdi. Dekartning fikricha: «Hayotni ruh bilan bog‘laganlar xato qiladilar. Negaki o‘lim hech qachon ruh tufayli sodir bo‘lmaydi, balki tananing muhim qismidagi buzilishlar tufayli ro‘y beradi». Dekartga ko‘ra asoslarning asosi shubhalanishdir. Uning fikricha hamma tabiiy va g‘ayritabiyy narsalardan shubhalanish kerak. Chunki shubhalanganda odam fikrlaydi. Bunga Dekartning mashhur aforizmi «Men fikrlayapman, bundan chiqdi mavjudman» asos bo‘ldi. O‘zining asosiy fikrlarini Dekart «Aqlni boshqarish qoidalari», «Ruhlar ehtiroslari», «Odam haqida» nomli asarlarida bayon etgan. XVIII asrning eng yirik kashfiyotlari qatoriga refleks tushunchasining paydo bo‘lishini kiritish mumkin. Refleks tushunchasi Dekart fizikasida paydo bo‘ldi.

Markaziy Osiyoda psixologik ta‘limotlarning rivojlanishi VII–IX asrlarga to‘g‘ri keladi.

Al-Xorazmiyning tib, odam anatomiysi va fiziologiyasi sohasidagi bilim hissiy sezgining moddiy asoslarini qidirishga yordam beradi. «Shaxsiy ruh – u miyada bo‘lib, ular badan a’zolariga asab orqali tarqaladi» deydi va aqlni odam nafsining kuchlaridan biri deb hisoblaydi.

Abu Ali ibn Sinoning psixologik-falsafiy qarashlari «Tib qonunlari» asarida inson fiziologiyasi va psixologiyasi asosida talqin etiladi. Ibn Sinoning sezgini tashqi va ichki turlarini, miyani nerv sistemasining markazi ekanligini, inson tana va jondan tashkil topishi, miya insonni boshqarib turuvchi markaz ekanligi kabi fikrlari noyob oltin xazina hisoblanadi.

Abu Nasr Farobi Yaqin va O‘rta Sharqda ilg‘or ijtimoiy-falsafiy oqim



Al-Xorazmiy (997-yilda vafot etgan)



Abu Ali ibn Sino (980–1037-yy.)



**Abu nasr Farobiy**  
(873–960-yy.)

biridan farqlaydi. U sezgi roliga to‘xtalib, besh turga bo‘ladi. Farobiyning ruhiy jarayonlar, ularni bilish va mantiq tizimi haqidagi ta’limoti o‘rta asrlar falsafasining katta yutug‘i edi.



**Abu Rayhon Beruniy**  
(973–1043-yy.)

empirik (tajribaga asoslangan) fan sifatida taraqqiy etadi. Bu davrlarda uning predmeti, o‘rganadigan sohasi paydo bo‘ladi va shakllanadi, yangi yanada samaraliroq tekshirish metodlari kashf qilinadi. Psixologyaning bergen ma’lumotlaridan amaliy faoliyatning turli sohalarida foydalanila boshlanadi. Assosiativ psixologiya namoyandalari D. Yum va D. Gartli, shogirdi D. Pristli assosiativ tasavvurlarni miyadagi fiziologik bog‘lanishlarga tenglashtiradilar, murakkab psixik jarayonlar sezgi va tasavvur-

asoschilaridan biri bo‘lib, «Sharq Aris-toteli» degan unvonga sazovor bo‘lgan mashhur mutafakkirdir. Uning inson tafakkuri, bilish bosqichlari (hissiy va xayoliy), sezgi turlari, inson (ruh) jonining bir tanadan, boshqasiga o‘tib, ko‘chib yurishi mumkinligini inkor etadi va uni balki tan kabi individual «substansiyasining birligi» sifatida tushunadi. Uning fikri izchil emas edi. Bunday ikkilanish Aristotelga ham xos bo‘lgan. Farobi bilishning ikki shakli, bosqichini hissiy va xayoliy, aqliy bilishni bir-

Abu Rayhon Beruniy «Inson hayvon-dan aql bilan farq qiladi», deydi va bu tu-shunchani yanada mustahkamlab: «Insonni xudo azaldan shunday yaratgan» deydi. U jamiyat yuzaga kelishida kishilarning moddiy ehtiyojlari rolini ko‘ra oladi: «Aql, mehnat, erkin tanlash inson hayoti va ij-timoiy holatini belgilaydi, inson o‘z ehtiyojlarini mehnat tufayli qondiradi», deydi. Rudakiy, Umar Xayyom va VIII asrdagi islom ta’limotlari psixologik ta’limotlar uchun ahamiyatlidir.

XIX va XX asrlarda psixologiya faqat

lardan hosil bo'ladi deb hisoblaydilar. XIX asrda psixik hodisalarни о'lhash mumkinligi, psixologiyada eksperiment bo'lishi mumkinligi ko'pgina psixologlar tomonidan ilgari surildi. I. Gerbart, Veber, Fexner, V. Vundt kabi nemis psixologlari eksperimental psixologiyaga asos soldilar. V. Vundt 1879-yili Leypsigda birinchi eksperimental laboratoriyasini, 1881-yili Berlin universiteti huzurida eksperimental psixologiya institutini tashkil qildi. Professor A.F. Lazurskiy (1874–1917) tomonidan ta'lim masalalarini o'rganishda keng qo'llaniladigan tabiiy eksperiment metodi ishlab chiqildi.

### **Nazorat savollari:**

1. Psixologiya nimani o'rganadi? Unga ta'rif bering. Psixika nima?
2. Kundalik turmushdagi hodisalar va ilmiy psixologiya deganda nimani tushunasiz?
3. Psixologiya tarixi qanday davrlarga bo'linadi?
4. Markaziy Osiyoda psixologik ta'limotlarning rivojlanishi haqida so'zlab bering.
5. Birinchi eksperimental laboratoriya qayerda va kim tomonidan tashkil etildi?
6. XIX va XX asrlarda psixologiya taraqqiyotida qanday yutuqlarga erishildi?

### **1.2. Hozirgi zamон psixologiyasining vazifalari, tarmoqlari va fanlar tizimida tutgan o'rni. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»dagi vazifalarni amalga oshirishda psixologiya fanining ahamiyati**

**Yangi davr va psixologiya.** Ma'lumki, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'limning uzluksizligi, uning mutlaqo yangi mazmuni kasb-hunar kolleji nufuzini oshirishga, jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rniga yuksak baho berilgan. Zamonaviy ta'lim markazida shaxs turadi, unga ta'sir etuvchi, zaruriy fazilatlarni shakllantiruvchi bo'lib o'qituvchi tim-soli mujassamlashgan. O'zbekistondagi tub islohotlar inson omili, uning mukammalligi, o'z ustida ishlashi, qayg'urishi muammosini har qachondagidan ham dolzarb masalaga aylantirdi. Turli

o‘zgarishlarga psixik jihatdan tayyorgarlikni ta’minlash yangicha fikrlash va ro‘y berayotgan jarayonni obyektiv va to‘g‘ri idrok qiliш qobiliyatini rivojlantirish muammosi inson psixikasini bilishni ilgari surdi. Psixik hodisalar bilan har bir inson tanish bo‘lishi, yangi davr o‘zgarishlariga oqilona javob bera olishini talab qildi.

**Psixologiyaning fan sifatidagi vazifasi** psixik hayotning asosiy qonunlarini o‘rganishdan iboratdir. Psixologiyani o‘rganish odamning o‘zini va boshqalarni yaxshiroq tushunishiga, ularning psixik holatini hisobga olgan holda yondashishiga yordam beradi. Kishi o‘zining kuchli va zaif tomonlarini ko‘ra oladi, o‘z ustida ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladi, nuqsonlarni yo‘qotib borishga o‘rganadi. Psixologiyaning oxirgi yillardagi taraqqiyoti ham aynan ana shu mezon talablariga javob berishi bilan xarakterlanadi. Jamiyatimizda esa psixologik bilimlarni bevosita amaliyotga tatbiq etishga ehtiyoj katta. Birgina O‘zbekistonda kadrlar tayyorlash milliy dasturini oladigan bo‘lsak, uning bajarilishi va muvaffaqiyatlari amalga oshirilishi uchun psixologiyaning aralashuvi zarur. Joylarda tashkil etilgan tashxis markazlarida faoliyat ko‘rsatayotgan amaliyotchi psixologlar o‘quvchilardagi rivojlanish ko‘rsatkichlari, aqliy o‘sish omillari va iqtidoriga qarab ta’lim-tarbiyani tashkil etishlari uchun qator diagnostik tadbirlarni o‘tkazishlari zarurki, bu tadbirlar oxir-oqibat real samara berishi lozim. Kasb-hunar kolleji o‘quvchilarining kamolotiga psixologiya fani muayyan hissa qo‘shadi.

Psixologiya muammolari turli sohalar bilan bog‘liq bo‘lishi bilan birga hozirgi kun uchun o‘ta dolzarb vazifalarni hal qiliш bilan ham bog‘liqdir. Bularga ekologiya muammolari, zoopsixologiya va odamshunoslik muammolari, demografik va millatlararo munosabatlar muammosi, insonparvarlik muammolari bilan bog‘liq psixologik muammolarni ko‘rsatish mumkin. Bulardan tashqari moddiy ishlab chiqarishni ko‘paytirish, mehnat samaradorligini oshirish, inson-inson, inson-texnika, yer-inson, inson-iqlim munosabatlari, oila munosabatlari, o‘z joni ga qasd qiliш, turli jinoyatchilik singarilar ham o‘ta muhim bo‘lganligidan psixologik tadqiqotlar orqali aniqlanadi va tuza tishlar kiritiladi.

## *Psixologiya fanining tarmoqlari*

Psixologiya fani jamiyatdagi barcha sohalarga kirib borgan bo‘lib barcha fanlar bilan chambarchas bog‘langan. Har bir soha-si o‘z yo‘nalishida psixologiyaning ma’lum bir yo‘nalishini ochib berish bilan, kasb-psixologiyasiga oid tushuncha va qarorlarni il-gari suradi:



*Psixologiya fani jamiyatdagi barcha sohalarga kirib borgan bo‘lib hozirgi kunda uning 300 dan ortiq tarmog‘i mayjud.*

– *umumiy psixologiya* – psixologiya tomonidan aniqlanadigan eng umumiyligini qonuniyatlarni, bu fanda qo‘llaniladigan tadqiqot metodlarini, nazariy prinsiplarni, ilmiy tushunchalarni ta’riflaydi. Psixik jarayonlar, psixik holatlar, psixik xususiyatlardan iborat uchta asosiy kategoriyani birlashtiradi;

- *pedagogik psixologiya* — ta’lim-tarbiya jarayonining psixologik qonuniyatlarini o‘rganishni o‘z predmeti deb biladi. O‘qituvchi va tarbiyachilar uchun bolalar psixologiyasini va pedagogik psixologiyani bilish, ayniqsa, katta ahamiyatga ega. Pedagogik psixologiya ta’lim jarayonida o‘quvchilar psixikasini, ularni muvafqaqiyatli o‘qitish va tarbiyalashning psixik sharoitlarini tekshiradi. Pedagogika va maxsus fanlar psixologiyaning ma’lumotlari negizida ish ko‘radi;
- *yosh davr psixologiyasi* — turli yoshdagi odamlarning tug‘ilgandan to umrining oxirigacha psixik rivojlanishi jarayoni ni, shaxsning shakllanishi va o‘zaro munosabatlari qonuniyatlarini o‘rganadi. Bolalar psixologiyasi bola rivojlanishining turli bosqichlarida uning psixikasini o‘rganadi;
- *maxsus psixologiya* — psixik rivojlanishda normadan og‘gan bolalar, ya’ni anomal taraqqiyot psixologiyasini o‘rganadi. Patopsixologiya — kasallar psixologiyasi. Oligofrenopsixologiya — aqli zaiflar psixologiyasi, surdopsixologiya — kar-soqovlar psixologiyasi, tiflopsixologiya — ko‘zi ojizlar psixologiyasi;
- *ijtimoiy psixologiya* — jamiyatda odamlarning birligida ish faoliyatlari natijasida ularda hosil bo‘ladigan tasavvurlar, fikrlar, e’tiqodlar, hissiy kechinmalar va xulq-atvorlarni o‘rganadi;
- *mehnat psixologiyasi* — kishi mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning psixologik jihatlarini o‘rganadi;
- *muhandislik psixologiyasi* — avtomatlashtirilgan boshqaruv sistemalari operatorining faoliyati, odam-texnika o‘rtasida funksiyalarni taqsimlash va muvofiqlashtirish xususiyatlarini o‘rganadi;
- *yuridik psixologiya* — huquq sistemasining amal qilishi bilan bog‘liq masalalarning psixologik asoslarini o‘rganadi;
- *harbiy psixologiya* — kishining harbiy harakatlar sharoitida namoyon bo‘ladigan xulq-atvorini, boshliqlar bilan ijro etuvchilar o‘rtasidagi munosabatlarning psixologik jihatlarini o‘rganadi;
- *savdo psixologiyasi* — jamiyatda tijoratning psixologik sharoitlari, ehtiyojning individual, yoshga va jinsga oid xususiyatlarini, xaridorga xizmat ko‘rsatishning psixologik omillarini aniqlaydi, modalar psixologiyasi kabi masalalarini o‘rganadi;

— *tibbiyot psixologiyasi* — shifokor faoliyatini psixologiyasini, bemor xulq-atvorining psixologik jihatlarini o‘rganadi.

Shuningdek, psixologiyada etnopsixologiya, oilaviy hayot psixologiyasi, boshqaruv psixologiyasi, shaxs psixologiyasi, rahbar psixologiyasi, parapsixologiya va boshqa ko‘plab sohalar mavjud. Psixologiyaning qaysi tarmog‘ini olmang ular oldida turgan asosiy vazifalar mehnat faoliyatida odamlar ishini yengillashtirish va takomillashtirishdan iboratdir.

### *Psixologiya fanining fanlar tizimida tutgan o‘rni*

XVIII asrga kelib psixologiya falsafa tarkibidan ajralib chiqdi va mustaqil fan darajasiga ko‘tarildi. Uning mustaqil bo‘lishi tez rivojlanishga olib keldi. Natijada XX asrga kelib o‘zining eng muhim muammolarini ishlab chiqa boshladi. Hozirgi davrga kelib psixologiya fani o‘zining alohida o‘rganish metodlariga, o‘ziga xos vazifalariga va o‘z predmetiga ega bo‘lib qoldi. Hozirgi vaqtida psixologiya inson haqidagi eng muhim fanlardan biri sifatida tan olinmoqda. Psixologiya falsafa, tabiatshunoslik, pedagogika, sotsiologiya, tabiiy fanlar, texnika fanlari, kibernetika iqtisodiyot kabi ko‘plab fanlar bilan bog‘langan.

**Psixologiya va falsafa.** Psixologiya falsafadan ajralib chiqqan bo‘lsada, ular o‘rtasidagi aloqa hozir ham saqlanib qolmoqda. Hozirgi zamon ilmiy psixologiyasi asosida ilmiy filosofik tushunchalar, psixika miyaning mahsuli, u real borliqni aks ettiradi deb tushuntiruvchi dialektik-materialistik qarashlar yotadi. Falsafa va uning ajralmas qismi bo‘lgan bilish nazariyasi, ya’ni gnosiologya psixikaning atrofdagi borliqqa munosabati masalasini hal qiladi va psixika atrofdagi olamning miyadagi aksi, materiya birlamchi, ong ikkilamchi deb tushuntiradi. Psixologiya turli psixik hodisalarни chuqur o‘rganish va tahlil qilish asosida uning inson hayoti va taraqqiyotidagi rolini tushuntiradi, psixik jarayonlarning taraqqiyot qonunlarini ochadi.

**Psixologiya va tabiatshunoslik.** XIX asrning II yarmida tabiatshunoslik fanidan mustaqil fan sifatida ajralib chiqishiga eksperiment metodining kirib kelishi (G. Fexner) va ayniqsa, 1863-yilda I.M. Sechenov (1829–1905)ning «Bosh miya reflekslari»

asari chop etilishi sabab bo'ldi. «Odamdag'i psixik va fiziologik hodisalarning ikkovi ham bir xildagi bir-biriga yaqin hodisalar, bir moddiy asosdan kelib chiqadigan hodisalardir», – deb yoza-di M.I. Sechenov. Kitobda psixik hodisalar, tabiat hodisalari singari albatta biror sabab tufayli, ya'ni nerv sistemasining reflektor faoliyati natijasida vujudga kelishligi ko'rsatilgan edi.

I.M. Sechenovning reflektor nazariyasi I.P. Pavlovning shartli reflekslar haqidagi ta'lilotida hamda uning shogirdlari L.A. Orbeli, L.K. Anoxin, K.M. Bikov, N.I. Krasnogorskiy asarlarida, shu bilan birga, A.A. Uxtomskiy, N.A. Bernshteyn, I.S. Beritashvili va boshqalarning ishlarida yanada rivojlantirildi. Ularning bu ta'lilmotlari psixologiya fanining tabiiy-ilmiy asosi bo'lib qoldi. Hozirgi paytda bu ta'lilot o'zbekistonlik va chet elliq psixoglarning miya faoliyatining neyrofiziologik mexanizmlarini chuqur o'rganishlari asosida yanada rivojlantirilmoqda.

Psixologiyani chuqur o'rganish tabiat fanlari (umumiyligi biologiya, fiziologiya, anatomiya kabilalar)ni yaxshi bilishni talab etadi. Psixologiyaning qator sohalari, eng avvalo solishtirma psixologiya, zoopsixologiya, ekologiya va boshqalar o'z navbatida tabiat fanlarining bo'limlari bo'lib ham hisoblanadi.

**Psixologiya va texnika fanlari.** XX asr ishlab chiqarishning, texnikaning yangidan yangi turlari, aloqa vositalarining juda tez o'sganligi, elektronika, kompyuterlashtirishdan foydalana boshlanganligi, transportning yangi turlarini o'zlashtirilganligi bilan xarakterlanadi. Bularning hammasi inson psixikasiga juda katta talablar qo'yadi. Hozirgi zamon sanoati, transportida va harbiy ishlarda psixologik faktorlarni, ya'ni kishining imkoniyatlari, bilish jarayonlari – idroki, xotirasi, tafakkurini, shaxsning o'ziga xos xususiyatlari – xarakteri, temperamenti, reaksiyalari ning tezligi va boshqalarni hisobga olishga to'g'ri keladi. Tovushdan tez hozirgi zamon samolyotlarida, ulkan elektrosistemalar ning operativ-dispetcherlik uchastkalarida ishlovchi kishilar juda kichik vaqt ichida tez qarorga kelishiga to'g'ri keladi, aks holda halokatlarga sabab bo'lishi mumkin. Ana shunday murakkab sharoitda ishlay olish uchun kishilarda imkoniyat bor-yo'qligini, ularning shu ishga yaroqli yoki yaroqsiz ekanligini aniqlashda psixologiya fani oldiga muhim talablar qo'yiladi. Injenerlar psi-

xologiyasi kishi bilan texnika o'rtasidagi munosabatni o'rganuvchi fan bo'lib, u texnikaning ko'pgina sohalari bionika, kibernetika bilan mahkam bog'langandir.

### **Psixologiya va pedagogika.**

Pedagogika bilan psixologiyani o'zaro hamkorligi va aloqasi an'anaviy va azaliy bo'lib, ularning yosh avlod tarbiyasini zamon talablari ruhida amalga oshirishdagi roli va nufuzi o'ziga xosdir. Respublikamizda amalga oshirilayotgan yangi «Ta'lif to'g'risida»gi qonun hamda «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi»ni amalga oshirish ham ikki fan hamkorligi va o'zaro aloqasini har qachongidan ham dolzarb qilib qo'ydi. Milliy dasturda e'tirof etilgan yangicha modeldag'i shaxsni kamol toptirish, uning chuqur bilimlar sohibi bo'lib yetishishi, barkamolligini kafolatlovchi shart-sharoitlar orasida yangi pedagogik texnologiyalarini ta'lif va tarbiya jarayonlariga tatbiq etishda pedagogikaning o'z uslub va qoidalari yetarli bo'lmaydi. Shuning uchun ham psixologiya u bilan hamkorlikda yosh avlod ongingin ta'lif olish davrlaridagi rivojlanish tendensiyalaridan tortib, toki yangicha o'qitish texnologiyalarini bola tomonidan o'zlashtirilishi va undagi aqliy hamda intellektual qobiliyatlarga nechog'lik ta'sir ko'rsatayotganligini o'rganish va shu asosda ishni tashkil etish psixologiyadagi metodlarni didaktik metodlar bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Ayniqsa, ma'naviy barkamollik tamoyillarini mакtabda va yangi tipdagi ta'lif muassasalarida joriy etish ham shaxs psixologiyasini teran bilgan holda o'qitishning eng ilg'or va zamonaviy shakllarini amaliyotga tatbiq etishni nazarda tutadi.

**Psixologiya va sotsiologiya.** XIX asrning ikkinchi yarmida sotsial psixologiyani fan sifatida rivojlantirishga ilk urinishlar boshlangan. Bunga angliyalik psixolog U. Makdugall va amerikalik sotsiolog E. Ross larning tadqiqot natijalari asos bo'lib xizmat qildi. Sotsial psixologiya 1908-yildan e'tiboran alohida fan sifati-



I.M. Sechenov (1829–1905-yy.)

da tan olingen. Sotsiologiya fani ham yangicha ijtimoiy munosabatlar sharoitida o‘z taraqqiyotining muhim bosqichiga o‘tgan ekan, psixologiya ushbu fan erishgan yutuqlardan ham foydalanadi, ham ularning ko‘lami kengayishiga xizmat qiladi. Jamiyatda ijtimoiy taraqqiyot va rivojlanishni ta’minlashni o‘z vazifasi deb biladi. Shuning uchun joylarda tashkil etilgan ijtimoiy-psixologik xizmat markazlari ayni shu vazifalarni bajarishga qaratilgandir. Ijtimoiy so‘rovlari aholining kayfiyati, qiziqishi, xohishi, ehtiyoji, niyatini ifodalash bilan birga hukumat va davlat tomonidan qanday istiqbolli rejalar tuzish lozimligiga olib keladi. Ijtimoiy-psixologik so‘rovlarning ta’lim muassasalarida o‘tkazilishi ustoz-shogird, o‘quvchi-o‘qituvchi munosabatlarini, ish joylarida o‘tkazish xodim-rahbar, xodim-xodim munosabatlarini bilib olish imkonini yaratadi. Bular orqali nafaqat sotsiologik so‘rov, balki inson shaxsiga aloqador psixologik xususiyatlarni aniqlash mumkin bo‘ladi.

**Psixologiya va iqtisodiyot.** Iqtisodiyot bilan psixologiyaning o‘zaro aloqasi va hamkorligi bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o‘tish sharoitida iqtisodiy ong hamda iqtisodiy xulqning o‘ziga xos namoyon bo‘lish qonuniyatlarini o‘rganishda ikkala fan teng xizmat qiladi. Yangi davr shaxsini tarbiyalash va uning jamiyatga moslashuvi masalasida psixologiya iqtisodiyot fanida qo‘lga kiritilgan yutuqlar, yangiliklar va iqtisodiy samaraga erishish omillarini hisobga olsa, iqtisodiyot o‘z navbatida iqtisodiy islohotlarning obyekti hamda subyekti bo‘lmish inson omilidagi baracha psixologik o‘zgarishlarni aniqlash, tahlil qilish va shu asnoda bashorat qilish vazifasini yechishi kerak.

### **Nazorat savollari:**

1. Psixologiya fanining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni va «Kadralar tayyorlash milliy dasturi»dagi vazifalari nimalardan iborat?
2. Psixologiyaning tarmoqlari haqida so‘zlab bering.
3. Psixologiyaning rivojlanayotgan fanlar tizimidagi o‘rni qanday?
4. Psixologiyaning sotsiologiya va iqtisodiyot fanlari bilan aloqasi haqida so‘zlab bering.

### 1.3. Psixologiya fanining ilmiy-tadqiqot metodlari

Aniq izlanish predmetiga ega bo‘lgan har qanday fan o‘sha predmetning mohiyatini yoritish va ma’lumotlar to‘plash uchun maxsus usullar va vositalardan foydalanadi. Ular **fanning metodlari** deb ataladi. Fanning obro‘sni ham birinchi navbatda shu metodlar yordamida to‘plangan ma’lumotlarning ishonchliligiga bog‘liqdir. Psixologiyaning har bir tarmog‘i o‘z vazifalarini yechish, ma’lumotlarga ega bo‘lish uchun ko‘plab metodlarni sinovdan o’tkazib, eng ishonchli va mukammallarini saqlab qolgan.

B.G. Ananev psixikani o‘rganish metodlarini to‘rt guruhga ajratadi:

- 1) tashkiliy metod;
- 2) empirik (amaliy);
- 3) natijalarni qayta ishlash;
- 4) genetik va donalash metodlari.

Birinchi **tashkiliy guruh** o‘z ichiga qiyoslash, longityud (uzluk-siz), kompleks (ko‘p qirrali) deb atalgan turlarini oladi. Qiyoslash turi umumiyligi psixologiyada, sotsial psixologiyada, tibbiyot, sport, yuridik psixologiyada keng qo‘llaniladi. Longityud metodi bir holatni uzoq vaqt kuzatish, birdaniga bir necha sinaluvchini tekshirish, qiyoslash maqsadida qo‘llaniladi. Nemis olimi V. Shtern, fransuz olimi R. Zazzo, rus olimlari N.A. Menchin-skaya, A.N. Gvozdev, N.S. Leytis, V.S. Muxina va boshqalar bu usuldan keng foydalandilar. Bu usulda kuzatish «Ona kundaligi» singari nomda ham atalishi mumkin.

Psixologik tadqiqotlar ilmiyligini oshirishda bir necha fanlar hamkorligiga suyanib kompleks metodlar qo‘llaniladi. Hozir muhandislik psixologiyasi, psixofiziologiya, kosmik psixologiya, tibbiyot psixologiyasidagi ko‘pgina kashfiyotlar shu usullar bilan ochilmoqda.

Ikkinci guruh – **empirik metodlarga** kuzatish, eksperiment, test, so‘rov, sotsiometriya, faoliyat jarayoni va uning mahsulini tadqiq qilish, tarjimayi hol kabilar kiradi va ular sinash, tekshirish, diagnostika va prognozlash vazifalarini bajaradi.

Uchinchi guruh metodlari **natijalarni qayta ishlashga** mo‘ljallangan bo‘lib, ular statistik (miqdoriy) va psixologik (sifat)

tahlili turlariga bo‘linadi. To‘plangan ma’lumotlarni qayta ishlab chiqishda matematik formulalardan foydalaniladi.

Tadqiqot metodlarining to‘rtinchi guruhi – **genetik va dona-lash** metodlaridan iboratdir. Genetik metodga asoslanib psixik o‘zgarishlar bilan rivojlanish bosqichlarining bevosita bog‘liqligi ildizi aniqlanadi. Uzilishlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun yig‘ilgan materiallar maxsus bosqichlarga ajratib sharhlanadi.

Quyida psixologiyada eng ko‘p qo‘llaniladigan tadqiqot metodlarining empirik metodlar guruhini tahliliy ko‘rib chiqamiz:

**Kuzatish metodi.** Psixologiyada keng qo‘llaniladigan bu metodning mohiyati shundaki, tadqiqotchi mutaxassis boshqa odamning xatti-harakatlarini, xulq-atvorini, psixikasining tashqi ko‘rinishlarini kuzatadi va xulosa chiqaradi. Ilmiy kuzatishlar jarayonida tadqiqotchi kuzatadigan obyektlarni nihoyatda diqqat bilan aniq o‘rganishi, pala-partishliklarga yo‘l qo‘ymasligi lozim. Psixik holatning tashqi alomatlariga ishongan holda ish ko‘rish har doim ham to‘g‘ri bo‘lavermaydi. Odamning xatti-harakatlarini to‘g‘ri talqin qilish ayniqsa muhimdir. Ba’zida o‘quvchi juda diqqat bilan tinglayotgandek ko‘rinsa ham, tamomila boshqa narsa haqida o‘ylab o‘tirgan bo‘ladi. Binobarin, bolalar holatini bilmоqchi bo‘lsangiz, yolg‘iz ko‘z yogurtirib turishning o‘zi kifoya qilmaydi, balki ularning qanchalik qunt bilan ishlayotganliklarini aniqlash maqsadida boshqa usullardan (mas. savollar tashlash) ham foydalanish mumkin. Uy va turli turmush sharoitlarida bolani kuzatish uning o‘qishga, o‘z-o‘ziga, o‘rtoqlariga, katta kishilarga munosabatini o‘rganishga va shaxsiy fazilatlari haqida xulosa chiqarishga imkon beradi. Bunda kuzatish metodining subyektiv (o‘z-o‘zini kuzatish), obyektiv (tashqaridan kuzatish) usullaridan keng foydalaniladi. Subyektiv kuzatish, ya’ni o‘z-o‘zini kuzatish metodidan keng foydalanib keligan bo‘lishiga qaramay, bu metodni ilmiy metod deb bo‘lmaydi. O‘z-o‘zini kuzatish metodining bir qator salbiy tomonlari bor. Birinchidan, o‘z-o‘zini kuzatish metodidan foydalanilganda har bir odam o‘z manfaati yuzasidan subyektiv xulosa chiqaradi. Ikkinchidan, subyektiv kuzatish metodidan foydalanilganda odam o‘z shaxsiga xos bo‘lgan ayrim salbiy (ya’ni irodasizlik, nomustaqillik, qo‘rroqlik, qobiliyatsiz-

lik kabi) xususiyatlarni boshqa odamlarda ham xuddi shunday bo‘ladi, deb o‘ylashi mumkin. Buning natijasida odam o‘z subyektiv kuzatishlaridan noto‘g‘ri xulosa chiqaradi. Bu metoddan ayrim hollarda ehtiyotkorlik bilan tanqidiy tarzda foydalanish mumkin. Bolalar psixologiyasida subyektiv, ya’ni o‘z-o‘zini kuzatishdan foydalanilmaydi.

Psixologiya fanida obyektiv kuzatish, ya’ni tashqi kuzatish metodidan ham keng foydalaniladi. Obyektiv kuzatish metodi har doim ma’lum maqsadga qaratilgan bo‘lib, uning yordamida kishilarning turli psixik jarayonlari (sezgilari, idroklari, xotira va tafakkurlari) hamda shaxsiy psixologik xususiyatlari (qobiliyatları, layoqatlari, temperamenti, xarakteri) o‘rganiladi. Tashqi kuzatish hamma vaqt ma’lum bir maqsadga qaratilgan bo‘lib aniq bir reja bilan kuzatishni taqozo etadi. Reja bilan kuzatilganda u yoki bu psixik jarayon atroflicha chuqur o‘rganiladi. Lekin shunga qaramay tashqi, ya’ni obyektiv kuzatish metodining salbiy tomonlari ham bordir. Obyektiv kuzatish metodi bilan tekshirishning asosiy xususiyati shundan iboratki, bunda biron-bir psixik jarayon tabiiy sharoitda qanday yuz bersa, xuddi shundayligicha olib tekshiriladi. Bu ma’lum noqulayliklar tug‘diradi, chunki ayni shu psixik jarayonning biron tomonida chuqurroq tabiiy sharoit yuzaga kelishini poylashga to‘g‘ri keladi. Bu esa juda ko‘p vaqt talab qiladi. Obyektiv kuzatish metodi orqali to‘plangan ma’lumotlar maxsus kundaliklarda qayd qilib boriladi va yarim yoki bir yil o‘tgach, to‘plangan ma’lumotlar atroflicha analiz qilinib, ma’lum xulosalarga kelinadi.

Bolalar psixologiyasida obyektiv kuzatish metodi har doim ma’lum maqsadga qaratilgan bo‘ladi. Bunda tarbiyachi va tekshiruvchi psixolog bolalarning xulq-atvorlari va xatti-harakatlarini ularning turli-tuman faoliyatlarida, tabiiy sharoitda, mavzuli tarzda kuzatadi. Obyektiv kuzatish metodi quyidagi qoidalarga asoslanib tashkil qilinishi kerak:

1. Kuzatishning aniq maqsadi va rejasi bo‘lishi kerak. Masa-lan: bolalar diqqatining barqarorligini yoki tafakkur bilan bog‘liq bo‘lgan analiz qila olish qobiliyatini kuzatish.
2. Bola shaxsining yaxlitligi prinsipiga asoslanib, ya’ni analitik-sintetik nuqtayi nazardan kuzatish.

3. Bolani jamoada va jamoa a'zosi sifatida o'rganish.
  4. Kuzatish tabiiy sharoitda olib borilar ekan, bolalar o'zlarining kuzatilayotganini mutlaqo bilmasliklari kerak.
  5. Kuzatishlardan yaxshi natijalar olish uchun, ularni turli sharoitlarda, shaxs xislatlarining turli xil namoyon bo'lismeni nazarda tutib, izchil tarzda, kun sayin o'rganish kerak.
- Kuzatish metodidan foydalanilganda bolalarning turli o'yin faoliyatları, didaktik mashg'ulotlar, mehnat faoliyatlarida xilmoxsil psixik jarayonlarning va individual xususiyatning namoyon bo'lismeni o'rganish mumkin.

Kuzatish metodi uzluksiz yoki faoliyatni tanlab vaqtiga bilan o'tkazilishi mumkin. Bolalarni uzluksiz kuzatish metodi bilan o'rganilganda ularning barcha fe'l-atvorlari va xatti-harakatlari kundalik faoliyatları davomida kompleks holda o'rganiladi. Uzluksiz kuzatish bir necha kun yoki bir necha oy davom etgandan so'ng to'plangan ma'lumotlar tahlil qilinib, bolaga psixologik tavsifnomasi tuziladi. Vaqtiga bilan tanlab kuzatilganda bolalarning barcha psixikasi emas, balki faqat alohida, diqqati yoki xotirasi bilan bog'liq bo'lgan tomonlari o'rganiladi.

Bolalar psixologiyasida kuzatish metodi bolalar taraqqiyotining sermazmun qirralarini o'rganish va undan olingan dalillarni kundaliklarga yozib borib o'rganishdan iboratdir. Bola taraqqiyoti haqidagi birinchi kundalik XIX asrning ikkinchi yarmida Ch. Darvin tomonidan nashr etilgan. Undan so'ng N.N. Ladigina-Kots, N.A. Menchinskaya, V.S. Muxina va boshqalar bolalar psixik taraqqiyoti yuzasidan izchil ravishda yozib borgan o'z kundaliklarini nashr etganlar.

**Eksperiment metodi** psixologiyada keng qo'llaniladi. Bunda sinaluvchi shaxsda o'rganish lozim bo'lgan psixik jarayon oldindan maqsad qilib olinadi. Masalan, matnni tushunish va o'zlashtirish uchun uni qanday tezlikda o'qish samarali bo'lishi aniqlangan. Eksperiment metodida bizni qiziqtiruvchi jarayon qachon paydo bo'lishi kutib o'tirilmaydi. Bundan tashqari eksperimentda psixik jarayonning sodir bo'lish sharoitlarini o'zgartirib turish va shu yo'l bilan mazkur jarayon haqida ko'proq kerakli ma'lumotlar to'plash mumkin. Maxsus apparatlardan foydalanigan holda o'tkaziladigan eksperiment **laboratoriya eksperimenti**

deb ataladi. Laboratoriya eksperimentida sinaluvchi shaxs bilan g‘ayritabiiy sharoitda ish ko‘riladi. Bu hol eksperimentning nuqsoni hisoblanadi. Odatda, turmush sharoitida natija birmuncha boshqacharoq chiqishi mumkin. **Tabiiy eksperimentda** bunday nuqsonlarga yo‘l qo‘yilmaydi. Mashg‘ulot paytida bola o‘zini erkin his etadi, uni tekshirishayotganini (yashirin kamera, magnitofon orqali) sezmaydi. Pedagogik-psixologik eksperiment (shakllantiruvchi – tarkib toptiruvchi eksperiment deb ham yuritiladi) ham ta’lim-tarbiya sharoitida o‘tkaziladi. Unda faqat o‘rganibgina qolmay, aktiv ta’sir ko‘rsatiladi. Maxsus usulda o‘qitiladi, tarbiyalanadi. Uzoq vaqt davomida o‘tkazilgan pedagogik-psixologik eksperiment natijasida ta’limning eng ma’qul usullari ishlab chiqilgan.

Bolalar psixologiyasida eksperimentning har ikkala turidan keng foydalaniladi. Biroq bu metodlardan bolalar psixologiyasida foydalanishning o‘ziga xos tomoni shundaki, bog‘cha yoshidagi bolalar laboratoriya sharoitida o‘tkaziladigan eksperimentlar bilan tabiiy sharoitda o‘tkaziladigan eksperimentlarning farqiga bormaydilar.

Har ikkala holda ham, tajribalar vazifa tarzida emas, balki o‘yin tarzida o‘tkazilsa yaxshi natija beradi. Eksperiment metodidan guruhlarda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar paytida keng foydalanish mumkin. Masalan: turli yoshdagি bolalar bilan o‘tkaziladigan didaktik mashg‘ulotlarda tabiiy eksperiment metodini qo‘llash mumkin. Bunda bolalarga har xil hayvonlar, parandalar, mevalar, sabzavotlar tasvirlangan rasmlи kartochkalarni aralash holda berib, ularni guruhlarga ajratish topshiriladi. Bolalar bu narsalarni qanday belgilariga qarab guruhlarga ajratishlariда ularning umumlashtirish xususiyatlarini o‘rganish mumkin. Odatda, guruh sharoitida o‘tkaziladigan bunday eksperimentni tabiiy eksperiment deb yuritiladi.

Bolalar psixologiyasida **tarkib toptiruvchi eksperiment** metodi dan ham foydalaniladi.

Bunda bolalarning u yoki bu xususiyati (psixologik xususiyati) tarkib toptiriladi va mustahkamlanadi. Masalan: bog‘cha yoshidagi bolalar ayni bir vaqtning o‘zida butunni va uning tarkibiy qismlarini to‘la idrok qila olmaydilar. Ular o‘z diqqatlarini yoki

bir butun narsaning o‘ziga yoki uning bo‘laklariga qarata olmaydilar. Tarkib toptiruvchi eksperiment orqali bolalarga bir butun narsani uning qismlari bilan bir paytda idrok qilish o‘rgatiladi. Buning uchun bolalarga bir butun narsaning obrazini yarata olish mashq qildiriladi (turli geometrik figuralar – doira, kvadrat, kublardan foydalaniladi).

Pedagogik eksperiment orqali biron ta’lim-tarbiya metodining effektivligi aniqlanadi. Tarkib toptiruvchi eksperiment metodini **pedagogik eksperiment** metodidan farqlash kerak. Tarkib toptiruvchi eksperiment orqali turli yoshdagi bolalarni u yoki bu narsalarni to‘g‘ri idrok qila olishga o‘rgatilsa, pedagogik eksperiment orqali biron ta’lim-tarbiya metodining afzalligi aniqlanadi. Masalan, biron tadqiqotchi bolalarga ta’limiy mashg‘ulotlarda zamonaviy pedagogik texnologiya metodlarini qo‘llashni tavsiya qilsa, uni pedagogik eksperiment metodi orqali sinab ko‘radi. Buning uchun oldindan mактабгача ta’lim muassasasi ma’muriyati bilan kelishib, bitta eksperimental va bitta sinov guruhi belgilab olinadi. Shundan so‘ng tadqiqotchi eksperimental guruhda pedagogik texnologiya metodi bilan elementar matematik tasavvurlarni o‘stirish mashg‘ulotlarini o‘tkazadi. Kontrol guruhda esa bu mashg‘ulotlar odatdagи an‘anaviy metod bilan davom ettiriladi. Bir-ikki oydan so‘ng har ikkala guruhdagi bolalarning o‘zlashtirishi taqqoslab ko‘riladi. Agarda eksperimental guruh bolalarining yangicha metod bilan o‘zlashtirishlari sinov guruhidagi bolalarning o‘zlashtirishlaridan anchagina samarali bo‘lib chiqsa, bu metod boshqa hamma maktabgacha ta’lim muassasalariga ham tarqatiladi. Agar natija kontrol guruhdagi bolalarning o‘zlashtirishidan yomon, ya’ni past bo‘lib chiqsa, yangicha metod bilan mashg‘ulot o‘tish darhol to‘xtatiladi.

Kuzatish va eksperiment metodlari bolalar psixologiyasining asosiy metodlari hisoblanadi, lekin bulardan tashqari bir qator yordamchi metodlar ham mavjud.

**So‘rov metodi** ham psixologiyaning barcha tarmoqlarida birlamchi ma’lumotlar to‘plashning an‘anaviy usullaridan hisoblanadi. Unda tekshiriluvchi tomonidan qo‘yilgan qator savollarga javob qaytarish kerak bo‘ladi. So‘roq metodining og‘zaki, yoz-

ma (anketa), erkin (suhbat), usullari mavjud. Og‘zaki so‘roq yoki oddiygina qilib suhbat metodini o‘tkazadigan shaxs unga ma’lum darajada tayyorgarlik ko‘rishi kerak. Agar professional mahorati yoki tajribasi yetarli bo‘lmasa so‘rov natija bermasligi mumkin. Yozma so‘roq yoki anketaning afzalligi shundaki, uning yordamida bir vaqtning o‘zida ko‘pgina odamlar fikrini o‘rganish mumkin bo‘ladi. Unga kiritilgan savollar, ulardan kutiladigan javoblar (yopiq anketa), yoki erkin o‘z fikrini bayon etish imkoniyatini beruvchi (ochiq anketa) so‘rovnomalar aniq va ravon tilda javob beruvchilar tushunish darajasiga monand tuzilgan bo‘lsa, shubhasiz, qimmatli birlamchi materiallar to‘planadi. So‘roqning ham erkin va standartlashtirilgan shakllari mavjud bo‘lib, birin-chisida oldindan nimalar so‘ralishi qat’iy belgilab olinmaydi, ikkinchi shaklida esa, hattoki, kompyuterda dasturi ishlab chiqilib, minglab odamlarda bir xil talablar doirasida so‘roq o‘tkazilishi nazarda tutiladi.

Bolalar psixologiyasida so‘rash-suhbat metodidan ancha cheklangan holda foydalaniladi. Bu metodni bog‘cha yoshidagi bolalarga nisbatan deyarli qo‘llab bo‘lmaydi, chunki bu yoshdagi bolalarda turmush tajribasi juda oz, tafakkurlari hali yaxshi rivojlanmagan bo‘ladi. Shu sababli kichik yoshdagi bolalar kattalarining bergen savollariga o‘ylamay-netmay javob qaytaraveradilar. So‘rash metodidan foydalanilganda odatda juda sodda ishlangan rasmlardan, predmetlardan foydalaniladi.

Bu metodni 5–6 yoshli bolalarga nisbatan qo‘llash mumkin. Bunda bolalarga turli mavzularga doir savollar beriladi va ular dan og‘zaki suhbatning mavzusi va suhbat paytida bolalarga beriladigan savollar oldindan yaxshilab o‘ylab olinadi. Suhbat jaronida javoblarni yozib olib, keyinchalik javoblarni tahlil qilish mumkin. Suhbat metodini o‘tkazishda quyidagilarga rioya qilish talab etiladi:

- 1) suhbatning mavzusi va mazmuni bolalarning taraqqiyot darajalariga va yosh xususiyatlariga mos bo‘lishi kerak;
- 2) savollar rejali va maqsad asosida tuzilishi kerak;
- 3) suhbat paytida «ha» yoki «yo‘q» demay, to‘liq javob olish kerak;
- 4) suhbatni haddan tashqari cho‘zib yubormaslik kerak;

5) suhbat orqali bolalarning bilishlari, narsa va hodisalar ha-qida tasavvurlari, qiziqishlari va odamlar bilan bo‘lgan munosa-batlarini o‘rganish mumkin.

**Testlar** hozirgi vaqtida keng qo‘llanilayotgan tekshiruv metod-laridan biridir. Test inglezcha so‘z bo‘lib sinash, tekshirish demakdir. Shaxsning aqliy o‘sishini, qobiliyatini irodaviy sifatlari va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo‘llaniladi. Test-lar ayniqsa odamning qanday kasbni egallashi mumkinligini, kasbga yaroqliligi yoki yaroqsizligini, iste’dodli yoki iste’dodli emasligini, aqliy darajasini aniqlashda, kishilarni saralash-da keng qo‘llaniladi. Hozirgi davrdagi mashhur psixologlardan biri E.I. Rogov o‘zining «Настольная книга практического психолога» kitobida (Москва ВЛАДОС nashriyoti, 1999-yil. 1-tom) «Shaxs tipologik xususiyatlarini aniqlash», «O‘qituvchi o‘quvchi munosabatlari darajasini aniqlash», «Pedagogik tajo-vuzkorlikni (so‘zini o‘tkaza olishni) baholash» singari test na-munalarini berilgan.

1905-yilda, ya’ni fransuz psixologi A. Bine va uning shogirdi A. Simon insonning aqliy o‘sishi va iste’dodi darajalarini o‘lchash imkoniyati borligi g‘oyasini ilgari surgandan keyin psixologiyada test metodining bir necha xillari qo‘llana boshlangan edi.

Psixologlar K.M. Gurevich, V.A. Krutestkiy, E.I. Rogov va boshqalar qo‘llaydigan testlar tubdan boshqacha prinsipda tu-zilgan. Ular testlar tafakkur ko‘rsatkichi bo‘lishi uchun harakat qildilar va muayyan yutuqlarga ham erishdilar. Hozirgi vaqt-da bolalarni maktabga olishda, kasb-hunarga yaroqlilagini aniqlashda, ishga qabul qilishda va boshqalarda test sinovlari keng qo‘llanilmoqda. Hozirgi davrda nodir testlar qatoriga psixologlar Rorshax, Rozensveyg, Kettel, Vartegg, Veksler, Meyli, Ayzenk, Agastazi, Raven va boshqalar ijodining namunalarini kiritish mumkin.

Test metodining quyidagi turlari mavjud; test-so‘rov, test-top-shiriq, proyektiv testlar, intellektual testlar.

**Test-so‘rov** – eng ko‘p tarqalgan testlar qatoriga yutuqqa eri-shish harakatlari, intellekt testlari, shaxs testlari (psixodiagnos-tika), shaxs «loyihasi» (proyektiv) testlari kiradi. Testlarning «Yetishmagan so‘z yoki raqamlarni topib, o‘rniga qo‘ying» sin-

gari shakllaridan qobiliyatni, kuzatuvchanlikni, xotirani tekshirish maqsadida ham foydalanish mumkin. Testlar yordamida ayrim qobiliyatlarning, ko'nikmalarning, malakalarning bor yoki yo'qligini aniqlashga yoki bu kasb sohasida ishlash uchun layoqatlilik darajasini va hokazolarni bilishga harakat qilinadi.

**Test-topshiriq** o'quvchi bilimini tekshirish va baholashda qo'llanilib, o'quv materialining asosiy qismini aniq va to'liq bilishlarini aniqlashga qaratilgandir. Unda savol va 3–4 ta javob beriladi, shulardan javobning eng to'g'risini topish talab qilinadi. Javoblarga ballar berilishi yoki berilmasligi ham mumkin.


**Proyektiv testlarda** testning asl maqsadi tekshiriluvchiga sir bo'ladi. Ya'ni shunday topshiriq beriladiki, tekshiriluvchi topshiriqni bajarayotib nimani aniqlashi mumkinligini bilmaydi. Masalan, mashhur Rorshaxning «Siyoh dog'lari» testi, tugallanmagan hikoyalar kabi testlarda bir narsaning proeksiyasidan go'yoki ikkinchi bir narsaning mohiyati aniqlanadi. 1921-yilda kashf etilgan «Siyoh dog'lari» va ularga qarab tekshiriluvchining nimalarni eslayotganligi, dog'lar nimalarga o'xshayotganligiga qarab, uning shaxs sifatidagi yo'naliishlari, hayotiy tamoyillari, qadriyatlarga munosabati, ishni bajarish paytidagi emotsiyonal holatlari aniqlanadi. Bu testlar juda noyob, qimmatli, lekin uni faqat professional psixologgina qo'llashi va natijalarini mohirona tahlil qilishi talab qilinadi.

Test metodi orqali bolalarning umumiyligi aqliy taraqqiyot darajalari va ayrim psixik jarayonlarning (tafakkur, xayol, xotira) qanchalik rivojlanganlik darajasi aniqlab taqqoslanadi. Test metodi yordami bilan bolalarning o'z yoshlariga nisbatan normal taraqqiy etganliklari yoki orqada qolganliklarini ham aniqlash mumkin. Qo'llaniladigan testlar orasida **intellektual testlar** katta ahamiyatga ega. Intellektual testlarda bolalarning umumiyligi aqliy taraqqiyot darajalari aniqlanadi. Test vazifalari bolalarning o'yin faoliyatlari bilan bog'lansa, bolalar bunday vazifalarни bajon-u dil bajaradilar. Masalan: biron butun narsaning mayda bo'laklarga ajratib tashlangan qismlarini yig'ib murakkab va chiroyli animatsiyalar yasay olish, turli labirintli suratlardan to'g'ri yo'lni topa bilish vazifalarini bajarishda foydalanish mumkin. Masalan: test metodida bolalarga topshiriladigan vazifalar

bir necha variantda bo‘lib, ular kuchlari yetgan variantlarda-gi vazifalarni bajaradilar. Har bir bajarilgan vazifaga ball sistemasida baho qo‘yib boriladi. Vazifalardan qanchasini bajarganligi va to‘plangan baliga qarab, bolalarning o‘rtacha taraqqiyot darajasi aniqlanadi.

**Sotsiometriya metodi.** Bu metod guruhlarda shaxslararo afzal ko‘rish, befarqliklarni aniqlash usulini va hissiy afzal ko‘rishlarni qayd qilish texnikasini aniqlashda qo‘llaniladi. Unga amerikalik sotsiolog Djon Moreno asos solgan. Mazkur metod yordamida muayyan guruhdagi har bir a‘zoning o‘zaro munosabatini aniqlash uchun uning qaysi faoliyatlarda kim bilan birga qatnashi-shi so‘raladi. Olingan ma’lumotlar matritsa, grafik, sxema, jadval shaklida ifodalanadi. Odatda sinaluvchilardan quyidagicha savol-larga javob berish talab qilinadi: «Sen sayohatga kim bilan birga borishni xohlaysan?», «Imtihonga kim bilan birga tayyorlanishi ni istaysan?», «Kim bilan qo‘shni bo‘lib yashashni yoqtirasan?», «Partada kim bilan yonma-yon o‘tirishni istar eding?» va hokazo. Har bir savol sotsiometrik mezon (o‘lchov) vazifasini bajaradi va turmush voqeligidan olinib turli yo‘nalishda bo‘lishi mumkin. Si-naluvchi har bir savolning uchta javobidan bittasini «eng maqbul» deb tanlashi lozim.

Guruhiy tabaqalanishni ko‘rsatish uchun sotsiogramma to‘rtta «maydon»ga ajratiladi, qizlar doiracha bilan, o‘g‘il bolalar esa uch-burchaklar bilan belgilanadi. Doiracha va uchburchaklar soni familiyalar soniga to‘g‘ri keladi. Guruh a‘zolarining o‘zaro munosa-batlari doira va uchburchaklar strelkalar bilan biriktirilganda o‘z ifodasini topadi. Eng ko‘p munosabatlarga ega bo‘lgan sinaluv-chi doiraning markazidan o‘rin oladi. U guruhning lideri, eng yoqimtoyi («Yulduzi») hisoblanali. Sotsiometrik usul bilan shaxs-lararo munosabatlarning darajasi va ko‘lami aniqlanadi. Qizlar va o‘g‘il bolalar o‘rtasidagi ko‘rsatkichlar, yosh ko‘rsatkichlari xususiyatlari bilan taqqoslanadi. Ko‘rsatkichlarga qarab guruhda-gi munosabatlar, ularning o‘ziga xosligi, psixologik mexanizmlar haqida xulosa chiqariladi. Shu bilan birga nazariy ahamiyatga molik g‘oyalar olg‘a suriladi, amaliy ko‘rsatmalar beriladi, tavsi-yalar bildiriladi.



1-rasm. Sotsiogramma.

Kasb psixologiyasida tadqiqotning sotsiometrik metodi sharoitga muvofiqlashtirilgan kichik guruhdagi shaxslararo munosabatni o'lhash usuli hisoblanadi. Bu usulda sinaluvchilarga bevosita savollar beriladi va ularga ketma-ket javob qaytarish orqali guruh a'zolarinig o'zaro tanlash jarayoni vujudga keltiriladi. Ay-nan shu usul bilan mehnat jamoalari, kollej va oliy mакtab tala-balari, turli muassasalarining xodimlari o'rtasidagi munosabatlarning xususiyatlari dinamikasi, shaxslararo ziddiyatlarning sabablari o'rganiladi. Umuman aytganda, sotsiometriya metodidan turli yoshdagi, ikki xil jinsdagi, saviyasi har xil kishilar guruhlari-dagi psixologik qonuniyatlarni tadqiq etishda unumli foydalanish mumkin. Hozir sotsiometriya usuli ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan kundalik hayotdagi voqealarga odamlarning munosabatlarini, ja-

moatchilik fikrini o‘rganishda keng qo‘llanilmoqda. Odamlarning sodir bo‘layotgan voqealarga munosabati, turli ehtiyojlari, motivlari, qiziqish, intilish, harakatlari va hokazolar muayyan tartib va qoidalarga binoan tizimlashtiriladi, ularning ijtimoiy psixologik hamda sof psixologik ildizlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar olinadi.

Bolalar psixologiyasida esa sotsiometrik metod yordami bilan har bir guruhda bolalarning o‘z tengqurlari o‘rtasida yuzaga kelayotgan o‘zaro munosabatlari va ularning guruhda tutgan mavqe-lari o‘rganiladi. Sotsiometriya metodi yordami bilan bolalarning guruhdagi o‘zaro munosabatlarini, ya’ni bir-birini yoqtirishlari yoki yoqtirmasliklarini quyidagi uslubda o‘rganish mumkin. Guruhdagi bolalarning har birini yechinish xonasiga chaqirib, unga 4–5 ta chiroqli qilib ishlangan o‘yinchoq ko‘rsatiladi (masalan, chiroqli mashina, toycha, ayiqcha, to‘pponcha, qayiqcha kabi). Ana shu o‘yinchoqlardan bitta o‘zingga yoqqanini tanlab olgin va uni guruhdagi eng yaxshi ko‘rgan o‘rtog‘ingning shkafiga sovg‘a sifatida qo‘yib qo‘y, deyiladi. Bola biroz o‘ylab turgach, yaxshi ko‘rgan bolalaridan birining shkafiga qo‘yib qo‘yadi. Guruhdagi hamma bolalar bu vazifani bajarib bo‘lganlaridan so‘ng eng ko‘p sovg‘a kimning shkafiga qo‘yilganligi aniqlanadi. Ana shu ma‘lumotlar asosida bolalarning guruhdagi o‘zaro munosabatlariga doir sotsiogramma tuziladi. Shkafiga eng ko‘p sovg‘a (o‘yinchoq) qo‘yilgan bola guruhning eng sevimlisi va shkafiga bironta ham sovg‘a qo‘yilmagan bola guruhning inkor qilgan, ya’ni yoqtirmagan odami bo‘lib chiqadi va bu bola bilan korrek-sion ishlar olib boriladi.

Shunday qilib, sotsiometrik metodni maktabgacha ta’lim muassasasi yoshidagi bolalarga nisbatan ham qo‘llash mumkin. Har bir tarbiyachi o‘z guruhidagi bolalarning jismoniy, aqliy, axloqiy rivojlanish xususiyatlarini, bolalar psixik taraqqiyotining umumiyy qonuniyatlarini kuzatib aniqlashi zarur. Shu bilan birgalikda tarbiyachi bolalarga nisbatan individual munosabatda bo‘lishning to‘g‘ri yo‘l-yo‘riqlarini belgilash maqsadida har bir bolaning individual psixologik xususiyatlarini aniqlashga intilishi lozim. Ilk yosh va kichik guruhlarda sotsiometriya metodini qo‘llash deyarli natija bermadi. Bu yoshdagi bolalarda faqat «o‘zim» degan tushuncha ustun bo‘lgani sababli kichik guruhdagi bolalar bilan

o'tkazilganda quyidagi natijaga erishildi. Vasila 3 yoshu 4 oylik. Tajribada qizcha katta qo'g'irchoqni tanladi va o'zining shkafiga olib borib qo'ydi. Sababi so'ralganda «Bu meniki, u menga yoqadi» dedi. Mirjalol 3 yoshu 8 oylik. Marjalol katta mashinani tanladi. «Shu yerdagi eng yaxshi ko'rgan odamingga ber» deyilganda u tarbiyachisiga olib borib berdi. Qolgan bolalar bilan ham shunga o'xhash natijalar ko'rildi.

Katta guruhda sotsiometriya metodining qo'llanishi quyidagi natijalarni ko'rsatdi. Tajriba 16 ta bola bilan o'tkazildi. Avvaldan tayyorlab kelgan turli rang-barang predmetlar, o'yinchoqlar, gullar tasvirlangan rasmlari kartochkalarni stol ustiga o'ng tomoni bilan qo'yildi. Bolalarni navbatma-navbat chaqirib «O'zingga juda yoqgan rasmi tanlab ol!» deyildi. Hamma bolalar olib bo'lgach, «Rasmlarni ko'rib bo'ldingiz, endi shu rasmlari kartochkani shu yerdagi o'zing eng yaxshi ko'rgan o'rtog'ingga bergen», deb aytilganda ba'zi bolalarda ko'proq, ba'zilarida kamroq kartochkalar hosil bo'lgan. Qolgan tajribalarda ham shunga o'xhash natijalarga erishilgan. Demak, sotsiometriya metodining natijalariga ko'ra tarbiyachi va psixolog bolalar bilan yakka tartibda ishlar olib borishni bilishlari zarur.

**Biografiya** (tarjimayi hol) **metodi.** Biografiya metodi ham psixologiyaning yordamchi metodlaridan hisoblanib, undan kishilarning ayrim psixologik xususiyatlarini o'rganishda foydalaniladi. Ma'lumki, har bir odam o'z biografiyasiga ega. Biografik ma'lumotlarda odamning shaxsiy psixologik xususiyatlariga oid ayrim faktlar bayon etiladi. Masalan, kishilarning biografik ma'lumotlarda ularning dunyoqarashlari, ishonch-e'tiqodlari, g'oyaviy yo'naliishlari, burchlariga bo'lgan munosabatlari, maqsad va maslaklari ko'rsatiladi. Ana shunday ma'lumotlarga asoslanib u yoki bu odam haqida ma'lum xulosa chiqarish mumkin. Biografiya metodi xususan bolalar psixologiyasi va pedagogik psixologiyada keng qo'llaniladi. Bolalar psixikasining taraqqiyot yo'lini biografik tarzda ilmiy kuzatishga dastlab mashhur tabiatshunoslardan Charlz Darvin asos solgan. U bola psixikasining taraqqiyotini kuzatishga oid o'zining kundalik xotira tipidagi asarini nashr ettirgan. Hozirgi kunda bola taraqqiyotini biografik tarzda ochib beruvchi ilmiy asarlar ko'plab topiladi. Bunday asarlardan

eng mashhuri N.A. Menchinskayaning «Bola psixikasining taraqqiyoti», «Ona kundaligi» nomli ilmiy-biografik asarlaridir. Bunday ilmiy-biografik asarlarning qimmatli tomoni shundaki, bunday kundaliklar bola taraqqiyotining katta bir davrini (masalan, 1 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan davrni) qamrab oladi. Ma’lumki, bolaning har bir yosh davrida unga nisbatan muayyan bir tarzda munosabatda bo‘lish lozim bo‘ladi. Ana shu nuqtayi nazardan bolaning qaysi yosh davrida unga nisbatan qanday munosabatda bo‘lishni belgilashda biografiya metodi tarbiyachilar va yosh otonalarga katta yordam berishi mumkin.

Bolalarning biografiyalariga oid ma’lumotlarini yaxshi bilgan tarbiyachi ularga nisbatan individual munosabatda bo‘lishni to‘g‘ri tashkil qila oladi. Bolalarning shaxsiy psixologik xususiyatlarini biografik tarzda o‘rganishda yozuvchilarning avtobiografik asarları ham katta rol o‘ynaydi. Ma’lumki, yozuvchilar nihoyatda mohir kuzatuvchi hisoblanadilar. Ular o‘zlarining asarlarida bolalar (hayvonlar) psixikasining turlicha namoyon bo‘lishini obrazli qilib ochib beradilar. Bunday avtobiografik asarlar orqali odamlarning ayrim tiplari, xarakterlariga xos xususiyatlari, qobiliyat va qiziqishlari, dunyoqarashlari, ishonch hamda e’tiqodlari, axloqiy sifatlari qanday ijtimoiy-tarixiy sharoit ta’sirida tarkib topishini bilib olish mumkin.

Psixologiyada odam **faoliyatining mahsullarini o‘rganish metodidan** ham foydalaniladi. Odam har doim ma’lum bir faoliyatta bo‘lib turadi. Odam o‘z faoliyatları natijasida turli narsalarni, mahsulotlarni yuzaga keltiradi. Ana shu narsalarda, mahsulotlarda odamning ayrim psixik jarayonlari va psixologik sifatlari o‘z aksini topadi. Shuning uchun har bir odamning faoliyat mahsuli shu odamning ayrim psixik jarayonlari va shaxsiy psixologik sifatlarini ko‘rsatib turadi.

Biz rassom yoki arxitektoring chizgan suratlarida, quruvchining qurban imoratida, haykaltaroshlik va boshqa san’at asarlarida, o‘quvchining yozgan konspektlarida va bog‘cha yoshida-gi bolalarning chizgan rasmlarida, ijodiy ishlarida ularning psixik jarayonlari va shaxsiy psixologik xususiyatlariga doir juda ko‘p tomonlarini ko‘rishimiz mumkin. Shu sababli odamning faoliyati mahsulotlarini analiz qilib o‘rganish metodi psixologiya-

ning yordamchi metodlaridan biri hisoblanadi. Bu metod bolalar psixologiyasida pedagogik va sotsial psixologiyada ancha keng qo'llaniladi.

Bolalar ham xuddi katta odamlar singari doim ma'lum faoliyat bilan mashg'ul bo'ladilar. Katta odamlar boshqa odamlar uchun kerak bo'ladigan ijtimoiy foydali narsalar ishlab chiqarish faoliyati bilan band bo'lsalar, bolalar faoliyatining asosiy maqsadi bilib olish, o'rganishda asoslanadi. Maktabgacha yoshdag'i bolalarning faoliyatlari – o'yin, rasm chizish, plastilin yoki loydan biron narsa yasash, applikatsiya, qurish-yasash va shu kabilardan iborat bo'lishi mumkin. Bolalar odatda katta kishilarning topshiriq va takliflari bilan ma'lum faoliyatga kirishadilar. Ayrim hollardagina bolalarning o'zлari mustaqil ravishda u yoki bu faoliyatni bajaradilar. Har ikki holatda ham bolalar faoliyati ma'lum natijaga ega bo'ladi. Faoliyat mahsuloti bolalar faoliyatining natijasiga qarab o'rganiladi. Ko'pincha bolalar faoliyatining mahsuli ular chizgan rasmlarga, loy yoki plastilindan yasalgan narsalarga qarab o'rganiladi.


Ma'lumki, bolalarning chizgan rasmlarida ular idrokining xususiyatlari va ongida yuzaga kelayotgan turli tasavvurlar hamda atroflaridagi narsa va hodisalarga bo'lgan munosabatlari o'z ifodasini topadi. Ana shu jihatdan bolalarning chizgan rasmlaridan faoliyat mahsulini o'rganish sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Turli yoshdag'i bolalarning ishlagan rasmlarini analiz qilish orqali ularning ayni chog'dagi ehtiyojlari, mayl-istiklari, qiziqishlari, qobiliyat va layoqatlarini, bola yashayotgan oila muhitini ham o'rganish mumkin. Shu sababli bu metoddan ham bolalar psixologiyasida keng foydalaniladi.

### **Nazorat savollari:**


1. Psixologiya qanday ilmiy-tadqiqot metodlarga ega?
2. Asosiy va yordamchi metodlarni sanab bering.
3. Eksperiment metodi nima?
4. Kuzatish metodiga ta'rif bering.
5. So'rov metodi va uning turlarini aytib bering.
6. Test metodlari haqida so'zlab bering.
7. Biografiya va faoliyat mahsulini o'rganish metodlari o'rtasidagi farq nimada?

## 1.4. Psixikaning nerv-fiziologik asoslari

Psixik faoliyatni to‘g‘ri tushunish uchun odam va hayvonlar psixikasining asosi bo‘lmish nerv faoliyatining xususiyatlarini biliш zarur. Nerv sistemasi markaziy va periferik nerv sistemasiiga ajraladi. Miya (bosh va orqa miya) markaziy nerv sistemasi hisoblanadi. Periferik nerv sistemasi bu nervlardir, ya’ni bosh va orqa miyadan tananing barcha tomonlariga tarqaluvchi nerv tolalaridir. Miya ham nerv hujayralaridan iborat. Ular o‘zaro birlarlari bilan shoxchalari orqali bog‘langan. Miya bir necha qismlardan tuzilgan. Bosh miyaning katta yarimsharlari bosh miyaning po‘stloq osti tugunlari va po‘stlog‘idan iborat bo‘lib odamning barcha psixikasini boshqaradi. Po‘stloqning peshona qismlari muhim o‘rin egallaydi. Odam miyasining og‘irligi o‘rtacha 1400 g (maymunda – 500 g, otda – 650 g, ho‘kizda – 500 g, kitda – 2800 g, filda – 4000 g).



2-rasm.




3-rasm.

Miya gavda og‘irligining 2% ini tashkil etadi, organizm qabul qiluvchi kislороднинг 18% i miyaning oziqlanishiga sarf qilindi. Bu organizmning hayot faoliyatida miya ishi faoliyati qanchalik murakkab ekanligini ko‘rsatadi. Hayvonlar va inson miyasini tanasiga nisbatini oladigan bo‘lsak, masalan, kitning miyasi tanasining 1/20000 qismini, filda – 1/400, maymunda – 1/100, odamda esa 1/46 qismini tashkil etadi. Bosh miya katta yarim-

sharlari po'stlog'i organizm hayotida muhim rol egallaydi. Odamda u o'rtacha 14–15 mldr neyronlardan tashkil topgan. Peshona qismlari ayniqsa ahamiyatlidir. Hayvon qanchalik taraqqiy etgan bo'lsa miyaning shunchalik katta qismini peshona tashkil etadi. Mushukda – 3%, itda – 7%, maymunda – 16%, odamda – 29% ni tashkil qiladi.

Individning psixik hayotida miya og'irligi va tuzilishi alohida ahamiyatga ega. Kishining aqli haqida miya og'irligiga qarab hukm chiqarish noto'g'ridir. Masalan, I.S. Turgenevning miyasi 2012 g, I.P. Pavlovning miyasi 1653 g, D.I. Mendeleyevning miyasi 1571 g, Anatol Fransning miyasi 1017 g. Bosh miya og'irligining ma'lum bir chegarasi ham borki, odamda undan kam bo'lsa, aqliy qobiliyat ancha pasayadi. Bu chegara erkaklarda 1000 g ni, ayollarda 900 g ni, yangi tug'ilgan bolalarda 380–400 g ni tashkil etadi. Miyaning oliv bo'limlari – katta yarimsharlar har xil turdag'i hayvonlarda qanday ahamiyatga ega ekanligini quyidagi faktlarda ko'rish mumkin. Baliqlardagi mavjud yarimsharlar kurtagi olib tashlansa ham, ular xattiharakatida kam o'zgarish yuz beradi. Agar kaptarning yarimsharlari olib tashlansa u ucha olmaydigan, ovqatni o'zi topa olmaydigan bo'lib qoladi. Yarimsharlaridan mahrum etilgan it batamom majruh bo'lib qoladi. Katta yarimsharlarsiz tug'ilgan bola tezda nobud bo'ladi. Demak, miya katta yarimsharlarisiz odam yashay olmaydi.



**4-rasm.** Umurtqa pog'onalilarda miya yarimsharlarining ko'rinishi.

**Miyaning reflektor faoliyati.** Tashqi olam doimo odamning nerv sistemasiga, sezgi a'zolari orqali miyasiga ta'sir ko'rsatib turadi. Organizmning tashqi ta'sirotlarni nerv sistemasi va miyasiga ta'siri natijasida qabul qilishi va ularga javoban harakatga kelishi refleks (lot. reflexus – aks ettirish) deb ataladi. Refleks nazariyasi birinchi marta fransuz olimi Dekart tomonidan, keyinchalik I.M. Sechenov va yana keyinroq I.P. Pavlov tomonidan rivojlantirildi, shartli va shartsiz reflekslar atalib o'rganildi. Shartsiz reflekslar tug'ma yo'l bilan berilsa, shartli reflekslar hayot davomida orttiriladi. Bola miyasining ko'rish markazida ham (dorini ko'rgan paytda), ta'm-maza bilish markazida ham (og'zida taxirlikni sezgan paytda) qo'zg'alishlar ketma-ket vujudga keladi, bordi-yu bu qo'zg'alish yana takrorlansa, miya po'stlog'ida, ya'ni shu ikki markaz o'rtasida bog'lanish vujudga keladi. Agar shu bog'lanish mustahkamlanib borilmasa, ya'ni bolaga dori ko'rsatilsa-yu ammo ichirilmasa, u kuchsizlanib butunlay uzilib ketadi. Shunday qilib shartli refleks hayot davomida hosil qilinibgina qolmay, vaqt o'tishi bilan yo'qolib ketishi ham mumkin. Shu sababdan I.P. Pavlov shartli refleksni muvaqqat nerv bog'lanishi deb aytgan.


**Yarimsharlar po'stlog'idagi nerv jarayonlari.** Odam va hayvonlarning katta yarimsharlari po'stlog'ida ikki qarama-qarshi nerv jarayonlari, qo'zg'alish va tormozlanish sodir bo'ladi. Birron-bir narsa yoki hodisalar sezgi organlariga ta'sir etib ularni qo'zg'atadi, qo'zg'alish esa miyaga o'tkaziladi, shundagina yarimsharlarda qo'zg'alish (jonlanish) vujudga keladi. Bu qo'zg'alish o'chog'i o'zgarmasdan va harakatsiz qolmaydi. Odatda qo'zg'alish katta yarimsharlar po'stlog'ida **irradiatsiyalanadi** (yo'iladi) va bir joydan ikkinchi joyga o'tadi.

Po'stloqda qo'zg'alish bilan bir vaqtning o'zida unga zid jarayon tormozlanish ham maydonga keladi, tormozlanish miyada qo'zg'alish uchastkasini aktiv ravishda to'xtatib turadi, tormozlaydi yoki cheklab qo'yadi, qo'zg'alish uchastkasini markazlashtiradi, tor doiraga to'planishga olib keladi. Qo'zg'alish bilan tormozlanish o'zaro chambarchas bog'liqdir. Agar miyaning biron uchastkasida qo'zg'alish paydo bo'lsa, shu uchastka atrofida tormozlanish maydonga kelishi manfiy induksiya, tormozlanish

o'chog'i atrofida qo'zg'alish vujudga kelishi musbat induksiya deb ataladi. Tormozlanish charchash natijasida sodir bo'ladi. I.P. Pavlovning uqtirishicha, agar tormozlanish po'stloqning ko'p qismiga yoyilib miyaning quyi qismlariga yetib borsa odam uyquga ketadi. Kuchlar, ya'ni miya nerv hujayralari qayta tiklanadi. Po'stloqni to'liq qamrab olmay ayrim uchastkalarining qo'zg'alish holatida bo'lishini I.P. Pavlov soqchi punktlar deb atagan. Masalan, o'z bolasi yonida qattiq uyquga cho'mgan ona atrofdagi tovushlarni eshitmasligi mumkin, lekin chaqaloqning ozgina shitirlagan tovushiga uyg'onadi. Demak, onada o'z bolasiiga nisbatan miya po'stlog'ida ba'zi hujayralar qo'zg'algan holda bo'ladi. Gipnoz holatida tormozlanish qisman bo'lib po'stloqni to'liq qamrab olmaydi va odamga keraklicha ta'sir o'tkaziladi. Bunday holatni sun'iy ravishda vujudga keltirish mumkin. Bunda odamga so'z orqali ta'sir o'tkazish, ya'ni «Siz uxlamoqchisiz, siz uxlay boshladингiz» kabi. Shuningdek, gipnoz qilayotgan kishining yuzi oldida qo'l bilan silash harakatlari (passlar) yordamida uxlatiladi. Gipnoz holatida bosh miya po'stlog'ining ko'p qismi tormozlangan bo'ladi, shu sababli odam o'zi mustaqil harakat qila olmaydi, uni uxlatgan kishiga itoat qiladi, nima buyurilsa shuni bajaradi.

Katta yarimsharlar po'stlog'ining shartli refleks tarzidagi faoliyatini I.P. Pavlov miyaning signal faoliyati deb atagan, chunki tashqi muhitdan ko'rsatiluvchi ta'sirlar tevarak-atrofdagi narsalarning organizm uchun ahamiyati haqida darak beradi. Narsa va hodisalarning sezgi organlariga ta'sir ko'rsatishi tufayli (buning natijasida sezgilar, idrok, tasavvurlar paydo bo'ladi) miyaga keluvchi signallarni Pavlov **birinchi signallar** sistemasi deb atagan: bunday sistema odamda ham, hayvonlarda ham bor. Ammo odamda, deb yozadi Pavlov faoliyat mexanizmlariga qo'shimcha favqulodda ustunlik yuz bergen. Bu qo'shimcha ustunlik inson nutqi va tafakkuridir. Demak, nutq **ikkinci signallar** sistemasi hisoblanadi.


Bir xil izchillikdagi qo'zg'alishlarning takrorlanib turishi, odamda shunga muvofiq ravishda, bir xildagi reaksiyalarning amalga oshishiga olib keladi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, qo'zg'atuvchilardan birinchisi ta'sir etishi bilan, shartli reflekslar sis-



I.P. Pavlov (1849–936-yy.)

temasi paydo bo‘ladi. *Qo‘zg‘alishlarning takrorlanib turishi natijasida miya po‘stlog‘ida mustahkam o‘rnashib qolgan o‘choqlari dinamik stereotiplar* (stereotip yunoncha stereo – mustahkam, o‘chmas; *tupos* – iz, *tamg‘a*) deb ataladi. Stereotip so‘zi mustahkamlangan reaksiyalarning barqarorligidan dalolat beradi. «Dinamik» deb atalishiga sabab shuki stereotipni, ya’ni odat tusiga kiriib qolgan xatti-harakatlar sistemasini qayta qurish oson bo‘lmasa ham uni o‘zgartirish mumkin. Bu o‘choqlar kerak bo‘lganda kuch sarflanmasdan oson tiklanadi.

### Miyaning tuzilishi va vazifalari



5-rasm. Bosh miya.

Demak, dinamik stereotip qo‘zg‘atuvchilarning tez-tez takrorlanib turuvchi ta’sirlariga organizmning moslashib qolishi hisoblanadi. Stereotip qancha eski va turg‘un bo‘lsa uni yengish, tugatish shunchalik qiyin bo‘ladi. Uni buzish tevarak-atrofdagi voqelik bi-

lan keskin to‘qnashuvga olib keladi. Nerv sistemasining zaif muvozanatlashmagan tipiga mansub bo‘lgan odamlarda dinamik stereotipni qayta qurish qiyin bo‘ladi. Nerv sistemasi kuchli va muvozanatlashgan odamlar dinamik stereotipni o‘zgartirishni oson uddalaydilar.

Yarimsharlarning biror qismi zararlansa odam shu vazifasini yo‘qotadi. Masalan, miyaning peshona orqa tomonidagi qismi zararlansa u gapira olmaydi, uning o‘rnini boshqa markazlar amalga oshiradi.

### Miyaning yosh ulg‘aygan sari o‘sib borishi

Yosh	Bosh miya vazni	vazn ortishi (gramm)	1 yilda o‘sishi
Bola tug‘ilganda	389		
1	890	+501	+501
7	1200	+310	+52
15	1400	+200	+30
Katta odam	1200–1400		


I.P. Pavlov miyani o‘z ishini o‘zi to‘g‘rilovchi sistema deb atagan. Buning ma’nosи shuki, miya tashqi qo‘zg‘atuvchilar ta’siriga shunchaki javob qaytaribgina qolmay, balki o‘z ko‘rsatmasi bo‘yicha bajarilayotgan xatti-harakatlarni nazorat qiladi hamda tartibga solib turadi. Nerv jarayonlari uch qismdan iborat:

1) tashqi (yoki ichki) qo‘zg‘atuvchi ta’sirida vujudga kelgan qo‘zg‘alishning sezgi organlaridan to miyaga borguncha bosib o‘tuvchi yo‘li;

2) bu qo‘zg‘alishning miyada qayta ishlanishi;

3) impuls tarzida beriluvchi «buyruq», bu buyruqni miya xatti-harakatini amalga oshiruvchi mushaklar tomon yo‘llaydi.

Teskari aloqa bajarilgan xatti-harakatga baho berish va zarur taqdirda uni qayta qurish imkoniyatini yaratadi. Nerv jarayonlarning bu uch tarkibiy qismi **refleks yoyi** deb ataladi.



**6-rasm.** Miya vazni ortishi o'rtasidagi farq.

#### **Nazorat savollari:**

1. Odamning nerv sistemasi qanday tuzilishga ega?
2. Miyaning signal faoliyati deganda nimani tushunasiz?
3. Yarimsharlar po'stlog'idagi nerv jarayonlari faoliyati ni-madan iborat?
4. Refleks yoyi qanday tuzilgan?

## **1.5. Psixika va ong taraqqiyoti. Psixikaning paydo bo'lishi va rivojlanishi**

Psixikaning paydo bo'lishi va taraqqiyoti juda uzoq tarixga egadir. Tabiatda va jamiyatda hamma narsa har doim o'zgarib turadi. Lekin har qanday o'zgarishni ham biz taraqqiyot deb ayta olmaymiz. Taraqqiyot chirish va yemirilishning teskarisi bo'lib, oldinga tomon rivojlanishdan iboratdir. Bundan mlrd yillar muqaddam yerda hayot paydo bo'lgan, ya'ni materiya yuzaga kelgan.

Organik, ya'ni tirik materiya dastavval juda sodda bir hujayrali organizm tariqasida yuzaga kelib, juda uzoq taraqqiyot yo'llini bosib o'tgan.


Tirik organizmlarning dastlab paydo bo'lgan davridan boshlab hozirgi eng yuksak organizm, ya'ni odamgacha rivojlanish yo'li **evolutsion taraqqiyot** deb yuritiladi. Biz psixika taraqqiyoti haqida fikr yuritar ekanmiz, psixika organik, ya'ni tirik olamdag'i hamma organizmlarga xos xususiyatmi, degan savol tug'iladi.

Psixika, ya'ni aks ettirish xususiyati eng avval paydo bo'lgan juda sodda organizmlarda bo'lman, ularda oddiy ta'sirlanuvchanlik xususiyati bo'lgan xolos.


Ta'sirlanuvchanlik bir hujayrali organizmlarga (amyobalarga, tufelkalarga) xos xususiyat bo'lgan. Evolutsion taraqqiyot jarayonida organizmlar murakkablashgan sari ularning tashqi olamni aks ettirishlari ham takomillasha borgan. Evolutsion taraqqiyotning ma'lum bosqichiga kelib organizmlarda juda sodda tuzilishga ega bo'lgan nerv sistemasi paydo bo'lgan. Dastlab yuzaga kelgan nerv sistemasi juda sodda bo'lib, markazlashmagan organizmlarning hamma tomoniga to'rsimon holda tarqalib ketgan ko'rinishga ega bo'lgan. Bunday nerv sistemasini suvda yashovchi meduzalarda ko'rishimiz mumkin (5-rasm).

Keyinchalik evolutsion taraqqiyot davomida ko'p markazli nerv sistemasiga ega bo'lgan organizmlar paydo bo'ldi. Maysalan: tugunchasimon markazlarga ega nerv sistemasini asalarilarda, yomg'ir chuvalchanglarida ko'rishimiz mumkin. Ana shu tariqa organizmlarning nerv sistemalari murakkablashgan sari, ularning tashqi olamni aks ettirish qobiliyatlari ham tobora mu-

rakkablashib bordi. Evolutsion taraqqiyot davomida psixikaning eng sodda ko‘rinishidan inson ongigacha taraqqiyoti bir qancha bosqichlardan iborat.



**7-rasm.** Gidro meduza, chuvalchang va asalarining nerv sistemasi.



Ana shu bosqichlardan so‘ng psixik taraqqiyotning eng yuksak formasi bo‘lgan inson ongi maydonga keldi.

### *Hayvonot olamidagi aqliy harakatlar*

Harakatning **instinkтив** shakli ana shunday muhitga moslashuvining alohida shakllaridandir. Biz ayrim organizmlarning hasharotlarning, qushlarning xatti-harakatlari, qiliqlarini ku-zatadigan bo‘lsak, ularning harakatlari go‘yoki ongli harakat-dek bo‘lib ko‘rinadi. Masalan: oddiy cho‘l chumolilarining yoki termit deb ataluvchi chumolilarining «jamoa» bo‘lib yashashlari, qishga ovqat g‘amlashlari, asalarilarning kollektiv bo‘lib yashashlari, asal to‘plashlarini Karl Fon Frish tadqiqotlarida ko‘rish mumkin. K. Frish asalarilarda bir-birlariga informatsiya, ya’ni ma’lumot berish qobiliyati borligini aniqlagan. Ma’lum bo‘lishicha, asalarilar qayerda ko‘proq shira (asal) borligi haqida bir-birlariga ma’lumot berar ekanlar, bunday ma’lumotlar qandaydir bir uslubda raqsga tushish orqali beriladi. Asalarilarning instinktlari nihoyatda murakkab bo‘lishidan qat’i nazar bunday harakatlarda ong yo‘qligi juda osonlik bilan isbot qilingan. Ishchi asalarilarning asosiy vazifasi gullardan shira yig‘ib, mumdan yasalgan indagi kataklarga solib to‘ldirishdan iborat. Asal bilan to‘ldirilgan kataklar yupqa qobiq bilan suvab berkitib qo‘yiladi. Agar asalarilar inining (kataklarning) tagi qirqib teshib qo‘yilsa, buni ular mutlaqo sezmaydi va bir necha oylar mobaynida tagi teshik katakka shira olib kelib to‘kaveradi. Bunda nima sababdan katakning shiraga to‘lmayotganligini tekshirib ko‘rish na ishchi arining va na ona arining «xayoliga» kelmaydi. Mana shundan ko‘rinib turibdiki, asalarilarning tashqaridan go‘yo onglidek bo‘lib ko‘ringan murakkab instinkтив harakatlarida mutlaqo ong bo‘lmaydi.

Rus zoopsixologiyasining asoschisi V.A. Vagner (1849–1934) hasharotlar va qushlarning instinkтив harakatlarini o‘rganib, bunday harakatlarda tabiiy maqsadga muvofiqlik borligini, lekin biron maqsadga qaratilgan ongning yo‘qligini eksperimental faktlar asosida ko‘rsatib bergen. Masalan, oddiy o‘rgimchaklar isdan to‘qilgan to‘rga o‘xshagan in yasab, isga pashsha yoki biron boshqa hasharot ilinishini bir chekkada poylab o‘tiradilar.

Isga pashsha qo'ngach, is tebranadi. Shu ondayoq o'rgimchak yugurib kelib, isga qo'ngan pashshani is bilan o'rab, qocha olmaydigan holatga keltiradi. V.A. Vagner bunday instinktiv harakatda mutlaqo ong yo'qligini ko'rsatish uchun shunday tajriba o'tkazgan. Isdan to'rsimon in qurib, pashshaning qo'nishini poylab turgan o'rgimchakning oldiga isni tebratmay, pashsha qo'yib qo'yilsa, o'rgimchak bu tayyor pashshaga hech qanday reaksiya qilmagan. O'rgimchakning instinktiv harakati uchun isning tebranishi (vibratsiyasi) zarur bo'lgan. V.A. Vagner qushlar ustida ham juda ajoyib tajriba o'tkazgan. Shimoliy muz okeanidagi orollarda millionlab qushlar bahor paytida in qurib, tuxumdan bola ochadilar. Gagarka qushining inidan tuxumini olib, sal nariroqqa (xuddi tumshug'ining tagiga) surib qo'yib, tuxumning o'rniga xuddi tuxumga o'xhash oq tosh qo'yib qo'yan. Gagarka qushi o'zining tuxumiga (tumshug'i ostidagi) qarab, toshni bosib yotavergan. Boshqa qo'shni indagi qushlarning bolasi tuxumdan ochilib, katta bo'lib qolgan. Ammo gagarka qushi hamon toshni bosib yotavergan.

Go'yo ongli harakatlardek bo'lib ko'rindigan bunday harakatlar ongli bo'lmay, balki instinktiv harakatlardir. Instinktiv harakat deganda biz hayvonlarga tug'ma yo'l bilan (shartsiz reflekslar) va ularning tashqi olamga muvofiqlashuvini ta'minlaydigan harakatlar shaklini tushunamiz. Instinkt tushunchasi psixologiyaga birinchi marta Ch. Darwin tomonidan kiritilgan bo'lib, bizga hayvonlarning juda ko'p murakkab harakatlari va qiliqlarini ilmiy tarzda tushunish imkonini beradi. Instinkt tushunchasining psixologik va fiziologik mexanizmlari mashhur rus fiziolog akademik I.P. Pavlov tomonidan tushuntirib berildi. Demak, hayvonlarning instinktiv harakatlarini 4 guruhg'a bo'lish mumkin:

1. *Ovqatlanish instinkti* – o'zi va o'z bolasi uchun ovqat qidirib topish, g'amlash harakatlari.

2. *Himoyalanish instinkti* – o'zini himoya qilish, dushmaniga hujum qilishda ko'rindigi. Har bir hayvon o'zining bironta organidan foydalananadi. Masalan: afrika kobrasi o'z zaharini 3,5 metr masofaga ota oladi.

3. *Nasl goldirish instinkti* – bu ota-onalik instinkti sifatida ko'rinish ma'lum vaqtgacha bolalariga g'amxo'rlik qiladi.

4. *To'da bo'lib yashash instinkti* – turli xil shaklda birlashib poda-poda, gala bo'lib yashashlarida ko'rindi.

Evolutsion taraqqiyot davomida murakkab taraqqiy etgan hayvonlarda, ya'ni umurtqa suyakli va sut emizuvchi hayvonlarda harakatning individual shakllari yuzaga keldi. Har bir organizm o'zicha individual hayot kechiradi va tashqi olamda ma'lum muddat davomida yashaydi. Vaholanki, hayvonlar olamda bir xilda umr ko'rmas ekanlar, ularning necha yoshga kirishlariga qarab individual hayotlarida harakatning turli xil individual shakllari yuzaga keladi. Demak, hayvonlar harakatning individual shakllarini o'zlarining individual hayotlari mobaynida egallab boradilar. Harakatning individual shakllari xuddi harakatning instiktiv shakllari kabi hayvonlarning doimo o'zgarib turuvchi tashqi muhitga moslashuvini ta'minlovchi mexanizmlardandir. Bu harakatlar hayvonlarda paydo bo'ladigan shartli reflekslar bilan bog'liqdir. Hayvonlar harakatning individual shaklini o'z hayotlari davomida egallab boradilar. Harakatning individual shakllari asosida hayvonlarda turli-tuman ko'nikmalar yuzaga keladi. Bunday olib qarasak bu ko'nikmalar dressirovkadan boshqa narsa emas (mas. o'rgatilgan it, mushuk va boshqa hayvonlarning harakatlari). Tabiiy hayot sharoitlarida ham ko'nikmalar hosil qilinadi. Masalan, xo'roz o'n yil, qarg'a esa yuz yilga yaqin yashaydi. Albatta, qarg'a uzoq hayoti davomida juda ko'p narsalarga, vaziyatlarga to'qnash keladi va murakkab ko'nikmalarni tabiiy sharoitda yuzaga keltiradi. Xo'roz bilan qarg'a ustida shunday bir tajriba o'tkazilgan: qorni och xo'rozga kichik bir ariq bo'yida jo'xori tashlab borilgan. Xo'roz har bir jo'xorini birma-bir terib yeb kelavergan. Jo'xori donlari ariqchadagi suvga ham tashlangan. Xo'roz suvdan tutib olib yeb kelavergan. Ariqdagi suv ikki metrlar chamasi uzunlikdagi quvurga kirib, quvurning narigi tomonidan chiqib ketgan. Ariqchadagi suvga tashlangan jo'xori donlari suv bilan quvurga kirib ketganda xo'roz «hayron» bo'lib, donni qidirmay, orqasiga qarab ketavergan. Xuddi shu tajriba qarg'a bilan o'tkazilganda, qarg'a jo'xori doni quvurga kirib ketishi bilan quvurning narigi boshiga borib, don oqib kelishini poylab turgan va don quvurdan chiqishi bilan tutib olib yegan. Demak, qarg'a tabiiy hayot jarayonida bunday vaziyatga ko'p martalab duch kel-

gan va unda murakkab ko‘nikma hosil bo‘lgan. Harakatning individual shakllari yoki ko‘nikmalar bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab harakatlarga ko‘plab misollar keltirish mumkin.


Evolutsion taraqqiyotning yuksak bosqichidagi ayrim hayvonlarda harakatning **intellektual** shakli paydo bo‘ldi. Bu yuksak taraqqiyotga erishgan maymunlar, itlar va delfinlardagi odam ongiga o‘xhash farosat bilan bog‘liq bo‘lgan xatti-harakat shakllaridir. Harakatning intellektual shakli ham hayvonlarning tashqi olamga muvofiqlashuvidan iboratdir. Harakatning intellektual shakliga ega bo‘lgan hayvonlar ma’lum vaziyatda bir qadar farosat bilan bog‘liq muammolarni, masalalarni hal qila oladilar. Lekin yuksak taraqqiyotga erishgan hayvonlarning intellektual harakatlari odamning ongli harakatlaridan keskin farq qiladi.

Odamsimon maymunlar ustida o‘tkazilgan tajribalardan E.G. Vatsuroning «Rafael» ismli shimpanze maymuni bilan o‘tkazgan tajribalari juda ibratlidir. E.G. Vatsuro maymunlarda ong, tafakkur yo‘qligini, ular o‘rtasidagi munosabatlarni anglay olmasligini isbotlab bergen. Ularda farosat uchqunlari bor xolos.

E.G. Vatsuro maymunlarda ong, tafakkur yo‘qligini, ular narsalar o‘rtasidagi munosabatlarni anglay olmasliklarini isbotlab bergen. U Rafael ismli shimpanze maymuni bilan shunday tajriba o‘tkazgan. Unchalik katta bo‘lmagan bir ko‘lga ikkita sol yasatgan. Sollardan biriga suv to‘ldirilgan bak va bakning ustiga bitta bo‘sh shisha banka qo‘yib qo‘yilgan. Bakdan nariroqda maxsus apparatda olov yonib turgan va olovning tagida apelsin ko‘rinib turgan. Shimpanze maymuni qayiqda solga olib kelingan. Maymunning qorni och bo‘lgan. Uning ko‘zi oldida bakdan bankaga suv olib olovga sepib o‘chirilgan va maymun darhol apelsinni olib yegan.

Ana shu tajriba ikkinchi marta takrorlanganda, maymunning o‘zi bakdan bankaga suv olib, olovni o‘chirgan va apelsinni olib yegan. Bundan keyingi tajriba birmuncha murakkablashtirilgan. Endi bak bilan banka qo‘yilgan solga olov yoqilgan apparat qo‘yilmay, balki apparat boshqa solga qo‘yilgan. Sollarning birbiridan uzoqligi 3–4 metrlar chamasida bo‘lgan. Bak qo‘yilgan solga bitta uzun bambuk yog‘och tashlab qo‘yilgan. Maymun odatdagidek kelib, bakdan bankaga suv quyib olgan, ammo olov narigi solda ancha uzoqda yonib turganini ko‘rgan. Qo‘lida suv

quyilgan bankani ushlab, bambukni ikkinchi solga ko‘prik qilib qo‘ymoqchi bo‘lgan. Bankani qo‘lidan oyog‘iga, oyog‘idan qo‘liga olib, bir amallab bambukni ikkinchi solga ko‘prik qilib qo‘ygan. Undan so‘ng bambukdan darboz bo‘lib, ikkinchi solga o‘ta bosh-lagan. Bambuk qimirlab ketib, qo‘lidagi suv to‘kilib ketgan. U bak qo‘yilgan solga qaytib kelib, bakdan bankaga suv olib, yana bambukdan ikkinchi solga o‘tib, bir amallab olovni o‘chirgan va apelsinni olib yegan.




**8-rasm.** Maymunlarning intellektual harakatlari.

Bu tajribada shu narsa xarakterlikи, maymun bakdan bankaga suv olib, soldan solga o'tib (suv to'kilib ketib) qiynalib olgan. Ammo soldagi olovni ko'ldan qo'li bilan suv olib o'chirishi ham mumkinligiga uning «aqli» yetmagan. Demak, odamsimon shimpanze maymunlarida ham odamdagiga o'xshagan ong, aql yo'q. Shimpanze maymunining soldan solga bambukni ko'priq qilib o'tishga «aqli» yetdi, lekin hamma suv ham bir xil xususiyatga ega ekanligiga aqli yetmadи.

G.Z. Roginskiy shimpanze maymuni ustida shunday tajriba o'tkazgan: maymun oldiga turli tomonga qaratib bir necha uzun arqonlar tashlab qo'yilgan. Ana shu bir xildagi arqonlardan ba'zilarining uchiga apelsin yoki banan bog'lab qo'yilgan. Maymun o'z oldiga tashlab qo'yilgan bir xildagi arqonlarni ushlab ko'rgandan so'ng, hech bir yanglishmay uchiga apelsin yoki banan bog'lab qo'yilgan arqonlarni ajratib tortib olgan.

N.N. Ladigina-Kotsning tekshirishlari shimpanzedan boshlang'ich abstraksiya qobiliyatları borligini ko'rsatadi. Maymun o'zi idrok qiladigan narsaning rangi, shakli va hajmidan ajrata ola-di, unda murakkab tanlash qobiliyati bor. Tajribalarda shimpanze maymuni geometrik shakllarni rangi va turiga qarab ajrata olgani isbotlangan.



9-rasm. Shimpanzening geometrik shakllarni ajratishi.

Nemis fiziologi M. Tideman delfin miyasining faoliyatiga odam va orangutandan keyingi o'rinni beradi. Delfinning miya og'irligi 1700 gramm, miyaning po'stloq qismi esa odam miyasi po'stlog'iga nisbatan ikki baravar ko'pdir. Olimlarning kuzatishlari shuni ko'rsatdi-ki, delfin katta tezlikda idrok qilish va fikrlash qobiliyatiga ega. Delfin miyasi faoliyatini kibernetik tekshirishlar orqaligina o'rganish mumkin. Shveysariyalik professor A. Portmannin tadqiqotlarida odam va hayvonlar intellekt darajasini o'rganadi va bunda odam 215 ball, delfin 190 ball, fil va maymun keyingi o'rirlarni egallagan.

Yuksak taraqqiyotga erishgan hayvonlarning intellektual harakatlari xuddi instinkтив va individual harakat shakllari kabi tashqi muhitga moslashish usullaridan biri bo'lib, bu harakatlar ham ongli bo'lmaydi. I.P. Pavlovning fikricha: «...maymunning goh uni, goh buni qo'liga olib qilayotgan barcha ish-harakatlari, ish-harakatda namoyon bo'lgan tafakkurdir. Bu qisman avval hosil qilingan, hozir ko'z o'ngingizda hosil bo'layotgan, bir-biriga qo'shilayotgan assotsiatsiyalardir. Albatta, bu fahm eng elementar fahmdir...» Inson ongi evolutsion taraqqiyotning so'nggi bosqichi bo'lib hisoblanadi.

## ONG

Intellectual  
Ko'nikma  
Instinct  
Qo'zg'aluvchanlik  
Ta'sirlanuvchanlik



Maymundagi taqlidiy harakat.

### **Nazorat savollari:**

1. Evolutsion taraqqiyot deganda nimani tushunasiz?
2. Instinkt nima?
3. Ko'nikma nima? Misollar keltiring.
4. Hayvonlardagi aqliy harakatlarga xarakteristika bering.

## *Inson ongining rivojlanishi*

**Ong tushunchasi.** Inson ongi insonning o‘zi bilan birga, deyarli bir vaqtida maydonga kelgan. Ong – psixikaning yuksak shakli, insonning yakka va hamkorlik faoliyatida, muloqoti jaryonida shakkllanadigan ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsulidir. Ong shaxsning tevarak-atrofdagi narsalarni, hozirgi va o‘tmish davrini yaxshi bilishi, o‘zlikni anglash, qaror qabul qilish, vaziyatga qarab o‘z xatti-harakatini boshqarish qobiliyati bilan namoyon bo‘ladi.

Odam psixikasi hayvon psixikasidan farq qiladi. Inson psixikasining hayvon psixikasidan sifat ayirmasi:

1. Inson o‘z mohiyati jihatidan azaldan boshlab ijtimoiy mavjudoddir.
2. Inson psixikasining eng oliv formasi uning ongga egaligidir. Inson ongli mavjudod.
3. Insonning hayvondan eng muhim sifat ayirmasi birinchi signallar sistemasi bilan bir qatorda ikkinchi signallar sistemasining mavjudligi, ya’ni voqelikni so‘zlar orqali aks ettirishi hamda nutq va tafakkurga egaligidir.

Odam o‘z hayotidagi ko‘p narsalarni so‘z orqali aks ettiradi, hayvonning esa butun psixik faoliyati birinchi signallar sistemasi asosida vujudga keladi. Ikkinchi signallar sistemasining signalari talaffuz etilgan, eshitilgan so‘zlardan iborat. Agar so‘z ma’nosи tushunarli bo‘lsa odamning xatti-harakatlarini boshqaradi, tevarak-atrofdagi muhitga muvofiqlashuviga yordam beradi. Agar so‘z ma’nosи odamga tushunarsiz bo‘lsa u faqat birinchi signallar tarzida ta’sir qiladi yoki odam uchun ahamiyatsiz narsa bo‘lib qolaveradi.

Inson ongi o‘z mohiyatiga ko‘ra hayvonlarning individual va intellektual shakllaridan batamom boshqa hodisadir. Inson ongi evolutsion harakatning eng so‘nggi bosqichi bo‘lib, inson taraqqiyoti bosqichida ijtimoiy taraqqiyot tufayli tarkib topgan. Inson ongi yer yuzidagi barcha mavjudodlarning eng oliysi va gultojidir. Har bir ijtimoiy davrning o‘ziga xos kuchlari va ijtimoiy munosabatlariga mos keladigan ongi bo‘lgan. Masalan, quldorlik davrida xususiy mulkchilik munosabatlari kelib chiqib, sinflar paydo bo‘lgach odam ongi ham sinfiy xarakterga ega bo‘la borgan.

Har bir tarixiy davrda yuzaga kelgan ijtimoiy o'zgarishlar natijasida odamning ongi ham o'zgarib borgan. Tarixiy tarakkurning ma'lum bosqichida ilmiy tafakkur va ong tarkib topgan. Tevarak-atrofdagi voqelik ana shu ilmiy tafakkur yordamida to'laroq va chuqurroq aks ettirilgan. Natijada odam hodisalar o'rtasidagi muhim aloqa va munosabatlarni, qonunlarni ong va tafakkur yordamida bilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Endilikda odamning ongi bilan idora qilinadigan faoliyati faqat oddiy ish qurollari, kiyim-kechak, turar joyinigina yaratib qolmay, balki fan-texnikani ham yaratdi va yuqori darajada rivojlantirdi. Ming yillar davomida to'xtovsiz davom etgan amaliy mehnat odamning qo'llarini rivojlantirib bordi. Mehnat inson qo'lini kamolotining shunday yuksak bosqichiga aylantirdiki, bu bosqichda qo'l sehri va kuchi bilan Leonardo da Vinchi, Rafael, Rembrandt, Repin, Surikov va boshqa rassomlarning asarlari yaratildi. Ong kishining mehnat faoliyatida, boshqalar bilan doimiy muloqot qilish jarayonida shakllanadi, ong ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar natijasi hisoblanadi.

**Ongning tuzilishi va ta'riflari.** Ongning tuzilishi, uning muhim psixologik ta'riflari qanday?

**Ongning birinchi ta'rifi** nomining o'zidayoq berilgan bo'lib, ong – anglash demakdir. Kishining ongi tevarak-atrofni qurshab turgan olam haqidagi bilimlar majmuasidan tashkil topadi. Ongning tuzilishiga muhim bilish jarayonlari kiradi-ki, ular yordamida odam o'z bilimlarini doimo boyitib boradi. Bu jarayonlar qatoriga sezgi, idrok va xotirani, xayol va tafakkurni qo'shish mumkin. Sezgilar va idrok yordamida sezgiga ta'sir etadigan hodisalarni bevosita aks ettirish natijasida inson ongida ayni chog'da qanday aks etib turgan bo'lsa, tashqi olamning xuddi shunday hissiy tasviri hosil bo'ladi. Xotira ongda o'tmis obrazlarini qanday gavdalantirsa, xayol ehtiyoj obyekti bo'lgan ammo hozirgi paytda yo'q narsaning obrazini hosil qiladi. Tafakkur umumlashgan bilimlardan foydalanishni yoki masalani hal etishni ta'minlaydi. Aytib o'tilgan psixik jarayonlardan birortasining buzilishi yoki izdan chiqishi ongning barbod bo'lishiga olib keladi.

**Ongning ikkinchi ta'rifi** subyekt bilan obyekt o'rtasidagi aniq farqlanishda o'z aksini topishi, ya'ni odam «men» degan tushunchaga bilan «men emas» degan tushunchaga nima tegishli


ekanligini bilib boradi. Subyekt faqat o‘zimning fikrimdir, «men emas» degan tushuncha bilan atrofdagilarning obyekt ekanligini anglaydi. Odam o‘ziga, xulq-atvoriga, harakatlariga ongli ravishda baho beradi. «Men»ning «men emas»dan ajratilishi har bir kishining bolaligida boshidan kechirgan yo‘li bo‘lib, o‘zini-o‘zi anglash jarayonida yuz beradi.

**Ongning uchinchi ta’rifi** odamning maqsadni ko‘zlovchi faoliyatidir. Faoliyat maqsadlarini yaratish ongning funksiyasiga kiradi. Bunda faoliyat motivlari yuzaga keladi va chamarlab chiqiladi, irodaviy qarorlar qabul qilinadi, harakatlarni bajarishning qanday borishi hisobga olinadi, tegishli tuzatishlar kiritiladi. Kishi tabiat tomonidan berilgan narsaning formasini o‘zgartirish bilan cheklanmaydi balki o‘zining ongli maqsadini ham amalga oshiradi, bu maqsad qonun sifatida kishining ish usulini va bu ishning xarakterini belgilab beradi va kishi o‘z irodasini ana shu maqsadga bo‘ysundiradi. Kasallik oqibatida yuz bergen har qanday buzilishga ongning buzilganligi deb qaraladi.

**Ongning to‘rtinchi ta’rifi** uning tarkibiga muayyan munosabatlarning kirganligidir. Rang-barang his-tuyg‘ular olami odam ongining tarkibiga kiradi. Unda murakkab obyektiv va odamning o‘zi ham jalb etilgan ijtimoiy munosabatlar o‘z aksini topadi. Bu o‘rinda ham, boshqa ko‘pgina hollarda bo‘lgani kabi patalogiya normal ongning mohiyatini yaxshiroq anglab olishga yordam beradi. Turli xususiyatli munosabatlar ong nazoratida amalga oshirilsa, shaxs xulq-atvorida, faoliyatida va muomala jarayonida, hech qanday nuqsonlar, chetga og‘ishlar sodir bo‘lmaydi. Ongning zaiflashuvi esa shaxsning his-tuyg‘ulari va munosabatlarini o‘zgartiradi, masalan, quvonch qayg‘u bilan, optimizm pessimizm bilan vaqtı-vaqtı bilan o‘rin almashib turishi kuzatiladi. Ayrim ruhiy kasalliklarga chalinganda ongning buzilganligi aynan his-tuyg‘ular va munosabatlardagi buzilish bilan belgilanadi, bemor bunga qadar behad sevgan onasini suymaydigan bo‘lib qoladi, yaqin kishilari to‘g‘risida zarda bilan gapiradi va hokazo. Demak, shaxslararo munosabatlar natijasida vujudga keluvchi emotsiyonal baholar inson ongida o‘z ifodasini topadi.

Psixikaning quyi darajasi ongsizlikdir. Ongsizlik odam ongiga borib yetmaydigan psixik jarayonlar, xususiyatlar va holat-

lardir. Bunday hodisalarga **ong osti holatlari** deyiladi. Shaxsdagi ongsizlik holatlari kishining o‘zi anglamagan holda qiziqishi va ehtiyojlarini bajarishga intilishdir. Jumladan tush ko‘rish, shirin xayol, orzu kabilar kishining ixtiyorsiz xulq-atvorida namoyon bo‘ladi.



Odamda ong asta-sekin rivojlana boradi. Yangi tug‘ilgan bolada ong bo‘lmaydi, lekin u ruhan va jismonan taraqqiy etgan sari

rivojiana boradi va takomillashadi. Ongga yuqori darajali izchilik xosdir. U doim jadalligi, chuqurligi va kengligi bilan boshqa bilish jarayonlaridan farq qiladi. Odam hayotining turli davrlarida, o'smirlik, o'rta yosh, qarilik chog'ida ong turli ko'rinishda bo'lsa-da, u bir butundir.

Yuqorida aytib o'tganimizdek bilimsiz ong bo'lmaydi, lekin ong va bilim bir xil ibora emas. Bilimlar har doim xotirada to'plansada, lekin hamma vaqt ham ongda aks etavermaydi. Bu yerda quyidagi qiyosni keltiramiz. Kishida xotira izlari, ya'ni o'tgan hayot izlari miya hujayralarida saqlanar ekan, ularni ko'p sonli elektr chiroqlariga o'xshatish mumkin. «Ularning bir qismi yoqilganda tegishli obyektlar va kechinmalar ong nuri bilan yoritiladi». Biz bilamizki bilimlar yaxshi va puxta bo'lganda ham ong buzilishi mumkin. Xotira, fikrlash kabi odamning boshqa fazilatlariga baho berishda ongning ravshanligiga ishonch hosil qilish kerak. Shunday ekan, ongga o'zini-o'zi anglash, «men» ongi kiradi. «Men» degan ong odatda bizdan yo'qolmaydi va ancha yaqqol ifodalangan bo'ladi.

Ongda doimo turgan joyimiz va vaqt aks etib turadi. Es-hushi joyida bo'lgan odam hamma vaqt qayerdaligini angraydi, soat nechaligini hech bo'lmaganda taxminan ayta oladi. O'z tanasini his qilish ham ong funksiyasiga kiradi. Odam tanasi faqat tashqi olamdan (ko'rvu, eshituv, hid bilish)dan emas, balki tanasining ichki a'zolaridan ham ta'sirot yetkazuvchi retseptorlar orqali ma'lumot olib turadi, lekin ular ongda aks etmaydi. Tashqi olamdan axborot olish va o'zini-o'zi anglash doimo ongda aks etib turadi. Ana shu jarayonlar natijasida odam o'z his-tuyg'ulari, sezgilari, xohishlari, ehtiyojlarini atrof-olam vaziyatlari bilan taqqoslaydi. Bu ongning eng muhim funksiyasidir. Psixofiziologlar ongga bosh miya po'stlog'ining funksiyasi deb ta'rif berishadi. Ularning fikricha, bosh miya po'stlog'i va birinchi galda ikkinchi signal sistemasi ong uchun, uning rivojlanishi hamda saqlanib qolishi uchun hal etuvchi o'rinn tutadi. Ikkinci signal sistemasi ongga xos bo'lgan o'z-o'ziga hisobot berishni ta'minlasa, ong faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan po'stloqning tetiklik holati retikular formatsiyaning faoliyati bilan uzlusiz bog'langandir.

Ongsizlik holatlarini atroflicha tushuntirib berishda psixoanalizdan foydalaniladi. Z. Freyd yaratgan psixoanaliz to'g'risidagi

nazariya inson ruhini bir muz tog‘iga qiyoslaydiki, go‘yo uning ustki, oltidan bir qismi ong bo‘lsa, suv ostida ko‘rinmay yotgan oltidan besh qismi – ong ostidagi jarayonlardir, ya’ni ongsizlikdir. Z. Freyd «yashirinib» yotgan psixologik jarayonlarni ongsiz jarayonlar deb ataydi. Rus psixologlari bu holatni turli atamalar bilan ta’riflashadi: ongsizlik (бессознательное), ongostlilik (подсознательное), ong osti (подсознание). Ba’zi o‘zbek psixologlari «ongostlilik» degan atamani ma’qul ko‘rishadi. Shunday qilib, hanuzgacha fanda katta shov-shuvlarga sababchi bo‘lib kelayotgan va mohiyati to’laligicha o‘rganilmagan ushbu noaniq psixologik jarayonlarning atamasi ham noaniq bo‘lib qolmoqda. Bu atamalarning ma’nosini o‘zgartirmagan holda biz «ongsizlik» va «ong ostidagi ong» degan atamalardan foydalanamiz.

Ongsizlik bu shunday holatki, bunda odam ixtiyorsiz tarzda, o‘zi bilmasdan yoki anglamasdan turli xatti-harakatlarni amalga oshiradi. Ongsizlik holatida voqealikning fakti va o‘rnini mo‘jal qilish yaxlitligi yo‘qoladi, xatti-harakatning nutq yordamida boshqarilishi buziladi, kishi o‘z harakatlarini nazorat qila olmaydi, natijasini ham baholay olmaydi. Ongsizlikka quyidagi psixik hodisalarni kiritish mumkun: uyqu holatidagi psixik hodisalar (tush ko‘rish), sezilmaydigan, ilgari ongli bo‘lib, keyin takrorlanaverishi natijasida avtomatlashib ketgan, anglanilmaydigan harakatlar, faoliyatga undovchi, ammo maqsad anglanmaydigan mayllar, kasal odam psixikasida yuzaga keladigan ayrim patologik holatlar (shaytonlash, alahsirash, ko‘zga yo‘q narsalarning ko‘rinishi).

Ongsizlikni ongga qarama-qarshi deb hisoblash, uni hayvonlar psixikasiga tenglashtirish noto‘g‘ridir, ongsizlik kishi hayotining shart-sharoitlari bilan bog‘liqdir. Ongsizlik kishining xuddi ong kabi o‘ziga xos psixik qiyofasidirki, u kishi miyasida borliqning yetarli darajada bir xil bo‘lmagan qismlar aksi tarzida, inson hayotining ijtimoiy shart-sharoitlari bilan bog‘liq holda paydo bo‘lgandir.

### **Nazorat savollari:**

1. Ong nima?
2. Ong tuzilishiga qaysi bilish jarayonlari kiradi?
3. Ongning qanday ta’riflari bor?
4. Ongsizlik nima?

## **II bob. SHAXS VA FAOLIYAT**

### **2.1. Shaxs psixologiyasi**

«Shaxs» tushunchasi psixologiyada eng ko‘p qo‘llaniladigan tushunchalar sirasiga kiradi. Psixologiya o‘rganadigan barcha tarmoqlar aynan shu tushuncha atrofida qayd etiladi. Inson psixologiyasi bilan qiziqqan har qanday olim yoki tadqiqotchi shaxsning jamiyat bilan aloqasini chetlab o‘tolmagan. Abu Nasr Farobiy, A. Navoiy, Ibn Sino, Beruniy kabi yuzlab sharq alomalari ham bu o‘zaro bog‘liqlikning falsafiy va ijtimoiy sirlarini ochishga o‘zlarining eng durdona asarlarini bag‘ishlagan.

Har bir odam konkret shaxs sifatida odamlar qurshovida yashaydi, ma’lum guruh yoki jamoa qurshovida bo‘ladi. Guruh va jamoalar doim o‘zgarib turadi. Shaxs esa ana shu o‘zgarishlarga moslashib shu guruhdagi murakkab munosabatlarga kirishishi kerak. Shaxs ijtimoiy mavjudod bo‘lib odamlardan alohida yashay olmaydi.

Odam bolasi individ sifatida dunyoga keladi, o‘z hayotini davom ettirish uchun tug‘ma, shartsiz reflekslarga, nerv sistemasining tiplariga ega bo‘ladi. Keyinchalik shu reflekslar asosida ma’lum munosabatlarga kirisha boshlaydi. Biz katta yoshdagagi odamni ham, chaqaloqni ham, tilni va oddiy malakani egallay olmaydigan telbani ham individ deymiz. Individ qachonki jamiyatga foydasi tegadigan bo‘lib, odamlar bilan ongli munosabatda bo‘lgandagina shaxs bo‘la oladi.

Shaxs ijtimoiy munosabatlar yig‘indisidir. Odam bolasi tug‘ilishidanoq ma’lum biologik belgilarga ega bo‘lib, u ijtimoiy tajriba orttirish jarayonida shaxs bo‘lib shakllana boshlaydi. Shaxs ma’lum jamiyatning a‘zosi bo‘lib, shu jamiyat a‘zolari bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishadigan konkret insondir. Keling chiqishi jihatidan ijtimoiy bo‘lgan, o‘z e’tiqodiga, qarashlariga, munosabatlariga, baholariga ega bo‘lgan subyekt **shaxs** deb ataladi. Odam ijtimoiy jamiyatda, konkret odamlar bilan ijtimoiy munosabatlar jarayonida shaxs sifatida tarkib topa boshlaydi. Har bir kishining shaxsi uning individualigini vujudga keltiradigan xislatlar va fazilatlar birikuvidan tarkib topadi. In-

dividuallik kishining o‘ziga xosligini, uning boshqa odamlardan farqini aks ettiruvchi psixologik fazilatlar birikmasidir. Individuallik temperament va xarakter xususiyatlarda, odatlarda, us-tun darajadagi qiziqishlarda bilish jarayonlariga oid fazilatlar (idrok, xotira, tafakkur, tasavvurlar)da, qobiliyatlarda, faoliyatning shaxsga xos uslubida va hokazolarda namoyon bo‘ladi. Zikr etilgan psixologik xususiyatlarning bir xildagi birikmasini o‘zida mujassamlashtirgan inson shaxsi o‘z individualligi jihatidan betakrordir.

**Individ va individuallik.** «Individ» va «shaxs» tushunchalari bir-biriga o‘xshash bo‘lmagani singari, o‘z navbatida, shaxs va individuallik ham birlikni tashkil etadi, lekin ular bir-biriga o‘xshash emasdir. Kishining katta sonlarni «ichida» juda tez qo‘sha olish va ko‘paytirishi kabi qobiliyati, epchilligi va qat’iyatliligi, o‘ychanligi va tirnoqlarini tishlash odati, bo‘lar-bo‘lmasga ku-laverishi va boshqa xislatlari uning individualligi belgisi sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan: epchillik va qat’iylik o‘spirinning individualligi belgilari bo‘lib, jumladan, u sportda tuman birinchiligiga da‘vogar komandaga qo‘silmagunga qadar, uzoq joy-larga turistik sayohat paytida u tez oqar va muzdek daryodan kechib o‘tishini ta’minalash vazifasini o‘z zimmasiga olmagunga qadar uning shaxsini ta’riflaydigan belgi sifatida yuzaga chiqmasdan keladi. Kishining individual xususiyatlari ularga shaxs sifatida mazkur kishi subyekt hisoblangan shaxslararo munosabatlar sistemasida zarurat tug‘ilguncha ma’lum vaqtga qadar «soqov»ligicha qolib ketadi. Shunday qilib individuallik inson shaxsiga xos fazilatlarning faqat bitta jihatni bo‘lib hisoblanadi, xolos. Aynan shu sababli ham, pedagog uchun ahamiyatlari bo‘lgan o‘quvchiga individual yondashishni amalga oshirish vazifasini ajratib ko‘rsatish kerak. Bu esa o‘quvchining psixologik xususiyatlarni hisobga olishni, yoki o‘qituvchining o‘z tengdoshlari dan nimasi bilan farq qilishi va shu munosabat bilan tarbiyaviy ishni qanday tashkil qilish kerakligini aniqlashni taqozo etadi. O‘quvchining haqiqiy munosabatlar sistemasiga kiradigan shaxsi hamisha pedagogning diqqat markazida turishi, o‘quvchilarning ma’naviy dunyosini boyitish pedagogning doimiy vazifasi bo‘lib qolishi kerak.

**Shaxsnинг тузилиши.** Psixologiyada ikkita omil – biologik va ijtimoiy omillar ta’sirida shakllangan ikki asosiy kichik strukturna borligi ta’kidlanadi. Inson shaxsining o’zi «endopsixik va ekzopsixik» tuzilishga bo’linadi. Endopsixika ichki psixik holadir. Biologik jihat bilan bog‘liq bo‘lib, kishining nerv psixik tuzilishiga o‘xhash inson shaxsining ichki mexanizmlari kabi psixik qismlar va funksiyalarning o‘zaro ichki bog‘liqligini ifodalaydi. Endopsixika moyillik, xotira, tafakkur va xayol xususiyatlari, irodaviy zo‘r berish, tashqi ta’sirlarga beriluvchanlik kabi boshqa xislatlarni o‘z ichiga oladi.

Ekzopsixika tashqi psixik holat bo‘lib, ijtimoiy omil bilan belgilanadi, kishi munosabatlarining tashqi sistemasini va uning tajribasini, ya’ni qiziqishlarini, moyilliklarini, ideallarini, ustun darajadagi his-tuyg‘ularini, shakllangan bilimlari va boshqa belgilarini o‘z ichiga oladi. Biologik xususiyat kishi shaxsining tarkibiga singib, ijtimoiy omilga aylanib qoladi va keyinchalik ijtimoiy shaklda mavjud bo‘ladi.

**Shaxsnинг faolligi va yo‘naltirilganligi.** Odam shaxs sifatida doim qandaydir faoliyatda bo‘ladi va ana shu turli-tuman faoliyatlarda shaxsning faolligi namoyon bo‘ladi. Shaxsning faolligi deganda biz odamning tevarak-atrofidagi tashqi muhitga ko‘rsatadigan ta’sirini tushunamiz. Tashqi muhit bilan faqat odamlargina emas, balki hayvonlar ham o‘zaro munosabatda bo‘ladilar. Lekin bu munosabatlar o‘rtasida keskin farq mavjud. Hayvonlar tevarak-atrofdagi tashqi muhitga passiv ravishda moslashib yashaydilar. Ular o‘z hayot faoliyatlarida tabiatdagi, ya’ni tashqi muhiddagi tayyor narsalardan foydalanadilar. Odam esa, tevarak-atrofidagi tashqi muhitga faol ta’sir qilib, uni o‘z irodasiiga bo‘ysundiradi hamda o‘zgartirib, o‘z ehtiyojlarini qondirishga xizmat qildiradi.

Odam shaxsining faolligi uning turli-tuman ehtiyojlarida, qiziqishlarida, yo‘nalishida, dunyoqarash va ishonch-e’tiqodlarida namoyon bo‘ladi.

#### *Inson ehtiyojlarining qondirilishi*

Jonli mavjudod hayot kechirishning yaqqol shart-sharoitlariga qaramligini ifoda etuvchi va mazkur sharoitlarga nisbatan faol-

ligini namoyon qiluvchi holat **ehtiyoj** deb ataladi. Odamning ehtiyoji unga ta'lim va tarbiya berish jarayonida shakllanadi, ya'ni insoniyat tomonidan yaratilgan ijtimoiy tajriba, ko'nikma, mala-ka, odat, ma'naviyat, qadriyatlar bilan yaqindan tanishish, ularni o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Odam boshqa mavjudodlardan farqli o'laroq, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davrining xususiy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi muayyan buyumni zarurat talabiga binoan qayta o'zgartirishga, takomillashtirishga qodir ongli zotdir. Shu bois odamning o'z ehtiyojlarini qondirish jarayoni ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot darajasi bilan o'lchanadigan faoliyat shakli va turini egallashning faol, muayyan maqsadga yo'naltirilganligi, ma'lum rejaga asoslangan ijodiy ko'rinishi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Ehtiyojlar ijtimoiy va shaxsiy xarakterga ega:

1. Shaxsiy ehtiyojni qondirish uchun ijtimoiy mehnat mahsulidan foydalaniladi (mas. non yeish uchun mehnat qilish kerak).
2. Shaxsiy ehtiyojni qondirish uchun ijtimoiy muhitda tarkib topgan vosita va usullardan foydalaniladi (mas. ovqat pishirish uchun qozon, gaz va hokazolar kerak).
3. Shaxsiy ehtiyojlar o'ziga mansub guruhning ehtiyojlaridan kelib chiqadi (mas. ma'ruzachi guruhga kerak ma'ruzani tayyorlab keladi).

Har qanday shaxsdagi mavjud ehtiyojlarni 2 guruhga bo'lish mumkin:

**1. Biologik ehtiyojlar.** Tabiiy ehtiyojlarda inson faoliyatining faolligi, o'z shaxsiy hayotini himoya qilish, o'z avlodi hayotini saqlash, uni qo'llab-quvvatlash uchun zaruriy shart-sharoitlariga tortilganlik, tobelik aks etadi. Shuningdek, tabiiy ehtiyojlar tarkibiga odamlarning ovqatlanish, tashnalikni qondirish, jinsiy moyillik, uqlash, issiq va sovuqdan saqlanish, musaffo havoga intilish, tana a'zolariga dam berish ham kiradi. Tabiiy ehtiyojlar uzoq vaqt davomida qondirilmasa, oqibatda inson halokatga mahkum bo'ladi, o'z sulolasи hayoti va faoliyatini xavf ostida qoldiradi.

**2. Ijtimoiy ehtiyojlar** bu madaniy, moddiy, ma'naviy, mehnat qilish, bilish, estetik ehtiyojlardir. Ehtiyojlar ikki guruhga

bo‘linishiga qaramasdan shaxsdagi har qanday ehtiyojlar ham ijtimoiylashgan bo‘ladi, ya’ni ular o’sha jamiyat va muhitdagи qadriyatlar, madaniy normalar va insonlararo munosabatlar xarakteriga bog‘liq bo‘ladi (kundalik ovqatlanish, to‘ydagi ovqatlanish).

Madaniy ehtiyojlar, madaniyat to‘g‘risida mulohaza yuritilganda, uning ijtimoiy ildizlari kishilik tarixining dastlabki manbalari bilan uzviy bog‘lanib ketishini ta‘kidlab o‘tish lozim. Lekin tabiiy ehtiyojlar madaniy ehtiyojlar bilan o‘zaro uyg‘unlashgan bo‘lib, birinchisi ikkinchisini taqozo etadi, chunki ular biri-birining negizidan kelib chiqadi. Shu bois madaniy ehtiyojlar obyektiga tabiiy ehtiyojlarni qondiruvchi uy-ro‘zg‘or buyumlari, mehnat faoliyati orqali boshqa kishilar bilan bog‘lanish vositalari, madaniy aloqlar o‘rnatish usullari, shaxslararo muomalaga kirishish uslublari, ijtimoiy turmush zaruriyatiga aylangan narsalar, o‘qish va tajriba orttirish yo‘llari kiradi.

Psixologiya fanida ehtiyojlar o‘z xususiyatiga ko‘ra **moddiy** va **ma’naviy** turlarga ajraladi va ularni keltirib chiqaruvchi mexanizmlar manbai ham turlicha ekanligi e’tirof etiladi. Insonning ovqatlanish, kiyinish, uy-joyga ega bo‘lish, maishiy turmush ashylariga intilish, komfort hissini qondirish bilan bog‘liq madaniy-maishiy buyumlargacha ehtiyoj sezishi moddiy ehtiyojlar majmuasini yuzaga keltiradi. Ma’naviyatni yaratish va o‘zlashtirish, shaxsning o‘z fikr-mulohazalari va his-tuyg‘ulariga binoan boshqa odamlar bilan muomalaga kirishishi hamda axborot almashtirish, badiiy va ilmiy adabiyotlar bilan tanishish, mahalliy matbuotni o‘qish, kino va teatrga borish, musiqa tinglash kabilarga ehtiyoj sezish, ya’ni ijtimoiy ong mahsuliga tobelik ma’naviy ehtiyojlar tizimini yuzaga keltiradi.

Ma’naviy ehtiyojlar moddiy ehtiyojlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, vujudga kelgan ma’naviy ehtiyojlarni qondirish jarayonini moddiy ehtiyojlarning tarkibiga kiruvchi moddiy narsalar yordamida amalga oshiriladi, chunonchi, kitob, yozuv qog‘ozi va boshqalar. Insonda madaniy va ma’naviy ehtiyojlar turmush tajribasining ortishi, bilim saviyasingning kengayishi, maxsus mashqlar egallanishi, ijtimoiy hayot qoidalariga uzlucksiz ravishda rivoja qilishi, narsa va hodisalarga munosabatining o‘zgarishi tufayli rivojlanishi.

boradi. Odam tobora kamolga yetgan sayin uning oldida yangicha talablar ko'ndalang qo'yiladi, ularni bajarish esa ehtiyojning yangi, nisbatan murakkab, mohiyat jihatidan teran xususiyat kasb etuvchi shakllarini vujudga keltiradi, ularning qondirilishi esa tuzilishga ega vositalarni taqozo etadi.

### *Motiv va motivatsiya*

Ehtiyoj asosida odamda faoliyatning motivlari, ya'ni muayyan ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq ichki turtki kuchlar paydo bo'ladi. Shunday qilib, **motiv** odamni faoliyatga undovchi sababdir, maqsad esa odamning nimagadir intilishi, muayyan ishni bajarishidir. Maqsad hamisha ham motiv bilan mos kelavermaydi. Ammo odamning maqsadi faoliyatning motiviga aylangan taqdirdagina muhim omil bo'la oladi. Bunda odamda o'z oldiga qo'yilgan vazifani mumkin qadar yaxshiroq bajarishga intilish paydo bo'ladi. Bu esa uning ehtiyoji bo'lib qoladi.

Bu sistemada maqsadlardan biri eng yaqin, boshqalari olisroq maqsadlar hisoblanadi. Faoliyat motivlari xuddi shu singari eng yaqin yoki qisqa muddatli va olis motivlar bo'ladi. Agar odam faqat qisqa vaqtga mo'ljallangan motivlar bilan ish ko'rsa, uning faoliyati istiqbolga ega bo'imasligi mumkin. Bu esa odamning qiziqishlari cheklanganligidan yoki unda zarur principiallikning yo'qligidan dalolat beradi. Eng yaqin motivlargagini amal qilgan holda ish tutuvchi kishilarning odatda o'z oldilariga qo'yadigan maqsadlari ham yengil bo'ladi. Bu toifa odamlar katta qiyinchiliklarni yengishga odatlanmagan bo'ladi. Olisni ko'zlab ish ko'ruchchi odam yaqin maqsadlarga o'z faoliyatining bosh maqsadiga erishish yo'lidagi zarur bosqich, pog'ona sifatida qaraydi. Qiyinchiliklar bunday odamlarni ishdan voz kechishga unday olmaydi, ayrim muvaffaqiyatsizliklar bunday kishilarning o'z oldilariga qo'ygan vazifalarini amalga oshirishlarini susaytirmaydi, balki kuchaytiradi, xolos.

Faoliyatning amalga oshirish va shaxs xulq-atvorini tushuntirish uchun psixologiyada motiv va motivatsiya tushunchalari ishlataladi. **Motivatsiya** – inson xulq-atvori, ularning bog'lanishi, yo'nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuuni bildiradi. Bu tushuncha u yoki bu shaxs xulqini tu-

shuntirib berish kerak bo‘lganda ishlatiladi. Motiv aniq tushuncha bo‘lib, u shaxsdagi u yoki bu xulq-atvorga nisbatan turli moyillik, hozirlikni tushuntirib beruvchi sababni nazarda tutadi. Motivlar, ya’ni u yoki bu faoliyatni bajarish uchun moyillikni aniqlashda psixolog Kurt Levin ish olib borgan. Inson kayfiyatiga qarab har qanday harakat motivlarini turlicha talqin qilish mumkin.

Amerikalik psixologlarning fikricha shaxs motivining ikki turi mavjud:

- muvaffaqiyatga erishish motivi;
- muvaffaqiyatsizlikdan ochish motivi.

Odamlar ham u yoki bu faoliyatlarga kirishishda qaysi motivga mo‘jal qilishlariga qarab farqlanadilar. Masalan, faqat muvaffaqiyat motivi bilan ishlaydiganlar oldindan ishonch bilan shunday ish boshlaydilar, nima qilib bo‘lsa ham yutuqqa erishish ular uchun oliy maqsad bo‘ladi. Ular hali ishni boshlamay turib, yutuqni kutadilar va shunday ishni amalga oshirishsa, odamlar ularning barcha harakatlarini ma’qullashlarini biladilar. Bu yo‘lda ular nafaqat o‘z kuch va imkoniyatlarini, balki barcha tashqi imkoniyatlaridan – tanish-bilishlar, mablag‘lar kabi omillardan ham foydalanadilar.

Muvaffaqiyatsizlikdan ochish motivatsiyasiga tayangan shaxslarda birinchilardan farqli, ishni boshlashdan avval nima bo‘lsa ham muvaffaqiyatsizlikka duchor bo‘lmaslikni o‘yaydilar. Shu tufayli ularda ko‘proq ishonchsizlik, yutuqqa erishishga ishonmaslik, pessimizmga o‘xhash holatlar kuzatiladi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, oxir-oqibat ular baribir muvaffaqiyatsizlikka uchraydilar. Agar birinchi toifali shaxslar bir ishni muvaffaqiyatli tugatgach, ko‘tarinki ruh bilan ikkinchi ishga kirishishsa, ikkinchi toifa vakillari, har qanday ishni yakunlagandan so‘ng, uning natijasidan qat’i nazar, ruhan tushkunlikka tushadilar va og‘rinish hissi bilan boshqa ishga kirishadilar. Bu o‘rinda talabchanlik sifatining roli katta bo‘lib, agar muvaffaqiyatga yo‘nalgan shaxslarning o‘zlariga nisbatan qo‘ygan talablari darajasi ham yuqori bo‘lsa, ikkinchi toifa vakillarining talablari aksincha, past bo‘ladi. O‘zidagi qobiliyatlarga ishongan shaxs hattoki mag‘lubiyatga uchrasa ham, unchalik

qayg‘urmaydi, keyingi safar hammasi yaxshi bo‘lishiga ishonda-di, ishonchsiz shaxs esa kichkina berilgan tanbeh yoki tanqidni ham juda katta ruhiy azob bilan qayg‘urib boshdan kechiradi. Uning uchun ham shaxsning u yoki bu vaziyatlarda qayg‘urish sifati ham ma’lum ma’noda motivlar xarakterini belgilaydi.


### *Qiziqishlarning psixologik mohiyati*

Kishilarda ehtiyojlar asosida qiziqishlar va mayllar vujudga keladiki, ular shaxsning ko‘zlagan maqsadini ma’lum darajada belgilab beradi.

Kishining nimagadir e’tibor berishiga, qandaydir predmet va hodisalarni bilihga intilishi **qiziqish** deb ataladi. Qandaydir faoliyatga intilish **mayl** deb ataladi. Qiziqish va mayllar kishining emotsiyal hayoti bilan bog‘liqdir. Qandaydir bir qiziqish yoki maylni qondirib bo‘lmaslik noqulay salbiy emotsiyalar uyg‘otadi. Qiziqishning nerv-fiziologik mexanizmlari to‘g‘risida mulohaza yuritilganda dastavval I.P. Pavlovning oliv nerv faoliyati haqidagi ta‘limotini eslab o‘tish joiz. Uning «Bu nima?» refleksi, ya’ni oriyentirovka (mo‘ljal olish) refleksi qiziqishning mohiyatini tu-shunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologiyada qiziqish quyidagi tiplarga ajratiladi:

1. Mazmuniga ko‘ra: shaxsiy va ijtimoiy.
2. Maqsadiga ko‘ra: bevosita va bilvosita.
3. Ko‘lamiga ko‘ra: keng va tor.
4. Qiziqishlar darajasiga ko‘ra: barqaror va beqaror.

Insonning shaxsiy qiziqishining kelib chiqishi birlamchi bo‘lishiga qaramay u bir davrning o‘zida ijtimoiylik ahamiyati-ga ham ega. Qiziqishlarning mazmuni kishining biror yo‘lni tut-ganligini va hayotda o‘z oldiga qo‘yadigan maqsadlarini bildiradi. Qiziqishlarning chuqurligi kishining umumiy rivojlanishi va aq-li bilan uzviy bog‘liqdir. Uning kasbiy faoliyatiga qiziqishi oxir-oqibat jamiyat uchun naf keltiradi. Bevosita qiziqishlar hodisalar-ning emotsiyal jozibaliligi, his-tuyg‘ularga ega bo‘lishi, tashqi ta’sirlarga beriluvchanligi tufayli vujudga keladi. Bilvosita qizi-qishlarni tarkib toptirish hamda maxsus treninglarda amalga oshirish muhimdir.



Odamlarning qiziqishlari o‘zining ko‘lamini bilan bir-biridan farq qiladi. Shunday shaxslar toifasi ham borki, ularning qiziqishlari bir sohaga qaratilgan bo‘ladi, boshqalarda esa qator sohalarga, fanlarga, kasblarga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Qiziqishlarning kengligi kishining aqliy ehtiyojlarini xilma-xilligidan darak beradi. Tabiatshunos olim K.A. Timiryazov bunday degan edi: «Hamma narsa to‘g‘risida oz-ozdan bilish kerak va oz narsa haqida hamma narsani bilish kerak». Barqaror qiziqishga ega shaxs uzoq vaqt davomida yoqtirgan buyumlariga, obyektlariga, hodisalarga o‘z maylini o‘zgarishsiz saqlab tura oladi. Qiziqishlarning ba’zan beqarorligi katta yoshdagi o‘quvchilarda ko‘rinadi. Ularda qiziqishlar ko‘pincha g‘oyat ehtirosli, lekin qisqa muddatli bo‘ladi, masalan, bir vaqtning o‘zida ular matematika, tarix, falsafa, logikaga qiziqishlari mumkin. Bunday bolalar hamma narsaga qizg‘in kirishib, masalaga hali chuqur kirib bormasdan, boshqa narsalar bilan qiziqib ketadilar. Har xil mashg‘ulotlarga nisbatan o‘spirinlik va yoshlik chog‘larida goh alanganlib, goh so‘nib turadigan qiziqishlar, yoshlarning o‘z iste’dodlarini jadal ro‘yobga chiqarishini ta’minlaydi va qobiliyatlarning namoyon bo‘lishiga hamda o‘z samarasini ko‘rsatishiga yordam beradi.

**E’tiqod** – shaxsning shunday ongli bir yo‘nalishiki, unga o‘z qarashlari, prinsiplari va dunyoqarashlariga mos tarzda yashashga imkon beradi. E’tiqodning predmeti turlicha bo‘lishi mumkin: Vatanga e’tiqod, dinga, fanga, kasbga, axloqiy normalarga, oilaga, go‘zallikka e’tiqod va hokazo. E’tiqod va qiziqishlar har biri kishidagi dunyoqarashni shakllantiradi. **Dunyoqarash** – tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvur va

g‘oyalar majmui bo‘lib, u shaxsni ma’lum bir qolipda, o‘z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda jamiyatda munosib o‘rin egallahsga chorlaydi. Mustaqillik davrida shakllanayotgan yangicha dunyoqarash yoshlarda Vatanga sadoqatni, milliy qadriyatlar, an‘analarni e’zozlashni, o‘z yaqinlariga mehribon va tanlagan yo‘liga, kasbi, maslagi hamda e’tiqodiga sodiqlikni nazarda tutadi. Yangicha fikrlash, ya’ni tafakkur aynan mustaqillik mafkurasi ruhida tarbiya topib, sayqal topgan milliy ong, dunyoqarash va e’tiqod hamdir.

**Maqsadlar va ideallar.** Ijtimoiylashuvning mas’uliyat hissiga bog‘liq yo‘nalishlaridan yana biri shaxsda shakllanadigan maqsadlar va ideallar bo‘lib, ular shaxsni kelajakni bashorat qilish, ertangi kunini tasavvur qilish, uzoq va yaqinga mo‘ljallangan rejalarini amalga oshirishga tayyorligini ta’minlaydi. **Maqsadsiz** va rejasiz inson ma’naviyatsiz pessimistdir. Bu maqsadlar doimo o‘zining anglanganligi va shaxsning real imkoniyatlariga bog‘liqligi bilan xarakterlanib, ularning shakllanishi va ongda o‘rnashishida ma’lum ma’noda ideallar ham muhim rol o‘ynaydi. **Ideallar** shaxsning hozirgi real imkoniyatlari chegarasidan tashqaridagi orzu-umidlari, ular ongida mavjud bo‘lsada, lekin ular har doim ham amalga oshmaydi. Chunki, ularning paydo bo‘lishiga sabab bevosita tashqi muhit bo‘lib, o‘sha ideallar obyekti bilan shaxs imkoniyatlari o‘rtasida tafovut bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘smirning ideali otasi, u otasidek mashhur va el suygan san’atkor bo‘lmoqchi. Bu orzuga yaqin kelajakda erishib bo‘lmaydi, lekin aynan ana shunday ideallar odamga maqsadlar qo‘yib, unga erishish yo‘lidagi qiyinchiliklarni yengishga irodani safarbar qilishga yordam berishi tabiiy.

*Shaxsning o‘z-o‘zini anglashi, o‘z-o‘zini baholashi va tarbiyalashining tarkibiy qismlari*

**«Men» obrazi va o‘z-o‘ziga baho.** «Men» obrazi asosida har bir shaxsda o‘z-o‘ziga nisbatan baholar tizimi shakllanadi. O‘z-o‘ziga nisbatan baho turli sifatlar va shaxsning tajribasi, shu tajriba asosida erishgan yutuqlariga bog‘liq holda turlich ra bo‘lishi mumkin. Ya’ni, ayni biror ish yutuq yuzasidan ortib ketsa, boshqasi ta’sirida, aksincha, pastlab ketishi mumkin. Bu baho aslida shaxs-

ga, boshqalarning real munosabatlariga bog'liq bo'lsa-da, aslida shaxs shu munosabatlarni qanchalik qadrlashiga bog'liq tarzda shakllanadi. Masalan, maktabda bir fan o'qituvchisining bolaga nisbatan ijobjiy munosabati, doimiy maqtovlari uning o'z-o'ziga bahosini oshirsa, boshqa bir o'qituvchining salbiy munosabati ham bu bahoni pastlatmasligi mumkin. Ya'ni, bu baho ko'proq shaxsning o'ziga bog'liq bo'lib, u subyektiv xarakterga egadir.

O'z-o'ziga baho nafaqat haqiqatga yaqin (adekvat), to'g'ri bo'lishi, balki u o'ta past yoki yuqori bo'lishi ham mumkin.

**O'z-o'ziga bahoning past bo'lishi** ko'pincha atrofdagilarning shaxsga nisbatan qo'yayotgan talablarining o'ta ortiqligi, ularni uddalay olmaslik, turli e'tirozlarning doimiy tarzda bildirilishi, ishda, o'qishda va muomala jarayonidagi muvaffaqiyatsizliklar oqibatida hosil bo'lishi mumkin. Bunday o'smir yoki katta odam ham, doimo tushkunlik holatiga tushib qolishi, atrofdagilardan chetroqda yurishga harakat qilishi, o'zining kuchi va qobiliyatlariga ishonchszilik kayfiyatida bo'lishi bilan ajralib turadi va bora-bora shaxsda qator salbiy sifatlar va xatti-harakatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Hattoki, bunday holat suisidal harakatlar, ya'ni o'z joniga qasd qilish, real borliqdan «qochishga» intilish psixologiyasini ham keltirib chiqarishi mumkin.

**O'z-o'ziga baho o'ta yuqori bo'lishi** ham shaxs xulq-atvoriga yaxshi ta'sir ko'rsatmaydi. Chunki, u ham shaxs yutuqlari yoki undagi sifatlarning boshqalar tomonidan sun'iy tarzda bo'rttirilishi, noo'rin maqtovlar, turli qiyinchiliklarni chetlab o'tishga intilish tufayli shakllanadi. Ana shunday sharoitda paydo bo'ladijan psixologik holat «noadekvatlilik effekti» deb atalib, uning oqibatida shaxs hattoki, mag'lubiyatga uchraganda yoki o'zida nochorlikni, uquvsizlikni sezganda ham buning sababini o'zgalarda deb biladi va shunga o'zini ishontiradi (masalan, «xalaqit berdi-da», «falonchi bo'lmanida» kabi bahonalar ko'payadi). Ya'ni, ni-maiki bo'lmasin aybdor o'zi emas, atrofdagilar, sharoit, taqdir aybdor. Bundaylar haqida bora-bora odamlar «oyog'i yerdan uzilgan», «manmansiragan», «dimog'dor» kabi sifatlar bilan gapira boshlaydilar.

**Realistik baho** shaxsni o'rab turganlar – ota-onas, yaqin qarindoshlar, pedagog va murabbiylar, qo'ni-qo'shni va yaqinlarning

o'rinli va asosli baholari, real, samimiy munosabatlari mahsuli bo'lib, shaxs ushbu munosabatlarni ilk yoshligidanoq xolis qabul qilishga, o'z vaqtida kerak bo'lsa to'g'rilashga o'rgatilgan bo'ladi. Bunda shaxs uchun ibratli hisoblangan insonlar guruhi – referent guruhning roli katta bo'ladi. Chunki, biz kundalik hayotda hamma-ning fikri va bahosiga qulq solavermaymiz, biz uchun shunday in-sonlar mavjudki, ularning hattoki, oddiygina tanbehlari, maslahat-lari, hattoki, maqtab turib bergen tanbehlari ham katta ahamiyatga ega. Bunday referent guruh real mavjud bo'lishi (masalan, ota-onas, o'qituvchi, ustoz, yaqin do'stlar), yoki noreal, xayoliy (kitob qahra-monlari, sevimli aktyorlar, ideal) bo'lishi mumkin. Shuning uchun yoshlar tarbiyasida yoki real jamoadagi odamlarga maqsadga mu-vofiq ta'sir yoki tazyiq ko'rsatish kerak bo'lsa, ularning etalon, re-ferent guruhini aniqlash katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi.

Shunday qilib, o'z-o'ziga baho sof ijtimoiy hodisa bo'lib, uning mazmuni va mohiyati shaxsni o'rab turgan jamiyat norma-lariga, shu jamiyatda qabul qilingan va e'zozlanadigan qadriyat-larga bog'liq bo'ladi. Demak, o'z-o'zini baholash o'z-o'zini tarbi-yalashning muhim mezonidir. O'z-o'zini tarbiyalash omillari va mexanizmlariga esa quyidagilar kiradi:

- o'z-o'zi bilan muloqot (o'zini konkret tarbiya obyekti sifati-da idrok etish va o'zi bilan muloqotni tashkil etish sifatida);
- o'z-o'zini ishontirish (o'z imkoniyatlari, kuchi va irodasiga ishonish orqali, ijobiy xulq normalariga bo'ysundirish);
- o'z-o'ziga buyruq berish (tig'iz holatlarda o'zini qo'lga olish va maqbul yo'lga o'zini chorlay olish sifati);
- o'z-o'ziga ta'sir (ijtimoiy normalardan kelib chiqqan holda o'zida ma'qul normalarni shakllantirish);
- ichki intizom – o'z-o'zini boshqarishning muhim mezoni, har doim har yerda o'zining barcha harakatlarini muntazam ra-vishda tuzatib borish.

Shaxsning qanday sifatlarga ega ekanligi, undagi baholarning obyektivligiga bog'liq tarzda o'z-o'zi bilan muloqotga kirishib, jadvaldagiga muvofiq shaxs o'zini nazorat qila oladi. Shuning uchun ham hayotda shunday kishilar uchraydiki, katta majlisda ishi tanqidga uchrasha ham, o'ziga xolis baho berib, kerakli to'g'ri xulosalar chiqara oladi, shunday odamlar ham borki, arzimagan

xatolik uchun o‘z «ich-etini yeb tashlaydi». Bu o‘sha ichki dialogning har kimda har xil ekanligidan darak beruvchi faktlardir.

*Shaxsning shakllanishi va uning rivojlanishiga ta’sir  
qiluvchi omillar*

Shaxs kishining hayot kechirishi sharoitlarida, faoliyati, mehnat qilishi, o‘qish jarayonida shakllanadi. Shaxsning shakllanishi jarayonlarida guruh va jamoalarda amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiya yetakchi o‘rin egallaydi. Shaxsning shakllanishi ikki xil ma’noda qo’llaniladi:

1. *Shaxsning shakllanishi uning rivojlanishi, ana shu rivojlanish jarayoni va uning natijasi ekanligi.* Bu ma’no shaxs shakllanishiga psixologik yondashuv hisoblanadi. Uning vazifasi biror maqsadga qaratilgan tarbiyaviy ta’sirlar o’tkazish sharoitida rivojlanayotgan shaxsda nimalar mavjudligini (mavjud bo‘lgan, tajriba yo‘li bilan aniqlanadigan, namoyon bo‘ladigan) va nimalar bo‘lishi mumkinligini aniqlashdan iboratdir. Psixologiya ma’lum jamoadagi konkret insonlarda shaxsiy fazilatlar shakllanganligining boshlang‘ich darajasini, ma’lum ta’sirlarning natijasini, nimalar shakllandiyu, nimalar vazifa bo‘lib qolganini, qaysi o‘zgarish bola shaxsining shakllanishiga samarali ta’sir etdi yoki samarasiz bo‘lganini, qanday qiyinchiliklarga duch keldiyu, qanday yutuqlar bo‘lgani va boshqalarni aniqlaydi.

2. *Shaxsni maqsadga yo‘naltirilgan tarzda tarbiyalash sifatida shakllantirish.* A.S. Makarenko bu jarayonni «shaxsni loyiha-lash» deb atagan. Bu pedagogik yondashuv shaxsni jamiyat talablariga javob beradigan bo‘lishi uchun nimalar qilish va qanday qilib shakllantirish kerakligini aniqlash zarur deb hisoblaydi. Pedagogika tarbiya jarayonida nima shakllantirilgan bo‘lishi kerakligini aniqlaydi va o‘z usul va vositalarini tavsiya qiladi. Shaxsni shakllantirishda pedagogik va psixologik yondashuvini aralash-tirib yuborib bo‘lmaydi. Turli davlat dasturlari, xususan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da, «Bolajon» davlat dasturida belgilangan vazifalar o‘qituvchi-murabbiylar e’tiborini bolalarda mavjud bo‘lgan shaxs xislatlariga emas, balki shakllantirish lozim bo‘lgan xislatlarga qaratadi. Bu ikki yondashuv aynan bir-biriga o‘xshamasa ham lekin bir-birini to‘ldiruvchi birlikni tashkil etadi.

Inson shaxsining rivojlanishi to'rt manbaga: irsiyat, ijtimoiy muhit, ta'lism-tarbiya, shaxsiy faollikka bog'liqdir. Har bir odam o'ziga xos **ijtimoiy muhitda**, ma'lum oilada, odamlar orasida yashaydi. Tug'ilgan kunidanoq atrofidagi odamlar bilan ma'lum ijtimoiy munosabatlarda bo'ladi. Uzoq davom etadigan bu munosabatlarning hammasi shaxsning xulq-atvoriga ta'sir etadi. Yoshlik chog'idanoq atrofidagi odamlarning fazilatlarini (mehnatsevarlik, halollik, rostgo'ylik va aksi) o'zlariga singdirib boradilar. Bu xususiyatlar keyinchalik shaxsiy sifatlarga aylanib qoladi.

Inson shaxsining tarkib topishiga tashqi ijtimoiy muhitning ta'siri haqida gap borar ekan, shuni ko'rsatib o'tish kerakki, ayrim g'ayritabiy hodisalar inson shaxsining tarkib topishiga tashqi muhit ta'sirining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini to'la tasdiqlaydi. Bunda, ayrim tasodifiy hollarda odam bolalarining yovvoyi hayvonlar muhitiga tushib qolishi hodisasi nazarda tuttiladi. Masalan, 1920-yilda Hindistonda, Kalkutta shahrining g'arbiy-janubiga joylashgan Midnapura shaharchasi yaqinidagi o'rmonzorda doktor Sing ona bo'ri va uning bolalari bilan birga chopib yurgan ikkita odam bolasini ko'rib qoladi. Odam bolalari xuddi bo'ri bolalari kabi to'rt oyoqlab yugurib yurar edi. Doktor Sing bo'ri uyasini topib, bolalarni olib keladi. Ularning ikkisi ham qiz bolalar bo'lib, bittasi yetti-sakkiz yoshlar, ikkinchisi ikki-uch yoshlar chamasida edi. U bolalarning biriga Amala, ikkinchisiga Kamala deb nom beradi. Bu nodir hodisada shu narssa juda xarakterliki, bolalar yoshlikdan boshlab bo'rilar muhitida yashaganlilklari tufayli tashqi ko'rinishlari odam qiyofasida bo'lsa ham, butun fe'l-atvorlari va xatti-harakatlari bo'rilarga o'xshab qolgan edi. Bu hodisa odamning shaxs sifatida tarkib topishi uchun eng avvalo insoniy muhit, ya'ni ijtimoiy muhit bo'lishi shartligini to'la tasdiqlaydi.

Oila va maktab tomonidan amalga oshiriladigan **ta'lism-tarbiya** jarayoni shaxsning shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda oiladagi tarbiya ishlari ta'lism-tarbiya muassasalarini ishlari bilan birga davlat tomonidan belgilangan dastur asosida berilmoqda. Uzoq muddat davomida bolaga beriladigan ijtimoiy ta'lism-tarbiya bolaning butun psixik taraqqiyotiga, unda shaxsiy psixologik xislatlarning tarkib topishiga ta'sir qilmay qolmay-

di. Ta’lim muassasalarida fanlararo uzviy ravishda uzlusiz beriladigan ta’lim-tarbiya ishlari bolalarda ma’lum bilim, malaka va ko’nikmalarini hosil qiladi.

Ota-onalar va o’qituvchilarning vazifasi bolalarni **faollik** ruhida tarbiyalashdan iboratdir. Bu faollik avvalo ularning jamiyat manfaatlari yo’lida qiladigan ongli mehnatida ko’rinishi lozim. Ta’lim-tarbiya natijasida bolalarning bilim, malakasi, qiziqish va e’tiqodlari, dunyoqarashlari o’rtasida ma’lum umumiylilik yuzaga keladi. Odamga tug‘ma ravishda beriladigan **nasliy xususiyatlar** inson shaxsining tarkib topishiga yordamchi manba sifatida ta’sir etadi. Ular imkoniyatlar tarzida beriladi. Bu layoqatlar qulay sharoitdagina ro‘yobga chiqishi mumkin. Bunday nasliy imkoniyatlarning amalga oshishi, ya’ni ro‘yobga chiqishi uchun albatta ma’lum sharoit kerak. Agar tegishli qulay sharoit bo‘lmasa, imkoniyat tarzidagi nasliy xususiyatlar sekin-asta so‘nib, oqibat natijada yo‘q bo‘lib ketadi.

### **Nazorat savollari:**

1. Shaxsga ta’rif bering. Individ va shaxs o’rtasida qanday farq bor?
2. Individuallik nima?
3. Shaxsning tuzilishi nimadan iborat?
4. Ehtiyoj nima? Kishi ehtiyojining asosiy turlarini aytib bering.
5. Shaxsning ko‘zlagan maqsadi va motivlari deganda niman ni tushunasiz?
6. Bevosita va bilvosita qiziqishlar o’rtasida qanday farq bor? Misollar keltiring.
7. Shaxsning dunyoqarashi va e’tiqodini o‘zgartirish mumkin-mi?
8. Shaxsda shakllanadigan maqsadlar, ideallar va shaxs imkoniyatlari o’rtasida qanday tafovut bo‘lishi mumkin?
9. «Men» obrazi va o‘z-o‘ziga beriladigan baho turlarining shaxs shakllanishiga ta’siri haqida so‘zlab bering.
10. Shaxsning shakllanishida psixologik va pedagogik yondashuv deganda nimani tushundingiz?
11. Shaxsning shakllanishiga qanday manbalar ta’sir qiladi?

## 2.2. Faoliyatning psixologik tahlili

Jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o‘z-o‘zini anglab, har bir harakatni muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos eng muhim va umumiy xususiyat – bu uning faolligidir. Faollik (lotincha aktus – harakat, faolus – faol) shaxsnинг hayotdagi barcha xatti-harakatlarini namoyon etishini tushuntirib beruvchi kategoriya bo‘lib, bu o‘sha oddiy qo‘limizga qalam olib, biror chiziqcha tortish bilan bog‘liq elementar harakatimizdan tortib, toki ijodiy uyg‘onish paytlarimizda amalga oshiradigan mavhum fikr-lashimizgacha bo‘lgan murakkab harakatlarga aloqador ishlarmizni tushuntirib beradi. Shuning uchun ham psixologiyada shaxs, uning ongi va o‘z-o‘zini anglash muammolari uning faolligi, u yoki bu faoliyat turlarida ishtiroki va uni uddalashi bilan bog‘liq sifatlari orqali bayon etiladi.

Inson faolligining 2 turi mavjud:

a) tashqi faollik – bu tashqaridan o‘z istak-xohishlarimiz ta’sirida bevosita ko‘rish, qayd qilish mumkin bo‘lgan harakatlarimiz, mushaklarimizning harakatlari orqali namoyon bo‘ladigan faollik;

b) ichki faollik – bu bir tomonidan u yoki bu faoliyatni bajarish mobaynidagi fiziologik jarayonlar (modda almashinushi, qon aylanishi, nafas olish, bosim o‘zgarishlari) hamda ikkinchi tomonidan bevosita psixik jarayonlar, ya’ni aslida ko‘rinmaydigan, lekin faoliyat kechishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni o‘z ichiga oladi.

Ikkala faollik turi ham shaxsiy tajriba va rivojlanishning asosini tashkil etadi. Inson faolligi «harakat», «faoliyat», «xulq» tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, shaxs va uning ongi masalasiga borib taqalib, shaxs aynan turli faolliklar jarayonida shakllanadi, o‘zligini namoyon qiladi ham. Demak, faollik yoki inson faoliyati passiv jarayon bo‘lmay, u ongli ravishda boshqariladigan faol jarayondir. Inson faolligini mujassamlashtiruvchi harakatlar jarayoni faoliyat deyiladi. **Faoliyat** – inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli-tuman ehtiyojlardan kelib chiqadigan hamda tashqi olamni va o‘z-o‘zini o‘zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan o‘ziga xos faollik shaklidir.

Odam ma'lum faoliyatda bo'lar ekan, u har doim qat'iy bir maqsad asosida harakat qiladi. Inson faoliyatining o'ziga xosligi uning har doim ma'lum maqsadga qaratilganligidir.

Faoliyat bilish va irodaga asoslanadi hamda bu jarayonlarsiz yuzaga kela olmaydi. Bundan tashqari faoliyatni anglash hamma vaqt maqsadni anglash bilan bog'liq bo'ladi. Maqsad bo'limgan yerda faoliyat ham bo'lmaydi. Impulsiv harakatlar shaxsning maqsadsiz individual mayllari tufayli yuzaga keladi. Shu sababli impulsiv harakatlar ko'pincha egoistik, ya'ni g'ayri ijtimoiy xarakterga ega bo'ladi. Masalan, haddan tashqari g'azablangan yoki nihoyatda kuchli ehtirosga uchragan odam impulsiv harakat qiladi. Lekin bundan impulsiv harakatlarda ong mutlaqo ishtirok qilmaydi, degan ma'no kelib chiqmaydi. Impulsiv harakatlarda ham ma'lum darajada ong ishtirok qiladi. Bunda faqat shaxsiy motivlargina anglanadi.

### *Inson faoliyatining tuzilishi*

Inson o'zining xilma-xil faoliyatlari orqali tabiat va jamiyatdagi turli-tuman narsalar va hodisalarini biladi, boshqa odamlar bilan ijtimoiy munosabatga kirishib o'zini shaxs sifatida namoyon qiladi. Odamning faoliyati o'zining tuzilishi jihatidan ancha murakkabdir. Inson faoliyati hamma vaqt ayrim ish-harakatlardan, aniqrog'i ayrim harakat va amallardan tarkib topadi. U yoki bu faoliyatning tarkibiga kiruvchi harakat va amallar anglangan hamda ba'zan anglanmagan bo'lishi mumkin. Masalan, biron katta yoshli odam ma'lum faoliyatga kirishishidan oldin, faoliyatdan kelib chiqadigan natijani, ya'ni maqsadini to'la angraydi. Bog'cha yoshidagi bolalar har kuni ko'p vaqtini asosan o'yin faoliyatiga sarflaydi. Ular o'zlarini o'yin faoliyatiga undovchi mayllarini kamdan kam paytlarda angraydilar. Kichik maktab yoshidagi bolalarni oladigan bo'lsak, ular o'zlarining o'qish faoliyatiga bo'lgan motivlarini deyarli anglab yetmaydilar. Intizomsiz o'quvchilar ham qanday maqsadlar asosida xatti-harakat qilayotganligini ongli ravishda tushunmaydi. Demak, ana shu misollardan ravshanki, faoliyat tarkibiga kiruvchi harakatlar va amallar asosan bolalarda anglanmagan bo'lishi mumkin. Mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi katta yoshli odamlarda

faoliyat tarkibidagi barcha harakat va amallar albatta anglangan bo‘ladi.

Shuni ham nazarda tutish lozimki, faoliyatni amalgga oshirish usullarining ko‘philigi ongning minimal ishtiroki bilan bajariladi. Boshqacha qilib aytganda faoliyatni amalgga oshirish avtomatlashgan malakalarga aylangan bo‘ladi. Shuning uchun bunday faoliyat turlarini odam ortiqcha o‘ylamasdan, avtomatik ravishda amalgga oshiradi.

Ma’lum bir faoliyatni amalgga oshirishda qilinadigan harakatlar sistemasi ish maqsadi bilan, bu maqsadga qaratilgan narsalar xususiyati va ish sharoitlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, belkurak bilan yer qazishga qaraganda ketmon bilan yer qazishda yoki kichik bir koptokni irg‘itib o‘ynashga qaraganda katta koptokni irg‘itib o‘ynashda harakatlarni boshqacharoq tuzishga to‘g‘ri keladi. Ana shu misollarda qilinadigan ishlarning maqsadi bir xil, lekin uning obyektlari har xil. Demak, obyektlarning har xilligi harakatlar sistemasining turlicha bo‘lishini talab qiladi.

Rus fiziologlaridan P.K. Anoxin, N.A. Bernshteyn va E.A. Asratyanlarning o‘tkazgan tajribalaridan ma’lum bo‘lishicha faoliyat davomida ayrim ish-harakatlarining bajarilishini, sensor nazorat qilinishi (ko‘z bilan ko‘rib, qulq bilan eshitib, muskullar bilan sezib) shu harakatlar amalgga oshirilayotgan sharoit bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Lekin har qanday faoliyatdan ko‘zlangan maqsadning andaza modeli inson miyasida shu maqsad amalgga oshirilishidan ilgariroq maydonga keladi. Faoliyatdan ko‘zlangan maqsadning miyadagi bunday andaza modeli faoliyat maqsadini belgilashda turli sezgi a’zolaridan borgan informatsiyalar asosida (ya’ni ma’lumotlar asosida) yuzaga keladi. Odam ma’lum faoliyatni bajarar ekan qiladigan butun ish-harakatlaridan oqibat natijasida faoliyat maqsadining miyadagi andaza modeliga adekvat o‘xshash narsani keltirib chiqarishga intiladi. Bu hodisani P.A. Anoxin harakatlarni boshqarishning teskari aloqasi, ya’ni teskari afferentatsiyasi deb ataydi. Demak, akademik P.K. Anoxinning fikricha u yoki bu faoliyat tufayli amalgga oshiriladigan ish-harakatlar haqida sezgi a’zolari orqali miyaga olingan informatsiyalar beriladi. Miyada esa faoliyatning maqsadi bilan bog‘liq andaza modellar yuzaga keladi.

Buni harakat akseptori (lot. acceptor – qabul qilish) deb yuritiladi. Ana shunday harakat akseptorlari tufayli odam ayrim faoliyatlaridan kelib chiqadigan natijalarni oldindan aytib beradi.

Faoliyat maqsadining miyada andaza modelini yuzaga kelishi bilan bog'liq bo'lgan gaplarning hammasi haqiqatdan ham shunday ekanligini biz hali bilmaymiz. Biroq, kelajakda qilinadigan ishlar va ulardan kelib chiqadigan natijalarning qandaydir yo'l bilan miyada oldindan taxminiy tasavvur qilinishi haqiqatdir. Oldindan taxminiy tasavvur qilmay turib faoliyatning o'zini amalga oshirish ham mumkin bo'lmay qolar edi.

Tarbiyachilar, ota-onalar va o'qituvchilar o'z qo'l ostidagi bolallarning ma'lum maqsadlar asosida qilayotgan faoliyatlaridan kelib chiqadigan natijalarni oldindan ko'rib, ularning ish-harakatlarini idora qilishlari lozim.

Ma'lumki, odam o'z faoliyatida tashqi olamdagи turli narsalar va boshqa odamlar bilan munosabatda bo'ladi. Lekin har bir odamning o'z ichki dunyosi ham mavjud. Odamning ichki dunyosi xuddi tashqi dunyo kabi beqiyos darajada kengdir. Odamning ichki dunyosida xilma-xil tasavvurlar, turli obrazlar va tushunchalar hamda ko'p til, nutq materiallari bo'ladi. Odamning ichki dunyosi odatda psixik dunyo deb yuritiladi. Ammo odamning ichki dunyosi hech vaqt tayyor holda, ya'ni tug'ma ravishda berilmaydi. Odamning ichki psixik dunyosi uning tashqi dunyodagi turli-tuman narsalar va boshqa odamlar bilan qiladigan munosabatlarida sekin-astalik bilan paydo bo'ladi. Bu hodisaning haqiqatan ham xuddi shunday ekanligini yosh bolalarda ochiqoydin ko'rishimiz mumkin. Yangi tug'ilgan chaqaloq bolaning hali hech qanday ichki psixik dunyosi bo'lmaydi. Chaqaloq bolallarda nutq ham, tasavvur ham, obrazlar va tushunchalar ham bo'lmaydi. Bolaning ichki dunyosi atrofidagi tashqi olam, undagi turli-tuman narsa va hodisalar, katta odamlar bilan qiladigan munosabatlaridan paydo bo'ladi. Masalan, bolalar o'z-o'zlarini bilan gaplashib, atroflaridagi narsalar haqida fikr yuritadigan bo'ladilar. Ana shu murakkab hodisani, ya'ni tashqi olamdagи narsalar bilan qilinadigan faoliyatning ichki psixik faoliyatga aylantirilishini **faoliyatning interiorizatsiyasi** deb yuritiladi. Demak,

ichki psixik dunyoning tashqi narsalar, hodisalar dunyosidan ke-lib chiqishini **interiorizatsiya** deb ataladi.

Insonning ichki dunyosi paydo bo‘lgandan so‘ng har bir narsani, har bir harakatni oldin ichida o‘ylab, so‘ngra amalgga oshiradi. Oldin ichida o‘ylab, so‘ngra bevosita tashqi munosabatga o‘tishni **faoliyatning eksteriorizatsiyasi** deb ataladi. Agarda interiorizatsiya va eksteriorizatsiya so‘zlarining lug‘aviy ma’nosini ochadigan bo‘lsak interiorizatsiya «ichki psixik holatga o‘tish» va eksteriorizatsiya «tashqi faoliyatga o‘tish» degan ma’noni anglatadi.

Inson boshqa kishilar bilan qiladigan tashqi munosabatlari orqali nutqni egallab, ichki dunyosiga ega bo‘lib borar ekan, bu narsa shu chog‘da ko‘z o‘ngida yo‘q bo‘lgan narsalar haqidagi fikr yuritish imkoniyatini beradi. Shuning uchun odamning aqliy taraqqiyotida interiorizatsiyaning ahamiyati g‘oyat kattadir. Faoliyatining tuzilishi juda murakkab va o‘ziga xosdir. Odamning faoliyati shunchaki ehtiyojlarni qondirishdan iborat bo‘libgina qolmay, u jamiyatning maqsadlari va talablari bilan ham ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Odam faoliyatining ko‘zga tashlanib turadigan eng asosiy belgisi maqsadni anglash va uni amalga oshirishda qilingan ish-harakatlaridan iboratdir.

### *Shaxs faoliyatining asosiy turlari*

#### **Faoliyatning 3 asosiy turi mavjud:** *o‘yin, ta’lim, mehnat.*

O‘yin faoliyati bilan asosan bolalar shug‘ullanadilar. Lekin o‘yinni kattalar va bolalar hayotida ham ko‘rish mumkin. Hayvonlardagi o‘yin tug‘ma instinctiv harakatdir. O‘yin bola organizmining tabiiy ehtiyoji bo‘lib, bola o‘yin davomida psixik jihatdan rivojlanadi. «O‘yin bolalar mehnatidir», – deb bejiz aytilmagan. Psixik jihatdan normal rivojlanayotgan bolalarning hammasi, albatta o‘yin faoliyati bilan shug‘ullanadi. O‘yin faoliyati bolalar uchun dunyoni bilish qurolidir. Shuning uchun bolalar o‘zlarining har kungi turli-tuman o‘yin faoliyatlarida tevarak-atrofidagi narsa va hodisalarning xususiyatlarini bilibgina qolmay, balki kishilar o‘rtasidagi turli-tuman munosabatlarni ham o‘zlariga singdirib boradilar.

Odam yoshlik paytida o‘z tabiatiga ko‘ra, nihoyatda taqlidchan bo‘ladi. Agar biz bolalarning o‘yin faoliyatlariga diqqat bi-

lan nazar solsak, o‘yin faoliyatining kattalar xatti-harakatlari va fe’l-atvorlariga taqlid qilishdan iborat ekanini ko‘ramiz. Qiz bola juda yoshlik chog‘idan boshlab onasining xatti-harakatlariga taqlid qilib, bola tarbiyalash ishi bilan, ya’ni qo‘g‘irchoq o‘ynash faoliyati bilan shug‘ullanadi. O‘g‘il bolalar bo‘lsa, erkaklarning xatti-harakatlari va fe’l-atvorlariga taqlid qilib turli o‘yinlarni o‘ynaydilar. Demak, odam ilk yoshlik chog‘idan boshlab o‘yin faoliyati orqali tevarak-atrofdagi odamlarning insoniy sifat va fazilatlarini (mehnatsevarlik, insonparvarlik, sofdillik, halollik, rostgo‘ylik, rahmdillik va bu sifatlarning aksi bo‘lmish ishyoq-maslik, yovuzlik, o‘g‘rilik, vijdonsizlik, berahmlik, yolg‘onchilik va hokazolarni) o‘zlariga singdirib boradilar. Keyinchalik bunday sifat va xususiyatlar kundalik hayotda mustahkamlanib odamning shaxsiy sifatlariga aylanib qoladi.

Subyektni o‘rganishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan faoliyat **ta’lim** deyiladi. U bilim, ko‘nikma va malakalardan tashkil topadi. O‘yin faoliyatining maqsadi ma’lum bilimlarni, harakatlar va amallarni o‘zlashtirishdan iboratdir. Odamning o‘z maqsadiga ko‘ra, batamom o‘rganish va o‘zlashtirishdan iborat bo‘lgan mana shunday maxsus faoliyati **ta’lim faoliyati** deb ataladi.

Psixologik jihatdan olganda, ta’lim faoliyati o‘z ichiga quydagi jarayonlarni oladi:

a) ma’lum bir nazariy va amaliy faoliyat turlarini muvafqaqiyatli amalga oshirish uchun obyektiv olamning eng muhim xususiyatlariga doir ma’lumotlarni o‘zlashtirish. Bu jarayonning mahsuli bilimlardir;

b) mana shu faoliyat, ya’ni bilimlarni o‘zlashtirishni yuzaga keltiradigan usul va operatsiyalarni egallah, bu jarayonning mahsuli malaka va uquvlardan iboratdir.

Shunday qilib, odamning ma’lum bilimlar, tushunchalar sistemasi ko‘nikmalar va malakalarni ongli maqsad bilan boshqaradigan barcha xatti-harakatlari ta’lim faoliyati bilan bog‘liq bo‘ladi. Mana shu yuqorida mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, ta’lim maxsus va o‘ziga xos bo‘lgan insoniy faoliyatdir. Ta’lim faoliyatining tuzilishi murakkab bo‘lib tarkibiga bilimlar, tushunchalar, malakalar, odatlar, uquvlar kiradi.



Bolalarning mehnat faoliyati.

Ta'limga faoliyati maxsus ravishda tashkil etilgan sharoitda maktablarda, o'rta va oliy o'quv yurtlarida amalga oshiriladi. Katta yoshli kishilar bolalarning taraqqiyotlariga aktiv ta'sir etib, ularning ta'limga faoliyatlarini hamda bu faoliyat bilan bog'liq bo'lgan xatti-harakatlarini tashkil qiladilar. Bu faoliyat va harakatlarni insoniyat ijtimoiy tajribasini o'rganish tomon yo'naltiradilar. Shunday qilib, ta'limga faoliyati katta kishilar tomonidan tashkil qilinib boshqariladi va sistemali ravishda nazorat qilib boriladi.

Ta'limga faoliyati tarbiya ishlari bilan uzviy bog'liqdir. Ta'limga muassasalaridagi har qanday ta'limga jarayoni tarbiyaviy xarakterga ega. Bolalarga u yoki bu fan bo'yicha ta'limga berar ekanmiz, biz ularni bir vaqtida tarbiyalaymiz ham. Ta'limga-tarbiya ishlari asosan tushuntirish, ishontirish, ko'rsatish, rag'batlantirish, talab qiliish, vazifa berish va jihozlash kabi vositalar yordamida amalga oshiriladi. Ta'limga va tarbiya faoliyati odamni ijtimoiy foydali mehnatning har xil turlari uchun zarur bo'lgan bilimlar, malaka hamda ko'nikmalar bilan qurollantiradi. Bundan tashqari ta'limga va tarbiya faoliyati turli-tuman ishlarga mos ravishda o'z xatti-

harakatlarini va psixik jarayonlarini boshqara olishga o'rgatadi. Shu tariqa odam uzoq vaqt mobaynida sistemali davom etadigan ta'lif-tarbiya faoliyatida o'zini inson hayotida eng muhim faoliyat bo'lgan mehnat faoliyatiga tayyorlaydi. Ma'lumki, odam o'z tabiatini jihatidan mehnat faoliyati bilan shug'ullanmay yashay olmaydi. Agarda odam mehnat faoliyatidan to'xtab qolsa, unday paytda o'z hayotini ham tugatgan bo'lur edi. Shu sababli ham mehnat faoliyati odamning yashashini ta'minlovchi eng asosiy faoliyatdir.



Ta'limi mashg'ulotlar.

#### *Mehnatning ijtimoiy mohiyati, turlari. Ijod va ilhomlanish*

Odam kun kechirish uchun faqat tevarak-atrofdagi olamni bilib qolmasdan, shu bilan birga uni o'zgartirishi, mehnat faoliyati bilan shug'ullanishi lozim. Mehnat bu ma'lum ijtimoiy-foydaли, moddiy yoki ma'naviy mahsulot yaratishga yo'naltirilgan faoliyatdir. Odam tabiat moddasini o'z hayoti uchun yaroqli ma'lum bir formada o'zlashtirib olish uchun o'z badanining tabiiy kuch-

larini, qo'l va oyoqlarini, bosh va barmoqlarini harakatga keltiradi. Shu harakat vositasi bilan tashqi tabiatga ta'sir qilib, uni o'zgartiradi, shu bilan birga inson o'z tabiatini ham o'zgartiradi.

Mehnat bilish faoliyati bilan mahkam bog'langandir, chunki har qanday ish bilim va tajribani talab qiladi. Mehnat faoliyatida shaxsnинг sifatlari, psixik jarayonning xususiyatlari va kishining xislatlari namoyon bo'ladi. Mehnat faoliyati tufayli kishida tafakkur, qobiliyatlar, qiziqishlar rivojlanadi, iroda mustahkamlanadi, xarakter tarkib topadi. Mehnat kishida turli his-tuyg'ular uyg'otadi, kishilarning sog'ligi va psixik holatiga ta'sir ko'rsatadi. Mehnatning jismoniy va aqliy turlari mavjud bo'lib, har ikkisi ham o'ziga xos kechadi. I.P. Pavlov shunday yozgan edi: «Men butun umrim davomida aqliy mehnat bilan jismoniy mehnatni yaxshi ko'rib keldim... Jismoniy mehnatni hatto ko'proq qadrlayman...».

Tashabbus namoyon bo'ladigan, qandaydir bir yangilik yaratiladigan, ish jarayoniga o'zgarish kiritiladigan har qanday mehnat turi ijodiy xarakterga ega bo'ladi. Biror mehnat vazifasini original ravishda hal qilishga yoki faoliyatning ijtimoiy qiyamatga ega yangi moddiy yoki ma'naviy mahsulotni yaratishga **ijod** deyiladi. Mehnat ijodiy xarakterga ega bo'lishi uchun, avvalo kishi amal qiladigan g'oya bo'lishi kerak. Ijod ishga katta qiziqish bo'lishini va iloji boricha uni yaxshiroq bajarilishni talab qiladi. Ijod zamirida tasavvur yotadi. Tasavvur bo'lmasa ijod ham bo'lmaydi. Yangi narsani ijod qilishdan oldin uni fikran tasavvur qilmoq kerak. Ilhomlanish kishining ma'naviy kuchlari va qobiliyatlarining nihoyatda ko'tarinki tarzda bo'lishidir. Ilhomlanish tufayli kishi mehnati juda samarali bo'ladi, alohi-da qimmatli fikrlar vujudga keladi, zarur so'zlar topiladi, kishi hamma fikrini bir joyga to'plaganda butun faoliyat jarayoni oson va tez bajariladi. Bunda o'z mehnatidan qanoat hosil qilishdek quvonchli tuyg'u boshdan kechiriladi. Ilhomlanish faqat rassomgagina emas, balki olimga ham, ishchiga ham zarur. Tarbiyachi ham mashg'ulotda biror narsani so'zlab berayotganida yoki bolalarga badiiy asar o'qib berayotganida ilhomlanish juda ham zarur bo'ladi. Ilhomlanish odatda o'z mehnatiga churqur hayajon bilan yondashadigan va shu sohada ishlaydigan

kishilardagina paydo bo‘ladi. Doimiy, astoydil va g‘oyat jiddiy mehnat qilganda, kishida ilhom, ijodiy fikrlar tez-tez paydo bo‘lib turadi. Bunga atrofdagi sharoit, kishilarni, tabiatni kuzatish va hokazolar yordam beradi. Ba’zan ijod qilish uchun yil fasli ham ahamiyatga ega bo‘ladi.

*Ko‘nikma, malaka, odatlar haqida tushuncha*

**Malakalar va uning turlari.** Avval ongli bajarilib, keyinchalik avtomatlashgan ish-harakatlarga malakalar deyiladi. Malakalar shu bilan xarakterlanadiki, harakatlar oson va tez, go‘yo o‘z-o‘zidan ongning kam ishtiroki bilan va kuchni kam ishlatajigan holda bajariladi. Masalan: tajribali usta yaxshi va ko‘p ishlaydi va ishni endigina boshlayotgan yosh xodimga qaraganda kam charchaydi yoki pioninochining royal klavishlarini ustida barmoqlarini yurgizishi va hokazo.

Malaka hosil qilingach, ayrim harakatlar ustidan nazorat deyarli yo‘qoladi. Malakalar faoliyatimizning deyarli hamma turlariga kiradi va biz amalga oshiradigan har qanday harakatlarning ko‘pchilik qismini tashkil qiladi. Malakalar mehnat qilishni osonlashtiribgina qolmasdan, balki ijodiy ish uchun imkoniyat yaratadi, bizni unchalik murakkab bo‘lmagan harakatlarni kuzatish zarurligidan xalos qiladi. Takroriy harakatlar natijasida miya po‘stlog‘ida hosil bo‘ladigan murakkab shartli reflekslar, muvaqqat aloqalar sistemasi (bu aloqalar vaqtida bir qo‘zg‘alish go‘yo zanjir kabi boshqa qo‘zg‘alishlar seriyasini vujudga keltiradi) malakalarning fiziologik asoslaridir, ya’ni Pavlov tili bilan aytganda dinamik stereotiplardir. Malakalar odamga hech vaqt tug‘ma holda berilmaydi. Murakkab malakalarni hosil bo‘lishiga ko‘p vaqt ketsa, sodda malakalar oz vaqt ichida hosil bo‘ladi. Ilgari hosil qilingan malakalardan yangi malakanini tarkib toptirishga ijobiyligi ta’siri malakalarning ko‘chirilishi deyiladi. Ilgari hosil qilingan malakalarning yangi malakalar hosil qilishga zararli, salbiy ta’sir ko‘rsatishi malakalarning interfrensiyasi deb ataladi. Mustahkamlangan malakalarning so‘nish hodisasi malakaning deavtomatizatsiyasi deyiladi. Malakalarning interfrensiyasi juda kuchli bo‘ladi, shuning uchun noto‘g‘ri malakaga ega kishiga qayta o‘rgatish bu ishda hali hech qanday malakaga ega

bo‘lmagan kishiga o‘rgatishdan ko‘ra qiyinroq bo‘ladi. Malakalarni hosil qildirishda 1-signal sistemasi: sezgilar, idrok va tasavvurlar katta rol o‘ynaydi. U amalga oshirilgan harakat to‘g‘risida miyaning tegishli qismiga xabar beradi. Miyadan esa bajarilgan ishni to‘g‘rilashni talab qiladigan qaytish signallari keladi. Muvaffaqiyatli harakatlar takrorlanib turadi va shu sababli ularning mexanizmlari miyada mustahkam o‘rnashib oladi. Muvaffaqiyatsiz harakatlar takrorlanmaydi va sekin-asta yo‘qoladi. Muayyan faoliyatni takomillashtirish maqsadida ishlarning takroriy bajariishi mashq deyiladi.

**Ko‘nikma va odatlar, ularning hosil bo‘lishi.** Ko‘nikmalarni malakalardan ajrata bilish zarur. Ko‘nikmalar asosida biror narsa qilishni o‘rganish mumkin-u, lekin bu ishni bajarish malakasi hali egallab olinmagan bo‘lishi mumkin. Masalan: 5–5,5 yoshli bola ruchka ushlashni, yozishni o‘rganib olgan bo‘lishi mumkin, lekin hali yozish malakasini egallagan emas. Ko‘nikmalar kishi o‘z faoliyati jarayonida hosil qilgan bilimlar yoki malakalarغا asoslangan biror ishni bajarishning ma’lum darajada mukammal usulidir. Ko‘nikma bu biror ishni bajarishga tayyorgarlik, malaka esa faoliyatning avtomatlashgan bo‘g‘inidir. Ko‘nikmalar turli darajalarda bo‘lishi mumkin: ayrim hollarda ular malakalarda tarkib topishidan oldin hosil bo‘lishi, boshqa hollarda faoliyatning yanada rivojlanishi bo‘lishi mumkin. Uzoq mashq qilinmasa, ishlar takrorlanib turilmasa, malaka hosil qilib bo‘lmaydi. Ko‘nikma esa ko‘p mashqlarni bajarmasdan ham paydo bo‘lishi mumkin. Ko‘nikma uchun talab qilingan narsani tushunish, ishni bajarish usulini bilish muhimdir. Agar malakalarimiz qat’iy tarzda bizdagi bilimlarga tayansa, faoliyatning maqsadi va talablariga ko‘ra harakatlarni muvaffaqiyatli bajarishni ta’minlasa, biz buni ko‘nikma deb ataymiz.

Kishining xulq-atvorida mustahkamlanayotgan va uning ehtiyojiga aylanib qolgan harakatlar **odat** deyiladi. Odatlar xuddi malakalar singari xulq-atvor va faoliyatning avtomatlashgan elementlaridan iborat, lekin ular orasida muhim farqlar ham bor. Inson shaxsiga xos bo‘lgan malaka va odatlarning nerv-fiziologik asoslarini tushuntirishda akademik I.P. Pavlovning dinamik stereotip haqidagi ta’limoti juda katta ahamiyatga egadir.

Bu ta’limot bizga malaka va odatlarning murakkab mexanizmlarini ma’lum darajada tushuna olish imkoniyatini beradi. Har bir odam o‘zining xususiy yashash sharoitiga, ya’ni o‘zining kundalik hayot tarziga o‘rganib, odatlanib qolgan bo‘ladi. Buning asosiy sababi shundaki, odamda ayni shu hayot tarziga nisbatan dinamik stereotip vujudga keladi. Bordiyu, hayot sharoitini keskin o‘zgartirsak, dinamik stereotip buziladi va yangi sharoitga mos keladigan yangi dinamik stereotip yuzaga kelgunicha ancha vaqt o‘tadi. Chunonchi, bog‘chaga yangi kelgan bola o‘zining ni-hoyatda odatlanib qolgan uy sharoitidan yangi tamomila boshqa sharoitga o‘rganib ketguncha, ya’ni yangi dinamik stereotip hosil bo‘lguncha xarxasha qiladi. Odat kishini aynan bir faoliyat bilan shug‘ullanishga undaydi. Odatlar majmuidan inson xarakteri ke-lib chiqadi. Odatlarning ijobiylari va salbiy turlari bo‘ladi. Kishida mehnat turi bilan bog‘liq professional odatlar bo‘ladi. Masalan: shifokor odamning ko‘rinishi, qiyofasiga qarab sog‘lom yoki kasal ekanligiga e’tibor berishga odatlangan. Ijobiy — aqlni bir joyga qo‘yib ishlashi, tozalikka, xushmuomalalikka, kishilarga ziyraklik bilan munosabatda bo‘lishga odatlanishi. Salbiy — ishyoqmaslik, qo‘pollik, chekish, ichishga odatlanish, ijobiylari ega bo‘lish uchun imkoniyat boricha ijobiylari harakatlarni tez-tez takrorlab turish, ularni odatdagisi harakatlarga aylantirish, salbiy odatdan xalos bo‘lish uchun tegishli harakatlarni takrorlamaslik kerak.

### **Nazorat savollari:**

1. Faoliik deganda nimani tushunasiz?
2. Faoliyat va uning turlari haqida so‘zlab bering.
3. Shaxsning hayotida mehnat faoliyatining o‘rnini qanday?
4. Ijod nima?
5. Malakalarning qanday turlari bor?
6. Ko‘nikmalarning malakalardan farqi nimada?
7. Odat nima? Misollar keltiring.

### **2.3. Shaxs insoniy munosabatlar tizimida**

Shaxsning ijtimoiy psixologik qiyofasi masalasi bugungi kunda o‘ta muhimdir. Zero, har bir shaxsning jamiyatda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga munosabati, ularni idrok qilishi va anglash daraja-

si, o‘z-o‘ziga nisbatan munosabatining tabiatи, xulqidagi ijtimoiy yo‘nalishlar katta ahamiyatga egadir. Ayniqsa bolaning voyaga yetishi jarayonida uning ijtimoiylashuvi, ya’ni ijtimoiy munosabatlar muhitiga kirib borishi, uning shaxs sifatida shakllanishi ga ta’sir ko‘rsatadi. Ma’lumki, shaxsning ijtimoiylashuvi asosan maktab yillariga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun maktab oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalardan biri bolaning kamoloti uchun sharoit yaratish, uning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim-tarbiyaning eng ma’qul usullarini joriy etishdir. Layoqatini ilk yoshligidan aniqlash, iqtidorini har taraflama o‘stirish, testlar vositasida bilimlarini oshirish va hokazo.

Shaxs – ijtimoiy munosabatlar mahsuli deyilishining eng asosiy sababi uning doimo insonlar davrasida, ular bilan o‘zaro ta’sir doirasida bo‘lishini anglatadi. Bu shaxsning eng yetakchi va nufuzli faoliyatlaridan biri muloqot ekanligiga ishora qiladi.

Muloqot – shaxsning individual rivojlanishi jarayonida namoyon bo‘ladigan birlamchi faoliyat turlaridan biri bo‘lib, u insondagi kuchli ehtiyojlardan biri – inson bo‘lish, odamlarga o‘xshab gapirish, ularni tushunish, sevish, o‘zaro munosabatlarni muvoqqlashtirishga qaratilgan ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Shaxs o‘z taraqqiyotini aynan shu faoliyat turini egallashdan boshlab, nutqi orqali (verbal) va nutqsiz vositalar (noverbal) yordamida boshqa faoliyat turlarini mukammal egallahga zamin yaratadi.

Har qanday faoliyat odamlarning bir-birlari bilan til topishishini, bir-birlariga turli xil ma’lumotlar uzatishini, fikrlar almashinuvni kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o‘rni, ishlarining muvaffaqiyati, obro‘sni uning muloqotga kirish qobiliyati bilan bevosita bog‘liq.

Muloqotning turli shakllari va bosqichlari mayjud bo‘lib, dastlabki bosqich odamning o‘z-o‘zi bilan muloqotidir. T. Shibutanning «Ijtimoiy psixologiya» kitobida «Agar odam ozgina bo‘lsa ham o‘zini anglasa, demak, o‘z-o‘ziga ko‘rsatmalar bera oladi», – deb yozgan edi. Odamning o‘z-o‘zi bilan muloqoti aslida uning boshqalar bilan muloqotining xarakterini va hajmini belgilaydi. Agar odam o‘z-o‘zi bilan muloqot qilishni odat qilib olib, doimo jamiyatdan o‘zini chetga tortib, tortinib yursa, demak u boshqalar

bilan suhbatlashishda jiddiy qiyinchiliklarni boshidan kechiradi, deyish mumkin. Demak, boshqalar bilan muloqot muloqotning ikkinchi bosqichidir. Uchinchi bosqich avlodlar o'rtasidagi muloqot. Bu muloqot tufayli har bir jamiyatning o'z madaniyati, madaniy boyliklari, qadriyatlari mavjud bo'ladiki, buning ahamiyatini tushungan insoniyatning eng ilg'or vakillari uni doimo keyingi avlodlar uchun saqlab keladilar hamda ta'lim-tarbiya va kundalik muloqot jarayonida uni avloddan avlodga uzatadilar.

Insoniy munosabatlар shunday o'zaro ta'sir jarayonlariki unda shaxslararo munosabatlар shakllanadi va namoyon bo'ladi. Bunday jarayon dastlab odamlar o'rtasida ro'y beradigan fikrlar, hiskechinmalar, tashvish-u quvonchlar almashuvini nazarda tutadi. Odamlar muloqotda bo'lgani sari, ular o'rtasidagi munosabatlар tajribasi ortgani sari taraflar o'rtasida umumiylit, o'xshashlik va uyg'unlik kabi sifatlar paydo bo'ladi-ki, ular bir-birlarini bir qarashda tushunadigan yoki «yarimta» jumladan ham ayon bo'ladigan bo'lib qoladi. Ayrim hollarda esa ana shunday muloqotning tig'izligi reaksiyalari, bir-biridan charchash, gapiradigan gapning qolmasligi kabi vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Masalan: oila muhiti va undagi munosabatlар ana shunday tig'iz munosabatlarga kiradi. Faqat bunday tig'izlik oilaning barcha a'zolari o'rtasida emas, uning ayrim a'zolari o'rtasida bo'lishi mumkin (ona-bola, qaynona-kelin va h.k.).

O'zaro munosabatlarga kirishayotgan tomonlarning bu munosabatlardan ko'zlaydigan asosiy maqsadlari o'zaro til topishish, bir-birini tushunishdir. Bu jarayonning murakkabligi, kerak bo'lsa «jozibasi», betakrorligi shundaki o'zaro bir xil o'ylashlari va gapirishlari mumkin emas. Har qanday faoliyatdan zerikish, charchash mumkin, faqat odam muloqotdan ayniqsa uning norasmiy, samimiyl, bevosita shaklidan charchamaydi, yaxshi suhbatdoshlar doimo ma'naviy jihatdan rag'batlantiriladilar. XXI asr bo'sag'asida odamning eng tabiiy muloqotga ehtiyoji uning sirlaridan xabar-dor bo'lish va o'zgalarga samarali ta'sir eta olishga ehtiyoji yana-da oshdi va buning qator sabablari bor.

Birinchidan, axborotlarning ko'pchiligi aynan inson faoliyatiga aloqador ma'lumotlarni saralash u bilan to'g'ri munosabatda bo'lishni taqozo etadi.

Ikkinchidan, turli kasblar faoliyat sohasida ishlayotgan odamlar guruhining ko‘payishi, ular o‘rtasida munosabatlar va aloqaning dolzarabligi, axborotlarning tig‘iz sharoitda oddiygina mu-loqotni emas, balki professional bilimdonlik asosidagi muloqotni talab etadi.

Uchunchidan, oxirgi paytlarda kasb-hunarlar soni shunday ortdi-ki, ular sotsionomik guruh kasblar deb atalib ularda «odam-odam» dialogi faoliyatning samarasini belgilaydi. Masa-lan: pedagogik faoliyat, boshqaruv tizimi, turli xil (servis) mar-keting xizmatlari va boshqalar shular jumlasidandir.

### *Insoniy muomala va muloqotning psixologik vositalari*

Har bir ziyoli inson boshqalar bilan hamkorlik qilish maho-rati va san’atiga ega bo‘lishi kerak. Bu vazifa odamlarni muoma-la va muloqot etikasiga o‘rgatishni har qachongidan ham dolzARB qilib qo‘ymoqda. Ma’lumki gaplashayotgan odamlardan biri ga-piradi, ikkinchisi tinglaydi, eshitadi. Muloqotning samaradorligi ularning bir-birini to‘ldirishiga bog‘liq ekan. Uning ikkinchi to-moni tinglash qobiliyatiga deyarli e’tibor berilmaydi.

Mashhur amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnegi: «Yaxshi suhbatdosh yaxshi gapirishni biladigan emas, balki tinglashni bi-ladigan suhbatdoshdir», – deganda aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan bo‘lishini nazarda tutgan edi. Professional tinglash texnikasiga quyidagilar kiradi:

1. Faol holat. Bu kreslo yoki divan kabi mebelga bemalol yastanib yoki yotib olmaslik, suhbatdoshining yuzidan tashqari joylariga qaramaslik, mimika, bosh chayqash kabi harakatlar bi-lan uning har bir so‘ziga qiziqayotganingizni bildirishni nazarda tutadi.

2. Suhbatdoshga samimiy qiziqish bildirish. Bu nafaqat suhbatdoshni o‘ziga jalb qilish, balki keyin navbat sizga kelganda o‘zining har bir so‘ziga uni ham ko‘ndirishning samarali yo‘lidir.

3. O‘ychan jimlik. Bu suhbatdosh gapirayotganda mas’uliyat bilan tinglayotganday tasavvur qoldirish orqali o‘zingizni suhbat-dan manfaatdorligingizni bildirish yo‘li.

4. Odamlar bir-birlari bilan muomalaga kirishar ekan, ular-ning asosiy ko‘zlagan maqsadlaridan biri o‘zaro bir-birlariga ta’sir

ko'rsatish, ya'ni fikr-g'oyalariga ko'ndirish, harakatga chorlash, yaxshi taassurot qoldirishdir.

5. Muloqot bu ikki yoki undan ortiq kishilar o'rtasidagi o'zaro ta'sir, bilish, emotsional baholash xarakteridagi axborot almashinuvdir.

### **Muloqotning tuzilishi:**

I. Kommunikativ tomoni. Kommunikatsiya inglizcha xabar qilish, aytish ma'nosini anglatadi. Axborot, fikr, kayfiyat, tasavvur almashinishning ikki tomoni bor:

a) verbal – nutq orqali muloqot;

b) noverbal – imo-ishora, mimika, harakatlar, belgilar (yo'l harakati).

II. Muloqotning interfaol tomoni. Kishilarning bir-biriga ta'sir o'tkazishi, tarbiyasi, xulq-atvoriga ta'siri tushuniladi. Psixologik ta'sir turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsata olishdir. Ijtimoiy psixologiyada psixologik ta'sirning asosan 3 vositasi farqlanadi:

1. Verbal ta'sir bu so'z va nutqimiz orqali ko'rsatadigan ta'sirimiz bo'lib bundagi asosiy vositalar so'zlardir. Ma'lumki, nutq – bu so'zlashuv, o'zaro muomala jarayoni bo'lib, uning vositasi so'zlar hisoblanadi. Monologik nutqda ham, dialogik nutqda ham odam o'zidagi barcha so'zlar zaxirasidan foydalanib, eng ta'sirchan so'zlarni topib sheringiga ta'sir ko'rsatishni xohlaydi.

2. Paralingvistik ta'sir – bu nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar bo'lib, bunga nutqning baland yoki past tovushda ifodalanayotganligi, artikulatsiya, tovushlar, to'xtashlar, duduqlanish, yo'tal, til bilan amalga oshiriladigan harakatlar, nidolar kiradi.

3. Noverbal ta'sirning ma'nosi «nutqsiz»dir. Bunga suhbat-doshchlarning bir-birlariga nisbatan tutgan o'rnlari, holatlari, qiliqlari, mimikalari, pantomimika, qarashlar, bir-birini bevosita his qilishlar, tashqi qiyofa va boshqalar kiradi.

III. Muloqotning perceptiv tomoni. O'zaro bir-birini idrok qilish, tushunishga asoslanadi. Mexanizmlari:


a) identifikatsiya – o'xhatish, aynanlashtirish, o'zini munosa-batdagi sheringining o'rniga qo'yib ko'rish, uning ichki dunyosiga

kirish tushuniladi. Yaqin kishisidan ayrilib nihoyatda ezilib turgan odamni ko'rgan kishi, o'zining ham boshidan o'tgan tashvishlarni xotirlab, bir zumdayoq shu kishining ruhiy holatini xayolan o'z boshidan kechira boshlaydi;

b) refleksiya – subyektning u bilan munosabatga kirishgan sherigi tomonidan qay tarzda idrok etilishini anglab yetishdir. Kishining kishi tomonidan idrok etilishini ko'zgudagi qo'shaloq aksiga o'xshatish mumkin. Kishi boshqa birovni aks ettirar ekan, o'sha kishining idrok etish ko'zgusida o'zini ham aks ettiradi;

d) stereotiplashtirish yillar davomida hosil bo'ladi. Xulq-atvor shakllarini tasniflash va ularni hozirgacha ma'lum va mashhur sanalgan, ya'ni ijtimoiy qoliplarga mos keladigan hodisalar jumlasiga kiritish yo'li bilan ularning sabablarini (ba'zan hech qanday asossiz) izohlashdan (mas. peshona katta bo'lsa aqlli bo'ladi, kabi) iboratdir. O'z-o'zidan ko'rindan, ana shu barcha qoliplar odamlarni noto'g'ri tarzda bilishga va ular bilan muomala jaryonining jiddiy tarzda buzilishiga olib keladi.

Muloqotning shakllari turlichadir: yuzma-yuz, texnik vositalar (telefon, telegraf) orqali, amaliy yoki do'stona; subyekt-subyekt tipli (dialogik, sheriklik), subyekt-obyektlili (monologik) bo'lishi mumkun.



**10-rasm.** a – yuzma-yuz muloqot; b – texnika vositasi orqali muloqot;  
d – subyekt-obyektlili muloqot.

## *Shaxsning shakllanishida guruh va jamoalarning o‘rni*

**Guruuhlar haqida tushuncha, turlari.** Har bir odam konkret shaxs sifatida odamlar qurshovida yashaydi. Ma’lum guruh va jamoalar doimo o‘zgarib turadi, shaxs esa ana shu o‘zgarishlarga moslashib, shu guruhdagi murakkab munosabatlarga kirishadi.

**Guruh** – faoliyat va munosabatlarga kirishish jarayonida ayrim yoki umumiyligi belgi va xususiyatlari bilan ajralib turadigan kishilar birligidir. Shaxsning guruh va jamoadagi munosabatlarini sotsial psixologiya o‘rganadi. Guruuhlar tuzilishiga ko‘ra shartli guruuhlar – biror tadqiqotchi tomonidan odamlarni ma’lum belgilar asosida (yoshi, jinsi, millati kabilar) birlashtiriladi. Shartli guruuhlar keyinchalik munosabatga kirishmasalar, real guruuhlar doimo munosabatda bo‘ladilar (mas. bir korxonadagi kasbdoshlar). Rasmiy guruhdagi munosabatlar rasmiy normalar va huquqiy burchlar tizimi bilan belgilanadi. Masalan: boshliq bilan xodimlar o‘rtasidagi munosabatlarni ta’minlovchi guruh rasmiy bo‘lsa, norasmiy – bevosita psixologik munosabatlarni ta’minlovchi guruh hisoblanadi. Masalan: do’stlar gurushi yoki talabalar guruhidagi barcha qizlarning tanaffus paytidagi muloqoti.

Guruuhlar, ulardagi o‘zaro munosabatlarga ko‘ra katta va kichik guruhlarga bo‘linadi. Kichik guruuhlar – tarkibi jihatdan ko‘p a’zolari bo‘lmagan, umumiyligi maqsad bilan bog‘langan kishilar uyushmasi, bu turmush qurgan yangi oila yoki ikki do’st. Katta guruh – bu chegarasi 12–15 kishi (G.M. Andreeva), 30–40 kishi (amerikalik psixolog Moreno), bu guruh a’zolari o‘zaro yaqin munosabatda bo‘lmasligi mumkin.

Shaxsga bir vaqtning o‘zida turli ijtimoiy guruhlarning ta’siri bo‘lib turadi. Ma’lum davrda bir ijtimoiy guruhning shaxsga ta’siri sezilarliroq va ahamiyatliroq, ikkinchisining ta’siri esa sal kamroq bo‘ladi. Masalan: o‘quvchilik yillarida maktabdagagi o‘quvchilar guruhining ta’siri, mahalladagi o‘rtoqlar davrasinikidan kuchliroq bo‘lishi, ya’ni xonadonga kelin bo‘lib tushgan qiz uchun yangi oila muhitining ta’siri talabalik guruhinikidan kuchliroq bo‘lishi tabiiy.

*Referent guruh* – shaxs bu guruh a’zolarining niyatlari, g‘oyalari, qiziqishlari, fikrlariga ergashishga, harakatlaridan andaza olishga, ularga taqlid qilishga intiladi.

*Normativ guruhlar* – bu shaxs uchun shunday insonlar guruhiki, ularning normalarini u ma’qullaydi, ularga amal qilishga hamisha tayyor bo’ladi. Bunday guruhlarga birinchi navbatda oilani, diniy yoki milliy uyushmalarni, professional guruhlarni kiritish mumkin. Masalan: o‘zbek xalqi uchun dasturxon solib o‘tirgan zahoti yuzga fotiha tortish, mezbonlarni mehmonlarga «Xush kelibsizlar» deyishlari norma hisoblanadi.

*Qiyoslash guruhি* – bu shunday guruhki, shaxs o’sha guruhga kirishga, uning ma’qullahiga muhtoj bo‘lmaydi, lekin o‘z harakatlarini yo‘lga solishda unga asoslanadi. Masalan: talabalar guruhida shunday yoshlar bo‘lishi mumkinki, shaxs ular bilan umuman mu-loqotda bo‘lmaydi, ularning fikrlari yoki qarashlarini yoqlamaydi, lekin bu guruh aynan o‘shalarga o‘xshamaslik va o‘z ustida ko‘proq ishslashga o‘zini ko‘proq safarbar qilishi uchun kerak.

*Negativ guruhlar* – shaxs ularning xatti-harakatlaridan ataylab voz kechadi, chunki ular shaxsiy qarashlardan mutlaq farq qiladi. Masalan: bir-biri bilan chiqisha olmagan ikki qo’sh devorlarini alohida rangda bo‘yaydi, biri tanlagan rangni ikkinchisi xohlamaydi. Biri oq desa ikkinchisi aksincha qora deb turaveradi. Guruhlar shaxsning shakllanishiga ham ijobjiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Jamoalar deganda biz umumiy faoliyat maqsadi asosida birlashgan, jamiyatning bir qismi hisoblangan va shu jamiyat maqsadlariga to‘la bo‘ysunadigan odamlar guruhini tushunamiz. Jamoa inson shaxsini shakllantirish uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratadigan birlik hisoblanadi. Oila jamoasi, maktabdagi o‘quvtarbiya jamoasi, bolalar jamoasi, mehnat jamoalari shunday bir muhit hisoblanadiki, unda shaxsning har tomonlama rivojlanishi yuz beradi. Bir-biriga yordam, xayrixohlik, uyushqoqlik, intizom kabi axloqiy motivlar jamoada tarkib topadi. Bolani mumkin qadar tezroq jamoaga qo’shish, undagi munosabatlarda, birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishi muhim hisoblanadi. Maktab o‘quvchilari jamoasining ahil bo‘lishi uchun turli tadbirlar, olimpiadalar, ko‘rik-tanlovlari, sport bellashuvlari, kechalar, intellektual o‘yinlar uyushtirish jarayoni va birgalashib tashvish tortishlari g‘oyat muhimdir. Bu jamoani shakllanishiga yordam beradi, bolalarni bir-biriga yaqinlashtiradi, ularni dardi va quvonchini his

etishga o‘rgatadi. Jamoada «men» va «ular» degan bir-biriga qarshi bo‘lgan azaliy so‘zlar «biz» degan tushuncha vositasida barham topadi.

**Guruh va jamoalardagi psixologik muhit va uni o‘rganish.** Psixologik moslik bu guruh a’zolarining sifatlari va qarashlarining aynanligi emas, balki ayrim sifatlarining mos kelishi, qolganlarining tafovut qilishidir. Guruhdagi ijtimoiy psixologik moslik deganda o’sha guruh a’zolarining fikrlari, hissiyotlari, dunyoqarashi, ustanovkalari (ingl. – set bo‘lib ko‘rsatma berish, anglanmagan mayllar, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish) va o‘zaro munosabatlari dan iborat emotsional intellektual holat tushuniladi. Bu holatni, sotsiometriya (sotsio – jamoa va metriya – o‘lcham) metodini amerikalik olim Jan Moreno guruhlardagi shaxslararo munosabatlarni o‘lchashga qaratilgan texnika deb atagan. Sotsiometriya yordamida shaxslararo birgalikdagi harakat jarayonida guruh a’zolarida namoyon bo‘ladigan afzal ko‘rishlik, befarqlik yoki xush ko‘rmaslikning miqdoriy me’yori aniqlanadi.

Masalan:

1. Guruhlardagi odamlar orasidan bevosita, doimo birga ishlashni xohlagan uch kishini yozing.

1. \_\_\_\_\_

2. \_\_\_\_\_

3. \_\_\_\_\_

2. Siz bilan birga o‘qiydigan kursdoshlaringizdan kimlar bilan birga bo‘s sh vaqtleringizni o‘tkazishni xohlardingiz?

1. \_\_\_\_\_

2. \_\_\_\_\_

3. \_\_\_\_\_

3. Guruhdoshlaringizdan yaxshi o‘qiydigan 3 kishini yozing.

1. \_\_\_\_\_

2. \_\_\_\_\_

3. \_\_\_\_\_

Qoida tariqasida tanlashning ikki yo‘nalishi – birgalikda mehnat (o‘qish) va vaqtichog‘lik qilish sohasi tavsiya qilinadi. Guruhdagi tabaqlanishning yakuniy holati sotsiogrammada aks etadi. Sotsiometriya metodi juda tezkor bo‘lib guruhdagi hissiy

intilishlar manzarasi yaqqol ko‘rinadi. Afzal ko‘rishlar (yulduzlar, bechoralar) natijasi pedagog uchun ahamiyatli bo‘lib bolalar bilan yakka ish olib borishiga yordam beradi, shu asosda tarbiyaviy jarayon tashkil etiladi.

Guruhlar va jamoalardagi shaxslararo munosabatlarni me’yorlashtirish, fazilatlarni tezlashtirish uchun qo‘llaniladigan uslublar majmui mavjud. Ular ijtimoiy psixologik treninglar (IPT) deb ataladi. «Trening» tushunchasi inglizcha «o‘rgatish», «mashq qilish» degan ma’noni anglatib, ijtimoiy psixologik trening bu turli ijtimoiy faoliyat sohalariga shaxsni tayyorlashdan iborat bo‘lib, bunda asosiy e’tibor shaxs yoki yaxlit guruhning muloqot yoki kommunikativ bilimdonlik darajasini maqsadga muvofiq tarzda oshirish jarayonini aks ettirishdir. Masalan, ko‘plab o‘quv yurtlarida faoliyatning u yoki bu sohalari uchun mutaxassislar tayyorlanadi. Lekin ularning kelgusi faoliyatlarida odamlar bilan murakkab munosabatlarga o‘rgatish, o‘zini va o‘zga shaxslar hamda yaxlit ijtimoiy guruhlar faoliyatlarini boshqarishga mashqlantirish va zarur ijtimoiy malakalarni orttirishga qaratilgan tadbirlar va tayyorgarliklar majmuasi treningdir.

### **Nazorat savollari:**

1. Shaxs – ijtimoiy munosabatlar mahsuli deganda nimani tushunasiz?
2. Insoniy munosabat deganda nimani tushunasiz?
3. Professional tinglash texnikasiga nimalar kiradi?
4. Muloqot qanday tuzilishga ega?
5. Stereotiplashtirish nima?
6. Guruhlar qanday tuziladi?
7. Jamoadagi va guruhdagi munosabatlarda farq bormi?
8. IPT nima?

### **2.4. Diqqat.**

#### **Diqqat haqida tushuncha**

Ongning biror-bir predmet, hodisa yoki faoliyatiga qaratilishi hamda to‘planishi **diqqat** deyiladi. Agar inson diqqat-e’tiborini o‘zi idrok etayotgan narsaga yoki bajarayotgan ishiga qarata olmas ekan, unda hech bir psixik jarayon maqsadga yo‘naltirilgan

va unumli bo‘la olmaydi. Ba’zan biron-bir predmetga qarab tursak ham uni ko‘rmasligimiz mumkin, yoki u narsa ko‘zimizga g‘irashira ko‘rinib qolishi mumkin. O‘z fikrlari bilan band odam yaqin atrofdagilar gaplarini mutlaqo eshitmaydi. Agar diqqatimiz biror-bir narsaga qaratilgan bo‘lsa, biz og‘riqni sezmasligimiz mumkin. Agar shu narsaga, predmetga butun diqqat-e’tibor bilan qaralsa, shu predmetning miridan-sirigacha bilib olishimiz mumkin.

Diqqat subyektning atrof-muhitda muvaffaqiyatli ish ko‘rishiga imkon yaratadi va tashqi olamning inson psixikasida to‘laroq hamda ravshanroq aks etishini ta’minlaydi. Biron-bir predmetga diqqat-e’tibor bilan munosabatda bo‘linganda, bu predmet ongimizning markazidan o‘rin egallaydi, boshqa barcha narsalar esa shu chog‘da kuchsiz, noaniq idrok qilinadi. Bunda diqqatimizning yo‘nalishi o‘zgarib turishi mumkin. Masalan: kitob o‘qiyotgan shaxsga xona bo‘ylab radiodan taralayotgan kuy e’tiborsiz bo‘lishi mumkin. Lekin radiodagi futbol sharhi uning diqqatini tortishi mumkin. Diqqat odatda mimikada, tashqi qiyofada, xatti-harakatda ifodalanadi. Ammo, ba’zi paytda o‘quvchi diqqat bilan o‘qituvchi so‘zlarini tinglayotganga o‘xshaydi, lekin uning fikri-xayoli sinfda yuz berayotgan voqeа-hodisalardan ancha olislarda daydib yuradi.

Diqqat shunday muhim bir psixik jarayonki, u odamning barcha faoliyatlarida ishtirok etadi. Eng sodda faoliyatda ham (masalan, ninaga ip o‘tkazishdan tortib), eng murakkab faoliyatni ham (o‘qish, yozish kabi) diqqatning ishtirokisiz bajarish mutlaqo mumkin emas. Shuning uchun diqqatning inson hayotidagi roli benihoya kattadir. Mashhur rus pedagoglaridan K.D. Ushinskiy diqqatning inson hayotidagi ahamiyati haqida gapirib, bunday degan edi: «Diqqat ruhiy hayotimizning shunday yagona bir eshidirki, ongimizga kiradigan narsalarning barchasi shu eshik orqali o‘tib kiradi». Haqiqatdan ham diqqat eshididan tashqarida qolgan narsa ongimizga borib yetmaydi.

Diqqatning bilish jarayonidagi ahamiyatini alohida ta’kidlab o‘tish lozimdir. Diqqat sezish, idrok qilish, xotira, xayol va tafakkur jarayonlarida har vaqt ishtirok etadi. Demak, diqqat barcha aks ettirish jarayonining doimiy yo‘ldoshidir. Diqqat barcha psixik jarayonlarda ishtirok etsa ham, lekin diqqatning yolg‘iz

o‘zi hech narsani aks ettira olmaydi. Odam biron narsaga zo‘r diqqat bilan kirishgan paytda uning tashqi qiyofasida, masalan, ko‘z qarashida, ish harakatlarida ayrim o‘zgarishlar yuzaga keladi. Diqqatning ana shu tashqi alomatlariga qarab odam ayni chog‘da diqqatini biror narsaga qaratayotganini yoki qaratmayotganini aniqlash qiyin emas. Masalan, diqqatimiz biron narsaga jiddiy qaratilgan paytda barcha ortiqcha harakatlar to‘xtalib organizm qimirlamay qoladi va hatto nafas olishda ham o‘zgarish ro‘y beradi. Bunday holatda nafas olish ba’zan susayib, ba’zan chuqurlashib turadi.

**Diqqatning fiziologik asoslari.** Miya po‘slog‘ida diqqatning ko‘chib yurishi xuddi katta yarimsharlar po‘slog‘idagi ikki jarayon qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonini eslatadi. Agar odamning diqqati biron-bir narsaga qaratilsa, demak bu ham unda, miya po‘slog‘ida qo‘zg‘alish o‘chog‘i maydonga kelganidan dalolat beradi. Bu paytda miyaning boshqa uchastkalari tormozlangan holatda bo‘ladi. Shu sababli odam ishga qattiq berilib ketganda boshqa narsani payqamasligi mumkin. I.P. Pavlov aytganidek, katta yarimsharlarning optimal qo‘zg‘alish sodir bo‘lib turgan uchastkasida yangi shartli bog‘lanishlar osonlik bilan yuzaga keladi. Ayni chog‘da miyadagi boshqa uchastkalarning faoliyati esa odamning odatda ongsiz, avtomatlashgan deb ataluvchi faoliyati bilan bog‘liq bo‘ladi.

Diqqatning paydo bo‘lishida oriyentirovka refleksi katta rol o‘ynaydi. Bu refleks organizmning tevarak-atrofdagi har qanday o‘zgarishiga tug‘ma reaksiyadan iboratdir. Bu refleks odamlarda ham, hayvonlarda ham bor. Xona ichidagi eshitilayotgan tovushga odam ham, mushuk ham qaraydi. Dars paytida sinf eshigining taqillashi. Bu refleksni Pavlov obrazli qilib «Bu nima?» deb ataydi. Diqqatning fiziologik asosi hisoblanmish oriyentirovka reflek-sining paydo bo‘lishiga retikular formatsiya, analizatorlar (sezgi organlari) shart-sharoit yaratadi. Boshqacha qilib aytganda, har daqiqada organizmda turli narsalarning ta’siridan hosil bo‘lgan qo‘zg‘alishlarga nisbatan oriyentirovka yoki tekshirish refleksini hosil qilgan narsaning ta’siridan yuzaga kelgan qo‘zg‘alish kuchli bo‘ladi. Demak, oriyentirovka refleksi ayni chog‘da kuchli (ya’ni optimal) qo‘zg‘alish manbayini keltiradi.

Bosh miya yarimsharlarining po'stida yuzaga keladigan kuchli, ya'ni optimal qo'zg'alish manbai uzoqroq saqlanib turadi-gan, mustahkam qo'zg'alish bo'ladi. Optimal qo'zg'alish manbai hosil bo'lganda induksiya qonuniga ko'ra, bosh miya po'stining boshqa joylarida tormozlanish vujudga keladi. Natijada optimal qo'zg'alish manbaining roli yana ham ortib ketadi. Ana shu nuqtayi nazardan akademik I.P. Pavlov diqqatning fiziologik asosini bosh miya po'sti qismidagi optimal qo'zg'alish manbai tashkil qiladi, deb juda to'g'ri aytgan. «Miya yarimsharlarining optimal qo'zg'alishga ega bo'lgan qismida,— deydi I.P. Pavlov, — yangi shartli reflekslar yengillik bilan hosil bo'ladi... Shunday qilib, optimal qo'zg'alishga ega bo'lgan joyni ayni chog'da bosh miya yarimsharlarining ijodga layoqatli qismi desa bo'ladi. Miya yarimsharlarining sust qo'zg'algan boshqa qismlari bunday xususiyatga qobil emas. Ularning ayni chog'dagi funksiyasi, juda nari borganda, tegishli qo'zg'ovchilar asosida ilgari hosil qilingan reflekslarni bir tartibda qayta tiklashdan iboratdir».

A.A. Uxtomskiy tomonidan ilgari surilgan dominantalik prinsipi ham diqqatning fiziologik asoslarini aniqlash uchun katta ahamiyatga ega. Dominantalik prinsipiga muvofiq miyada qo'zg'alishning har doim ustun turadigan hukmron o'chog'i ayni shu damda miyaga ta'sir etib, unda yuzaga kelayotgan hamma qo'zg'alishlarni qandaydir ravishda o'ziga tortib oladi va buning natijasida boshqa qo'zg'alishlarga nisbatan uning hukmronligi yanada oshadi. Odatda dominanta subdominantaga, subdominanta esa dominantaga o'tib turadi. Bu esa diqqatning bir narsadan ikkinchi narsaga ko'chib turishining nerv-fiziologik mexanizmini tashkil etadi. Ko'rinish turibdiki, I.P. Pavlov bilan A.A. Uxtomskiy ta'limotlari bir-biriga qarama-qarshi emas, balki mazmun jihatidan o'xshashdir. Demak, oriyentirovka yoki tekshirish refleksi miya yarimsharlarining po'stlog'ida optimal qo'zg'alishni yuzaga keltiruvchi omillardan biridir. Orientirovka refleksi esa odam uchun hayotiy muhim ahamiyatga ega bo'lgan, ya'ni odamning ehtiyojlari va qiziqishlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan narsalarning ta'siri tufayli yuzaga keladi. Bu refleksini yuzaga keltirishda bevosita qo'zg'atuvchilardan tashqari so'zning, nutqning ham roli g'oyat kattadir. Bolalarning diqqati katta odamlar tomonidan

aytilgan so‘zlar orqali jalg qilinadi. Demak, optimal qo‘zg‘alish manbaini so‘zlar orqali ta’sir etib ham yuzaga keltirish mumkin.

### *Diqqatning turlari*

**Ixtiyorsiz diqqat** paydo bo‘lishida odam ko‘pincha faqat irodaviy zo‘r berish u yoqda tursin, biron-bir narsani ko‘rishini, eshitishini va shu kabilarni o‘ziga oldindan maqsad qilib qo‘ymaydi. Shuning uchun bu diqqat **maqsadsiz diqqat** deyiladi.

Ixtiyorsiz diqqatni sodir qiluvchi sabablar kuchli qo‘zg‘atuvchilardir. Qo‘zg‘atuvchining nisbiy kuchi katta ahamiyatga ega. Masalan: kuchli momaqaldiroq, o‘q ovozi, tundagi shitirlash. Odamning ichki holati ixtiyorsiz diqqatning paydo bo‘lishida katta ahamiyatga ega. Masalan: yoqimli taom hidi uxlab yotgan odamni ham uyg‘otib yuboradi.

**Ixtiyoriy diqqat** amalda biron-bir narsani idrok qilish yoki ish bajarish maqsadi, niyati paydo bo‘lishi tufayli maydonga keldi. Masalan: biron-bir ishni bajarishga qiyalsak ham, shuni bajarishga intilamiz. Ixtiyoriy diqqat mehnat mashaqqatlari natijasida paydo bo‘ladi. Ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqatga nisbatan uzoq vaqt davom etadigan diqqat turi bo‘lib, u zo‘r berishni, ya’ni irodaviy kuch sarf qilishni talab etadi. Ana shu jihatdan olganda ixtiyoriy diqqat bog‘cha yoshidagi bolalarda xususan, kichik yoshdagi bog‘cha bolalarida hali yaxshi rivojlanmagan bo‘ladi. Ixtiyoriy diqqatning nerv-fiziologik asosida miya yarimsharlarning po‘sida vujudga keladigan optimal qo‘zg‘alish manbai bilan ikkinchi signallar sistemasining faoliyati yotadi. Ixtiyoriy diqqatning yuzaga kelishida nutqning roli g‘oyat kattadir. Chunki ko‘pchilik hollarda, xoh ta’lim jarayonida bo‘lsin, xoh mehnat jarayonida bo‘lsin nutq orqali turli vazifalar qo‘yish bilan ixtiyoriy diqqat ishga solinadi. Ixtiyoriy diqqat har doim ixtiyorsiz diqqat bilan almashinib turadi. Ixtiyoriy diqqat paytida odam tez charchaydi, chunki ixtiyoriy diqqat odamga hamma vaqt iroda kuchini sarflashni talab etadi. Shu sababli odam tez charchaydi. Ana shu jihatdan olganda, ta’lim va mehnat jarayonida ixtiyoriy diqqatning vaqt-i vaqt bilan ixtiyorsiz diqqatga o‘tib turishi yaxshi natija beradi. Masalan, qiziqarli rangli ko‘rgazmalar tashkil etish va hokazo.

**Ixtiyoriydan so'nggi diqqat** odamda ma'lum irodaviy zo'r berishdan so'ng paydo bo'ladi, ammo bunda odam go'yo ishga «kirishib» ketadi, ishga diqqatini yengillik bilan to'play boshlaydi. Bu diqqatning ixtiyorsiz diqqatdan farqi, bunda odamning anglangan maqsadi bo'ladi, shu tufayli diqqat bir nuqtaga to'planadi, ammo ixtiyoriydan so'nggi diqqat, ixtiyoriy diqqat emas, diqqatning bu turi odamning maxsus irodaviy zo'r berishlarini talab etmaydi. Ixtiyoriydan so'nggi diqqat avval ixtiyoriy diqqat sifatida paydo bo'lishi munosabati bilan faoliyatning ishga «tortish» jarayonining ilk bosqichini puxta tashkil etishi shart. O'quv ishi boshida o'quvchi ko'p hollarda ixtiyoriy diqqatni ishga soladi. Keyin o'quvchi ishga qiziqib qoladi, ya'ni uning diqqati chalg'iymaydi, u qunt bilan shug'ullana boshlaydi.

### *Diqqatning xususiyatlari*

Diqqat turlicha sifat ko'rinishlari bilan ta'riflanadi. Diqqatning bu ko'rinishlari diqqatning sifati yoki xususiyati deb ataladi. Diqqatning barqarorligi, ko'lami, ko'chirilishi, taqsimlanishi, to'planishi (konsentratsiyasi) uning asosiy xususiyatlari hisoblanadi. Diqqatning xususiyatlari turli odamlarda turlicha darajada ko'zga tashlanadi.

**Diqqatning kuchi va barqarorligi** deb, odam o'z diqqatini biron narsa yoki hodisaga uzoq muddat davomida muttasil qaratib tura olishiga aytildi. Diqqatning kuchi va barqarorligi inson hayotida juda katta ahamiyatga ega. Chunki, diqqatni ma'lum muddat davomida biron narsaga muttasil, ya'ni uzluksiz tarzda qarata olmaydigan odam ishlay ham olmaydi, o'qiy ham olmaydi va hatto o'ynay ham olmaydi. Diqqatning barqarorligi bu uncha-muncha ta'sirlarga chalg'imashlikdir. Diqqatning kuchli va barqaror bo'lishi bir qancha sabablarga bog'liqdir. Birinchidan, diqqatimiz qaratilgan narsaning xususiyatlari biz uchun qanchalik ahamiyatga ega ekanligiga, ikkinchidan, diqqatimiz qaratilgan narsa bilan amalga oshiriladigan faoliyatimizga, uchinchidan, nerv sistemasining ayrim xususiyatlariga bog'liqdir. Bularning hammasi obyektiv, ya'ni bizning irodamiz bilan bog'liq bo'lmagan sabablardir. Diqqatning kuchi va barqarorligi, albatta, subyektiv, ya'ni odamning ayni chog'dagi holati bilan ham bog'liq. Masalan, ayni

chog‘da betob bo‘lib turgan odamning yoki boshiga bir og‘ir tashvish tushgan odamning diqqati kuchli va barqaror bo‘la olmaydi.

Diqqatning barqarorligi uning harakatchanlik xususiyati bilan ham bog‘liqidir. Diqqatning harakatchanlik xususiyatlaridan biri uning o‘zgaruvchanligi (fluktuatsiyasi, tebranishi)dir. Diqqat tebranishi deganda diqqatning jadallik darajasi, vaqt-i vaqt bilan qisqa muddatga kuchayib yoki sustlashib ketishi tushuniladi. Agar juda kuchsiz, zo‘rg‘a eshitiladigan ovozga qulq soladigan bo‘lsak, masalan, soatning chiqillashiga qulq solsak, diqqatimiz jiddiy qaratilgan bo‘lishiga qaramay, bu ovoz goh baland, goh past eshitiladi. Bir-biriga yaqin bo‘lgan yorug‘lik farqini ajratishda ham xuddi shunday hodisa yuz beradi. Diqqatning bunday tebranish davrlari hisoblab chiqilgan. Ma’lum bo‘lishicha, diqqat tebranishining davomiyligi 2–3 sekunddan oshmaydi (ko‘pi bilan 12 sekundga teng bo‘ladi). Diqqatning o‘zgarib turishi ikkilanuvchi tasvir deb atalgan tasvirlarni idrok qilishda ko‘rinadi. Agar bir necha daqiqa davomida kesik piramidaning tasviriga tikilib qaralsa, uning ustki tomoni goh oldinga chiqqandek, goh orqaga ketgandek bo‘lib ko‘rinadi.

Agar diqqatimiz qaratilgan narsa qiziqarli va yangi, mazmundor bo‘lsa shu narsaga diqqatni ancha vaqt qaratib turish mumkin bo‘ladi. Bolalarni hayvonot bog‘iga olib borganda yoki juda qiziqarli ertak o‘qib berayotganda ularning diqqati kuchli va barqaror bo‘ladi. Bundan tashqari, diqqatimiz qaratilgan narsa bilan faol munosabatda bo‘layotganimizda ham diqqatimiz kuchli va barqaror bo‘ladi. Masalan, bolalar o‘yinchoqlarni idrok qilish bilangina cheklanmay, bu o‘yinchoqlar bilan faol harakatda bo‘lsalar (masalan, kubiklardan biron narsa yasash yoki mashinalarni qo‘l bilan yurgizish kabi) ularning diqqati kuchli va barqaror bo‘ladi.

**Diqqatning ko‘lami.** Odamlar o‘z diqqatlarining ko‘lami jihatidan ham bir-birlaridan farq qiladilar. Ayrim odamlar diqqatining ko‘lami keng bo‘lsa, boshqa bir odamlar diqqatining ko‘lami torroq bo‘ladi. Diqqatning ko‘lami ayni bir vaqtida odamning idrokiga sig‘ishi mumkin bo‘lgan narsalar miqdori bilan belgilanadi. Boshqacha qilib aytganda, idrok qilish jarayonida diqqatimiz qaratiladigan narsalarning qanchasini ongimizga sig‘dira olishimiz diqqatning ko‘lамини ташкил этиди.

Diqqatning ko'lmini tajriba yo'li bilan aniqlash qiyin emas. Buning uchun diqqatining ko'lami aniqlanayotgan odamga ayni bir vaqtning o'zida bir necha o'zaro bog'lanmagan harflar, raqamlar va turli geometrik shakllar ko'rsatiladi. Bunda odam ko'rsatilayotgan narsalardan qanchasini birdaniga idrok eta olsa, ya'ni diqqat doirasiga sig'dira olsa uning diqqati shunchalik keng bo'ladi.

Bu asbob yordamida diqqat ko'lami aniqlanayotgan odamga ayni bir vaqtning o'zida idrok ettiriladigan narsalar juda tez, ya'ni daqiqaning o'ndan, yigirmadan... ellikdan bir bo'lagi mobaynida ko'rsatiladi. Bunda odam diqqati doirasiga qancha narsani sig'dira olsa, ana shunga qarab diqqatning keng yoki torligi aniqlanadi. O'tkazilgan tajribalarning ko'rsatishicha, katta yoshli odamlar o'z diqqat doirasiga ayni bir vaqtda uchtadan oltitagacha bir-biri bilan bog'liq bo'limgan narsalarni harflar, raqamlar, shakllar va hokazolarni sig'dira oladilar. Bog'cha yoshidagi bolalar diqqatining ko'lami katta odamlarnikiga nisbatan juda tor bo'ladi. Masalan, bog'cha yoshidagi bolalar ayni bir vaqtda o'z diqqat doiralariga 2–3 tadan ortiq narsani sig'dira olmaydilar. Diqqat ko'lamining keng bo'lishi odamning turmush tajribasi va mashq qilishiga ham bog'liq bo'ladi. Diqqat ko'lamining keng bo'lishi odam idrok qilayotgan narsalarni atroflicha va chuqur aks ettirilishida hamda bilish jarayonining sifatlari bo'lishida katta ahamiyatga egadir.

**Diqqatning ko'chuvchanligi.** Ongli ravishda diqqatni yangi obyektga qaratish diqqatning ko'chirilishi deyiladi. Diqqatning ko'chuvchanligi diqqatning bo'linuvchanligi bilan bog'liq xususiyatdir. Diqqatning ko'chuvchanlik xususiyati juda ko'p faoliyat turlari uchun zarur bo'lган xususiyatdir. Masalan, hikoya o'qib berish mashg'ulotida bolalar o'z diqqatlarini hikoyani eshitishdan surat ko'rishga, undan so'ng yana eshitishga bemalol ko'chira olishlari kerak. O'quvchilar o'z diqqatlarini bir darsdan boshqa bir darsga ko'chira olishlari kerak. Diqqat hamma vaqt ham bir narsadan ikkinchi bir narsaga, bir faoliyat turidan boshqa bir faoliyat turiga osonlik bilan ko'chavermaydi. Ba'zan qiyinchiliklarga duch keladi. Albatta bunday sabablardan biri diqqatning ko'chirilishi lozim bo'lган narsalar yoki harakatlar o'rtasida bog'liqlik bor yoki yo'qligidir. Agarda diqqatimiz ko'chirilishi lozim bo'lган narsa-

lar o‘rtasida ma’lum jihatdan mazmunli bog‘lanish bo‘lsa, diqqatimiz osonlik bilan ko‘chadi. Odamning qiziqish va ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lgan narsalarga diqqat yengillik bilan ko‘chadi. Masalan, bolalar o‘zлari yaxshi ko‘rgan bir o‘yindan boshqa bir shunga o‘xshash o‘yinga tez kirishib ketadilar, ya’ni diqqatlarini yengillik bilan ko‘chira oladilar.

**Diqqatning taqsimlanishi.** Odamning diqqati ayni bir vaqt-da faqat bitta narsagagina emas, balki ikkita yoki uchta narsaga birdaniga qaratilishi mumkin. Demak, diqqatning taqsimlanishi deganda biz ayni bir vaqtida diqqatimizning ikki yoki uch narsaga qaratilishini tushunamiz. Buning aksicha, agar diqqatimiz ayni bir vaqtida bir necha narsaga qaratilgan bo‘lsa, bu taqsimlangan diqqat deb yuritiladi. Diqqatning ayni bir chog‘da ikki yoki uch narsaga qaratilishi, ya’ni bir necha narsalarga bo‘linishi amaliy jihatdan mumkin emas. Shuning uchun diqqatning bo‘linishi, ya’ni ayni bir vaqtida ikki yoki uch narsaga birdaniga qaratilishi o‘z mohiyati jihatidan diqqatning bir narsadan boshqa bir narsaga niho-yatda tezlik bilan ko‘chishidan iboratdir. Diqqatning bo‘linishi talab qilingan paytda diqqatimiz bir narsadan ikkinchi narsaga shu qadar tezlik bilan ko‘chadiki, buni biz payqay olmaymiz. Natijada diqqatimiz ayni bir vaqtning o‘zida bir necha narsalarga birdaniga qaratilayotgandek, ya’ni taqsimlanayotgandek bo‘lib ko‘rinadi.

Diqqatning bu xususiyati hayotda juda katta ahamiyatga ega. Hozirgi zamon kompyuterlashtirilgan texnika davri diqqatning taqsimlash xususiyatini talab qiladi. Bu xususiyat barcha ilmiy xodimlar hamda pedagoglar uchun ham juda zarurdir.

Masalan, tarbiyachi bolalar bilan biror mashg‘ulot yoki suhbat o‘tkazayotgan paytda diqqatini bir qancha narsalarga, ya’ni bolalarning qulq solib o‘tirishlariga, o‘zi bayon qilayotgan fikriga qarata olishi lozim. Ana shundagina tarbiyachi suhbat yoki mashg‘ulot paytida guruhni boshqara oladi.

**Diqqatning to‘planishi.** Agar diqqatimiz faqat bitta narsaga qaratilgan bo‘lsa, ya’ni diqqatimiz faqat bitta narsa ustida to‘plangan bo‘ladi, buni **konsentratsiyalashgan** (to‘plangan) diqqat deb yuritiladi.


Diqqatning ana shu yuqorida ko‘rib o‘tgan asosiy xususiyatlari odamning barcha faoliyatları uchun juda zarur xususiyatdir.

Diqqatning ana shu xususiyatlari tufayli odam atrofidagi muhitga, undagi turli-tuman o'zgarishlarga tez moslasha oladi. Diqqatning bu asosiy xususiyatlari odamga tug'ma ravishda, ya'ni irsiy yo'l bilan berilmaydi. Bu xususiyatlar odamning yoshlik chog'idan boshlab turli faoliyatlar – o'yin, o'qish va mehnat faoliyatlari jarayonida tarkib topib boradi. Ana shuni nazarda tutib tarbiyachilar turli-tuman mashg'ulot va o'yin jarayonlarida bolalar diqqatini har tomonlama hamda sistemali ravishda rivojlantirib borishlari kerak.

**Diqqatning buzilishi.** Diqqatning salbiy jihatlaridan biri parishonxotirlikdir. Parishonxotirlik bu diqqatning kerak bo'lganida boshqa obyektga tez ko'chmasligidir. Parishonxotirlik holatida odamning ongi muayyan yo'nalishga ega bo'lmaydi, balki bir predmetdan boshqasiga ko'chib turadi, ya'ni tarqoq bo'ladi. Parishonxotirlikni 2 xil ma'noda qo'llash mumkin:

1. *Diqqat umumiylar barqarorlikning natijasidir.* Ixtiyoriy diqqatning sustligi, noto'g'ri tarbiya (bolani erkalatib yuborish, jazolanmasdan qolishi va h.k.) shakli bo'lishi mumkin. Bu kichik yoshdag'i bolalarga xos bo'lib nerv sistemasining zaiflashuvi yoki qattiq toliqish, qoniqib uxlamaslik va shu kabilar natijasidir. Kat'ta yoshdag'i kishilarda ham parishonxotirlikning bu xili yuz berishi mumkin. Qunt bilan ishslashga odatlanmagan odamda ham bu xildagi parishonxotirlik paydo bo'ladi.

2. *Kishi diqqati biron narsa bilan band bo'lib boshqa narsani sezmagani paytda sodir bo'ladigan parishonxotirlik.* Bu ko'proq yozuvchilarda, olimlarda uchraydi. Masalan, yozuvchi o'z fikriga astoydil berilganligi sababli atrofidagi narsalarni, hatto yonidagi odam unga murojaat qilayotganini ham sezmaydi. Ta'lim jarayonini puxta uyuşhtirish bolalar diqqatini shakllantirishning muhim shartidir. Diqqat ta'limning muvaffaqiyatli shartlaridan biri bo'lganni uchun ham uni shakllantirish shu jarayonning o'zida yuz beradi. Bolalardiqqatining jalbetilishi tarbiyachi nutqining xususiyatlariga, uning aniqligi, ifodaliligi, sur'ati, intonatsiyasi va boshqalarga bog'liqidir. Ovozning me'yordagi baland-pastligi, mashg'ulot davomida mazmunga qarab o'zgarib turishi diqqatning bir narsaga qaratilishiga yordam beradi. Baland ovoz tinglovchilarni zo'riqtirgani kabi o'ta ohista nutq ham bolalarni toliqtiradi.



*Ongning narsa, hodisa yoki faoliyatga qaratilishi hamda to'planishi diqqat deb ataladi.*

Diqqatni jalb etishda ko‘rgazmali va texnik vositalarni qo‘llash (rasmlar, tabiiy va mum nusxalar, jadvallar, texnika vositalari, slayd-shou va h.k.) katta ahamiyat kasb etadi. Bir xildagi ijodiy bo‘lmanish diqqatning to‘planishini susaytiradi, barqarorligini pasaytiradi. Mashg‘ulotlarni to‘g‘ri tashkil etish, zarur shart-sharoitlar mavjudligi barqaror diqqatni saqlaydi, sinchkovlik va ziyraklik odatlarini hosil qiladi. Jonli, jadal suratli mashg‘ulotlar diqqatni yaxshiroq safarbar etadi. Haddan ziyod tez sur‘at chog‘ida, shoshish oqibatida «diqqatning noto‘g‘ri jalb etilishi» sodir bo‘ladi, sekin sur‘atlar bolani chalg‘itadi. Bolalar diqqatini barqaror saqlashda tarbiyachining izchil va muntazam talabchani ligi muhim rol o‘ynaydi.

Diqqatni ma’lum obyektga yo‘naltirishda ko‘rishga nisbatan eshitish qiyinchilik tug‘diradi. Bolalar diqqatining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish ta’lim-tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim shartidir. Masalan, diqqatni yetarli darajada obyektga to‘play olmaslik aqliy faoliyatning yetarli emasligiga, o‘qish faoliyatida ko‘nikma, malakalarning shakllanmaganligiga bola irodasining kuchsizligi sabab bo‘ladi. Tashqi belgilari – yuz ko‘rinishining o‘zgacha ifodasi, nigohning qaratilganligi, gavdaning biroz oldinga intilganligi, peshona salgina tirishgan, lablar bir-biriga yopishganligiga qarab bola diqqatining yo‘nalganlik va to‘planganligini aniqlash mumkin. Bolaning mashg‘ulotga nisbatan loqaydligini ham tashqi ko‘rinishiga qarab ahiqlash mumkin. Ba’zan bola tarbiyachi nazarida chalg‘igan bo‘lib tuyilsa ham, lekin savollarga erkin javob berishi mumkin.

### **Amaliy mashqlar:**

1. Sonlarni joylashtirish metodikasi. 1–36 gacha bo‘lgan sonlarni vaqtga qaragan holda tartib bilan sanag.


28	13	19	25	6	3
11	23	34	30	21	17
2	32	5	18	15	10


7	16	8	27	33	26
20	29	12	31	1	4
9	35	22	14	24	36

2. «Qizil va qora» jadvali metodikasi. Qizil va qora sonlarni vaqtga qaragan holda bir vaqtda sanang.

16	25	23	12	17	24	6
20	1	2	18	15	21	12
14	22	19	15	9	22	9
18	7	4	10	13	5	23
10	17	16	8	2	7	4
3	14	6	24	1	21	13
8	11	3	11	20	5	19

3. Diqqatning tebranishi.





4. 26 ta lotin harfi va 0 dan 9 gacha bo‘lgan sonlar yashirin-gan. Ularni toping!

### **Nazorat savollari:**

1. Diqqat deb nimaga aytildi?
2. Inson hayotida diqqatning ahamiyati qanday?
3. Ixtiyorsiz diqqat deb qanday diqqat turiga aytamiz?
4. Ixtiyoriy diqqat va uning inson hayotidagi ahamiyati haqi-da so‘zlab bering.
5. Diqqatning fiziologik asosida miyadagi qanday jarayonlar yotadi?
6. Diqqatning asosiy xususiyatlarini sanab bering.
7. Diqqatning kuchi va barqarorligi deganda nimani tushu-nasiz?
8. Diqqatning ko‘lami nima va u qanday o‘lchanadi?
9. Diqqatning bo‘linuvchanlik va ko‘chuvchanlik xususiyati nima?

### **III bob. SHAXSNING PSIXIK JARAYONLARI**

#### **3.1. Sezgilar. Sezgilar to‘g‘risida umumiyl tushuncha. Analizatorlar**

Odamning tegishli sezgi organlariga moddiy olamdag'i narsa va hodisalar ta'sir ko'rsatgan paytida ulardagi ayrim xossalarning aks ettirilishidan iborat bo'lgan eng sodda psixik jarayon sezgi deb ataladi. Masalan, qarshimizda turgan stol bilan ish ko'rар ekanmiz ko'rish yordamida biz uning rangini, shaklini, katta-kichikligini aniqlaymiz; tuyish orqali uning qattiqligini, silliqligini bilamiz; qo'lida siljitim ko'rish bilan uning og'irligiga ishonch hosil qilamiz va hokazo. Bularning barchasi moddiy buyumning alohida sifatlari bo'lib ular haqidagi ma'lumotlarni bizga sezgilar beradi.

Sezgi bilish jarayonlari jumlasiga kiradi, chunki sezgi tufayli odam olamni biladi. Boshqa psixik jarayonlar: idrok, xotira, tafakkur, xayol uchun kerakli ma'lumotlar sezgilar orqali olinadi. Sezgilar hamisha bizning sezgi organlarimizga: ko'zimizga, qulolalarimizga, teri ustiga va boshqa organlarga tashqi qo'zg'atuvchilar ta'sir ko'rsatishi tufayli vujudga keladi. Yorug'lik nuri ko'zning to'r pardasiga tushishi bilan u yerni qo'zg'atadi, bu qo'zg'alish nerv tolalari orqali miya katta yarimsharlari po'stlog'igacha yetib kelgach, odamda ko'rish sezgisi hosil bo'ladi.

I.P. Pavlovning yozishicha, katta yarimsharlari qo'zg'atuvchilarning analiz qilish organidir. Shu sababdan I.P. Pavlov sezgilarni paydo bo'lishini ta'minlovchi barcha fiziologik apparatlarni analizator deb atagan.

Analizatorlar 3 qismdan:

1) tashqi ta'sirni qabul qiluvchi retseptor (ko'zning retina yoki retchatka deb ataluvchi nerv hujayralari yorug'likni qabul qiladi va ko'rish retseptori hisoblanadi);

2) o'tkazuvchi nerv yo'llari (afferent, markazga intiluvchi) retseptorlarda vujudga kelgan qo'zg'alish shu nerv yo'llari orqali miyaga yetkazib beriladi;

3) miya katta yarimsharlari po'stlog'idagi maxsus hujayralar (masalan, miya po'stlog'inining ko'rish markazi deb ataluvchi qis-

midagi hujayralar ko'rish uchun maxsuslashgan nerv hujayralaridir). Agar analizatorlarning bir qismi zararlansa, sezgi vujudga kelmasligi mumkin. Masalan, ko'z soqqasi tagidagi retina yemirilsa, yoki miyaga boruvchi ko'z nervi zararlansa odam ko'rish qobiliyatini yo'qotadi.

### *Sezgi turlari*

Odamda paydo bo'lувчи sezgilarni uch guruhgа ajratish mumkin. Birinchi guruhgа tanamizning tashqi tomoniga joylashgan sezgi organlari, ya'ni eksterotseptorlar orqali vujudga keluvchi sezgilar kiradi. Ko'rish, eshitish, teri-tuyish, hid bilish va ta'm-maza sezgilari ana shu analizatorlarning ishi bilan bog'liq. Ikkinci guruhgа retseptorlariga ichki organlarda joylashgan interotseptorlar va ichki qo'zg'atgichlar ta'siri uchun qulay bo'lgan sezgilar kiradi. Uchinchi guruhgа harakat analizatorlari va muvozanat sezgilari, propriotseptorlar kiradi.

**Eksterotseptorlar.** Ko'rish sezgilari narsalarga urilishi tufayli qaytarilgan yorug'lik (elektromagnit) to'lqinlarning ta'siri natijasida vujudga keladi. Yorug'lik to'lqinlari ko'z qorachig'i orqali o'tib, ko'rish retseptori deb ataluvchi ko'z to'r pardasiga (retinaga) ta'sir etadi. Odam ko'rish sezgilari orqali narsalarning rangi, shakli, fazoviy holati kabilar haqida xabar oladi.

Inson hayoti va faoliyatida eshitish sezgilari katta o'rin tutadi. Ba'zi jihatlarga ko'ra u ko'rish sezgilardan ham muhimroqdir: eshitmaslik bola nutqi va fikrlash faoliyatining rivojlanishida jiddiy g'ov hisoblanadi. Bizning eshitish apparatimiz tovushlarning sekundiga 16–20 ming martagacha tebranishdagi xillarini sezaladi. Biz eshitadigan tovushlarni ikki guruhgа ajratish mumkin: musiqa tovushlari va shovqinlar (qarsillash, gumburlash, taqillash, shitirlash).

Teri sezgilari – narsalarning mexanik va issiqlik xossalari terining sirt qismiga ta'sir qilishi natijasida paydo bo'ladi. Teri sezgisi og'riq va harorat sezgilari bo'linadi. Og'riq sezgisi juda xilma-xil qo'zg'atgichlar tomonidan, ular organizmning tirik to'qimalarini buza boshlashi bilanoq paydo bo'la boshlaydi.

Harorat sezgilari issiq vasovqni sezishdan iborat. Qo'l yoki tananing boshqa qismi bilan predmetni paypaslab harakat qilish

orqali odamda tuyish sezgilarini vujudga keladi. Taktil sezgilar retseptori ham terining yuza qatlamida joylashgan nerv uchlari- dir. Ular qo'l barmoqlarining uchida va tilda eng zich joylashgan bo'ladi. Taktil sezgilarga biron narsaning tekkanini, bosimini va tebranishini sezish kiradi.

Hid bilish sezgilarini bizga xushbo'y hidlardan huzurlanish, shuningdek salomatlik uchun zararli narsalardan saqlanish imkonini beradi. Hidli moddalarning zarrachalari havoga tarqalib, burun kavagida, hid bilish hujayralari joylashgan shilliq pardalariga kelib uriladi va hid bilish sezgisini hosil qiladi. Og'zimizga olingan moddalarning zarrachalari ta'm bilish sezgilarining qo'zg'atuvchilari hisoblanadi va ular til, tomoq, tanglay, kichik til yuzasida joylashgan nerv uchlariiga (ta'm bilish kurtaklariga) ta'sir ko'rsatadi. Ta'm-maza sezgilarini 4 xil; shirin, nordon, sho'r va achchiqni sezish natijasida sodir bo'ladi. Ta'm-maza sezgilarining to'liq sodir bo'lishida hid bilish sezgisining ahamiyati kattadir. Agar odamning dimog'i hidni sezmasa, yegan ovqatinning mazasini bila olmaydi.

**Interoretseptorlar.** Organik sezgilar qorin ochlik, chanqash, ichki organlardagi og'riqlar natijasida hosil bo'ladi. Odatda tanamiz sog'lom, qornimiz to'q va hech narsa bizni bezovta qilmagan paytlarda bizda og'riq sezgilarini deyarli paydo bo'lmaydi.

**Proprietseptorlar.** Harakat yoki kinestetik sezgilar bizga o'zimiz qilgan harakatlar haqida xabar beradi. Har bir odam hatto ko'zlarini yumib olgan bo'lsa ham o'z qo'li, oyog'i tana qismlari qanday holatdaligini sezib turadi. Harakat sezgilarining retseptori paylarda, bo'g'lnarda va asosan muskullarda joylashgan. Shu sababdan ularni ba'zan muskul sezgilarini deb ham yuritiladi. Muvozanat sezgilarini boshimizning, gavdamizning harakati hamda fazodagi holati haqida darak beradi. Muvozanat sezgilarining retseptorlari ichki quloqqa joylashgan. Bu organlarning normal holati izdan chiqqan paytda odam o'zini noxush sezadi (masalan, boshi aylanadi yoki «dengiz kasalligi»ga uchraydi). Vibratsiya sezgilarini boshqa sezgilar orasida alohida o'rin egallaydi, bu sezgilarni narsalarning tebranishi haqida xabar beradi. Buyumlarning va havoning tebranishi vibratsiya sezgilarining qo'zg'atuvchilaridir.

Tananing butun ustki yuzasi qo‘zg‘atuvchilarning ta’sirini qabul qilib oladi.

### *Sezgi chegaralari va sezgirlik*

Sezgilarning kuchi turli darajada bo‘lishi mimkin. Sezgilarning kuchi avvalo qo‘zg‘atuvchining kuchiga bog‘liq. Qo‘zg‘alish qanchalik kuchli bo‘lsa, hosil bo‘ladigan sezgi ham shuncha kuchli bo‘ladi. Har qanday ta’sirdan ham sezgi hosil bo‘lavermaydi. Qo‘zg‘atuvchi hech qanday sezgi hosil bo‘lmaydigan darajada sust ta’sir etishi mumkin. Masalan, 1 gramm qandni bir stakan suvda eritib ichilsa shirinlik sezilmaydi. Dastlabki bilinar-bilinmas sezgining paydo bo‘lishi uchun qo‘zg‘atuvchi muayyan kuchga ega bo‘lishi zarur. Qo‘zg‘alishning salgina sezila boshlagan darjasи sezgining pastki yoki absolut chegarasi deyiladi. Sezgilarni hosil qiladigan qo‘zg‘alish kuchi ortishi va kamayishi mumkin. Agar uyda bitta lampochka yonib turgan bo‘lsa muayyan darajada yorug‘lik sezamiz. Agar yana bitta lampochka yoqib qo‘yilsa yorug‘lik sezgisi kuchayadi. Agar bir stakan choygа 6 gramm qand qo‘shsak shirin mazani sezamiz, unga yana 2 gramm qand qo‘shsak farqni kimdir sezadi, kimdir sezmaydi. Qo‘zg‘atuvchilar o‘rtasidagi sezilar-sezilmas farqni sezish farq qilish chegarasi deyiladi. Qo‘zg‘alish kuchining og‘riq tomon yoqimsiz darajada o‘zgarishi sezgining yuqori chegarasi deyiladi. Masalan kuchli tovush quloqni, boshni og‘ritadi. Kuchli yorug‘lik ko‘zni qamashtirib ko‘rish o‘tkirligini pasaytiradi. Sezgi chegaralarining darjasи sezgirlikning darajasini belgilab beradi. Bu sezgirlik sezgi chegaralarining darajasiga teskari nisbatda bo‘ladi. Sezgi chegarasining darjasи qancha yuqori bo‘lsa, sezgirlik shunchalik past bo‘ladi va aksincha sezgi chegarasining darjasи qanchalik past bo‘lsa, sezgirlik shuncha kuchli bo‘ladi. Sezgi chegaralariga qarab absolut sezgirlik va farq qilish sezgirligi ajratiladi. Sezgi darjasи sezgi o‘tkirligi deb ham yuritiladi. Masalan ko‘rish, eshitish o‘tkirligi, ta’m bilish nozikligi va boshqalar.

### *Sezgilarning umumiy xususiyatlari*

Har bir odam o‘zining sezgi xususiyatlari, sezgirlik darjasи bilan bir-biridan farq qiladi. Quyidagi sezgi xususiyatlari farqlanadi: adaptatsiya, sensibilizatsiya, sinesteziya, kompensatsiya.

1. **Adaptatsiya** (lotincha adapto – moslashmoq) sezgi a’zolarining muhit o’zgarishlariga moslashuvidir. Adaptatsiya 3 xil:

a) qo’zg’atuvchning davomli ta’siri jarayonida sezgilarning to’la yo‘qolishi. Masalan, teriga biron narsa doimiy tegib tursa, bora-bora u narsa sezilmay qoladi;

b) kuchli qo’zg’atuvchining ta’sirida ham sezgilar zaiflashishi mumkin. Masalan, qorong’iroq xonadan juda yorug’ joyga kiring qolsak, kuchli yorug’likdan «ko’r» bo’lib, atrofdagi narsalar ni ajrata olmaymiz. Birozdan so’ng analizatorlarning sezgirligi keskin pasayadi va biz ko’ra boshlaymiz. Bu ikki adaptatsiya turri psixologiyada negativ adaptatsiya deyiladi, chunki ularda sezgirlik keskin pasayadi;

d) sezgirlikning kuchsiz qo’zg’atuvchi ta’siri ostida kamayib borishi. Masalan, qorong’ilik adaptatsiyasida ko’rish sezgirligi ortadi, sokinlikka nisbatan adaptatsiya eshitish adaptatsiyasi zamirida yuzaga keladi.

2. Analizatorlarning o’zaro munosabati va mashq qilish natijasida sezuvchanlikning ortishi **sensibilizatsiya** deb ataladi. Qo’zg’alish jarayonining tarqalishi natijasida boshqa analizatorlarning sezuvchanligi ortadi. Sensibillahtirishga mashq qilish natijasida erishish mumkin. Masalan, musiqa bilan shug’ullanadigan bolalarda past-baland ohanglarni eshitish qobiliyati rivojlana di. To’qimachilik sanoatining ayrim ishchilari qora rangning 60 ga yaqin tusini ajratadilar. Tajribali lotsman (kuzatuvchi)lar olis masofadagi narsalarni ham yaxshi ko’ra oladilar.

**Sinesteziya** bir analizatorning qozg’alishi ta’siri ostida boshqa analizatorlarga xos sezgining paydo bo’lishidir. Ayrim kompozitorlar (N.A. Rimskiy-Korsakov, A.N. Skryabin)da «rangli eshitish» qobiliyati bo’lgan. Kuchli, qulqoni kar qilgudek tovush ko’rish sezgirligini kamaytiradi, ohangdor tovushlar esa oshiradi. Badanning birdaniga sovutilishi va qizdirilishi ko’rishni xiralashtiradi.

Bir sezgi o’rnini ikkinchi sezgi analizatori egallashi **kompensatsiya** deyiladi. Masalan, ko’zi ojizlarda eshitish, hid bilish va tuyish sezgilari kuchli bo’ladi. Xonaga kirgan kishining qadam tovushidan kimligini aytib berishadi, maxsus bo’rtiq yozuvli kitob o’qiydilar. Ham kar, ham ko’zi ojiz odamlarda hid bilish va vib-

## SEZGILAR




*Tegishli sezgi organlariga ta'sir etib turgan narsa va hodisalarining ayrim xususiyatlarini ongimizda aks ettirishdan iborat bo'lgan eng sodda psixik jarayon sezgi deb ataladi.*

ratsiya sezgilarining ahamiyati katta. Ayrim karlar royalda chalingan musiqani «tinglaydilar». Bunda ular royalga orqa o'girib o'tiradilar yoki royal qopqog'i ustiga qo'llarini qo'yib oladilar, bu holat ularga tebranishni yaxshiroq idrok qilishga yordam beradi. Bolalarda sezgilarni yaxshiroq rivojlantirishning shart-sharoitlarini yaratish uchun pedagog avvalo turli yosh davrlarda analizatorlar rivojlanishida sodir bo'luvchi qonuniy o'zgarishlarni yaxshi bilishi hamda hisobga olishi, ikkinchidan analizatorlarning normal ishlashini ta'minlovchi tegishli shart-sharoitdan xabardor bo'lishi, bu shart-sharoitlarni hisobga olishi va sharoit yaratishi, uchinchidan esa, har qaysi sezgini rivojlanishga imkon beruvchi mashqlarni bilishi, binobarin, bunday mashqlarni uyushtira olishi zarur. Maxsus treninglardan foydalanish, ularni yakka va guruhiy tarzda o'tkazish ham yaxshi natija beradi. Pedagog albatta sezgi organlarini avaylash haqidagi tushuncha berishi zarur. Ayniqsa, hozirgi kunlarda bolalarning kompyuter o'yinlariga berilib ketishi ko'rish sezgisiga, uyali telefonlar esa eshitish sezgisiga salbiy ta'sir qilayotganini bilishlari zarur.

### **Topshiriq va mashqlar:**

1. Oq qog'ozdagи qizil doiraga 20—30 sekund davomida tikilib turing, keyin esa oq qog'ozga qarang. Nima hosil bo'ladi?
2. Yozilgan so'z yoki harfni xira ko'ringunga qadar ko'zdan uzoqlashtirib boring. Bu bilan sheringingizdagi ko'rish sezgirligini aniqlang.
3. Rasm (11-rasm)ni 25—30 sm masofada qo'yib, o'ng ko'zni qo'l bilan yumib, doiraga qarang. Suratni dam-badam oldinga orqaga surib shunday masofaga keltiringki plus belgisi ko'rmasdan qolsin. Plus belgisidan kelayotgan nur ko'zning ko'r dog'iga tushib qoladi. Ko'z soqqasidan chiqadigan nerv tolallari yarimsharlardan o'tib, bosh miyaning ensa bo'lagiga bora-di, bosh miya po'stining ko'ruv markazlari ham shu yerda joylashgan.
4. Izma-iz obrazlar (12-rasm). Negativga 30 daqiqa tikilib qarang so'ng oq qog'ozga ko'z tashlansa negativ (portret obraz) ko'rindisi.



11-rasm. Ko'r dog'ni topish usuli.



12-rasm. Izma-iz obrazlar.

### Nazorat savollari:

1. Sezgi nima?
2. Analizatorning vazifasi nimadan iborat?
3. Sezgining qanday turlari bor?
4. Ko'rish sezgisini vujudga keltiruvchi narsa nima?
5. Ketma-ket obrazlar qanday yuz beradi?
6. Harakat va organik sezgilarning farqi nimada?
7. Sezgirlik nima?
8. Adaptatsiya nima?
9. Sezgi xususiyatlarining o'zaro farqi bormi?

### 3.2. Idrok

**Idrok to'g'risida umumiy tushuncha.** Narsalarning alohida-alohida sifatlari (rangi, tovushi, qattiqligi va hokazo) sezgilar tufayli miya yarimsharlarida aks ettiriladi. Ammo odamni qurshab olgan voqelikdagi har bir narsa yoki hodisada turlichaligida sifatlari

va xususiyatlarning yaxlit kompleksi mujassamlashgan bo‘ladi. Analizatorlar orqali hosil bo‘ladigan sezgilar narsa va hodisalarni to‘g‘riroq aks ettirish uchun miya po‘stlog‘ida bir-biri bilan birlakadi va odamda narsa va hodisaning yaxlit obrazi yaratiladi.


Ayni chog‘da sezgi organlariga ta’sir etib turgan narsa va hodisalarni ongimizda yaxlit aks ettirilishidan iborat bo‘lgan psixik jarayon **idrok** deb ataladi. Sezgilarga qaraganda idrok vogelikni aks ettirishning ancha yuksak formasidir.

Katta yarimsharlar po‘stlog‘ida vujudga keluvchi murakkab shartli refleks bog‘lanishlari idrokning fiziologik asosi hisoblanadi. Tashqi qo‘zg‘atuvchilar ta’siri natijasida vujudga keluvchi qo‘zg‘alishlar katta yarimsharlar po‘stlog‘ida sintez qilinadi (birlashtiriladi). Idrok qilishda bir necha analizatorlarning ishi bilan organizmning qator qo‘zg‘atuvchilar kompleksi ta’siriga javoban reaksiysi bir-biri bilan uyg‘unlashadi. Masalan, biz atirgulni idrok qilar ekanmiz bir vaqtning o‘zida biz uning chiroyli shaklini ham, ajoyib rangini ham ko‘ramiz. Gulning xushbo‘y atrini hidlab bilamiz, gulbarglarining mayinligini tuyib sezamiz va hokazo. Alohida-alohida bu belgilarning bar-chasi miya po‘stlog‘ida yaxlit kompleks bo‘lib birikadi. Bundan tashqari, biz bu narsaning atirgul ekanligini taniymiz, ya’ni bu yerda xotira jarayonlari ham ishtirok etadi. Gul hidi bizga huzur bag‘ishlaydi, bizda yoqimli his uyg‘otadi. Nihoyat idrok jarayoni tarkibiga tafakkur ham kiradi: mazkur gul atirgulning qanday navi ekanligi haqida o‘ylaymiz, dastlabki sodda xulosani chiqaramiz. Idrokda qaysi analizator ustunlik qilishiga qarab ko‘rish, eshitish, hid bilish, ta’m-maza, teri-tuyish va kinestetik idrok turlariga ajratiladi.

**Idrokning ba’zi bir xususiyatlari.** Idrok odamning faoliyati bilan chambarchas bog‘liq jarayondir. Agar biz biron rasmga mahalliyo bo‘lib uning qarshisida qimirlamay tursak ham, baribir bitor aqliy ishni amalgal oshiramiz, aks holda hech narsani anglay olmagan bo‘lamiz. Odatda bizning ongli idrok qilishimiz, bilib olishimiz lozim bo‘lgan qandaydir konkret masalani yechishdan iboratdir. Uni maxsus perceptiv faoliyat ( lotincha perceptio – idrok) deb atash mumkin. Deyarli har qanday obyekt shu obyektni qurshab organ fon bilan birgalikda idrok qilinadi. Dars boshida

o‘qituvchi butun sinfga, partada o‘tirgan ko‘plab bolalarga nazar tashlab turibdi, deb faraz qilaylik. Ammo shunday bir lahza yuz beradiki, o‘qituvchining nigohi ana shu o‘nlab o‘quvchilar orasidan bittasini ajratib olib, kuzatib boradi. Qolgan butun sinf fon vazifasini o‘taydi. Ba’zan obyekt bilan fon o‘zaro o‘rin almashib turishi mumkin (vaza, o‘rdakcha, ayol va hokazo). Bunday rasmalar **ikkilanuvchi tasvirlar** deb ataladi.

Analizatorlarimizga keluvchi ko‘pdan ko‘p qo‘zg‘alishlar orasidan qaysi biriga diqqatimizni qaratsak, faqat shunisininga biz ayni chog‘da idrok qilamiz. Bu hol idrokning tanlab (ajratib) oluvchanlik xossasi deb ataladi. Idrokning yaxlitligi va ongliligi o‘tmish tajribamizning natijasi hisoblanadi. Agar derazadan olisdagi simyog‘ochlarga qarasak, ular ko‘z to‘r pardasida juda kichrayib aks etadi, oldimizda yotgan qalamdan ham kichikdek. Lekin biz ikkalasini ikki xil idrok qilamiz. Bu idrokimizning konstantlididan, ya’ni doimiyligidan dalolat beradi. Bolalarda turmush tajribasi oz bo‘lganligi sababli idrokning konstantlik xususiyati amaliy faoliyatları jarayonida yuzaga keladi.




**13-rasm.** Ikkilanuchi tasvirlar: a – Rubin vazasi; b – rasmda nimalarni ko‘rayapsiz? (Psixolog Djozef Yastrov chizgan rasmlar).

**Idrok darajalari.** Idrokning o‘tmish tajribaga bog‘liqligi ap-persepsiya (lotincha ap – taalluqli, perceptio – idrok demakdir) deb ataladi. Turli kasb kishilari bitta narsaning o‘zini turli-

cha idrok qiladilar. Gulni ko‘zdan kechirayotgan rassom guldagi ranglarning uyg‘unligiga e’tibor bersa, botanik qaysi sinfga man-subligi nuqtayi nazaridan qaraydi, agronom yem-xashak turi si-fatida qaraydi va hokazo. Bizning ongli idrok etishimiz persep-siya deyiladi. Narsalarni noto‘g‘ri, buzib idrok qilish illuziya deb ataladi. Bu singari rasmlarni ko‘zdan kechirishda xatoga yo‘l qo‘yadilar, chunki bu illuziyalar sezgilarimiz va idrokimizning xususiyatlariga bog‘liqdir. Ayrim illuziyalarning nomlarini aytib o‘tamiz:

- 1) ochiq (yorqin) va bo‘g‘iq rang illuziyasi;
- 2) kontrastlik illuziyasi;
- 3) butun xususiyatlarning bo‘laklarga ko‘chishi illuziyasi;
- 4) narsalar tepa qismining kattalashib ko‘rinishi illuziyasi;
- 5) chiziqlar yo‘nalishining o‘zgarishi illuziyasi;
- 6) perspektiva illuziyasi.



14-rasm.



15-rasm.

14-rasmdagi chiziqlarning qaysi biri uzun?

15-rasmdagi kvadratlarning qay biri katta?

Gallutsinatsiya – (lot. hallucinatio – alahlash, bosinqirash, valdirash) real voqelikdagi narsa va hodisalarining analizatorlarga bevosita ta’sirisiz ongimizda turli obrazlarning xayoliy ravishda paydo bo‘lishidan iborat psixopatologik hodisa. Gallutsinatsiya sezgi a’zolarimizning normalariga qarab ko‘rvuv, eshituv, hid va boshqa turlarga bo‘linadi. Gallutsinatsiya psixik kasallikning belgisi bo‘lib, bosh miya qobig‘idagi qo‘zg‘alish jarayonlarining patologik sustligi natijasida, ba’zan nerv sistemasining zaharlanishi yoki haddan tashqari toliqishi natijasida ro‘y beradi.

### *Idrokning shakllari*

Tevarak-atrofimizni qurshab olgan moddiy olamdagি bar-cha narsalar fazoda joylashgan bo‘lib, muayyan o‘rin egallaydi,

ulardan har birining o‘z katta-kichikligi, hajmi va shakli bor. Ular bizga va boshqa narsalarga nisbatan ma’lum masofada turadi. Narsalarning ana shunday fazoviy holatlarini ko‘z o‘ngimizda aks ettirishimiz **fazoni idrok qilish** deb ataladi. Bundan tashqari moddiy olamdagи narsalar doimo harakatda va o‘zgarishdadir. Bu harakat va o‘zgarishlar ma’lum bir vaqt ichida yuz beradi. Narsalar harakati va o‘zgarishidagi oldinma-ketinlik, tezlik va davomiylikning odam ongida aks ettirilishi **vaqtini idrok qilish** deb ataladi. Obyektlarning fazoda egallagan holati o‘zgarishining aks ettirilishi **harakatni idrok** etish deyiladi.

Olam materiyadan iborat, materiya hamisha fazo va vaqt ichida mavjuddir, yoki faylasuflar ta’biri bilan aytganda yashash formalaridir. Bir qancha sezgi organlari va miya katta yarimsharlari po’stlog‘ining birligida ish bajarishi fazo va vaqtini idrok qilishning fiziologik assosi hisoblanadi. Biz narsalarning fazoviy xususiyatlarini avvalo ko‘rib idrok qilamiz. Ammo bu xususiyatlarni idrok qilishda yolg‘iz ko‘rishning o‘zi kifoya qilmaydi. Ko‘zimizning to‘r pardasida shar tekis doira sifatida, kub esa kvadrat shaklida aks etadi, bu yo‘sinda aks ettirish orqali mazkur buyumning hajmini idrok etib bo‘lmaydi. Turlicha masofadagi narsalarni idrok qilishda ham shunga o‘xhash hodisa ro‘y beradi. Ularning ko‘z pardasiga tushuvchi aksi katta-kichikligi jihatidan teng bo‘lishi mumkun. Bu esa ularning katta-kichikligi hamda ulargacha masofa haqida aniq tasavvur bera olmaydi. Ko‘rish va muskul-harakat sezgilarining birga qo‘shilishi tufayli biz narsalarning fazoviy holatlari haqidagi to‘g‘ri ma’lumotga ega bo‘lamiz. Masalan, harakat qilish sohasida ham yetarli darajada tajriba orttirmagan go‘dakning to‘g‘ri tasavvur eta olmasligining boisi ham shundadir. Go‘dak o‘zidan ancha olisdagi narsaga qo‘l cho‘zib, uni ushslashga harakat qiladi. Tug‘ma ko‘rlar operatsiyadan keyin ko‘ra oladigan bo‘lgach, ular dastlabki paytda ko‘rish idroki yordamida shar bilan doirani bir-biridan farq qila olmaydilar. Narsalarni qo‘l bilan paypaslab ko‘rgandan keyingina uning fazoviy xususiyatlarini to‘g‘ri aytib bera oladilar.

Odamning binokular ko‘rishi narsalarning hajmini idrok qilishda katta ahamiyatga ega. Binokular ko‘rish (lotincha bini –

ikkitadan, okulus – ko‘z ya’ni ikki ko‘z bilan ko‘rish)da ko‘z to‘r pardasida biz ko‘rayotgan narsaning ikki xil tasviri hosil bo‘ladi: o‘ng ko‘zda narsaning ko‘proq o‘ng tomoni aks etsa, chap ko‘zda chap tomoni aks etadi. Bu tasvirlar ongimizda yaxlit bir holat tasviriga keltiriladi, shu tufayli ham biz narsaning hajmli ekanini bilamiz. Ko‘rishimizning binokularligi masofani idrok qilishimizda ham yordam beradi. Narsalarning uzoq-yaqinligini idrok qilishda ikki ko‘zdagi ko‘rish o‘qlarining yo‘nalishi tufayli sodir bo‘luvchi sezgilar katta ahamiyatga ega, ikki ko‘z o‘qining bir narsaga tomon yo‘naltirilishi konvergensiya (lot. konvergare – yaqinlashish, tutashish) deb ataladi. Ko‘zning bu harakatlari ixtiyorsiz ravishda yuz beradi. Narsaning bizdan qanchalik olis yoki yaqinligini bildiradi.

Vaqtni idrok qilish bizga voqelikdagi hodisalarining davomiyligi, tezligi va ketma-ketligi haqida tasavvur beradi. Tabiatdagi davriy harakatlar va bir me'yorda yuz beruvchi o‘zgarishlar, yerning aylanishi, kunduz va kechaning almashinishi, yil fasllari, vaqtini (oy, yil, sutka) aniq o‘lhash imkonini beradi. Vaqtning qisqacha bo‘laklarini (soat, daqiqa, soniya) aniqlashda biz asboblardan (soatdan) foydalananamiz, soatning millari ma’lum vaqt birligida bir xil yo‘lni bosib o‘tadi. Bu yo‘sinda vaqtini o‘lhash vaqt ni bilishning obyektiv usulidir, bu tarzda vaqtini o‘lhash bizdan tashqarida, ya’ni obyektiv ravishda sodir bo‘luvchi jarayonlar yordamida amalga oshadi. Biroq vaqtini baholash subyektiv xarakterda ham bo‘ladi, ya’ni ma’lum baholanadigan vaqt oralig‘i davomida yuzaga keladigan tasavvur hamda kechinmalar bizning vaqt haqidagi fikrimizni belgilaydi. Agar ana shu vaqt oralig‘i davomida odamda tasavvur hamda kechinmalar paydo bo‘lsa, vaqt sekin o‘tayotgandek tuyiladi. Agar aksincha, biz ko‘proq taassurotlar olsak, masalan sayr yoki ekskursiya qilsak, nazarimizda vaqt ju da tez o‘tib ketgandek bo‘ladi.

Harakatning idrok etilishi hayotiy ahamiyatga ega bo‘lib, unda ko‘rish va kinestezik analizatorlar asosiy o‘rin tutadi. Ko‘rish orqali biz obyektlar harakati haqidagi axborotni ikkita har xil usul bilan, qayd etilgan nigoh va ko‘zlarning kuzatuvchi harakati yordami bilan olishimiz mumkin.

## *Kuzatuvchanlik – shaxs sifati ekanligi*

Odamlar tashqi olamni idrok qilish qobiliyatlariga ko‘ra bir-birlaridan farq qiladilar. Ayrim kishilar yaxshi kuzata oladilar, ularning bu fazilati **kuzatuvchanlik** deb ataladi. Boshqa kishilar bu sifatga ega bo‘lmaydi. Odatda qiziquvchan odamlar kuzatuvchan bo‘ladilar. Kuzatuvchanlik qobiliyati odamda biron-bir narsani kuzatishni avvaldan o‘z oldiga maxsus ravishda maqsad qilib qo‘yishdangina emas, balki odatdagি kundalik sharoitlarda, kuzatish niyati bo‘lmagan sharoitlarda ham ko‘zga tashlanadi. Bunda kuzatuvchan odam narsalarni ancha aniq idrok qiladi, aksincha bu qobiliyatga ega bo‘lmagan kishi ko‘pgina narsalarni payqamaydi, idrokda esa ko‘pgina xatoga yo‘l qo‘yadi. Shaxsning xislati bo‘lmish kuzatuvchanlik faoliyatning hamma turlari uchun zarurdir. I.P. Pavlov shaxsning kuzatuvchanlik fazilatini yuksak darajada qadrlagan. Rassom va yozuvchining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ularning ana shunday shaxsiy fazilatga ega bo‘lishlariga bog‘liqdir, ular o‘zlarining ijodiy ishlari uchun doimo kuzatib, ma’lumot to‘playdilar.

Ayrim kishilarning kuzatuvchanligi moddiy narsalar bilan ko‘proq aloqador bo‘ladi. Ular buyumning sifatiga, uning qanday materialdan tayyorlanganligiga ko‘proq e’tibor beradi, buyumning afzal tomonlarini yaxshiroq ko‘radi. Bu xildagi zehni o‘tkirlik narsalarga nisbatan kuzatuvchanlik deb ataladi. Boshqa odamlar shaxsning psixik xususiyatlarini yaxshi payqab oladi, odamning ichki dunyosini yaxshi biladi. Bu odamlarda psixologik kuzatuvchanlik o‘sgan bo‘ladi. Ayrim kishilar kuzatuvchanlikning ikki turiga ham ega bo‘ladilar.

Odamlar idrok qilish sohasida bir-birlaridan yana shunisi bilan farq qiladilarki, kuzatuvchan kishilarning ayrimlari narsani o‘rganishda unga obyektiv ravishda yondashib, idrok etilayotgan narsaga xolisona munosabatda bo‘lishga harakat qiladi. Ularning idroki aniq bo‘ladi, voqelikka muvofiq keladi, ular idrok jarayonida o‘zlaridan hech narsa qo‘shmaydilar. Boshqalarda esa idrokleri mazmuniga, ehtimol his-tuyg‘ulari va boshqa shu kabilalar ta’sirida ko‘pgina shaxsiy subyektiv munosabatlari qo‘shilib ketadi. Bunday odamlar hodisalarni ko‘pincha yorqin, rangdor

qilib tasvirlaydilar-u, ammo ularning tasviri ko‘pincha noto‘g‘ri bo‘ladi, unchalik aniq bo‘lmaydi.

Narsa va hodisalarni rejali, izchil, ma’lum bir maqsadni ko‘zlab idrok qilish **kuzatish** deb ataladi. Kuzata olish qobiliyati kishiga vaziyatni yaxshiroq fahmlab olishga, narsalarni yanada aniqroq idrok etishga, odamlarni durustroq tushunishga, ularning tashqi xususiyatlari va ichki psixik sifatlarini puxtarroq bilib olishga imkon beradi. Ularning barchasi odamga yanada to‘g‘riroq ish ko‘rish, tevarak-atrofimizni qurshab olgan olam tomonidan ko‘rsatuvchi ta’sirlarga oqilona javob qaytarish imkoniyatini yaratadi. Kuzatishni hamma odam ham uddalayvermaydi.

Quyidagi shartlarga rioya qilingan taqdirda kuzatish to‘g‘ri o‘tkazilishi mumkin:

1. Kuzatishdan ko‘zlangan maqsadni odam tushunib yetgan bo‘lishi zarur. Bordi-yu biror kimsaga: «Kuzating!» — desak-u, nimani va nima maqsadda kuzatish lozimligini tushuntirib bermasak uning kuzata olmasligi muqarrardir.

2. Kuzatish o‘tkazuvchi odam o‘zi kuzatmoqchi bo‘lgan narsasi haqida ozmi-ko‘pmi bilimga ega bo‘lishi zarur. Kuzatishimiz lozim bo‘lgan narsa haqida avvaldan hech narsani bilmasak, kuzatishga ancha qiynalishimizga to‘g‘ri keladi.

3. Kuzatishni izchil ravishda, reja bo‘yicha o‘tkazish talab etiladi. Kuzatiladigan obyektni tartibsiz ravishda ko‘zdan kechirish kamdan kam holdagina zarur natijalarga erishtiradi.

4. Kuzatish mumkin qadar mukammal, chuqur bo‘lmog‘i kerak. Kuzatiladigan obyektdagi eng muhim tomonlarni topish va narsani to‘g‘ri tushunishda ahamiyatli qismlarni sinchiklab ko‘zdan kechirish zarur.

5. Odamlarning tevarak-atrofidagi barcha narsalarga nisbatan qanchalik o‘tkir mushohadaliligi ham idrokning sifatlari- ga bog‘liq. O‘tkir mushohadalilik shaxsning muhim xususiyati bo‘lib, ta‘lim jarayonida uning ahamiyati kattadir.

#### *Ko‘rgazmalilik – o‘zlashtirishning asosiy sharti ekanligi*

Bolalarning kuzatishini uyuştirgan va yangi bilimning ancha samaraliroq o‘zlashtirilishini ta’minlash ishiga pedagogika-

da ko‘pdan buyon ishlab chiqilayotgan ta’limning ko‘rgazmalilik prinsipi ham xizmat qiladi. K.D.Ushinskiy (1824–1870) ham ta’lim berishdagi ko‘rgazmalilik haqida so‘z yuritgan: «Ko‘rgazmali tarzda ta’lim berish bu shunday ta’limki, u mavhum tasavvurlar va so‘zlar negizida emas balki bola bevosita idrok etgan konkret obrazlar (bu obrazlar o‘qish davomida, yoki murabbiyning rahbarligi ostida idrok etiladimi, yoxud ular oldinroq, bolaning mustaqil kuzatishi natijasida idrok etilganmi, bundan mustasno holda) negizida tashkil etiladigan bo‘lishi kerak...». Ta’limning ko‘rgazmaliligi tarbiyachining so‘zi bilan uyg‘unlashtirilgan tarzda maxsus vositalar (ko‘rgazmali qurollar, texnik vositalar, namoyish qilinadigan tajribalar, turli ekskursiyalar va hokazo)dan foydalanish yo‘li bilan erishiladi. Bu vositalar bilimlarning o‘zlashtirilishini osonlashtiridigan va bolalarda o‘rganilayotgan mavzuga qiziqish uyg‘otishga yordam beradigan vositalar sifatida ishlatiladi. Hozirgi paytda ta’limda qo‘llanilayotgan ilg‘or innovatsion texnologiyalardan foydalanish, ta’lim berishning turli metodlari bunga yaqqol misoldir. Tadqiqotlarning natijalari shuni ko‘rsatadiki, ko‘rgazmalilik prinsipi ushbu metodlar jarayonida uyg‘unlashib ketadi, ta’lim jarayoniga boshqacha yondashish imkonini beradi.

Inson idrokining eng muhim va o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlardan yana biri nutq materiallarini idrok qila bilishdir. Ma’lumki, odamga til tug‘ma ravishda berilmaydi. Har bir bola yoshlik chog‘idan boshlab o‘z ona tilini o‘zlashtira boshlaydi. Bu jarayonda til materiallarini, ya’ni tovushlarni, urg‘ularni, bo‘g‘inlarni, so‘zlarni, gaplarni, intonatsiyalarni to‘g‘ri idrok qila bilish juda katta ahamiyatga egadir. Bolalar har bir tovushni, har bir so‘zni o‘zlarining o‘yin faoliyatlarida juda ko‘p martalab takrorlash orqali ularning to‘g‘ri aytishini (ya’ni to‘g‘ri talaffuz qilinishini), mazmunini o‘zlashtirib boradilar. Shu tarzda bolallarda nutq materiallarini idrok qilish davomida har bir so‘zga nisbatan murakkab dinamik stereotip tarzidagi muvaqqat aloqalar yuzaga keladi. Ana shu dinamik stereotip tarzidagi muvaqqat aloqalar hosil bo‘lgani tufayli bolalar har bir murakkab iborani yengillik bilan idrok qila oladigan bo‘ladilar. Nutqni idrok qilish bolalarning dunyonи bilish imkoniyatlarini kengaytirib boradi.

**Amaliy mashg‘ulot uchun mashq va topshiriqlar:**


*a*



*b*



*d*




*e*




*f*



*g*




*h*




**13-rasm.** Ikkilanuvchi tasvirlar.

*a, b* – idrokning tanlab oluvchanlik xususiyati; *d* – rasmda nechta kubik ko‘rsatilgan? *e* – bu rasmda odam tasvirini toping? *f* – Amerika, yovvoyi ‘arb, yovvoyi otlar; odam, uy, Arktika, muzliklar; *g* – yelpig‘ich illuziyasi; *h* – odamlar bir xilmi?




**14-rasm.** Ikkilanuvchi tasvirlar.

*a* – chiziqlar nimani eslatadi? Gorizontal va vertikal chiziqlarning hech biri tutashmagan. Bizning xayolimiz kvadratlarni qo'shib panjara hosil qiladi; *b* – gorizontal chiziqlar parallelmi? *d* – umumiy markazli doiralar; *e* – rasmda nimani ko'ryapsiz?



**15-rasm.** *a* – parallel chiziqlar tengmi? *b* – markazdagи doiraning qay biri katta?

## «TARMOQLAR» METODI



### Nazorat savollari:

1. Idrok deb nimaga aytildi?
2. Idrokning qanday xususiyatlari bor?
3. Idrok darajalarini farqlab bering.
4. Idrok qilishda illuziya hodisasi nima?
5. Fazo va vaqtini idrok qilish deganda nimani tushundingiz?
6. Kuzatuvchanlik nima? Kuzatishda qanday qoidalarga rioya qilish kerak?
7. Nutqni idrok qilish haqida so'zlab bering.

### TEST «SIZ KUZATUVCHANMISIZ?»

Kuzatuvchan odam boshqalarning tashqi ko'rinishiga qarab ko'p narsa aytib bera oladi. Mashhur Sherlok Xolms buni qanday amalga oshirganini bir eslab ko'ring-chi. Ushbu test sizning qay

darajada kuzatuvchan ekanligingizni bilib olishga yordam beradi. Xulosa chiqarish esa o'zingizga havola.

**1. Siz qaysidir tashkilotning birorta xonasiga tashrif buyurdin-giz ...**

- a) stol va stullar qanday joylashuviga diqqatingizni qaratasiz;
- b) narsa va buyumlarning aniq joyda turganiga e'tibor bera-siz;
- c) devorda nimalar osig'liq turganiga qarab chiqasiz.

**2. Biror tanishingiz bilan uchrashib qoldingiz, siz ...**

- a) faqat uning aftiga qaraysiz;
- b) o'ziga bildirmasdan boshdan oyoq qarab chiqasiz;
- c) yuz ifodasidagi o'zgarishlarga diqqatingizni qaratasiz.

**3. Biror manzarali rasmni kuzata turib nimalarga e'tiboringizni qaratasiz?**

- a) rangiga;
- b) joylashuviga;
- c) sizni qamrab olgan his-tuyg'ularga.

**4. Siz ertalab uyg'onganingizda ...**

- a) bugun nimalar qilishingiz kerakligi haqida o'ylaysiz;
- b) qanday tush ko'rganligingizni eslaysiz;
- c) kecha bo'lib o'tgan hodisalarni tahlil qilasiz.

**5. Siz jamoa transportiga chiqdingiz ...**

- a) hech kimga qaramasdan oldinga tomon ketasiz;
- b) yoningizda kim turganiga e'tibor berasiz;
- c) sizga yaqin turgan odamga so'z qotasiz.

**6. Siz ko'chaga chiqganingizda ...**

- a) transport vositalarini kuzatasiz;
- b) uylarning tashqi ko'rinishini kuzatasiz;
- c) yo'lovchilarni kuzatasiz.

**7. Siz magazin peshtaxtasi oldida turib ...**

- a) o'zingizga kerakli bo'lgan narsalarga qiziqib qaraysiz;
  - b) sizga hozir kerak bo'limgan narsalarni ham ko'rib chiqa-siz;
  - c) har bir narsani diqqat bilan ko'zdan kechirasiz.
- 8. Uyda biror narsani qidirib topishingiz kerak, siz ...**
- a) shu narsani qayerga qo'yishingiz mumkinligiga ko'ra mo'ljallab qidirasiz;

- b) hamma yerni qidirasisiz;
- c) boshqalardan topishib yuborishga yordam so'raysiz.

**9. Yaqinlaringiz bilan birga guruh bo'lib tushgan suratni ko'ra turib, siz ...**

- a) hayajonlanasiz;
- b) kulgingiz keladi;
- c) suratda kimlar borligini bilishga harakat qilasiz.

**10. Tasavvur qiling, sizga o'zingiz bilmaydigan karta o'yinini taklif qilishdi, siz ...**

- a) o'yinni o'rganib olishga harakat qilasiz;
- b) biroz vaqt o'ynagach o'yindan voz kechasiz;
- c) umuman o'ynamaysiz.

**11. Siz istirohat bog'ida kimnidir kutyapsiz ...**

- a) atrofingizdag'i odamlarni diqqat bilan kuzatasiz;
- b) gazeta o'qiysiz;
- c) nimalarnidir o'ylaysiz.

**12. Yulduzli tunda siz ...**

- a) yulduzlarni kuzatasiz;
- b) shunchaki osmonga tikilasiz;
- c) umuman qaramaysiz.

**13. Kitob o'qib turib kelgan joyingizni ...**

- a) qalam bilan belgilab qo'yasiz;
- b) xatcho'p qo'yasiz;
- c) xotirangizga ishonasiz.

**14. Siz qo'shnilaringizning ...**

- a) ism va familiyasini bilasiz;
- b) tashqi ko'rinishini bilasiz;
- c) uni ham, buni ham eslolmaysiz.

#### **Natijalaringizni jadval asosida tekshiring**

savol	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
A	3	5	10	10	3	5	3	10	5	10	10	10	10	15
B	10	10	5	3	5	3	5	5	3	5	5	5	5	3
C	5	3	3	5	10	10	10	3	10	3	3	3	3	5

150–100 ball. Siz so‘zsiz juda kuzatuvchansiz. Shu bilan birga siz o‘zingizni va o‘z harakatlariningizni tahlil qilishga qodirsiz.

99–75 ball. Sizdagi kuzatuvchanlik yetarli darajada rivojlangan. Lekin bu to‘g‘ri tushunchalar chiqarish uchun kamlik qildi.

74–45 ball. Sizni atrofingizdagilarning fikri va kayfiyati aslo qiziqtirmaydi. Siz juda band odamsiz, tashvishlaringiz o‘zingizga yetadi. Boshqalarning xatti-harakati u yoqda tursin, o‘z harakatlariningizni tahlil qilishga ham vaqtingiz yo‘q. Atrofingizdagi ba’zi birovlar faqat o‘zini o‘ylaydi deb hisoblashlari aniq.

### **3.3. Xotira.**

#### **Xotira to‘g‘risida tushuncha va uning fiziologik asoslari**

Xotira – bu tajribamizga aloqador har qanday ma’lumotni eslab qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish bilan bog‘liq murakkab jarayondir. Xotira har qanday tajribamizga aloqador ma’lumotlarning ongimizdagi aksidir.

Tevarak-atrofdagi biz idrok qilgan narsa va hodisalar ongimizda izsiz yo‘qolib ketmaydi, balki miya po‘stlog‘ida obrazlar tarzida saqlanib qoladi. Keyinchalik narsa va hodisalarning o‘zi ko‘z oldimizda bo‘lmagan paytda ham biz bu obrazlarni ongimizda qayta tiklay olamiz.

Odatda biz biror-bir ma’lumotni o‘qiydigan bo‘lsak, uni hech bir o‘zgarishsiz eslab qolishga harakat qilamiz. Lekin ajablanarligi shundaki, borgan sari ma’lumot ma’lum o‘zgarishlarga yuz tutib, xotirada dastlabki paytdagisidan boshqacharoq bo‘lib saqlanadi. Ba’zi bir ma’lumotlar xohlasak ham xotiradan o‘chmaydi, boshqasini esa juda qattiq xohlasak ham kerak paytda yodimizga tushira olmaymiz. Ma’lum bo‘lishicha inson miyasi har qanday ma’lumotni saqlab qoladi. Agar shu ma’lumot biror sabab bilan odamga kerak bo‘lmasa, yoki o‘zgarmasa, u ongdan tabiiy tarzda yo‘qoladi, lekin har doim ham bizning professional faoliyatimiz manfaatlariga mos ma’lumotlarni esda saqlash juda zarur va shuning uchun ham ko‘pchilik ataylab xotira tarbiyasi bilan shug‘ullanadi. Inson xotirasining yaxshi bo‘lishi, ya’ni his-kechinmalarimiz, ko‘rgan-kechirganlarimizning mazmuni to‘laroq miyamizda saqlanishi quyidagi omillarga bog‘liq:

- esda saqlab qolish bilan bog'liq harakatlarning yakunlan-ganlik darajasiga;
- shaxsning o'zi shug'ullanayotgan ishga nechog'liq qiziqish bildirayotganligi va shu ishga moyilligiga;
- shaxsning bevosita faoliyat mazmuni va ahamiyatiga munosabatining qandayligiga;
- shaxsning ayni paytdagi kayfiyatiga;
- irodaviy kuchi va intilishlariga.

O'tmishtajribalarimizda nimaiki hodisa yuz bergan bo'lsa, shuni esda olib qolish esda saqlash va keyinchalik esga tushirish yoki unutish **xotira** deb ataladi.

Tashqi va ichki qo'zg'atuvchilar ta'sir ko'rsatishi tufayli miyaga keluvchi qo'zg'alishlar miyada «izlar» qoldiradi, bu izlar-uzoq yillar (ba'zan butun hayot) davomida saqlanib qoladi. Yarimsharlar po'stlog'ida qo'zg'alishlar uchun go'yo yo'l ochiladi, buning nati-jasida nerv bog'lanishlari keyinchalik oson va tez vujudga keladi. Agar qo'zg'alishlar takrorlanib tursa nerv bog'lanishlari saqlana-di va jonlanadi, aksincha qo'zg'alishlar takrorlanmasa nerv bog'lanishlari so'nadi. Nerv bog'lanishlari so'nsa ilgari esda qoldiril-gan ma'lumotlar unutiladi. Vaqtincha nerv bog'lanishlarining vujudga kelishi va saqlanishi xotiraning fiziologik asosini tashkil etadi.

Xotiraning mohiyati narsa va hodisalar o'rtasida aloqa o'rnatish-dan iborat ekanligini qadim zamonlardayoq greklar tushunib yet-gan edilar. Bunday aloqalar assotsiatsiyalar deb atab kelinadi. Assotsiatsiyalar uch xil bo'ladi:

*Izdoshlik* — (yoki ketma-ketlik) assotsiatsiyasi, masalan: bি-rror hodisa esga keltirilgan paytda, shu davrda yuz bergan boshqa faktlar ham xotirada gavdalanadi.

*Kontrastlik* — shovqin-suronli shaharga kelib qolsam tinch qishloq hayotini eslayman.

*O'xshashlik* — tanishimni portretini ko'rsam uni o'zini ham eslayman.

Ilgari idrok qilingan narsa va hodisalar obrazlarining ongimiz-da qayta gavdalanishiga tasavvur deb ataladi. Tasavvurlar tufayli ayni paytda ko'z o'ngimizda bo'limgan lekin ilgari idrok qilgan narsalarni aks ettira olamiz.

### *Tasavvurlar va uning turlari*

Esda olib qolish va qayta esga tushirish tasavvur obrazlari asosida amalga oshiriladi. Odatda mazmun jihatidan ikki xil tasavvur ya’ni **xotira tasavvuri va xayoliy tasavvur** farqlanadi. Xotira tasavvuri ilgari idrok qilingan, ya’ni ilgari o’z shaxsiy tajribamizda bo’lib o’tgan, lekin hozir ko’z o’ngimizda bo’lmagan narsalarning obrazlarini ongimizda gavdalantirishdan iboratdir. Masalan, birinchi marta mакtabga borganimizdagi taassurotlarni ongimizda qayta tiklashimiz xotira tasavvuri bo’ladi. Xayoliy tasavvur xotira tasavvuriga qaraganda murakkab bo’lib, ongimizdagi bilimlarimiz, tajribamiz asosida ilgari idrok qilinmagan, shu paytgacha turmush tajribamizda uchratmagan narsalarning obrazlarini yaratishdan iboratdir. Xayoliy tasavvur ijod qilish jarayoni bilan bog’liq bo’lgan tasavvurdir. Masalan: matndagi obrazlarning tasvirlanishiga qarab, ular obrazlarining ko’z oldimizda paydo bo’lishi xayoliy tasavvurga misol bo’la oladi.

Tasavvurlar narsa va hodisalarini bevosita idrok qilish orqali hosil bo’lishdan tashqari so‘zlar orqali, ya’ni so‘z bilan biron narsani tasvirlab berish orqali ham hosil bo’lishi mumkin. Tasavvur obrazlarining to’la va ravshan bo’lishi birinchi navbatda idroking chuqur va to’laligiga bog’liqdir. Unchalik e’tibor bermay pala-partish idrok qilgan narsalardan hosil bo’lgan obrazlar juda xira bo’ladi. Binobarin, bunday obrazlar tasavvurda qayta tiklanganda undan ham xira va noaniq bo’ladi.

Bundan tashqari tasavvur obrazlarining sifati odamning ayni chog’dagi ahvoliga, his-tuyg’ulari va diqqatiga bog’liq bo’ladi. Chunonchi, tobi qochib kayfiyati buzilib (ko’ngli biron narsaga g’ash bo’lib), diqqati chalg’ib turgan paytida odam idrok qilgan narsalarini yaxshi va osonlik bilan tasavvur eta olmaydi. Idrok qilish jarayonida qaysi sezgi a’zosining ustunlik qilishiga qarab tasavvurlar quyidagi turlarga bo’linadi: ko’rish tasavvuri, eshitish, hid bilish tasavvurlari, ta’m bilish tasavvuri, harakat tasavvuri va shu kabilar. Odamlarning kasbiga qarab tasavvurlarning ayrimlari nisbatan kuchli rivojlanadi. Masalan: rassomlarda ko’rish tasavvuri, kompozitor va sozandalarda eshitish tasavvuri, raqqsalarda harakat tasavvuri nisbatan ustun turadi. Tasavvurlar yakka va umumiy tasavvurlarga bo’linadi. Yakka tasavvur deb birorta

yakka narsa yoki hodisaning obrazini tasavvur qilishga aytildi. Masalan: tanish bo‘lgan odamlar (o‘rtog‘i, sinfdoshi haqidagi) va shaxsiy narsalari haqidagi (avtoruchkasi, portfeli kabi) tasavvurlar. Umumi tasavvur deb bir jins, bir tur, bir guruhni tashkil qilgan narsalarning obrazlarini tasavvur etishga aytildi. Masalan: umuman odamni, umuman daraxtni yoki umuman o‘simlikni tasavvur qilish. Odamda dastavval yakka tasavvurlar undan keyin esa umumi tasavvurlar yuzaga keladi. Chunki umumi tasavvurlar bir qancha bir-biriga o‘xshash narsani qayta-qayta idrok qilish natijasida hosil bo‘ladi.

**Xotira turlari.** O‘zlashtirish va esga tushirish xususiyatlariiga ko‘ra xotira bir necha turlarga ajratiladi. Masalan: muzeyga uyushtirilgan sayohatni eslar ekanmiz, o‘zimiz ko‘rgan narsalarning obrazini va o‘zimiz guvohi bo‘lgan hodisalarni fikran ko‘z oldimizda gavdalantiramiz. Bu obraz xotirasidir. Bunda birinchi signal sistemasi katta o‘rin egallaydi. Ekskursiya rahbarining tu-shuntirishlarini, ular bilan o‘tkazilgan suhbatlarni, ekskursiya-ga birga borilgan o‘rtoqlar bilan o‘zaro fikr almashuvlarni eslash chog‘ida biz ma’no xotirasidan yoki so‘z-mantiq xotirasidan foy-dalanamiz. Bu xotira ikkala signal sistemasining o‘zaro bir-biriga ta’sir ko‘rsatishiga tayanadi, bunda ikkinchi signal sistemasi dominantlik (ustunlik, yetakchilik) rolini o‘ynaydi. Agar biz o‘z do‘stimizning boshiga tushgan baxtsizlikni eslasak, bunda biz yana yangidan g‘amginlik yoki hatto musibat hissini kechiramiz, bu esa emotisional xotiraning yoki his-tuyg‘ular bilan aloqador xo-tiraning ko‘rinishidir. Harakatlar bilan aloqador motor yoki harakat xotirasi (sportchi, raqqosa, suzuvchi va h.k.) deyiladi.

### *Xotira jarayonlari*

Xotira quyidagi jarayonlardan iboratdir:

- a) esda olib qolish;
- b) o‘zlashtirilgan ma’lumotni esda saqlash;
- c) esga tushirish va tanish;
- d) unutish.

**Esda olib qolish va uning turlari.** Xotira jarayonlari esda olib qolishdan, ya’ni narsa va hodisalar o‘rtasida aloqa o‘rnatishdan iboratdir. Esda olib qolish bosh miya po‘stlog‘ida yuzaga ke-

ladigan turli murakkablikdagi assotsiatsiyalarga bog‘liqdir. Xotiramizda nimaiki saqlanayotgan bo‘lsa, shularni ko‘pchiliginiz biz ixtiyorsiz ravishda esda olib qolganmiz. Masalan: ko‘chada ketayotgan paytimizda oldimizga aniq maqsad qo‘ymagan bo‘lsak ham juda ko‘p narsalar ixtiyorsiz tarzda esda saqlanib qoladi. Ko‘pincha beixtiyor idrok qilingan narsa va hodisalar esda saqlanib qoladi. Lekin esda saqlanib qoladigan ma’lumotga hissiyot ta’sir qilishi mumkin. Masalan: bizda bironta hissiyot tug‘diradigan ma’lumot hissiyotimizga hech bir ta’sir qilmaydigan ma’lumotga qaraganda esimizda ham tezroq, ham mustahkamroq o‘rnashib qoladi.

Ammo odamning hayoti va faoliyati undan ixtiyoriy esda olib qolishni talab etadi. Maktabda fan asoslarini o‘rganish, biron-bir kasb bo‘yicha ishga tayyorgarlik ko‘rish odatda ixtiyoriy esda qoldirishni talab etadi. Muayyan bilimlarni egal-lash uchun sistematik va ixtiyoriy ravishda esda qoldirish uqib olish deb ataladi. Uqib olish maktab o‘quvchilari o‘quv ishining muhim qismi hisoblanadi. Ixtiyoriy esda olib qolish deb ko‘zda tutilgan maqsadga muvofiq tanlangan ma’lumotlarni ongli ravishda kuch sarf qilib esda olib qolishga aytildi. Ixtiyoriy esda olib qolish anglab, bilib esda olib qolishdir. Masalan: esda olib qolishga jazm qilish, maqsadga erishish uchun intilish, kerak ma’lumotni tanlash, motivatsiya (nima maqsad bilan esda qoldirish kerakligini bilish) – bularning hammasi tafakkur faoliyati bilan bog‘liq bo‘ladi. Ixtiyoriy esda qoldirishda irodaning ham ahamiyati katta. Masalan: ba’zi paytlarda esda olib qolishning qiyinchiliklariga duch kelar ekanmiz, bunda albatta iroda ishtirok etadi. Ixtiyoriy esda olib qolishning nerv-fiziologik asosida birinchi va ikkinchi signallar sistema doirasida yuzaga keldigan shartli reflekslar, muvaqqat aloqalar yotadi. Odatda qiziqish yengillik bilan esda qoldirishning eng birinchi shartlaridandir. Bizda qiziqish tug‘dirgan narsa tezroq va mustahkamroq esda qoladi. Esda qoldiriladigan ma’lumotga bo‘lgan qiziqish diqqatimizni o‘ziga jalb etadi, his-tuyg‘ularimizga ta’sir qilib zavqlantiradi. Bu esa o‘z navbatida esda olib qolishni kuchaytiradi. Ayrim kishilar xotirasining zaifligi analiz qilinganda esda yaxshi saqlab qololmasliklarining sababi ular diqqatining bo‘shligida, tarqoqligida, ya’ni miya po‘stidagi tegishli qo‘zg‘alish manbalasi-

rining zaifligida ekanligi aniqlangan. Ma'lumotni idrok qilishda sezgi organlari qanchalik ko'p ishtirot etsa, ma'lumot shunchalik tez va puxta esda qoladi.

Ma'lumotni idrok qilishda sezgi organlari qanchalik ko'p ishtirot etsa, ma'lumot shunchalik tez va puxta esda qoladi. Bu haqda mashhur rus pedagoglaridan K.D. Ushinskiyning quydagi gaplari juda ham o'rinnlidir. «Bolaning esida biror narsaning mahkam o'rashib qolishini xohlovchi pedagog, bola sezgi organlarining mumkin qadar ko'prog'ini – ko'zi, qulog'i, tovush organi, muskul sezgisi va hatto, iloji bo'lsa, hidlash va ta'm bilish organlarini esda tutib qolish jarayonida qatnashtirishga harakat qilishi kerak», K.D. Ushinskiyning bu fikri allaqachon amalda isbot qilingan.

Ma'lumotni takrorlash ham albatta ixtiyoriy esda olib qolishga ijobjiy ta'sir qiladi. O'tkazilgan tekshirishlardan ma'lum bo'lishicha, asosan uch xil yo'l bilan takrorlash mavjud:

- surunkasiga takrorlash;
- qismlarga bo'lib takrorlash;
- bir yo'la surunkasiga undan so'ng yana qismlarga bo'lib takrorlash.

Bu psixologiyada kombinatsiya usuli deb yuritiladi. Esda olib qolinishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni taqsimlashda kishining tafakkuri va diqqati faol qatnashadi. Binobarin, ma'lumotlarni taqsimlash va rejalshtirish jarayonining o'ziyoq esda olib qolishning sifatiga ijobjiy ta'sir qiladi.

**Ma'nosiga tushunib**, ya'ni mantiqiy (logik) tarzda esda olib qolish samarali va qulay usuldir. Ma'nosiga to'la tushunib esda olib qolingga ma'lumot odamning xotirasida mustahkam joylashib qoladi. Chunki, ma'nosiga tushunib esda olib qolinadigan narsa va hodisalarining umumiyligi va muhim belgilari, ular o'rtasidagi sababiy hamda natija bog'lanishlarni anglash demakdir. Shuning uchun, ma'nosiga to'la tushunib esda olib qolingga ma'lumot odamning ongida bor bilimlariga qo'shilib ketadi. Og'zaki ma'lumotlarni ma'nosiga tushunib esda olib qolish ayniqsa muhimdir. Ma'nosiga tushunib esda olib qolishning samarali bo'lishiga sabab shundaki, ma'nosiga tushunib esda olib qolish jarayonida odamning ixtiyoriy diqqati, tafakkuri va irodasi

faol ishtirok qiladi. Faqat takrorlash bilan esda olib qolish mexanik esda olib qolish deb ataladi, bunda ko‘pgina hollarda odam o‘zlashtirilishi lozim ma’lumotni tushunmagan holda takrorlayveradi. Bu yo‘sindagi takrorlash oqibatida o‘quvchi qiyin, noaniq ma’lumotni quruq yodlab oladi, xolos. Quruq yodlash yo‘li bilan esda qoldirishda odatda odam ko‘p qynalishiga to‘g‘ri keldi, kishidan ko‘p vaqt sarflash talab etiladi, o‘zlashtirilgan material tez unutiladi. Bolalarda turmush tajribalarining ozligi va nerv sistemalarining nihoyat darajada pastligi, ya’ni juda plastikligi tufayli ular so‘zlar bilan bog‘liq har turli ma’lumotlarni mexanik tarzda esda olib qolishga intiladilar. Ayrim paytlarda mexanik esda qoldirish usulidan ham foydalanishga to‘g‘ri keldi. Chunonchi, bir necha marta takrorlash yo‘li bilan biz telefon nomerini yoki tanishimizning manzilini, shuningdek chet tili so‘zlarini, qiyin terminlarni va shu kabilarni esda olib qolamiz. Lekin bunda ham odam esda olib qolmochi bo‘lgan narsani ilgaridan o‘ziga tanish narsa bilan bog‘lamog‘i, oqilona o‘zlashtirmog‘i lozimdir, zotan ma’nosiga tushunib esda olib qolish mexanik esda olib qolishga qaraganda ancha puxtarq bo‘ladi.

**Esda saqlab turish.** Biz nimani esda olib qolgan bo‘lsak, shundan nisbatan ozroq qismigina xotirada uzoq vaqt davomida, ba’zan bir umrga saqlanib qoladi. O‘zlashtirilgan ma’lumotlar mustahkamlanmasligi tufayli asta-sekin unutilib boradi. Shu sababdan o‘zlashtirilgan materialni xotirada saqlash uchun uni takrorlab turish kerak.


**Esga tushirish va uning turlari.** Esga tushirish odatda tanishdan boshlanadi. Tanish bu ilgari idrok qilingan narsa va hodisalarni qayta idrok qilishda esga tushishidir. **Tanish** – yarim-yorti va to‘liq tanish bo‘lishi mumkin. Yarim-yorti tanishda ilgari idrok qilgan narsamiz g‘ira-shira esimizga tushadi. To‘liq tanishda esa idrok qilingan narsaga oid ilgari hosil bo‘lgan tasavvur va fikrlar ongimizda tiklanadi. Bunday holda biz bu narsani qayerda va qachon ko‘rganimizni ham eslay olamiz. Chunonchi, bayram kuni qayerda nima qilganimizni, kim bilan gaplashib kulganlarimizni juda yaxshi eslay olamiz. Esga tushirish, ya’ni eslash narsaning o‘zini shu paytda idrok qilmay turib esga olishdir. Esga tushirish jarayoni tanish jarayoni bilan uzviy bog‘liqdir. Esga tushirish ham

ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo'lishi mumkin. **Ixtiyorsiz** esga tushirish deganda biz o'z oldimizga ma'lum bir maqsad qo'ymasdan va irodaviy kuch sarf qilmasdan esga tushirishni tushunamiz. Bunday esga tushirish jarayoni yuqorida ko'rib o'tilgan assotsiatsiyalar ishtirokida sodir bo'ladi. Ixtiyoriy esga tushirish deganda biz biron maqsad bilan esga olish kerak bo'lgan ma'lumotlarni tanlab, harakat qilib, maxsus ravishda esga tushirishni tushunamiz. **Ixtiyoriy** esga tushirish bilib, anglab esga tushirishdir. Ixtiyoriy esga tushurishda eslab topish usullaridan foydalanamiz. Masalan: telefon raqamini eslash, birovning ismini eslash va hokazo. Odatda biz ixtiyoriy esga tushirish jarayonlaridan juda keng foydalanamiz.

**Unutish** ham xotira jarayonlaridan biridir. Unutish batamom va qisman unutish kabi ikki turga bo'linadi. Unutishning bir qancha sabablari mavjud. Birinchidan, unutish esda olib qolingga ma'lumotlarning amalda tatbiq qilinishi yoki qilinmasligiga bog'liqdir. Ikkinchidan, unutish esda olib qolingga ma'lumotga nisbatan qiziqishning naqadar barqarorligiga bog'liqdir. Masalan: bizni nihoyatda qiziqtirgan biron kitobning mazmuni, biron kining mazmuni yoki juda yoqqan biron kuyning ohangi hech qachon esdan chiqmaydi. Nihoyat uchinchidan, unutish ma'lum darajada nerv sistemasining ahvoliga ham bog'liqdir.

#### *Xotira sifatlari va xotiradagi individual farqlar*



**Xotira sifatlari** xotirani qo'llash, ya'ni muayyan vaqt ichida odam esda qoldiradigan narsalar yoki faktlar miqdoriga, esga tushirishning aniqligiga, esda olib qolish tezligiga, o'zlashtirilgan ma'lumotning qanchalik uzoq esda saqlanishi, xotiraning tayyorligi, ya'ni talab etilgan narsani tezda esga tushira olish qobiliyati nazarda tutiladi. Xotiraning ana shu ko'rsatib o'tilgan xususiyatlari kimdaki yetarli rivojlangan bo'lsa, shu odamning xotirasi yaxshi xotira hisoblanadi. Xotira xususiyatlari shaxsiy fazilat sifatida odam qobiliyatlarining rivojlanishiga, faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Narsalarni oson esda olib qoluvchi kishiga qaraganda, xotirasi u qadar yaxshi rivojlanmagan odamning vaqtি ham, kuchi ham ko'p sarf bo'ladi. Ko'pgina kasb-hunarlar uchun yaxshi xotira kerak.



### Xotiradagi individual farqlar:

- materiallarni tez va puxta esda qoldiruvchi, sekin unutuvchi kishilar;
- materialni tez, ammo bo'sh o'zlashtiruvchi, tez unutib qo'yuvchi kishilar;
- materialni sekin esda qoldiruvchi, ammo o'zlashtirgan materialni xotirasida uzoq vaqt esda saqlovchilar;
- materialni sust o'zlashtiruvchi va tez unutuvchi kishilar.

**Amaliy mashg'ulot:** Tanib esga tushirish.



### **Xotirani baholash testi.**

Savollarga «ha» yoki «yo‘q» deb javob bering.

1. Beshta telefon raqamini eslay olasizmi?
  2. Uchrashuvga borish esingizdan chiqib bormay qolganmisiz?
  3. Uch kun oldin ertalabki nonushtaga nima eganingizni eslay olasizmi?
  3. Birinchi uchrashuv esingizdami?
  4. Birinchi sevgingizni unutganmisiz?
  5. Maktabga borgan birinchi kunni eslay olasizmi?
  6. Bolalikda yodlangan biror she’rni aytan olasizmi?
  7. O’n beshta kiyimingiz yodingizdami?
  8. Qo‘ng‘iroq qilishdan oldin daftarga qaray olasizmi?
  9. Birinchi uchrashuvga qanday kiyim bilan borganingizni eslay olasizmi?
  - 10 Birinchi o‘rtog‘ingizni ismi esingizdami?
  11. Ayrim hidlar sizga tanish joyni eslatadimi?
  12. Maktabga borgan yo‘l esingizdami?
  13. O‘rtoqlaringizni tug‘ilgan kunini yoddan bilasizmi?
- Natija:** «ha» javoblar uchun o‘zingizga «1» balldan qo‘ying.  
11 va undan yuqori – xotirangiz kuchli;  
6 dan 10 gacha – xotirangiz yaxshi;  
5 dan past – o‘rtacha.

### **Nazorat savollari:**

1. Xotira nima? Odam hayotida xotiraning qanday ahamiyati bor?
2. Xotiraning nerv-fiziologik asosini nima tashkil etadi?
3. Xotira va xayoliy tasavvurlarning farqi nimada?
4. Ixtiyoriy va ixtiyorsiz esda olib qolishning farqi nimada?
5. Xotira sifatiga ko‘ra odamlar qanday tiplarga ajratiladi?

### **3.4. Tafakkur.**

#### **Tafakkur haqida tushuncha**

Tashqarida ob-havo qanday ekanligini bilish uchun men uydan hovliga chiqishim va sovuq yoki issiqligini bevosita yuzim, qo‘llarim terisi, butun tanam bilan sezishim mumkin. Bu tevarak-

atrof olamni sezgilar hamda idrok orqali to‘g‘ridan to‘g‘ri, bevosita bilish yo‘lidir. Ammo biz ob-havo masalasini uydan tashqari ga chiqmay turib ham yecha olamiz. Chunonchi, hovli, tomda osig‘liq turgan termometrga derazadan qarash orqali biz tashqari ancha sovuq ekanligini, daraxt shoxlarining tebranayotganligini ko‘rib, shamol esayotganligini bilamiz. Bu xildagi bilishni bevosita bilish yo‘li deb ataladi, chunki bu yerda bilim to‘g‘ridan to‘g‘ri (bevosita) yo‘l bilan emas, balki vositali ravishda (bavosita), ayrim hodisalarни (termometr nayidagi simobning balandligini, daraxt shoxlarining shamolda tebranishini) kuzatish hamda bu hodisalar bilan ob-havo o‘rtasidagi aloqani tushunish orqali hosil bo‘ladi.

Astronom olim planetaning o‘zini hali ko‘rmasdan turib, uning qayerda bo‘lishi lozimligini matematik hisoblashlar orqali aniqlab bergen. Haqiqatdan ham oradan bir necha yillar o‘tgach olimlar juda kuchli teleskop yordamida bu planetani ko‘rganlar. Pluton planetasining kashf etilishi tarixi xuddi shunday bo‘lgan.

Yana bir misolni ko‘raylik: qaynoq suvni shisha stakanga solishim zarur bo‘lib qoldi, deb faraz qilaylik. Bunda stakan yorilib ketmasligi uchun men avvaliga suvni stakanga asta-sekin quya boshlayman. Qaynoq suv solingan paytda stakan yorilib ketishi ni ilgari o‘zim ko‘p marta ko‘rganman va shu sababdan ham hozir qilgan ishim nima bilan tugashini oldindan bila olmayman. Bu sifatni (issiqqa chidamlilagini) men hamisha shisha stakan-larga xos deb umumlashtirdim. Ammo umumlashtirish uchun «qaynoqlik», «mayda bo‘laklarga parchalanish» yoki «sovuoqlik», «o‘z holatini saqlab qolish» kabi sifatlarni avvalo ajratib olish, mavhumlashtirish zarur, bu xildagi ishlarni amalga oshirmsandan turib umumlashtirib bo‘lmaydi. Ana shu yo‘sinda mavhumlashtirish (abstraktlashdan) keyingina biz predmetning ajratib olin-gan xususiyatlarini ma’lum guruhdagi buyumlarga tatbiq etamiz, ya’ni umumlashtiramiz.

*Tafakkur bu atrof-muhitdagi voqelikni nutq yordami bilan bavosita, umumlashgan holda aks ettiruvchi psixik jarayon hamda ijtimoiy-sababiy bog‘lanishlarni angangan, yangilik ochishga va bashorat qilishga yo‘naltirilgan aqliy faoliyatdir.*

**Tafakkurning nerv-fiziologik asoslari.** Katta yarimsharlar po'stlog'ida hosil bo'luvchi muvaqqat nerv bog'lanishlari (**shartli reflekislar**) tafakkurning fiziologik asosi hisoblanadi. Bu shartli reflekslar real voqelikni aks ettiruvchi ikkinchi signallar (**so'zlar, fikrlar**) ta'sirida maydonga keladi, ammo ular albatta birinchi signallar sistemasiga (**sezgilar, idrok, tasavvurlarga**) asoslangan holda maydonga keladi. I.P. Pavlovning yozishicha: «Nutq organlaridan bosh miya po'stiga o'tuvchi maxsus kinestezik qo'zg'alishlar, ikkinchi signallardir, signallarning signalidir. Ular voqelikdan, mavhumlashishdan iborat bo'lib, umumlashtirishni taqozo qiladi, binobarin ular bizning ortiqcha maxsus insoniy, yuksak tafakkurimizdir...». Ikkinchi signal bog'lanishlari narsa va hodisalar o'rtasidagi turlicha munosabatlarni aks ettiruvchi ancha murakkab sistema bo'lib, ular shunisi bilan sezgilardan, idrok va xotiradan farq qiladi.

Tafakkur jarayonida har ikkala signal sistemasi bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketadi. Ikkinchi signal sistemasi tevarak-atrofdagi olamni yaxshiroq bilib olish imkonini beradi: Ana shu signal sistemasi vositasida **«odamning yuksak darajada moslashuvi»** ham yuzaga keladi (I.P. Pavlov). Ammo ikkinchi signal sistemasi birinchisiga tayanadi. Odam uchun muayyan real ma'nosini yo'qotgan, odam ularni qandaydir konkret buyumlar va hodisalar bilan bog'lay olmaydigan so'zlar voqeylelikning signallari bo'la olmay qoladi. Tafakkur har ikkala signal sistemasi ishtirok etgan, lekin ikkinchi signal sistemasi yetakchi o'rinn egallagan taqdirdagina normal ishlaydi, chunki so'z o'z mazmuniga ko'ra juda boy signal bo'lib, mavhumlik va umumlashtirish jarayonlari bilan bog'lanib ketgan.

Tafakkur nutq bilan bog'liqidir. Tafakkur tufayi biz fakt va hodisalarni faqat bilibgina qolmay, balki ular mayjudligining sabablarini ham tushuna olamiz. Tafakkur bizga bo'lg'usi voqealarni oldindan ko'ra olish imkonini beradi: bulutni ko'rib biz yomg'ir yog'adi deb hulosa chiqaramiz. Inson tafakkurini qanday shaklda rivojlantirilmasisin, uni nutqsiz to'liq rivojlantirib bo'lmaydi. Har qanday fikr nutq bilan chambarchas bog'liq holda paydo bo'ladi va rivojlanadi.

Agar bilish jarayoni faqatgina sezgilar va idrok orqali hosil qiluvchi bilimlar bilan chegaralanib qolgudek bo'lsa, odam o'zi

uchun zarur ma'lumotlarni juda kam miqdorda qo'lga kiritgan bo'lur edi. Biz o'tmishda bo'lib o'tgan hodisalarni idrok qila olmasligimiz tufayli ham tarixda bizga qadar yuz bergan voqeahodisalarni bila olmagan bo'lur edik.

### *Tafakkur turlari*

Hayot mobaynida o'qiganlarimiz, ma'lum shart-sharoitlarda konkret dalillar va nazariy bilimlar asosida mushohada qilgan bilim va g'oyalarimiz asosida yuritgan fikrlash jarayoni **nazariy tafakkurdir**. Undan farqli **amaliy tafakkur** bevosita hayotda bo'lgan va harakatlarimiz mobaynida hosil bo'lgan fikrlarimizga asoslana-digan tafakkurimizdir. **Ko'rgazmali harakat tafakkurining xususiyati** shundaki, u ham odamning real perdmetlar bilan ish qilayotgan paytdagi fikrlash jarayonini nazarda tutadi. Ko'rgazmali-obrazli tafakkur esa ko'rgan-kechirgan narsalar va hodisalarning konkret obrazlari ko'z oldimizda gavdalangan chog'da ularning mohiyati ni umumlashtirib, bilvosita aks ettirishimizdir.

**Mantiqiy tafakkur** – bu mavhum tafakkur bo'lib, so'zlar, so'zda ifodalangan bilim, g'oya va tushunchalarga tayangan holda bevosita idrokimiz doirasida bo'lмаган narsalar yuzasidan chiqargan hukmlarimiz, mulohazalarimiz bu tafakkurga misol bo'la oladi. Masalan, olam, uning noyob va murakkab hodisalarini falsafiy o'rganish faqat mavhum, abstrakt tafakkur yordamida mumkun bo'ladi. Fikrlashimizning yana bir turi **reproduktiv** bo'lib, uning mohiyati ko'rgan-bilgan narsamizni aynan qanday bo'lsa, shundayligicha, o'zgarishsiz qaytarish va shu asosda fikrlashga asoslanadi. Undan farqli **produktiv yoki ijodiy tafakkur** – fikrlash elementlariga yangilik, noyoblik, qaytarilmaslik qo'shilgandagi tafakkurni nazarda tutadi. Shunga bog'liq **konvergent** fikrlash masalaning yechimi faqat bitta bo'lgandagi fikrlashni nazarda tutsa, **divergent tafakkur** fikrning shunday turiki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo'lishini taqozo etadi. Aynan ana shunday ijodiy tafakkur divergent shaklda bo'lsa, u ijodiy parvoz, yangiliklarni kashf etishga asos bo'ladi. Fikrning kashf etish, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyati ba'zan uning **krefaollik** sifati bilan bog'lab tushuntiriladi. Krefaollik shunday xislatki, u go'yoki yo'q joyda bor qila-

di, ya’ni oddiygina, jo’ngina narsalarga boshqacha, birovlarniga o’xshamagan yondashuvlarni talab qiladi. Masalan, uchta so’z berilgan «qalam», «ko’l», «ayiq». Uchallasini qo’shib yangi jumlar tuzish kerak.

**Tafakkur shakllari.** Psixologiyada nutq fikr yuritish faoliyatining vositasi hisoblanadi. Odatda, nutq tafakkur jarayonida hukmlar, xulosa chiqarish va tushunchalar shaklida ifodalab kelinadi. Shuning uchun hukm, xulosa va tushunchalar **tafakkur shakllari** deb ataladi.

**Hukmlar.** Harsa va hodisalarning belgi va xususiyatlari haqidagi tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan fikr **hukm** deb ataladi. Narsa va hodisalarda, voqelikda haqiqatdan o’zaro bog’liq belgilar, alomatlar, hukmlarda bog’liq ravishda ko’rsatib berilsa yoki voqelikda bir-biridan ajratilgan narsa hukmlarda ajratib ko’rsatilsa – bu chin hukm deb ataladi. Masalan, «Metallar qizdirilganda kengayadi» degani chin hukmdir, bu hukmda u yoki bu holat faqat tasdiqlanib aytilyapti. Moddiy olamda haqiqatdan bog’liq bo’lmagan narsa hukmda bog’liq qilib ko’rsatilsa, bunday hukm xato (yolg’on) hukm deyiladi. Chunki bu hukmda aks ettirilgan sifatlar (belgi va alomatlar) bu narsalarga aslo muvofiq kelmaydi. «Yer Quyosh atrofida aylanmaydi» degan misol ham chin bo’lmagan hukmlar doirasiga kiradi. Hukmlar quyidagi turlarga bo’linishi mumkin:

- tasdiqlovchi yoki inkor qiluvchi hukm;
- yakka, juziy, xususiy va umumiy hukmlar;
- shartli, ayiruvchi va qat’iy hukmlar;
- taxmimniy hukmlar.

**Xulosa chiqarish.** Psixologiyada xulosa chiqarish jarayonida foydalanilgan tayyor hukmlar asoslar deyiladi. Ularni tah-lil qilib chiqarilgan yangi hukmni esa xulosa deb atash qabul qilingan. Xulosa chiqarish shunday tafakkur shaklidirki, bu shakl vositasi bilan biz ikki yoki undan ortiq hukmlardan yangi hukm hosil qilamiz. Masalan: «Barcha sayyoralar harakatlanadi». Oy – sayyora. Demak, Oy harakatlanadi. Xulosa chiqarish uch turga bo’linadi: **induktiv, deduktiv va analogik**.

Induktiv xulosa chiqarish, bu xulosa chiqarishning shunday mantiqiy usulidirki, bunda bir nechta yakka yoki ayrim hukm-

lardan umumiy hukmga o'tiladi, yoki ayrim fakt va hodisalarni o'rganish asosida umumiy qonun va qoidalar yaratiladi. Masalan: «Temir elektr tokini o'tkazadi». Deduktiv xulosa chiqarishda umumiy xulosalardan yakka yoki juziy xulosa keltirib chiqariladi. Analogik xulosa chiqarishda ikki predmetning ba'zi bir belgilari o'xshashligiga qarab bu predmetlarning boshqa belgilari ham o'xshashligi to'g'risida xulosa chiqarishimizdir. Analogiya chin, taxminiy yoki yolg'on bo'lishi mumkin.

**Tushunchalar.** Narsa va hodisalarning muhim belgilarini, bog'lanishlarini, mohiyatini hukmlar orqali fikran keng va churqur aks ettirishdan iborat fikr yuritish shakli **tushuncha** deyiladi. Tushunchalar mohiyati jihatidan konkret va abstrakt tushunchalarga ajratiladi. Alovida olingen bir butun narsaga aloqador tushuncha **konkret tushuncha** deyiladi. Masalan: stol, divan, traktor. Moddiy olamdagi narsalardan fikran ajratib olingen ba'zi sifat, holatlarga, shuningdek narsalar o'rtasidagi ichki munosabatlarga qonuniyatlarga qaratilgan tushunchalar abstrakt tushuncha deb ataladi. Masalan: oqlik, uzunlik, kenglik. Tushunchalar uch turga bo'linadi; yakka, umumiy, to'planma tushunchalar. Yakka tushunchalar yakka narsa va hodisa haqidagi tushunchalardir. Bunday tushunchalarga Alisher Navoiy, general Sobir Rahimov, Toshkent kabi tushunchalarni misol qilsa bo'ladi. Yakka tushunchalarning xususiyati shuki, bu tushunchalarda hamisha aniq obraz mavjud bo'ladi. Umumiyligi tushunchalarda bir jihsda ko'p narsa va hodisalar gavdalantiriladi. Masalan: yulduz, talaba, o'spirin. To'planma tushunchalar bir jinsdagi narsa va hodisalar toplami haqida yaxlit fikr yuritishdir. Masalan: paxtazor, kutubxona, yig'ilish. Demak, tushunchalarning mohiyati hukmlarda yoritiladi, mavjud hukmlar asosida xulosa chiqariladi, yangi hukm hosil qilinadi, topilgan yangi belgilar tushunchalarni yana-da boyitadi, yangi tushunchalar, atamalar ijod qilinaveradi.

**Tafakkur sifatlari.** Tafakkur boshqa bilish jarayonlari kabi o'zining individual xususiyatlariga ega bo'lib, fikr yuritish faoliyatining shakllari, vositalari va operatsiyalarining kishilarda turlicha namoyon bo'lishida o'z ifodasini topadi. Tafakkurning mazmun-dorligi deganda, inson ongida tevarak-atrofdagi moddiy voqelik to'g'risidagi mulohazalar, tushunchalar qanday miqdorda joy ol-

ganligi nazarda tutiladi. Tafakkurning chuqurligi deganda, narsa va hodisalarning asosiy qonuniyatlari, sifatlari, bog'lanishlari tafakkurimizda to'liq aks etganligi tushuniladi. Tafakkurning kengligi o'zining mazmundorligi, chuqurligi kabi sifatlari bilan muntazam aloqada bo'ladi. Fikr doirasi keng, bilim saviyasi yuqori, serg'oya ijodiy izlanishdagi kishilarни aql-zakovatli, bilimdon, tafakkuri keng kishilar deyish mumkin. Tafakkurning mustaqilligi deganda, kishining hech kimning ko'rsatmasiz, ko'magisiz, o'zining aqliy izlanishi tufayli turli yo'l, usul va vositalar topib, mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy qobiliyatini tushunish kerak. Tafakkurning mustaqilligi aqlning sertashabbusligi, pishiqligi va tanqidiyligida namoyon bo'ladi. Aqlning sertashabbusligi deganda, insonning o'z oldiga yangi muammo, aniq maqsad va konkret vazifalar qo'yishini, yechimini qidirishda usul va vositalarni shaxsan o'zi izlashi, aqliy zo'r berib intiliishi nazarda tutiladi. Aqlning pishiqligi vazifalarni tez yechishda, yecish paytida yangi usul va vositalarni tez izlab topishda ifodalanadi. Tafakkurning tanqidiyligi insonning, o'z-ozini baholash kabi yakka xususiyatlariga bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Agar tanqidiylik oqilonqa, muhim belgilarga, muammo mohiyatining to'g'ri ochilishiga asoslanib amalga oshirilsa bunday tanqidiylik obyektiv tanqidiylik deb ataladi. Subyektiv tanqidiylik ziddiyatlarga olib keladi. Fikrni operativ jihatdan, tezkorlik bilan o'zlashtirishdan va to'g'ri yo'nalishga yo'naltirib yuborishdan iborat tafakkur sifati uning ixchamligi deyiladi. Tafakkurning tezligi qo'yilgan savolga to'liq javob olingan vaqt bilan belgilanadi. U qator omillarga, zarur ma'lumotni tez yodga tushira olishga, muvaqqat bog'lanishlarning tezligiga, turli hislarning mavjudligiga, diqqatiga, bilim saviyasiga, ko'nikma va malakalariga ham bog'liq bo'ladi.

### *Tafakkur operatsiyalari*

**1. Analiz** – shunday bir tafakkur operatsiyasidirki, uning yordami bilan biz narsa va hodisalarni fikran yoki ularning xususiyatlarini amaliy tahlil qilamiz. Butun bir narsani shu tarzda qism-larga bo'lish usuli analiz deb ataladi. Allomalarning aytishicha, maymunning yong'oq chaqishining o'ziyoq boshlang'ich oddiy

analizdir. Tabiat va jamiyatdagi bilim va tajribalarni insonning o'zlashtirib olishi analizdan boshlanadi. Ma'ruza va dars jarayonlarida tafakkurning analiz qilish operatsiyasi muhim o'rinn tutadi. Matnni gaplarga, gaplarni so'zlarga, bo'ginlarga, tovushlarga ajratish singari aqliy faoliyatlar bajariladi. Muammoli topshiriq va masalalarni yechish ham analizdan boshlanadi.

**2. Sintez** – shunday bir tafakkur operatsiyasidirki, biz narsa va hodisalarning analizga bo'lingan, ajratilgan ayrim qismalarini, bo'laklarini sintez yordami bilan fikran yoki amaliy ravishda birlashtirib butun holiga keltiramiz. Sintez elementlarining narsa va hodisalarning qismlari va bo'laklarini bir butun holga keltirishdan iborat aqliy faoliyatdir. Maktabga tayyorlov guruhida bolalar o'z harf xaltasidagi kesilgan harflardan foydalanib bo'g'in, bo'g'inlardan so'z, so'zlardan gap tuzadilar.

**3. Taqqoslash.** Insonning ijtimoiy faoliyatida, bilimlarni o'zlashtirishida, vogelikni to'laroq aks ettirishida bir-biriga o'xshash jihatlarning farqini, shuningdek, bir-biridan ajralib turadigan, ammo ular o'rtasidagi o'xshashlikni topishdan iborat fikr yuritish **operatsiyasi** katta ahamiyatga ega. Taqqoslash shunday bir tafakkur operatsiyasidirki, uning vositasida obyektiv dunyodagi narsa va hodisalarning bir-biriga o'xshashligi va bir-biridan farqi aniqlanadi. Taqqoslab fikr yuritish sezgilarimiz va idrokimizda hali gavdalanganmagan o'xshashlik va tafovutni topish zaruriyati vujudga kelgan paytda namoyon bo'ladi. Taqqoslash ikki yo'l bilan amalga oshiriladi; **amaliy** (konkret narsalarni bevosita solish-tirish) va **nazariy** (tasavvur qilinayotgan obrazlar va narsalarni ongda fikran taqqoslash). Inson tevarak-atrofdagi barcha narsa va hodisalarni bevosita aks ettirish, qo'l bilan paypaslash imkoniyatiga ega emas. Shu bois to'planadigan bilimlarning aksariyati fikr yuritish orqali, mantiq yordamida anglashiladi. Ular o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar nazariy taqqoslash asosida ajratiladi.

**4. Abstraksiya.** Bu narsa va hodisalarning qonun va qonuniyatlarining ayrim belgisi, sifati, alomati yoki xususiyatlarini fikran ulardan ayrib olib, mustaqil fikr obyektiga aylantirishdan iborat fikr yuritish operatsiyasidir. Masalan, bilish jarayonida tabiat, jamiyat va ayrim insonlarga xos bo'lgan go'zallik belgisini ayirib

olib, ularning go'zalligi to'g'risida emas, balki umuman go'zallik, ya'ni estetik kategoriya mazmunidagi tushuncha yuzasidan mu-lohaza yuritiladi. Abstraksiyalash, shunday tafakkur operatsiyasidirki, bu operatsiya yordamida avval moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning muhim xususiyatlarini farqlab olamiz, so'ngra ulardagi muhim bo'limgan, ikkinchi darajali belgilarini fikran ajratib olamiz. Abstraksiya analiz natijasida vujudga keladi. Fan va texnika rivoji avj olgan hozirgi davrda kishilarga uzatilayotgan axborotlarning ma'lum qismi abstrakt holda inson ma'naviy mul-kiga aylanmoqda. Lekin abstrakt holatdagi axborotlar qiyinchilik bilan o'zlashtiriladi. Shunga qaramay abstakt holatdagi bilimlar ko'lami kundan kun ortib bormoqda. Chunki yangi kashfiyotlar, ixtiolar zamiridan kelib chiquvchi qonuniyatlar, murakkab bog'lanishlarning barchasi abstrakt atamasida o'z ifodasini top-moqda.

**5. Umumlashtirish.** Psixologiyada umumlashtirishning keng qo'llaniladigan ikki turi: tushunchali umumlashtirish va hissiy-konkret umumlashtirish yuzasidan ko'proq fikr yuritiladi. Tushunchali umumlashtirishda predmetlar muhim belgi asosida umumlashtiriladi. Hissiy-konkret umumlashtirishda esa predmetlar topshiriq talabiga ko'ra tashqi belgi bilan umumlashtiriladi. Umumlashtirish deganda psixologiyada narsa va hodisalardagi xossa, belgi, xususiyatlarni topish va shu umumiylilik asosida ularni birlashtirish tushuniladi Masalan: temir, oltin va boshqalarda mavjud bo'lgan o'xshashlik va umumiy belgilarni yagona tushuncha ostuda to'plab, uni metall degan ibora bilan nomlashimiz mumkin. Umumlashtirish abstraksiya operatsiyasidan ajralgan holda sodir bo'lmaydi.

**6. Konkretlashtirish** – hodisalarning ichki bog'lanishi va munosabatidan qat'i nazar, bir tomonlama ta'kidlashdan iborat fikr yuritish operatsiyasidir. Odam eng murakkab qonun hamda tushunchalarni konkretlik darajasiga aylantirishga harakat qiladi. Masalan, inson «qiymat» tushunchasini «odamning qadr-qimmati», «tovarning qiymati» shaklida konkretlashtiradi va hokazo.

**7. Tasniflash.** Insonning bilish faoliyatida muhim o'rincutuvchi flkr yuritish operatsiyalaridan biri hisoblanadi. Bir turkum

narsalar ichida bir-biriga o‘xshashlarini boshqa turkumdagilardan farq qilishiga qarab, narsalarni turkumlarga ajratish tizimi tasniflash deb alaladi. Bunga D.I. Mendeleyevning «Elementlarning davriy tizimi» jadvali tasniflash uchun yorqin misoldir. Masalan, kutubxonadagi kitoblar mazmuniga, shakliga, noyobligiga ko‘ra teriladi. O‘quvchilarning alifbe tartibi bilan tuzilgan ro‘yxati, jinsiy belgilari, ulgurishlari va qiziqishlarini nazarda tutib turkumlarga ajratish ham tasnifga misol bo‘ladi.

**8. Sistemalashtirish.** Fikr obyektiv hisoblangan narsa va hodisalarni zamon (vaqt), makon (fazo) va mantiqiy jihatdan ma’lum tartibda joylashtirishdan iborat fikr yuritish operatsiyasidir. U bilimlarni o‘zlashtirishda, ko‘nikma va malakalarni tartibga solishda muhim o‘rin tutadi. Sistemalashtirish yordamida narsa va hodisalar, faktlar, fikrlar va obyektlar makonda, vaqtida egallagan o‘rniga qarab mantiqiy joylashtiriladi.

### *Muammoli vaziyatlar*

Tafakkur maqsadga yo‘naltirilganlik xarakteriga egadir. Qachonki hayot va amaliyot jarayonida kishi oldida yangi maqsad, yangi muammo, yangicha vaziyat paydo bo‘lsa, unda dastavval tafakkur qilishga zarurat tug‘iladi. Masalan, o‘qituvchi qandaydir yangi metodni qo‘llamoqchi bo‘lganda yangi usul, vositalarni qidirganda, yangi maqsadlar tug‘ilib, bu maqsadlarga erishish uchun faoliyatning eski, avvalgi vosita va usullari yetishmay qoladi. Bunday vaziyatlar **muammoli vaziyat** deb yuritiladi. Muammoli vaziyatlardan boshlanadigan aqliy faoliyat yordami bilan maqsadga erishish va ehtiyojlarni qondirishning yangi usullari hamda vositalarini yaratish, ochish, topish, kashf etish mumkin bo‘ladi. Tafakkur – yangilikni izlash, ochish demakdir. Harakatning ilgaridan ma’lum eski bilimlar va malakalar bilan cheklash mumkin bo‘lgan hollarida muammoli vaziyat yuzaga kelmaydi va shuning uchun tafakkur ham mutlaqo talab qilinmaydi. Masalan, 2-sinf o‘quvchisini « $2 \times 2$  qancha bo‘ladi?» tipidagi savol fikr yuritishga majbur qilmaydi. Bunday savolga eski bilimlarning o‘zi kifoya, bu yerda tafakkur ortiqchadir. Muammoli vaziyat bilan masalani farq qilish zarurdir. Muammoli vaziyatda kishi faoliyat davomida ko‘pincha kutilmagan-

da, qandaydir, tushunib bo‘lmaydigan, noma'lum, tashvishli narsalarga duch kelib qoladi. Muammoli vaziyat bamisolisi «nimalardir ko‘ngildagidek emasligi»dan go‘yo signal beradi. Masalan, uchuvchi samolyotni boshqarib ketayotganda, to‘satdan motorda noaniq shovqinni payqay boshlaydi. Lekin u motorning qaysi qismida nima sababdan, qanday hodisa ro‘y berayotgani ni aniqlay olmagan. Bundan tashqari, u yuz berishi mumkin xavfning oldini olish uchun qanday harakat qilish kerakligini hali bilmaydi. Mana shunday tarzagi muammoli vaziyatdan tafakkur jarayoni boshlanib ketadi. Muammoli vaziyatni tahlil qilish natijasida sof ma’nodagi masala, sof ma’nodagi muammo paydo bo‘ladi.

### **Tafakkurning tuzilishi**

Tafakkur turlari	Ko‘rgazmali harakat. Nazariy, amaliy. Ko‘rgazmali-obrazli. Konvergent, divergent. Mavhum. Reproduktiv, produktiv.
Tafakkur shakllari	Hukm – tasdiqlovchi, inkor qiluvchi, juziy, yakka, xususiy, umumiyy, shartli, ayiruvchi, qat’iy, taxminiy, chin, xato, ehtimollik, voqelik, zarurlik. Tushuncha – yakka, umumiyy, to‘planma. Xulosa – induktiv, deduktiv, analogik – chin, taxminiy, yolg‘on.
Tafakkur sifatlari	Mazmundorligi, mustaqilligi, kengligi, chuqurligi, sertashabbusligi, pishiqligi, tanqidiyligi, ixchamligi, tezligi, samaradorligi...
Tafakkur operatsiyalari	Analiz, sintez, taqqoslash, abstraksiya, umumlashtirish, konkretlashtirish, tasniflash, sistemalashtirish.

### *Aqlning muhim xossalari*


Fikrlash faoliyati shaxsning aqliy xossalalarini tavsiflab beradi. Aqlning eng muhim sifatlari haqida to‘xtalib o‘tamiz:

- a) fikrning chuqurligi, ya’ni nazariya va praktikaning eng qiyin masalalari mohiyatiga kirib bora olish, ularni bilib, voqealar sabablarini tushunib olish, hodisalarning bundan keyingi jaryonini oldindan ko‘rish. Aqlga teskari chuqurlik sifati odam arzimagan narsalarga e’tibor berib, asosiy narsalarni ko‘rmagan vaqtida chiqarilgan hukm va xulosalarning yuzakiligidir;
- b) fikr kengligi odamning muayyan ishining mohiyatiga tushunibgina qolmasdan, balki u nima bilan bog‘liq ekanligi haqidagi ham o‘ylaydigan, ayni vaqtida jarayon yoki hodisalarning ikirchikirlarini nazardan ham qochirmaydigan umuman masalani qamrab olish qobiliyatidan iboratdir;
- c) aqlning o‘tkirigi, ya’ni o‘zgargan sharoitga qarab o‘z xulosa va qarorlarini qayta ko‘rib chiqo olish, olingen flkrlardan tashkil topgan masalani yechishda tayyor andazalarning yo‘qligi. Ana shu sifati bilan ajralib turmaydigan kishilar faqat bir andaza asosidagina o‘ylay va ishlay oladilar, fikrlarida sustkashlik bo‘ladi, yangiliklardan qo‘rqadilar;
- d) aqlning tanqidiyligi, ya’ni har bir fikrga ishonavermaslik, balki unga tanqidiy qarash, uning uchun va unga qarshi hamma dalillarni o‘lchab ko‘rish, ana shundan keyingina muayyan fikrga rozi bo‘lish yoki uni rad etish.

#### **Tafakkurni rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar:**

- 1. 16-rasm, a. 9 ta nuqtadan o‘tuvchi 4 ta kesma o‘tkazing.
- 2. 16-rasm, b. Tasavvur qiling, Siz rasmdagi odamsiz. Sizning vazifangiz shiftdan osilib tushgan ikki arqonni birlashtirish. Arqonlar shunday turibdiki, uning bir uchini ushlasangiz, ikkinchi uchini ushlolmaysiz. Xona bo‘m-bo‘sh, cho‘ntagingizda esa har doimgi narsalar tanga, kalit, pullar. Qanday qilib arqonni ushslash mumkin?
- 3. 16-rasm, d. Original fikrlash uchun hamma ko‘rayotgan narsani ko‘ribgina qolmasdan, ma’lumotlarga yangilik kirit olish kerak. Bu faol fikrlash deb ataladi.
- 4. 16-rasm, e. Zinapoyadan har qancha chiqishga harakat qilmang na tepaga, na pastga harakat qila olmaysiz. Agar odam o‘z ustida ishlamas, o‘z bilimini boyitmas ekan uning fikrlash darajasi ham «qotib» qoladi.


5. 16-rasm, f. 6-3=4 hosil qilish mumkinmi?  
 6. 16-rasm, g. Rasmdagi javob to‘g‘rimi?



**16-rasm.**


Mantiqiy sonlar qatorini davom ettiring:

- 1) 24 21 19 18 15 13 - - 7
- 2) 1 4 9 16 - - 49 64 81 100
- 3) 16 17 15 18 14 19 - -
- 4) 1 3 6 16 18 - - 76 78
- 5) 7 16 19 5 21 16 9 - 4
- 6) 2 4 8 10 20 22 - - 92 94
- 7) 24 22 19 15 - - 9



17-rasm.

17-rasm. Chap tomondagi ikki rasmning munosabatiga qarab, o'ng tomondagi rasmlarning chap tomonda turganiga munosibini toping (farosatlilik). 16, a-rasmning javobi:



#### Nazorat savollari:

1. Tafakkur deb nimaga aytildi?
2. Tafakkurning nerv-fiziologik asosini nima tashkil etadi?
3. Tafakkur turlari qanday?
4. Xulosa chiqarishning qanday turlari bor?

5. Tafakkur sifatlari deganda nimani tushunasiz?
6. Analiz, sintez, taqqoslash operatsiyalari haqida nimalar ni bilasiz?
7. Tasniflash va sistemalashtirishning farqi nimada?
8. Muammoli vaziyat nima?

### **3.5. Nutq. Nutq haqida tushuncha**

Kishilarning til vositasida o‘zaro munosabatda bo‘lish jarayoni nutq deb ataladi. Nutq va tilni aynan bir narsa deb hisoblash yaramaydi. Nutq odam boshqa kishilar bilan munosabatda bo‘lish maqsadida tildan foydalanish faoliyatidir. Har bir odam muomalani o‘zicha amalgalash oshiradi.

Kishilar nutq yordamida o‘z zamondoshlariga muayyan vaqtida nimalar yuz berayotganini xabar qilibgina qolmaydilar, balki insoniyat to‘plagan bilimlarining hamma boyligini avloddan avlodga o‘tkazib beradilar ham. Bola nutqni egallab olgandan so‘ng o‘zi tugilgan jamiyat hayotida kishilar bilan munosabatda bo‘ladi. Til milliy xarakterga ega ijtimoiy tarixiy hodisadir. Turli kishilarda jumla tuzilishi ham bir-biridan farq qiladi. Agar bola biror sabablarga ko‘ra nutqni egallab olmasa, uning aqliy kamoloti juda past darajaga tushib qolgan bo‘lar edi. Yuqorida aytib o‘tilganidek tafakkur va nutq bir-biri bilan bog‘lanib ketgan. Odam o‘ylayotganda odatda fikrlar jumlalar tarzida, ichki nutq deb ataluvchi nutq tarzida ifoda etiladi. Darhaqiqat, bir-ikki so‘zni ichingizda aytmasdan turib, biror narsa haqida so‘zlab ko‘ringchi, siz bunga erisha olmaysiz.

**Nutqning anatomik-fiziologik mexanizmlari.** Nutq jarayoni periferik organlarning ishi bilan ham, bosh miya po‘sti faoliyati bilan ham bog‘liq ravidashda sodir bo‘ladi. Nutq apparatning periferik qismiga nutq organlari, eshitish va ko‘rish organlari kiradi. Nafas olish organlari (o‘pka, bronxlar, nafas olinadigan bo‘g‘iz), ovoz vibratori (bo‘g‘izning ovoz muskullari) va ovoz muskullarining tebranishi natijasida hosil bo‘ladigan ovozni kuchaytiruvchi rezonator (og‘iz, burun bo‘shliqlari, halqum) nutq organlari hisoblanadi. Eshitish organi nutqni, ko‘rish organi yozma nutqni, shuningdek, og‘zaki nutqni to‘ldiruvchi imo-ishoralarni idirok etishni ta’minlaydi. Yozishda (ko‘zi ko‘rmaydigan kishilarni

o'qitishda) nutq apparatiga qo'Ining muskul-harakat sezgilari ham qo'shiladi. Bola dastlab nutqni egallayotgan davrida uning nutq tovushlariga bo'lган reaksiyasi juda umumlashgan xarakterga ega bo'ladi. Masalan, agar soatni bolaga «chiq-chiq» deb tushuntirilgan bo'lsa u «tik-tik» degan so'zga ham baribir soatni ko'rsataveradi. Bolalarda hali nutq tovushlari yaxshi differensirovka qilinmagan bo'ladi.

Bosh miya po'slog'inining nutq-eshitish, nutq-ko'rish va nutq-harakat markazlari deb ataluvchi qismlari nutq apparatining markaziy qismi hisoblanadi. Nutqning eshitish markazi bosh miya po'slogining chap chakka tomonidagi nutqning orqaroq qismida joylashgan. Nutqning harakat markazi chap yarimsharning manglay qismida joylashgan. Bu markazning ishi buzilsa, harakat affaziyasi paydo bo'ladi, ya'ni kishi gapira olmaydigan bo'lib qoladi. Bola qo'lida qo'ng'iroq ushlab turibdi deb faraz qilaylik. Bu holda bolada muskul harakat sezgilari paydo bo'lishi bilan bir vaqtning o'zida, qo'ngiroqni ushslash paytida u chiqargan ovoz, bolaning eshitish nervini ham qo'zg'atadi, shundan so'ng harakat vujudga keladi va nihoyat harakat bolaning ongida ancha kengroq aks ettiriladi: yuqoridagi uch refleksga to'rtinchisi qo'shiladi.


I.P. Pavlov ta'llimotiga ko'ra, odamda muaffaqiyatli nerv bog'lanishlari qo'zg'atuvchilarning faqat bevosita ta'sir ko'rsatish natijasiga emas, balki ana shu bevosita qo'zg'atuvchilar o'rniga keluvchi so'z ta'sirida ham paydo bo'ladi. Bunda so'z bevosita qo'zg'ovchilar bilan, voqelikning birinchi signallari bilan uzviy bog'lanishi tufayli, ya'ni o'zining ma'nosiga ko'ra qimmati tufayligina voqelikning signali bo'lib xizmat qiladi. Odam so'zni voqe-lik bilan bog'lay olgan taqdirdagina uning ma'nosiga tushunadi.

### *Nutq turlari*

Ovoz chiqarib talaffiiz etiladigan nutq **tashqi nutq** deb ataladi. Lekin biz yuqorida aytib o'tdik-ki, o'ylayotgan paytimizda ovoz chiqarmasdan ham nutqdan foydalanamiz. Tashqi nutq og'zaki va yozma bo'ladi. Og'zaki nutq monologik va dialogik nutq bo'lishi mumkin. Monologik nutq, nomining o'zi ko'rsatib turganidek bitta odamning nutqidir. U ko'pincha boshqa kishi-

larga, tinglovchilarga (ma’ruza, hikoya, majlisda so‘zga chiqish va hokazolar tarzida) qaratilgan bo‘ladi, lekin tinglash paytida ham o‘zi uchun ovoz chiqarib talaffuz etilishi mumkin. Monologik nutq tinglovchilarga qarata aytilayotgan vaqtida ular uchun tushunarli bo‘lishi kerak. Shuning uchun boshqalarga qarata gapirayotgan odam o‘zining nutqi qanday idrok etilayotganini hisobga olib borishi zarur. Shuni aytish kerak-ki boshlang‘ich sinfda nutqning monologik shaklini suiiste’mol qilmaslik lozim, kichik yoshdagi o‘quvchilar jonli suhbat jarayonida aytilan matnni ma’ruza tarzida bayon etilgan matnga qaragan-da ancha durustroq idrok etadilar, tushunadilar va o‘zlashtirib oladilar.

Diologik nutq ikki yoki undan ko‘proq kishining suhbatidan iborat bo‘ladi. Har bir so‘zlovchining fikrlari odatda almashinib turadi va monologik nutqdek ancha davomli bo‘lmaydi. Ba’zan dialogik nutq biror masala aniqlab beriladigan disput, munozara formasini kasb etadi. Yozma nutqqa alohida talablar qo‘yiladi. Kitobxon, odatda avtor yo‘qligida nutq mazmuni bilan tanisha-di, shuning uchun nutq juda tushunarli, aniq bo‘lishi kerak. Bundan tashqari yozma nutqda nutqni aniqroq qilishga yordam beradigan tegishli intonatsiya, mimika, imo-ishoralardan foydalanish imkonini bermaydi. Shu munosabat bilan yozma nutq ancha qiyinchilik tug‘diradi. Og‘zaki nutq ancha qiziqroq bo‘lishi mumkin, tinglovchi suhbatdoshidan tushunarsiz narsani hamisha aniqlab olishi imkoniga ega bo‘ladi, yozma nutqni esa to‘liq, kengaygan holda tuzish zarur. Og‘zaki yoki yozma nutq odamga har xil talablar qo‘yadi. Bir xil kishilar yaxshi gapira oladilar-u yomon yozadilar, boshqalari o‘z fikrlarini yozma ravishda yaxshi bayon qiladilar-u, lekin ularning og‘zaki nutqlarida (ayniqsa ko‘pchilik oldida gapirishga to‘g‘ri kelsa) nuqsonlar bo‘ladi. Nutqning aytib o‘tilgan hamma turlari **faol nutq** tushunchasiga kiradi. Ammo **passiv nutq** ham bo‘ladi, bunda odam gapirmay (yozmay) faqat tinglaydi. Passiv nutq boshqa kishining nutqini idrok etish va tushunishini o‘z icniga oladi. Buning uchun til vositalarini (tovushlar, so‘zlar ularning birik-malarini), ana shu vositalar bilan ifodalanadigan fikrlarni ham aniqlab olish zarur.



**Affektiv nutq** turli omillar ta'sirida birdaniga vujudga keluvchi, jahlning mahsuli bo'lib, bunda u to'satdan suhbatdosh, raqib to-monga uzatiluvchi, o'ta ta'sirchan, xavfli, ruhiy nishon vazifasini bajarib, zarbasi jihatidan alternativi yo'qligi bilan boshqa nutq turlaridan keskin ajralib turadi. Jahl, qasos, alam, tajovuz kechinmalarini o'zida aks ettirib, o'ta tanglik, zo'riqish (stress) mahsuli bo'lib hisoblanadi («Jahl kelganda aql ketadi»; «Hissiyot bilan emas, balki aql bilan ish tut»).

Yozma nutq insoniyat tarixining taraqqiyot bosqichida paydo bo'lib, hozirgacha u o'z rivojlanishida davom etmoqda. E.G. G'oziev ta'rificha, tilning barcha qoidalariga (orfografik, morfologik, sintaksik, leksik, orfoepik, lingvistik, fonematik, fleksiv va h.k.), qonuniyatlariga, mexanizmlariga (jonli ifodalar ni mujassamlashtirgan holda) asoslangan tarzda, muayyan shartli alomatlar (grafiklar) yordamida shakl, tuzilish, ma'no, mazmun va mohiyatni uzlucksiz, tadrijiy ravishda axborotlarga aylantirib beruvchi nutq turi yozma nutq deyiladi.

Yozma nutq turlari:

- monologik (drama);
- dialogik (badiiy asar janrlarida);
- ichki;
- lakonik (yig'iq, qatra);
- epik (yoyiq, yirik roman, qissa va boshqalar).

Yozma nutqning monologik va dialogik turlari badiiy asarlarda o'z ifodasini topgan bo'lib, og'zaki nutqdagidan farqli o'laroq til boyliklariga bevosita asoslanib, yangiliklar yaratish, ijod qilish so'zlar orqali mohiyat kasb etadi, u yoki bu shaklda tartibga keltiriladi. Lakonik (yig'iq, qatra) nutq ham og'zaki nutqdagiday ma'no kasb etsa, epik (yoyiq) nutq yirik asarlar, monografiyalar mohiyatini to'laqonli aks ettirish bilan boshqa nutq turlaridan farqlanadi.

### *Nutq sifatlari va vazifalari*

Nutq sifatlari ikki gruppaga ajratiladi. Nutqni leksika, fonetika nuqtayi nazaridan to'g'ri qiladigan sifatlar, jumlalarning talaffuz etilishi, tuzilishi, noaniq, noto'g'ri va keraksiz so'zlarning yo'qligi birinchi guruhga kiradi. Ikkinci guruhga nutqning shunday sifatlari kiradiki, ular tufayli so'zlovchining fikrlari tinglovchi-

ning ongiga qadar yetib boradi va tinglovchiga kutilgan ta'sirni ko'rsatadi, unda ishonch hosil qiladi. Nutqning mazmundorligi, aniqligi, tushunarligi, bayon etishning to'g'ri shakli mantiqiylik, obrazlilik, emotSIONallik shunday sifatlar jumlasiga kiradi.

Tarbiyachining nutqiga ayniqsa katta talablar qo'yiladi. Tarbiyachining nutqi tushunarligi, aniqligi, jonliligi, ishonarliligi, to'g'riliği va hokazolar bilan ajralib turishi kerak, agar unda hammadan qolgan, bir qolipdagi fikrlar ko'p bo'lsa, bu nutq natişa bermaydi. Nutqning ta'sirchan bo'lishi, uning bolalarga ta'sir etishida intonatsiya muhim ahamiyatga ega.

### **Tilning asosiy funksiyalari:**

- 1) til yashashning vositasi, ijtimoiy tajribani avloddan avlodga uzatish, berish va o'zlashtirish quroli tarzida vujudga keladi;
- 2) til vosita yoki kommunikatsiya usuli, hatto odamlarning xatti-harakatlarini boshqaruvchi quroli sifatida namoyon bo'ladi;
- 3) til intellektual faoliyatning quroli sifatida xizmat qiladi (muammoli vaziyat mohiyatini tushunish, yechishni rejalashtirish, ijro etish, maqsad bilan solishtirish).

Odam o'zi xoh amaliy xoh aqliy harakat qilishidan qat'i nazar uni rejashtirib, buning yechimi uchun vosita qidirishning va umumiyl fikriy masalalarini hal qilishning asosiy quronli til hisoblanadi.

Nutq faoliyati odam tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish, avlodlarga uzatish yoki kommunikatsiya o'rnatish, o'z shaxsiy harakatlarini rejashtirish va amalga oshirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir.

### **Nazorat savollari:**

1. Nutq deb nimaga aytildi?
2. Nutqning tildan farqi nimada?
3. Nutqning qanday turlaridan foydalaniladi?
4. Nutqning qanday funksiyalari farqlanadi?

## **3.6. Xayol.**

### **Xayol tavsifi, fiziologik asoslari**

Predmet va hodisalarining obrazlari garchi kishining xayoliy tasavvurlarida (obrazlarida) ilgari u shu holda idrok qilmagan

tarzda vujudga kelsa ham, biroq bu obrazlar hamisha kishi hayotida kuzatgan elementlar, qismlardan tashkil topgan bo‘ladi. Kishi biror yangi predmetni, masalan, mashinani yaratish yoki ixtiro qilar ekan, uni o‘zi qayerdadir ko‘rgan, unga (nazariy yoki amaliy jihatdan) tanish qismlar va detallardan tuzilgанини fikran tasavvur qiladi. Hatto fantast yozuvchilar ham o‘z asarlarining g‘ayritabiyy, aqlga to‘g‘ri kelmaydigan qahramonlarini hayotda kuzatgan narsalarning elementlaridan yaratadildi. Masalan, Gerbert Uells «Dunyolar kurashi» degan fantastik romanida boshi metall silindrga o‘xshagan, qushning tumshug‘i singari tumshug‘i, oyoqlari juda katta hasharoqning qo‘l-oyoqlarini eslatuvchi Mars odamlarini tasvirlaydi. Bu narsa ertaklarda, dostonlarda va xalq fantaziysi bilan yaratilgan obrazlarga ham taalluqlidir. Shunday qilib, ijod jarayonida hamisha ilgari idrok qilingan narsalarning qayta ishlanishi ro‘y beradi. Xayol deb odamning ongida ilgaridan bor bo‘lgan vaqtli aloqalarning (assotsiatsiyalarning) qaytadan tiklanish va bir-biri bilan yan-gicha qo‘silishi orqali yangi narsa va hodisalarning obrazlarini hosil qilishiga aytildi.

Inson xayolining eng murakkab va eng fantastik obrazlari idrok qilingan obrazlarni qayta ishlashga asoslanadi. Chunonchi, afsonaviy hikoyalardagi obrazlar – dev, pari, suv parisi va boshqalar ham inson xayolining mahsulidir. Bu afsonaviy hikoya va ertaklar juda katta mubolag‘alarga qaramay, xalqning hayoti, uni o‘rab olgan tabiiy muhit hamda manzaralarni yorqin obrazlar orqali aks ettiradi. Mana shunday afsonaviy, xayoliy ertaklarda xalqning orzu-umidlari ifodalanadi, masalan «Ur to‘qmoq», «Ochil dasturxon», «Uchar gilam» kabilari.

Xayolni ko‘pincha fantaziya deb ataydilar, holbuki, ba’zan «fantaziya» degan so‘z bilan haqiqiy hayotga kam aloqador xayolni tushunadilar. Xayolning boyligi idrok qilish ko‘nikmasiga, predmetlar va hodisalarning obrazlarini kuzatish va xotirada saqlab qolishga bog‘liq bo‘lib, ular keyinchalik qayta ishlab chiqiladi. Bu jarayonda tafakkur muhim rol o‘ynaydi. Tafakkur fantaziya natijalariga tuzatishlar kiritadi, ya’ni tanqidiy baholaydi. His-tuyg‘ular ham xayolga ta’sir ko‘rsatadi va ularning o‘zlari ko‘p jihatdan xayolga bog‘liq bo‘ladi. Nihoyat kishining xayoli bi-

lan yaratilgan ijodiy niyatlarni amalga oshirish uchun iroda zarur bo‘ladi.

**Xayolning fiziologik asosi** miyaning katta yarimsharlar po‘stlog‘ida ilgari hosil bo‘lgan muvaqqat bog‘lanishlar o‘rtasida yangi birikmalarining paydo bo‘lishidir. Avvalgi bog‘lanishlarning tiklanishi bu xotira jarayonlaridir. Xayolning ishlashi uchun bu bog‘lanishlarning miya po‘stlog‘ida hali mavjud bo‘lmagan, lekin u yerda bor qo‘zg‘alishlarning qoldiqlaridan tashkil topadigan birikmali yangi sistemalari vujudga kelishi zarur. Xayol ikkala signal sistemasining faoliyati bilan mustahkam bog‘langan. Agar kishi tegishli sezgilar, idroklarga ega, ya’ni atrofdagi voqelikning dastlabki signallarini olgan taqdirdagina, unda narsalar va hodisalar to‘g‘risidagi obrazlar, tasavvurlar hosil bo‘lishi mumkin.

Psixologiyada qo‘rqinch holati (yunon. «phobos» – qo‘rquv) **fobiya** deb nomlanadi. Fobiya muayyan sharoitlar va vaziyatlarda shaxsda vujudga keladigan kuchli asosga ega bo‘lmagan qo‘rqinch va tashvishlanishdan iborat, inson tomonidan yengish imkoniyati yo‘q muttasil psixopatologik holat. Mazkur patologik holatning ba’zi birlari haqida ma’lumot berishga harakat qilamiz:

- 1) agarafobiya – shaxsning gavjum maydonlardan, shox ko‘chalardan o‘tishga qo‘rqishi;
- 2) kaustrofobiya – insonning eshagini qulflab yolg‘iz o‘tirishdan qo‘rqishi;
- 3) monofobiya – shaxsning yakka-yu yolg‘iz, hech kimsiz qolishdan qo‘rqishi;
- 4) atropofobiya – insonning ko‘pchilik davrasidan, xaloyiqdan qo‘rqishi;
- 5) nazofobiya – odamning kasal bo‘lib qolishdan qo‘rqishi;
- 6) eyrotrofobiya – shaxsning ko‘pchilik davrasida izza bo‘lishdan, o‘zini yo‘qotib qo‘yishdan qo‘rqishi;
- 7) didaktofobiya – o‘quvchi yoki talabaning o‘qituvchidan qo‘rqishi;
- 8) yatrofobiya – bemorning shifokordan qo‘rqishi va h.k..

#### *Xayol jarayonining asosiy xususiyatlari*

Xayol jarayoni va uning vujudga kelishi bir qancha sharoitlariga bog‘liqdir. Xayol har doim ma’lum bir yo‘nalishga ega bo‘ladi.


Odatda vujudga kelgan xayol odamning o‘z faoliyati davomida nimaga intilayotgani, nimani istayotgani bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, quruvchi qurayotgan binosining qanday bo‘lishini, tarbiyachi tarbiyalayotgan bolalarining kim bo‘lib yetishishlarini xayolan ko‘z o‘ngiga keltiradi. Xayolning ana shu xususiyati, xususan bolalarda juda yaqqol ko‘rinadi. Chunonchi, bog‘cha yoshidagi kichik bolalar haydovchi bo‘lgilari keladi. Buni amalga oshirish qiyin albatta, lekin bu mushkul masalani hal qilishda xayol jarayoni yordam beradi. Bola xayolan haydovchi bo‘lib olib, stulni mashina qilib, haydab ketaveradi.

Xayol xususiyatlaridan biri shundan iboratki, xayol odamning ehtiyojlari, qiziqishlari va o‘z oldiga qo‘ygan vazifalari bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Odamning ehtiyojlari va qiziqishlari hamma vaqt ham xayolga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir etavermaydi. Odam hamma vaqt ham istagan narsalariga erishavermaydi. Qo‘rroq odamning xayolida hamma vaqt qo‘rqinchli narsalar gavdalana-veradi. Ayni shu paytdagi ehtiyojning ta’siri bilan odamning xayoli o‘tmishda idrok qilingan narsalardan hosil bo‘lgan tasavvurlarni ijodiy ravishda qayta ishlab, yangi obrazlar yarata boshlaydi.

Xayol jarayonining o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri uning boy tajriba hamda bilimlarga asoslanishidir. Agar bilim yetarli darajada bo‘lmasa, xayoliy tasavvurlar hosil bo‘lmaydi. Bolalar muzeylarda bo‘limganlari, teatrlarga tushib tarixiy postanovkallarni ko‘rmaganlari, kinolarni hali juda kam ko‘rganlari tufayli bunday tasavvurlarni xayol qilishning uddasidan chiqa olmaydilar.

Xayol jarayonining o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri xotira tasavvurlarini analiz va sintez qilishdir. Xayol uchun material bo‘ladigan tasavvurlar xayol yaratib berayotgan obrazlarga ko‘pincha to‘liq holda kirmasdan, balki qisman kiradi. So‘ngra xayolning sintez, qilish faoliyati ro‘y beradi. Bunda muayyan tasavvurlardan ajratib olingan elementlarni qo‘sish va bir turkum qilish jarayoni ro‘y beradi. Mana shunday sintez qilish faoliyatida yangi tasavvur — xayol tasavvuri vujudga keladi. Yozuvchilar ababiyotidagi badiiy obrazlarni yaratayotganlarida xayolning analiz va sintez qilish xususiyatidan foydalanadilar. Ular o‘z asarlaridagi qahramonlarning tiplarini bir qancha ayrim taassurotlardan vu-

judga keltiradilar. Qahramonning xarakteri shu qahramon man-sub bo'lgan ijtimoiy guruhdagi turli odamlarning qiyofalaridan olingan bir qancha xususiyatlardan bunyodga keladi.



**18-rasm.** Oddiy ixtiolar.

Xayol qilish orqali vujudga keltirilgan obrazlar ko'pincha juda yaqqol, konkret xarakterga ega bo'ladi, masalan, biron narsani xayolan tasavvur etib ko'rish uchun u haqida o'ylab ko'rishning o'zi kifoya qilmaydi. Xayolan tasavvur etib ko'rishda biz shu narsaning obrazini yaratamiz va tafakkur ko'zi bilan ko'ra boshlaymiz. Ba'zi paytlarda ana shunday xayolan yaratilgan obrazlar shu qadar yorqin, shu qadar konkret bo'ladiki, ularni haqiqiy vogelikdagi narsalar bilan almashtirib yuboriladi. Ma-salan, bog'cha yoshidagi kichik bolalar buvilarini juda yaxshi ko'radilar. Lekin buvisi bo'limgan bolalar buvini juda zoriqib orzu qila boshlaydilar. Natijada ular xayolan buvining obrazini yaratadilar. Buvisi bo'limgan uch yoshli qizcha tarbiyachisi-ga kelib, buvisi Farg'onadan kelganini, juda muloyim kampir ekanligini, unga sovg'a-salomlar olib kelganini va endi buvi-si bilan mehmonlarga borishini aytgan. Tarbiyachi kechqurun qizchaning onasi kelganida uning oyisi kelgani bilan tabriklaydi va juda xursand bo'lganini izhor qiladi. Qizchaning onasi hech narsaga tushuna olmay, nima gap ekanini so'raydi va onasi al-

laqachonlar o'lib ketganini aytadi. Shunda tarbiyachi qizchani chaqirib, nima sababdan shunday yolg'on gapirganini so'raydi va urishadi. Qizcha bo'lsa, yig'lab buvisi borlarga juda havasi kelganini va o'zi xayolida ana shunday buvi yaratganini aytadi. Ana shunday hollarda, albatta, bolalarni yolg'onchilikda ayblab bo'lmaydi.

Nihoyat, xayolning o'ziga xos xususiyatlardan yana biri shundaki, agar idrok obrazlari ayni hozirgi paytdagi narsalar bilan bog'liq bo'lsa, xotira obrazlari o'tgan zamondagi narsalarning obrazlarini tiklash bilan bog'liq bo'lsa, xayoliy yo'l bilan yaratilgan obrazlar hozirgi va o'tgan zamongagina emas, balki kelajak zamonga, odam intilayotgan maqsadlarga qaratilgan bo'ladi. Massalan, odam kelajakda nima ishlar qilishini xayolan tasavvur qilib ko'rishi mumkin.

### *Xayol turlari*

Inson quyidagi holatlarda xayolot olamiga kirib borishi mumkin:

- 1) inson hech qanday yo'l bilan hal qilib bo'lmaydigan masalalar, muammolar iskanjasidan berkinish maqsadida;
- 2) turmushning og'ir sharoitlaridan, zahmatlaridan himoyalanish niyatida;
- 3) shaxsiy nuqsonlarning tarkibidan;
- 4) ushalmagan armondan;
- 5) patologik holatga (ruhiy nuqsonga) uchraganda;
- 6) alkogolizm, narkomaniya va boshqa vaziyatlarda.

Xayolot (fantaziya) turmushda gavdalanishi mumkin bo'l-magan, amalga oshirish imkoniyati yo'q xatti-harakatlar dasaturini namoyon etib, u passiv (sust) xayol deb nomlanadi.

Xayolning bundan tashqari ixtiyoriy, ixtiyorsiz, qayta tiklovchi va ijodiy turlari ham mavjud. Ixtiyoriy xayol qandaydir ijodiy mehnat bilan band bo'lgan kishi o'z xayolini ishslashga majbir qilganda ro'y beradi. Bu hol badiiy asarlarni yaratish jarayonida, ixtirochi, konstrukturning faoliyatida va hatto qilayotgan narsani o'ylab ko'rish va yaxshi tasavvur qilish zarur bo'lgan oddiy ishda ham yuz bera-di.

Ixtiyorsiz xayol kishining oldida hech qanday vazifa turmagan vaqtida, lekin beixtiyor ravishda orzu qilib, xayol sura boshlaganda paydo bo'ladi. Ixtiyorsiz xayol kuchli ehtiyojlar tufayli ham paydo bo'ladi. Masalan: odam juda tashna yoki och paytida uning xayolida turli taomlar, suvlar paydo bo'la boshlaydi. Shuningdek, kishining hissiy holatiga ham bog'liq. Qo'rqayotgan vaqtda odam xayoliga qo'rqinchli obrazlar kela boshlaydi.

Obrazlarning mustaqilligi va originalligiga qarab xayol **esga tushiradigan** va ijodiy bo'ladi. Esga tushiradigan xayol (uni tasavvur xayoli yoki reproduktiv ishlab chiqarish xayoli ham deb ataydilar) boshqalar tomonidan bajarilgan tasvirlashlar yoki aks et-tirishlar (masalan, chizmalar, sxemalar va h.k.) asosida paydo bo'ladi. Biz kitob o'qir ekanmiz, tabiat manzarasi yoki voqealarni tasavvur qilamiz, yozuvchi tasvirlagan obrazni fikran ko'ramiz. O'quvchi tarixni o'qir ekan o'z xayolida uzoq o'tmis gavdalanadi. Ijodiy xayol obrazlarni (albatta, ilgarigi idroklar asosida) mustaqil ravishda yaratishdan iboratdir. Bu xayol kishining ijodiy faoliyati bilan bog'langan. Xayolning ana shu turi esga tushiradigan xayoldan murakkabroqdir. Olim, ixtirochi, konstruktoring va umuman biror yangi, original narsani yaratmoqchi bo'lgan har qanday kishining faoliyatini ijodiy xayolsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.


### *Xayol jarayonlari, shakllari*

Insoniyat taraqqiyotining boshlaridanoq kishilar o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida yangi narsalarni o'ylab topganlar. Odamlar qo'llari bilan ishlar ekanlar, eng oddiy mehnat qurollarini ixtiro qilganlar, bu qurollar qo'llar vazifasini tezroq va yaxshiroq bajargan. Ayrim san'at asarlari predmetlardan bir xil xususiyatlar va xossalarni ajratib olish va ularni yangidan birlashtirib, uyg'unlashtirish yo'li bilan hosil qilingan. Bu timsolarni sintezlashning eng sodda shakli agglutinatsiya (lot. agglutinare – yopishtirmoq, yelimlamoq) bo'lib, kundalik hayotda birlashtirib bo'lmaydigan turli sifatlarni birlashtirib, muayyan tasavvurlarni bir-biriga qo'shib yoki ulardan foydalanib, narsa va hodisalarining yangi obrazlarini yaratishdan iborat xayol fenomenidir.

Agglutinatsiya yo‘li bilan ertak obrazlari, afsonalar, mult-filmlar yaratiladi (Suv parisi, tovuq oyog‘ida turgan uycha, hind afsonalaridagi ko‘p qo‘lli xudolar, yetti boshli ajdar va h.k.). Hozirgi zamon agglutinatsiyasidan texnik, badiiy ijodiyotda keng foydalanimoqda. Masalan, samolyot amfibiya (yunon. amibtos – ikki yoqlama hayot kechirish), quruqlik va suvga moslashgan gidrosamolyot, avtokran, – avtomobil va kran qorishig‘i va h.k.. Tassavvur formalarini o‘zlashtrish jihatidan agglutinatsiyaga yaqin turuvchi giperbalizatsiya (yunon. huperbole – bo‘rttirish, kuchaytirish)dir, ya’ni obrazlarni kattalashtrish yoki kichraytirishdir. Xalq ertaklarida jimitdek bola o‘ylab topilgan, Gulliver, No‘xotpolvon, Dymovochka, gnomlar va boshqa obrazlar yaratilgan. Rassomning o‘simpliklar dunyosidan andaza olib, naqsh yaratishi sxematizatsiya (yunon. sxema – obraz, shakl vujudga keltirish)ga misol bo‘la oladi. Bu usul bilan o‘rtoqlik hazillari, karikaturalar yaratiladi. Tipiklashtirish (yunon. tupos – iz, chiziq)dan badiiy adabiyotda keng qo‘llaniladi, ular orqali narsalarning takrorlanadigan muhim tomonlari ajratilib konkret obrazlarda gavdalantiriladi. Xayolning ishlashi uchun bilimlar nihoyatda zarur bo‘ladi. Xayoli jamiyat uchun foydali narsalarni yaratishga qaratilgan kishilarda bilim ayniqsa ko‘p bo‘ladi. Xayol bunday kishilarni ijod qilishga, gipotezalar yaratishga, ularni tekshirib ko‘rishga undaydi, bilim va tajriba esa kishining fikr doirasini kengaytirib, fantaziya uchun boy ma’lumot beradi.



**19-rasm.** *a* – suv parisi; *b* – uch boshli ajdarho.



**21-rasm.** Sfinks.


**22-rasm.** Kentavr.

Xayolning **orzu va fantaziya** kabi shakllari farqlanadi. U ham mustaqil tarzda yangi obrazlar yaratishdan iboratdir, lekin orzu hamisha kelajakka qaratilgan bo'lib, kishining istaklarini ifodalaydi. Ijodiy xayoldan farqli orzu ayni vaqtdagi faoliyatga bevosita kiritilmagan bo'ladi. Orzu qilishning ikki xili: **foyDALI va zararLI** (quruq so'zlar) orzular bo'ladi. Ma'lum maqsadga intilgan kishilarning orzulari butunlay boshqacha xarakterga ega bo'ladi. Fantaziya «go'yo» degan so'z yordami bilan o'yinga olib kirilgan xayoliy vaziyatdir. Fantaziya o'yin faoliyatining dasturi sifatida namoyon bo'la oladi. Masalan, bola go'yoki o'zini shifokor hisoblab kasallarni davolaydi.


### *Xayol sifatlari*

Xayol odatda kechinmalarga boy bo'ladi. Xayolda tasvirlanadigan yorqin manzaralar ko'pincha yuksak ta'sirchanlik oqibatida vujudga keladi. Qo'rquv tuyg'usi kishini xayoliy xavf-xatarlarni tasavvur etishga majbur qiladi va aksincha bu xavf-xatarlarni xayol qilish qo'rquv tuyg'usini ko'p marta kuchaytirishi mumkin. Bu narsa quvonch yoki qayg'u emosiyalariga ham taalluqlidir. Xayol ularni kuchaytiradi, bu kechinmalarning o'zi esa xayolni kuchli ravishda ishlashga undaydi. Kuchli va faol xayol surish buyuk mutafakkirga xos zarus narsalardir.

Faktlar, hodisalar va voqealarni noaniq ko'rsatish, bo'rttirib yuborish, yoki kamaytirishga moyillik ko'pincha xayol ustidan nazoratning yo'qligi tufayli yuz beradi. Bu sifat ayrim bolalarda mavjud bo'lib ular yolg'on gapirganlarida ba'zan haqiqiy narsa bilan xayoldagi narsani aralashtirib yuboradilar, lekin yillar o'tishi bilan to'g'ri tarbiyalangan bolalardagi bu kamchilik yo'qoladi. Bunday sifat katta yoshdagi kishida avj olsa ancha yomon bo'ladi. Bu kishi o'ziga-o'zi baho berishda, haqiqatda o'zida yo'q ustunlik mavjud deb, tasavvur qilishi mumkin. Bunday kishi o'z kamchiliklarini sezmaydi va atrofdagi kishilar nafratini qo'zg'atuvchi maqtanchoq bo'lib qolishi mumkin. Aksincha ong tomonidan nazorat qilib turiladigan xayol o'z-o'zini tanqidiy baholashga yordam beradi. Chunki kishi o'zining qanday bo'lmoqchi ekanligini aniq tasavvur qiladi.



**23-rasm.** Shakllarni fikran ikki qismga bo'lib kvadrat hosil qiling.



*Ilgari idrok etgan va etmagan predmet va hodisalarni ongimizda yaratishdan iborat bo'lgan psixik jarayon XAYOL deyiladi.*

Tarbiyachi mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘rar ekan uning borishini tasavvur qiladi. Xayol yetarli darajada rivojlantirilmasa bolalarning intellektual o‘sishlari ham yaxshi rivojlanmay qoladi. Tarbiyachi badiiy asarlarni o‘qish yoki aytib berish bilan shug‘ullanar ekan, muallif gapirgan narsalarni fikran tasavvur qiladi. Bola ertak va hikoyalarni eshitayotganda o‘zi ko‘rmagan, xayolida o‘ziga notanish tabiat manzarasini tasavvur qiladi. Tasavvur obrazlari bo‘lmasa hikoyalarni tushunib bo‘lmaydi. Xayol bola shaxsining umumiy rivojlanishiga, xususan, axloqiy tarbiyasiga ta’sir ko‘rsatadi. Xayol ta’siri ostida qahramonning ideal obrazi yaratiladi va kishi ana shu obrazga o‘xshash uchun intiladi.

**Amaliy ish:**

1. Fanda ijodiy xayolga oid misollar keltiring.
2. Foydali va foydasiz orzu haqida gapirib bering.

**Nazorat savollari:**

1. Xayol tasavvurlari xotira tasavvurlaridan nimasi bilan farq qiladi?
2. Kishi hayotida xayol qanday ahamiyatga ega?
3. Xayol xususiyatlarining kechishi nimada ko‘rinadi?
4. Xayol obrazlarini yaratishning ayrim yo‘llarini aytib bering.
5. Orzu xayolning boshqa turlaridan nimasi bilan farq qiladi?

## IV bob. SHAXSNING HISSIY-IRODAVIY HOLATLARI

### 4.1. His-tuyg‘ular. Hissiyot va emotsiya to‘g‘risida tushuncha

Kishilar idrok qilayotgan narsalariga, bajarayotgan va o‘ylayotgan narsalariga befarq bo‘lmaydilar. Bir xil predmetlar, shaxslar, harakatlar, voqealar bizni quvontiradi, boshqalari xafa qiladi, yana boshqalari g‘azab, nafratimizni qo‘zg‘atadi. Biz xavf ostida qolganimizda qo‘rquvni his qilamiz, qiyinchiliklarni yengish zavq, shodlik uyg‘otadi. Har bir kishi mehnat qilar ekan, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishish uchun intilar ekan ana shunday va boshqa kechinmalarni boshidan o‘tkazadi.

Odamning o‘zi bilgan va bajarayotgan narsaga o‘z munosabati ni boshdan kechirishi **his-tuyg‘ular yoki emotsiyalar** (lot. emovere – qozg‘atish, hayajonga solish) deyiladi. His-tuyg‘ularning manbai biz idrok qiladigan, ish ko‘radigan predmetlar va hodisalarning xususiyatlari vujudga keltiradigan ehtiyojlar, intilishlar, istaklardir. Oddiy nutqda sezish, his qilish tushunchalari aralashtirib yuboriladi. Biz: «Men qo‘rquvni sezyapman», «Og‘riqni his qilyapman» deymiz, holbuki, «Qo‘rquvni his qilyapman», «Og‘riqni sezyapman» deyish to‘g‘riroq bo‘ladi. Sezgilar bizza narsa va hodisalarning xossalari bildiradi, his-tuyg‘ular esa kishining ichki holatini, uning ana shu narsa va hodisaga munosabatini ahglatadi. His-tuyg‘ular barcha psixologik jarayonlar bilan mustahkam bog‘langan bo‘lib, ko‘pincha ular tomonidan keltirib chiqariladi va o‘z navbatida ularga ta’sir ko‘rsatadi. Sezgilarning o‘zi ham ko‘pincha kechinmalarimiz ostida o‘zgaradi. Kishi kayfiyatiga qarab ayni bir xil predmetni ba’zan turlich raqib qiladi. Vaxshiy hayvonlar to‘g‘risidagi hikoyalardan qo‘rqib ketgan bola qorong‘ida shox-shabbani ham bo‘ri deb qabul qilishi mumkin, odatda kunduzi shu joydan o‘tayotganda hech qanday qo‘rquvni his qilmaydi.

Emotsiyalar xotiralar bilan mustahkam bog‘langandir. Biz boshdan kechirgan, ya’ni muayyan his-tuyg‘u bilan idrok qilgan hamma narsa xotiramizda yaxshi saqlanadi, o‘tmish haqidagi xotiralar bizda biror his-tuyg‘u uyg‘otadi. Hissiy qo‘zg‘alishlar

yurakda ham aks etadi. Shuning uchun ham qadimgi faylasular miyaning ba'zi funksiyalarini, ayniqsa hissiyot bilan bog'liq bo'lganlarini yurak bilan bog'lashgan.

Sezgi va idrokdan tortib to tafakkurgacha bo'lgan barcha operatsiyalar hissiy o'zgarishlar bilan kechadi. Inson tabiat shunday tuzilganki, u hissiy voqealarga ko'proq ahamiyat beradi. Hissiyot haqidagi dastlabki nazariyalar XX asr boshlarida odam o'z-o'zini bayon etishiga asoslangan edi. O'sha davrda ikkita kashfiyotchi P.Jeyms va G.Lange nomi bilan atalgan nazariya keng ko'lamda tarqalgan edi. Jeyms-Lange nazariyasi his-tuyg'ularning paydo bo'lishini quyidagi tarzda tushuntirib beradi. Atrof-muhitdagi hodisalar odam ruhiyatiga, u orqali esa vegetativ nerv sistemasiga ta'sir o'tkazar ekan, organizmda muayyan o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Bu o'zgarishlar odam tomonidan talqin qilinadi, aynan ana shu talqin hissiyotning o'zi ekan. Bu jarayon quyidagicha ta'riflanadi. Avval odam tanasida qandaydir bir his paydo bo'ladi, masalan, eti jimirlaydi, ko'zi yosharadi, keyin esa qalbida qandaydir tuyg'u paydo bo'ladi.

XX asr boshlanishida Jeyms-Lange nazariyasi juda ko'p tanqidga uchragan bo'lsada, lekin so'nggi paytlarda bu nazariyaga qiziqish paydo bo'lib, bu nazariyaga yaqin turadigan hissiyot haqida yangi nazariyalar paydo bo'ldi. Bu nazariyalarning paydo bo'lishi ko'p jihatdan individual psixologiyaning rivojlanishi bilan ham bog'liq.

Psixologiyada kuchli his-tuyg'ular hisoblangan qo'rquv, hajajon, tushkunlik, rashk odatiy ruhiy faoliyatni izdan chiqaradi. Bolalarda hislarning tashqi ifodasi juda ham yaqqol namoyon bo'ladi. Katta odamlar o'zlarining ayni chog'dagi hissiyotlarini yashirishlari mumkin. Lekin bolalar, ko'pincha, buning uddasidan chiga olmaydilar.

Psixik jarayonlar qatori hissiyotlar ham bolalarda juda erta boshlanadi. Birinchi bosqich – his-tuyg'u va ehtiyoja qarab qoniqish-qoniqmaslik birga keladigan hisdir. Ikkinci bosqich – ijtimoiy hislar: yoqtirish, o'z-o'zini yaxshi ko'rish, xafagarchilik hissidir. Birmuncha kechroq (qariyb uch yoshdan boshlab) bolalarda estetik did hissi rosmana namoyon bo'ladi. Bola «chiroyli-xunuk» degan narsalarga aqli yeta boshlaydi. Uchinchi bosqich – hissiyotning

jadal, hattoki, zo'r berib avj olishi, qo'zg'aluvchanlikning oshganligi va mактабгача yoshda beqaror bo'lishi bilan xarakterlanadi. Ayni paytda axloq-odob hissi rivojlana boshlaydi. So'nggi bosqich – bolalarda mактаб yoshida oliy hissiyotning rosмана rivojnishi bilan xarakterlanadi. His-tuyg'uni tarbiyalash katta ahamiyat kasb etadi. U umuman tarbiyaning doimiy hamrohi bo'lмog'i lozim.

Pedagog his-tuyg'ularning ta'lim-tarbiyaviy ishdagi ahamiyatini esda tutishi lozim. Bolalarda kuchli ijobjiy emotsiyalar uyg'otadigan bilimlar bola beparvolik bilan qaraydigan ma'lumotlarga nisbatan tezroq va mustahkamroq o'zlashtiriladi. Erishilgan muvaffaqiyatlar va yaxshi xulq-atvor uchun aytildigan maqtovli gaplar odatda bolada yoqimli his-tuyg'uni uyg'otadi, rag'batlantiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Ma'qullamaslik, tanbeh, jazolashlar odatda bolada yoqimsiz emotsiyonal holatning vujudga kelishiga sabab bo'ladi va bola bunday kechinmalarning takrorlanmasligi uchun harakat qiladi.

### *His-tuyg'ularning nerv-fiziologik asoslari*

Eng oddiy emotsiyalar asosida murakkab shartsiz reflekslar, miya po'stlog'i ostida ro'y beradigan jarayonlar yotadi. Lekin miya po'stlog'i ostining faoliyati, miya katta yarimsharlari po'stlog'inining ishi bilan nazorat qilib turiladi. U I.P. Pavlovning so'zlari bilan aytganda, «...badanda ro'y beradigan hamma hodisalarini o'z ixtiyorida ushlab turadi». Bunda II signallar sistemasi katta o'rin egallaydi. Aynan so'z, fikr, noma'qul hislarni vujudga keltiruvchi biror hodisaga ongli munosabatda bo'lish, kishiga ularni yechgish uchun, umuman his-tuyg'ularni boshqarish uchun kuch bag'ishlaydi.

Katta yarimsharlari po'stlog'idagi shartli reflekslarning muvaqqat aloqalari sistemasi murakkab his-tuyg'ularning fiziologik asosidir.

His-tuyg'ularning paydo bo'lishi uchun dinamik stereotiplar katta ahamiyatga ega. «Meningcha odatdagи yashash sharoiti o'zgarganga, odat bo'lib qolgan mashg'ulotlar to'xtab qolganda, yaqin kishilardan judo bo'lganda ko'pincha kechiriladigan og'ir his-tuyg'ular, aynan eski dinamik stereotipining o'zgarishida, buzilishida va yangi stereotipni vujudga keltirishning qiyinli-

gida ma'lum darajada o'zining fiziologik asosiga ega bo'ladi». I.P. Pavlov to'qnashuvlar, qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarning «turtkilari» yoqimsiz kechinmalarning sababi bo'ladi. Agar men biror narsa bilan band bo'lib turganimda, meni muayyan qo'zg'atuvchi jarayon yo'lga solib turadi. Agar mana shu vaqt-da menga «falon narsani qil!» desalar men o'zimni noqulay sezaman. Bu meni band qilib turgan kuchli qo'zg'atuvchi jarayoni to'xtatishim, so'ngra boshqasiga o'tishim kerak, degan gapdir. Injiq bolalar deb ataluvchi bolalar bu jihatdan klassik misol bo'la oladi. Siz ularga biron narsa qilishni buyurasiz, ya'ni boladan bir qo'zg'atuvchi jarayonni to'xtatib, boshqasini boshlashni talab qilasiz. Ahvol shu darajaga borib yetadiki bola o'zini polga otib, oyoqlari bilan uni tepa boshlaydi va h.k.».

Katta yarimsharlar po'stlog'i tomonidan nazorat qilinadigan qo'zg'alishlar po'stloq ostining, xususan ko'rish bo'rtmasi deb ataluvchi joyidan boshlanadi. Agar miya po'stlogi tomonidan qilinadigan ana shu nazorat va tormozlanish zaiflashib qolsa, (kasallanish yoki boshqa sabablarga ko'ra) kishi har qanday sabablarga ko'ra affekt holatiga keladi va o'zini to'xtatib qololmaydi. Sinpatik nerv sistemasi (ichki sekretsiya ishlarini boshqaradi) ham emotsiyalar uchun muhim ahamiyatga ega. Kuchli ta'sirlangan (qo'rqqan, kuchli to'lqinlangan, g'azablangan) kishida buyrak usti bezlaridan alohida bir modda – adrenalin ajralib chiqadi. Uning ta'sirida qonga ko'proq qand moddasi kela boshlaydi. Bularning hammasi qo'zg'alish vaqtida faol harakat qilish uchun zarur muskullar ishini kuchaytiradi.

Hal etilmagan hissiy raqobatlar tomirlarning qisqarishiga va tana haroratining pasayishiga olib keladi, hissiyotlarning erkin namoyon bo'lishi, ya'ni ijobjiy his-tuyg'ular, tomirlarning kengayishi bilan tavsiflanadi. Og'riq turganda va qo'rquvda ko'z qorachig'inining kengayishi simpatik asab sistemasining qo'zg'alishiga bog'liqdir. «Tovuq terisi»ning paydo bo'lishi, kutish, qo'rquv, g'azab paytida og'iz qurishi ham shular jumlasidandir.

### *Hissiyot shakllari*

His-tuyg'ular ko'pincha kishining xulq-atvoriga alohida bir hissiy ohang bag'ishlaydi, ma'lum darajada davom etadigan, an-

cha mustahkam kechinmalarni vujudga keltiradi. Ba'zan his tuyg'ular birdaniga paydo bo'lib, shiddatli va nisbatan tez o'tadi. Ana shu uzoq davom etadigan yoki qizqa muddatli kechinmalar hissiy holatlar deb ataladi. Ular jumlasiga hissiy ton, (stenik va astenik holatlar), kayfiyatlar, affektlar, ehtiroslar, stressli holatlar kiradi.

**Hissiy ton** (yunon. tonus — zo'riqish, urg'u berish) psixik jarayonning o'ziga xos sifat jihatni tarzida vujudga keladi. Hissiyot bu o'rinda bilishga intilayotgan, o'zgartirayotgan, egallayotgan shaxsda ma'lum munosabatni namoyon qiluvchi narsalar, hodisa va harakatlarning alohida xossasi, xislati hamda xususiyati ma'nosida gavdalanadi. Masalan, yoqimli muloqotdosh, kulgili hangoma, badbo'y hid, behayo kino va h.k..

Emotsiyalar hissiy kechinmalarning o'ziga xos shakllaridan biridir. Emotsiya u yoki bu hissiyotning insonda bevosita kechishi jarayonidan iborat. Masalan, shaxs tomonidan musiqani sevish emotsiyani vujudga keltirmaydi, balki buning uchun musiqani eshitish, ijrochi mahoratiga tahsin aytish, undan huzurlanish kabilar salbiy va ijobjiy emotsiyalar deyiladi. Qo'rqish, dahshat hissiy kechinma sifatida obyektlarga shaxsning munosabatini aks ettirib turlicha shaklda namoyon bo'lishi mumkin; odam dahshatdan qochadi, qo'rquvdan serrayib qoladi, o'zini idora qilolmay har tomonga uradi, hatto o'zini xavf-xatarga tashlashi ham mumkin. Ko'pincha emotsiyalar o'zining ta'sirchanligi bilan bir-biridan farq qilishiga qaramay, bunday hissiy holatlar stenik (yunon. sthenos — kuch xususiyati) deyiladi. Bunday emotsiyalar dadil harakatlarga, ijobjiy izlanishlarga kuch bag'ishlaydi. Xur-sandchilikdan parvoz qilish, kimlargadir yordamga shoshilish, faollik uning asosiy sifati bo'lib qoladi.

Ba'zi hollarda esa emotsiyalar o'zining sustligi, zaifligi bilan ajralib turadi, bu astenik (yunon. acteniya — kuchsizlik, zaiflik) holat deb ataladi. Bunday holat kishini bo'shashtiradi, xayolparast qilib qo'yadi, shaxsda paydo bo'lgan rahmdillik befoyda kechinmaga, uyalish vijdon azobiga, andisha esa qo'rkoqlikka aylanib qolish xavfi tug'iladi.

**Kayfiyatlar** deb nisbatan zaif, lekin ancha davom etadigan, kishining psixik jarayonlarida va uning butun xulq-atvorida aks

etadigan umumiy hissiy holatlariga aytildi. Kayfiyat yomon odam o‘zini g‘amgin his qiladi yoki har qanday asossiz sabablar bilan jahli chiqadi. Ba’zan esa hech bir sababsiz quvnoq ko‘rinadi, boshqacha kayfiyat paytida e’tibor bermagan narsalardan quvonadi, hamma narsa unga chiroylı bo‘lib ko‘rinadi. Bir qarashda bunday holatlarning sababini aniqlash mumkin emasdek tuyildi. Kishining psixikasidagi hamma narsaning sababi bor. Bunday kayfiyatga ko‘ngilsiz voqeа, uchrashuv yoki organizmning fiziologik holati sabab bo‘lishi mumkin. Yaxshi o‘qish va sevimiли mashg‘ulot sog‘lom hordiq chiqarish bilan almashtirib turilsa, odatda kishida tetik va quvnoq kayfiyat hosil qiladi.

Kayfiyat shod-xurram yoki qayg‘uli, tetiklik yoki lanjlik, hayajonlilik yoki ma’yuslik, jiddiylik yoki yengiltaklik, jizzakilik yoki muloyimlik va hokazo tarzda bo‘ladi. Jizzakilik va ma’yuslik biror xastalik boshlanganining ilk alomati bo‘lishi mumkin. Kayfiyatning turli xil buzilishlaridan bo‘lmish eyforiya va disforiya ham keng tarqalgandir. Eyforiya bu ko‘tarinki, quvonchli kayfiyat bo‘lib, patologik belgi hisoblanadi. Ularga atrofdagi barcha narsalar quvonchli, jozibali bo‘lib ko‘rinadi. Ular bunga hech qanday asos bo‘imasada o‘zlarini dunyoda eng baxtiyor kishidek his qilishadi. Disforiya esa ortiqcha jizzakilik, o‘z-o‘zidan va atrofdagilardan xafa bo‘lish, kerak bo‘lmagan narsaga asabiylashaverish bilan ifodalanadi. Bunga badqovoqlik, yoqtirmaslik va badjahllik ham qo‘shilishi mumkin.

Bolalar o‘zlarining kayfiyatlarini katta odamlarga nisbatan mutlaqo idora qila olmaydilar. Yig‘lab turgan bolaning kayfiyatini arzimagan narsa bilan o‘zgartirib yuborish hech gap emas. Buni hamma o‘z shaxsiy hayotidan biladi. Bolalarda kayfiyatning ana shunday nihoyatda beqaror bo‘lishiga sabab ularda hali tormozlanish jarayonining yaxshi rivojlanmaganligidir. Bog‘cha yoshidagi bolalarda, xususan kichik guruh bolalarida hali qo‘zg‘alish jarayoni tormozlanish jarayonidan ustunlik qiladi.

Ba’zan kishilarda psixik holatlarning shunday bir turi paydo bo‘ladiki u tez o‘tib ketadi, lekin kuchli va juda shiddatli namoyon bo‘ladi. Bular **affektlar** deb ataluvchi holatlardir. Affektlar (lot. affektus – ichki hayajonlanish) odatda birdan avj olish yoki portlash xarakteriga ega bo‘ladi, bu vaqtida ko‘pincha kishi

o‘zining qamrab olgan tuyg‘usiga berilib, o‘zini boshqara olmay qoladi. Affektiv holatning paydo bo‘lishi miya po‘stlog‘ida kuchli qo‘zg‘alish manbaining vujudga kelishi bilan bog‘liqdir. Buning natijasida tormozlanish jarayonlari susayadi va katta yarimsharlar po‘stlog‘i, po‘stloq osti markazlaridan kelayotgan shiddatli impulslar oqimini nazorat qilish, bostirish imkoniga ega bo‘lmay qoladi. Shunday qilib miya po‘stlog‘i bilan po‘stloq osti faoliyati o‘rtasidagi zarur muvozanat buziladi. Lekin har bir kishi bu ta’sirlanishga qarshi tura olishi mumkin. Affekt holatining boshlanish vaqtidayoq barham berish, kuchli tuyg‘uga aylanishining oldini olishga yordam beradi. Affektlar tashqi alomatlari keskin ifodalangan zo‘r berib kechadigan hissiyotlardir. Masalan, chin-qirib yig‘lagan, sochini yulgan, farzandan mahrum bo‘lgan onaizorda qayg‘u affekti bor, deb fikr yuritamiz. Ba’zi bir hollarda affektlar shunchalik kuchli bo‘ladiki odam es-hushini yo‘qotadi, shunday vaziyatlarda odamlar nimalar qilganlarini bilmay ham qoladilar. Es-hush buzilishlari rosmana ifodalangan affektlar patologik affektlar deb ataladi va ular asosan psixozlarda kuzatildi. Affektning fiziologik va patologik turlari farqlanadi. Birinchisi sog‘lom odamlarda kuzatilsa, ikkinchisi ruhiy kasallikda uchraydi.

Affekt paytida odam o‘zini boshqara olmay qoladi va bemalol birovning (o‘zining ham) joniga qasd qilib qo‘yadi. Qahr, g‘azab, rashk, ajablanish va xursandchilik affektlari farq qilinadi. Patologik affektda ongning torayishi tufayli qisman yoki to‘la amneziya ham kuzatildi. Shuning uchun ham affekt paytida odam nima qilganini eslay olmaydi.

Affekt holatini bog‘cha yoshidagi bolalarda ham uchratish mumkin. Ayrim tajang, injiq bolalar ozgina yoqmaydigan holatga duch kelib qolsalar to‘satdan yerni tepib yoki yerga ag‘anab yotib olib baqira boshlaydilar. Aytgani qilinmaguncha ularni mutlaqo tinchitib bo‘lmaydi. Tarbiyachi ana shunday bolalarga nisbatan nihoyatda ziyrak bo‘lishi kerak. Affekt holati boshlanadigan bo‘lsa, ularning diqqatini boshqa narsalarga jalb qilib, ularni bu holatdan chiqarib olish lozim. Faqat mana shunday yo‘l bilan bolalarni affekt holatiga berilmaydigan qilib tarbiyalash mumkin.

Affektiv holatga yaqin turadigan lekin davomli boshdan kechiriladigan holat kuchli hayajonlanish stress holati (ingl. stress – zo'riqish, jiddiylik, keskinlik) hisoblanadi. Stress og'ir jismoniy va murakkab aqliy zo'riqishlar, ishlar me'yordan oshib ketib, xavfli vaziyatlar tug'ilganda, zaruriy chora-tadbirlarni zudlik bilan topishga intilganda vujudga keladigan hissiy zo'riqishdir. Stress tushunchasini psixologiya faniga olib kirgan kanadalik fiziolog G. Selye (1936) hisoblanadi. Stress holatida shaxsning xatti-harakatlari o'ziga xos tarzda o'zgaradi, uning harakatlari tartibsiz ravishda amalga oshadi. Stressning kuchayishi teskari reaksiyaga olib keladi, natijada tormozlanish, sustlik, zaiflik, faoliyatsizlik ustuvorlik qiladi. Lekin fiziologik o'zgarishlar tashqi tomondan ko'rinxaydi. Biroq muammoni yechishdagi qiyinchilik, diqqatni taqsimlashdagi sarosimalilikni diqqatning tashqi ifodasi dessa bo'ladi. Shaxs stress holatida telefon raqamlarini adashtiradi, vaqt ni chamalashda yanglishadi, ong faoliyati yengil tormozlanaadi, idrok ko'lami torayadi.

Hissiy zo'riqish xavf-xatar tug'ilganda, kishi xafa bo'lganda, uyalish, tahlika ostida qolib ketish kabi vaziyatlarda ro'y beradi. «Stress» so'zi odatdagি turmushda va tibbiy atamashunoslikda ancha keng tarqalgan so'zdir. Odam qattiq siqilsa: «Kecha men stressga uchradim» deb xitob qiladi. Bu so'zni turmushda ishlatish shunga olib keldiki, XX asr oxiri madaniyatida «stress» so'zi ishlatilganda odamlar faqat salbiy ruhiy zo'riqishni tushunadigan bo'lib qolishdi. Aslida «stress» so'zini faqat salbiy ma'noda tushunish noto'g'ridir.

Odam stressiz yashay olmaydi, hayot bor joyda stress bor, uning bo'lmasligi o'lim deganidir (G. Selye, 1956). Stress aslida «hayot» tushunchasi bilan bir xildir. Savol tug'iladi: bordiyu, odam hali tirik ekan, u stress holatida bo'lsa, unda qanday qilib u xastalikga duchor bo'ladi? G. Selye bu muammoni ochiqoydin yoritib berdi. «Stress odam uchun xavf tug'dirmaydi, aksincha, distress xavflidir, bunda odam ancha vaqt kuchli darajada zo'riqqan bo'ladi. Stressni ijobjiy va salbiy turlarga ajratishdan hech qanday ma'no yo'q, chunki fiziologik nuqtayi nazardan organizmning kuchli shodlikka va kuchli qayg'uga javob reaksiyasi bir xil bo'ladi. «Stress xastaliklari» degan tushuncha noto'g'ri.

«Distress kasalliklari» deyilsa, to‘g‘riroq hisoblanadi», — degan edi G. Selye.

Hayotda stresslar bo‘lib turishi tufayli ularni boshqarishni, ular keltirishi mumkin bo‘lgan zararni kamaytirishni bilish zarur. Taxminiy hisoblarga qaraganda hozir yer sharida 40 mln dan oshiq odam turli darajada rivojlangan depressiyaga mubtaglo bo‘lgan. Xo‘s, depressiya nima o‘zi? Depressiya bu hozirgi kunga va kelajakka ishonchszilik bilan qarash, doimo past kayfiyatda bo‘lish, horg‘inlik, hech narsa qilishga intilmaslik va fikrlashning sustlashuvidir. Depressiya (tushkunlik) bu si-qilish, ma’yuslik va g‘amgin kayfiyatdir. Albatta, fikrlashning sustlashuvi og‘ir depressiv holatlar uchun xosdir. Ko‘rib turganingizdek, depressiya inson uchun xos bo‘lgan barcha ijobiy faoliyatni yo‘qqa chiqaradi. Bunda bemorlar atrofdagilarga befarq, kamgap, ma’yus bo‘lib qoladilar, ko‘pincha ko‘z yoshi qiladilar. Ularning ongi ma’yus, g‘amgin kechinmalarga to‘lib ketadi. Hozirgi, o‘tgan zamon va kelajak ularga qayg‘uli bo‘lib tuyiladi. Ular olamga go‘yo qora ko‘zoynak taqqan holda qaraydilar. Depressiv kayfiyat hayotdan qoniqmaslik va ruhiy xastalanishlar oqibati bo‘lishi mumkin. Sabablari aniq bo‘lsada, lekin unchalik ifodalanmagan bunday holatga odatdagi reaksiya deb qarash mumkin.

Ruhiy kasalliklarda bemorlar juda og‘ir va uzoq vaqt davom etadigan tushkunlikka tushib, ovqat yeyishdan bosh tortishadi, o‘z joniga suiqasd qilishga urinadilar. Aynan depressiv holatlarda o‘z joniga qasd qilish ko‘p uchraydi, ayniqsa o‘smirlar orasida. Ba’zan depressiyaga chalingan o‘smirlarda o‘z joniga qasd qilishlari uchun arzimagan sababning o‘zi ham yetarlidir. Masalan, ota-onasi aytgan qimmatbaho paltosini sotib olib bermaydi yoki diskotekaga yubormaydi, sevgan kishisi bilan uchrashgani qo‘ymaydi va h.k.. Rossiyada bo‘lib o‘tgan bir-ikkita o‘smirlar orasida o‘z joniga qasd qilishlarning sababini keltiramiz. Barcha yoshlarning sevimli estrada qo‘schiqchilari Viktor Soy, Igor Sorin hayotdan ko‘z yumganlaridan keyin Rossiya yoshlari orasida o‘z joniga qasd qilishlar juda ko‘p kuzatilgan. Bular ayniqsa 15–17 yoshdagi bolalar edi. Igor Sorin o‘zi yashaydigan uyning 6-qavatidan sakrab o‘ladi. U o‘lim ol-

di xatida «Hammangizni mening ortimdan yulduzlarga ravona bo‘lishga chorlayman!» deb yozgan edi. Biroz vaqt o‘tgach 15 yoshga hali to‘lмаган qiz dugonasi bilan birga 9-qavatning tomiga chiqib yerga sakrashadi va jon berishadi. Ularning yon daftarlarida shunday gaplar bitilgan edi. »Igor! Menga sensiz hayotning ne keragi bor. Men ham sening izingdan, sening bag‘ringga, yulduzlarga ravona bo‘laman! Meni kechiringlar!» Nima uchun o‘z joniga suiqasd qilishadi? Buning psixologik mexanizmlari nimalardan iborat? Barcha o‘z joniga suiqasd-larni 3 turga bo‘lish mumkin: haqiqiy, yashirin va tantanavor. Haqiqiy suiqasd hech qachon to‘satdan bo‘lmaydi. Unga doimo past kayfiyat, depressiya hamroh bo‘ladi. Ular tez-tez hayotning mantig‘iga murojaat qilib turishadi. O’smirlar suiqasdning bu turiga javobsiz sevgidan, yorining bevafoligidan murojaat qilishsa, qariyalar farzandlaridan keskin xafa bo‘lgan paytlarida o‘limning ushbu turini tanlashadi. Odam o‘zining muammo-liga boshqalarning e’tiborini qaratmoqchi bo‘lsa, o‘z joniga suiqasd qilishning yashirin turini tanlaydi. Bunday odamlar, ba’zan o‘z joniga qasd qilajagini eng yaqin odamlariga aytib ham yurishadi. Lekin, bunga e’tibor berilmaydi yoki kulib javob berishadi. Suiqasdning bu turi ko‘pincha iqtisodiy qiynalgan odamlar orasida uchraydi. Tantanavor tarzda hayotdan ko‘z yu-muvchilar o‘smirlar orasida ko‘p uchraydi. Bunga misol, yuqorida keltirganimizdek, sevimli qo‘shiqchisi o‘lganidan keyin o‘z joniga suiqasd qilgan qizlardir. Keltirgan misollarimizning bar-chasi eng avvalo hissiy qo‘zg‘aluvchanlik darajasiga tegishlidir. Bu daraja individual ravishda xilma-xil bo‘ladi.

Kishining fikrlari va xatti-harakatlari yo‘nalishini belgilay-digan barqaror, chuqur va kuchli his-tuyg‘u **ehtiros** deb atala-di. Masalan, kishi fan, san’at, musiqa, sportga qiziqishi mum-kin. Lekin kishi hayotiga yomon ta’sir ko‘rsatadigan havaslar ham bo‘ladi (narkotik, ichkilik va h.k.). Ehtiros kishini his-tuyg‘ular predmeti haqida astoydil fikrlashga, bu ehtiyojlarni qondirish yo‘lida uchraydigan qiyinchiliklar haqida o‘ylashga majbur qiladi. Hukmron ehtiros bilan bog‘liq bo‘lmaganlari kishini ha-yajonlantirmay, qiziqtirmay qo‘yadi, ba’zan esa unutilib ketadi. Bog‘liqlari esa kishini hayajonlantiradi, o‘ziga rom etadi, ikir-

chikirlarigacha esida qoladi. Qoniqtirilmay qolgan ehtiros kuchli hissiyotlarni va hatto affektiv portlashlarni keltirib chiqaradi. I.P. Pavlov: «Ilm-fan odamdan ko‘p kuch sarflab, zo‘r ehtiros bilan ishlashni talab qiladi. O‘zlarining ishingizda va qiziqishlaringizda ehtirosli bo‘lingiz» – deydi.

Yuqorida qayd etilgan his-tuyg‘ulardan tashqari quvonch, g‘azab, g‘am-g‘ussa, vahima va shuningdek, organizmda kuchli vegetativ o‘zgarishlar bilan kechadigan ochlik, chanqash, og‘riq va jinsiy hissiyotlar mavjud. Ular ayni paytda organizmdagi biologik jarayonlar bilan chambarchas bog‘langan bo‘ladi.

**Asosiy hissiy holatlar va ularning tashqi ifodasi.** His-tuyg‘ularning hissiyot (emotsiyalar), kayfiyatlar, kuchli haya-jonlanish tarzida boshdan kechirilishi chog‘ida ma’lum darajada seziladigan tashqi belgilariga ham ega bo‘ladi. Yuzning ifodali harakatlari (mimika), qo‘l va gavdaning ma’noli harakatlari, turqu tarovat, ohang, ko‘z qorachig‘ining kengayishi yoki torayishi kabilar shular jumlasiga kiradi. Kishi o‘zining qahr-g‘azabini tevarak-atrofdagilarga qo‘llarini musht qilish, ko‘zlarini chimirib qarash, do‘q-po‘pisali ohang bilan namoyish qiladi.

Asosiy hissiy holatlar quyidagilar (K. Izard klassifikatsiyasi bo‘yicha):

*Qiziqish* – malaka va ko‘nikmalar rivojiga, bilim egallashiga moyillik tug‘diradigan ijobiy hissiy holat.

*Quvonch* – to‘la qondirilishi mumkin bo‘lmagan, har holda qondirilishi noaniq dolzarb bo‘lgan ehtiyojni qondirilishi mumkinligi bilan bog‘liq ijobiy hissiy holat.

*Hayratlanish* – to‘satdan ro‘y bergen holatlardan hissiy jihatdan ta’sirlanishning ijobiy yoki salbiy jihatdan aniq-ravshan ifoda etilmagan belgisi.

*Iztirob chekish* – hozirga qadar qondirilish ehtimoli ozmi-ko‘pmi darajada mavjud deb tasavvur qilingan hayotiy muhim ehtiyojlarning qondirilishi mumkin emasligi haqida aniq yoki shunday tuyilgan axborot olinishi bilan bog‘liq salbiy hissiy holat.

*G‘azablanish* – odatda affekt tarzida kechadigan va subyekt uchun g‘oyat muhim ehtiyojni qondirish borasida jiddiy to‘siq paydo bo‘lishi oqibatida kelib chiqadigan, ifodalananishiga ko‘ra salbiy

hissiy holat. Iztirob chekishdan farqi g‘azablanish stenik tarzda, ko‘rinishda bo‘ladi. Kuch-g‘ayratni oshirib yuboradi.

*Nafratlanish* – obyektiv holatga subyektning mafkuraviy, ma’naviy, estetik prinsiplari va yo‘l-yo‘riqlariga keskin zid kelib qolishi oqibatida ro‘y beradigan salbiy hissiy holatdir. Nafratlanish tajovuzkorlik xulq-atvoriga sabab bo‘lishi mumkin.

*Jirkanish* – shaxslararo munosabatlarda ro‘y beradigan va subyektning hayotiy nuqtayi nazari, qarashlari va xulq-atvoriga nomutanosibligi oqibatida hosil bo‘ladigan salbiy hissiy holatdir.

*Qo‘rquv* – subyekt o‘zining xotirjam hayot kechirishiga ziyon yetishi mumkinligi haqida, unga real tarzda tahdid solayotgan yoki tahdid solishi mumkin bo‘lgan xavf-xatar haqidagi xabarni olishi bilan paydo bo‘ladigan salbiy hissiy holat. Qo‘rquv hissiyoti stenik tusda ham, astenik tusda ham bo‘lishi mumkin, yoki hissiy zo‘riqishlar tarzida, yoxud ruhan astoydil tushkunlikka berilgan va xavotirlangan tarzda, yoxud affektiv holatga tushgan tarzda (dahshatli qo‘rquv hissiyotning eng so‘nggi turidir) kechishi mumkin.

*Uyalish* – o‘zining niyat-maqсадлари, xatti-harakatlari va tashqi qiyofasi faqat tevarak-atrofidagilar tomonidan kutilganiga mos kelmaganligini emas, balki o‘ziga loyiq xulq-atvor va tashqi qiyofa haqidagi shaxsiy tasavvurlarga ham mos kelmayotganligini anglab yetishida ifodalangan salbiy holat.

Aytib o‘tilgan hissiyotlarning har biri ifodalanish darajasiga ko‘ra turli hissiy holatlarning mimikada ko‘rinishi tobora kuchayib boradigan holatlar tarzida xotirjamlik bilan qoniqish, shodlanish, zavqlanish, shod-xurramlik, o‘zini tuta olmaydigan darajada zavqlanish, tortinchoqlik, iymanish, uyalish, o‘zini ayplash, norozilik, iztirob chekish, qayg‘urish va hokazo.

Kishilar **his-tuyg‘ularining sifatlari** va hatto turlarining xilma-xilligi bilan farq qiladilar. His-tuyg‘ulaming xususiyatlaridan biri ularning ziddiyatliligi, ya‘ni bir-biriga qarama-qarshiligidir. Masalan, quvonch va qayg‘u, xursandchilik va azob chekish, sevgi va nafrat, qo‘rquv va mardlik va h.k.. His-tuyg‘ularni biz uchun yoqimli va yoqimsiz bo‘lgan his-tuyg‘ularga ajratish mumkin. Yoqimli his-tuyg‘ular – ularni boshdan kechirayotgan kishining nuqtayi nazaridan qaraganda ijobjiy his-tuyg‘ular bo‘ladi. Ular o‘rtasida ko‘pgina oraliq his-tuyg‘ular mavjuddir. Masalan,

qo‘rquv ba’zan jangavor ruhni o‘zini himoya qilish uchun faol harakat qilishni o‘z ichiga oladi. Qurquv hissi orqaga qaytishga ham dadil hujum qilishga ham undashi mumkin. Ayrim kechin-malar shu qadar murakkab bo‘ladiki, ularni yoqimli va yoqimsiz his-tuyg‘ularga ajratish qiyin. His tuygular faol yoki passiv bo‘lishi mumkin. Agar kishi hayajonlangan, diqqati kuchaytirilgan bo‘lsa uning tuyg‘ulari faol bo‘ladi. Aksincha kishining holati noaniq bo‘lsa his-tuygulari ham sust o‘tib boradi. His-tuyg‘ularning faolligi ularni stenik tuyg‘ularga aylantiradi. Ular kishining kuch va g‘ayratini oshiradi. His-tuyg‘ular intensivlik va davomiylikning turli darajasiga ega bo‘ladi. Ba’zan ular uzoq davom etsa ham sust bo‘ladi. Boshqa vaqtida xuddi shu kishida ular juda kuchli davom etib uni yetarli o‘ylab ko‘rilmagan harakatlar qilishga undaydi.



**24-rasm.** Turli hissiy holatlarning mimikada ko‘rinishi.

### *Yuksak hislar va ularni tarbiyalash*

Mazmun nuqtayi nazaridan yuksak hislar ma’naviy, intellektual va estetik his-tuyg‘ulardan iborat bo‘ladi. Ularni qo‘rquv, asossiz g‘azablanish, organizmning och qolishi, kasallik tufayli vujudga keladigan emotsiyalaridan farq qilib **yuksak hislar** deb

ataydilar. Axloqiy tuyg‘ular yoki **ma’naviy his-tuyg‘ular** harakatlar, xulq-atvorga jamiyatda qabul qilingan axloq asosida baho berish bilan bog‘liq bo‘lgan kechinmalardir.

Vatanga muhabbat – bu his-tuyg‘u tug‘ilgan joylar va yaqin kishilar bilan ko‘pdan ko‘p aloqalardan vujudga keladi. Burch tuygusi bu o‘zining jamiyat, oila oldidagi vazifalarini anglash tufayli vujudga keladigan kechinmalardir. Bu tuyg‘u kishini o‘z burchini bajarishga undaydi, bunga vijdon deb ataluvchi bir kechinma yordam beradi. Kishining o‘z burchini, aytib turgan narsani bajarmasligi, nojo‘ya xatti-harakatlari vijdonini azoblaydi va kishini pushaymon qiladi. Do‘slik tuyg‘usi jamiyatda keng rivojlangan. Chinakam do‘slik tuyg‘usini oshnachilik munosabatlari va soxta o‘rtoqchilikda ro‘y beradigan yuzaki kechinmalar bilan aralashtirib bo‘lmaydi. Chinakam do‘slik yaqin kishiga nisbatan adolatli munosabatda bo‘lishni talab qiladi. Muhabbat tuyg‘usi do‘slik tuyg‘usiga yaqindir. Chinakam muhabbat kishining ko‘nglini ko‘taradigan go‘zal his-tuyg‘u bo‘lib u o‘z-o‘zini mukammallashtirishga undaydi. Faqat sevimli kishi uchungina emas balki boshqa kishilarning baxt-saodati uchun ham jasorat ko‘rsatishga chaqiradi. Shuning uchun bir-birini sevgan kishilar yaxshiroq bo‘lishga intiladilar.

Praksik his-tuyg‘ular mehnat faoliyati davomida kechirilib, unda shaxs biror maqsadni anglaydi, uni e’tirof yoki inkor qiladi, maqsadga erishish yo‘llarini baholaydi, unga tatbiq etish usullari va qurol vositalarini ma’qullaydi yoki ma’qullamaydi, ularning tanlanganligiga shubhalanadi, muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik va hokazo hislarini boshdan kechirilishi tushuniladi.

**Intellektual his-tuyg‘ular.** Aqliy faoliyat jarayonida vujudga keladi va bilish jarayonlari hamda ijod bilan bog‘langan bo‘ladi. Bu biror masalani hal qilish vaqtidagi izlanish quvonchi ba’zan esa uni hal qilish mumkin bo‘lganda qanoatlanmaslikdan iborat og‘ir his-tuyg‘udir. Har qanday ijodiy ish intellektual his-tuyg‘ular bilan bog‘liq bo‘ladi. Bilim olishga qiziqish va uning qondirilishi ham shunday emotsiyalarni vujudga keltiradi. Ular faqat katta yosh-dagi o‘quvchilar uchun emas balki kichik bolalarda ham bo‘ladi. Ajablanish yoki ruhlanish va keyin masalani yechish vaqtida paydo bo‘ladigan ishonch, faxrlanish, bilimlarini oshirishga yanada intilish tuyg‘usi ham intellektual tuyg‘ularga kiradi.

**Estetik his-tuyg‘ular.** Bu biz tabiatda, san’atda va umuman xayotda idrok qiladigan go‘zal yoki xunuk narsani his qilishdir. Ular jamiyatning taraqqiyot darajasini aks ettiradi. Musiqa, tasviriy san’at, she’riyat, teatr va kino estetik didni tarbiyalashda ma’lum ahamiyat kasb etadi.

**Nazorat savollari:**

1. His-tuyg‘ular deb nimaga aytildi? Shaxs hayotida qanday ahamiyatga ega?
2. His-tuyg‘ularning fiziologik asoslari nimalardan iborat?
3. Hissiy kechinmalarning shakllarini aytib bering? Hissiy ton nima?
4. Kayfiyatning inson hayotidagi ahamiyati nimadan iborat?
5. Affekt qanday holat?
6. Stress nima?
7. Ehtiros insonda qanday kechadi?
8. His-tuyg‘ularning asosiy sifatlarini qisqacha tavsiflang.
9. Yuksak hislarga nimalar kiradi, misollar keltiring.

**4.2. Iroda.**

**Iroda to‘g‘risida tushuncha. Tavakkalchilik**

Faoliyatni ma’lum yo‘nalishda tashkil qilish, muammolarni yechish uchun bir qarorga kelish, uni amalga oshirish jarayoni-dagi qiyinchiliklarni yengish harakatlar yordamida amalga oshiriladi. Odatda, ixtiyorsiz harakatlar angangan yoki anglanmagan istak, xohish, mayl, ustakovka va shu kabilarning ichki turkisi ta’sirida ro‘yobga chiqadi. Ular impulsiv (lot. impulses – ixtiyorsiz qo‘zg‘alish) xususiyatga ega bo‘lib, anglanilmagan, rejalashtirilmagan bo‘ladi. Masalan, bolalar bir-birini turtib biri yiqilib tushdi, tarbiyachi ularga beixtiyor baqirib yubordi-yu keyin o‘zi afsuslandi. Bunday harakatlar kutilmaganda bexosdan bo‘lgan **refleksiv harakatlar** deyiladi. Kishining hamma ta’sirlanishilarini reflektor xarakterga ega bo‘ladi. Lekin yuqorida tasvirlangan harakatlar ongning nazoratisiz yoki uning yetarli ishtirokisiz maxsus niyatni ko‘zlamay amalga oshirilgan bo‘ladi va shu sababli ixtiyorsiz harakatlar yoki ataylab qilinmagan harakatlar deyiladi. Lekin har bir kishi juda ko‘p oddiy harakatlarni amalga oshiradiki ular batamom

ongli ravishda maqsadni ko'zlab bajariladi. Bunday harakatlar ixtiyoriy yoki ataylab qilingan harakatlar deyiladi. Ularning atalishining o'zi bu harakatlarda irodaning ishtirok etishini ko'rsatadi. Ongli ravishda amalga oshiriladigan va maqsadni ko'zda tutgan barcha ixtiyoriy harakatlar **irodaviy harakatlar** deb ataladi. Kishi suv ichgisi kelib stakanga qo'l uzatdi va unga suv quyib ichdi. Bu garchi bajarish qiyin bo'lsa ham aniq maqsadga qaratiladi shu sababali irodaviy harakatdir. Har bir kishining qandaydir qiyinchiliklarni, qo'yilgan maqsad yo'lida g'ov bo'lib turgan to'siqlarni yengishi, lozim bo'ladigan harakatlarni amalga oshirishiga to'g'ri keladi. Bu harakat chinakam irodaviy harakatlar deyiladi. Ularda ongning ishlashi bilan bog'liq shaxsiy faollik namoyon bo'ladi. Kishining o'z oldiga qo'yilgan maqsadiga erishish uchun ichki va tashqi to'siqlarni yengish vaqtida vujudga keladigan psixik jarayon iroda deb ataladi. Kishi yengadigan tashqi to'siqlar deganda ishning o'ziga xos qiyinchiliklari, uning murakkabligi, har xil xalal berishlar, boshqa kishilarning qarshilik ko'rsatishi, ishning og'ir sharoitlari va shu kabilar tushuniladi.

Ichki to'siqlar kishi o'zini ishlashga, charchoqni, bajarilishi kerak vazifasiga aloqasi bo'lмаган boshqa biror narsa bilan shug'ullanish istagini yengishga majbur qilish, qiyin vaqtida belgilangan narsani bajarishga xalal beradigan shaxsiy mayllardir. Ichki to'siqlarga zararli odatlar, mayllar, istaklar kiradi. «Iroda» termini deganda shaxsning qiyinchiliklarini yengib aniq maqsadni ko'zlab harakat qilish qobiliyati tushuniladi.

Zo'r iroda bu biror narsani qilishga intilish va unga erisha olishgina emas balki zarur bo'lib qolganda o'zini biror narsadan voz kechishga majbur qila olish hamdir. Iroda shunchaki istak va uning qondirilishi emas, balki bu ham istak, ham uni to'xtatilishi, ayni vaqtida undan voz kechish hamdir.

Kishi hayotida irodaning ahamiyati nihoyatda kattadir. Ilroda oddiy kundalik hayotda, ayniqsa, katta qiyinchiliklarni yengishga to'g'ri keladigan qiyin paytlarda zarur bo'ladi. Irodaning o'ziga xos ko'rinishlari shaxsning tavakkalchilik vaziyatidagi xatti-harakatida ko'rindi. O'ziga mahliyo qiluvchi maqsadga erishish yo'lida xavf-xatar, yo'qotish dahshati, muvaffaqiyatsizlik bilan hamohang, ogoh, dadil harakat **tavakkalchilik** deyila-

di. Tavakkalchilikda yutuq bilan yo'qotish uyg'unlashib keladi, yutuq quvonch nashidasini uyg'otsa, omadsizlik jazo, moddiy va ma'naviy yo'qotishni keltirib chiqaradi. Shunga qaramay, insonlar tavakkal qilish harakatidan voz kechmaydilar. Tavakkalchilik harakatining ikki sababi farqlanadi:

1) yutuqqa umidvorlik hissi, yani ehtimol tutilgan mag'lubiyat oqibati ko'rsatkichidan yuksakroq bo'lishiga ishonch;

2) xatti-harakatning xavfli yo'lini afzal bilish, yoki, «tavakkalchining tavakkalchiligidir». Shaxsdagi tavakkalchilikni riskometr degan asbobda o'lhash mumkin.

Irodasi zaif kishilar ulkan ishlarni bajarish u yoqda tursin kundalik hayotda uchraydigan vazifalarning ham uddasidan chiqa olmaydilar, yetarli darajada ishchan bo'lmaydilar, boshqalarning yordamiga muhtoj bo'ladilar. Ularda ana shu xususiyatlarni yengish uchun iroda kuchi yetishmaydi. Iroda kuchsizligining patalogiyasi mavjud bo'lib u **abuliya** (yunon. abuliya – qat'iyatsizlik) miya patalogiyasi negizida vujudga keladigan faoliyatda intilishning mavjud emasligi, harakat qilish, amalga oshirish uchun qaror qabul qilish zarurligini anglagan holda shunday qila olmaslikdan iborat inson ojizligidir. **Apraksiya** – (yunon. apraxiya – harakatsizlik) miya tuzilishining shikastlanishi tufayli yuzaga keladigan harakatlar maqsadga muvofiqligining murakkab buzilishidir. Abuliya va apraksiya psixikasi xasta insonlarga xos, noyob fenomenal psixopatologik hodisadir.

### *Irodaning nerv-fiziologik asoslari*

I.M. Sechenovning so'zlari bilan aytganda har qanday xatti-harakatning dastlabki sababi tashqi hissiy qo'zg'alishdir. Keyinchalik hayot tajribasi asosida ko'pgina xatti-harakatlar bevosita hissiy qo'zgalmasdan unga qarama-qarshi tarzda amalga oshiriladi. Tashqi qo'zgatuvchi masalan, televizor kishini qiziqarli ko'rsatuvlarni tomosha qilishga undaydi, u bo'lsa burch haqidagi yoki ish bajarilmay qoladigan bo'lsa ro'y beradigan noqulay oqibatlar haqidagi fikrga amal qilib, ishslash uchun o'tiradi.

Irodaviy harakatning fiziologik asosi miya po'stlog'ida avvalgi tajriba natijsida ilgari hosil bo'lgan nerv aloqalarining ikkinchi signal sistemasidir. Bu sistemalar irodaviy harakat paytiga kelib

qo‘zg‘algan bo‘ladi. Bu esa ayrim harakatlarni amalga oshirishga imkon beradi, natijada kishi o‘zini, garchi televizordagi ko‘rsatuv qiziqarli bo‘lsa ham uni ko‘rishga emas, balki ishslashga majbur qiladi.

Qo‘zgatuvchi vosita – so‘z irodaviy harakatda alohida o‘rin egallaydi. So‘z kishiga tashqaridan ta’sir qiladigan signal bo‘lishi mumkin. Lekin u ko‘pincha kishining o‘z-o‘ziga ichki talabi, mustaqil buyrug‘i ham hisoblanadi. Hamma hollarda ular javob tariqasida ixtiyoriy harakat uchun real qo‘zgatuvchi bo‘ladilar. Qo‘zg‘alishning barqaror manbai mavjud bo‘lgan kishi o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadiga erishadi. Bizning harakatlarimizni boshqarib turadigan miya hujayralari katta yarimsharlar po‘stlog‘idagi boshqa hujayralar bilan hamisha bog‘langan bo‘ladi. Har qanday boshqarishni nazoratsiz yoki tuzatish kiritmasdan amalga oshirib bo‘lmaydi. Kishi o‘z harakatlarini va ishlarini boshqarishga qodir bo‘ladi va haqiqatdan ham boshqara oladi. Bunga sabab: miya hujayralari bir tomonidan gavda muskullariga impulslar yuborib turadi, ikkinchi tomonidan harakat a‘zolaridan amalga oshirilgan ish to‘grisida qaytish signallarini olib turadi. Miya po‘stlog‘ida shu axborotlar qayta ishlanadi va u yerdan harakatga kiritilishi lozim tuzatishlar haqida yana signallar keladi. Katta yarimsharlar po‘stlog‘idagi tormozlanish jarayonlari ortiqcha ixtiyorsiz harakatlarni to‘xtatib qoladi. Bu jarayonlar haddan tashqari qo‘zg‘alishni (mas. affektiv holatdagi) bostirib turadi va vazminlik o‘zini tuta bilish, chidam harakatlar izchilligi va hokazolarning paydo bo‘lishiga yordam beradi. Iroda katta yarimsharlar po‘stlog‘ining miya po‘stlog‘i osti ishini boshqarib turish qobiliyatiga to‘gridan to‘g‘ri bog‘liq bo‘ladi. Miya po‘stlog‘ining osti kishi organizmidagi ko‘pgina qo‘zgatuvchi jarayonlarning (instinktlar, mayllar, affektlar va h.k.) manbai hisoblanadi.

### *Irodaviy sifatlar, tuzilishi va talqini*

Kishi faoliyati jarayonida irodaviy xatti-harakatlarni amalga oshirar ekan, o‘zida o‘z shaxsini xarakterlab beradigan va hayoti hamda mehnati uchun juda katta ahamiyatga ega sifatlarni hosil qiladi. Ayrim xususiyatlar kishini yanada faol qiladi, bu hol yarimsharlar po‘stlog‘ida qo‘zg‘alish jarayonlarining ustunlik

qilishi bilan bog'langan bo'ladi. Boshqa sifatlar yoqimsiz psixik jarayonlarga va harakatlarga xalaqit berishda ularni to'xtatib qolishda, yo'q qilishda namoyon bo'ladi.

1. Faollik bilan bog'liq bo'lgan sifatlarga qat'iylik, dadillik, sabot-matonat, mustaqillik kiradi:

**Qat'iylik** ortiqcha ikkilanmasdan o'z vaqtida qat'iy qarorlar qabul qila bilishdir. Bu o'ylab ko'rilmagan, shoshilinch qabul qilingan harakatlarda emas, yetarli darajada chamalab ko'rilgan asoslangan xatti-harakatlarda namoyon bo'ladi. Qat'iy kishi boshqacha emas, ayni shunday ish qilishi kerakligiga chuqur ishonadi. Qat'iylik ko'rsata bilish, dadil, ikkilanmay talab qilish o'qituvchining muhim fazilatidir.

**Dadillik** – kishining dovdirab qolish tuyg'usini yengish qobiliyatidir. U faqat kishi hayoti uchun xavfli paytlardagi harakatlardagina namoyon bo'lib qolmaydi, dadil kishi murakkab ishdan, katta mas'uliyatdan cho'chimaydi. Dadillik ahvolga oqilona sog'lom munosabatda bo'lishni talab qiladi. Ba'zan kishining xayoli unga haqiqatda yo'q holatdan darak berishi mumkin. Iroda kuchi bilan qo'rquvni yengadi va zarur deb hisoblagan narsasini bajaradi. Dadillikni kishining mardlik ko'rsatmoqchi bo'lib xavfxatarli ishga qadam qo'yishi bilan aralashtirmaslik kerak. Bunday kishilarni irodali kishilar deb bo'lmaydi.

**Sabot-matonat** – bunga qo'yilgan maqsadga erishish yo'li qanchalik uzoq va qiyin bo'lmasin, ularga erisha bilishdan iborat. Sabot-matonat tashqi va ichki to'siqlarni yengishda namoyon bo'ladi. Irodali kishi o'z kuchlarini zo'r berib sarflashga qobiliyatli bo'ladi. I.P. Pavlov aytib o'tganidek, u o'z ishini davom ettirish istagini orttiradi, xolos. Sabot-matonat pedagoglik ishida o'zining arzimagan manmanlik tuyg'usi tufayli xato qarordan bosh tortishga qobiliyatli bo'lмаган vaqtidagi o'jarlik bilan aynan bir narsa deb bo'lmaydi. O'jarlik shaxsnинг salbiy xususiyatidir.

**Mustaqillik** kishining boshqalar ta'siriga berilmasdan qaror qabul qilish va belgilangan harakatni bajarish qobiliyatidir. Ana shu irodaviy sifati bilan ajralib turmaydigan kishilar odatda o'z yo'llarida uchragan qiyinchiliklar oldida o'zlarini yo'qotib qo'yadilar. Bunday zaiflikka ko'pincha maktab yoshidagi tarbiyaning xususiyatlari sabab bo'ladiki, bolaga mustaqil ishslash

malakasini o'rgatishmagan va unda o'z harakatlari, ishlari uchun mas'uliyatdan qochishga intilish avj olgan bo'ladi. Irodali kishi ta'sirga beriluvchanlik kabi salbiy sifatga ega bo'lmaydi. Bunday sifat mavjud bo'lganda kishilar o'z fikrlaridan juda osonlik bilan qaytadilar, boshqalarga bo'ysunib qoladilar. Chinakam mustaqillik bilan negativizm (lot. negatiwus – salbiy), ya'ni qanday qilib bo'lsa ham tashqaridan bo'ladigan ta'sirga qarshilik ko'rsatishga intilish o'tasida hech qanday umumiylig yo'q. Agar ta'sirga beriluvchanlik kishini o'zining niyatlar va e'tiqodlariga muvofiq kelmaydigan xatti-harakatlarga undasa uni boshqalarga qarama-qarshi o'laroq nomaqbul harakatlar qilishga undaydi. Ta'sirga beriluvchanlik va iroda kuchining belgilari emas, balki uning zaifligiga oid belgilardir. Ko'pgina yomon odatlar irodasi zaif kishilarda aynan mustaqillikning yetishmasligi tufayli ta'sirga berilishga va taqlid qilishga moyil kishilarda bo'ladi. Harakatni mustaqil bajarish o'z kuchiga ishonch hosil qilishda yordam beradi, bu ishonch kishining muhim irodaviy xususiyatidir.

2. Noma'qul psixik jarayonlar va harakatlarning tormozlaniishi bilan bog'liq iroda sifatlariga chidam, bardoshlilik, sabr-toqat, intizomlilik va uyushqoqlik kiradi. Chidam yoki o'zini tuta bilish bu kishining o'z-o'zini boshqara olishidir. U o'zining xulq-atvori ustidan to'liq nazorat qilish xususiyatini saqlab qolar ekan o'zidagi yomon niyatlarni, ixtiyorsiz harakatlarni, affektlarni, g'azablanishni, qo'rquvni yengadi. Chidamning mavjudligi kishini o'z-o'ziga tanqidiy qarashga o'rgatadi, oqiliona bo'lмаган xatti-harakatlardan o'zini tiyishga yordam beradi. Chidam, o'zini tuta bilish o'qituvchi uchun juda zarur. Bolalarning xulq-atvori ularning o'quv ma'lumotlarini tushunmasligi ko'pincha o'qituvchining jahlini chiqaradi va vujudga kelgan vaziyat talab qiladigan darajada yo'l tutish uchun zo'r chidam zarur bo'ladi. O'zini tuta bilish o'qituvchiga qattiq jahli chiqishdan o'zini tiyishga, xijolatni, sarosimalikni bosishga yordam beradi.

**Bardoshlilik va sabr-toqat** singari irodaviy sifatlar ham o'zini tuta bilishga yaqin turadi. Bunda kishi azob va qiyinchilik chekishni yenga olishga qodir bo'ladi. Irodali kishi qiyinchiliklarga qaramay o'z oldiga qoygan maqsadiga erishishga intiladi. Shaxsning barcha irodaviy sifatlarini, qo'zg'alish yoki tormozlanish jarayonining us-

tunligiga qarab, guruhlarga bo'lish mumkin. Ba'zan kishi bir xil harakatlarni cheklab boshqalar borasida faollik ko'rsatadi. **Intizomlilik va uyushqoqlik** singari iroda sifatlari ana shu tomonlari bilan farq qiladi. Intizom avvalo jamoa talablariga bo'ysunishdan iborat bo'ladi. Uyushqoqlik kishi o'zini, kerak bo'lsa boshqalardan ham samarali ishlashga majbur qila oladi. Tartibsizlik, o'z vazifalariga befarq bo'lish kabilar intizomsizlik va uyushmaganlikning ko'rinishlari bo'lib, ular iroda kuchining yetishmasligini bildiradi. Intizomsiz kishi boshqalarning ishiga ham muvaffaqiyatli rahbarlik qila olmaydi. **Batartiblik, aniqlik, puxtalik** har sohada namoyon bo'ladi, ular kundalik xulq-atvorda va hatto mayda-chuyda bo'lib ko'ringan narsalarda ham seziladi.

### *Irodani tarbiyalashda mashq va treninglar*

Har bir kishi irodani tarbiyalash ustida ishlashi zarur. Barcha atoqli kishilar buni tushungan holda, yoshlik yillaridanoq irodani mustahkamlash ustida ko'p ishlaganlar.

Kunlar va soatlar bo'yicha mashg'ulotlar, o'qimoqchi bo'lgan kitoblar ro'yxatini tuzib chiqish, xulq-atvor qoidalarini belgilab olish va ularning bajarilishini nazorat qilish kabilar irodani mustahkamlashga yordam beradi. 19 yoshli L.N. Tolstoy ham o'ziga «irodani rivojlantirish uchun qoidalar» tuzib olgan ekan, u bu qoidalarga butun hayoti davomida amal qiladigan kun tartibini va ovqatlar ratsionini ham kiritgan edi. Irodani tarbiyalashda atrofdagilarning fikri, ularning kishi xulq-atvoriga ijobiyligi ta'siri yordam beradi. Kundalik mehnat shu jumladan o'qish faoliyati ham irodani mustahkamlash uchun yaxshi muktab bo'lishi mumkin. Agar ishda yoki o'qishda ko'p qiyinchiliklar mavjud bo'lsa, ularni yengish irodaviy sifatlarni tarbiyalashning vositasi bo'lib xizmat qiladi. Irodani tarbiyalash uchun o'z ustida muntazam ish olib borish kerak, bu ishni iloji boricha erta boshlash zarur. Shaxsning irodaviy sifatlari irodaviy faoliyatda tarkib topishini unutmaslik kerak. Shuning uchun ham mehnat hamisha irodani mustahkamlashning vositasi bo'lib kelgan. Har bir ishni oxiriga yetkazish o'z harakatlarini puxna o'ylab bajarishga erishish juda muhimdir. Irodani tarbiyalash kishi o'z oldiga qo'yadigan maqsadga ham bog'liqdir, bu maqsadni anglash irodani chiniqtirishga yordam beradi.

Kishi o‘zini qat’iy nazorat qilishi, o‘z ishini va xulq-atvorini nazorat qilish odatini o‘zi tarbiyalamog‘i kerak. O‘z irodasini o‘z kamchiliklarini yengish bilan chiniqtirishi kerak. Bu sohadagi har bir muvaffaqiyat kishining o‘ziga ishonchini oshiradi, uni yanda irodalirioq qiladi. Bunda to‘g‘ri hayot kechirish, kun tartibi, nerv sistemasini umumiyl mustahkamlash, o‘zining iroda kuchi-ni doimiy mashq qildirib borishdan iborat jismoniy va psixik chiniqish yordam beradi.

Irodani mustahkamlash va chiniqtirishda treninglarning muhim o‘rni bor.

**Mumkin emas.** Guruh ikkiga bo‘linadi. 1-guruh o‘z istak-xo-hishlarini bayon qiladi, 2-guruh bunga rad javobini berishi kerak. 10 daqiqadan so‘ng guruhlarning o‘rin almashadi. Masalan, «Men bugun diskotekaga bormoqchi edim». Javob: «Yo‘q, mumkin emas, kech bo‘lib qoldi». O‘yindan so‘ng xohishlarni rad qiliш uchun qo‘llanilgan dalillar, sabablar va mazmunlar tahlil qilinadi. Boshlovchi quyidagi xulosaga keladi: «Asosli va asossiz rad etishlar bor. Ko‘pincha sizga ba‘zi ta‘qiqlar asossizdek tuyilishi mumkin, biroq ularda ham maqsad, mazmun borligini inkor eta olmaymiz. Agar biz istagimiz nega rad etilayotganligini anglasak, bunga ko‘nishimiz oson bo‘ladi. Ba’zan qilayotgan xatti-harakatlarimiz, istagimiz noo‘rin ekanligini ham anglab turamiz. Bunday holda tushunishimiz qiyin kechinmalarni his qilamiz».

**«Men kimman?»** Yo‘riqnomma: Hozir har biringiz bir varaq oq qog‘ozga quyidagilarni yozishingiz kerak. O‘zingizga 20 mar-ta «Men kimman?» deb savol berasiz va har bir savolga javob yozasiz. Mashqlar natijasiga ko‘ra inson ichki dunyosi naqadar boyligi va qarama-qarshiliklarga egaligi haqida xulosa chiqariladi.

### Nazorat savollari:

1. Iroda deb nimaga aytildi?
2. Irodaviy harakat vaqtida qanday to‘sislarni yengishga to‘g‘ri keladi? Ularning farqi nimada?
3. Iordaning fiziologik asoslari tog‘risida nimalarni bilasiz?
4. Kishi hayotida iroda qanday ahamiyatga ega?
5. Iordaning asosiy sifatlarini ta’riflab bering.

## **V bob. SHAXSNING INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

### **5.1. Temperament. Temperament haqida tushuncha**

Shaxsning individual xususiyatlari haqida gapirilganda uning tug‘ma biologik xususiyatlariga alohida e’tibor beriladi. Atrofdagi kishilarni kuzatganda ular his-tuyg‘ularni namoyon qilishda, harakat tezligida farq borligi seziladi. Birovlar tajang, harakatchan va quvnoq bo‘lsalar ham ularning tuyg‘ulari beqaror bo‘ladi. Boshqalari yuvosh, zararsiz bo‘ladilar. Uchinchilari bironor narsadan tez ta’sirlanadilar, lekin o‘z tuyg‘ularini yashiradilar, passiv bo‘ladilar. Oliy o‘quv yurtiga qabul qilinganini eshitgan bolaning o‘zini tutishi yoki hayotning og‘ir sinovlari paytida odam beixtiyor namoyon qiladigan reaksiyalari uning temperamentini hosil qiladi. Bu ikkala vaziyatni biri og‘ir-bosiqlik bilan, boshqasi esa o‘zini yo‘qtogudek darajada hayajon bilan boshdan kechiradi.

His-tuyg‘ularning paydo bo‘lishi tezligi va kuchida, hamda kishining umumiy harakatchanligida namoyon bo‘ladigan individual-psixologik xususiyatlar majmui temperament (lot. temperamentum – aralashma, qismlar nisbati) deb ataladi. Qadim zamonlarda kishidagi tuyg‘ular va harakatlarning xususiyatlari uning tanasidagi suyuqliklarning miqdoriga, ularning nisbatiga bog‘liq deb hisoblanar edi. Qadimgi grek shifokori va tabiatshunosi Gippokrat (er.av. 460–356-yillar) taxmin qilganki, bir xil odamlarning organizmida safro (shole) ko‘proq bo‘ladi, bunday kishilarni xoleriklar; boshqalarda qon (sanguinis) ko‘p bo‘ladi, ularni sangviniklar; uchinchi bir kishilarda shilliq narssa (phlegma) ayniqsa ko‘p, ularni flegmatiklar; to‘rtinchi bir kishilarda qora safro ko‘p miqdorda bo‘lib, ularni melanxoliklar deb ataganlar. Keyinchalik temperamentning badandagi «suvlarning» miqdoriga bog‘liqligi haqidagi fikr rad qilinadi, biroq Gippokratning kishilarning to‘rt guruhi, temperamentning to‘rt tipologiyasi haqidagi fikri ming yillarda davroni boshidan kechirdi. Bu nomlar hozirgi kunlarimizga qadar saqlanib keldi.

## *Temperament tiplarining psixologik tasnifi*

I.P. Pavlov nerv sistemasining to'rtta tipi borligini belgilab chiqdi. Avvalo u kuchli va kuchsiz tiplarni farqlagan. Kuchli tiplar orasida **muvozanatsiz** tiplar va **muvozanatli** tiplar bo'lishi mumkin. Muvozanatli tiplar harakatchan va sust (inert) tiplarga bo'linadi. Shu tariqa uchta kuchli tip hosil bo'ladi, to'rtinchi tipga esa olim barcha kuchsiz tiplarni kiritgan. Faoliyat jarayonida nerv sistemasining tipi o'zgarmasdan qolmaydi. Temperament shaxsning psixik xususiyatlaridan biridir, lekin har bir temperamentdagi kishilar ham juda xilma-xil bo'ladilar. Har bir kishi takrorlanmas shaxs hisoblanadi, shuning uchun ham uni yuqorida aytib o'tilgan temperament tiplaridan biriga kiritish hamisha ham mumkin bo'lavermaydi. Ko'pgina kishilarning shaxsi faqat birgina tipga xos belgiga ega bo'lib qolmasdan, balki ikki va undan ham ko'proq tipning belgilari ega bo'ladi. Kishida xolerik tipdagi xususiyatlar bilan bir qatorda, masalan, sangvinik tipdagi kishining belgilari ham bo'lishi mumkin; melanxolik tipdagi kishida esa flegmatik tip xususiyatlari uchraydi va hokazo. Bu tiplar sof holda hayotda ancha kam uchraydi. Yana ko'pgina o'tkinchi oraliq yoki aralash tiplar bor.

Temperament tiplarining psixologik tavsifi quyidagi muhim xususiyatlar yordamida aniqlanishi mumkin:

1. *Senzitivlik* (lotincha sensus – sezish, his qilish). Insonda bironta psixik reaksiyani hosil qilish uchun zarur o'ta kuchsiz sezgilarning paydo bo'lishi uchun kerak qo'zg'ovchining ozgina kuchi, ehtiyojlar qondirilmasligining sezilar-sezilmas darajası mujjassamlashadi.

2. *Reaktivlik*. Aynan bir xil kuch bilan ta'sir etuvchi tashqi va ichki ta'surotlarga shaxs qanday kuch bilan emotsiyal reaksiya qilishiga qarab munosabat bildiriladi. Reaktivlikning yorqin ro'yobga chiqishi emotsiyonallik, ta'sirlanuvchanlikning ifodalanishidir.

3. *Faollik*. Inson qanday faollik darajasi bilan tashqi olamga ta'sir ko'rsatishi va maqsadlarini amalga oshirishda obyektiv hamda subyektiv qarama-qarshiliklarni faollik bilan yengishiga qarab fikr yuritiladi.

4. *Refaollik* bilan faollikning o‘zaro munosabati. Bunda odamning faoliyati ko‘p jihatdan nimaga bog‘liqligiga qarab, masalan, tashqi va ichki sharoitlarga (kayfiyatga, favqulodda holatda) yoki maqsadlarga, ezgu niyatlarga, xohish-intilishlarga ko‘ra fikr bildirish nazarda tutildi.

5. *Reaksiya tempi*. Psixik reaksiyalar va jarayonlarning kechish tezligiga, binobarin harakat tezligiga, nutq suratiga, farosatlilikga, aql tezligiga asoslanib xulosa chiqariladi.

6. *Harakatlarning silliqligi* va unda qarama-qarshi sifat rigidlik (qotib qolganlik), shaxsning o‘zgaruvchan tashqi ta’sirotlariga qanchalik yengillik va chaqqon muvofiqlashuviga, shuningdek, uning xatti-harakatlari qanchalik sust va qotib qolganligiga baho berishdan iboratdir.

7. *Ekstravertlik* va *intravertlik*. Shaxsning faoliyati va reaksiyasi ko‘p jihatdan nimalarga bog‘liqligiga, chunonchi favqulod-dagi, tashqi ta’sirotlarga (ekstravertlik) yoki aksincha, timsollar-ga, tasavvurlarga, o‘tmish hamda kelajak bilan uyg‘unlashgan mulohazalarga (intravertlik) taalluqlidir.

**Sangvinik** – juda faol, har bir narsaga ham qattiq kula-veradi; yolg‘on dalillarga jahli chiqadi. Atrofdagi narsalar, ma’ruzalar diqqatini tez jalb etadi. Imo-ishoralarni ko‘p ishlata-di, chehrasiga qarab kayfiyatini aniqlab olish qiyin emas. Juda sezgir bo‘lishiga qaramay kuchsiz ta’sirni (qo‘zg‘atuvchilar) seza olmaydi, serg‘ayrat, ishchan, toliqmas. Faollik bilan refaollik munosabati muvozanatda, intizomli, o‘zini tiya biladi, boshqara oladi. Xatti-harakati jo‘sinqin, nutq surati tez, yangilikni tez payqaydi, aql-idroki tiyrak, topqir, qiziqishlari, kayfiyati, intilishlari o‘zgaruvchan. Ko‘nikma va malakalarni tez egallaydi. Ko‘ngli ochiq, dilkash, muloqotga tez kirishadi. Fantaziysi yuksak darajada rivojlangan, tashqi ta’sirlarga hozir-javob.

**Xolerik** – sust senzitivlik xususiyatiga ega. Juda faol va refaol. Ko‘pincha refaolligi faollikdan ustun keladi. Betoqat, serg‘ayrat, tinimsiz. Sangvinikka qaraganda silliqroq, lekin ko‘proq qotib qolgan. Qiziqishlari, intilishlari barqaror, xatti-harakatlarida qat’iylik mavjud. Biroq diqqatni bir joyga to‘plashda qiynaladi. Nutq surati tez va hokazo.

**Flegmatik** – senzitivligi sust, his-tuyg‘usi kam o‘zgaruvchan, shunga ko‘ra bunday shaxsni kuldirish, jahlini chiqarish, kayfiyatini buzish qiyin. Ko‘ngilsiz hodisa xavf-xatar haqidagi xabarga xo-tirjamlit bilan munosabatda bo‘ladi. Vazmin, kam harakat, imo-ishoras, mimikasi ko‘zga yaqqol tashlanmaydi, lekin serg‘ayrat, ishchan, faol, chidamli, matonatli. Nutq va harakat sur’ati sust. Faoliyati kamroq. Diqqatni to‘plashi osoyishta. Diqqatni ko‘chirishi qiyin. Intravertlashgan, kamgap, ichimdan top, yangilikni qabul qilishi qiyin. Tashqi ta’sirotlarga sustlik bilan javob beradi.

**Melanxolik** – sentizivligi yuksak, tortinchoq, g‘ayratsiz, arazchan, xafaqon. Jimgina yig‘laydi, kam kuladi. Qat’iyligi va mustaqilligi zaif. Tez toladi, diqqati beqaror. His-tuyg‘usi sust o‘zgaradi. Rigid, interavertlashgan.

### *Oliy nerv faoliyati va temperament tiplari*

I.P. Pavlov temperament xususiyatlarini belgilab beruvchi 3 ta oliy nerv tizimi xossalalarini ajratgan:


1. Kuch: nerv tizimining kuchli qo‘zg‘atuvchilar ta’siriga bardoshi, shunga ko‘ra odamlardagi chidam kabi sifatlar va ularga teskari sifatlarning namoyon bo‘lishi.

2. Muvozanatlashganlik: asabdagi tormozlanish va qo‘zg‘alishning o‘zaro mutanosibligi yoki o‘zini tuta bilishi, bosiqlik kabi sifatlarning namoyon bo‘lishi.

3. Harakatchanlik, ya’ni qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonidagi o‘zaro almashinish jarayonining tezligi va harakatchanligi ma’nosida.

I.P. Pavlov kuchsiz tipdagi vazminlik va harakatchanlikni hisobga olmagan chunki bu xususiyatlar kamdan kam hollarda namoyon bo‘ladi.

Oliy nerv faoliyatining individual xususiyatlari tadqiqotlarda qarab chiqilgan biron-bir xususiyati emas, balki doimo ularning majmui bilan belgilanadi. Ko‘p sonli laboratoriya tajribalari ko‘rsatadiki, shunday birikmalar orasida ayrimlari boshqalarga qaraganda ko‘proq uchraydi yoki ancha yaqqol ko‘rinadi. Nati-jada Pavlov oliy nerv faoliyatining asosiy tiplarini yaratdi. Nerv jarayonlarining kuchiga bog‘liq holda itlar kuchli va kuchsizlarga bo‘linadi.



*Kuchsiz jonivorlar* – bir xil tipni tashkil qiladi, bu tipning vakillarida ikkala nerv jarayonida, ayniqsa tormozlanish jarayoni ojiz hisoblanadi, bunday itlar besaronjom bo‘lishadi, to‘xtovsiz akillayveradi yoki bamisol bir xil holatda turaveradi. Tashqi ta’sirlar hatto ba’zan arzimagan ta’sirlar ham ularga ortiqcha ta’sir ko‘rsatadi. Uzoq davom etgan qo‘zgatuvchilar ularda nerv sistemasini tez ishdan chiqishini keltirib chiqaradi.

*Kuchli hayvonlar* – muvozanatlashganlik bo‘yicha ajratiladi. Kuchli muvozanatsizlar alohida tipni tashkil etadi. Muvozanatsizlik kuchli itlar o‘rtasida bir xil shaklda kuchli qo‘zg‘alish jarayoni bilan muvozanatlashganligi sababli bu hayvonlarda faoliyat juda zo‘riqqan, ko‘pincha nerv faoliyatida buzilish ro‘y beradi. Ko‘p hollarda bu urushqoq, haddan tashqari qo‘zg‘aluvchan hayvонларdir. Kuchli muvozanatlilar o‘z navbatida nerv jarayonlarining almashinuviga, harakatchanligiga qarab jonli va bosiq tiplarga bo‘linadi. Xatti-harakatning tashqi xususiyatlariga qaraboq bu tiplarning vakillari bir-biridan farq qiladi. Bir xillari tez qo‘zg‘aluvchan va harakatchan, boshqalari sust qiyinchilik bilan qo‘zg‘aladi. Oliy nerv faoliyatning 4 asosiy tipi farqlangan:

1. Kuchli muvozanatli va tez (jonli).
2. Kuchli muvozanatsiz (behalovat).
3. Kuchli muvozanatli va sekin (osoyishta).
4. Kuchsiz tip.


Nerv faoliyatining tipi organizmning tabiiy xususiyatidir. Unasliy jihatdan bog'liq, biron-bir darajada o'zgarmas hisoblanmaydi, u rivojlanadi va ma'lum darajada atrofdagi sharoitlar ta'siri ostida o'zgaradi. Eksperimentlarda shu narsa aniqlanadiki qo'zg'alish ustun turgan kuchli tipda kuchli mashq qilish yo'li bilan tormozlanish jarayonini mustahkamlash mumkin. Yana shu narsa ma'lumki, nerv jarayoni xususiyatlari yoshta qarab o'zgarishi mumkin. «Biz, — deb yozadi I.P. Pavlov, — itda aniqlangan nerv sistemasi tipini... odamga tatbiq qilishga to'la haqlimiz».

### *Tepmerament va tarbiya*

Temperament xususiyatlarini yoshlikdan tarbiyalab borish kerak. Buning uchun bolaning qaysi temperament tipiga taalluqli ekanini aniqlash lozim. Masalan, chaqaloq yig'loq, besaramjon bo'lsa harakatchan tipga, tinch, kam yig'laydigan bo'lsa flegmatik bo'lishi mumkin. Bolalar temperamentini maxsus o'yinlar orqali o'rganish mumkin. Masalan, xonaning 2 tomoniga stol qo'yib, 20 ta kubik va kurakcha qo'yib, kubiklarni kurakchaga taxlab 2-stolga ko'chirish taklif qilinadi. Xolerik tipdagisi bola ishni birinchi bo'lib bajaraman deb shoshilib kubiklarni to'kib yuboradi. Melanxonik men buni qila olmayman deydi, flegmatik shoshmasdan sekin bajaradi.

Temperament odamga tug'ma ravishda berilsa ham tarbiyaning ta'siri va hayot sharoiti davomida o'zgartirish mumkin. Bunda o'z-o'zini tarbiyalashning ahamiyati kattadir. Kuchsiz tipdagisi bolalar tez charchab qoladilar. Kuchli temperamentga ega bola esa ishga kirishish uchun biroz taraddudlanadi, ammo topshiriqni uzoqroq bajaradi. Sport musobaqalarida ham kuchlilar yaxshiroq natija ko'rsatadi, kuchsizlari o'zlarini yo'qotib qo'yadilar. Qo'zg'aluvchan bolaga o'zini tuta bilish malakasini tarbiyalash ma'lum sharoitlarda o'zini to'xtata olishga o'rgatish lozim. Kuchsiz tipdagisi bolalarga ko'p harakat qilish, faollik ko'rsatish imkonini berish lozim. Mashg'ulotlarda bunday bolalardan tez-tez so'rab turish kerak, ularga faollik va chaqqonlikni talab qiladigan vazifalarni topshirish kerak. Kuchsiz tipdagisi bolalar ishchanlik holatlarini kuchli tipdagilarga nisbatan tez yo'qotadilar, shuning uchun ularni charchashlikkacha olib bormaslik kerak, aks hol-

da tormozlanish jarayoni boshlanishi mumkin. Muntazam olib boriladigan mashqlar kuchsiz nerv sistemasini mustahkamlaydi, ularning ishchanlik qobiliyatini oshiradi. Nerv sistemasi kuchsiz bolalar yangi sharoitga qiyin ko'nikadilar, yangiliklardan qo'chadilar.



**25-rasm.** Ezilgan shlapaning turli temperamentdagi kishilarga turlicha ta'sir ko'rsatishi (Xerlof Bidstrup rasmii).

## Bolalar temperamenti

**Kuzatishlar orqali bolalar temperamentini aniqlash mumkin:**

**1. Tez harakat qilish zarur bo‘lgan vaqtida bola o‘zini qanday tutadi?**

- a) oson ishga kirishadi;
- b) faol harakat qiladi;
- c) osoyishta, so‘zsiz harakat qiladi;
- d) ishonchsiz harakat qiladi.

**2. Kattalarning tanbehlariiga qanday qaraydi?**

a) «Boshqa qilmayman» deydi-yu, biroz vaqt otgach yana qilaveradi;

- b) qulq solmay o‘z bilganicha qilaveradi;
- c) jim eshitadi;
- d) jim turadi, xafa bo‘ladi, hayajonlanadi.

**3. Zarur bo‘lgan sharoitlarda bola boshqa bolalar bilan qanday gaplashadi?**

a) tez, qiziqqonlik bilan, lekin boshqalarning ham fikrini eshitadi;

- b) tez, hayajon bilan, boshqalarni eshitmaydi;
- c) sekin, ohista, ishonch bilan;
- d) ishonchsizlik bilan.

**4. Odat bo‘lmagan sharoitda o‘zini qanday tutadi?**

- a) tez moslashadi, faollik ko‘rsatadi;
- b) faol, yuqori hayajonlanish bilan;
- c) tinch atrofni kuzatadi;
- d) o‘zini yo‘qotib qo‘yadi, tashvishlanadi.

**5. Mehnat topshiriqlarini bajarishda o‘zini qanday tutadi?**

- a) topshiriqlarni tez bajaradi;
- b) tashkilotchilik qobiliyatlarini ko‘rsatadi;
- c) sekin, shoshmasdan bajaradi, ishni oxiriga yetkazadi;
- d) ovoz chiqarmay, ohista bajaradi.

**Natija:**

agar, a – varianti ko‘p chiqsa bola sangvinik;

b – varianti ko‘p chiqsa bola xolerik;

c – varianti ko‘p chiqsa bola flegmatik;

d – varianti ko‘p chiqsa bola melanxolik tipiga mansubdir. Quyida har bir temperament tipini ko‘rib chiqamiz.

### **Bolalar temperamentiga tavsifnoma**

#### *Flegmatik mijozli bolalar*

Harakatlari sust, kamgap, muayyan bir narsani kuzatib, uzoq vaqt tinch o‘tira oladi. O‘z diqqatini bir narsaga qaratib, tevarak-atrofdagilarga e’tiborsiz bo‘la oladi. Uning har bir ishi va faoliyatida qandaydir erinchoqlik holatlarini kuzatish mumkin. O‘ziga berilgan topshiriq va vazifalarni sira shoshilmay bajaradi. Bunday bola ovqat tanlamaydi, bori bilan qanoatlanadi. U biror vazi-fani bajarishda tengqurlaridan orqada qolib ketishi mumkin. Le-kin siz amin bo‘lavering, ishi boshqalarnikiga nisbatan puxtarloq va sifatliroq bo‘ladi. Bolaning xatti-harakatiga ko‘proq e’tibor bersangiz, uning sustligi, savolningizga turib-turib javob berishi, hozirjavob emasligi ma’qul tushmaydi. Bola o‘ylab ish ko‘radi, o‘z faoliyatini rejalab, puxta bajaradi, u zehnli, xotirasi yaxshi. Uy-ro‘zg‘or ishlariga pishiq. Yangi g‘oya va kashfiyotlardan yiroq-dir. Murg‘aklik chog‘laridan oq uning tartibga, doimiy bir tizimga intilishini sezasiz. O‘z narsalarini taxlab, belgilangan joyga qo‘yishini, o‘yinchoqlariga ham nech kim tegmasligini, ular saqlanadigan joyni o‘zgartirmasligini xohlaydi. Choy ichganga o‘z piyolasini talab qilib, janjallahishi mumkin. Yangi joy, sharoit-larga ko‘nikib ketishi qiyinroq bo‘lib, atrofdagilarni qiyin ahvolga solib, qiy nab qo‘yishi kuzatiladi. Tengdoshlari bilan tez kirishib keta olmaydi. Hamma uni zerikarli bola deb biladi, chunki u chopmaydi, to‘polon qilmaydi. «Zarur», «shuni qilish kerak» de-gan so‘zlar uning uchun katta mohiyatga ega. Bu uning turmush tarzi, burch va javobgarlik hissi unda yaxshi rivojlangan. Kel-gusida bunday bolalar ota-onaning ishongan suyanchig‘i bo‘lib qoladilar. Bunday bolalar ichida tasviriy san’atga qiziqadiganlari ko‘p bo‘ladi.

#### *Xolerik mijozli bolalar*

Bunday bola o‘z istagi va maqsadini amalga oshirishi uchun hech narsadan tap tortmaydi, erkalik qiladi, janjal ko‘taradi,

qaysarlik qiladi, lekin o‘z aytganini bajartiradi. Hamma narsa uning irodasi va kayfiyatiga bog‘liq, uning yuz ifodasi jonli. U goho qaysar, intiluvchan va tavakkalchi bo‘lsa, goho e’tiborsiz, beixtiyor «bajaruvchi» va indamas bo‘lib qoladi. U «buyuk xayolparast», O‘zi ta’sirlangan narsalarni oqizmay-tomizmay san’atkorona va mahorat bilan so‘zlab bera oladi. Xolerik mijozli bolani olov bilan qiyoslappingiz mumkin. Hattoki rasm solganda qizil, to‘q ranglardan ko‘proq foydalanadi va voqe-a-hodisalarni ifodali qilib aks ettiradi.

O‘zi yaxshi ko‘rgan odamlarga nisbatan oqibatli bo‘lib, ularga qo‘lidan kelgancha yordam beradi. Ta’lim jarayoni uni biroz qiy-nasa ham o‘qish zarurligini sezgan holda, bor kuchini ayamaydi. U kam uxlasada tetik yuradi, ishtaha bilan ovqatlanadi. Uning fikr-mulohazalari o‘rinli ekani sizni hayratga soladi, bu tabiiy hol. Uning fikrlash jarayonini ta’riflash va sharhlash qi-yin bo‘ladi. U kuch ta’siri ostida o‘z tuyg‘ularini, kechinmalarini va jahlini tizginlay bilmaydi. Lekin biroz vaqt o‘tgach so‘ngan vulqondek osoyishta bo‘lib qoladi. Uni to‘g‘ri tushunish va sabr-toqatli bo‘lish kerak. Kuch-g‘ayratini namoyon qilishiga imkoniyat yaratish va ma’lum natijaga erishish yo‘lini izlash lozim. Ar-zimagan narsaga «pov» etib yonadigan bolaga uy ham ko‘cha ham torlik qiladi unga miriqib o‘ynash, yugurish, o‘mbaloq oshish uchun sharoit yaratish kerak. Kesatiqqa, masxaraomuz gaplarga o‘ta sezgir bo‘lib, salbiy javob qaytaradi, o‘chakishadi.

### *Sangvinik mijozli bolalar*

Bola harakatchan, epchil. Diqqati o‘zgaruvchan, bir narsaga bir daqidadan ko‘p e’tiborini ushlab tura olmaydi. Uni kichkina chumchuqqa o‘xshatish mumkin: u hamma joyda bo‘lishga ul-guradi, hamma narsani bilishga intiladi. Kattalarga uning xatti-harakati yoqavermaydi. Barcha uni birdek jiddiy emas, e’tiborsiz, o‘z-o‘zini boshqara olmaydi deydilar-u, baribir yaxshi ko‘radilar, ko‘rmasalar sog‘inadilar. Chuchuktomoiq, tez-tez va oz-ozdan tamaddi qiladi. Mevalarga o‘ch, tuzlamalarni jon-jon deb yeydi. Tez uxbab, erta uyg‘onadi. Uning ichki dunyosi tuyg‘ularga boy, ammo bu munosabatlarda yaqqol namoyon bo‘lmaydi. Bunday bolaga ta’sir ko‘rsatish uchun uning hurmatini, ijobiy munosa-

batini qozonish lozim. Kayfiyatining o'zgaruvchanligini hisobga olib, kun tartibini qiziqarli tashkil qilish kerak. Bunday bola yangi ishga berilib kirishib ketadi, lekin ishdan tez sovushi mumkin. Darsda parishonxotirligi bilan ajralib turadi. Tevarak-atrofda ro'y berayotgan hamma narsa uning diqqatini o'ziga tortadi. U qobiliyatli, kitob o'qishni yaxshi ko'radigan, hamma narsaga qiziqadigan bola bo'lsada, unda yetarlicha matonat yo'q. Shoshqaloqligidan yozma ishda ko'p xato qiladi. Yomon baho olgandan keyin yig'lab yuborishi mumkin, lekin 5 daqiqadan keyin uning quvnoqligi tutib, kulib turganini ko'rasiz. Bu bolalar hech narsani o'zlariga qattiq olmaydilar, bergen va'dalarini tez unutib qo'yadilar. Biror narsaga qiziqib ketsa, dunyodagi hamma narsani unutadi va bu qiziqish barqaror xarakter kasb etadi. Bunday bola o'zining harakatchanligi, quvnoqligi, gapga kirishi, yuz ifoda-sining jonliligi bilan yoqimlidir. Lekin unga ko'proq tanbeh berishga to'g'ri keladi.

### *Melanxolik mijozli bolalar*

Bu tipdag'i bolaning ichki dunyosini sirli olam deyish mumkin. Ko'proq yolg'izlikni qo'msab, o'zini chetga tortadi, tinch o'yinlarni izlaydi. Kayfiyatiga moslashish juda qiyin. Qachon qarasangiz g'amgin bo'lib yuradi, uni kuldirish amri mahol. O'z yoshiga nisbatan aqli ko'rindi, uning mantiqan fikr yuritishlari kishini hayratda qoldiradi. Lekin unda «kichkintoy» odatlарини ham ko'rish mumkin, barmoqlarini og'ziga solishi, tirnoqlarini tishlashi va boshqalar g'ashingizga tegadi-ki, uni ko'p koyisiz. Rasm solish, kitob o'qish jonu dili, bema'ni hikoyalar, qo'rqinchli voqealar, turli ertaklarni yoqtiradi. Ma'qul ko'rgan odamlari bilan emin-erkin gaplashadi, aksincha uning diliga kalit topish juda qiyin, u «indamaslar» qatoridan o'rinni olgan. Kam harakat ekan ni, uyquga kech yotishi, kun bo'yi yolg'iz bo'lib aqliy faoliyat bilan shug'ullanishi sababli boshi og'rishi mumkin. Uyqusida bezovta bo'lishi, ishtahasi bo'g'ilishi mumkin. Ohista yuradi, qaddi bukchayadi, tez-tez charchoqni sezadi va yanada odamovi bo'lib, o'zini chetga tortadi. Tabiatan nozik bo'lib, kasalmand odamga o'xshaydi. U kattayu kichikka, tengdoshlariga doimo yordamga tayyor.

Temperament ustida ishlash odamga o‘z temperamentining quliga aylanib qolmaslik, balki uni idora qila bilish imkoniyatlarini beradigan iroda va mustahkam xarakterni tarbiyalash bilan uzviy ravishda bog‘lanib ketadi.

**Nazorat savollari:**

1. Temperament nima?
2. Temperament tiplarining tavsifini qanday muhim sifatlar yordamida aniqlash mumkun?
3. Temperamentning 4 tipiga tavsiya bering.
4. I.P. Pavlov oliy nerv faoliyatining qanday asosiy xususiyatlarini belgilab chiqqan?
5. Bolaning temperament tipini qanday aniqlash mumkin?
6. Bolalar temperamentiga tavsifnomaga bering.

**G.Y. Ayzenkning temperament tipini aniqlash test-so‘rovnomasi**

Berilgan savollarga «ha» yoki «yo‘q» javoblaridan birini tanlang:

1. Kuchli hayajonni sinash uchun sizda yangilikka intilish sezildimi?
2. Sizni tushunadigan va qo‘llab-quvvatlaydigan do‘sit kerakligini his qilasizmi?
3. Siz o‘zingizni tashvishi yo‘q odam deb hisoblaysizmi?
4. O‘ylagan rejalaringizdan qiyinchiliksiz voz kecha olasizmi?
5. Bir ish qilishdan oldin, o‘ylab ish tutasizmi?
6. Hatto sizga foydasi bo‘lmasa ham, va’dangizda turasizmi?
7. Ruhiyattingiz tez tushib, tez ko‘tariladimi?
8. Ko‘p o‘ylamay, tez ish yurita olasizmi?
9. Ba’zida jiddiy sabab bo‘lmasa ham, o‘zingizni baxtsiz, deb hisoblaysizmi?
10. Birov bilan bahslashsangiz, o‘zingizni ko‘p narsaga qodir ekanligingizga ishonasizmi?
11. Sizga yoqqan qarama-qarshi jinsli kishi bilan tanishsangiz, uyalasizmi?

12. Jahlingiz chiqqanda o‘zingizni yo‘qotasizmi?
13. Ko‘pincha o‘ylamasdan sharoitga qarab ish tutasizmi?
14. Gapirmasam bo‘lar edi, shu ishni qilmasam bo‘lar edi, de-gan xayol sizni tez-tez bezovta qiladimi?
15. Sizga kitob o‘qishga nisbatan odamlar bilan uchrashuv af-zalmi?
16. Hamma narsani o‘zingizga olaverasizmi?
17. Do‘srlar davrasida bo‘lishni yoqtirasizmi?
18. Birovlar bilihini istamagan sirlaringiz bormi?
19. Ba’zan g‘ayratingiz jo‘shib qadamingizdan o‘t chaq-naydi, ba’zan esa hamma ishdan xafsalangiz pir bo‘lib, loqayd bo‘lishingiz haqiqatmi?
20. Do‘srlaringiz davrasini eng yaqin do‘srlaringiz bilan che-garalanishini istaysizmi?
21. Siz ko‘p narsani orzu qilasizmi?
22. Sizga baqirib gapirishsa, Siz ham shunday javob qaytara olasizmi?
23. Ba’zan o‘zingizni biron narsada aybdorman deb his qila-sizmi?
24. Siz o‘z odatlaringizni yaxshi ekanligiga ishonasizmi?
25. O‘z hislaringizga erk berib, do‘srlar davrasida o‘zingizni betashvish his qilasizmi?
26. Asabingiz tarang bo‘lgan paytlar ko‘p bo‘ladimi?
27. Sizni xushchaqchaq va ziyrak odam deb hisoblasha-dimi?
28. Biror ishni bajarib bo‘lgandan keyin, shu ishni bundan ham yaxshiroq bajarishingiz mumkinligi haqida o‘ylaysizmi?
29. Katta davralarda o‘zingizni xotirjam his qilasizmi?
30. Siz g‘iybat qilasizmi?
31. Har xil fikrlar boshingizga o‘ralashganidan uxlay olmagan paytlaringiz bo‘ladimi?
32. Siz biror narsani bilihni istasangiz, do‘srlaringizdan so‘rab-surishtirishga nisbatan tezroq kitobdan qidirib topishni ma’qul ko‘rasizmi?
33. Yuragingiz tez-tez urib turadigan paytlar bo‘ladimi?
34. Diqqat talab qilinadigan ish sizga yoqadimi?
35. Sizda qalтироq bosish holatlari bo‘ladimi?

36. Siz doim haq gapirasizmi?
37. Bir-birini kamsitadigan davrada o‘zingizni xotirjam his qilasizmi?
38. Siz serjahlmisiz?
39. Tez harakat qiladigan ishlar sizga yoqadimi?
40. Hammasi yaxshilik bilan tugagan, lekin yomon oqibat-larga olib kelishi mumkin bo‘lgan voqealar sizni xayolingizni bezovta qiladimi?
41. Harakatingiz sekin, chaqqon emasligingiz to‘g‘rimi?
42. Biror marta ishga yoki uchrashuvga kechikkanmisiz?
43. Bema’ni tushlar ko‘rasizmi?
44. Siz shunday gapirishni yoqtirasizki, hatto notanish odam bilan ham gaplashish mumkin bo‘lgan paytni hech qachon boy bermaslikka harakat qilasizmi?
45. Sizni biror og‘riq bezovta qiladimi?
46. Do‘srlaringiz bilan uzoq uchrashmasangiz xafa bo‘lasizmi?
47. O‘zingizni asabi yomon kishi deb, hisoblaysizmi?
48. Tanishlaringiz orasida sizga yoqmaydiganlari ham bormi?
49. Siz o‘zingizni «o‘ziga ishongan odam» deb hisoblaysizmi?
50. Sizning kamchiliklaringizni yoki ishingizni tanqid qilissa, shaxsiyattingizga tegadimi?
51. Ko‘pchilik bilan bajarilgan ishdan qoniqishingiz qiyin bo‘ladimi?
52. Sizni ham ulardan nimam bilandir yomonman, degan fikr bezovta qiladimi?
53. Zerikarli davrani qiziqtira olasizmi?
54. O‘zingiz tushunmagan narsalar haqida gapirgan vaqtin-giz bo‘ladimi?
55. O‘z sog‘lig‘ingiz haqida qayg‘urasizmi?
56. Boshqalar ustidan hazil qilishni yaxshi ko‘rasizmi?
57. Uyqusizlikka duchor bo‘lganmisiz?

### Test kaliti:

Nº	Ha	yo‘q	Nº	Ha	yo‘q	Nº	Ha	Yo‘q
1	E		20		E	39	E	
2	N		21	N		40	N	
3	E		22	E		41		E
4	N		23	N		42		L
5		L	24	L		43	N	
6	L		25	E		44	E	
7	N		26	N		45	N	
8	E		27	E		46	E	
9	N		28	N		47	N	
10	E		29		E	48		L
11	N		30		L	49	E	
12		L	31	N		50	N	
13	E		32		E	51		E
14	N		33	N		52	N	
15		E	34		E	53	E	
16	N		35	N		54		L
17	E		36	L		55	N	
18		L	37		E	56	E	
19	N		38	N		57	N	

Eksperimentator to‘ldirilgan anketalarni yig‘ib olib, har bir tekshiriluvchining javobini testdagi kalit bilan solishtirib ko‘rib chiqadi. Tekshiriluvchilar javoblari yoniga kalitda mos kelgan harflarni qo‘yib chiqadilar. «E» va «N» harflari bo‘yicha mos tushgan harflar javobi 0 dan 24 gacha, «L» harfi bo‘yicha ballar soni esa 0 dan 6 gacha to‘g‘ri kelishi kerak.

Agar, «E» shkalasi bo‘yicha ballar soni 12 dan ortiq chiqsa, bu shaxs «ekstrovert» turiga kiradi: bu tashqi muhitga yo‘nalgan, obyektni magnit kabi tortuvchi, qiziquvchan, impulsiv, xulqatvori mustahkam, muloqotli, ijtimoiy muhitga moslashgan va unda o‘z o‘rnini topgan kishi.

Agar, «E» shkalasi bo‘yicha ballar soni 12 dan kam chiqsa, unda shaxs «introvert» turiga kiradi: og‘ir, vazmin, ehtiyyotkor, aqlii, muloqotga birinchi bo‘lib kirisha olmaydigan, o‘z-o‘zini nazorat qilishga va o‘z-o‘zini tahlil qilishga moyil kishilardir.

«N» shkalasi bo'yicha 12 dan ortiq chiqsa, bu shaxs «nevrotik» (asabiy) hisoblanadi: o'z-o'zini tuta bilmaslik, irodaviy bo'shlik, serjahl, shu bilan birgalikda faol harakatchan, muloqotli, boshlagan ishini oxiriga yetkazadigan kishi bo'ladi.


«L» shkalasi «yolg'onchilik» shkalasi bo'lib, bu ichki dunyosini ochmaslik va boshqalardan sir tutish, oddiy qilib aytganda, o'zini «oynada» odilona qilib ko'rsatish yoki yuksak baholash, demakdir.

0–2 ball o'z-o'zini quyi darajada baholash.

3–4 ball o'z-o'zini adekvat, haqqoniy baholash.

5–6 ball o'z-o'zini yuqori darajada baholash.

Ikkita gorizontal va vertikal chiziqlar o'tkaziladi. Javoblardagi harflar shkalasi bo'yicha chiqqan sonlarni chiziqlar bo'ylab belgilab chiqib, tekshiriluvchini xarakterlovchi temperament xususiyatlarini aniqlash mumkin.



**Melanxolik.** G'amgin, tashvishli, qo'rqoq, yuvosh, mulohaza yuritishga moyil, keljakka ishonchi yo'q. Umidsiz, og'ir, vazmin, bosiq. Muloqotga kirishimli emas, indamas kishilar bo'ladi.

**Xolerik.** Sezgir, tinib-tinchimas, agressiv (o'zgalarga hukm o'tkazuvchi) shaxs. Ta'sirchan, o'zgaruvchan, umid-ishonchli, harakatchan kishilar.

**Flegmatik.** Passiv (sust), ehtiyokor, mulohaza yurituvchan, aqlli, o'ylab ish qiladi, tinchlikni, osoyishtalikni sevadi. Boshqaruvchan, ishonuvchan, nazorat qiluvchan, vazmin, bir tekisda harakat qiladigan, xotirjam kishilar bo'ladilar.

**Sangvinik.** Muloqotga kirishuvchan, sergap, rahmdil, ko'ngilchan, dadil harakat qiladi. Xushchaqchaq, lekin ko'pchilikni va shovqinni yoqtirmaydi. Hamma joyda sardor (lider) bo'lishga, o'zini ko'rsatishga harakat qiladigan kishilardir.



### 5.3. Xarakter.

#### Xarakter haqida umumiy tushuncha

Kishi jamiyatda yashab, biror faoliyat bilan shug‘ullanan ekan, o‘zini shaxs sifatida namoyon qiladi, o‘zining atrof-muhitga, odamlarga, o‘z ishiga va o‘z-o‘ziga munosabatini ifodalaydi. Ba’zan ana shu munosabatning ko‘rinishlari odatdan tashqari, tasodifiy xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, maktab o‘quvchisi o‘z o‘rtoqlari uchun kutilmaganda arzimagan narsadan jahli chiqib ketadi. O‘rtoqlari uning bu xulqidan taajjublanadilar, chunki odatda bu bola yuvosh, xushmuomala edi. Uning uchun qo‘pollik tipik hodisa emas edi. Boshqa bir o‘quvchi ko‘pincha atrofdagilar bilan keskin va qo‘pol muomalada bo‘ladi. Bu narsa uning uchun tipik barqaror, bir necha marta takrorlangan xususiyat bo‘lib, bu uni shaxs sifatida xarakterlab beradi. Shuning uchun ham mazkur xususiyatni uning xarakteriga xos xususiyatlardan biri deb hisoblash mumkin.

Jamiyat a‘zosi, kishining voqelikka munosabatida vujudga keladigan va uning xulq-atvori hamda harakatlarida ta’sir qoldiradigan muhim, barqaror psixik xususiyatlarning majmui **xarakter** (yunon. charaktir – belgi, nishon, xislat) deyiladi.

Ba’zan «xarakter» degan so‘z bilan iroda kuchini, qat’iylikni yoki boshqa kishilar bilan muomalaga qilgandagi keskinlikni ifodalaydilar, «xarakterli kishi» deydilar. Aksincha irodasi zaif kishini «xaraktersiz kishi» deb ataydilar. Ilmiy nuqtayi nazardan qarganda, bu ta’riflar noto‘g‘ridir, chunki «xaraktersiz» kishida ham xarakter bor.

Xarakter hamisha shaxsning o‘ziga xos sifatlarini (nisbatan juda oz mustasnolar bilan) belgilab beradi. Shuning uchun ham xarakter kishining biror hayotiy vaziyatda o‘zini qanday tutishini oldindan ko‘rish imkonini beradi. Xarakterdagи ko‘p narsa kishining dunyoqarashiga, uning e’tiqodiga va ideallariga, ijtimoiy ahvoliga, atrofdagi muhitning ta’siriga bog‘liq bo‘ladi. Turli ijtimoiy guruhlarga mansub kishilarning xarakterlaridagi farqlarning sababi ana shundadir.

Xarakter shaxsning **individual** xususiyatidir. Xarakterlari mutlaqo bir xil ikki kishini topib bo‘lmaydi, lekin ayrim kishilarning

xarakteridagi ko‘p narsalar bir guruh kishilar uchun yoki hatto butun jamiyat uchun tipik bo‘lishi mumkin. Ma’lumki xarakter to‘g‘risida faqat yetakchi, asosiy xususiyatlarga qarab fikr yuritish mumkinligi, bu xususiyatlar muayyan shaxsning kim ekanligini hamma narsadan ko‘ra ko‘proq belgilab beradi. Shuning uchun ham yozuvchilar o‘z qahramonlarini ta’riflar ekanlar, ularning asosiy, tipik xususiyatlarini ko‘rsatishga intiladilar. Kishi faoliyatida qanday psixik jarayonlar ustun turishiga qarab xarakter xususiyatlarini intellektual, emotsiyonal va iroda xususiyatlariga ajratish mumkin.

### *Xarakterning fiziologik asoslari*

Ma’lumki nerv sistemasining tipi oliy nerv faoliyatining tug‘ma xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Biroq kishining fiziologik tabiatni doimiy bo‘lib qolmaydi. I.P. Pavlov nerv sistemasining tipi (temperament) va xarakterning bir-biriga munosabati haqida gapirib bunday deb yozgan edi: «Tip hayvon nerv faoliyatining, tug‘ma organizmning konstitutsiyaga bog‘liq turi genotikdir, lekin hayvon tug‘ilgan kunidan boshlab atrofdagi sharoitning xilma-xil ta’siriga uchrashi, shu ta’sirlarga faoliyat bilan, ko‘pincha butun umr mustahkam bo‘lib qoladigan faoliyat bilan, muqarrar suratda javob berishi lozimligi sababli hayvonning mavjud nerv faoliyatini tipining xususiyatlari va tashqi muhit taqozo qilgan o‘zgarishlar qorishmasidan, fenotipdan, xarakterdan iboratdir».

Garchi I.P. Pavlov hayvonlar to‘grisida gapirgan bo‘lsa ham, muhitning bu xil ta’sirlarini odam ham his qiladi. Shuni esda tutish kerak-ki kishi nerv faoliyatining shakllanishiga faqat I signal sistemasigina emas, balki II signal sistemasi ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

Shunday qilib, garchi nerv sistemasining tug‘ma tipi temperament xarakterning asosi bo‘lsa ham biroq uni muvaqqat nerv aloqalariga va ularning murakkab sistemalariga xos xususiyatlar belgilab beradiki, ularga inson o‘z hayoti va faoliyati jarayonida ega bo‘ladi. Tuyg‘ularning paydo bo‘lishi, psixik jarayonlar hamda harakatlarning o‘tish tezligi asosan temperamentga bog‘liq bo‘lib bu albatta kishining xarakterida aks etadi. Oqibat nati-jada tug‘ma sifatlar emas, balki ijtimoiy sharoit, ya’ni muhitning

ta'siri, kishining u yoki bu xarakteriga ega bo'lishining asosiy sababi hisoblanadi.

### *Xarakterda munosabatning ifodalananishi*

Kishining atrofdagi voqelikka munosabati nuqtayi nazaridan xarakter xususiyatlarini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1. Shaxsning jamoadagi boshqa kishilarga munosabatini ifodalovchi xususiyatlar: mehribonlik, saxiylik, samimiylik, hurmat-ehtirom, talabchanlik kabilar. Pismiqlik, takabburlik, beparvolik, toshbag'irlik, ichidan pishganlik, dag'allik kishilarga nafrat bilan qarash kabi qarama-qarshi xususiyatlar bo'ladi.

2. Shaxsning mehnatga, o'z ishiga munosabatini ifodalovchi xususiyatlar: mehnatsevarlik, dangasalik, vijdonlilik, mas'uliyatlik va aksi.

3. Kishining narsalarga munosabatini xarakterlovchi xususiyatlar: ozodalik, tejamkorlik, sarishtalik va aksi.

4. Shaxsning o'z-o'ziga munosabatini aks ettiruvchi xususiyatlar: o'z qadr-qimmatini bilish tuyg'usi, kamtarlik, mag'rurlik, uyatchanlik, jizzakilik, xudbinlik, egotsentrizm (o'z-o'zini hamisha o'z diqqat markazida tutish) va h.k.

**Xarakter xususiyatlari.** Shaxsning **ijobiy** va **salbiy** xususiyatlari farqlanadi. Xarakter xususiyatlari baho berganda ulardan har birining axloqiy mazmunini hisobga olish kerak. Masalan, mehnatsevarlik xarakterning ijobiy xususiyatidir, lekin agar u xudbinlik maqsadlarga, chunonchi, shaxsning boshqalar hisobiga boyishiga xizmat qilsa, bu shaxsning salbiy xususiyati bo'ladi. O'z vatani uchun faxrlanish yaxshi xususiyatdir, lekin kishi o'z-o'zidan haddan tashqari mag'rurlansa, manmanligi bilan ajralib tursa bunday faxrlanish xarakterning salbiy xususiyatidir.

Xarakterning ijobiy xususiyatlari orasida **axloqiy** xususiyatlar muhim o'rin egallaydi. Axloqiy xususiyatlar axloqiy tuyg'ularga asoslangan bo'lib, kishining jamiyat talablariga javob beradigan ma'naviy xulq-atvorini belgilab beradi. Odamdag'i xarakter xususiyatlari uning o'zi uchun ham, atrofdagi kishilar uchun ham juda katta ahamiyatga ga. Biror kishi haqida: «Uning yaramas xarakteri bor» deganlarida, odatda bunday kishidan o'zlarini olib qochadilar, uning do'stlari bo'lmaydi, oilada ko'pincha u bilan birgalikda

hayot kechirish mumkin bo‘lmay qoladi. Ijobiy xarakter xususiyatlari ega kishi esa odatda atrofdagi kishilarning, do‘stlarining mehri va izzatiga sazovor bo‘ladi. Ayrim kishilar xarakterni yaxshi tomonga o‘zgartirib bo‘lmaydi deb hisoblaydilar. Salbiy xususiyatlarga ega kishi ba’zan o‘zi haqida; «Xarakterim shunday bo‘lgandan keyin nima qilishim kerak? O‘z xarakterimdan o‘zim ham rozi emasman, lekin hech narsa qilolmayman», – deydi. Bu noto‘g‘ri. Darhaqiqat, o‘z xarakterini o‘zgartirish, salbiy xususiyatlardan xalos bo‘lish va o‘zida ijobiy xususiyatlarni tarbiyalash murrakkab vazifa bo‘lsa ham, lekin amalga oshirib bo‘ladigan vazifadir. Buning uchun avvalo o‘z ustida ishlashni, xarakterni tarbiyalash va qayta tarbiyalash ustida ishlashni qat‘iy va keskin maqsad qilib qo‘yish kerak, ortiqcha manmanlikdan qutulish, o‘z kamchiliklarini aniq ko‘rish uchun o‘ziga tanqidiy jihatdan qarashga, xulqiga jiddiy munosabatda bo‘lishga harakat qilishi kerak.

**Xarakterni tarbiyalash.** O‘z xatolarini sezmaydigan yoki sezishni istamaydigan kishi hech mahal o‘z ustida muvaffaqiyatli ish olib bora olmaydi. Ko‘pincha kishining o‘zi o‘z sifatlariga xolis baho berishi qiyin bo‘ladi. Shuning uchun ham boshqalarning fikriga quloq solish, to‘g‘ri tanqiddan xafa bo‘lmaslik, ko‘p narsaning chetdan yaxshiroq ko‘rinishini esda tutish lozim. Boshqalarda mavjud salbiy sifatlarni sezgach, hamisha o‘zingga ham qarashing, o‘zingda shunday kamchiliklar bor-yo‘qligini bilishing kerak. Ba’zan bu sifatlarni boshqalarda ko‘rganingda esa, ular kamchiliklar ekanligi, ulardan qutulish lozimligi aniq bo‘ladi.

O‘z ustida muvaffaqiyatli ish olib borishning asosiy shartlaridan biri yaxshi tomonga o‘zgarishga ahd qilishdangina iborat bo‘lmasdan, balki ana shu maqsadni amalga oshirishga qaratilgan konkret ishlarni ham bajarishdir. O‘zida zarur xulq-atvorni tarbiyalash uchun ko‘p marta mashq qilish zarur, toki ana shu takrorlashlar natijasida miya po‘stlog‘idagi tegishli bog‘lanishlar mustahkamlansin va kishi hamisha lozim harakatlarni qilish ehtiyojiga ega bo‘lsin.

Xarakter ko‘p jihatdan o‘z-o‘zini tarbiyalash natijasidir. Xarakterda kishining odatlari jamlanadi. Xarakter xususiyatlari o‘zgaruvchan bo‘lishiga qaramay, har bir shaxs va millatning o‘ziga xosligini ifodalovchi shunday barqaror sifatlar ham bo‘ladiki, ular

yillar, hatto asrlarga ham dosh beradi. Masalan, bu milliy xarakterga taalluqlidir. O'zbeklar xarakterida asrlar davomida saqlanib kelayotgan samimiylilik, mehmonnavozlik, ibo, sharm-hayo, takal-luf, mehnatsevarlik kabi sifatlar avloddan avlodga o'tib, ma'naviy qadriyatlarga aylanib qolgan, o'zbekning o'zligini namoyon qiluvchi barqaror xususiyatlardir. Xarakter odamlar faoliyatida namoyon bo'ladi, ammo shu faoliyatida shakllanadi. Shaxsning irodaviy sifatlarini tarbiyalashda intizom, kun tartibiga rioya qilish katta ahamiyatga egadir.

O'z-o'zini tarbiyalash o'spirinlik yoshida ayniqsa samara-li bo'lishini ta'kidlab o'tish zarur. Xuddi ana shu vaqtida kishida o'zini anglash rivojlanadi. Yigit va qiz hayotdan ko'zlagan maqsad-lari to'g'risida bosh qotiradilar, o'zlariga va boshqalarga tanqidiy tomondan yondasha oladilar, ularda o'z ustilarida ishslash, jamiyat uchun foydali kishilar bo'lib yetishish istagi tug'iladi.

Lekin bu narsa kishi katta bo'lgach, o'zini yaxshi tomonga qarab o'zgartira olmaydi, degan gap emas. Kishi o'zining odat bo'lib qolgan xatti-harakatlari, ishlari bilan o'z xarakterini butun hayoti davomida tarkib toptirib boradi.

### **Nazorat savollari:**

1. Xarakter deb nimaga aytiladi?
2. Xarakterning fiziologik asoslari nimalardan iborat?
3. Kishi munosabatlari xarakterda qanday ifodalanadi?
4. Xarakter xususiyatlarini farqlab bering.
5. O'z-o'zini tarbiyalash to'g'risida so'zlab bering.



### **Karl Gustav Yungning xarakter tipini aniqlash metodikasi**

Berilgan savollarga javob variantlari dan birini tanlash kerak:

- 1. Qaysi biri siz uchun muhimroq?**
  - a) kichikkina do'stlar davrasi;
  - b) ko'pgina o'rtoqlar davrasi.
- 2. Qanday kitoblar sizga ko'proq yoqadi?**
  - a) qiziqarli, sujetli;

b) odamlarning ruhiy kechinmalari aks ettirilgan.

**3. Ishda nimaga yo'l qo'yishingiz mumkin?**

a) kechikish;

b) xatoliklar.

**4. Agar yomon ish qilib qo'ysangiz...**

a) juda qayg'urasiz;

b) unchalik gayg'urmaysiz.

**5. Odamlar bilan qanday chiqishasiz?**

a) juda tez va oson;

b) sekin ehtiyyokorlik bilan.

**6. O'zingizni arazkash deb hisoblaysizmi?**

a) ha;

b) yo'q.

**7. Chin dildan kulishga moyilmisiz?**

a) ha;

b) yo'q.

**8. Siz qandaysiz?**

a) kamgap;

b) sergap.

**9. Siz ochiqmisiz yoki hislaringizni birovlardan yashirasizmi?**

a) ochiqman;

b) yashiraman.

**10. O'z his-kechinmalariningizni tahlil qilishni yoqtirasizmi?**

a) ha;

b) yo'q.

**11. Ko'pchilik davrasida siz...**

a) tinmay gapirasiz;

b) boshqalarni tinglaysiz.

**12. Tez-tez o'zingizdan norozi bo'lasizmi?**

a) ha;

b) yo'q.

**13. Biror nimalarani tashkil qilishni yoqtirasizmi?**

a) ha;

b) yo'q.

**14. Sirlaringiz yozilgan kundalik tutishni xohlaysizmi?**

a) ha;

b) yo'q.

**15. Biror narsaga qaror qilsangiz uni bajarishga tez o'tasizmi?**

- a) ha;
- b) yo'q.

**16. Kayfiyatningizni tez o'zgartira olasizmi?**

- a) ha;
- b) yo'q.

**17. O'zgalarni ishontirib, ularga o'z fikringizni o'tkazishni yaxshi ko'rasizmi?**

- a) ha;
- b) yo'q.

**18. Sizning harakatlaringiz...**

- a) tez;
- b) sekin.

**19. Siz bo'lishi mumkin bo'lgan noxush hodisalardan tashvishlanasizmi?**

- a) tez-tez;
- b) ba'zan.

**20. Qiyin holatlarda siz...**

- a) yordam so'rashga shoshilasiz;
- b) hech kimga murojaat qilmaysiz.

Endi javoblariningizni hisoblab chiqing.

**Metodikaning kaliti:**

1–b, 2–a, 3–b, 5–a, 6–b, 7–a, 8–b, 9–a, 10–b, 11–a, 12–b, 13–a, 14–b, 15–a, 16–a, 17–a, 18–a, 19–b, 20–a.

Mos kelgan javoblar sonini 5 ga ko'paytiring. 0–35 ballar – intoversiya, 36–65 ballar – ambiversiya, 66–100 ballar – ekstroversiya.

**Introvert tip** – uning uchun odamovilik, muomalada va atrofdagilar bilan aloqa o'rnatishda qiynalish, o'zi bilan o'zi bo'lib qolish xos; **ekstrovert tip** – bunga his-hayajonga tamomila berilganlik, ba'zan muomala va faoliyatning zarurligi va qimmatidan qat'i nazar unga intilish, ko'p gapirish, qiziqishlarning doimiy emasligi, ba'zan maqtanchoqlik, yuzakichilik, konformllilik xos; **ambivert tip** obyektning o'ziga nisbatan bir vaqtning o'zida paydo bo'ladigan qarama-qarshi holat, masalan, sevgi va nafrat.

### **5.3. Qobiliyatlar. Qobiliyat haqida umumiy tushuncha**

Pedagog bolalarni kuzatib ulardan ba'zilari qobiliyatli, boshqalari kamroq qobiliyatli bo'ladi deb hisoblar ekan, bu gapda jon bor. Shunday bo'ladiki ba'zi bolalar ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib she'r va ertaklarni, sahnalashtirilgan rollarini tez va oson yodlab oladilar.

Qobiliyatlar deb, shunday psixik sifatlarga aytiladiki, kishi ular yordamida bilim, ko'nikma va malakalarni nisbatan osonlik bilan egallab oladi va biror faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanadi. Qobiliyatlar faqat faoliyatda namoyon bo'ladi. Idrok etish paytida, masalan, ranglarning tovlanishdagi nozik farqlari, predmetlarning aniq ko'rinishi, proporsional nisbatlarni tushunish, kuzatuvchanlik, absolut eshitish (musiqa bilan shug'ullanishida) va boshqalarda namoyon bo'ladi. Ayrim qobiliyatlar xotirani yaxshi ishlashi bilan bog'liqidir. Qobiliyatlar bilim, malaka va ko'nikmalardangina iborat emas, garchi ular asosida paydo bo'lib rivojlanib borsada. Shuning uchun o'quvchilarning qobiliyatlarini aniqlashda bolaning biror narsani sust bilishi, unda qobiliyatning yo'qligidan deb hisoblamasdan, juda ehtiyot bo'lish va xushmuomalalik bilan ish ko'rishi kerak. Bunday xatolar ba'zan biror sabab bilan mактабда yaxshi o'qимаган bo'lajak yirik olimlarga nisbatan ham yo'l qo'yilgan. Bolalik davrida u yoki bu qobiliyatlarning atrof-muhitdagi odamlar tomonidan tan olinmaganligi, keyinchalik xuddi ana shu qobiliyatlari tufayli jahonda munosib shon-shuhrat qozonishga musharraf bo'lgan juda ko'p allomalarining nomi olamda mashhur, chunonchi, Albert Eynshteyn (nisbiylik nazariyasi asoschisi), Nikolay Lobachevskiy (yangi geometriya yo'nalishi asoschisi) va boshqalar o'qishiga qaraganda genial olim bo'lib voyaga yetishishida hech qanday asos yo'q edi.

Har turli qobiliyatlarning konkret psixologik xarakteristikasini o'rganar ekanmiz, bu qobiliatlarda birgina emas, balki juda ko'p turdag'i faoliyat talablariga javob beradigan umumiyoq fazilatlarni va bundan tashqari ushbu faoliyatni birmuncha torroq doiralari talablariga javob beradigan maxsus fazilatlarni ajratishimiz mumkin.

### *Layoqat va uning turlari*

Ba'zan o'ta iqtidorli va qobiliyatli bola haqida gap ketsa, undagi bu sifat tug'ma ekanligiga ishora qilinadi. Psixologiyada tug'ma alomatlari bor bo'lgan individual sifatlar layoqat deb yuritiladi. Layoqat ikki xil bo 'ladi, ular tabiiy layoqat va ijtimoiy layoqat. Tabiiy layoqat odamdagи tug'ma xususiyatlardan oliv nerv tizimi faoliyatining xususiyatlari miyaning yarimsharlaring qanday ishlashi, qo'l-oyoglarning biologik va fiziologik sifatlari, bilish jarayonlarni ta'minlovchi sezgi organlari – ko'z, qulqoq, burun, teri kabilarning xususiyatlaridan kelib chiqsa (bular nasliy ota-onadan genetik tarzda o'tadi), ijtimoiy layoqat bola tug'ilishi bilan uni o'rab turgan muhit, muloqot usullari, so'zlashish madaniyati, qobiliyatni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlardir. Bola bu ikkala layoqat muhitini ota-onadan tayyoricha qabul qiladi. Tabiiy anatomiq-fiziologik layoqat nishonalar qobiliyatlarning fiziologik asosini tashkil etadi. Keyinchalik qobiliyatga aylanadigan layoqat nishonalarining majmui kishining iste'dodi deyiladi. Layoqatsizlik, intellektning pastligi sabablardan biri ham, ana shu yuqorida ko'rsatilgan ikki layoqat o'rtasida tafovut bo'lishi mumkin. Ilk yoshdayoq bolaning o'zidagi mavjud imkoniyatlarini rivojlantirish, shart-sharoitlar yaratish ishini to'g'ri yo'lda qo'yish kerak.





Bolalar bilan individual ishslash.

Bola bilim, malaka, ko'nikmalarни o'stirish borasida harakat qilmasa eng kuchli tug'ma layoqat ham layoqatligicha qolib, iqtidorga aylanmaydi. Eng talantli, mashhur shaxslarning eng buyuk ishlari, erishilgan ulkan muvaffaqiyatlarning tagida ham layoqat va asosan tinimsiz mehnat, intilish, ijodkorlik va bilimga chanqoqlik yotadi. Shuni ham unutmaslik kerakki qobiliyatsiz odam bo'lmaydi. Agar shaxs aldanib o'zidagi iqtidor yoki layoqatni bilmay, kasb tanlagan bo'lsa, u atrofdagilarga layoqatsiz, qobiliyatsiz ko'rindi. Lekin aslida nimaga uning qobiliyati borligini o'zi vaqtida to'g'ri anglay olmagani sabab bo'lib, u bir umr shu toifaga kirib qoladi.

Qulay sharoitlar mavjud bo'lganda ayrim kishilarda qobiliyatlар juda erta rivojlanadi. Odatda musiqa va tasviriy san'atga layoqat ancha ertaroq paydo bo'ladi. Masalan, M.I. Glinka 3–4 yoshidayoq shunday o'yinni yoqtirgan. U ovoz chiqaradigan turli buyumlarini (mis tog'ora, kastrulka) yog'och bilan chalgan. Bunda kattalarni hayron qoldirgan darajada ohangdosh tovushlar paydo bo'lganki, ularni eshitish maroqli edi. Keyinchalik bu bola buyuk kompozitor bo'lib yetishdi. Kishilarda musiqa va tasviriy san'atga layoqatdan

birmuncha keyinroq adabiy qobiliyatlar paydo bo‘ladi, lekin ayrim talantli shoirlarda bu qobiliyatlar juda erta paydo bo‘ladi. Masalan, A. Navoiy besh yoshiga, A.S. Pushkin, Lermontov va Nekrasov hali 10 yoshga to‘lmasdanoq she’r yoza boshlagan.

### *Qobiliyat turlari*

Qobiliyatlar umumiy va maxsus bo‘ladi. Umumiy qobiliyatlar mavjud bo‘lganda kishi faoliyatining turli xillari bilan muvaffaqiyatli shug‘ullana oladi. Umumiy qobiliyatga ega o‘quvchilar odatta barcha fanlardan yaxshi va qiyalmay o‘qiydilar. Maxsus qobiliyatlar kishiga qandaydir bir muayyan faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug‘ullanish imkonini beradi. Masalan matematik, texnikaviy, adabiy, musiqaviy, tasviriy va boshqa qobiliyatlar bo‘ladi.

Har bir ongli inson qobiliyati va zehni ustida ilk yoshlikdan boshlab, «yuragi chopgan» ish bilan shug‘ulansa va undan qoniqish olib qobiliyatini o‘stirishga imkoniyat topib, yutuqlarga erishsa, biz uni iqtidorli deymiz. **Iqtidor** insonning o‘z xatti-harakati, bilimlari, imkoniyatlari, malakalariga nisbatan subyektiv munosabatidir. Iqtidorli odam genial yoki talantli bo‘lmasligi mumkun, lekin u har qanday ishda mardlik, chidamlilik o‘z-o‘zini boshqara olish, tashabbuskorlik kabi fazilatlarga ega bo‘lib, ishni sidqidildan bajaradi. Ular ana shunday harakatlari bilan ba’zan o‘ta iste’dodli, lekin kam harakat kishilardan ko‘ra jamiyatga ko‘proq foyda keltiradilar. Iqtidorli insonda iste’dod sohibi bo‘lish imkoniyati bor. **Iste’dod** har tomonlama rivojlangan, ni-hoyatda kuchli va takrorlanmas qobiliyatdir. U tinimsiz mehnat, o‘z qobiliyatini takomillashtirib borish yo‘lida barcha qiyinchiliklarni yengish, irodasi va butun imkoniyatlarini safarbar qilish natijasida qo‘lga kiritiladi. **Iste’dod** kishiga qandaydir murakkab mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli, mustaqil va original tarzda bajarilishi imkonini beradigan qobiliyatlar majmuasidir.

Biror faoliyatning, ayniqsa muvaffaqiyatli, mustaqil va original tarzda bajarilishini taqozo qiladigan zo‘r qobiliyatlar birikmasi **talant** deyiladi. Ijodiy faoliyatga qobiliyatli kishilarni talantli kishilar jumlasiga kiritish mumkin. Bunday kishilar ijtimoiy munosabatlar sohasida o‘z davrining progressiv g‘oyalarini juda muvaffaqiyatli ravishda amalga oshiradilar, adabiyot va san’at so-

hasida hozirgi zamonning ilg‘or tafakkuri darajasidagi mukammal asarlarni yaratadilar, fan va texnika sohasida ular murakkab nazariy va amaliy vazifalarni yaxshi hal etadilar.

Talantlilikning yuqori bosqichi **daholik** deb ataladi. Ijtimoiy hayotda fan, adabiyot, san’at va shu kabi sohalarda prinsipial ravishda yangi biror narsa yaratgan kishilar **daholar** (geniy) deb hisoblanadilar. Genial kishilar ijodining mahsuli faoliyatning biror sohasini rivojlantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Genial kishilar insoniyat taraqqiyotida yo‘l ko‘rsatuvchi bosqichlar bo‘lib xizmat qiladilar, tarixiy shaxsga aylanadilar.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da iqtidorli bolalar va o‘quvchi yoshlarni qo‘llab quvvatlash bo‘yicha davlat ishlari so-bitqadamlilik bilan olib borilmoqda. Iste’dodli o‘smir va o‘spirin yoshlarni izlab topish, ularga ko‘maklashish, ularning qobiliyatini va iste’dodini o‘stirish bo‘yicha fondlar tashkil etildi. Qobiliyatli yoshlarni chet ellardagi yetakchi o‘quv yurtlari va ilmiy markazlarda o‘qitish va stajirovka o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi. Bolalarning oilada tarbiyalashni tashkiliy psixologik-pedagogik uslubiy jihatdan ta’minalash, o‘quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi, sohalashtirish, tabaqlashtirish, kasbga yo‘naltirilgan ta’lim olishni ta’minalaydi.

### **Nazorat savollari:**

1. Qobiliyat deb nimaga aytildi? Ular nimada namoyon bo‘ladi?
2. Layoqat nima?
3. Qobiliyatlarning qanday turlari bor?
4. Iste’dod va iqtidor haqida tushuncha bering, farqi nimada?
5. Layoqatning rivojlanishi uchun ta’lim tizimida qanday ishlar olib borilmoqda?

## **VI bob. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASI**

### **6.1. Bolalar psixologiyasining umumiy masalalari**

Bolalar psixologiyasi muhim fanlardan biri bo‘lib, u XIX asrning ikkinchi yarmida umumiy psixologiyadan mustaqil fan sifatida ajralib chiqqan. Bolalar psixologiyasi bolalarni o‘rganuvchi fandir. Biroq bolalarni faqat bolalar psixologiyasi emas, balki boshqa fanlar ham o‘rganadi. Bolalar psixologiyasi bolalarni maxsus tarzda psixologik jihatdan o‘rganadi.

*Bolalar psixologiyasi – bolaning tug‘ilgan vaqtidan boshlab to maktab yoshiga yetgunga qadar psixik jihatdan taraqqiy etish qonuniyatlarini va shaxsiy psixologik xususiyatlarining tarkib topishini o‘rganadigan fan.* Bola odam sifatida tashqi jihatdan katta yoshli odamlarga o‘xshasa ham o‘zining psixik jarayonlari va shaxsiy psixologik xususiyatlarining mazmuni jihatidan katta yoshli odamlardan keskin farq qiladi. Bolalarda hali turmush tajribasi deyarli yo‘qligi sababli ularning sezgi va idroklari, tafakkur va xayollari, hissiyot va irodalari katta yoshli odamlardagidek bo‘lmaydi. Bolalar psixologiyasi har bir taraqqiyot bosqichidagi (ya’ni go‘daklik, ilk yosh va maktabgacha yoshdagi) psixik jarayonlarning rivojlanib borishini o‘rganadi.

**Bolalar psixologiyasi predmetining muhim tomonlaridan** biri turli yoshdagi bolalarga sezish, idrok, diqqat, xotira, nutq, tafakkur, xayol, hissiyot va iroda kabi psixik jarayonlari va holatlarining namoyon bo‘lishi, taraqqiy etishi hamda takomillashuvining qonuniyatlarini o‘rganishdan iboratdir. Bolalar psixologiyasi bola shaxsiy psixologik xususiyatlarining tarkib topishi va bolalar shaxsining tarkib topishiga faol ta’sir qiluvchi omillarni chuqur analiz qiladi.

Ma’lumki, bola shaxsi va uning shaxsiy psixologik xususiyatlari qandaydir tasodifiy omillarning tartibsiz ta’sir etishi natijasida emas, balki muayyan konkret omillarning qonuniy ta’sir etishi natijasida tarkib topadi. Ana shu muhim qonuniy tarzda ta’sir qiladigan omillarni ochish va isbotlash bilan bolalar psixologiyasi shug‘ullanadi. Bolalar psixologiyasi bolalar shaxsi va shax-

siy psixologik xususiyatlarining tarkib topishi kabi muhim ilmiy tushuncha va natijalarni o'rganib, har tomonlama rivojlanishga yo'naltirilgan barkamol shaxsni tarbiyalab yetishtirish qonuniyatlarini ochib beradi.

Bolalar psixologiyasi o'zining murakkab predmetini tatbiq qilishda psixik taraqqiyotning asosiy qonuniyatlariga asoslana-di hamda bola ongining ijtimoiy-hissiy, psixofiziologik jihatdan hayotga bog'liqligini isbotlab beradi. Tabiat va jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlaridan xabardor bo'lish bolalar psixologiyasida, bolalar psixik taraqqiyotini o'rganishda va «tabiiy zot» bo'lib tug'ilgan bolaning inson ijtimoiy tajribasini egallab, shaxs bo'lib yetishishi davomida to'g'ri yo'l topishga yordam beradi.

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda xalq ta'limi tizi-mi faoliyatini me'yorlashtiruvchi «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, shuningdek, «O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risida» nizom kabi muhim davlat hujjatlari qabul qilindi.

«Ta'lim to'g'risida»gi qonunning 30-moddasi orqali farzandlar tarbiyasi va ta'lim olishlari, ularning qonuniy huquqlari va manfaatlari himoyasi borasida ota-onalarning o'rni va javobgarligi oshirildi. Shunga muvofiq so'nggi yillarda maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan «Davlat talablari», «Bolajon» tayanch dasturi, «Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim», «Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya» kabi hujjatlarga asos-lanish bola shaxsini shakllantirishning muhim omili hisoblana-di.

Bolani biror narsaga o'rgatishgina emas, unda o'z kuchiga ishonchni orttirish, o'z g'oyasini himoya qilish, mustaqil ravishda bir qarorga kelish hamda unda «Men» konsepsiyasini shakllanti-rish ham muhimdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan «Davlat talablari», O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, respublikada idoraviy bo'ysunish va mulkchilik shaklidan qat'i nazar maktabgacha ta'lim tizimi hamda oilalarda bolani to'laqonli tarbiyalash, ta'lim berish va rivoj-

lantirish, uni matabga samarali tayyorlashda qo'llanishi majburiy bo'lgan davlat hujjatidir.

Davlat talablari 0–7 yoshli bolaning qay darajada rivojlaniganligi va egallagan yutuqlarini baholab boruvchi talablar bo'lib, ular bilim, malaka va ko'nikmalar rivojlanishining ko'rsatkichlarini belgilaydi:

- jismoniy rivojlanish, o'z-o'ziga xizmat va gigiyena;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik;
- bilish jarayoni, atrof olam to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lish.

Mazkur 4 ta yo'nalish 0 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning o'z-o'ziga xizmat ko'nikmalarining shakllanishi, nutq, o'qish va savodga tayyorlash darajasini, atrof-olam haqidagi tu-shunchalarni va qo'yilgan talablarni egallashi uchun asosiy omil hisoblanadi.

U matabgacha ta'lim tizimining mohiyatini belgilaydi va matabgacha ta'lim muassasalarini mulkchilik shaklidan qat'i nazar, barcha bolalarning tengligi va bolalik qadriyatini saqlagan holda har bir bolaning individual rivojlanishini ta'minlashga yo'naltiradi.

### *Bolalar psixologiyasining fanlararo bog'liqligi*

Bolalar psixologiyasi o'z predmetini o'rganishda **umumiyligi** psixologiyaning inson psixikasi haqida qo'lga kiritilgan yutuqlariga asoslanadi. Masalan, umumiyligi psixologiyaning psixik jarayonlar, psixik holatlar, xususiyatlar, inson shaxsi va uning faoliyati haqidagi ta'limotlaridan to'g'ridan to'g'ri foydalanadi. O'z navbatida umumiyligi psixologiya ham bolalar psixologiyasining yutuqlariga asoslanadi. Umumiyligi psixologiya normal taraqqiy etgan katta yoshdagi odamlarning psixik jarayonlari va individual-psixologik xususiyatlarini o'rganar ekan, bu psixik jarayonlar va individual-psixologik xususiyatlarning paydo bo'lishini bilish kerak bo'ladi. Psixik jarayonlar va shaxsiy psixologik xususiyatlarning turli yoshdagi bolalarda paydo bo'lishi masalasi bilan yosh davrlari psixologiyasi shug'ullanadi. Demak, bolalar psixologiyasi bilan umumiyligi psixologiya, **yosh davrlari psixologiyasi** fani o'zaro uzviy bog'liq fandir.

Bolalar psixologiyasida **anatomiya va fiziologiya** fanlari tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlardan ham keng foydalanadi. Bunda bolalar psixologiyasi xususan bolalar nerv sistemasi va oliv nerv faoliyatining ma'lumotlaridan foydalanmay ish ko'ra olmaydi. Bolalar nerv sistemasining sog'lom rivojlanishi va me'yoriy ishlashi bola psixikasi rivojlanishining muhim shartlaridandir. Shuning uchun bolalar psixologiyasining mutaxassislari bola nerv sistemasining taraqqiyot masalalari bilan bevosita tanish bo'lishlari lozim.

Bolalar psixologiyasi pedagogika fani bilan ham yaqindan aloqadadir. **Pedagogika** fani yoshlarga ta'lim-tarbiya berish va ularni har tomonlama rivojlantirish haqidagi fandir. Bolalar psixologiyasi ta'lim-tarbiyaning maqsadi, yo'l-yo'riqlari va vazifalariga doir fikrlarni pedagogika fanidan oladi hamda unga yaqindan yordam beradi. Bolaning aqliy taraqqiyoti qonunlaridan xabardor bo'lish turli yoshdagi bolalar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini to'g'ri tashkil qilish imkoniyatini beradi.

Ta'lim-tarbiya berishga yo'naltirilgan **maxsus fanlar** bolalar psixologiyasi negizida ish ko'radi. Bolalarda hosil qilinishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va odatlarni shakllantirishda ularning psixik taraqqiyotini hisobga oladi va yondashadi. Bolalar psixologiyasi bolalar gigiyenasi, bolalardagi kasalliklarni o'rganuvchi **pediatriya va bolalar psixopatologiyasi** bilan ham bog'liqdir. Bu fanlar bolalar psixologiyasi namoyandalariga bolalar psixik taraqqiyotining normal borayotganini chiqurroq bilish va normal taraqqiyotdan burilish sabablarini aniqlash imkonini beradi. Bolalar psixologiyasi esa, o'z navbatida, bolalarning normal psixik taraqqiyotini aniqlab berishi bilan birga shifokolarning bola psixologiyasini yanada yaxshiroq tushunib olishlariiga yordam beradi. Psixik taraqqiyotdan kechikayotgan va rivojlanishida nuqsoni bor bo'lgan bolalar psixikasini **maxsus psixologiya** fani o'rganadi. **Logopediya** nutq faoliyati buzilishining sabablari, mexanizmlari, belgilari, yo'nalishlarini o'rganadi. **Defektologiya** fani ko'rinishida, eshitishida nuqsoni bo'lgan, psixik rivojlanishi orqada qolgan, aqli zaif, nutq nuqsoniga ega bo'lgan, tayanch apparatida nuqsoni bor bolalar, serebral falaj (markaziy nerv sistemasining shikastlanishi), autizm sindromiga chalingan bolalarni o'rganadi va korreksion ishlar olib boradi.

Bolalar psixologiyasi bola shaxsi va shaxsiy psixologik xususiyatlarining tarkib topishini o'rganishda **bolalar adabiyotidan**, xususan, avtobiografik asarlardan keng foydalanadi. Har bir bola ertak eshitib ulg'ayadi. Xalq og'zaki ijodi, ertaklar, hikoyalar, afsonalar, matallar, masallar va boshqa janrlar bolani o'zining sehrli olamiga yetaklaydi. Bola unda katta hayotni ko'radi, olam bilan tanishadi, jonli va jonsiz dunyoni ko'radi. Ertaklar bolallarda ijobiy xulq-atvorni mustahkamlaydi, kelajak hayotga hozirlaydi.

Shunday qilib, bolalar psixologiyasi bolalarning murakkab psixik jarayonlari va shaxsiy psixologik xususiyatlarini o'rganishda bir qator fanlarning qo'lga kiritgan yutuqlaridan foydalanadi hamda bu fanlarga ham o'z predmetlarini chuqurroq o'rganishlarida yaqindan yordam beradi.

### **Nazorat savollari:**

1. Bolalar psixologiyasi nimani o'rganadi?
2. Bolalar psixologiyasi qaysi fanlar bilan bog'langan?
3. Bolalar psixologiyasining predmeti nimani o'rganadi?
4. Bolalar psixologiyasining anatomiya va fiziologiya fanlari bilan bog'liqligini aytib bering.
5. Pedagogika fani bilan aloqasi nimada ko'rindi?
6. Pediatriya va bolalar psixopatologiyasi, maxsus psixologiya, logopediya, defektologiya fani bilan bog'liqligini aytib bering.

## **6.2. Psixik taraqqiyotning asosiy qonuniyatları.**

### **Bola psixik taraqqiyoti haqida tushuncha**

Bola psixikasining taraqqiyoti haqida gapirishdan oldin taraqqiyotning tub mohiyatini tushunib olish kerak. Rivojlanish haqida fikr yuritilganda odatda «o'sish» va «taraqqiy etish» so'zlaridan foydalaniladi. Masalan, bolaning jismoniy jihatdan o'sishi va psixik jihatdan taraqqiy etishi degan tushunchalar qo'llaniladi. O'sish bilan taraqqiyot tushunchalari aynan bir ma'noni anglatuvchi tushunchalar emas. O'sish deganda miqdoriy jihatdan ortish, ulg'ayish tushuniladi. Taraqqiyot deganda esa, faqat miqdoriy jihatdangina emas, balki sifat jihatidan ham o'zgarish tushuniladi. Shuning uchun o'sish jarayoniga qaraganda taraqqiyot jarayoni

ancha murakkab jarayondir. Taraqqiyot oddiy miqdoriy ortishdan tashqari bir shakldan ikkinchi shaklga o‘tish bilan ham bog‘liqdir. Ana shuning uchun taraqqiyotning tub mohiyatidan yaxshi xabardor bo‘lish kerak, aks holda bu murakkab jarayonni tushunish qiyin bo‘ladi.

Bolaning psixik taraqqiyoti qarama-qarshiliklar kurashi asosida yuz beradi. Bu o‘rinda qanday qarama-qarshiliklar bolaning psixik jihatdan taraqqiy etishiga sabab bo‘ladi, degan savol tug‘iladi. Bolaning psixik taraqqiyotini yuzaga keltiruvchi qarama-qarshiliklar asosan quyidagilardan iborat:

1. Bolaning shu choqqacha erishgan **imkoniyatlari** darajasi **bilan yangi ehtiyojlari o‘rtasida tug‘iladigan qarama-qarshilik**. Ya‘ni, bolaning ehtiyojlari tez ortib boradi, lekin bu ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlari juda sekin yuzaga keladi. Natijada bolaning xilmoxil ehtiyojlari bilan tor imkoniyatlari o‘rtasida jiddiy ziddiyat yuzaga keladi. Bola ana shu ziddiyatni, ana shu qarama-qarshilikni hal etish jarayonida psixik jihatdan taraqqiy etadi. Masalan, ilk yoshdagi bolaning tili endi chiqayotgan bo‘ladi. Uning so‘z zaxirasini deyarli bo‘lmaydi. Bundan tashqari ular so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz eta olmaydilar. Shu sababli bu yoshdagи bolalarning tilini hamma ham bermalol tushuna olmaydi. Lekin bolaning mustaqil yuraolishi, o‘zgalarning nutqiga tushunishi unda boshqalar bilan faol munosabatda bo‘lish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Biroq, bolaning hozirgi taraqqiyot darajasi, imkoniyatlari, ya‘ni so‘z zaxirasining nihoyatda ozligi, talaffuzda qiynalishi atrofdagilar bilan faolroq munosabatda bo‘lish ehtiyojini qondira olmaydi. Bolaning faol munosabatga intilishi bilan imkoniyati yo‘qligi o‘rtasidagi qarama-qarshilik nutqni tez o‘zlashtirish jarayonida hal etiladi. Buning natijasida bola psixik jihatdan ma’lum taraqqiyotga erishadi. Bolaning imkoniyatlari ana shu tariqa oshib borgan sari ehtiyojlari yanada ko‘payib boraveradi.

2. Bolaning eski **xulq-atvor formalari bilan** yangi xatti-harakatlari, **yangi tashabbuslari o‘rtasidagi qarama-qarshilik**. Masalan, bolaning kichik davridagi asosiy faoliyati kattalarga taqlid qilishdan iborat bo‘ladi. Taqlidiy harakatlarda mustaqillik, tashabbuskorlik deyarli bo‘lmaydi. Bola o‘sib ulg‘aygan sari uning o‘z shaxsiy tajribasi, mustaqilligi, tashabbusi ortib boradi.

Bola mustaqil harakat, ya’ni har bir narsani o‘zi bilganicha qiliшга (tashabbus ko‘rsatishga) intila boshlaydi. Bunda bolaning ko‘pdan beri o‘rganib qolgan taqlidiy (bir qolipdagi) harakatlari bilan mustaqil va tashabbuskorona harakatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga keladi. Bu qarama-qarshilikni hal qilish jarayonida, ya’ni odatlanib qolgan taqlidiy harakatlarini yengib, mustaqil harakat formalariga o‘tish jarayonida bola psixik jihatdan taraqqiy etadi.

Quruq taqlid bilan bog‘liq bo‘lmagan mustaqil va erkin harakatlar bolalarga bir qator yangi malaka va odatlarni o‘zlashtirish hamda o‘z shaxsiy hayot tajribalarini kengaytirish imkonini beradi. Bolalar mustaqil tashabbus ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan harakatlarida ilgari o‘zlashtirgan turli bilimlarini yangi sharoitlarga tatbiq qilishga o‘rganadilar.

**3. Bola hayotining mazmuni bilan uning shakli** (muhiiti) **o‘rtasida** maydonga keladigan qarama-qarshilik. Odatda hayotning mazmuni uning shaklidan biroz oldinda boradi. Masalan, bola maktabgacha ta’lim muassasasiga qatnay boshlashidan oldin oiladagi hayot sharoitiga odatlangan bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim muassasasiga kelganidan keyin esa u o‘zi uchun tamomila yangicha bo‘lgan guruh hayotining talab va qoidalariga duch keladi. Bolalar guruhiга yangi kelgan bola darhol bu hayotga ko‘nika olmaydi. Bolaning oiladagi xulq-atvori, tuyg‘u va hissiyotlari maktabgacha ta’lim muassasasidagi guruh hayotiga to‘g‘ri kelmaydi. Natijada bolaning oiladagi hayot mazmuni bilan maktabgacha ta’lim muassasasidagi, yangicha hayot mazmuni o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga keladi. Bola yangicha hayot mazmunini o‘zlashtirish jarayonida bu qarama-qarshilikni yengib, psixik jihatdan yanada taraqqiy etadi va uning shaxsiy tajribasi ortadi.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, bolaning psixik taraqqiyoti juda murakkab jarayondir. Bolani psixik taraqqiyoti qanday shakllanishidan qat‘i nazar, u muayyan qonuniyatlariga bo‘ysunadi. Bu qonuniyatlarning o‘ziga xos xususiyatlari hayot sharoitiga, faoliyatiga va tarbiyaga bog‘liqdir.

### **Psixik taraqqiyot qonuniyatlariga:**

- notejislik qonuni;

- psixika integratsiyasi qonuni;
- plastiklik va kompensatsiya qonuni kirdi.

1. Psixik rivojlanishning **notekisligi** shundan iboratki, har qanday sharoitda, hatto ta’lim tarbiyaning eng qulay sharoitlarda ham shaxsning turli psixik belgilari, psixik funksiyalari va psixik xususiyatlari rivojlanishining bitta darajasida to’xtab turmaydi. Bolalarga bir xil tarbiya berilsa ham bolalar uni turlicha qabul qiladilar. Chunki, ularning o’ziga xos individual xususiyatlari mavjud, nerv tizimining xususiyatlari, tiplari turlicha, yashash sharoiti tarbiyaviy ta’sirlari turlicha bo’lgani uchun ham psixik taraqqiyot tezlashib yoki sekinlashib, ba’zan to’xtab yoki tutilib qolishi mumkin. Shu sababli psixik taraqqiyot notekis rivojlanishi mumkin deb e’tirof etiladi.

2. **Integratsiya qonuni** inson psixikasini o’z taraqqiyoti davomida tobora ko’proq yaxlitlik, birlik, mustaqillik va doimiylik xususiyatlarini kasb eta borishidir. Bunda yoshlikda hosil bo’lgan psixik xususiyatlar taraqqiyot davomida bora-bora kishining asosiy xususiyatiga, yoki xarakter xislatiga aylanadi va bu xislat shu kishining hayotida yaqqol ko’zga tashlanadigan bo’lib qoladi. Bu qonunga binoan psixik rivojlanish psixik holatlarning asta-sekin o’sib, shaxs xislatlariga aylanishidan iborat bo’lgan qonundir.

3. **Plastiklik va kompensatsiya imkoniyati qonuni.** Bu qonun asab tizimining plastiklik xususiyati bilan bog’liqidir. Yosh bola ijtimoiy munosabatlarga kirishar ekan u albatta ularni o’ziga o’zlashtiradi, taqlid qiladi. Natijada u aqliy tomondan shakllanadi. Ta’lim-tarbiya sharoitida bolani, maktab o’quvchisining psixikasini maqsadga muvofiq o’zlashtirishning boy imkoniyati asab tizimining ana shu plastikligiga asoslanadi. Plastiklik kompensatsiya (to’ldiruvchanlik, tovon, badal) uchun ham yo’l ochib beradi. Ba’zi psixik funksiyaning rivojlanishi zaif yoki nuqsonli bo’lsa, uning faoliyatini zo’r uyushganligi va aniqligi bilan kompensatsiya qilish mumkin; ko’rishdagi nuqsonlar qisman, eshitish analizatorining o’tkir darajada rivojlanishi bilan kompensatsiya qilinadi. Tarbiyachi va o’qituvchilar bolaga ta’lim-tarbiya berish jarayonida psixik taraqqiyotning qonunlariga amal qilishlari va bolaning taraqqiyot xususiyatlarini bilishlari maqsadga muvofiqdir.

## *Bola psixik taraqqiyotida biologik va ijtimoiy omillar*

Bolalar psixologiyasi fanining asosiy maqsadi bola psixik taraqqiyotini o'rganishdan iborat ekan, bu masalani hal qilishda, uni tushuntirib berishda turli xil qarashlarni o'rganish muhimdir.

Inson shaxsining tarkib topishini tushuntirishga intiluvchi biogenetik va sotsiogenetik oqim XIX asrning ikkinchi yarmida maydonga kelgan.

Bola psixik xususiyatlarining tug'ma tabiat haqidagi ta'lilot shu vaqtga qadar aksariyat psixologiya maktablarining asosini tashkil etib kelmoqda. **Biogenetik konsepsiya** inson psixikasining barcha umumiy va individual xususiyatlari tabiat tomonidan belgilangan, uning biologik tuzilishiga tenglashtirilgandir. Psixik rivojlanish esa nasliy yo'l bilan azaldan belgilanib, inson organizmiga joylashtirilgan shu xususiyatlarning maromiga yetilish jarayonidan iborat deb ta'kidlaydi. Ma'lumki, nasliy xususiyatlar tug'ma yo'l bilan nasldan naslga tayyor holda beriladi, biroq shunday bo'lishiga qaramay bu oqim namoyandalari inson shaxsi va uning barcha xususiyatlari «ichki qonunlar» asosida, ya'ni nasliy xususiyatlar negizida maydonga keladigan narsa, biologik omillarga bog'liqdir, deb ta'kidlaydilar.

Biogenetik ta'lilot, inson qobiliyatlarining rivojlanish darajasini taqdir tomonidan belgilanib qo'yilganligini, bola imkoniyatlari va qobiliyatlarini maxsus testlar yordamida aniqlab, undan so'ng ta'lim jarayonini uning irlisyat tomonidan belgilangan taraqqiyot darajasiga moslashtirish, ularning asliy iste'dod darajalariga qarab turli mavqedagi maktablarda tahsil olishi zarur deb ta'kidlanadi.

Amerikalik psixolog E. Torndayk bolalarning «tabiiy kuchlari» va «tug'ma mayllar»ini psixik rivojlanishning yetakchi omili qilib ko'rsatib, muhitning, ta'lim-tarbiyaning ta'siri ikkinchi darajalidir, deb aytadi.

Avstralaliyalik psixolog K. Byuler bolalarning faqat aqliy taraqqiyotigina emas, balki axloqiy rivojlanishi ham nasliy tomonidan belgilangandir, deb ta'kidlaydi.

Amerikalik pedagog va psixolog D. Dyui, inson tabiatini o'zgartirib bo'lmaydi, odam ehtiyojlari va psixik xususiyatlari bilan tug'iladi. Bu ehtiyojlar va psixik xususiyatlar tarbiya jara-

yonida namoyon bo'lib, ba'zida o'zgarishi tarbiyaning miqdorini belgilab beruvchi mezondir, deb hisoblaydi.

Inson shaxsining tarkib topishini o'rganish davomida yuzaga kelgan yana bir ta'limot – **sotsiogenetik konsepsiya** – qobiliyat-larning taraqqiyotini faqat tevarak-atrofdagi muhitning ta'siri bilan tushuntiradi. K. Gelvetsiyning ta'limotiga ko'ra, barcha odamlar aqliy va axloqiy rivojlanishi uchun tug'ilishidanoq mutlaqo bir xil tabiiy imkoniyatga ega bo'ladilar. Shuning uchun odamlarning psixik xususiyatlaridagi farq faqatgina muhit va tarbiyaning turlicha ta'sir qilishi bilan vujudga keladi, deb tushuntiriladi. Bu nazariyaning xorijiy mamlakatlardagi hozirgi turli namoyandalari psixikaning rivojlanishida ijtimoiy muhitning g'oyat dara-jada muhim roli borligini e'tirof etadilar.

Inson shaxsining tarkib topishini o'rganish davomida yuzaga kelgan sotsiogenetik konsepsiya fanda eksperimentlarning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Ma'lumki, XVII asrning oxiri va XVIII asrning boshlarida hammaning diqqat-e'tibori mo'jizakor tajribaga qaratilgan edi. Bu hodisa inson shaxsining tarkib topishi masalasiga ham ta'sir qilmay qolmaydi. Angliyalik olim Djon Lokk dunyoga kelgan yangi chaqaloq bolaning ruhini top-toza doskaga, taxtaga o'xshatadi. Uning fikricha, bolaning top-toza taxta tarzidagi ruhiga nimalarni yozish mutlaqo katta odamlar ixtiyoridadir. Shuning uchun bolaning qanday odam bo'lib yetishishi, ya'ni unda qanday shaxsiy fazilatlarning tarkib topishi bola hayotdan oladigan tajribaga, o'zgalar bilan muloqot jarayonida oladigan hayotiy tushuncha va tasavvurlariga bog'liqdir, deb ta'kidlaydi.

Bu tahlil etgan har ikkala yo'nalişning namoyandalari, o'z manfaatlarining tashqi jihatdan bir-biriga qarama-qarshi bo'lishiga qaramay, insonning psixik xususiyatlarini biologik va ijtimoiy omillar ta'sirida avvaldan belgilangan va o'zgarmas nar-sa, deb e'tirof etadilar.

Ma'lumki odam shaxs sifatida qandaydir faoliyatda tarkib topib boradi, rivojlanadi, uning faolligi namoyon bo'ladi. Bolaning psixik jihatdan taraqqiy etishida biologik (nasliy), ijtimoiy, uzoq vaqt davomida beriladigan ta'lim-tarbiya va bolaning shaxsiy faolligi ta'siri muhim o'rinn egallaydi.

Psixologiya fani zamonaviy ta'limotga asoslangan holda inson shaxsining tarkib topishini asosan uchta omilning ta'siriga bog'liqligini dalillar asosida izohlab beradi. Nasliy yo'l bilan odamga to'g'ridan to'g'ri bir qator tashqi alomatlar, tashqi xususiyatlar o'tishi mumkin. Masalan, bolalar o'z ota-onalarining tashqi jismoniy belgilarini, ya'ni bo'y-bastini, ko'zi va sochining rangini, yuz tuzilishi va shu kabilarni nasliy yo'l bilan meros qilib oлади. Bolaning psixik taraqqiyotiga xos xususiyatlar nasliy yo'l bilan tug'ma ravishda to'g'ridan to'g'ri berilmaydi. Lekin bundan nasliy xususiyatlarning psixik taraqqiyotga mutlaqo aloqasi yo'q, degan ma'no kelib chiqmaydi. Nasliy xususiyatlarning psixik taraqqiyotga taalluqliligi shundaki, ayrim psixik jarayon yoki psixik xususiyatlarning anatomik-fiziologik nishonalari naslga o'tadi. Lekin psixik taraqqiyot bilan bog'liq bo'lgan ana shunday anatomik-fiziologik nishonalar odamga imkoniyat tarzida beriladi. Har qanday imkoniyat ham ro'yobga chiqavermaydi. Ijtimoiy muhit va ta'lim-tarbiya tizimi noto'g'ri olib borilsa, imkoniyat tarzidagi la-yoqatlar qobiliyatga aylanmay yo'qolib ketishi mumkin.

Demak, odamga imkoniyat tarzida berilgan nasliy xususiyatlarning o'zi tegishli muhit bilan bog'lanmasa, bola psixik taraqqiyotida deyarli biron hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'la olmaydi.

Bola tug'ilgan kunidan boshlaboq **ijtimoiy muhitda**, ya'ni odamlar qurshovida yashay boshlaydi. Ijtimoiy muhit deganda biz dastavval oila muhitini tushunamiz. Lekin «muhit» tushunchasi ikki xil ma'noda ishlataladi. Keng ma'nodagi «muhit» so'zi odamning butun mamlakati, Vatani bilan bog'liq bo'lgan hayot sharoiti bo'lsa, tor ma'nodagi «muhit»da asosan odamning oilaviy turmush sharoiti va oila tevarak-atrofidagi ijtimoiy hayot tushuniladi.

Bolaning psixik jarayonlari (idroki, xotirasi, tafakkuri, xayoli va shu kabilalar) va shaxsiy sifatlari (qiziqishlari, qobiliyati, malaka va odatlari, xarakteri va h.k.) tug'ma ravishda berilmaydi. Odamning, shu jumladan, bolaning barcha psixik jarayonlari va shaxsiy sifatlari konkret ijtimoiy sharoitning ta'siri tufayli individual hayoti davomida yuzaga keladi. Bunda eng muhim omil oiladir. Oilay hayotining umumiy turmush tarzi bola psixikasining taraqqiy etishiga ta'sir etmasdan qolmaydi.

Bola o‘z tabiatiga ko‘ra juda ham taqlidchan bo‘ladi. Taqlidchanlik bola psixikasi taraqqiyotini belgilovchi omillardan birlidir. Bola har doim o‘z oilasidagi katta odamlar qurshovida yashar ekan, u hamisha ana shu o‘ziga yaqin odamlarning xatti-harakatlariga taqlid qiladi. Taqlid qilish orqali har xil insoniy munosabatlar va fazilatlarni o‘ziga sekin-asta singdirib boradi. Tashqi muhitning, ya’ni oila muhitining bola psixikasiga ta’siri nutq (til) taraqqiyotida juda yaqqol ko‘rinadi. Bola tug‘ilishidan boshlab qanday nutq turi muhitida yashasa, ana shu tilda gapiradigan bo‘ladi. Bola o‘sgan sari muhit doirasi ham kengaya boradi. Ijtimoiy muhit (dastavval oila, hovli, ko‘cha, mahalla)dan sekin-asta kengaya borib, shahar, respublika va butun mamlakat miq-yosiga o‘tadi. Ana shunga mos ravishda ijtimoiy muhitning bolaga ta’siri manbalari ham borgan sari kengaya va ko‘paya boradi. Bola oila doirasidan tashqariga chiqqandan so‘ng unga o‘zgalar ham ta’sir eta boshlaydi. Bola endi faqat o‘z oilasidagi katta odamlarning xulq-atvori va xatti-harakatlarigagina emas, balki yaqin atrofidagi boshqa odamlarning, o‘z tengqurlarining xulq-atvorlari va xatti-harakatlariga ham taqlid qila boshlaydi. Ana shu tariqa ijtimoiy muhit bolaning psixikasiga bo‘lgan ta’sirini kengaytira boradi.

Shunday qilib, ijtimoiy muhit bolalar psixikasining taraqqiyotiga faol ta’sir etadigan eng muhim omillardan biri bo‘lib, uning o‘zgarishi bola psixikasining o‘zgarishiga sabab bo‘ladi.

### *Psixik taraqqiyot va ta’lim*

Bolaning psixik taraqqiyotida ta’lim va tarbiya juda katta ahamiyatga ega. Uzoq muddat davomida beriladigan ta’lim-tarbiya ishlari hozirgi vaqtida oiladagi tarbiya ishlari bilan birga qo‘sib olib borilmoqda. Boshqacha qilib aytganda, bolaga juda yoshlik chog‘idan boshlab qat’iy dastur asosida ta’lim-tarbiya berila boshlanadi.

Bola maktabgacha ta’lim muassasasida maktabda izchil surada ta’lim va tarbiya oladi. Bunday uzoq muddatdagi maxsus ijtimoiy ta’lim va tarbiya bolaning psixik taraqqiyotiga ta’sir etmay qolmaydi. Shuning uchun bolaning umumiy psixik taraqqiyoti ko‘p jihatdan ta’lim-tarbiyaning ta’siriga bog‘liqdir.



L.S. Vigotskiy (1896–1934)

Psixolog L.S. Vigotskiyning fikriga ko‘ra, ta’lim-tarbiya jarayoni psixik taraqqiyot jarayoniga mos kelmaydi. Bola ijtimoiy tajribani ta’lim-tarbiya jarayonida o‘zlashtirib, rivojlanadi. Demak, ta’lim-tarbiya jarayoni har doim psixik taraqqiyotdan bir qadam oldinda boradi. Ta’lim-tarbiya jarayoni bolaning psixik taraqqiyoti uchun sharoit yaratib, zamin hozirlaydi va psixik taraqqiyotni o‘z ketidan ergashtirib boradi.

L.S. Vigotskiy psixik taraqqiyotning 2 bosqichini belgilab berdi:

- **eng yaqin taraqqiyot bosqichi;**
- **aktual taraqqiyot bosqichi.**

Uning tushuntirishiga ko‘ra psixik taraqqiyotning yaqin sohasida bolaning psixik taraqqiyoti katta odamlarning (ota-onalar, tarbiyachilar va o‘qituvchilarning) bevosita yordami, rahbarligi asosida amalga oshiriladi. Bolaning go‘daklik, ilk yosh, mактабгача та’лим muassasasi va kichik mакtab yoshidagi davrlari psixik taraqqiyotning yaqin bosqichiga to‘g‘ri keladi.

Psixik taraqqiyotning aktual bosqichiga kelsak, bu bosqich muayyan davrda bolaning katta yoshdagи kishilar yordamisiz mustaqil harakat qila olishi bilan ifodalanadi. Psixik taraqqiyotning aktual bosqichi o‘zlashtirilgan bilimlar, ko‘nikma va malakalardan mustaqil foydalanish bosqichidir. Psixik taraqqiyotning aktual bosqichiga bolaning o‘smirlik va o‘spirinlik davrlari to‘g‘ri keladi. Bu davrda bolalarning ta’lim jarayoniga bo‘lgan munosabatlari tubdan o‘zgarib, ular turli narsalarga nisbatan tanlab munosabatda bo‘la boshlaydilar. O‘smir bolalarda qiziqish va dunyoqarash kabi shaxsning murakkab sifatlari tarkib topa boshlashi tufayli turli sohalarga doir bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishga urinish yuzaga keladi. Vaholanki, ta’lim-tarbiya psixik taraqqiyotdan bir qadam oldinda borib, psixik taraqqiyotga zamin hozirlar ekan, to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan ta’lim-tarbiya jarayoni hamma vaqt o‘quvchilarni mustaqil tafakkur qilishga, tabiat hamda jamiyat-

dagi narsa va hodisalarga doir qonuniyatlarni bilib olishga yordam beradi.

Ana shu bosqich nuqtayi nazaridan ta'lim-tarbiya ishlari davomida bolaning hozirgi vaqtida qanday bilim, ko'nikma, malakalar va xarakter sifatlariga ega ekanligini va yaqin kelajakda qanday bilim, ko'nikma, malakalar va shaxsiy sifatlarga ega bo'la olishini hisobga olish juda muhimdir. Ta'lim-tarbiya jarayonida taraqqiyotning shu ikki bosqichini taqqoslab, bolaning shu paytdagi rivojlanish darajasi va kelajakdagi rivojlanish imkoniyatlari haqidagi fikr yuritish mumkin bo'ladi. Tarbiyachi ta'lim-tarbiya jarayonida bolaning hozirgi taraqqiyot bosqichini hisobga olib, kelajakda qanday taraqqiyot darajasiga erishishini tasavvur eta olishi hamda bolani ana shu mo'ljallangan taraqqiyot darajasiga erishirish uchun aniq rejalgarda ega bo'lishi kerak.

Ma'lumki, bolaning har bir yosh davri ma'lum bilimlarni birmuncha ortiq darajada o'zlashtirishga nisbatan sezgir bo'ladi. Masalan, shunday yosh davrlari borki, bunda ta'lim-tarbiya bolaning psixik taraqqiyotiga ortiq darajada ta'sir qiladi. Ana shunday yosh davrlarini odatda psixik taraqqiyotning **senzitiv davri** deb yuritiladi. O'tkazilgan tajribalardan ma'lum bo'lishicha, bolaning mактабгача та'лим muassasasi yoshidagi davri psixik taraqqiyotga nisbatan umuman senzitiv davr hisoblanadi.

Psixik taraqqiyotning mazmuni tashqi faoliyat turlarining sekin-astalik bilan ichki psixik harakatlarga aylanishidan (ya'ni eksteriorizatsiyaning interiorizatsiyaga aylanishidan) iboratdir. Shuning uchun bolalarni ma'lum ish-harakatlarni yoki faoliyat turlarini o'zlashtirishda ularning ehtiyojlari va qiziqishlariga mos keladigan faoliyat turlaridan biriga jalb qilish kerak.

Ta'lim jarayoni bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda tashkil qilinsa, bu jarayon **dasturlashtirilgan ta'limga** aylanadi. Hozirgi vaqtida axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish bosqichi, uning ta'lim jarayonida keng qo'llanilishida dasturlashtirilgan ta'lim katta ahamiyatga egadir. Ana shu nuqtayi nazardan olganda mактабгача та'лим muassasasidagi dasturlashtirilgan ta'lim bolalarda maktab ta'limi uchun kerak bo'ladigan sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Bolaning psixik taraqqiyotida biologik va ijtimoiy faktorlardan tashqari bolaning shaxsiy faolligi ham muhim ahamiyatga egadir. Bola psixikasining taraqqiyotida bolaning shaxsiy faolligini to‘g‘ri tashkil qilib, yo‘lga solib turilsa, undagi mavjud sifatlar faoliyatining har xil turlarida namoyon bo‘lib o‘sayotganini hisobga olib tursagina tarbiya muvaffaqiyatli bo‘ladi.

Bola psixikasi o‘yin, ta’lim, mehnat, ijtimoiy faoliyat va munosabatlar jarayonida taraqqiy etadi. Har bir faoliyat bolaning hayotini o‘zgarishi bilan turli yoshda turlicha xarakter kasb etadi. Agar maktabgacha davrdagi bolalarning yetakchi faoliyati o‘yin bo‘lsa, maktab yoshidagi bolalar faoliyati o‘qish, o‘rganishdan iboratdir. O‘yin, o‘qish, o‘rganish, mehnat yoki ijtimoiy faoliyat turlari orasida keskin chegara bo‘lishi mumkin emas. Maktab yoshi davrida o‘yin ham saqlanadi, u hatto katta yoshli kishilar hayotida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mehnat faoliyatiga esa biz bolalarni juda yoshligidan jalb qilamiz. Lekin har bir faoliyat turi o‘z mazmuni, tashkil etilishi bilan bolaning ham jismoniy, ham psixik faolligini rivojlantirish imkonini beradi.

### **6.3. Psixik taraqqiyot va yosh bosqichlari**

Bolalarning psixik taraqqiyotlarida ma’lum notekislik mavjuddir. Bu notekislik, birinchidan, bola tug‘ilib o‘sadigan muhit bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, bolalarning individual imkoniyatlari bilan bog‘liqdir. Darhaqiqat, ayrim bolalar psixik taraqqiyot uchun ko‘p pog‘onali oilada o‘sib rivojlansalar, boshqa bir bolalar faqat ishlaydigan ota-onasidan tashqari hech kimi yo‘q oilada o‘sib rivojlanadilar. Biz bilamizki, bolaning psixik jihatdan rivojlanishida uning katta odamlar bilan qiladigan faol munosabatlari juda katta o‘rin egallaydi. Bola katta odamlar bilan bo‘ladigan munosabatlarida o‘zining son-sanoqsiz savollariga javob oladi. Binobarin, u yangi-yangi informatsiyalarga ega bo‘lib, psixik jihatdan rivojlanadi. Yuqoridaq birinchi holatda, ya’ni bola ko‘p kishilik (buvilik va buvalik) oilada o‘sib rivojlanganda tez-tez katta odamlar bilan faol munosabatga kirishib, ularidan ko‘p narsalarni bilib oladi. Ikkinchi holatda esa, o‘z holicha qolib ketib, psixik jihatdan yaxshi rivojiana olmaydi. Bu bolalarning notekis rivojlanishidagi tashqi sabablardir.

Bolalar har xil individual imkoniyatlar, ya’ni layoqatlar bilan tug‘iladilar. Shuning uchun bolalarda psixik jihatdan rivojlanishlariga ta’sir qiladigan ichki, ya’ni nasliy xususiyatlar har xil bo‘ladi. Nasliy xususiyatlar, ya’ni turli sohalarga nisbatan bo‘lgan tug‘ma layoqatlar hamma bolalarda bir xil bo‘lmaydi. Masalan, bir bola matematikaga layoqatli bo‘lib tug‘ilsa, boshqa bir bola musiqaga nisbatan layoqatli bo‘lib tug‘iladi. Kimning qaysi sohaga nisbatan layoqatli bo‘lib tug‘ilishi genetika fanining muhim muammolaridandir.

O‘tkazilgan kuzatishlardan ma’lum bo‘lishicha, bolalarning psixik taraqqiyotlari nisbatan sekinlik bilan yuzaga kelsa, ya’ni uzoq muddat davomida jiddiy o‘zgarishlar sezilmasa, ayrim davrlarda bolalarning psixik taraqqiyotlari qandaydir sakrash yo‘li bilan jadal amalga oshadi. Bolalarning psixik taraqqiyotlaridagi ana shunday sakrash yo‘li bilan amalga oshiriladigan jadal davrnı taraqqiyotning **krizis (inqiroz) davri** deb ataladi. Psixik taraqqiyotning ana shunday inqiroz davrlari bir xil sharoitda yashaydigan hamma bolalarda aniq bir yosh davrida maydonga keladi. Shuning uchun bolalar psixik taraqqiyotida paydo bo‘ladigan inqiroz davrlari hamma bolalarni ma’lum yosh davrlariga ajratish imkoniyatini beradi.

Bolalarni turli yosh davrlarga ajratishda turlicha fikrlar juda qadim zamonlardan beri fanga ma’lumdir. Sharq mutafakkiri Abu Ali ibn Sino ham bolalikni quyidagi davrlarga ajratgan:

1. Podshohlik davri – 5 yoshgacha.
2. Qullik davri – (6–12 yoshgacha).
3. O‘rtoqlik, do‘stlik davri deb bolaning keyingi taraqqiyoti davrini nazarda tutgan.

Podsholik davrida bolaning yoshligi, uning aytganini kattalar tomonidan bajarilishini, bolaning «shirin» qiliqlari, gaplari bilan kattalarni o‘ziga rom qilishini e’tiborga olinadi. 6–12 yoshgacha bo‘lgan davrda bolani xulq-atvorga o‘rgatish, kishilar bilan o‘zaro munosabatlarda qoida-qonunlarga bo‘ysunish, mehnatga o‘rgatish, unga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish, bilim olish, o‘qish, o‘rganish, mehnat qilishda qiyinchiliklarga bardosh berish, kattalarning mehnatini qadrlash kabilarga muhabbat ruhidha tarbiyalashda bolaga nisbatan e’tibor qaratgan.

Do'stlik davrida esa bolaga do'stlarcha munosabatda bo'lish, ularni hurmat qilish, qilgan ishlarini qadrlash, munosabatlarda samimiy bo'lish lozimligi nazarda tutiladi.



J. Piage (1896–1980-yy.)

Shveysariyalik psixolog J. Piage bolaning aql-idrokiga xos bo'lgan xususiyatlariga qarab:

- 1) sensomotor intellekti (0–2 yoshgacha);
- 2) operatsiyalardan ilgari tafakkur davri (2–7 yoshgacha)
- 3) aniq operatsiyalar davri (7–12 yoshgacha);
- 4) rasmiy operatsiyalar davri deb ajratadi.

Fransuz olimi, psixolog A. Valon bolaning jismoniy rivojlanishga qarab (homilaning ona qornidagi davri, impulsiv harakat davri – 0–6 oygacha, his-tuyg'u davri – 6 oydan 1 yoshgacha; sensomotor davri – 1–3 yoshgacha; shaxsga aylanish davri – 3–5 yoshgacha; farqlash davri – 6–11 yoshgacha; jinsiy yetilish va o'spirinlik davri (12–18 yoshgacha) deb ajratgan.

Bola tug'ilgandan to maktabga borguncha bo'lgan vaqt mobaynida o'z boshidan uch xil o'zgaruvchan sharoitni kechiradi. Bir yoshli davr, uch yoshli davr va yetti yoshli davr sharoiti bir-biridan keskin farq qiladi.

L.S. Vigotskiy yosh davrlarga ajratishning ilmiy manbai rivojlanishni vujudga keltiruvchi psixik yangilanishlarga tayanadi va bolalikni quyidagi bosqichlarga ajratadi:

1. Chaqaloqlik davri – 2 oygacha bo'lgan davr inqirozi.
2. Go' daklik davri – 2 oylikdan 1 yoshgacha bo'lgan davr, 1 yoshdag'i inqiroz.
3. Ilk bolalik davri – 1–3 yoshgacha, 3 yoshdag'i inqiroz.
4. Maktabgacha davr – 3–7 yoshgacha, 7 yoshdag'i inqiroz.
5. Maktab yoshi davri – 8–12 yoshgacha, 13 yoshdag'i inqiroz.
6. Pubertat (jinsiy yetilish) davri – 14–18 yoshgacha, 17 yoshdag'i inqiroz.

L.S. Vigotskiy o‘zining yosh davrlarini tabaqlash nazariyasini ilmiy asoslab, ta’riflab bera olgan. Olim eng muhim psixik yangilanishlar haqida ilmiy va amaliy mulohazalar bildirgan. Biroq bu mulohazalarda ancha munozarali, bahsli o‘rinlar ham mavjud. Umuman L.S. Vigotskiyning yosh davrlarini tabaqlash nazariyasini ilmiy-tarixiy ahamiyatga ega, uning rivojlanishni amalga oshiruvchi inqirozlar to‘g‘risidagi g‘oyalari hozirgi kunning talablariga mosdir.

D.B. Elkoninning tasnifi yetakchi faoliyat (A.N. Leontev) nazariyasiga, har qaysi rivojlanish bosqichida biror faoliyatning ustunlik qilishi mumkinligiga asoslanadi. Yetakchi faoliyatning inson shaxs sifatida kamol topishidagi roli nazariyaning asosiy mohiyatini tashkil qiladi.

D.B. Elkonin yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratishni lozim topadi:

- 1) go‘daklik davri – tug‘ilgandan 1 yoshgacha, yetakchi faoliyati – bevosita emotsional muloqot;
- 2) ilk bolalik davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha, yetakchi faoliyat – predmetlar bilan nozik harakatlar qilish;
- 3) maktabgacha davr – 3 yoshdan 7 yoshgacha – rolli o‘yinlar;
- 4) kichik mакtab yoshi davri – 7 yoshdan 10 yoshgacha – o‘qish;
- 5) kichik o‘smirlilik davri – 10–15 yoshgacha – intim (dilkash, samimiyy) muloqot;
- 6) katta o‘smirlilik yoki ilk o‘spirinlik davri – 16–17 yoshgacha, yetakchi faoliyat – o‘qish, kasb tanlash davri.

D.B. Elkoninning mazkur nazariyasi psixologiya fanida, ayniqsa yosh davrlari psixologiyasida muhim o‘rin tutadi.

Bolalar psixologiyasi fanining yirik namoyandasini A.A. Lyublinskaya inson kamolotini yosh davrlariga ajratishda pedagogik psixologiyaga faoliyat nuqtayi nazaridan yondashib quyidagi davrlarni atroflicha ifodalaydi:

- 1) chaqaloqlik davri – tug‘ilgandan bir oylikkacha;
- 2) kichik maktabgacha davr – 1 oylikdan 1 yoshgacha;
- 3) maktabgacha tarbiyadan avvalgi davr – 1 yoshdan 3 yoshgacha;

- 4) maktabgacha tarbiya davri – 3 yoshdan 7 yoshgacha;
- 5) kichik maktab yoshi davri – 7 yoshdan 11, 12 yoshgacha;
- 6) o‘rta maktab yoshi davri (o‘spirin) – 13 yoshdan 15 yoshgacha;
- 7) katta muktab yoshi davri – 15 yoshdan 18 yoshgacha.

Yuqorida keltirilgan ko‘pchilik olimlarning bola kamolotini davrlarga ajratish muammolari o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Biz ularni ham fiziologik, ham psixologik taraqqiyoti, faoliyat turlarining o‘zgarib turishi va organizmdagi sodir bo‘ladigan xususiyatlarni hisobga olib bolalikni quyidagi davrlarga ajratishni tavsiya etamiz:

- 1) chaqaloqlik davri – 0–1 oygacha;
- 2) go‘daklik davri – 1 oydan – 1 yoshgacha;
- 3) ilk bolalik davri – 1–3 yoshgacha;
- 4) maktabgacha yosh davri – 3–7 yoshgacha;
- 5) kichik muktab yoshi davri – 6–11 yoshgacha;
- 6) o‘smirlilik davri – 12–15 yoshgacha;
- 7) ilk o‘spirinlik – kollej, litsey davri – 15–18 yoshgacha.

Albatta bu davrlarni bir-biridan qat’yan bir yosh bilan chegaralab qo‘yish mumkin emas. Bola o‘zining o‘sish davrida shu davrlarni ertaroq yoki kechroq kechiradi, ammo bu davrlar bir-biriga tabiiy bog‘lanib boradi va oldingisi keyingisiga zamin hozirlaydi. Har bir davrda bolaning ayrim psixik tomonlarigina emas, balki uning umumiy ko‘rinishi, yuz tuzilishi ham boshqacha ko‘rina boshlaydi va ularning yosh belgilariga qarab ta’lim-tarbiya muassasalariga qabul qilinadi.

Bolaning yosh belgisi uning taraqqiyoti darajasini ko‘rsata olmaydi. Chunki 2 ta bir yoshdagagi bola belgisi jihatidan bir xil bo‘lsa ham, taraqqiyot darajasi har xil bo‘lishi mumkin. Ma‘lum yosh bosqichiga tegishli bolalarning faoliyatlarida ham umumilik bordir. Masalan, chaqaloq bolalarning asosiy faoliyatları katta odamlar bilan emotsiyal munosabatga kirishishdan, ilk yoshdagagi bolalarning asosiy faoliyatları esa turli narsalar bilan shug‘ullanishdan va nihoyat, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning asosiy faoliyatları o‘yindan iboratdir.

Kattalar har bir yosh bosqichidagi bolalarga ma‘lum talablar qo‘yadi, ular bajarishlari mumkin bo‘lgan huquq va burch-

larini belgilaydi. O‘z-o‘zidan ma’lumki, bola o‘sib, rivojlanib borgan sari uning imkoniyatlari ham ortib boradi. Natijada jamiyat tomonidan bolalarga qo‘yilgan talablar, huquq va burchlarning mas’uliyati ham orta boradi. Har bir yosh bosqichining oxiriga kelganda jamiyat tomonidan belgilangan talablar, huquq va burchlar bolaning imkoniyatlari bilan mos kelmay qoladi, ya’ni bola jamiyat tomonidan qo‘yilgan talablardan o‘zib ketadi. Buning natijasida jamiyatning bolalar yosh bosqichi oldiga qo‘yan talablari, huquq va burchlari, axloq me’yorlari bilan bolaning imkoniyatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga keladi. Har bir yosh bosqichida maydonga keladigan krizis, ya’ni **inqiroz** davri ana shunday jamiyat talablari bilan bolaning imkoniyatlari o‘rtasidagi ziddiyatdan paydo bo‘ladi.

Bolalarning har bir yosh bosqichlarida (1,3,7, o’smirlik davri inqirozlari) yuzaga keladigan krizislarni, ya’ni inqiroz davrlarini akademik I.P. Pavlovning dinamik stereotip haqidagi ta’limoti orqali juda yaxshi tushuntirib berish mumkin. Ma’lumki, har bir bola konkret bir oila muhitida yashar ekan, u shu muhit sharoitiga ko‘nikib, o‘rganib qoladi. Bola har kuni o‘z ota-onasi, aka-ukalari bilan munosabatda bo‘ladi. U o‘zining ovqatlanadigan idishlarini, atrofdagi o‘yinchoqlarini juda yaxshi tanib oladi, ya’ni bolada mana shu o‘z oila muhitidagi hayot tarziga nisbatan mustahkamlanib ketgan muvaqqat aloqalar sistemasi (dinamik stereotip) maydonga keladi. Bola o‘sib, ulg‘ayib, oila muhitidan maktabgacha ta’lim muassasiga borganida muhit o‘zgarishi o‘rtasida tafovut paydo bo‘ladi. Muhitning mana shunday keskin o‘zgarishi natijasida bolada krizis, ya’ni inqiroz holati yuzaga keladi. Bunday krizis holati eski dinamik stereotip yoki turmush tarzi batamom yemirilib, uning o‘rniga yangi dinamik stereotip hosil bo‘lgunga qadar davom etadi. Bolaning maktabgacha ta’lim muassasasiga borgisi kelmaydi hamda borganida yig‘lab qoladi. Bunday holat bir qancha vaqt davom etgandan so‘ng bolada bu muhitga nisbatan yangi dinamik stereotip maydonga keladi. Natijada bola hech narsani ko‘rmagandek, maktabgacha ta’lim muassasasiga ko‘nikib ketadi. Shu narsani alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, bir yosh bosqichidan ikkinchi yosh bosqichiga o‘tishida yuzaga keladigan krizis davrlari hamma bolalarda ham bir xil-

da bo'lavermaydi. Ayrim bolalarda krizis davri yaqqol namoyon bo'lsa, boshqa bolalarda deyarli bilinar-bilinmas tarzda o'tib ketadi. Bu narsa turli yosh bosqichidagi bolalarning nerv sistemalari bilan bog'liqidir. Masalan, nerv sistemasi mustahkam va egiluvchan (plastik) bolalarda yangi dinamik stereotiplar tez va osonlik bilan yuzaga keladi. Bunday, bolalarning xulq-atvorlari-da krizis davri deyarli bilinmaydi. Aksincha, nerv sistemasi zaif bolalarda yangi dinamik stereotiplar qiyinlik bilan uzoq muddat davomida yuzaga keladi va bunday bolalarning xulq-atvorlarida krizis davri yaqqol namoyon bo'ladi. Ota-onalar va tarbiyachilar bolalarning yosh bosqichlarida uchraydigan ana shu hodisalarni hisobga olgan holda ish olib borishlari kerak.

Bolalarning psixik taraqqiyotlarida muhim individual farqlar sezilib turadi. Buning asosiy sababi shundaki, bolalarning psixik jarayonlari va psixologik sifat xususiyatlari bolaning yoshi ulg'ayishi bilan o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi. Bu psixik jarayonlar, psixologik sifat va xususiyatlар turli yosh bosqichida bolalarning faoliyatları negizida ta'lím-tarbiyaning ta'siri bilan tarkib topadi. Bolalar dastavval psixik taraqqiyot tempi jihatidan bir-birlaridan farqlanadilar. Hamma bolalar psixik jihatdan, ya'ni sezgi va idroklari, diqqat va xotiralari, nutq va tafakkurlari hamda psixologik sifatlari jihatidan bir xilda rivojlanmaydilar. Masalan, bolalarning bir yosh bosqichdan ikkinchi yosh bosqichiga o'tishning o'rtacha bir muddati bordir. Ayrim bolalarda krizis davrlari vaqtincha paydo bo'lib, bir yosh bosqichidan ikkinchi yosh bosqichigacha tez o'tib ketadi. Boshqa bir bolalarda esa bu jarayon juda cho'zilib ketadi.

Turli yosh bosqichlaridagi bolalar ayrim faoliyat turlarini o'zlashtirish tempi jihatidan ham bir-biridan farq qiladilar. Masalan, ayrim to'rt-besh yoshli bolalar rasm chizishga qynaladilar. Ayrimlari yaxshi rasm chizadilar. Ayrim besh-olti yoshli bolalarning diqqat va xotiralari sust bo'ladi. Ular raqam va harflarni tanishda nihoyatda qynaladilar. Boshqa bir shu yoshdagи bolalar esa, oz vaqt ichida o'rganib oladilar. Ayrim shaxsiy psixologik sifatlarning (mustaqillik, batartiblik kabi) yuzaga kelishida ham xuddi shularga o'xshash individual farqni ko'rish mumkin. Turli yosh bosqichidagi bolalarning psixik taraqqiyotlarida ko'rinadigan

individual farqlarning asosiy sababi, birinchidan, ijtimoiy hayot sharoitining har xilligi bo'lsa, ikkinchidan, organizmning tabiy irsiy imkoniyatlarining ta'siridir. Bolalarda shartli reflekslar ham turlicha muddat davomida hosil bo'ladi. Ayrim bolalarda oriyentirovka refleksi yaqqol namoyon bo'lsa, boshqa bolalarda biron narsaning tekkanini sezish refleksi, ya'ni taktil sezgilar yaqqol namoyon bo'ladi. Bunday farqlar nerv sistemasining nasliy xususiyatlari bilan bog'liqdir. Masalan, miyaning qandaydir jarohati bilan tug'ilgan bola psixik taraqqiyotdan orqada qoladi.

Turli yosh bosqichidagi bolalarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashish, bolalarga nisbatan individual munosabatda bo'lishni ta'minlash bilan birga ularni har tomonlama rivojlantirishga yordam beradi.

t/r	<b>Yosh davrlari bosqichlari</b>	<b>Yoshi</b>
1	Chaqaloqlik davri	0–1 oygacha
2	Go'daklik davri	1 oydan – 1 yoshgacha
3	Ilk bolalik davri	1–3 yosh
4	Maktabgacha yosh davri	3-6,7 yosh
5	Kichik maktab yoshi davri	6,7–11 yosh
6	O'smirlilik davri	12–15
7	Ilk o'spirinlik	15–18
8	Yoshlik davri	20–30
9	O'rta yosh davri	30–50
10	Katta yosh davri	50–70
11	Keksalik davri yoki gerantopsixologiya	70–90
12	Uzoq umr ko'rvuchilar	90 dan yuqori

### **Nazorat savollari:**

1. Taraqqiyot va uning mohiyati haqida gapirib bering.
2. Bola psixik taraqqiyotini vujudga keltiruvchi qarama-qarshiliklar nimalardan iborat?

3. Psixik taraqqiyot qonuniyatlari nimalardan iborat?
4. Bolaning psixik jihatdan taraqqiy etishida biologik va ijtimoiy muhitning ta'siri nimada ko'rinadi?
5. Ta'lism-tarbiya bilan psixik taraqqiyot o'rtasidagi munosabat masalasi qanday?
6. Psixik taraqqiyotning yaqin va aktual bosqichi deganda niman tushunasiz?
7. Bola psixik taraqqiyotida dasturlashtirilgan ta'limning qanday ahamiyati bor?
8. Bolalarni turli yosh davrlarga ajratishda qanday fikrlar mavjud?
9. Bolaning yosh bosqichlari va bir yosh bosqichidan ikkinchi yosh bosqichiga o'tishda yuzaga keladigan krizislarni tushuntirib bering.
10. Bolalar psixik taraqqiyotidagi individual farqlar nimalardan iborat?


### **6.3. Chaqaloqlik va go'daklik davrida psixik taraqqiyot.**

#### **Chaqaloqlik davri**

Bolaning go'daklik (chaqaloqlik) davri jismoniy jihatdan juda tez rivojlanish davridir. Odatda odamning yoshi tug'ilgan kundan boshlab hisoblanadi. Lekin aslida odamning dunyoga keliishi, rivojlanishi tug'ilmasdan ilgarigi, ya'ni ona qornidagi davridan boshlanadi. Bola onaning qornidaligi davrida, ya'ni to'qqiz oy mobaynida juda tez va juda murakkab taraqqiyot yo'llini bosib o'tadi. Bolaning tug'ilgandan keyingi normal taraqqiyoti uning ona qornidagi taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun bolaning tug'ilgunga qadar bo'lgan taraqqiyotiga ham diqqat-e'tibor bilan qarash lozim, chunki tug'ilgunga qadar ham bolaga tashqi muhit ta'sir qiladi. Lekin bu ta'sir faqat ona orqali, onaning organizmi orqali bo'ladi. Homiladorlik davrining har jihatdan normal o'tishi bolaning ona qornidagi normal taraqqiyotini va har jihatdan yetuk tug'ilishini ta'minlaydi.

Bolaning tug'ilgandan keyin bir yoshgacha bo'lgan davri nisbatan kam harakat va «nutqsiz» taraqqiyot davridir. Bu davrda bolaning o'sishi va taraqqiyoti oila doirasida yuzaga keladi. Amмо shunday bo'lsa ham bu davr har jihatdan juda ildam rivoj-

lanish davridir. Bu davrda bola deyarli faqat ona suti bilangina ovqatlanadi, u hali gapira olmaydi va mustaqil harakat qila olmaydi. Bu davrda bola ojiz bo'lib, kattalarning doimiy va to'g'ri parvarish qilishlariga muhtoj bo'ladi.




**26-rasm.** Yoshga qarab bola gavdasi tuzilishining o'zgarib borishi.

Yangi tug'ilgan va bir yoshgacha bo'lgan bolalarning tashqi qiyofalari katta odamlarning tashqi qiyofalaridan ancha farq qiladi. Yangi tug'ilgan bolaning boshi gavdasiga nisbatan juda ham katta (gavdasining to'rtdan bir qismiga barobar), bo'yni deyarli yo'q darajada qisqa, gavdasi uzun, oyoq-qo'llari gavdasiga nisbatan qisqa bo'ladi. Katta yoshli odamning boshi gavdasining sakizdan bir qismiga to'g'ri keladi.

Bundan tashqari chaqaloq bolaning yuzi juda kichkina bo'ladi, chunki yuqorigi va pastki jag'lari hali ishlamaganligi tufayli rivojanmagan bo'ladi. Chaqaloq bolalar ichki organlarining holati va faoliyati ham katta odamlarnikidan anchagini farq qiladi. Masa-lan, o'pkadagi havo kiradigan mayda pufakchalarning soni miqdor jihatidan katta odamlarniki bilan barobar bo'lsa ham, ular juda mayda bo'ladi (katta odamlarnikiga nisbatan uch barobar kichik bo'ladi). Shuning uchun chaqaloq bolalar katta odamlar-

ga nisbatan uch barobar tez nafas oladilar. Chaqaloq bola bir da-qiqada 50–60 marta nafas olsa, katta yoshdagи odam xuddi shu vaqt ichida 14–16 marta nafas oladi. Chaqaloq bola jismoniy jihatdan juda tez o'sayotganligi tufayli sof havoga ayniqsa muhtoj bo'ladi. Ilk yoshdagи bolalarning taraqqiyotida buni albatta hisobga olish zarur. Agar chaqaloq bola o'ringa o'ng'ay holatda yotqizilmasa, siqib yo'rgaklansa va ochiq havoga olib chiqilmasa, uning nafas olishida qo'shimcha qiyinchilik vujudga keladi.



**27-rasm.** Embrion miyasining rivojlanishi.

Chaqaloq bolaning yuragi katta odamning yuragiga nisbatan anchagina tez uradi. Masalan, katta odamning yuragi bir daqiqa-

da o‘rtacha 70–75 marta ursa, chaqaloq bolaning yuragi 120 va undan ortiq marta uradi. Buning asosiy sababi chaqaloq bolalar yuragining har bir qisqarishida bosib chiqqargan qon hajmini (miqdorining) ozligi, go‘qak muskullarining hali zaifligi bilan bog‘liq. Bundan tashqari, chaqaloq bolalar yuragining nisbatan tez urishi ular organizmida modda almashish jarayonining intensivligi (jadalligi) bilan ham bog‘liqidir.

Chaqaloq bolalarda badanning haroratini idora qilish hali yaxshi rivojlanmagan bo‘ladi. Chaqaloq bolalarda tanasining vazniga qaraganda terisining umumiyligi sathi (yuzasi) nisbatan katta hamda terisi katta odamlar terisiga qaraganda ancha yupqa bo‘ladi. Shu sababli ular normal taraqqiyot uchun kerakli haroratni yo‘qotib sovuq qotishi mumkin. Chaqaloq bolalarning tana haroratlari tez o‘zgaruvchan bo‘ladi. Bolaning ortiqcha harakatlari ham, ovqat yeyishi ham temperaturasiga ta’sir qiladi. Shu sababli chaqaloq bolalarni tarbiyalashda kun tartibining ahamiyati nihoyatda kattadir. Chaqaloq bolalarni hamisha o‘z vaqtida ovqatlantirish, uxlatalish va o‘z vaqtida u bilan shug‘ullanish (gplashish, o‘ynatish) kerak.

Chaqaloq bolalarning ovqat hazm qilish a’zolari ham o‘ziga xos xususiyatga ega. Ularninig oshqozonlari hali juda kichkina, oshqozon va ichak muskullari rivojlanmagan, juda zaif bo‘ladi. Shuning uchun bu yoshdagi bolalarning eng yaxshi ovqati ona sutidir. Bolalar katta odamlarga nisbatan tez-tez ovqatlantiriladi. Agar katta odamlarga ovqat sarf qilgan quvvatlarini tiklash maqsadida kerak bo‘lsa, bolalar uchun ovqat sarf qilgan quvvatlarini tiklashdan tashqari o‘sishlari uchun ham kerak. Bolaning organizmi to‘xtovsiz o‘sadi, buning uchun esa juda ko‘p ozuqa moddalar kerak bo‘ladi. Ozuqa moddalarni bola ovqat orqali oladi. Shu sababli bolaning jismoniy jihatdan normal o‘sishida o‘z vaqtida ovqatlanishi va ovqatning sifati juda katta ahamiyatga ega.


Normal tug‘ilgan bolaning o‘rtacha vazni 2800–3500 g, bo‘yi 45–52 santimetr bo‘ladi. Bir yil davomida uning vazni va bo‘yi ayniqsa sezilarli o‘zgaradi. Normal o‘sib ulg‘ayayotgan bola yarim yoshga yetganida uning vazni ikki barobar, bir yoshga yetganida esa uch barobar ortadi. Bolaning vazni dastlabki oyлarda, ayniq-

sa, 1–3 oyligida ko‘proq ortadi. Keyinroq borib vaznining ortishi birmuncha sekinlashib boradi va bir yoshga to‘lgach, bolaning vazni 9 kg ga yetadi. Bir yoshga to‘lgunga qadar bolaning bo‘yi ham juda tez o‘sadi. Agar bola bir yoshga to‘lguncha taxminan 25 sm ga o‘sса, keyingi ikki yil ichida faqat 18 sm ga o‘sadi. Yangi tug‘ilgan bolaning suyak sistemasi deyarli yumshoq tog‘aydan iborat bo‘ladi. Keyingi taraqqiyot davrida, ya’ni bir yoshga to‘lguncha uning skeleti suyakka aylana boshlaydi. Agar bola chaqaloqlik davrida noto‘g‘ri parvarish qilinsa, uning skeletidagi turli qismlar noto‘g‘ri o‘sib, biror yeri qiyshiq bo‘lib qolishi mumkin. Ko‘pchilik hollarda bolaning noto‘g‘ri o‘tirishi, noto‘g‘ri yotishi natijasida umurtqa suyagi qiyshayib qolishi mumkin, chunki umurtqa suyagi juda elastik (egiluvchan) bo‘ladi.

Oylar	0–1	1–2	2–3	3–4	4–5	5–6	6–7	7–8	8–9	9–10	10–11	11–12
Bo‘yi (sm)	3	3	2,5	2,5	2	2	2	2	1,5	1,5	1,5	1,5
Og‘irligi (gr)	600	800	800	750	700	650	600	550	550	450	400	400

Bolalarda paydo bo‘ladigan skolioz, umurtqa suyagining qiyshayib qolishi kasalligi ko‘pchilik hollarda bolalar gavdasining normal o‘sishiga ota-onalar va tarbiyachilarining befarq munosabatda bo‘lishlari tufayli yuzaga keladi. Skolioz (bukri) kasalligi juda og‘ir majruhlikka olib keladi. Skolioz asosan ikki yo‘l bilan paydo bo‘ladi. Ulardan birinchisi tug‘ma skolioz bo‘lsa, ikkinchisi individual hayot davomida orttirilgan skoliozdir. Biz asosan ana shu individual hayot davomida bo‘ladigan skoliozning oldini olishimiz, ya’ni uning paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymasligimiz kerak. Skolioz kasalligi dastavval mutlaqo bilinmaydi va juda sekinlik bilan rivojlanadi. Vaqt o‘tishi bilan u ko‘zga tashlana boshlaydi. Skolioz kasalligi juda qiyin davolanadi. Uni davolashda ortoped-shifokorlar juda ko‘p qiyinchiliklarga duch keladilar. Qiz bolalarning muskul va skeletlari o‘g‘il bolalarga nisbatan zaifroq bo‘lganligi tufayli ular skolioz kasalligiga moyilroq bo‘ladilar.

Skolioz kasalligi bola o'sib borgan sari uning psixikasiga ham salbiy ta'sirini ko'rsata boshlaydi.



**28-rasm.** Skolioz kasaliga uchragan bolaning qiyshayib qolgan umurtqa suyagi.

Skolioz kasalligiga uchramaslik uchun bola yotadigan to'shak tekis, boshiga qo'yiladigan yostiq ham ortiqcha baland bo'lmasligi kerak. Bola yurishga o'rganayotganida goh o'ng, goh chap qo'lidan ushlab unga yordam berish lozim. Ana shu kabilarga rioya qilgandagina bolani skolioz kasalligidan saqlab qolish mumkin.

Yangi tug'ilgan bolaning bosh suyagi hali yaxshi qotmagan bo'lib, uning oldingi qismida peshana liqildog'i va orqa qismida esa ensa liqildog'i bo'ladi. Bola bir yoshga to'lguncha uning kalla suyagi qotib, bu bo'shliqlar (liqildoqlar) tutashib ketadi. Liqildoqlarning biri 2–3 oy mobaynidagi, ikkinchisi bola 12–14 oylik bo'lgandagina tutashib, bitib ketadi. Chaqaloq bolalar kalla suyagining hali yaxshi qotmaganligi va ayrim joylarining tu-

tashmaganligini nazarda tutib, ularni doimo ehtiyot qilish lozim. Bola yoshga to‘lib, yurib ketgach u jismoniy jihatdan ancha mustahkamlanib boradi.


### *Chaqaloqlik va go‘daklik davrida bola nerv sistemasining rivojlanishi*

Bola psixik taraqqiyotining anatomik va fiziologik asosini tashkil etuvchi nerv sistemasining rivojlanishi bolaning bir yoshgacha bo‘lgan davrida juda jadal sur’at bilan boradi. Bola anchagina takomillashgan nerv sistemasi bilan tug‘iladi. Biroq chaqaloq bolalarning nerv sistemasi o‘zining tuzilishi va vazifasi (funksiyasi) jihatidan katta odamlar nerv sistemasidan keskin farq qiladi.

Go‘dak bolalar nerv sistemasining hamma qismlari barobar rivojlanmaydi. Ularda eng oldin nerv sistemasining quyi qismlari, ya’ni orqa miya, uzunchoq miya takomillashadi. Chunki nerv sistemasining bu qismlari tug‘ma yo‘l bilan o‘tadigan shartsiz reflekslarning markazlari hisoblanadi. Eng keyin nerv sistemasining yuksak qismlari, ya’ni oliv nerv faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan katta miya yarimsharlari va uning po‘stloq qismi takomillashadi.

Yangi tug‘ilgan chaqaloq bolalarning katta miya yarimsharlari o‘zining tuzilishi va tashqi ko‘rinishi jihatidan katta odamlar miyasidan deyarli farq qilmasada, vazni jihatidan keskin farq qiladi. Masalan, yuqorida ko‘rsatib o‘tganimizdek, katta odamlar miyasining o‘rtacha vazni 1400 g bo‘lsa, yangi tug‘ilgan chaqaloq miyasining vazni 350–400 g bo‘ladi. Bundan tashqari, chaqaloq bolalar bosh miya yarimsharlari po‘stining burmalari katta odamlarnikiga qaraganda juda kam bo‘ladi. Yangi tug‘ilgan chaqaloq bolalar bosh miya katta yarimsharlari po‘stidagi nerv hujayralarining soni katta odamlarnikidan kam bo‘lmaydi, ya’ni 14–15 milliard bo‘ladi. Bosh miya katta yarimsharlari po‘stidagi nerv hujayralari (neyronlar) odamga tug‘ilishdanoq ma’lum miqdorda berilgan bo‘ladi. Keyinchalik odamning individual hayoti davomida bunday nerv hujayralari birorta ham qo‘silmaydi. Farq faqat shundaki, chaqaloq bolalar bosh miyasi katta yarimsharlari po‘stidagi nerv hujayralari hali tuzilishi jihatidan juda sodda, hajm jihatidan kichik, o‘sintalari (dendrit va neyrit) yaxshi rivojlanmagan bo‘ladi. Bolalar nerv sistemasining rivojlanishi davo-

mida har bir hujayradan ko'proq miqdorda dendritlar o'sib chiqadi. Shu tariqa bolalar bosh miyasi katta yarimsharlari po'stining sathi orta boradi.



**29-rasm.** Bolalar va kattalarda bosh miya yarimsharlari po'stlog'idagi nerv hujayralarining tuzilishi.

Bosh miya katta yarimsharlari po'stidagi nerv hujayralarini birlashtiruvchi nerv tolalarining usti miyelin deb nom olgan maxsus parda bilan qoplana boradi. Bu jarayon bosh miyaning normal faoliyati uchun tayyor ekanini ko'rsatuvchi belgidir. Nerv tolalarining miyelin qobig'i bilan sekin-asta qoplanib borishi tabiiy jarayon bo'lib, bu jarayonni tezlashtirsa bo'ladi. Chaqaloq bolalarni har gal yo'rgaklash oldidan biroz harakatga solish, ya'ni qo'l-oyoqlarini harakat qildirish mielinizatsiya jarayonini tezlashtiradi. Mielinizatsiya jarayonining tezlashuvi bosh miya po'stining jadal rivojlanishiga yordam beradi.

Bola yoshiga to'lguncha jismoniy jihatdan tez o'sar ekan, uning nerv sistemasi ham rivojlanadi. Chunonchi, yangi tug'ilgan bola miyasining umumiy vazni 1 yoshga to'lguncha 600 grammga ortadi.

Chaqaloq bolalarning hamma analizatorlari (sezgi a'zolari) tug'ilishidanoq me'yorida rivojlangan bo'lib faoliyatga tayyor bo'ladi. Bola teri analizatorlari orqali haroratni (issiq va sovuqni), biron narsa tekkanini va og'riqni sezadi. Chaqaloq bolaning

badani haroratga nisbatan juda sezgir bo'ladi. Shuning uchun tez sovqotadi. Bola tarbiyalanadigan xonaning harorati 20° dan kam bo'lmasligi kerak. Agar bolaning yuzi yoki labiga qo'lingizni tekkizsangiz, u darhol emish harakatlarini qila boshlaydi. Bolaning kiyimi yoki yo'rgaklari buklanib qolib bo'yniga yoki boshqa bir yeriga botsa, u bezovtalanib yig'lay boshlaydi. Ana shulardan ko'rinib turibdiki, chaqaloq bolaning teri analizatorlari dastlabki kunlardanoq yaxshi ishlaydi.

Bolada tug'ilgan kunidan boshlab, hid va ta'm bilish analizatorlari ham normal ishlay boshlaydi. Chaqaloq bolaning og'ziga biron taxir yoki achchiq narsa solinsa, u aftini burish-tirib, bezovtalanib, so'laklari bilan uni chiqarib tashlaydi. Bola qo'lansa hiddan ham bezovtalanadi. Demak, chaqaloq bolalarda hid va ta'm bilish analizatorlari ham normal holatda bo'ladi. Ko'rish va eshitish analizatorlari murakkab analizatorlar hisoblanadi. Yangi tug'ilgan chaqaloq bolalarda bunday murakkab analizatorlar ham faoliyatga tayyor bo'ladi. Chaqaloq bolalarda ko'rish refleksini bemalol kuzatish mumkin. Agar biroz qorong'iroq uyda bola ko'zlarini ochib yotgan paytida to'satdan chiroq yoqib yuborilsa, u darhol yorug'likdan ko'zlarini yumib oladi. Lekin chaqaloq bolalarning ko'rish analizatorlari (ko'zları) hali yaxshi takomillashmagan va ishlashga muvofiqlashmagan bo'ladi. Yangi tug'ilgan bola dastlab faqat ko'zining to'g'risidagi narsalarni ko'ra oladi. Buning sababi shundaki, chaqaloq bolalarda ko'z to'r pardasidagi markaziy qismlargina sezish qobiliyatiga ega bo'ladi. Ko'rish retseptorlari joylashgan ko'z to'r pardasining chekka qismlari keyinroq ishga tushadi. Shuning uchun chaqaloq bolalar yon tomonlaridagi narsalarni yaxshi ko'ra olmaydilar. Bunda tashqari, ularda ko'zni qimirlatadigan muskullar ham yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Ana shu sababli chaqaloq har ikkala ko'zini ayni bir vaqtda barobar qimirlata olmaydi. Natijada bir ko'zi g'ilayroqqa o'xshab turadi. Bola bir oyga to'lgandan keyin har ikkala ko'zi moslashgan holda harakat qiladigan bo'ladi. Ana shu davrdan boshlab bola biron narsaga tikilib qaray olish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Yangi tug'ilgan bola dastlabki bir hafta davomida yaxshi eshitmaydi. U faqat qattiq tovushlarnigina eshitishi mumkin. Bunga

sabab shuki, bola ona qornidaligida uning o‘rtta qulqlari suyuqlik bilan to‘lib qolgan bo‘ladi. Keyinchalik bu suyuqlik shimilib, singib ketgandan so‘ng o‘rtta qulqning havo to‘lqinlari kiradigan yo‘li ochilib, bola eshitadigan bo‘ladi.

Ko‘rish va eshitish kabi murakkab analizatorlarning chaqaloq bolalarda hali yaxshi takomillashmaganligining sabablaridan yana biri yangi tug‘ilgan bolalarda bosh miyaning po‘sti yetarli darajada rivojlanmaganligidir. Barcha analizatorlarning markaziy qismi esa bosh miya po‘stida joylashgan bo‘ladi. Bola tug‘ilgandan keyin birinchi oyldarda uning bosh miyasi va ayniqsa, bosh miya po‘sti tez rivojlanadi. Miya po‘stida analizatorlar markaziy qismlarining rivojlanishi natijasida dastlabki shartli reflekslar ning vujudga kelishi uchun sharoit tug‘iladi. Ana shu tariqa bola bir oylik bo‘lgandan so‘ng uning teri, harakat, hid va ta’m bilish, ko‘rish va eshitish analizatorlarida shartli reflekslar paydo bo‘la boshlaydi. Bir oylik bolani qo‘lga olishingiz bilan yig‘isi to‘xtab, tinchib qoladi. Bu bolaning qo‘lga o‘rganib qolganini ko‘rsatadi. Bolaning qo‘lga o‘rganishi unda teri, hid, harakat (kinestezik) va ko‘rish analizatorlari bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab shartli reflekslar vujudga kelganligini ko‘rsatadi. Shuni unutmaslik kerakki, noto‘g‘ri tarbiyalangan bolada bu refleks nihoyat darajada mustahkam o‘rnashib qolib, natijada bola o‘z o‘rnida yotmaydigan va faqat qo‘lda uqlashni talab qiladigan bo‘ladi. Bu esa bolaning normal o‘sishiga zarar yetkazadi.

Bola ulg‘aygan sari ko‘rish va eshitish analizatorlari bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina shartli reflekslar yuzaga kela boshlaydi. Keyinchalik bu analizatorlar bolaning tevarak-atrofdagi muhitni bilib olishida tobora katta rol o‘ynaydi. Bola ikki oylik bo‘lganida, uning deyarli hamma analizatorlarida shartli reflekslar paydo bo‘ladi. Bu shartli reflekslar tobora ko‘payib va murakkablashib, bola psixikasining o‘sishida fiziologik negiz bo‘lib qoladi.

### *Go‘daklik davrida psixik taraqqiyot*

Go‘dak bolalar psixikasining rivojlanishi, birinchidan, analizatorlarning takomillashuvi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, mustaqil harakatlarining o‘sishi bilan bog‘liqdir. Analizatorlarning tez takomillashuvi natijasida bola uch oylik bo‘lganidan so‘ng un-

da dastlabki shartli reflekslar yuzaga kela boshlaydi. Demak, ana shu davrdan boshlab bola psixikasi tez rivojlanish yo‘liga kiradi. Dastavval bolada harakat analizatorlari bilan bog‘liq bo‘lgan, undan so‘ng eshitish va ko‘rish analizatorlari bilan bog‘liq bo‘lgan shartli reflekslar yuzaga keladi. Ana shu tarzda barcha analizatorlarga nisbatan har xil murakkablikda shartli reflekslar tobora ko‘plab yuzaga kela boshlaydi. Shartli reflekslarning yuzaga keliishi bola psixikasining rivojlanishi uchun moddiy zamin bo‘ladi.



Chaqaloqlik davri.

Keyinchalik, ya’ni ikki-uch oylik bolalarda analizatorlar faoliyatining takomillashuvi natijasida ta’sir qilayotgan qo‘zg‘atuvchilarni farqlash qobiliyati yuzaga kela boshlaydi. Dastavval turli

ovozlarni, so'ngra ayrim yorqin ranglarni, ta'mlarni, farqlay boshlaydi. Nihoyat, uch oylik bola atrofidagi juda ko'p narsalardan odamni farqlaydigan va odamga nisbatan qandaydir boshqacha reaksiya qiladigan bo'ladi. Uch oylik bola oldiga kelgan odamga tikilib, emotsiyonal munosabatda bo'la boshlaydi. U odamga uzoq vaqt tikilib qaraydi. Lablarini harakatlantirib, tilini aylantirib, go'yo odamning nutqiga taqlid qilmoqchi bo'ladi. Ana shu davr dan boshlab bolalar bilan imkonli bo'richa mehribonlik ohangida gaplashib turish kerak. Ana shunday munosabatlar natijasida bolada qandaydir faollik, kattalarga talpinish reaksiyasi yuzaga keladi. Psixologlar bolalarda kattalar bilan bo'lgan munosabatdan yuzaga keladigan emotsiyonal reaksiyalarni **jonlanish kompleksi** deb ataganlar. Bu kompleksda bola uning bilan munosabatda bo'layotgan odamga muloyim tikilib, jilmayadi, qo'l va oyoqlari bilan talpinib, qandaydir ovoz chiqaradi. Bolada qandaydir kuchli mammunlik hissi yuzaga keladi. Lekin shuni unutmaslik kerak-ki, agar bolalar bilan keragidan ortiq darajada munosabatda bo'lib, ularda jonlanish kompleksini yuzaga keltiraverilsa, ular kattalarga o'rganib qoladilar va o'yinchoqlarga qaramay qo'yadilar.

Bola yoshiga to'lguncha juda ko'p harakatlarni o'zlashtirib oladi. Bolaning qiladigan turli-tuman harakatlari orasida qo'l harakatlari psixik taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan harakatlardir. To'rt oylik bola narsalarga qo'l cho'zadigan bo'ladi, ammo u halil o'zining qo'l harakatlarini idora qila olmaydi. Bola besh oylik bo'lgach, narsalarni ushlab, uni paypaslab, timirskilab ko'radigan bo'ladi. Bolaning qo'l harakatlari atrofidagi narsalarni bilish qurliga aylanadi, chunki u narsalarni paypaslab, timirskilab ko'rish orqali ularning ayrim xususiyatlarini bilib oladi.

Bolaning psixik taraqqiyotida murakkab harakatlarni egallab borishi juda katta rol o'ynaydi. Bola olti oylik bo'lgach, mustaqil o'tira oladigan bo'ladi. Bola o'tira boshlagandan so'ng uning nazar doirasi kengayib, unda yangidan yangi taassurotlar paydo bo'ladi. Bola ko'z o'ngida yangi taassurotlarning paydo bo'lishi idrok, diqqat, xotira kabi psixik jarayonlarning rivojlanishiga katta yordam beradi. Bola sakkiz oylik bo'lgach, yana bir murakkab harakatni, ya'ni emaklashni boshlaydi. Bola psixikasining rivojlanishida bu yangi harakatning ahamiyati juda kattadir. Emaklay

boshlagach bolaning atrofdagi narsalar bilan munosabatda bo‘lish imkoniyati kengayadi. Natijada mustaqil harakat qilib, yangidan yangi narsalarni taniy boshlaydi. Bolani hamma narsa qiziqtiradi. U bir narsani olib ikkinchi narsaga urib taqillatadi va chiqayotgan ovozga qulq soladi. Odatda, bu yoshdagi bolalar biron narsaning qopqog‘ini ochib yopishni yoqtiradilar. Bunday harakatlar bolaning qo‘l muskullarini mustahkamlaydi va narsalarning turli xossalarni bilib olishlariga yordam beradi. Og‘ir kasallikka uchramay, jismoniy jihatdan sog‘lom o‘sgan bola 9–10 oylik bo‘lganida yura boshlaydi. Bolaning mustaqil tarzda yura boshlashi uning hayotida g‘oyat katta hodisadir. Bola yura boshlagandan so‘ng uning psixik taraqqiyoti uchun juda katta imkoniyatlar yuzaga keladi. Yura boshlagan bolaning aktivligi kun sayin ortib, erkin harakat qilish doirasi kengayadi. Bemalol yura oladigan bola tor uy doirasidan tashqariga chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa idrok doirasini kengaytirib, mazmundor bo‘lishiga yordam beradi.

**Go‘dakning nutqni egallashi.** Bolaning atrofidagi katta odamlar onasi, otasi, akasi, opasi kabilar qaysi tilda gaplashsalar, bola ham shu tilni o‘rganadi. Nutqni egallahashdek juda ham qiyin jarayonni bola qisqa muddat davomida uddasidan chiga boshlaydi. Yangi tug‘ilgan bolada nutqi bo‘lmasada ularda qandaydir ovoz chiqarish, ya’ni yig‘lash xususiyati bo‘lib, bu xususiyat tashqi va ichki muhitdan keladigan signallarga (ochlik, tashnalik) bog‘liq bo‘ladi. Ortiqcha qattiq tovushlar ham bolani cho‘chitib yuboradi. Bola 2–3 haftalik bo‘lgach, unda tovushlarga nisbatan elementar tarzda bo‘lsa ham reaksiya yuzaga kela boshlaydi. Undan keyingi davrda esa, ya’ni bola 2–3 oylik bo‘lgach tovush bilan tovush chiqarayotgan manba o‘rtasida assotsiatsiya maydonga keladi. Bunda bola tovush eshitilayotgan tomonga qarab boshini buradigan bo‘ladi.

Ilk yoshidagi bolalar nutqining rivojlanishiga katta ta’sir qiluvchi momentlardan biri atrofidagi kattalarning nutq orqali qiladigan munosabatlariga ijobiq qarashlaridir. Bolalar borgan sari katta odamlar bilan ko‘proq munosabatga bo‘lishga intila boshlaydi. Katta odamlarning gaplariga taqlid qiladigan bo‘ladi. Ana shu tariqa sekin-astalik bilan bolaning tili chiga boshlaydi. Bola

6 oylik bo‘lgach ayrim tovushlarni birlashtirib «aya», «a-yya», «da- da» kabi so‘zlarni qayta-qayta aytadigan bo‘ladi. O‘tkazilgan tekshirishlarning ko‘rsatishicha, bolalarning so‘zlarini tushunishlari har bir so‘zni ifodalab beruvchi tovushlarning aniq idrok qila olishlariga emas, balki tovushlarning intonatsiyalarini payqab ola bilishlariga asoslanadi. Masalan: kichik yoshdagи bolaga «chapakka xo-xo chapakka» deb, chapak chalishga o‘rgatiladi. Ana shu so‘z aytilishi bilan bola chapak chalaveradi. Bordi-yu ana shu so‘zni boshqa so‘z bilan almashtirib qo‘ysak bola payqamaydi. Bolalar so‘zlarni ifodalovchi tovushlarni sekin-astalik bilan farqlaydilar. Bolalar biladigan so‘zlarning miqdori turli bolalarda turlicha bo‘ladi. Bu o‘rinda shuni ham aytib o‘tish lozimki, oiladagi ikki tillik muhit, albatta bolaning tili chiqishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bola har ikkala tilni ham barobar egallay boshlaydi va qaysi tilda gapirishni bilmaydi. Ana shuning uchun bola yoslik chog‘ida o‘z ona tilini egallashi kerak. Ikkinci til ona tili o‘zlashtirilgandan so‘ng egallay boshlansa, yaxshi bo‘ladi.

Olti-yetti oylik bolalarda taqlid qilish harakatlari paydo bo‘la boshlaydi. Bola psixikasining taraqqiyotida taqlidning roli juda kattadir. Bola juda ko‘p harakatlarni va nutqni asosan taqlid qilish orqali egallaydi. Bolani besh-olti oyligidan boshlab nutqni tushunishga o‘rgata boshlash lozim. Buning uchun bolaga o‘yinchoq yoki biron narsani bir necha marta nomini aytib ko‘rsatish kerak. Keyinchalik bolaga ba’zi narsalarning nomi aytiganda u ko‘zları bilan shu narsani qidirib topadigan bo‘ladi. Bu narsa bolaning kattalar nutqiga tushuna boshlagandan darak beradi. Bola nutqga ozmi-ko‘pmi tushuna boshlagandan so‘ng unga faqat narsalarning nomini emas, balki ayrim sodda harakatlarning ham nomlarini o‘rgata boshlash lozim. Harakatning nomini og‘zaki takrorlab, ayni vaqtida shu harakatning bajarilishiham bir necha marta ko‘rsatilsa, bola harakatning nomini eshitish bilan uni bajarishga o‘rganadi. Masalan, chapak-chapak, deb takrorlab turib chapak chalinsa, bola shu so‘z aytilishi bilan chapak chaladigan yoki bolaga «assalomu alaykum», deb ta’zim qilib ko‘rsatilsa, bola shu so‘zni eshitishi bilan ta’zim qiladigan bo‘ladi. Bola ayrim so‘zlarga tushuna boshlagach, kattalar bilan ko‘proq aloqada bo‘lishni xohlaydi. Ana shundan foydalanib, bo-

la bilan imkonи boricha ko‘proq munosabatda bo‘lishga, uning nutqini o‘stirishga harakat qilish lozim. Buning eng oson yo‘li bola bilan shug‘ullanayotgan vaqtда унга eng sodda so‘z elementlarini to‘g‘ri ayta bilishni o‘rgatishdir. Chunonchi, kuchukning rasmini ko‘rsatib, «Mana, vov-vov», mushukning rasmini ko‘rsatib, «мана, miyov-miyov», xo‘roz yoki tovuqning rasmini ko‘rsatib, «мана quq-qu» deyish kerak. Bunda bolalar «vov-vov», «miyov-miyov», «quq-qu» kabi so‘z elementlarini ravon talaffuz qilishga o‘rganadilar. Bundan tashqari 9–10 oylik bolalarga o‘z tana a‘zolarining nomlarini ham o‘rgata boshlash kerak. Bolaga — «мана burni», «мана og‘zi», «мана ko‘zi», «мана qoshi», «мана qo‘li» deb bir necha marta takrorlab ko‘rsatilgandan keyin bola o‘z a‘zolarining nomini aytish bilan ularni birin-ke-tin ko‘rsatadigan bo‘ladi. Keyinchalik bolalarda ana shunday sodda so‘zlarni umumlashtirish ko‘nikmasini ham hosil qilish kerak. Bolaga «Oyingni ko‘zi qani?», «Qo‘g‘irchoqning burni qani?», «Akangni qo‘li qani?» kabi savollar berilsa, bola bu a‘zolarni to‘g‘ri ko‘rsatishga o‘rganadi.

Go‘dak yarim yoshida ular bilan muloqotga kirishish jarayoni ikki xil xususiyat kasb etadi. Avval muloqot bir tomonlama, faqat ta’sir o‘tkazish bilan chegaralansa, endi teskari munosabat ham vujudga keladi. Bola kattalarning kiyimini tortqilaydi, ularga qichqiradi va boshqa harakatlar. Mazkur holat bolaning kattalar bilan muloqoti rivojlanishining yuqori bosqichga ko‘tarilishidan dalolat beradi. Bola hayotining ikkinchi yarim yilligida kattalar nutqini idrok qilish va uni tushunishi rivojlanadi. Bolaning hamkorligidagi o‘yin faoliyati ham, his-tuyg‘uga berilishi ham nutq va faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. Bola juda ko‘p harakatlarni taqlid qilish asosida egallaydi. Bolani 5–6 oylikdan nutqni tushunishga o‘rgatish lozim. Buning uchun bolaga o‘yinchoq yoki biror narsaning bir necha marta nomini aytib ko‘rsatish kerak. Keyinchalik bolaga ba’zi narsalarning nomi aytilganda, u ko‘zлari bilan shu narsani qidirib topadi. Bola dastlabki paytlarda tilga tushuna boshlashi katta odamlarning talaffuz-intonatsiyalari va bolaga ko‘rsatib qiladigan ishora-harakatlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun hali yoshiga to‘limgan bolalar har bir so‘zni shu so‘z orqali ifodalangan

aniq narsalar bilan bog‘lay olmaydilar. Boshqacha qilib aytganda, yoshiga yetmagan bolalarda ayrim so‘zlarni tushunish ha- li ikkinchi signal darajasiga (ya’ni signalning signali darajasiga) ko‘tarilgan emas. Yoshiga yetmagan bolalar so‘zlarni shu so‘zlar orqali ifodalangan narsalar bilan assotsiativ tarzda bog‘lash orqali emas, balki intonatsiya va imo-ishora, harakatlar orqa- li tushunadilar.

Agar go‘dak 3–4 oyligidan gu-gulashga intilsa 5–6 oyligida ayrim tovushlarni qiyqiriq orqali ifodalaydi. Nutqni idrok qilishni va tushunishning oxirgi bosqichi 9–10 oyligidan boshlanadi. Tadqiqotchi F.I. Fratkina kattalarning go‘dakka qaratilgan nutqi- dan quydagicha ta’sirlanish holatlarini aniqlagan:

- 1) nomi aytilan buyumga javob tariqasida burilib qarash. (7–8 oyligida);
- 2) turmush tajribasida egallagan harakatlarini kattalar eslati- shi bilan bajarishga intilish (8–9 oyligida);
- 3) kattalarning nutq orqali ko‘rsatmasidan oddiy nutq top- shriqlarini bajarish (9–10 oyligida);
- 4) kattalarning nutq orqali ko‘rsatmasi bo‘yicha zarur pred- metni tanlab olish (10–11 oyligida);
- 5) mumkin emas taqiqlovchi so‘z yordamida harakatni to‘x- tatish (12 oyligida).

Go‘dakdan o‘zgalar nutqini idrok qilish va unga javob berishga intilishi, harakatni amalga oshirishi murakkablashib boraveradi. Bular aqliy imkoniyatlar darajasiga bevosita bog‘liq. 1 yoshgacha davr **nutqgacha davr** deb ataladi. Bu davrda go‘dak bosh miya yarimsharlari po‘srida ikkinchi signallar sistemasi faoliyati bi- lan bog‘liq anchagina ishlarni, ya’ni nutq taraqqiysi bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni amalga oshiradi.

Nutqni tushunib idrok qilish kun sayin ortadi. U bir nima- ni olishni so‘rashni, aytishni xohlaydi, asta-sekin birinchi so‘zlar (10–12 ta gacha) paydo bo‘ladi. Bolalar nutqining o‘sishi ular id- roki, xotirasi, tafakkuri, xayoli va irodasi kabi yuksak psixik jara- yonlarning rivojlanishiga yordam beradi.

Barcha **sezgi a’zolari** go‘dak hali onaning qornidalik paytidayoq ancha takomillashgan bo‘ladi. Shuning uchun bola tug‘ilishidan boshlaboq uning barcha sezgi a’zolari tashqaridan va ichki muhit-

dan bo‘ladigan ta’limotlarni aks ettirish qobiliyatiga egadir. Masalan, o‘n kunlik bola ko‘z qarashini biron yorug‘lik manbai (elektr lampochkasi) ustida to‘xtata oladi. Bir oylik chaqaloq unga engashib qarab turgan (yuzini yaqin olib kelib) onasining chehrasiga o‘z ko‘z qarashlarini uzoq vaqt to‘xtata oladi.

Ko‘rish sezgisi chaqaloq bolalarda juda tez rivojlanadi. 2 oylik bola sekin harakat qilayotgan narsani ko‘z qarashi bilan kuzata oladi. 4 oylik bola esa ko‘rish emas, narsalarga aktiv qaray oladigan bo‘lib qoladi. U qarayotgan narsalari turli hissiyotlarni yuzaga keltiradi. Go‘dak bolalarda ko‘rgan narsalarini tanish 5–6 oylik davrda yuzaga keladi. Bola dastavval o‘zi bilan eng ko‘p munosabatda bo‘ladigan odamni, ya’ni onasini tanib oladi. Sekin-asta atrofdagi boshqa yaqin odamlarni tanib oladi. Buni biz kichik bolalarning uyiga begona odam kelganda unga uzoq tikilishi va yotsirashidan bilamiz.

Bolalarda ranglarni sezish juda erta ko‘rina boshlaydi. Masalan, professor N.I.Krasnogorskiyning o‘tkazgan tajribalariga ko‘ra, ranglarni farqlash bolalarda 3–4 oylik davrdan boshlab ko‘rina boshlaydi. Bola har xil rangli butilkachalardan ovqatlantirilgan (sut emizilgan), lekin faqat sut qizil butilkadagina berilgan. Oradan biroz vaqt o‘tgach, bola faqat qizil rangli butilkagagina reaksiya qiladigan, ya’ni faqat qizil butilkadagi emizikni og‘ziga oladigan, boshqa butilkalarga esa befarq qaraydigan bo‘lgan. Bu tajriba bolalarda ranglarni sezish va farqlash juda erta hosil bo‘lishini ko‘rsatadi.

Ilk yoshdagи bolalarda eshitish sezgisi ham juda erta ko‘rina boshlaydi. Lekin bola tug‘ilgandan so‘ng nechanchi kundan boshlab eshita boshlashini aniqlash qiyin. Yangi tug‘ilgan bola 4–5 kun davomida hech narsani eshitmaydi.

Buning sababi shundaki, yangi tug‘ilgan bolaning o‘rtal quloqlari qorindalik paytida suyuqlik modda bilan to‘lib qolgan bo‘ladi. Ana shu suyuqlik modda tugamaguncha havo to‘lqinlari bola quloqlarining nog‘ora pardasiga borib yetmaydi. 10–15 kunlik bola qattiq tovushlarga reaksiya qila boshlaydi. Buni biz qattiq tovush chiqqan paytida (masalan, bolaning quloqlariga yaqin joyda qattiq chapak chalinsa yoki eshik qattiq yopib yuborilsa) bolaning cho‘chib tushishidan bilamiz.

2–3 oylik bolalar taqir-tuqurga qulog soladigan bo'lib qoladilar. Masalan, yig'layotgan bolaning oldida shaqildoq shaqillatilsa, bola yig'idan to'xtab qulog sola boshlaydi. 3–4 oylik bolalar faqat eshitishgina emas, balki tovush chiqayotgan tomonga boshlarini buradigan bo'ladilar. Ana shu davrdan boshlab bolalarda turli tovushlarni farqlash ham yuzaga kela boshlaydi. 4–5 oylik bola onaning tovushini boshqa odamlarning tovushlaridan bemalol farqlay ola-digan bo'ladi. Tovushlarni farqlash qobiliyati nutq tovushlarini va undan so'ng ayrim so'zlarni o'zgartirish uchun asos bo'ladi. Eshitish sezgisining normal rivojlanishi ilk yoshidagi bolalarning nutqni egallashlari (til chiqishi) uchun g'oyat katta ahamiyatga ega. Eshitish sezgisi bola bilan xususan kattalar munosabatda bo'lganlarida jadal rivojlanadi. Shuning uchun ilk tarbiyachilari kichik bolalar bilan nutq orqali ko'proq munosabatda bo'lishlari kerak.

Bolalarda hid, ta'm va teri sezgilari ham go'daklik davridan boshlab tez rivojlna boshlaydi. Agar 2–3 oylik bolaning emizigiga qo'lansa (yoqimsiz) hid tarqatuvchi biron narsa surtib qo'yilsa, bola bunda betoqatlanib, lab-lunjlarini bujmaytira boshlaydi. Ta'm sezgisi ham deyarli shu davrdan boshlab yaqqol ko'rindi. Chunonchi, ona sutiga o'rganib qolgan bolaga biroz shakar solib shirin qilinadigan sigir suti berilsa, emgisi kelmaydi. Ana shulardan xulosa qilib aytish mumkinki, ilk yoshdagi kichik bolalarda hid va ta'm sezgilari yaxshi ishlaydi.

Teri sezgisi bolalarda tug'ilgan paytlaridan boshlab mavjuddir. O'tkazilgan tajribalarning ko'rsatishicha, biron narsaning tekkanini sezish (ya'ni tuyish organi) go'dak bolalarda katta odamlarga qaraganda ham o'tkiroqdir. Bundan tashqari, ilk yoshdagagi kichik bolalar haroratga nisbatan ham juda sezgir bo'ladilar. Ular cho'miltirilayotgan suvning salgina isib yoki salgina so-vib qolganini darhol sezadilar. Ilk yoshdagi bolalarning hid, ta'm va teri sezgilarini takomillashtirish yuzasidan maxsus ishlar (mashqlar) olib borilmaganligi tufayli bu sezgilar nisbatan sekin rivojlanadi. Ilk yoshdagi bolalarning psixik jihatdan rivojlanishlari uchun harakat sezgisining ahamiyati juda kattadir. Go'dak bolaning juda ko'p xilma-xil harakatlari ichida uning qo'l harakatlari juda katta rol o'ynaydi. Bola biron narsani qo'li bilan ushlashga o'rgangandan so'ng uni rosa timirskilab ko'radigan

bo‘ladi. Lekin bola biron narsani ushlashi uchun dastavval u narsani atrof-muhitdagi boshqa narsalardan yaqqol ajratishi kerak. Buning uchun bola qo‘l va ko‘z harakatlarini moslashtirib idora qila olishi lozim. Bunday murakkab harakatlarni bola darhol egallay olmaydi. O‘tkazilgan tajribalarning ko‘rsatishicha, bola murakkab qo‘l harakatlarini ilk yoshida egallaydi.



Go‘gakning harakatlari va faoliyati.

Yangi tug‘ilgan chaqaloq bolalarda harakat sezgilari boshqa sezgilarga nisbatan yaxshi rivojlanmaganligi tufayli o‘z harakat-

larini boshqara olmaydi. Bolani yo'rgakdan yechib qo'ygan payt-da u juda ko'p tartibsiz harakatlarni qiladi. Uning hamma yog'i (qo'llari, barmoqlari, oyog'i, oyoq barmoqlari, ko'zлari, boshi) harakatlanadi. Lekin bolaning bu harakatlarida mutlaqo moslik, tartib bo'lmaydi. Bolaning o'z harakatlarini idora qilishi, ya'ni harakat sezgilarining rivojlanishi bosh miya harakat sohasida-gi nerv tolalarining miyelinizatsiya qilinishi bilan bog'liqdir. Bu narsa bolaning 2—3 oylik davridan boshlanadi. Shuning uchun bola 2—3 oylik davridan boshlab o'z harakatlarini idora qila boshlaydi. Masalan, ana shu davrdan boshlab bola unga uzatilgan narsalarga qo'lini cho'zadigan, ushlashga intiladigan bo'ladi. 2—3 oylik bolani qorni bilan yotqizilsa, u boshini ko'taradi, 3—4 oylik bola boshini bemalol ushlab oladi, 4—5 oylik bola esa o'z gavdasini tik holda ushlab tura oladi. 6—7 oylik bola mustaqil o'tira oladi. Ana shu tariqa ilk yoshdagi bolaning harakat sezgi-lari rivojlanib boradi.

Bolalarda **idrokning rivojlanishi** sezgi a'zolarining, ya'ni analizatorlarning tobora takomillashishi bilan bog'liqdir. Lekin, idrok faqat sezgi a'zolarigagina bog'liq jarayon emas. Idrok jara-yonida sezgilardan tashqari odamning butun turmush tajribasi ham ishtirok etadi. Shuning uchun idrokning rivojlanishi tur-mush tajribasining tobora orta borishi, odamning turli bilimlarga ega bo'lishi bilan ham uzviy bog'liqdir. Go'dak bolalarning un-cha-muncha idrok qilishlari asosan uch-to'rt oylik davrdan bosh-lansada, biroq, idrok qiladigan narsalarining doirasi hali juda tor bo'ladi. Bu davrda bola ko'z o'ngidagi yaltiroq yoki tebranib, harakatlanib turuvchi narsalarni idrok qila oladi. Bola to'rt-besh oylik bo'lib, narsalarni qo'llari bilan ushlaydigan bo'lgach, uning idroki mazmun jihatidan boyib, ancha takomillashadi. Buning asosiy sababi shundaki, ko'rish hamda eshitish sezgilari-ja endi barcha teri sezgilari ham qo'shiladi. Natijada bola narsa-larni har tomonlama to'la idrok qila boshlaydi.

Bola yarim yoshga to'lib, o'zi mustaqil o'tira boshlagach, uning idroki yana ham tezroq rivojlanadi. Bunda birinchidan, uning ko'rish doirasi ancha kengayadi, ikkinchidan esa, narsa-larni sinchiklab timirskilab ko'rish imkoniyati ortadi. Bu davrda bola atrofidagi narsalarni (xususan o'ziga tegishli narsalarni) qay-

ta-qayta idrok qilish tufayli ularni bir-biridan farqlaydigan, o'ziga tegishli narsalarni taniydigan bo'lib qoladi. Bola emaklab, undan so'ng yura boshlagach, uning tevarak-atrofidagi narsalarni idrok qilish imkoniyati yanada kengayib ketadi. Bola xohlagan narsasining oldiga borib, uni qo'liga olib ushlab ko'radi, atrofidan aylanib qaraydi, iloji bo'lsa, albatta yalab ham ko'radi.

Bolalarda **diqqat** juda erta rivojlanan boshlaydi. Bir-ikki haftalik chaqaloqlarda diqqatning hech qanday alomati ko'rinsama ham, oradan sal o'tmay, ya'ni bolaning bir oylik davridan boshlab, ixtiyoriy diqqat alomatlari yaqqol ko'rina boshlaydi. Demak, bolaning bir oylik davrida uning diqqatini har xil kuchli qo'zg'atuvchilar (qattiq tovush, ortiqcha yorug'lik kabi) ixtiyorsiz ravishda o'ziga jalb qila boshlaydi. Ikki-uch oylik bolalar esa, shaqir-shuqurga qulqoq soladigan (shaqildoqlarning tovushiga ovunadigan) bo'la boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalarning diqqatlarini yorqin (yaltiroq) rangli narsalar ham beixtiyor jalb qila boshlaydi. Bolaning ko'z o'ngidagi narsa qanchalik rang-barang bo'lsa, bola unga shunchalik ko'p e'tibor beradi.

**Xotira** bola hayotining dastlabki kunlaridan boshlaboq rivojlanan boshlaydi. Bolada xotiraning dastlabki alomatlari yaqin atrofidagi odamlarni va narsalarni tanishida ko'rina boshlaydi. Buni biz bola o'ziga tanish bo'lgan narsani ko'rganida qiladigan harakatlaridan ko'rishimiz mumkin. Masalan, bola o'ziga yaqin odamni ko'rganida unga talpinadi yoki notanish odamdan yot-siraydi. Kichik yoshli bolalarda tanib olish qobiliyatining borligi idrok qilgan narsa va hodisalarini esda olib qolish imkonini beradi. 1 yoshga yaqin bolada xotiraning murakkab turlari, ya'ni eslash vujudga kela boshlaydi. Bolalar bu davrdan boshlab ilgari idrok qilgan narsa va hodisalarini eslay oladigan bo'ladi. Bunda bolalardagi tasavvurlarning roli nihoyatda kattadir. Tasavvurlar tufayli bolalar o'tgan narsalarni bemalol eslay oladilar, masalan, bolaga ko'z o'ngida bo'limgan narsaning nomini aytсангиз, u ko'zlari bilan atrofqa qarab shu narsani izlay boshlaydi.

Bola xotirasining rivojlanishida nutqning o'sishi juda katta ahamiyatga ega. Bu davrda bola narsa va hodisalarini faqat be-vosita ko'rish orqali emas, balki shu narsa va hodisalarning nomlari orqali ham idrok qila oladigan bo'ladi. Bundan tashqari kat-

talardan so‘rab bilib olish, eshitish orqali ham o‘z xotiralarini boyitadilar.

### **Nazorat savollari:**

1. Chaqaloqlik davri xususiyatlari haqida gapirib bering.
2. Chaqaloq bolalarning ovqat hazm qilish a’zolarining qanday o‘ziga xos xususiyatlari bor?
3. Go‘daklik davrida bola nerv sistemasining rivojlanishi.
4. Skolioz qanday kasallik?
5. Go‘daklik davrida psixik taraqqiyot xususiyatlari haqida gapirib bering.
6. Bola nutqini rivojlanishi nimalar bilan bog‘liq?
7. Bola nutqini o‘stirishda qanday mashqlardan foydalanish samarali hisoblanadi?
8. Tadqiqotchi F.I. Fratkina kattalarning go‘dakka qaratilgan nutqidan qanday ta’sirlanish holatlarini aniqlagan?
9. Bolada hid va ta’m bilish analizatorlari qachon rivojlanadi?
10. Jonlanish kompleksi nima?
11. Olti-yetti oylik bolalarda qanday taqlid qilish harakatlari paydo bo‘ladi?

#### **6.4. Ilk yosh davrida psixik taraqqiyot.**

#### **Ilk yoshdagagi bolaning jismoniy jihatdan o‘sishi**

Bola yoshidan oshgach, uning go‘daklik davri tugaydi. Bir yoshdan uch yoshgacha bo‘lgan davr odatda ilk yosh davri (bog‘chagacha yosh) deb yuritiladi. Bu davrda ham bola jismoniy va psixik jihatdan tez rivojlanishida davom etaveradi. Lekin, uning rivojlanishi chaqaloqlik davridagiga nisbatan ancha sekinlashadi. Bola yoshidan oshgach, uning tashqi qiyofasi ancha o‘zgaradi. Bu o‘zgarish turli a’zolarning nisbati boshqacha bo‘lib qolganida ko‘rinadi. Bir yoshdan oshgan bolaning bosh suyaklari ilgarigidek tez o‘smaydi. Boshining o‘sishi biroz sekinlashib, uning o‘rniga qo‘l va oyoqlari tez o‘sma boshlaydi. Bolaning bo‘yi 25 sm o‘ssa, bir yoshdan ikki yoshga to‘lguncha bo‘lgan davrda 10 sm ga o‘sadi. Ikki yoshdan uch yoshgacha esa, bolaning bo‘yi faqat 6–7 sm ga o‘sadi. Bog‘chagacha bo‘lgan davrda bolaning vazni ham

ana shu tariqa rivojlanadi. Agar tug'ilgandan bir yoshga to'lguncha bo'lgan bolaning vazni uch barobarga ortsa, bir yoshdan ikki yoshgacha bo'lgan bolaning vazni 3,5 kg ortadi. Ikki yoshdan uch yoshgacha esa faqat 1,5 kg ga ortadi. Shuni e'tibordan chetda qoldirmaslik kerakki, bolaning bo'yи va vaznining o'sishiga nisbatan bo'lgan bu ma'lumotlar hamma bolalar uchun umumiylamda o'zgarmas emas. Bu ma'lumotlar o'rtacha hisobga to'g'ri keladi. Kun tartibi, bola yeydigan ovqatning turlari, ayniqsa ovqatning miqdori, sifati va irsiy xususiyatlar bola bo'yи hamda vaznining o'zgarishiga katta ta'sir qiladi. Bog'chagacha tarbiya yoshidagi bolalar suyaklarning rivojlanishida ham jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Bu yoshdagagi bolalarda tog'a yosmon suyaklarning o'sishi va qotishi tezroq davom etadi. Umurtqa suyaklari borgan sari mustahkamlanib, suyaklanish (qotish) jarayoni tezlashadi. Umurtqa suyaklarining bunday o'zgarishi bola yurganda, yugurganda va murakkab sakrash harakatlarini bajarganda gavda og'irligini ko'tarish imkonini beradi. Biroq ilk yoshdagagi bolalar umurtqa suyaklari hali juda ojiz va elastik bo'ladi. To'g'ri o'tirmaslik, tekis qilib solinmagan o'rinda yotish natijasida bolaning umurtqa suyaklari qiyshayib o'sishi mumkin. Bosh suyagining tutashmagan joyi, ya'ni kalla liqildoqlari bitib ketib, ensa va tepa qismlari o'sadi. Bolaning dastlabki sut tishlari chiqib, jag'i avvalgiga nisbatan aktiv ishlay boshlaydi.

Bir yoshga to'lgan bolaning harakatchanligi ortib borgan sari uning ichki organlari faoliyatida ham muhim o'zgarishlar yuzaga keladi. Ma'lumki, har qanday harakat qon aylanishi bilan nafas olishning aktiv ishlashini taqozo qiladi. Bola bir yoshga to'lgach, bemalol yurib, har xil harakatlarni qiladigan bo'lgach uning yurak vazni hamda o'pkasining hajmi anchagina kattalashadi, yurak muskullari ham birmuncha mustahkamlanib qon bosimi bir qadar oshadi. Bu esa qon tomirlari urishining sekinlashishiga olib keladi. Masalan, chaqaloq bolaning qon tomiri daqiqaga 120–130 marta ursa, bog'chagacha tarbiya yoshida bolaning yuragi 110–120 marta uradigan bo'lib qoladi. Bog'chagacha tarbiya yoshidagi bola organizmi juda ko'p ozuqa moddalarni talab qiladi. Yoshidan oshgan bola turli xil ozuqa moddalarni asosan ovqatdan oladi. Bola yoshidan oshgach, ko'krakdan ajratiladi. Ana shu davrdan boshlab uni kattalar iste'mol qiladigan ovqat-

larga sekin-asta o'rgatila boshlanadi. Bolaning faqat ona sutini iste'mol qilishdan boshqa ovqatlarni ham iste'mol qilishga o'tishi uning ovqat hazm qilish organlarida o'zgarish yasaydi.

Bolalarning jismoniy jihatdan normal va sog'lom o'sishlari uchun oilada ham MTMdA ham ularning qat'iy rejim bilan sifatli ovqatlantirishga jiddiy e'tibor bilan qarash kerak. Ilk yoshdagi bola ovqatlanishida yuzaga keladigan bu o'zgarishlar bolaning qon tarkibini ham o'zgartiradi. Ovqatning turi ortgan sari qondagi eng muhim elementlar bo'lmish gemoglobin va eritrotsitlar miqdori ortadi. Lekin shunday bo'lsa ham bu yoshdagi bolada organizmni yuqumli kasalliklardan muhofaza qilib turadigan oq qon tanachalari (leykotsitlar) yetarli miqdorda bo'lmaydi va ular turli yuqumli kasalliklarga tez chalinadigan bo'ladi. Shunday qilib, ilk yoshdagi bola jismoniy jihatdan tez o'sishda davom etsa ham, u hali tashqi muhit o'zgarishlariga yaxshi moslasha olmagan bo'ladi. Shuning uchun muhitning salgina o'zgarishi bolaga darhol ta'sir qiladi. Bola yangi muhit sharoitida tez toliqadi.

Bolaning psixik jihatdan sog'lom o'sishi uchun uning organizmini mustahkamlaydigan tadbirlarga, ya'ni qat'iy kun tartibi, gigiyena qoidalari va organizmni sistemali tarzda jismoniy jihatdan chiniqtirishga rioya qilish kerak.

#### *Ilk yoshdagi bolalar nerv sistemasining rivojlanishi*

Bolaning bog'chagacha yoshdagi davrida ham nerv sistemasi tez rivojlanishda davom etadi. Bu davrda bosh miyaning hajmi va vazni anchagina ortadi. Masalan, bola bir yoshdan ikki yoshga kirguncha bosh miyasining vazni 940 grammidan 1025 grammga ortadi. Ikki yoshdan uch yoshgacha bo'lgan davrda esa bola miyasining vazni 1025 grammidan 1112 grammga ortadi. Bu davrda bola miyasi vaznining ortishi bilan birga miyaning ichki qismalarida ham jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Miya po'stidagi nerv hujayralarining (neyronlarning) tuzilishi murakkablashadi, ya'ni neyronlarning shoxsimon o'simtalari tobora orta boradi. Bosh miya po'stidagi nerv hujayralarining takomillashuvi turli assotsatsiyalarning (muvaqqat aloqalarning, shartli reflekslarning) yuzaga kelishini osonlashtiradi va tezlashtiradi.

Bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bola nerv sistemasining rivojlanishida ham nerv tolalarining miyelinizatsiyalanishi davom etadi. Bu davrda asosan bosh miya yarimsharlaridagi nerv hujayralarini bir-biri bilan bog‘lovchi nerv tolalari miyelin pardasi bilan qoplanib, bir-biridan ajratiladi. Bola psixikasining rivojlanishida buning ahamiyati g‘oyat kattadir. Chunki shu munosabat bilan, ya’ni miyelinizatsiya orqali nerv tolalarining bir-biridan ajratilishi bilan turli taasurotlar (qo‘zg‘alishlar) nerv sistemasida tezroq tarqaladi va ravshanroq aks ettiriladi. Nerv hujayralarini bir-biri bilan bog‘laydigan juda ham nozik nerv tolalarining miyelin pardasi bilan qoplanib, bir-biridan ajratilishi butun nerv sistemasining tobora uyg‘un va puxta ishlashiga yordam beradi. Bu miya po‘sti nerv sistemasidagi barcha quyi boblar faoliyatini astasekin o‘ziga bo‘ysundira boradi. Shu tariqa bolaning butun hayotida oliy nerv faoliyatining roli orta boradi.

Ilk yoshdagi bolalarda shartli reflekslar tez va osonlik bilan yuzaga keladi, xili orta boradi. Bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bolalar nerv sistemasining rivojlanishidagi eng xarakterli tomonlardan biri shundan iboratki, bu davrda shartli tormozlanishning oddiy turlari yuzaga kela boshlaydi. Shartli tormozlanishning ishlay boshlashi tufayli bu yoshdagi bolalar ayrim harakatlardan o‘zlarini darhol to‘xtata oladigan bo‘ladilar. Masalan, ikki yoshli bolaga «tegma», «jim bo‘l», «to‘xta», «yo‘q» kabi so‘zlarni tegishli qo‘l yoki boshqa ishoralar bilan aytilsa, u o‘zini ba’zi harakatlardan tiya oladi. Shartli tormozlar ko‘paya borgan sari ularning hosil bo‘lishi ham yengillasha boraveradi va bola o‘z xatti-harakatlarini ifoda qila olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Oliy nerv faoliyatining ishida signallar sistemasining nisbati o‘zgaradi. Agar bir yoshgacha bo‘lgan bola asosan birinchi signallar sistemasi orqali tashqi muhitni aks ettirsa, ikki yoshga to‘lgandan so‘ng ikkinchi signallar sistemasi ham ishga tusha boshlaydi. Lekin bog‘chagacha tarbiya yoshidagi davrda birinchi signallar sistemasining faoliyatni ustun bo‘ladi. Bu davrda ikkinchi signallar sistemasi doirasida, ya’ni nutq materiallari, so‘zlar, gaplarga nisbatan shartli reflekslar yuzaga kela boshlaydi. Bu yoshdagi bolalar anchagina so‘zlarning ma’nosini to‘gri tushuna oladigan bo‘ladilar.

Bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bolalar analizatorlari ham tobora takomillashib boradi. Ularning ko‘rish, eshitish, ta’m va hid bilish, teri hamda harakat sezgilarining sezgirligi ancha o‘tkirlashadi. Ana shularning hammasi bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bolalar psixikasining yanada rivojlanishi uchun qulay sharoit tug‘diradi.

Ma’lumki, bolaning bog‘chagacha tarbiya yoshidagi davri butun sezgi a’zolarining jadal taraqqiy etish davri, ya’ni **senzitiv davr** hisoblanadi. Aslini olganda bolaning uch yoshgacha bo‘lgan davri senzitiv taraqqiyotining boshlanish davridir. Bu davrdan boshlab bolaning turmush tajribasi orta boradi. Bolalarning tashqi olamni bilishdagi aktivliklari ortgan sari ular bir-birlaridan individual jihatdan farq qila boshlaydilar. Buning sababi shundaki, har bir bola maxsus sharoitda o‘ziga xos ravishda aktivlik ko‘rsatadi va tevarak-atrofidagi turli-tuman narsa va hodisalarни bilishga harakat qiladi. Bu esa ularda har sohaga doir o‘nlab savollarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Mana shularning barchasi bolaning bog‘cha yoshidagi davrida boshlanadigan haqiqiy senzitiv davr uchun asos yaratadi.

Miyaning rivojlanishi.	
Asosiy nerv tolalari bosh miyada bola tug‘ilishidan avval paydo bo‘ladi.	Homiladorlik davrida miyaning bazaviy arxitekturasi, ya’ni shakli paydo bo‘lib, uning asosiy uchastkalari shakllanadi (stvol, talamus, miyacha), ammo nerv tolalari hali to‘liq shakllanmaydi.
Bolaning miyasi 3 yoshlik davrida miya tuzilishidagi nerv tolalarining (sinaps) eng yuqori zichligiga egadir.	Ilk yosh davrdagi bolaning miyasi sinapslarning tezkor paydo bo‘lishi ro‘y beradi. Shundan so‘ng «tekis bosqich» vujudga keladi, so‘ng kamayish bosqichi bo‘lib, unda nerv tolalarining zichligi kamyib, kattalar darajasini eslatadi.

	<p>Yaxshi ovqatlanish miyaning sog'lom rivojlanishini ta'minlashning eng yaxshi usullaridan biridir.</p>	<p>Yaxshi ovqatlanish homilador ayol uchun ham, bola uchun ham juda muhimdir. Homilador ayollarga yod, foliy kislotasi va temir moddalari ning yetarli miqdori kerak; ular nikotin, alkogol va man etilgan dori-darmonlardan butun homiladorlik davrida voz kechishlari lozim.</p>
	<p>Bolalar har qanday jahon tillarini o'rganishga layoqat bilan tug'iladilar.</p>	<p>Yangi tug'ilgan chaqaloqning miyasi til o'rganishga «yo'naltirilgan».</p>
	<p>Ilk yosh davrida miya shakllanishiga stressning salbiy ta'siri haqida dalillar mavjud.</p>	<p>Ilk yosh davrida qattiq stressga duch kelgan bolalar, stressni boshidan kechirmagan bolalarga qaranga, turli aqliy, hissiy nuqsonlarga ko'proq duchor bo'ladilar.</p>
	<p>Ilk yosh davrida bolaning uzoq muddatda Mehribonlik uyida bo'lishi uning miyasiga negativ ta'sir ko'rsatadi.</p>	<p>Bu juda murakkab masala. Asosiy rolni tarbiyaning sifati o'ynaydi. Noadekvat tarbiya bolaning aqliy, ijtimoiy, hissiy va jismoniy rivojlanishidagi muammolarning negizi bo'lishi mumkin. Lozim bo'lganda vaqtida kerakli aralashuvlar sharoitni o'zgartirishi mumkin.</p>
	<p>Ma'lum bir ilk yosh davrlari-da salbiy tajriba yoki muhim bo'lgan rag'batlantirishning yo'qligi jiddiy negativ va mustahkam oqibatlarga olib keladi.</p>	<p>Bolaning aqliy rivojlanishi uchun yoshning kritik davrlari mavjud. Ko'pchilik mutaxassislar buni sezgir davr konsepsiysi deb nomlashadi. Sezgir davrlar – bu shunday ma'lum bir yosh davriki, bunda ma'lum bir rag'batlantirishning yo'qligi rivojlanishda nuqsonlarga yoki kamchiliklarga olib kelishi mumkin.</p>

## *Ilk yoshdagи bolalar psixikasining taraqqiyoti*

Bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bolalarning analizatorlari yaxshi takomillashgani va ular erkin harakat qila olish imkoniyatiga ega bo‘lganliklari tufayli bu davrda psixik jihatdan tez rivojlanadilar. Ma’lumki, bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bolalar faqat yurib va emaklabgina qolmay, yugurish, sakrash hamda baland va past to‘siqlardan oshib o‘tish imkoniyatiga ham ega bo‘ladilar. Bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bolalarning ertadan kechgacha turli harakatlar qila olish imkoniyatlari tevarak-atrofdagi muhitni bilish ehtiyojini qondirishda juda katta sharoit yaratib beradi.

Bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bolaning turmush tajribasi deyarli yo‘q bo‘lgani uchun uni hamma narsa qiziqtiradi. U o‘zining kundalik tinimsiz harakatlari davomida kattalarga taqlid qilib, mustaqil ravishda kiyinish, yechinish, ovqat yeyish, yuvinish kabi harakatlarni o‘zlashtira boshlaydi. Bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bola o‘zining kundalik harakatlari davomida hech bir erinmay, ko‘z o‘ngidagi hamma narsalarni tekshirib ko‘radi. Natijada juda ko‘p yangiliklarni bilib oladi, o‘zining sezgi va idrokini, tasavvur va xotirasini, tafakkur va nutqini, hissiyot va xayolini – umuman hamma psixik jarayonlarini rivojlantiradi.

Bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bolalarda nutq juda tez rivojana boshlaydi. Ikki yoshga to‘lgan bola bir necha so‘zlarni aniq taffuz qila oladi va atrofdagi kattalarning gapiga tushuna boshlaydi. Nutqning o‘sishi, ya’ni so‘zlay bilish qobiliyati bolaning butun psixik taraqqiyotiga, undagi barcha psixik jarayonlarning va psixik xususiyatlarning o‘sishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bolaning psixik taraqqiyotida asosan ikkita omil – erkin harakatlar va nutq katta ahamiyat kasb etadi.

Bu yoshdagи **davrda** sezgilarning rivojlanishi analizatorning tobora takomillashuvi bilan bog‘liqdir. Ikki yoshdan oshgan bolaning sezgilari (ko‘rish, eshitish, hid va ta’m bilish, teri va harakat kabi) uning har kungi xilma-xil harakatlari davomida turli narsalarga bevosita to‘qnash kelishi natijasida rivojlanadi. Bola yoshiga to‘lib yura boshlagach, **harakat sezgilari ning** rivojlanishi uchun juda keng imkoniyatlar maydonga keladi.

Bu yoshda bola ko‘p narsalarni o‘zi mustaqil ravishda qo‘liga olib ushlab, timirskilab ko‘radi, stulga chiqib tushadi, karavot tagiga kiradi, cuti va eshiklarni tartib bilan ochib yopadi. Ana shuning uchun bola yurgandan so‘ng uning predmetlarni biliш doirasi juda kengayib, har kungi tinimsiz harakatlarida juda ko‘p narsalarni bilib oladi va uning harakat sezgilarini ham takomillashadi hamda fazoni va fazoviy munosabatlarni (baland, past kabi) anglay boshlaydi.

Ilk yoshiga kelib, bolaning barcha sezgi a’zolari tuzilishi jihatidan deyarli to‘la takomillashgan bo‘ladi. Ilk yoshda ko‘proq sezgi a’zolarining markaziy qismlari takomillashadi. Ilk yoshdagi bolalarga xos bo‘lgan miya po‘stida har qanday qo‘zg‘alishning keng irradiatsiyalanish (yojilish) xususiyati qisman bog‘cha yoshidagi davrda ham saqlanib qolgan bo‘ladi. Bu esa bolalarda farq ajratish sezgilarining takomillashuviga to‘sinqilik qiladi. Shuning uchun, 2–3 yoshli bolalar narsalarning farqini tez ajrata olmasliklari tufayli har bir narsani bevosita ushlab, timirskilab ko‘rishga bo‘lgan intilishlari bog‘cha yoshidagi davrda ham qisman saqlanib qoladi. Keyinchalik turmush tajribasining birmuncha ortishi bilan ko‘rish va eshitish sezgilarini teri, muskul va harakat sezgilaridan (ya’ni narsalarni hamisha bevosita timirskilab ko‘rishdan) ustunlik darajasiga ko‘tariladi.

Sezgilarning normal rivojlanishi bola **idrokining** taraqqiyoti uchun zamin bo‘ladi. Yoshidan oshib, bemalol yura va yugura oladigan bolaning idroki uning har kungi tinimsiz harakatlari jarayonida takomillashib, narsalar haqidagi tasavvurlari aniqlashib boradi, lekin katta odamlar idrokidan keskin farq qiladi. Birinchidan, bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bolalarda turmush tajribasi yo‘qligi tufayli ularning idroklarini ham anglashilmagan xarakterga ega bo‘ladi. Ular ko‘p narsalarga birinchi marta duch keladilar. Shuning uchun bolalar idrok qiladigan ko‘p narsalar ularga yangilik, ya’ni dastlabki taassurot kuchiga ega bo‘ladi. Ikkinchidan esa, bolalarning idroki ko‘pincha ixtiyorsiz xarakterga ega bo‘ladi, ya’ni ularning idrokida muayyan bir maqsadni ko‘zlash hali sezilmaydi. Shuning uchun ularning idroki bir narsadan boshqa bir narsaga beixtiyor ko‘chib ketaveradi. Lekin bu yoshdagagi bolalarda hissiyoti kuchli bo‘lgani uchun ular

o'zlarini qiziqtiradigan, hayron qoldiradigan, hissiy kechinmalar uyg'otadigan narsalarni idrok qiladilar.

Bu yoshdagi bolalar idrokining yana farqlanadigan tomoni shundaki, ular idrok qilayotgan narsalarni umumlashtira olmaydilar. Atrof-muhiddagi narsalarni qanday bo'lsa shundayligicha idrok qiladilar. Bu xususiyat ularning rasmlarni idrok qilishlarida yaqqol ko'rindi. Masalan, bir yarim, ikki yoshli bolaga otning kallasi solingan surat ko'rsatilsa, u «otning o'zi qani?» deb so'raydi.

Ikki yoshga yaqinlashib qolgan bolaning idrokida narsalarni bir-biridan farqlash juda yaqqol ko'rindi. Masalan, bola suratda tasvirlangan it, ayiq, qarg'a, koptok, mashina va hokazolarni bemalol tanib, ajrata oladi.

2–3 yoshli bolalarning idroklarida ayrim fazoviy elementlar ham ko'rina boshlaydi. Masalan, ular narsalarning katta-kichikligini farqlay boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalar «katta», «kichik» so'zlarini hali ayta olmasalar ham bunday tushunchani imoshora va allaqanday ovoz chiqarish bilan ifodalashga intiladilar. Katta narsalar haqida qo'llarini baland ko'tarib «u-u-u» deyishlari kichkina narsalarni ifodalamoqchi bo'lганlarida esa «burunlarini bujmaytirib, ko'zlarini yarim yumib, ingichka ovoz chiqarib «i-i-i» deyishlari mumkin.

Ilk yoshidagi bolalarning nutqni egallashlari idrokning yana ham rivojlanishi uchun juda katta imkoniyat tug'diradi. Nutqni egallagan bola idrok qilayotgan narsalarning nomini ataydigan bo'ladi. Bu idrokning onglilik darajasini yanada o'stiradi. Ana shu davrdan boshlab bola endi nutq orqali ham (ya'ni narsalarning nomini eshitish orqali) idrok qila oladigan bo'ladi. Bola nomini bila olmagan narsalari haqida «Bu nima?», «Buning oti nima?» deb savol bera boshlaydi.

Ilk yoshidagi bolalarda vaqtini idrok qilish juda sodda, ya'ni boshlang'ich holatda bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar faqatgina hozirgi zamon vaqt bilan yashaydilar. Ular shu kunni, ayni shu da-qiqani yaxshi tasavvur etib, o'tgan va kelasi zamonni noaniq, pala-partish tasavvur etadilar. Eng ko'p ishlatiladigan vaqt tushunchalaridan «kecha», «bugun», «ertaga» va «indinga» kabilarni ham ko'pincha almashtirib yuboradilar. Vaqt tushunchalarini idrok qilishdagi bu qiyinchiliklar bolalarda ko'pincha bog'cha yoshining dastlabki davrlarida ham saqlanib qoladi.

Shunday qilib, ilk yoshdagi bolalarning idroki kundalik faoliyatlarida tevarak-atrofidagi narsa va hodisalarni kuzatish va ular bilan bevosita munosabatda bo‘lishi jarayonida har tomonlama rivojlanib boradi. Bolalar idrokining mazmunan boyishiga nutqni egallash juda katta ta’sir qiladi. Ana shu jihatdan olganda, tarbiyachisining vazifasi nutqdan bolalar idrokini o‘stiradigan vosa-ta sifatida keng foydalanishdir. Bolalar bilan ko‘proq gaplashish, tevarak-atrofdagi narsalar haqida ko‘proq so‘zlab berish, bolalarning turli-tuman savollariga mumkin qadar javob qaytarishga harakat qilish, narsalarning asosiy va muhim xususiyatlariga bolalarning diqqatlarini jalb qilish lozim. Bularning hammasi bolalar idrokini o‘stirishning zarur va muhim yo‘llari hisoblanadi.

Bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bolalarda **diqqatning** ixtiyorsizligi va beqarorligi ularda tormozlanish jarayonining hali kuchsizligi bilan bog‘liqdir. Bu yoshdagi bolalarda tormozlanishga nisbatan qo‘zg‘alish jarayoni kuchli (ustun) bo‘lganligi sababli qo‘zg‘alish jarayoni bilan tormozlanish jarayoni muvozanatlasha olmay, qo‘zg‘alish ustunlik qiladi va bosh miya yarimsharlarining tobora yangi-yangi qismlariga tarqalib ketaveradi. Ana shuning uchun kichik bolalarning diqqati bir narsadan ikkinchi narsaga chalg‘ib ketaveradi. Masalan, bolaga yangi o‘yinchoq bersangiz u o‘yinchoqni juda qiziqib ko‘ra boshlaydi. Lekin ayni shu paytda yana bir boshqa o‘yinchoqni ko‘rsatsangiz, birinchi o‘yinchoqni tashlab, ikkinchisiga talpinadi. Ilk yoshdagi bolalar diqqatining beqarorligi fiziologik nuqtayi nazaridan ularda hali tormozlanish jarayonlarining kuchsizligi bilan bog‘liqdir. Tormozlanish jarayoni qo‘zg‘alish jarayonining keng yoyilib ketishini to‘xtata olmaydi.

Ilk bolalik davridagi bolalar diqqatining g‘oyat beqaror bo‘lishi turmush tajribalarining juda ozligi bilan ham bog‘liqdir. Bolalariga hamma narsa yangilik bo‘lib tuyilaverGANidan ularning diqqatlari bir narsadan ikkinchi narsaga tez-tez chalg‘ib ketaveradi. Bo-la ko‘z o‘ngidagi narsaning o‘zi bolaga juda qiziq tuyilgani sababli ham diqqati chalg‘ib ketadi. Masalan, N.M. Menchinskayaning hikoya qilishicha, Sasha (1 yosh-u 8 oylik) «Echki va uning bolalari» haqidagi ertakni zo‘r qiziqish bilan tinglaydi. Bo‘ri kelib

eshikni taqillatgani hikoya qilinganda, Sasha bo‘rining qanday taqillatganini ko‘rmoqchi bo‘lib, devorga tap-tap etib uradi, lekin ba’zan taqillatishga shu qadar mahliyo bo‘lib ketadiki, ertakni tamomila unutib qo‘yadi.

Ilk bolalik davridagi bolalarda diqqatning bo‘linuvchanligi juda zaif, ko‘lami esa tor bo‘ladi. Bu yoshdagi bolalar diqqatlarini faqat ko‘zlariga yaqqol ko‘rinib turgan bir narsagagina qarata oladilar. Ilk bolalik davridagi bolalar diqqatining rivojlanishida nutqning roli juda kattadir. Bolaning tili chiqib nutqni egallay boshlashi, katta kishilar bilan muloqotda bo‘lishdan tashqari, ularning ko‘rsatmalarini bajarish imkoniyatini ham beradi. Yu-qorida aytib o‘tganimizdek, kichik yoshli bolalar kattalarga qarashishni, imkonli boricha ularning mehnatlariga aralashishni juda yoqtiradilar. Kattalarning iltimos va topshiriqlarini bajon-u dil ado etadilar, o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishga oid oddiy yumushlar ni qiziqib bajaradilar, ota-onalariga xo‘jalik ishlarida qarashishga harakat qiladilar. Mana shularning hammasi, diqqatni ma’lum darajada to‘plash va muayyan bir maqsadga qaratishni talab etadi. Bu esa bolalarda ixtiyoriy diqqatning rivojlanishiga asos yaratadi.

Bog‘chagacha tarbiya yoshidagi, ya’ni ikki yoshga to‘lib uch yoshga qadam qo‘ygan bolalarda diqqatning ixtiyoriy тури ham rivojlna boshlaydi. Bu yoshdagi bolalarda ko‘rinadigan ixtiyoriy diqqat alomatlari katta odamlarning buyruq va topshiriqlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatlarda rivojlna boshlaydi.

Bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bolaning yoshi ulg‘ayib, atrof-muhitdagi turli-tuman narsalar haqida tasavvurlari ko‘paygan sari uning **xotirasi** ham tez rivojlna boshlaydi. Bu yoshdagi bolaning xotirasi asosan ixtiyorsiz xotiradir. Har kimning o‘z tajribasidan ma’lumki, ikki-uch yoshlik davridagi ko‘rgan-bilgan narsalari esida yaxshi saqlanib qolmaydi, chunki bu yoshda turmush tajribasi hali juda oz bo‘ladi hamda esda olib qolishda hech qanday sistema bo‘lmaydi. Shu sababli esda olib qolish tufayli yuzaga kelgan assotsiatsiyalar muvaqqat aloqalar lokal xarakterga ega bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, bu yoshda esda olib qolningan narsalar uzun-yuluq, ya’ni bir-biri bilan bog‘lanmagan bo‘ladi. Shu sa-

babli bir-biri bilan bog‘liq bo‘lmagan, yakka-yakka holda yuzaga kelgan muvaqqat aloqalarni tiklab bo‘lmaydi. Shuning uchun ham odatda «men es-es bilaman» yoki «sal-pal esimda qolgan» deb gapiriladi.

Ilk yoshdagi bolalarda xotiraning barcha jarayonlari ko‘rina boshlaydi. Masalan, kichik yoshdagи bolalar dastlab mexanik ravishda, ya’ni ma’nosiga tushunmasdan esda olib qolaveradilar. Buning o‘z sabablari bor, albatta. Birinchidan, yuqorida aytib o‘tganimiz kabi bolalarda turmush tajribasi juda oz bo‘ladi va ular ko‘p narsalarni hali mutlaqo bilmaydilar, lekin hayotda to‘qnash kelganlari sababli eslarida olib qoladilar. Ikkinchidan, bolalar nerv sistemasining plastikligi, ya’ni juda egiluvchanligi kattalarnikidan ustunroq bo‘ladi. Ana shu sababli bolalar ko‘pincha mexanik esda olib qoladilar. Buni bolalarning juda ko‘p so‘zlarni tezda eslab qola olishida ko‘rish mumkin, lekin ular hamma so‘zlarning ham ma’nosiga tushunavermaydi.

Bolalarda ma’nosiga tushunib esda olib qolish ham juda erta rivojiana boshlaydi. Masalan, ilk yoshidagi bolalar o‘zлари yoqtirgan hikoyalarni ma’nosiga to‘la tushungan holda eslarida olib qoladilar. Bu hikoyalardagi ayrim qahramonlarni sevadilar, ba’zilarini esa yomon ko‘radilar. Umuman hikoyalarning mazmuni bolalarga ta’sir qilib, ularda ma’lum hissiyotlarni uyg‘otadi, bu esa bolalar hikoyaning mazmunini tushunayotganliklaridan darak beradi. Bolalarda dastlab ixtiyorsiz esda olib qolish va ixtiyorsiz esga tushirish vujudga keladi. Ular o‘zlarini biron jihatdan qiziqtirgan, diqqatlarini o‘ziga tortgan narsa va hodisalarni beixtiyor ravishda eslarida olib qoladilar. Biron narsani eslash, esiga tushirish assotsiatsiya tarzida namoyon bo‘ladi. Ularni o‘zlarini ataylab esga tushirmaydilar. O‘yin faoliyatida biron narsani eslash lozim bo‘lib qolganda, assotsiatsiya tariqasida boshqa shunga o‘xshash narsalar ham beixtiyor eslariga tushaveradi. Bolaning nutqi o‘sib, so‘z boyligi tobora ortgan sari mantiqiy xotirasi rivojlana boshladi.

Bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bolalar **tafakkur**ining o‘sishiga nutq juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Chunki, til bilan tafakkur o‘zaro uzviy bog‘liq jarayonlardir. Lekin bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bolalarda hali tom ma’nodagi tafakkur bo‘lmaydi.

Bu yoshdagi bolalarning tafakkurlari o‘ziga xos xususiyatlariga hamda konkret xarakterga egadir. Ular ayni chog‘da idrok qilib turgan narsalari haqidagina juda sodda tafakkur qila oladilar. Bundan tashqari, bu yoshdagi bolalarning tafakkur jarayonlarda harakat elementlari ko‘p bo‘ladi. Shuning uchun ham ularning tafakkurini ba’zan harakatli tafakkur deb ham yuritiladi. Bunda kattalar harakatning mohiyatini tushuntiradilar va harakatni qanday bajarishni o‘rgatadilar, bolani «olib kel», «joyiga qo‘y», «rasm chiz», «ushlab tur» kabi so‘z birikmalaridan iborat topshiriqning mohiyati bilan tanishtirib, keyin unga harakatni bajarish yo‘llari («Qalamni mana bunday ushla», «Avval qo‘lingga ol», «Oldin o‘ng qo‘ling bilan tut», «Qoshiqni bunday ushlab og‘zingga olib bor» deb) ko‘rsatiladi va asta-sekin bola bu harakatlarni o‘zlashtirib, bajarishga harakat qiladi. Shuning uchun ham bolada predmetli harakatni o‘stirish murakkab jarayondir.

Ilk bolalik davri amaliy harakat tafakkuri vujudga keladigan davr hisoblanib, qo‘l jarayonlari turli narsalar va qurilmalar bilan almashinadi. Jismlar bilan turli harakatlarni o‘zlashtirishda ulardagi muhim va o‘zgarmas alomatlarni ajratish ko‘nikmasi hosil bo‘ladi, natijada umumlashtirish va umumiy tushunchalar ni o‘zlashtirish jarayoni ro‘y beradi. Yangi sharoitda predmetli harakatdan foydalanish bolaning aqliy o‘sishiga ijobiy ta’sir qiladi. Bolaning o‘z xatti-harakatini kattalarning harakati bilan solishtirish (onasiga, yoki onasiga o‘xshatib piyolani ko‘tarish yoki arg‘imchoqni aylantirish, sakrashga intilish) va uning o‘xhash jihatlarini topish bolaning aqliy o‘sishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Ko‘rsatmali-harakat tafakkuri kichik yoshdagi bolalarga, ya’ni ko‘proq endi tili chiqqan 2–3 yoshli bolalarga xosdir. Bu yoshdagi bolalar konkret narsalarni harakatlantirish, har tomonlama timirskilab, sinchiklab ko‘rish orqali tafakkur qiladilar. Ular ning tafakkurlarida albatta so‘zlar ishtiroy qiladi. Lekin konkret ko‘rgazmali harakatlar so‘zlardan ustunlik qiladi. Agar bolalarning oldidan harakatlantirib o‘ynayotgan narsalari olib qo‘yilsa, ular faqat so‘zlar orqali (ya’ni konkret narsalarsiz) tafakkur qilmay qo‘yadilar. 2–3 yoshli bolalar turli narsalar bilan o‘ynar ekan-

lar, ular bu narsalarni oldindan o‘ylay olmaydilar, o‘z xatti-harakatlarini hali oldindan rejalashtira olmaydilar. Kichik yoshdagi bolalar konkret, ya’ni ko‘z o‘ngidagi narsalarning harakatiga qarab fikr yuritadilar. Ana shuning uchun ularning tafakkurlari ko‘rgazmali harakat tafakkuri deb yuritiladi. Kichik bolalarga xos bo‘lgan ko‘rsatmali harakat tafakkurini nutq orqali, tushunchalar orqali amalga oshiriladigan tafakkurga tayyorgarlik davri de-sak bo‘ladi.

Ilk yoshdagi bolalarda tafakkurning fikriy operatsiyalarini, ya’ni analiz, sintez, umumiylashtirish kabilarni ko‘rmaymiz. Ular qo‘llaridagi o‘yinchoqlarini yoki qo‘llariga tushib qolgan narsalarni amaliy (aylantirib, paypaslab, buzib) analiz qiladilar. Le-kin sintez qilishga hali qurbilari yetmaydi. Bog‘chagacha tarbiya yoshining oxiriga kelib tafakkurning o‘sishida nutqning roli ju-da oshadi. Bola yangi so‘zlarni mumkin qadar ko‘proq bilib olib, ulardan o‘z tafakkurida keng foydalana boshlaydi. Bu esa fikrlash operatsiyalarining o‘sishiga yordam beradi. Bolada so‘zlar vosita-si bilan analiz va sintez qilish, abstraksiyalash hamda umumlash-tirishning dastlabki alomatlari ko‘rina boshlaydi.

Ilk yoshining oxiriga kelib bola ayrim tushunchalarni bilib olishga va bu tushunchalarning eng muhim belgilarini o‘z-lashtirishga muvaffaq bo‘ladi. Masalan, bola ko‘pincha katta kishi-lar bilan bolalar o‘rtasidagi farqni bilishga qiziqadi. U bu farq-ni kuzatib, taqqoslab, ko‘pgina savollarga javob topadi. Natijada bola tegishli tushunchalarning ayrim belgilarini bilib oladi. Uch yoshga to‘lay deb qolgan bola katta yoshdagi hamma odamning ishga barvaqt ketishini juda yaxshi biladi. Agar bu yoshdagi bola-ga «adang endi barvaqt ishga ketmaydi» deyilsa, u hayron bo‘lib qoladi. Chunki katta odam bo‘lgan adasining ishga bormasligi uning tushunchasiga to‘g‘ri kelmaydi. Uning tushunchasida hamma katta odamlar barvaqt ishga ketishi kerak. Shuning uchun u hech bir o‘ylab o‘tirmay, «Adam kattalar-ku!» deb javob beradi. Bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bolalar o‘z tushunchalaridan foy-dalanib katta, kichik, baland, past, ko‘p, oz kabi sodda xulosa-lar chiqara oladilar, bu esa bola tafakkurining yanada rivojlanishi uchun zamin yaratadi.

Bog‘chagacha tarbiya yoshining oxiriga kelib, ya’ni uch yoshga



Emotsional muloqot.

to'lish oldida bola **nutq**dan aloqa vositasi sifatida bemalol foydalana oladigan bo'ladi. Bolaning bunday xususiyatlarga ega bo'lib borishi butun psixik taraqqiyotiga va, ayniqsa, tafakkurining rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bolalar tili chiqa boshlagach dastavval o'ziga eng yaqin bo'lgan kishilar va eng ko'p ko'radian narsalarning nomini, masalan «oyi», «opa», «dada», «ada», «ma», «ol», «ber» kabi so'zlarni aytadilar. Ikki yosha to'lgan bola ko'rgan narsalarini so'z bilan ifodalab, idrok qilayotgan narsalarning ma'nosini yaxshiroq tushunadigan bo'ladi. Bola endi ayrim uzuq-yuluq so'zlardangina emas, balki sodda gaplardan foydalana boshlaydi. Biroq, bu yoshdagi bolaning tovush chiqarish apparati hali yetarlicha takomillashmagani sababli uning talaffuzida ancha kamchiliklar uchraydi. U ayrim so'zlarni katta odamlardek aniq va to'g'ri talaffuz eta olmaydi. Bundan tashqari so'z zaxirasi yetishmasligi tufayli imo-ishoralardan foydalanadilar. Shuning uchun ayrim hollarda endi gapira boshlagan bolaning tiliga tushunish qiyin bo'ladi. Buni **vaziyatli (situativ)**, ya'ni ayni shu sharoit bilan bog'liq bo'lgan **nutq** deb yuritiladi Bolaning bunday o'ziga xos tilini uning eng yaqin odami bo'lmish

onasi va otasigina tushunadi. So‘z boyligi orta borgach, bolaning o‘ziga xos bo‘lgan situativ tili haqiqiy ya’ni hamma uchun tushunarli tilga aylanadi.

### **Ilk yoshda lug‘at hajmining ko‘rinishi:**

Bola yoshi	So‘z boyligi
1 yoshda	12–20
1,6 yoshda	30–40
2 yoshda	300–400
3 yoshda	1200–1300

So‘z bilan predmet o‘rtasida har xil bog‘lanish bo‘ladi, lekin dastlabki tushunish vujudga kelgan vaziyatga bog‘liqdir. Agar bola «koptok» so‘zi boshqa ko‘rinishdagi koptoklarga ham daxldorligini tushunsa, «Koptok qani?» degan savolga koptokning u yoki bu xilini ham ko‘rsata oladi. Yangi predmet bola o‘z tajribasida uchratgan jismga o‘xshasa, tanishdek tuyulsa, yangi harakat bilan uni bildiradigan so‘zni o‘zaro bog‘lash birmuncha yengil ko‘chadi. Shunga o‘xhash vaziyat bolaning turmush tajribasida qanchalik ko‘p uchrasa, idrok qilingan predmetlar ko‘lamni ham shunchalik tez kengayadi va bolaning lug‘at boyligiga qo‘siladi. Bolaning faoliyatida unga beriladigan savollarni tushunish muhim ahamiyat kasb etadi va uning oddiy xatti-harakatlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Tadqiqotchi E.K. Kaverinaning tajribasida tasdiqlaganidek, bolaning predmet nomini tushunishi quyidagi tartibda aks etishi mumkin:

- a) bola eng avval atrofidagi predmetlarning nomlarini;
- b) katta yoshli odamlar va o‘yinchoqlarning nomlari va rasmlarini;
- d) odamlarning gavdasining tuzilishini, uning bo‘laklari va hokazolarni tushunadi.

Tushunishning eng qulay, **senzitiv** davri bir yoshdan bir yarim yoshgachadir. Bu davrda bola predmet va jismlarning nomlarini

yengil o'zlashtirib oladi. Ikki yoshgacha davrida kattalar bilan muloqotga kirishishda uy jihozlari va boshqalarni o'rganadi.

Bola 2 yoshga to'lganda nutqning rivojida yangi davr boshlanadi. U ona tilining grammatik qoidalariga muvofiq gap tuzishga harakat qiladi. Uning nutqida deyarli barcha so'z turkumlari, murakkab bog'lovchisiz gaplar uchray boshlaydi.

Bola uch yoshga qadam qo'yganda, unda nutqni tushunishning ko'lami kengayadi, sifati esa yuqori darajaga ko'tariladi. 2–3 yoshli bola kattalarning amaliy faoliyatni bajarishga doir nutqini tushunishdan tashqari ertak, hikoya, she'r kabilarni tinglashni ham yoqtirishi sababli ularda bayon qilingan fikrlarni ham tushunishga intiladi. 3 yoshli bola faqat yaqin kishilari bilan emas, balki begonalar, tenqurlari bilan ham muloqot ko'lami kengayishi natijasida unda tom ma'nodagi nutq faoliyati vujudga keladi. Bolada kattalarning nutqiga, xatti-harakatiga qiziqish kuchayadi, o'ziga daxlsiz fikr va mulohazalarni tinglash mayli paydo bo'ladi, shuningdek, uning o'zi atrof-muhitda, kattalar davrasida olgan ma'lumotlar va axborotlar bo'yicha boshqalar bilan muloqotga kirishish istagi tug'iladi. Uch yoshli bolaning nutqi muloqot quroli vazifasini bajarib, amaliy faoliyat bilan uzviy bog'liq holda ro'yobga chiqadi. Unda dialogik nutq paydo bo'ladi, chunki uning o'ziga yoqadigan narsalar haqida savollar berishi yoki kattalarning savoliga javob qaytarishi dialogik nutqni taqozo etadi. Dialogik nutq zamirida ona tilining grammatik tuzilishini faol egallash uchun keng imkoniyatlar yotadi, dialogik nutq bolaning kattalar bilan hamkorlikdagi faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

**Xayol** jarayonining dastlabki ko'rinishlari bolada ikki yoshga to'lib, uch yoshga qadam qo'yanida ko'rina boshlaydi. Ikki yoshli bolalarda ko'rinaligan dastlabki xayol ma'lum bir maqsadni ko'zlamaydigan ixtiyorsiz xayoldir.

Til chiqishi bolalarda xayol jarayonining o'sishiga ta'sir ko'rsatadi. Ana shu davrdan boshlab bola tevarak-atrofdagi kishilarning so'zini yaxshi tushunadigan bo'lib o'zidagi tasavvurlar zaxirasini bevosita idrok qilingan narsalar orqaligina emas, balki katta yoshli odamlar nutqi bilan ham to'ldirib boradi. Bola o'ziga tushunarli mavzulardagi hikoya va ertaklarni qiziqib tinglaydi. O'zi asosiy qahramon bo'lib qatnashadigan hikoyalarni jon-u dili bilan eshitadigan

bo'ladi. Bunday hikoya bolaga juda tushunarli bo'ladi, chunki bola hikoyani eshitib turib, bevosita, o'zining idrokiga tayanadi. Bu yerda o'ylab chiqarilgan voqeа bolaning o'zi haqiqatdan ishtirok qilgan voqealarga ulanib ketadi. Bolaning hikoya va ertaklarni eshitishga juda ham qiziqishi, hikoya va ertaklarni tinglayotganida bolalarning tajribasini orttiradigan va xayolini o'stirishga yordam beradigan xilma-xil va aniq tasavvurlar hosil bo'lishini ko'rsatadi.

Nutqning o'sishi bolaning yangi taassurotlar hosil qilishi va uni boyitishi bilangina cheklanib qolmay, balki u miyada hosil bo'lgan yangi-yangi obrazlarni so'zlar bilan ifodalashga yordam beradi. Masalan, ikki yarim yoshlardagi qizcha derazalarda-gi pardalar hilpirab va quyosh nurlarining shu'lalaridan tovlanib turganini ko'rib, o'zini polga tashlaydi va, «... qarang, oyi, go'yo dengizga o'xshaydi. Men cho'milayapman...», – deydi. Bola nut-qida shu go'yo so'zining paydo bo'lishi juda ham xarakterlidir. Bola xayolidagi vaziyatni shu so'z bilan ifodalaydi, real narsalar bilan xayolidagi narsalarni bir-biridan ajratadigan bo'ladi.

Bola kattalarning gaplariga tushunadigan bo'lgach, turli ertak va hikoyalarni qiziqib tinglaydigan bo'ladi. Bolalar o'zлari biladigan, o'zlariga yaxshi tanish bo'lgan narsalar (hayvonlar, bolalar kabi) haqidagi hikoyalarni jon-u dili bilan eshitadilar bola bunday hikoyalarni eshitishda bevosita o'zining idrokiga, tasavvurlariga tayanadi. Bunday hikoyalarda («Uch ayiq», «Qizil shapkacha») o'ylab chiqarilgan voqeа bolaning o'zi haqiqatda ishtirok qilgan, idrok qilgan voqealarga ulanib ketadi. Natijada bolaning tajribasi ortadi va mustahkamlanadi. Bu esa o'z navbatida bola xayolining o'sishiga yordam beradi. Har bir hikoyani eshitganda bolada xilma-xil tasavvurlar yuzaga keladi. Bola bu tasavvurlari yordamida xayol qilish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bola hikoya eshitish orqali olgan tasavvurlarini so'zlar bilan ifodalaydi, tajribasi oshib boradi. 3 yoshda bolaning xayol obrazlari tevarak-atrofdagi predmetlarning ta'sirida tug'iladi va ma'lum maqsadga bo'ysunadi. Bola qo'g'irchoqni ko'rib bo'lgandan keyin, uni kiyintiradi va «uxlashga» yotqizadi. Bordi-yu shu on «ayiqcha»ni ko'rib qolsa diqqatini qo'g'irchog'dan olib, ana shu «ayiqcha»ga qaratadi va u bilan «o'rmonga sayr qilishga» ketadi. Bolada tajriba ortib, o'yin faoliyati murakkablashib borishi bilan xayol ham boyib boradi.

Bolalar xayolining dastlabki rivojlanishida ular o‘yinining roli juda kattadir. Ularning yoshi ulg‘aygan sari ular o‘yinining mazmuni ham o‘zgarib boradi. Ikki yoshga to‘lish oldidan bolalar o‘yinida muhim o‘zgarishlar ro‘y beradi. Manipulatsiya o‘yinlari bilan bir qatorda tasviriy o‘yin elementlari ham paydo bo‘ladi. Bola turmushda ko‘rgan ish harakatlarini o‘z o‘yinida aks ettiradi. Masalan bola qo‘g‘irchog‘ini «ovqatlantiradi», yotqizib «uxlata-di», uni «erkalaydi», «arg‘imchog‘da uchiradi». Bola katta bo‘lgan sayin o‘yinda katta yoshli kishilarning harakatlariga taqlid qiliш tobora ko‘p o‘rin egallay boshlaydi. Ayni vaqtida o‘yinlar murakkablashib, mazmuni ham turli-tuman bo‘la boradi. Masalan, bola o‘ziga g‘amxo‘rlik qilayotgan onasining harakatlariga, duradgor, shofyor, sartaroshning harakatlariga taqlid qila boshlaydi. Bolaning bunday o‘yinlarida esa endi tiklovchi xayolning yuzaga kela boshlaganini ko‘ramiz.

Bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bolalarning harakatlari-da tasviriy faoliyat elementlarining paydo bo‘lishi xayolning o‘sayotganligidan dalolat beradi. Masalan, bola bir nimalarni qog‘ozga chizib, nimanidir tasvirlashga urinib ko‘radi. Lekin dastlab bunday chizmakashlik faoliyati almoyi-aljoyi chiziqlar chizishdangina iborat bo‘ladi. Ikki yoshga tolganda bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bolaning tasviriy faoliyatida yangi, muhim element paydo bo‘ladi. U endi o‘zi chizayotgan rasmiga nom bera-digan bo‘ladi. Tasviriy faoliyatining yuzaga kelishi bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bolaning tasavvur xayolini o‘stirishga yordam beradi. Ammo bu yoshda xayolning dastlabki nihollarigina paydo bo‘la boshlaydi. Bu nihollarni diqqat-e’tibor bilan doimo parvarish qilib turish tarbiyachi va ota-onalarning vazifasidir.

**Ilk yoshda o‘yin faoliyati.** Bu yoshda bolaning o‘yinlari hali juda oddiy bo‘ladi. Aslida ular tom ma’nodagi o‘yin bo‘lmay, balki chinakam o‘yinga tayyorgarlikdir. Bu yoshdagagi bolalarning sodda o‘yinlарини mashq o‘yinlari, harakat o‘yinlari, **manipulatsiya** (timirskilash) o‘yinlari deb atash mumkin. Bunday o‘yinlarda bola o‘yinchoqlarni bir joydan ikkinchi joyga olib borib qo‘yadi, mashinalarni, aravachalarni yurgizib ko‘radi, kubiklarni ustma-ust qilib taxlaydi va shu kabi harakatlarni bajaradi. Bunday sodda o‘yinlarda hali bola xayolini boyitadigan mazmun yo‘q.



Mustaqil harakatlar.

Bola ikki yoshga to‘lgach, uning o‘yinlarida jiddiy o‘zgarish ro‘y beradi. Bolaning o‘yiniga endi taqlidiy harakatlar qo‘shiladi. Bola kattalardan ko‘rgan bilganlarini o‘yinda taqlidan takrorlay boshlaydi. Bu davrda bola mashinasini u yoqdan bu yoqqa siljitiш yoki tepalikdan sirg‘antirib tushirish bilan cheklanmay, haydovchilarning harakatlarini bajaradi. Mashinanining motori ovoziga taqlid qilib ovoz chiqaradi, mashinada yuk tashiydi va hokazo. Qiz bola bo‘lsa, bu yoshda qo‘g‘irchog‘ini yuvintiradi, ovqatlantiradi, uxlatadi, jazolaydi. Bolaning bunday o‘yinlarida esa endi tiklovchi xayolning yuzaga kela boshlaganini ko‘ramiz. Bola uch yoshga to‘lish oldida rollarga bo‘linib o‘ynaydigan o‘yinlar ham paydo bo‘ladi. Ular o‘yinda rollarni taqsimlab oladilar va ulardan – «Men samosvalning haydovchisi bo‘laman», «Sen ekskavatorda turasan», «Men doktor bo‘laman», «Sen doktorga kelasan» kabi mulohazalarni eshitish mumkin. Bolalar o‘z rollarini mohirlik bilan bajarishga intiladilar. Ana shunday rolli o‘yinlarda bolallarning xayol faoliyatlari rivojlanadi. Ularda ijodiy xayol kurtaklari ham yuzaga kela boshlaydi.

Nutqning o'sishi bola shaxsining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bola kattalarning gaplariga tushunadigan bo'lgach, har turli ertak va hikoyalarni qiziqib tinglaydigan bo'ladi. Bolalar o'zlarini biladigan, o'zlariga yaxshi tanish bo'lgan narsalar (hayvonlar, bolalar kabi) haqidagi hikoyalarni jon-u dili bilan eshitadilar. Bola bunday hikoyalarni eshitishda bevosita o'zining idrokiga, tasavvurlariga tayanadi. So'z esa bolaning narsalarni boshqacha idrok qilishiga, ularning boshqa narsalarga o'xshashligini aniqlashiga va ana shunday o'xshashliklarni aniqlash asosida yangi obrazlar, yangi tasavvurlar yaratishiga yordam beradi.

Bog'chagacha tarbiya yoshidagi bolalarning xayol faoliyatlarini rivojlantirishda o'yinning roli nihoyatda kattadir. Shuni e'tiborga olib, bolalarning o'yinlarini tashkil qilishga, ularga o'yinchoqlarni to'plab berishga ahamiyat bilan qarash kerak. Bu yoshda bolalarning o'yinchoqlari anchagina yirik, rangdor, qimirlaydigan, ya'ni bolalarning e'tiborini o'ziga jalb qiladigan, shuningdek, sinmaydigan, yengil va oson yuviladigan bo'lishi kerak.

**Ilk yoshda ta'lim faoliyati.** Ilk yoshdagi bolalarga majburiy tarzda ta'lim (bilim) berilmaydi. Ularning har kungi xayotlarining o'zi ta'limdan iborat bo'ladi. Chunki ilk yoshdagi bolalar kundalik hayotlarida atrof-muhitdagi narsalar va hodisalar bilan tanishadilar, har turli narsalarni qo'llari bilan ushlab ko'rib, sinchiklab tekshiradilar.

Ilk yoshdagi bolalar o'ta hissiyotli va juda qiziquvchan bo'ladilar. Ularning ana shu qiziquvchanlik xususiyatlaridan ta'lim jarayonida keng foydalanish lozim. Ilk yoshdagi bolalarga ta'lim berishda ularni atrof-muhitdagi narsalar bilan bevosita tanishtirishda shu yoshdagi (2–2,5 yoshdagi) bolalar uchun chiqarilgan rasmli kitoblardan va rasmli lotolardan foydalanish yaxshi natija beradi. Masalan, ilk yoshdagi bolalarni uy hayvonlari, yovvoyi hayvonlar, qushlar, o'simliklar dunyosi va shu kabilar bilan rasmli kitoblar orqali tanishtirish mumkin. Bu yoshdagi bolalarga ta'lim berishda rasmli lotolar ham keng qo'llaniladi. Masalan, tarbiyachining va hamma bolalarning oldida har xil sabzavotlarning rasmlari solingan lotolar turadi. Tarbiyachi qo'liga piyozning rasmi tasvirlangan lotoni olib bolalarga ko'rsatadi. Bolalar

darhol sabzavotlarning rasmlari solingen lotolar orasidan piyozni topib olishlari va uning nomini jor bo'lib aytishlari kerak.

Bog'chagacha tarbiya yoshining oxiriga borib, bolalarda **tas-viriyl san'at** faoliyatining elementlari yuzaga kela boshlaydi. Bola qalam bilan nimalarnidir rasmini chizishga juda qiziqadi. Bu sohada u kattalarga taqlid qila boshlaydi. Garchi bu yoshdagi bolalarning chizgan rasmi egri-bugri chiziqlardan iborat va unda hech qanday ma'no bo'lmasa-da, bu faoliyat ularda xayolning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bola o'zining chizgan rasmlarini tushuntirib beradi. Lekin uning tushuntirishi chizgan rasmiga mos bo'lmasada (kam o'xshasa ham) uning o'z xayolida narsalarning tasavvurini yuzaga keltira oladi. Bu esa tiklovchi xayolning o'sishi uchun katta ahamiyatga egadir.

### **Nazorat savollari:**

1. Ilk yoshdagi bolalar psixikasining rivojlanishida erkin harakatlarning roli.
2. Ilk yoshdagi bolalar psixikasining rivojlanishiga umumiy xarakteristika bering.
3. Bog'chagacha tarbiya yoshidagi bolalarda sezgi va idroking rivojlanishi.
4. Bola taraqqiyotida senzitiv davr va uning mohiyatini tu-shuntirib bering.
5. Bog'chagacha tarbiya yoshidagi bolalarda diqqatning rivojlanishi.
6. Ilk yoshdagi bolalarda xotira va xayolning rivojlanishi.
7. Bog'chagacha tarbiya yoshidagi bolalarda tafakkur va nutqning rivojlanishi.
8. Ilk yoshdagi bolalarda gigiyenik va axloqiy odatlarning tarkib topishi.

## **VII bob. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR FAOLIYATINING PSIXOLOGIK TAVSIFI**

### **7.1. Maktabgacha yoshdagi bolalar taraqqiyoti va faoliyatining psixologik tavsifi**

Bolaning 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan maktabgacha yoshi bolalik davrining katta bir qismini tashkil etadi. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyatlarini rivojlanadi hamda shaxsiy individual xususiyatlari (shaxsiy fazilatlari) tarkib topa boshlaydi. Mashhur rus pedagoglaridan P.F. Lesgaftning fikricha, insonning maktabgacha yoshidagi davri shunday bir davrki, ana shu davr mobaynida kelgusida qanday xarakter xislatlari paydo bo‘lishi belgilanadi va axloqiy sifatlarining asoslari yuzaga keladi. Insonning kamol topa borishida maktabgacha yoshdagi davrning ahamiyatiga doir P.F. Lesgaftning bu fikri buyuk rus pedagogi A.S. Makarenkoning quyidagi fikriga to‘la mos keladi. A.S. Makarenko bolalarni juda kichik davridan boshlab tarbiyalash zarurligi haqida gapirib, tarbiyaning eng muhim asoslari bolaning besh yoshgacha bo‘lgan davri mobaynida yuzaga keltiriladi. Mana shu davrda qilingan butun tarbiya, tarbiya jarayonining 90% ini tashkil etadi, degan edi.

Haqiqatan ham bolaning maktabgacha yoshidagi davri shu qadar mazmundor va faol davdirki, bu davr bolaning kelgusi o‘sishida albatta o‘z aksini qoldiradi. Shuning uchun maktabgacha yoshidagi davr ta’sir o‘tkazish kuchi jihatidan g‘oyat mas’uliyatlidir.

Bola ilk yoshdan maktabgacha davrga o‘tgach, uning butun yashash sharoitida jiddiy o‘zgarishlar yuz beradi. Birinchidan, bola bog‘cha yoshiga o‘tgach, uning faoliyat doirasi ancha kengayib, mustaqilligi yanada ortadi. Uning o‘yinlari, xatti-harakatlari ham boshqacha mazmunga ega bo‘la boshlaydi. Ikkinchidan, bolaning butun faoliyatida nutqning roli orta boradi. Uchinchidan, bola maktabgacha yoshga o‘tgach, muayyan dastur asosida maxsus pedagog tomonidan tarbiyalana boshlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning yashash sharoitida yuzaga kelgan bu o‘zgarishlar uning jismoniy va psixik jihatdan o‘sib kamol topishniga ta’sir etmay qolmaydi.

## *Maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy jihatdan rivojlanishi*

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, bolaning jismoniy jihatdan eng tez o‘sadigan davri bir-ikki yoshligiga to‘g‘ri keladi. Bola uch yoshga to‘lib maktabgacha yoshiga o‘tgandan so‘ng uning jismoniy jihatdan o‘sishi bir qadar sekinlashadi. Bolaning jismoniy jihatdan o‘sishidagi notejislik bu davrda ham davom etaveradi. Masalan, bola tug‘ilgandan bir yoshga to‘lguncha bo‘yining o‘sishini quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

### **Maktabgacha yoshda jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari:**

Yoshi	0–1	1–2	2–3	3–4	4–5	5–6	6–7
Bo‘yi (sm)	25	40	8	4	6–7	7–8	10

Maktabgacha yoshdagi bolaning tanasi, xususan, oyoqlarining uzayishi tufayli gavdasidagi umumiy mutanosiblik o‘zgaradi. Maktabgacha yosh davrida bolaning oyoqlari nisbatan ko‘proq o‘sadi. Biroq shunday bo‘lsa ham 6–7 yoshgacha bo‘lgan bolaning suyaklari hali yaxshi qotmagan, ya’ni tog‘aysimon holatda bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning pay va muskullari hali baquvvat emasligiga qaramay juda harakatchan bo‘ladilar.

Bola 7 yoshga yetgach, umurtqa suyagining bo‘yin qismida oldinga tomon, ko‘krak qismida esa orqaga tomon ma’lum darajada egilish yuz beradi. Keyinchalik bolaning umurtqa suyagi mana shu shaklda saqlanib qoladi. Bola qaddi-bastining to‘g‘ri bo‘lishida umurtqa suyagining ana shunday holda saqlanib qolishi juda katta ahamiyatga ega. Bog‘cha yoshidagi bolaning bosh suyagi ham tez o‘sadi. Bola uch yoshga to‘lgandan so‘ng bosh miya suyagining orqa va tepa tomonlari tez o‘sadi.

Maktabgacha yoshda bolaning ichki organlarida ham jiddiy o‘zgarishlar ro‘y beradi. Masalan, bolaning yuragi hajm jihatidan chaqaloq bolaning yuragiga nisbatan 4–5 barobar kattalashgan, biroq uning muskullari hali yetarli darajada mustahkamlanmagan bo‘ladi. Mana shuning uchun bog‘cha yoshidagi bolaning yuragi bir qisqarishda organizm uchun yetarli qon siqib chiqara olmaydi. Bola yuragining katta odamlar yuragiga qaraganda

nisbatan tezroq urishining sababi ham mana shundadir. Chunonchi, agar 1 yoshdagi bolaning yuragi bir marta qisqarishda 10,2 kub/sm qon siqib chiqarsa, 7 yoshli bolaning yuragi bir marta qisqarishda 23 kub/sm dan qon siqib chiqaradi. Katta yoshdagi odamning yuragi esa bir marta qisqarishda 60 kub/sm dan ortiqroq qon siqib chiqaradi. Maktabgacha yoshdagi davrda yurakning nisbatan tezroq ishlashi tufayli bolaning qon bosimi katta kishi-larga nisbatan biroz kuchliroq bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nafas olish a'zolarining ishida ham anchagini o'zgarishlar yuzaga keladi. Bu yoshdagi bolalar o'pkasining normal ishlashi va rivojlanishiga ko'krak qafasining o'sishi ko'p jihatdan ta'sir etadi. Chunki, o'pkanning faoliyati asosan ko'krak qafasining shakli va elastikligiga (harakatchanligiga) bog'liq bo'ladi. Bolalarning ko'krak qafaslari nafas olish uchun qulay emas. Bolalarda diafragmaning bir qadar tik joylashganligi ko'krak qafasining vertikal uzunligini qisqartirib qo'ygan. Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi bolalarda ko'krak qafasining doirasi ham kattalarnikiga qaraganda juda tor bo'ladi. Shu sababli bolalarning nafas olishlari katta odamlarning nafas olishlariga nisbatan nozikiroq bo'ladi. Bolalar o'pkasining hajmi yetarli darajada kattalashmaguncha chuqur nafas ololmaydilar. Natijada bolalar chuqur nafas olishning o'rniga tez nafas olish bilan qoniqadilar. Bolaning bog'cha yoshidagi davrida boshqa organlari kabi ko'krak qafasining o'sishi ham biroz sekinlashadi. Lekin ko'krak qafasi doirasining kengayishi bu davrda ancha tez davom etaveradi. Bola ko'krak qafasining doirasi yiliga 1–2 sm dan kengayib borib, 13–14 yoshga yetganda o'z shakli va hajmi jihatidan katta odamlarning ko'krak qafasiga yaqinlashadi.

Bolaning 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davrida nafas olishining miqdori deyarli o'zgarmaydi. Lekin bu davrda bola haddan tashqari harakatchan bo'lgani uchun uning organizmi juda ko'p miqdorda kislorod talab qiladi. Shuning uchun bola mumkin qadar ko'proq ochiq havoda bo'lishi kerak.

Ana shu yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, maktabgacha yoshiga kelib organizmining ishchanlik qobiliyati ancha oshadi. Shuning uchun bog'chada va oilada ta'lim-tarbiya

ishlari hamda bola faoliyati rejimini tuzishda bolaning jismoniy taraqqiyoti xususiyatlarini doimo hisobga olish zarurdir.

### *Maktabgacha yoshdagi bolalar nerv sistemasining o'sishi*

Maktabgacha yoshdagi bolalar psixikasining rivojlanishida ularning nerv sistemalarida sodir bo'ladigan o'zgarishlar juda katta rol o'ynaydi. Bolalar nerv sistemalarining eng kuchli taraqqiy etadigan davri 1 yoshgacha bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Yangi tug'ilgan bola bosh miyasining o'rtacha og'irligi 380–400 g keldi. Bola bog'cha yoshiga yetguncha uning miyasi g'oyat tez rivojlanib, deyarli uch baravar ko'payadi. Demak, bog'cha yoshiga yetgan bolalar miyasining og'irligi 1100–1200 g ga yetadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nerv sistemasining bundan keyingi takomillashishi davomida bosh miya po'sti qismidagi markazlarni bir-biri bilan tutashtiruvchi nerv tolalari ham miyelin qobig'i bilan qoplama boshlaydi. Bosh miyadagi nerv tolalarining miyelin qobig'i bilan qoplanishi aks ettirish jarayoni, ya'ni psixik jarayonlar va ularning rivojlanishi uchun juda katta ahamiyatga ega. Nerv tolalari miyelinizatsiyalashganda, birinchidan, qo'zg'alishlarining nerv tolalaridan tez o'tishi ta'minlansa, ikkinchidan, qo'zg'alishning faqat tegishli markazgagina borishini ta'minlaydi. Buning natijasida organizmga tashqi muhitdan ta'sir etib turuvchi turli qo'zg'atuvchilar ta'siri tufayli yuzaga keladigan shartli reflekslar (muvaqqat bog'lanishlar) nisbatan tez hosil bo'ladi. Bundan tashqari, har bir qo'zg'alishning tegishli markazigagina aniq borishi bog'cha yoshidagi bolalarning o'z harakatlarini epchillik bilan idora qila olishlarini ta'minlaydi. Muvaqqat nerv bog'lanishlari tez hosil bo'ladigan bo'ladi.

Rus fiziologlari N.I. Krasnogorskiy va A.G. Ivanov-Smolenskiylar tomonidan ko'plab o'tkazilgan tajribalarning ko'rsatishicha, MTM yoshidagi bolalarning nerv sistemalari o'z faoliyati jihatidan hali qat'iy bir izga tushmagan, o'zgarib turadigan bo'ladi. Markaziy nerv sistemasi faoliyatining o'zgaruvchanligi xususan ilk yoshda ravshan ko'rindi. Masalan, bu yoshdagi bolalarda qo'zg'alish jarayoni tormozlanish jarayoningdan ko'pincha ustunlik qiladi. Mana shuning uchun ham bu yoshda bolalar juda serharakat va o'ta hayajonlanuvchan bo'ladilar. MTM yoshidagi

bolalarda qo‘zg‘alish jarayonining nisbatan ustun bo‘lishi tufayli muvaqqat bog‘lanishlar kattalarga qaraganda sekinlik bilan may-donga keladi. Shu sababli ularda muvaqqat bog‘lanishlarni yuzaga keltirish takror-takror ta’sir etishni talab qiladi. Biroq, shunga qaramay, hosil etilgan muvaqqat bog‘lanishlar juda yengillik bilan tormozlanib (o‘chib) qoladi. Bog‘cha yoshidagi bolalar oliy nerv faoliyati tashqi muhitdan bolaga ta’sir qilayotgan biron qo‘zg‘atuvchining ta’siri bilan yuzaga keladigan qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlari ilk yoshidagi bolalarniki kabi keng irradiatsiyalash (atrofga keng yoyilish) xususiyatini saqlab qolgandir. Natijada miya po‘stining ma’lum markazida yuz bergan qo‘zg‘alish yoki tormozlanish hodisasi miya po‘stida joylashgan boshqa markazlarga ham keng tarqalib ketadi. Bu bog‘cha yoshidagi bolalarning ayrim psixik jarayonlarida o‘z ifodasini topadi. Shuning uchun bog‘cha yoshidagi bolalar o‘z diqqatlarini biron narsaga uzoq muddat davomida qarata olmaydilar.

Nerv sistemasining taraqqiyoti bog‘cha yoshidagi hamma bolalarda bir xil temp bilan davom etmaydi. Bu murakkab taraqqiyot bolalarning individual xususiyatlariga va xususan, yashash sharoitlariga, ya’ni oilada hamda bog‘chada qanday tarbiyalanishlariga bog‘liqdir. Bolaning tarbiyasi qanchalik to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, uning nerv sistemasi shunchalik normal taraqqiy etadi. Bola nerv sistemasining taraqqiy etishida uning atrofidagi har turli narsa va hodisalar bilan bevosita mustaqil munosabatda bo‘lishi ham nihoyatda katta rol o‘ynaydi. Chunki bunda, ya’ni bolaning mustaqil harakatlarida uning nerv sistemasi aktiv faoliyatda bo‘ladi va tez rivojlanadi. Mana shu holatni nazarda tutib, tarbiyachilar bolalarning mustaqil faoliyatlarini to‘g‘ri tashkil etishga alohida e’tibor berib borishlari lozim.

Bola bog‘cha yoshiga yetgach, uning psixik taraqqiyotida jiddiy o‘zgarishlar yuzaga keladi. Chunki, xuddi ana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati anchagina kengayib bora-di. Bog‘cha yoshidagi bola mustaqil faoliyatda bo‘la olishi uchun zarur bo‘lgan ikkita qudratli kuchga ega. Birinchidan, ma’lum darajada o‘ziga bo‘ysundirilgan harakat apparatiga, ikkinchidan esa, atrofidagi katta odamlar va o‘z tengdoshlari bilan bir qadar erkin munosabatda bo‘la oladigan nutqqa ega. Mana shu-

ning uchun bu yoshdagи bolalarning xulq-atvorlari, xatti-harakatlari, qiziqish va ehtiyojlari ilk yoshdagи bolalarnikidan keskin farq qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, ilk yoshdagи bolalar bilan maktabgacha yoshdagи bolalar ta’lim-tarbiyasiga ham turlicha munosabatda bo‘lishni taqozo qiladi.

Maktabgacha yoshdagи davrda bolaning barcha psixik jarayonlari jadal rivojiana borib, uning tashqi muhit bilan bo‘lgan munosabatlarida anchagina o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Bir tomondan, bola kattalarning doimiy yordamlaridan ancha ozod bo‘lib, ulardan bir qadar uzoqlashadi, ikkinchi tomondan, kattalar bilan bo‘lgan munosabatlari murakkab, ko‘p tomonlama xarakter kasb eta boshlaydi. Shu narsa xarakterlikni, kichik bog‘cha yoshidagi (3–5 yoshli) bola doimiy yordam va g‘amxo‘rlik talab qiladigan obyektdan sekin-astalik bilan oila hamda bolalar guruhining faol a’zosiga aylana boshlaydi. Demak, bola bu davrdan boshlab, muhtojlikdan qutulib, o‘zi ham boshqalarga ma’lum darajada yordam bera oladigan, o‘zining burchi, vazifalari, qiziqishlari hamda xilma-xil ehtiyojlariga ega bo‘lgan shaxsga, jamoa a’zosiga aylana boshlaydi.

Bog‘cha yoshidagi bolalarning psixik jihatdan rivojlanishlarda ularda paydo bo‘ladigan xilma-xil **ehtiyoj** va **qiziqishlar** juda katta ahamiyatga ega. Chunki, ehtiyoj va qiziqishlar bolalarni u yoki bu harakatga undovchi, ularni ishga soluvchi stimul (omil) hisoblanadi. Bog‘chagacha tarbiya ishidagi bolalar organik ehtiyojlardan tashqari ijtimoiy va intellektual ehtiyojlarning dastlabki kurtaklari yuzaga kela boshlaydi. Masalan, bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bolalar hali yaxshi gapira olmasalar ham, haddan tashqari qiziquvchan bo‘ladilar. Ular ko‘zlariga ko‘ringan har bir narsani qo‘llari bilan timirskilab ushlab ko‘rmagunlaricha tinib-tinchimaydilar. Bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bolalarda uchraydigan mana shunday qiziquvchanlik ularda intellektual ehtiyojlarning yuzaga kelayotganligidan dalolat beradi.

Bog‘cha yoshidagi bolalarda ijtimoiy intellektual va axloqiy ehtiyojlar yaqqol ko‘rina boshlaydi. Agar bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bola uzoq vaqt davomida yolg‘iz o‘zi biron o‘yinchoq bilan mashg‘ul bo‘lib o‘tira olsa, bog‘cha yoshidagi (xususan o‘rtalarda katta guruh bolalari) bola bunday yolg‘iz o‘ynashga toqat qiladi.

la olmaydi. Ularda o'zlariga yaqin bo'lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo'lish ehtiyoji tug'iladi. Ular tor oila doirasidagi munosabatlar bilan o'z ehtiyojlarini qondira olmay, kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydilar. Nati-jada bu yoshdagи bolalarning ijtimoiy munosabat va faoliyat doi-ralari tobora kengayib boradi.

Bog'cha yoshidagi bolalar tabiatlariga xos bo'lган kuchli ehtiyojlardan yana biri har narsani bilib olishga bo'lган ehtiyojdir. Bolaning faoliyat doirasi kengaygan sari atrofidagi narsalarni biliшha qaratilgan ehtiyojlari ham orta boradi. Bunga sabab bolada turmush tajribasining ozligidir. Har bir narsa bola uchun yangilik bo'lib tuyiladi va, binobarin, bola uni har tomonlama bilib olishga intilaveradi. Shuning uchun ham ular juda ko'p savollar beradi.

Bog'cha yoshidagi bolalarning psixik jihatdan rivojlanishlari-da bog'cha muhiti juda katta rol o'ynaydi. Bog'chadagi tartib, intizom va turli-tuman ta'limiy mashg'ulotlar bolalarda yuksak ijtimoiy, intellektual, axloqiy va gigiyenik ehtiyojlarning garmonik ravishda yuzaga kelishi uchun sharoit tug'diradi. Psixologiya nuqtayi nazaridan qaraganda, odatlar o'z mohiyati jihatidan ehtiyojga yaqin narsalardir. Boshqacha qilib aytganda, turlicha odatlar kundalik holatda takrorlana borishi natijasida vujudimizga juda singib ketib, ehtiyojga aylanib qoladi. Shuning uchun bolalarda ijobjiy va foydali ehtiyojlarni tarbiyalash deganda, ularda ijobjiy foydali odatlarni hosil qilinishini tushunamiz. Bog'cha yoshidagi davrda hosil qilingan mustahkam ijobjiy odatlar kishining butun umri davomida saqlanib qoladi.

Bog'cha yoshidagi bolalarning psixik jihatdan rivojlanishlari-da qiziqishning ham roli g'oyat kattadir. Qiziqish, xuddi ehtiyoj kabi, bolani biron faoliyatga undovchi harakatga soluvchi omillardan biridir. Bog'cha yoshidagi bolalar hamma narsalarga bir-dek qiziqa vermaydilar. Ular ayrim narsalarga ko'proq, boshqa bir narsalarga kamroq qiziqadilar. Lekin bolalarning qiziqishlari katta odamlardagi kabi bir narsaga nisbatan qat'iy hamda mustahkam bo'lmay, bir narsadan ikkinchi bir narsaga tez-tez ko'chib turadi, juda tarqoq va yuzaki bo'ladi. Ular narsa va hodisalarning mohiyati yoki natijalariga emas, balki shu narsa va hodisalarning o'zigagina qiziqadilar. Shu sababli bog'cha yoshidagi bolalarda

asosan beqaror va bevosita qiziqishlar ustun turadi. Tarbiyachi bog'chada turli mashg'ulotlar, ekskursiyalar, suhbatlar o'tkazishi, kitoblar o'qib berish orqali bolalarda markazlashgan barqaror qiziqishlarni yuzaga keltirishga harakat qilishi lozim.

Bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishga tirishadi va uzoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shug'ullanishdan zerikmaydi. Bu esa, o'z navbatida, bolaning diqqati, irodasi kabi muhim psixik jarayonlarni rivojlantirish hamda mustahkamlashga yordam beradi. Bolalarda biror sohaga nisbatan barvaqt yuzaga kelgan qiziqish kelajakda ularning shu sohasini yaxshi egallashlari uchun qandaydir tayyorgarlik rolini o'ynaydi. Bog'chada bolalarning birgalikda ta'llim-tarbiya olishlari, birgalikda o'ynashlari va birgalikda ovqatlanishlari ularda birlashish tuyg'usini yuzaga keltira boshlaydi. Ko'pchilik bo'lib bir o'yinni o'ynash yoki biron vazifani bajarishda o'z xatti-harakatlarini kelishib olish, rollarni taqsimlash va bir-birlariga yordam berish kabi jamoa hayotiga oid fazilatlar namoyon bo'la boshlaydi. Bolalar jamoasini mustahkamlashda ularning jamoadagi endigina yuzaga kelayotgan o'zaro murakkab munosabatlari, ya'ni bir-biriga bo'ysunish, bir-biriga yon bosish kabi munosabatlар katta rol o'ynaydi hamda bolalarning psixik taraqqiyotiga yordam beradi.

Bolalarning o'z xatti-harakatlarini ma'lum vazifalarni bajarishga bo'ysundira olishlari, tobora kuchayib borayotgan qiziqish va erishgan aqliy taraqqiyot darajalari ularni ma'lum ta'llimi dastur asosida tarbiyalash imkonini beradi. Bog'chada to'gri yo'lga qo'yilgan tarbiyaviy ishlar bolalarda mehnat faoliyatining dastlabki belgilari hamda bilimga qiziqishini tarkib toptiradi.

### **Nazorat savollari:**

1. Maktabgacha yosh davri xususiyatlari nimada ko'rindi?
2. Maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy jihatdan rivojlanishi xususiyatlarini aytib bering.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalar nerv sistemalarining o'sishi.
4. Bog'cha yoshidagi bolalarining psixik jihatdan rivojlanishlarida ularda paydo bo'ladigan ehtiyoj va qiziqishlarning ahamiyati nimadan iborat?

## **7.2. Maktabgacha yoshdagি bolalarda o‘yin faoliyatining xususiyatlari. Bola hayotida o‘yining ahamiyati**

O‘yinning bolalar psixik taraqqiyotidagi g‘oyat katta ahamiyatini nazarda tutib, mashhur pedagoglar va mutafakkir yozuvchilar o‘zlarining bu masalaga doir qimmatbaho fikrlarini yozib qoldirganlar. A.S. Makarenkoning fikricha, bolalarning o‘yin faoliyatlari ularni jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishlari uchun birdan-bir vositadir. Katta odamlar uchun mehnat faoliyati qanchalik ahamiyatli bo‘lsa, bolalar uchun o‘yin shunchalik ahamiyatga ega. «Yaxshi o‘yin faoliyati, – deydi A.S. Makarenko, – yaxshi bajarilayotgan mehnatga o‘xshaydi. Mana shuning uchun bolalar o‘yin faoliyatida o‘zlarini qanday namoyon etsalar, katta bo‘lganlaridan so‘ng mehnat faoliylarida ham ko‘p jihatdan o‘zlarini shunday namoyon etadilar». A.S. Makarenkoning bu fikri bolalarning o‘yin faoliyatlari orqali ularda yuksak insoniy sifatlarni tarbiyalash imkoniyati naqadar katta ekanligiga ahamiyat bilan qarashni taqozo etadi. O‘yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning shakliga, ya’ni ta’lim faoliyatiga tayyorlaydi. Odam birdaniga ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishga kirisha olmaydi. Ijtimoiy tajribalarni egallash uchun odam avvalo yetarli darajada nutqni egallagan, ma’lum malaka, ko‘nikma hamda elementar tushunchalarga ega bo‘lishi kerak. Bularga esa bola faqat o‘yin faoliyati tufayligina erishadi.

O‘yin bolalar hayotida shunday ko‘p qirrali faoliyatki, unda bolalarga mansub bo‘lgan mehnat ham, narsalar haqida fikr yuritish ham, san‘at, xayol qilish, dam olish va xushchaqchaqlig manbalari ham mujassamlangandir. Mana shu jarayonlarning barchasi o‘yin faoliyatida namoyon bo‘ladi hamda bolalar talab qilayotgan darajadagi to‘laqonli hayotni ta’min eta oлади. O‘yinning bolalarni maftun etuvchi tomoni ana shunda. O‘yin faqat tashqi muhitdagi, narsa va hodisalarni bilish vositasi bo‘libgina qolmay, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va mazmunli o‘yinlarda bolalarning barcha psixik jarayonlari bilan birlikda ularning individual fazilatlari ham shakllanadi. Mana shu nuqtai nazardan o‘yin maktabgacha ta’lim-

tarbiya ishlari orasida eng asosiysi hisoblanib, markaziy o‘rinda turadi. Demak, maktabgacha yoshdag‘i ta’lim-tarbiya ishlari-ning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan bolalarning o‘yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq ravishda tashkil qila bilishga bog‘liqdir.

Bolaning haddan tashqari o‘yinga berilib ketishini (xayoliy tarzda cho‘pdan yasalgan otni, stulchalardan qilingan paroxodni berilib haydashni) real voqelikdan chetga chiqib ketish deb qaramaslik kerak. Bola voqelikni, ya’ni o‘zi yashab turgan muhitni va undagi turli-tuman narsa hamda hodisalarni juda sevadi. Bola o‘zining voqelikka bo‘lgan cheksiz muhabbatini va undagi narsa hamda hodisalarni bilishga bo‘lgan intilishi ni o‘zining xilma-xil o‘yin faoliyatlarida ifoda etadi. Shuning uchun bola o‘zining turli variantdagi o‘yinlarida xayoliy muhit yaratib, voqelikni mumkin qadar to‘la va to‘g‘ri aks ettirishga intiladi.

Chet el psixologlaridan J. Piaje va Koffkaning fikricha, bolalar go‘yoki bir-biridan ajratilgan ikki xil dunyoda, ya’ni xayollar, afsonalar dunyosida va (real) voqeiy dunyoda yashaydilar. Bolalar o‘zlarining faoliyatlarida qanchalik xayolga berilib ketmasinlar, har doim voqeiy dunyoga, undagi real narsalarga nazar tashlab turadilar. Buning haqiqatdan ham shunday ekanligini ularning o‘yin jarayonida o‘z xatti-harakatlariga «bunday bo‘ladi», «bunday bo‘lmaydi» deb baho berib turishlaridan ko‘rish mumkin. Ular qanchalik o‘yinga berilmasınlar, voqeiy dunyonи hech qachon unutmaydilar va unga go‘yoki andaza tariqasida zimdan qarab turadilar.

Psixolog A.N. Leontyevning fikricha, bolalarning o‘yin faoliyatlarida real voqelikdan chetga chiqib ketish darajasidagi afsonaviylik yo‘q. Bolalar o‘yinlaridagi turli-tuman harakatlar va narsalar voqelikda haqiqatdan bor bo‘lgan real harakat hamda real narsalarning real obrazlaridir. Bola o‘zi yashab turgan real voqelik bilan bog‘liq bo‘lmagan xayoliy, afsonaviy o‘yinlar yaratishning hali uddasidan chiqsa olmaydi. Chunki bola hali o‘zi bilmagan, ko‘rmagan, eshitmagan narsalarini o‘z o‘yin faoliyatida aks ettira olmaydi. U yoki bu o‘yinni o‘ynash uchun bolalar albatta elementar ravishda bo‘lsa ham hayotiy hodisalar hamda mehnatning bir qancha turlari bilan tanish bo‘lishlari ke-

rak. Demak, bolaning hayoti qanchalik mazmundor va yashash doirasi qanchalik keng bo'lsa, uning o'yinlari ham shunchalik xilma-xil bo'ladi. Natijada bola zerikib, toliqib qolmaydi. Bolalar hayotini mazmundor qilish ko'p jihatdan tarbiyachilar hamda ota-onalarga bog'liq. Ota-onalar va tarbiyachilar bolalarni vaqtı-vaqtı bilan sayohatga olib chiqib turishlari maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, o'yin bolalar xayoli tomonidan yaratilgan narsa emas, aksincha bolalar xayolining o'zi o'yin jarayonida yuzaga kelib, rivojlanadi. Bolalar o'yin faoliyatlarida turli xayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratadilar. Odamning tashqi muhitdagi narsa va hodisalarni aks ettirish jarayonlari passiv jarayon emas, balki aktiv hamda ijodiy yaratuvchan, o'zgartiruvchan jarayondir.

Bolalar o'yin faoliyatining yana bir xususiyati, o'yinning umumiylig xarakteriga ega bo'lishidir. Bola o'zining turli-tuman o'yinlarida faqat o'ziga tanish bo'lgan yolg'iz bir kasb egasining emas umuman haydovchilarning, militsionerlarning, tarbiyachilarning, uchuvchilarning xatti-harakatlarini aks ettiradi. Albatta, turmush tajribasi va faoliyat doirasi juda cheklangan kichik yoshdagi bolalar (ba'zan kichik guruh bolalari ham) o'zlarining o'yinlarida konkret odamlarni (onasini, otasini va boshqalarni) va ularning xatti-harakatlarini aks ettiradilar. O'rta va katta maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yinlarida esa bunday obrazlar umumiylig xarakteriga ega bo'la boshlaydi. O'yin faoliyati bolalarni individual ravishda o'rganish imkonini beradi. Bolalarning individual xususiyatlarini xususan ularning guruhiy o'yinlari orqali kuzatish qulaydir.

Guruhiy o'yinda bolalar bir guruh odamlarning murakkab hayotiy faoliyatlarini aks ettiradilar. Masalan, «Sotuvchi – xaridor» o'yinida bolalar sotuvchi, kassir, ishchi, xaridorlar rollariga bo'linib o'ynaydilar. Bolalarning mana shu kabi guruhiy o'yinlari artistlarning faoliyatiga o'xshaydi. Chunki, guruhiy o'yinda har bir bola o'z rolini yaxshi bajarishga intilishi bilan birga o'yinning umumiy mazmunidan ham chetga chiqib ketmaslikka tirishadi. Bu esa, har bir boladan o'zining butun qobiliyatini ishga solishni talab etadi.

**Mazmunl-rolli o'yinlar va ularning ahamiyati.** Bolalar bog‘-chada asosan mazmunli va rollarga bo‘linib o‘ynaladigan o‘yinlarni o‘ynaydilar. Ular o‘zlarining turli o‘yinlarida kattalarning oilaviy hayot sharoitlariga doir hodisalarni, mehnat faoliyatlarini, bayramlarni, muhim sanalar kabi hodisalarni qayta tiklaydilar.

Ko‘pincha bolalar aks ettirayotgan tashqi muhit hodisalari ular o‘yin faoliyatining mazmunini tashkil etadi. Bolalar aks ettirayotgan muhit qanchalik keng va xilma-xil bo‘lsa, bolalar o‘yinining mazmuni ham shunchalik keng va xilma-xil bo‘ladi. Ana shuning uchun kichik bog‘cha yoshidagi bolalar o‘yinlarining mazmuni nihoyatda tor bo‘ladi. Bolalar o‘sib ulg‘aygan sari ular o‘yinining sujeti tobora boyib, xilma-xillashib boradi. O‘yin turining ko‘payishi bilan birga o‘yinga sarf qilinadigan vaqt ham ortib boradi. Masalan, uch yoshli bolalar 10–15 daqiqa mobaynida o‘ynaydigan bo‘lsalar, 4–5 yoshli bolalar esa 40–50 daqiqa davomida o‘yin faoliyati bilan shug‘ullanadilar. Katta yoshdagи bog‘cha bolalarida o‘yin faoliyati bir necha soat va hatto bir kundan ortiq vaqt mobaynida davom etishi mumkin.





Bolalarning mazmunli-rolli o‘yinlari.

Bir xil mazmundagi o‘yinlar kichik yoshdagi bog‘cha bolalarida ham, katta yoshdagi bog‘cha bolalarida ham uchraydi (masalan, «Ona-bola» o‘yini «Bog‘cha» o‘yini kabi). Turli yoshdagi bog‘cha bolalari o‘yinlarining nomi bir xil bo‘lsa ham, mazmuni har xil bo‘ladi. Chunki, kichik yoshdagi bolalar voqelikning ayrim tomonlarini aks ettirsalar, katta yoshdagi bolalar o‘z o‘yinlarida voqelikning boshqa tomonlarini aks ettiradilar.

Katta yoshdagi bog‘cha bolalari mazmunli o‘yinlardan tashqari rollarga bo‘linib o‘ynaladigan o‘yinlarni ham juda mohirlik bilan

o‘ynaydilar. Rollarga bo‘linib o‘ynaladigan o‘yinlarda bolalar tevarak-atrofdagi narsalarni aks ettiradilar. Bunday o‘yinlar amalga oshirilishi jihatidan birmuncha murakkabdir. Bunday o‘yinlarda oldin rollar taqsimlab olinadi. O‘yinda ishtirok etuvchi har bir bola rolini ustalik bilan bajarishi kerak bo‘ladi. Hamma bolalar ham bunday vazifaning uddasidan chiqavermaydilar. Kichik yosh-dagi ayrim bolalar tasavvur doiralari keng bo‘limganligi sababli o‘z rollarini hali yaxshi bajara olmaydilar. Shuning uchun rollarga bo‘linib o‘ynaladigan o‘yinlar asosan katta yoshdagи bog‘cha bolalariga taalluqlidir.

Bog‘cha yoshidagi bolalarning mazmunli va rollarga bo‘linib o‘ynaladigan o‘yinlari deyarli hamma vaqt jamoa holida amalga oshiriladi. Mazmunli va rollarga bo‘linib o‘ynaladigan o‘yinlar bolalarning ko‘pgina psixik jarayonlari va shaxsiy psixologik sifatlarini rivojlantirishga yordam beradi. O‘yin sharoitining o‘ziyoq bolalar diqqatini atrofdagi narsa va hodisalarga faol yo‘naltirishni talab qiladi. Bu esa, o‘yin faoliyati davomida bolalarni nihoyatda faollashtiradi, ya’ni ular kuzatuvchan, tez esda olib qoladigan, har bir narsani atroflicha va chuqr analiz qiladigan bo‘ladilar.

O‘yinlar jarayonida bolalarning bir-birlari bilan faol munosabatda bo‘lishlariga imkon yaratiladi. Bu esa, bolalar nutqining tez rivojlanishiga olib keladi. Ma’lumki, mazmunli va rollarga bo‘linib o‘ynaladigan o‘yinlarning o‘z qonun-qoidalari mavjud. Bu qonun-qoidalarga rioya qilishda bolalar o‘z iroda kuchlarini ishga soladilar. Binobarin, o‘yin faoliyati davomida bolalarning irodaviy sifatlari ham jadal rivojlanadi.

Demak, bog‘cha yoshidagi bolalar o‘yinlari quyidagicha psixologik xususiyatlarga ega:

- 1) o‘yin mavzusining haddan tashqari sermazmunligi va boyligi;
- 2) bolalar o‘yin faoliyatlarida milliy tuyg‘uning aks etishi;
- 3) o‘yin jarayonida vatanparvarlik tuyg‘ularining namoyon bo‘lishidadir. O‘rta va katta bog‘cha yoshidagi bolalar o‘yinlari, o‘yinchoqlari, yasagan buyumlari milliy urf-odatlar, an‘analarga asoslanganligi;
- 4) bolalar o‘yini jarayonida psixik jarayonlarining diqqati, sezgi va idroki, xotirasi, tafakkur va nutqi, xayoli, his-tuyg‘u, irodasi, xarakteri va qobiliyatining namoyon bo‘lishidir.

Bog'cha yoshidagi bolalarning turli-tuman o'yin faoliyatları sekin-astalik bilan ularni o'qish faoliyatiga tayyorlaydi. Bolalarning o'yin faoliyatlariga tarbiyachilar ta'lif elementlarini kiritadilar. Natijada bolalar o'yin orqali juda ko'p narsalarni bilib oladilar, ularning bilishga bo'lgan qiziqishlari orta boradi. Demak, o'yin faoliyati bolalarning har tomonlama rivojlanishlarida qudratli vositadir.

### *Bolalarning psixik rivojlanishiga o'yinchoqlarning ta'siri*

O'yinchoqning bola psixik taraqqiyotiga ta'sirini o'rganish ishlariga XIX asrga kelib jiddiy e'tibor berila boshlandi. Bu yo'nalihsdagi birinchi tadqiqot ishlari nemis pedagogi Frebel tomonidan ilmiy ravishda o'rganildi. Frebel o'z tadqiqotlarida bolaning dunyoga kelgan birinchi kunlaridanoq bilish jarayonlarini rivojlantirish zarurligini, bolaning birinchi o'yinchoqlari yumshoq o'yinchoqlar bo'lishi kerakligini aytadi. Bola qo'lida ushlab tura oladigan yorqin, turli rangdagi yumshoq koptokchalar bolaning psixikasiga ijobiy ta'sirini aytib o'tadi. Bolaning o'z qo'li bilan loydan yasalgan turli shakllari haqida: «Loydan narsalar yasab o'ynash davomida ular o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tushunadilar... bu mashg'ulotlar nafaqat bolaning fikrlash qobiliyatiga balki uning ruhiy dunyosiga ham ta'sir ko'rsatadi...» deydi. XIX asrning oxiriga kelib rus pedagogi M. Manaseinovaning fikricha onaning bolasi bilan o'ynaydigan ilk o'yinchog'i matolar qirqimi, yorqin rangdagi predmetlar bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi.

Oradan taxminan 100 yil o'tgach amerikalik psixolog G.L. Lendret loyni bolaning shaxs xususiyatlariga ijobiy ta'siri haqida aytib: «o'zidagi jahl, g'azab, agressiyani chiqarib tashlovchi vositadir» – deb hisoblaydi.

Bolaning rivojlanishini o'yinchoqsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Aynan o'yinchoq bolaga o'z his-tuyg'ularini namoyon qilishga, atrof-hayotni o'rganishga, ijtimoiy munosabatlarga kirishishga, o'z-o'zini anglashga o'rgatadi. Har bir bolaning sevimli o'yinchog'i bo'ladi. Kattalar chin ko'ngildan sovg'a qilgan o'yinchoqqa nisbatan bola o'zi tanlab olgan o'yinchoq unga sevimli, yoqimli, emotional yaqinroq hisoblanadi. Kattalarga do'st, ishdagi hamkasb qanchalik zarur bo'lsa, bolaga ham o'yinchoq shunchalik zarur-

dir. Har bir bolada shunday o‘yinchoq bo‘lishi kerak-ki, u bolasning do‘stiga aylanib, unga arz qila olishi, jazolay olishi, rahmdillik qilishi, avaylab asrashi lozim. Ayni shu o‘yinchoq uchun qo‘rquv hissini yengib o‘tishi mumkin. Masalan qorong‘ilikdan qo‘rqadigan bolalarga o‘yinchoq kuchuk, ayiq bilan qorong‘i xonaga kirib chiqishni taklif qilish mumkin. Bola o‘yinchog‘ini xuddi kattalar uni jazolagani kabi jazolashi, urishishi, burchakka otishi, keyin yana olib dumi va qulog‘ini tikib qo‘yishi mumkin. Bolalar bunday munosabatni robot-transformer, Dendi, mashina, legolarga nisbatan qila olmaydilar. Kichik yoshdagi o‘g‘il va qiz bolalar «Do‘st»likka Barbi, yumshoq ayiqcha, mushukcha, quyoncha, odamga yaqin bo‘lgan o‘yinchoqlarni tanlaydilar. Bola da u tomonidan hissiy idrok qila oladigan, tafakkuri, dunyoqarashini kengaytiradigan, kattalar va ertak qahramonlariga taqlid qila oladigan o‘yinchoqlar to‘plami bo‘lishi zarur. G.L. Lendret o‘zining «O‘yin terapiyasi muomala san’atidir» nomli kitobida o‘yinchoq tanlashda nimalarga e’tibor berish kerakligini aytib: «O‘yinchoq bola intellektini har tomonlama rivojlantirishga histuyg‘ularini, o‘z-o‘zini anglashga, xulq-atvorini nazorat qilishga, o‘zaro munosabatlarga kirisha olishiga yordam beradi. Lekin hamma o‘yinchoqlar ham magazindan sotib olinadi. Ota-onalar o‘z qo‘llari bilan yasab, tikib bergen o‘yinchoqlari bolaga yanada yaqin va qimmatlidir», — deb ta’kidlaydi.

O‘yinchoqlar bir necha turga bo‘linadi:

1. Hayotiy o‘yinchoqlar — qo‘g‘irchoqlar, hayvonlar oilasi, qo‘g‘irchoqlar uyi, mebellar, idish-tovoqlar, mashinalar, qayiqlar, kassa, tarozi, telefon, tibbiyot va sartaroshlik asboblari, soat, kir yuvish mashinasi, gaz plita, televizor, doska, bo‘r, musiqa asboblari, temiryo‘l va boshqalar.

2. Boladagi agressiya (g‘azab)ni chiqarib yuborishga yordam beruvchi o‘yinchoqlar — askarlar to‘plami, miltiq, pistolet, qilich, «yostiq»lar, yovvoyi hayvonlar, rezina o‘yinchoqlar, arqon, bolg‘acha va boshqa asboblar.

3. Ijodiy fikrlashga, fantaziyanı rivojlantirishga qaratilgan o‘yinchoqlar — kubiklar, matryoshka, piramida, loto, lego, mozai ka, stol o‘yinlari, qirqma rasmlar, qo‘l ishi, tikuvchilik to‘plami, mato parchalari, rangli qog‘ozlar va h.k..

O‘yinchoq bolaning birgalashib o‘ynovchi hamrohiga aylanadi. Bola atrofdagi hamma narsalardan o‘ziga eng yaqin va qiziqarli hisoblangan o‘yinchoqni yaxshi ko‘radi. Bu ajablanarli narsa emas. Agar biz bolaning o‘yinchoq bilan o‘ynashiga nazar solsak, bola o‘yin vaqtida har qanday o‘yinchoqni (qo‘g‘irchoqmi, otmi, ayiqmi baribir) xayoliy tarzda tiriltirib, uning bilan gaplashib, birga o‘ynaydi. Mabodo o‘yinchoq bo‘lmasa, bola oddiy bir cho‘pni ham biron narsaga otga yoki qo‘g‘irchoqqa aylantirib, zo‘r ishtiyoq bilan bemalol o‘ynayveradi. Har qanday o‘yinchoq bolaning hissiyotlarini qitiqlab, ehtiyojlarini qondirib, ijodiy kuchlarini ishga soladi va, binobarin, yangi hissiyotlarini yangi qiziqish va tablablarini yuzaga keltiradi. Bu jihatdan o‘yinchoqning bola shaxsiy xislatlarini tarbiyalashdagi o‘rni kattadir.

Bolalar o‘yinchog‘i katta yoshdagи kishilarning qanday o‘yinchoqni yoqtirish-yoqtirmasligiga qarab hal qilinmaydi, balki bolaga qanday o‘yinchoq yoqishi va zarurligi nuqtayi nazardin hal qilinishi zarur. Muhimi – qaysi yoshdagи bolaga qanday o‘yinchoq kerakligini bilishdir. Bolalarga hamma narsadan ko‘ra o‘yinchoq zarur. Bolalarga o‘yinchoq berishda ularning yosh xususiyatlarini, taraqqiyot darajalarini, layoqatini va ayni vaqtida, ularni ko‘proq nimalar qiziqtirishini hisobga olish kerak.

Bir yoshli bolalarning asosiy ehtiyojlari ona va uning mehri bo‘lgani sababli ularga beriladigan o‘yinchoqlar ham yoqimli va yumshoq bo‘lishi lozim. Bu yoshda eng yaxshi o‘yinchoq bola tishlay oladigan o‘yinchoqdir. O‘yinchoqlar asosan plastmassadan, yorqin rangda ovozli bo‘lishi bolaning sensor taraqqiyotiga yordam beradi. 1 yoshli bolaga 3–4 halqali piramidalar, turli katalikdagi tarelkalar bir-birining ichiga kiradigan rangli kubiklar berish foydalidir. Bunday o‘yinchoqlar bilan harakat qilish bola intellektini o‘siribgina qolmay unda quvonch va qoniqish hissini hosil qiladi. Bola o‘yinchoqni xuddi kattalardek taxlay olganidan quvonadi. Bu yoshda yiqlimas qo‘g‘irchoq ham berish kerak.

Ikki yoshli bolaga katta rangli koptok, 7–8 talik piramida, yumshoq o‘yinchoqlar berish kerak. Bola ularni o‘g‘ziga sololmaydi, lekin ular bilan osongina birga uxlaydi. Katta plastmassa mashina yoki quticha bola o‘ynab bo‘lgach o‘z o‘yinchoqlarini solishi uchungina emas, bolada tartiblilik, mustaqillik odatlarini

hosil qilish uchun muhimdir. Bu yoshda bolaning shaxsiy o‘ynash joyi, o‘yinchoqlar saqlanadigan joyi bo‘lishi lozim. Uch yoshli bolaning o‘yinchoqlari qatoriga qurish, yasash o‘yinchoqlari, «Kinder-syurpriz» kabilarni berish mumkin. Bola kattalar bilan birga yasab, ulardan turli shakllar hosil qilar ekan bolada analiz-sintez kabi tafakkur operatsiyalari shakllanadi. Bu yoshdagi bolalar katta ayiq, katta qo‘g‘irchoqni talab qiladilar. Yana hayotiy o‘yinchoqlar asliga o‘xshash bo‘lishini talab qiladilar. Masalan, limuzin mashinasi albatta qora bo‘lishi kerak.

**Kichik guruh** bolalari hali hayot tajribalari kam bo‘lganligi uchun tashqi muhit bilan yaxshi tanish bo‘lmaydilar. Ularnga hali narsalarning rangini, hajmini ajrata olishga o‘rgatuvchi o‘yinchoqlar zarur. Shuning uchun ularga qo‘g‘irchoq, yumshoq o‘yinchoq bilan birga har xil rangli matolar ham berishi kerak. O‘z qo‘g‘irchoqlarini har xil rangli matolarga o‘rab, o‘ynaydilar. Bolalarga beriladigan qo‘g‘irchoq chiroyli va sinmaydigan bo‘lishi juda muhimdir (ularga ko‘proq plastmassadan yoki rezinadan qilingan qo‘g‘irchoq berish kerak. Ular qo‘g‘irchoqni kiyintiradilar, yechintiradilar, cho‘miltiradilar va hokazo). Kichik guruh bolalari qo‘g‘irchoqlarni yuvintirayotganlarida uning qanday materialdan qilinganiga ahamiyat bermaydilar. Shuning uchun ularga pishiq yasalgan, tezda buzilmaydigan qo‘g‘irchoqlarni berish kerak. Nozik qo‘g‘irchoqlarni katta guruh bolalariga berish mumkin.

O‘g‘il bolalarga esa har xil rangdagi bir-birining ichiga sig‘adigan quticha, piramida kabi o‘yinchoqlarni berish foydalidir. Kichik guruh bolalariga o‘ynash uchun fil, yo‘lbars, bo‘ri, jirafa kabi o‘yinchoq-hayvonlarni berish yaramaydi. Chunki bu yoshdagagi bolalar hali bunday yovvoyi va yirtqich hayvonlar bilan tanish emaslar. Ularga yaxshisi o‘zлари kundalik hayotlarida kuzatgan va kuzatishlari mumkin bo‘lgan tanish hayvonlarning obrazlarini ifodalovchi o‘yinchoqlarni berish maqsadga muvofiqdir. Masalan, ot, qo‘y, it, sigir, echki, mushuk kabi.

**O‘rta va katta** yoshdagi bog‘cha bolalari o‘yinchoqlar bilan o‘ynaganlarida ham guruh bo‘lib o‘ynashni yoqtiradilar. Chunki ularni kichik guruh bolalari kabi ayrim narsalar emas, balki atroflaridagi eng yaqin odamlarning onasi, otasi, tarbiyachisi, mudira kabilarning qanday ishlar bilan mashg‘ul bo‘layotganliklari

ko‘proq qiziqtiradi. Binobarin, ular o‘zlarining o‘yinlarida hattoki, o‘yinchoqlar bilan o‘ynaydigan o‘yinlarida ham kattalarning turli faoliyatlarini taqlidan takrorlaydilar. Shuning uchun bu yoshdagi bolalarga mazmunli-rolli o‘yinlarga, uy-ro‘zg‘or ishlariga, mehnat qurollariga doir o‘yinchoqlarni berish maqsadga muvofiqdir. Bu yoshda xayol taraqqiy eta boradi. Qalam – sehrli cho‘pga, barglar – pulga, qog‘ozga chizilgan naqsh – qo‘g‘irchoqlar gilamiga aylanadi. Masalan, 4 yoshli bolalar o‘yini kuzatilganda Habiba legolarni bir idishga solib qoshiq bilan aralashtirib bo‘tqa tayyorlab, qog‘ozga chizib singlisini ovqatlantirgan. Shuning uchun bu yoshdagи bolalar o‘yinchoq talab qilavermaydilar, balki o‘z qo‘llari bilan o‘yinchoq yaratishni xohlaydilar. 5 yoshli bolalar katta hajmdagi o‘yinchoqlarni o‘ynamay qo‘yadilar. Hayvonlar to‘plami, oila qo‘g‘irchoqlari, soldatchalar bilan turli ko‘rinishgadi o‘yinlarni o‘ylab topadilar. Bunday o‘yinlar boladagi xayol, idrokning rivojlanayotganini, konkret tafakkurdan ijodiy fikrlashga o‘tayotganini ko‘rsatadi, bolaning emotsiyonal hayotini boyitadi.

Tayyorlov guruhi bolalari qurish-yasash, mayda bo‘laklardan turli samolyot, kemalar, mashinalar hosil qilishni, turli stol o‘yinlarini, yig‘iladigan robotlarni, ovozli, yig‘laydigan chaqaloq-qo‘g‘irchoqlarni, tikish va to‘qish asboblarini talab qiladilar. O‘z qo‘llari bilan birorta narsa yasab kimgadir sovg‘a qilishni istaydilar. Shuning uchun bolaning narsa yasashga bo‘lgan har qanday istagini qondirish, ehtiyoji va qiziqishini quvvatlash lozim. Bu yoshda o‘yinchoqlar magazini ikkinchi darajali bo‘lib qoladi. Bolalar endi ko‘proq o‘quv qurollariga qiziqadilar. Demak, bu vaqtida avvalgi o‘yinchoqlar bolaga kerak bo‘lmay qoladi. Lekin hech qachon bola o‘ynamay qo‘ygan o‘yinchoqlarni bolaning ko‘z o‘ngida axlatga tashlab yuborish kerak emas. Chunki, har bir o‘yinchoq bolaning xotirasi, his-tuyg‘ulari, tashvishu quvonchlari bilan bog‘liq. Yaxshisi uni kimgadir yoki maktabgacha ta’lim muassasasiga berib yuborish mumkin. Maktab yoshiga kelib bolalar o‘yinchoqlarsiz ham o‘yinlar tashkil qila oladilar.

Umuman maktabgacha yoshdagи bolalar hayotida ularning taraqqiyotlari uchun g‘oyat katta ahamiyatga ega bo‘lgan o‘yinchoqlar masalasiga tarbiyachilar ham, ota-onalar ham jiddiy e’tibor bilan qarashlari kerak.

### **Nazorat savollari:**

1. Kichik va o‘rta bog‘cha yoshi davridagi o‘yin faoliyatining xususiyatlari.
2. O‘yin faoliyati davomida bolalarda qanday psixik jarayonlar rivojlanadi?
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik taraqqiyotida turli o‘yin faoliyatları, mazmunli va rollarga bo‘linib o‘ynaladigan o‘yinlarning ahamiyatini aytib bering.
4. Bola psixik rivojlanishida o‘yinchoqlar qanday ta’sir ko‘rsatadi?
5. Turli yosh guruh bolalariga qanday o‘yinchoqlar berish kerak? Nima uchun?

### **7.3. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’limiy mashg‘ulotlari**

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berish shakllari nati-jalarga erishish emas, balki bilim, mahorat va ko‘nikmalar hosil qilish o‘quv faoliyatining maqsadidir. Bu maqsad uning asosiy xususiyatini belgilaydi.

Bola rasm chizish jarayoniga qiziqsa va chiroqli chizishga harakat qilsa, bunday jarayon o‘yin yoki samarali harakat hisoblanadi. Lekin qachonki bola rasm mashg‘uloti vaqtida o‘z oldiga ma’lum maqsad qo‘ysa, bu harakatlar ta’lim ko‘rinishiga ega bo‘ladi. Masalan, avvalgilardan yaxshiroq rasm chizish, tasvirni to‘g‘ri bo‘yash yoki tekis chiziqlar chizish ham shunday harakat turlariga kiradi.

Ta’lim olish vaqtida va bolaga oldingi avlod tomonidan qoldirilgan tajribani yetkazib berishda bolaning psixik rivojlanishi amalga oshsada, bilim va ko‘nikmalarni aksariyat qismini u kattalar bilan muloqotda, ularning talablarini, maslahatlarini va ko‘rsatmalarini bajarish davomida o‘zlashtiradi. Shuningdek o‘yin faoliyati, rasm chizish, buyumlar yasash va turli xil faoliyatlarda vujudga kelgan kundalik muloqot ham bolaning bilim va ko‘nikmalarini kengaytirib boradi. Kattalarning bola bilan bo‘lgan har xil uslubdagi muloqot negizida ta’lim yotadi.

Ammo u bolaning rivojlanishiga qarab sistematik xarakterga ega bo‘ladi. Bolalar ijtimoiy maktabgacha tarbiya sharoitida muayyan dasturlar asosida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda ta’lim oladilar. O‘yin usullari va samarali topshiriqlardan foydalanish bunday

hollarda muhim o‘rin egallaydi. Shu bilan birga mashg‘ulotlar vaqtida bolalarga tanish bo‘lgan talablar qo‘yiladi: to‘liq va si-fatli bilim va ko‘nikmalar hosil qilish, tarbiyachini tinglash va uning ko‘rsatmalarini to‘g‘ri bajarish. Mashg‘ulotlar orqali bilim berish o‘quv faoliyatini boshlang‘ich qoidalarini egallahda muhim ahamiyatga ega. O‘quv faoliyatini boshlang‘ich qoidasi bilim olishga bo‘lgan qiziqishni shakllanishini va o‘rganish qobi-liyatini o‘zlashtirishni o‘z ichiga oladi.

Atrof-muhit haqida yetkazilagan xilma-xil ma’lumotlar bolada qiziquvchanlik paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Kattalar tomonidan gapirib berilgan va ko‘rsatilgan narsalar, yoki bolaning o‘z ko‘zi bilan ko‘rganlari ham unda yangiliklarga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otishi mumkin. Maktab yoshigacha bo‘lgan bolalarda qiziquvchanlikning o‘sishi, aksariyat hollarda ular tomonidan berilayotgan savollar soni va ularning turini o‘zgarishida namoyon bo‘ladi. Uch-to‘rt yoshli bolalar savollari yangi bilim olishga, tushunarsiz narsalarni aniq-lashtirishga qaratilgan bo‘lsa, maktab yoshiga yaqinlashgan bolalar savollarini aksariyat qismini shunday savollar tashkil qiladigan bo‘ladi. Turli xil hodisa sabablariga, ular orasidagi bog‘liqlikka qiziqadilar. «Nimaga yomg‘ir yog‘yapti?»; «Nima uchun o‘simliklarni sug‘orish kerak?»; «Nimaga doktor kasalni urib, eshitib ko‘radi?»; «Yulduzlar qayerdan paydo bo‘ladi?»; «Traktorga kichik uyni joy-lashtirsa olib keta oladimi?»; «Agar barcha suvlar dengizga quyilsa, keyin ular qayerga g‘oyib bo‘ladi?». Bu olti yoshlik bolaning doim berishi mumkin bo‘lgan savollarining kichik ro‘yxatidir.

Shunday bo‘lsada qiziquvchanlik bolani o‘qishga, sistematik tarzda bilim olishga hali tayyorligini ta‘minlay olmaydi. U yoki bu hodisaga qiziqish bolada tez sodir bo‘ladi va shuningdek tez yo‘qoladi ham, yoki boshqa bir qiziqishga aylanadi. Yuqorida kel-tirilgan savollar ro‘yxatidan ko‘rinib turibdiki, bolani turli xil vo-qelik sohalariga oid bo‘lgan hodisalar qiziqtiradi. Rivoj topgan uslubga ko‘ra esa, hodisalarни aniq turlariga va jihatlariga bo‘lgan barqaror qiziqish ta‘lim tomonidan talab qilinadi. Bunday hodisalar matematika, ona tili, biologiya kabi o‘quv fanlarini maz-munini tashkil etadi.

Ayrim hollarda maktabgacha yoshdagi bolalarda aniq va barqaror qiziqish erta namoyon bo‘ladi va ular bolalarni bilim olishda hay-

ratlanarli natijalarga erishishlariga sabab bo‘ladi. Izlanishlarga ko‘ra mashg‘ulotlar vaqtida bolalarga alohida, tarqoq ma’lumotlar emas, balki aniq tartibdagi bilimlar berilsa, barcha bolalarda matematika, tilga, jonli va jonsiz tabiat hodisalariga bo‘lgan qiziqish kerakli me’yorda shakllanadi. Bu bilimlar bolalarga voqelikni barcha sohasiga xos bo‘lgan hodisalarini asosiy bog‘liqligini tushuntirib berishi kerak. Matematika sohasida bu o‘lchovni o‘lchanuvchiga, qismni butunga, birlikni ko‘plikga bo‘lgan bog‘liqligidir. Til sohasida esa so‘z tuzilishini uning ma’nosiga bog‘ligligi, jonli tabiat sohasida hayvonlarni va o‘simliklarni tuzilish xususiyatlarini yashash sharoitiga bo‘lgan bog‘liqligidir va h.k..

Bunday obyektiv qonuniyatlarga asoslangan hodisalar bilan tanishuvdan so‘ng bolalar ularni ayrim hollarda namoyon bo‘lishini katta qiziqish bilan kuzatib boradilar. Bolalar ko‘z o‘ngida atrof-muhitning notanish qirralari ochiladi va ular ta’limni ajoyib kashfiyotlarga yo‘l ekanligini tushunadilar.

O‘qish va doimo yangi bilimlarga ega bo‘lish istagi bolalarda barqaror va aniq qiziqish uyg‘otadi. O‘qish qobiliyati avvalo o‘quv topshirig‘ini bilim olish uchun bajarilayotgan topshiriq sifatida tushunishni, bu topshiriqlarni amaliyotdan, xayotiy vaziyatlardan ajrata olishni taqozo etadi. Maktabgacha yoshdagи bola ba’zida matematik masalani eshitgach, uni yechish yo‘llariga emas, balki masaladagi tavsiflangan vaziyatga qiziqish bildiradi. Shu sababli u masalani yechishdan bosh tortadi: «Oyisi to‘rtta konfet yeb, ikkitasini o‘g‘liga bersa, birgalashib nechta konfet yeishgan bo‘ladi?». Bunday «adolatsiz» tasvirlangan masaladan achchiqlangan bola: «Nimaga Valiga buncha oz konfet beradi? Teng bo‘lishishi kerak edi», – degan savolni beradi. Boshqa hollarda bola tezroq javob olish ilinjida o‘ziga tanish bo‘lgan taxminiy qo’shuv va ayiruv amallaridan foydalanadi. Ikkala holda ham bilim olishga intilish yo‘qligi ko‘rinadi. Masala shartlarida tasvirlangan vaziyat, xayotiy vaziyatni tasviri bo‘lganligi uchun muhim emas, balki masalalarini to‘g‘ri yechishni o‘rganish uchun oddiy material ekanligini bola tushunishi kerak. Masalani yechish mazmuni uni javobini tez topishda emas, balki shartlardan kelib chiqqan holda, qaysi arifmetik amalni qo‘llash lozimligini aniqlashda va bu mahoratdan keyinchalik ham foydalana olishidadir.

Kichik va o‘rta maktabgacha yoshdagি bolalar odatda berilayotgan bilim va ko‘nikmalar o‘yinda, rasm chizishda yoki boshqa ularni o‘ziga jalb qiluvchi harakatda darhol qo‘llansagina, o‘quv topshiriqlarini qabul qiladilar.

Maktab yoshiga yaqinlashgan bolalarda maxsus tashkillash-tirilgan o‘quv sharoitida o‘quv topshiriqlarini o‘zlashtirilgan materiallarni darhol amalga oshirish imkoniyati bilan bog‘lamasdan qabul qilish qobiliyati paydo bo‘ladi. Bilimni kelajakda «foyda keltiradigan» qilib o‘zlashtirish imkoni paydo bo‘ladi.



Didaktik o‘yinlar.

Kuzatuvlар shuni ko‘rsatadiki, **didaktik o‘yin** (loto, rasmlи ku-biklardan har turli ko‘rinishlar chiqara bilish, son-sanoq, mozaika, shashka, topishmoqlar kabi) maktabgacha yosh davrida oddiy o‘quv topshiriq usuliga ko‘ra bilim olishning samaraliroq yo‘lidir, didaktik o‘yinlar ko‘pincha turli vazifalar bilan bog‘liq bo‘lgan qobiliyatlar va tafakkurlarning rivojlanishiga yordam beradi. Bu jihatdan didaktik o‘yinlar katta guruh bolalarini mакtabdagи o‘qish faoliyatiga tay-yorlash vositalaridan biridir. Biroq shu narsani eslatib o‘tish kerakki, bolalarning o‘qish faoliyati bevosita didaktik o‘yinlardan kelib chiq-maydi. Ammo kichik va o‘rta maktab yoshida didaktik o‘yin asosiy o‘rin egallasa, katta bog‘cha yoshi davrida bu farq ancha pasaya-di. Bu bolalarni o‘quv topshiriqlarini qabul qilish qobiliyati osha-yotganini bildiruvchi ko‘rsatkichdir. Bu bolalarni amallarning ba-

jarilish usullariga e'tibor bera boshlashi, ularni o'quv topshiriqlarini mazmunini tushuna boshlaganini bildiradi. Ular ongli ravishda bu usullarni egallahsga harakat qiladilar. Maktabgacha yoshdag'i bolalar biror maqsadga qaratilgan kuzatuvlarni, predmetlarni tasvirlashni, qiyoslashni va ularni guruhlarga bo'lishni, hikoya va suratlarni mazmunini bir-biriga bog'lagan holda gapirib berishni, arifmetik masalalarni hisob va yechim yo'llarini topishni va hokazolarni o'rganadilar. Masalalarni to'g'ri bajarilishi va kattalar tomonidan qo'yilgan talablar amalga oshishi muhim ma'noga ega bo'ladi. Bunday hollarda bolalar kattalarga bajarilgan u yoki bu o'quv topshiriqlarini to'g'riliqini baholashlarini so'rab tez-tez murojaat qiladilar. Masalan, maktab yoshiga yaqinlashgan bolalar masofaviy aloqani aniq tasvirlashni o'rganish jarayonida, bir necha marta tarbiyachiga murojaat qiladilar: «Meni chizayotganim o'xshayaptimi, iltimos, ko'rib bering?»; «Burchagi burchagiga to'g'ri kelishi kerak, bu uch-burchak narigisini to'g'risida bo'lishi kerak. To'g'rimi?».

**Maktabgacha yoshdag'i bolalarning tasviriy faoliyati.** Bolalarning psixik jihatdan rivojlanishlarida tasvirlash faoliyatlarining roli kattadir. Bog'cha yoshidagi bolalar rasm chizish, loydan yoki plastilindan turli narsalarni yasash, kubiklardan imoratlar, ko'priklar qurishni juda yoqtiradilar. Bolalar o'zlarining tasvirlash faoliyatlarida qandaydir g'ayri-tabiiy, xayoliy narsalarni emas, balki tashqi muhitni, undagi narsalarni, jonivorlarni aks ettirishga intiladilar. Bolalarning bunday faoliyatlarida ijodkorlik, yaratuvchanlik elementlari bo'ladi. Bolalar o'zlaridagi istak, xohish, intilishlarni ana shunday tasvirlash, rasm chizish, loy yoki plastilindan biron narsa yasash, aplikatsiya ishlari orqali ifodalashga intiladilar. Bolalarning tasvirlash faoliyatları juda sodda bo'lsada, ular o'zlarining bunday faoliyatlarida atroflaridagi narsa va hodisalarni shunchaki passiv tasvirlash bilan cheklanib qolmay, o'zlaridan nimalarnidir qo'shib, yangilik yaratishga harakat qiladilar. Ana shuning uchun bolalardagi ayrim qobiliyatlar ularning tasvirlash faoliyatlarida juda erta namoyon bo'la boshlaydi.

Ma'lumki, odam tug'ilishi bilan rassom, haykaltarosh, naqqosh bo'lib tug'ilmaydi. Odamdag'i bunday qobiliyatlar uning yoshligidan tasvirlash faoliyati bilan shug'ullanishi jarayonida yuzaga kelib, takomillashib boradi. Masalan, biz chaqaloq bolalarda hech

qanday tasvirlash faoliyatini ko'rmaymiz. Bunday faoliyat bolanning taxminan ikki-ikki yarim yoshidan boshlab yuzaga keladi. Chunonchi, ikki yoshli bola qalam bilan (to'g'ri kelganicha ushlab olib) nimalarnidir chizib tashlaydi va o'zining egri-bugri chiziqlarini «bu daraxt», «bu odam», «bu uy», «bu mushuk» deb tushuntiradi. Bu yoshdagi bolalar rasm chizayotganlarida biron narsani tasvirlashni maqsad qilib olmaydilar. Keyinchalik chizgan chiziqlariga qarab, miyalariga kelgan birinchi nom bilan ataydilar. Bolalarning tasvirlash faoliyatlaridagi bu davr **tayyorgarlik davri** deb ataladi.

Bolalarning tasvirlash faoliyatları asosan o'rta va katta guruhdan boshlanadi. Lekin bu davrdagi tasvirlash faoliyatları ham ko'p jihatdan sxematik xarakterga ega bo'ladi. Masalan, bolalar odamning rasmini chizganlarida bitta kichik va bitta kattaroq doira chizib, shundan qo'l va oyoqlarni chiqaraveradilar. Ular rasm chizganlarida yoki biron narsaning haykalini yasaganlarida hajm, perspektiva masalalariga mutlaqo rioya qilmaydilar. Ana shuning uchun ularning chizgan rasmlari hajm (o'lchov) jihatidan juda katta yoki juda ham kichkina bo'lishi mumkin. Buning sababi nimada?

Birinchidan, bog'cha yoshidagi bolalarda katta odamlardagi-dek kuzatuvchanlik qobiliyati yaxshi rivojlanmagan bo'ladi va ular chizayotgan rasmlaridagi obyektlarni real voqelikdagi haqiqiy narsalar bilan solishtirmaydilar. Bolalarning tasvirlash faoliyatları asosan tasavvurlariga asoslanadi. Masalan, 4–5 yoshli bog'cha bolasiga onasining rasmini chizish taklif qilinganda, u biron marta ham onasiga qaramay, rasm chiza boshlagan. Undan nega onangga qaramading, deb so'raganlarida, u o'zim juda yaxshi bilaman, deb javob bergen.

Bog'cha yoshidagi bolalar tasviriy faoliyatining shu qadar sodda bo'lishiga ikkinchi sabab ularda ayrim murakkab harakat malakalarining hali yuzaga kelmaganligidir. Bundan tashqari bog'cha bolalari tasvirlash faoliyati bilan shug'ullanayotganlarida tasvirlayotgan narsalarini real voqelikdagi narsalarga o'xshatishni maqsad qilib qo'ymaydilar. Ular tasvirlash faoliyatini ham o'yin tarzida o'tkazadilar. Ularni tasvirlash faoliyatining natijasi emas, balki tasvirlash faoliyatining o'zi qiziqtiradi, xolos. Bolalarning tasvirlash faoliyatları rejali, izchil ravishda emas, balki stixiyali ravishda tashkil qilinadi. Ana shuning uchun bola bunday faoli-

yat davomidayoq voqelikni chuqur va to‘la kuzatmay, o‘z tasavvurlarigagina asoslanib qo‘ya qoladi.

Agar tarbiyachi bolalarning tasvirlash faoliyatlarini izchil tarzda tashkil qilib, bu ishni pedagogik jihatdan to‘g‘ri yo‘lga qo‘ysa, bolalarning tasvirlash faoliyatiga bo‘lgan munosabatlari o‘zgaradi. Bolalar oldiga qat‘iy bir maqsad qo‘yib, ana shu maqsadni amalga oshirish buyurilsa, bolalar tasvirlash faoliyatini o‘yinga aylantirmay ishga nisbatan jiddiy munosabatda bo‘la boshlaydilar. Masalan, bayram o‘tgandan so‘ng bolalarga bayram rasmini chizish taklif etilsa, ular bu vazifani bajon-u dil bajaradilar.

Bog‘cha yoshidagi bolalarni aqliy, axloqiy va, xususan, estetik jihatdan tarbiyalashda tasvirlash faoliyati juda katta yordam beradi. Shuning uchun ham bog‘cha yoshidagi bolalarning tasvirlash faoliyatlarini har doim maqsadga muvofiq ravishda pedagogik jihatdan to‘g‘ri va qiziqarli tashkil qilishga e’tibor bilan qarash zarur.

Bog‘cha yoshidagi bolalar rangli qalamlar, rangli bo‘yoqlar bilan rasm chizish va rangli qog‘ozlardan turli applikatsiyalar tuzish bilan uzoq muddat davomida shug‘ullanishni yoqtiradilar. Lekin bolalarning ranglarga bo‘lgan munosabatlari o‘ziga xosdir. Ular o‘zlariga yoqqan narsalarni juda yorqin, chiroyli ranglar bilan bo‘yaydilar, o‘zlar yoqtirmagan narsalarni esa qora, to‘q jigarranglar bilan bo‘yaydilar. Bolalarning tasvirlash faoliyatлari ularning xayol va hissiy jarayonlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki ular qanday tasvirlash faoliyati bilan mashg‘ul bo‘lmasisin ishlariga befarq munosabatda bo‘lmaydilar. Tasvirlash faoliyati orqali qilgan ishlarini, chizgan rasmlarini ko‘zga ko‘rinadigan joyga namoyish qilib qo‘yadilar.

Maktabgacha yoshidagi bolalarning **qurish-yasash mashg‘ulotlari** ularning kuzatuvchanligi va tafakkurining rivojlanishida alohida ahamiyatga egadir. Qurish-yasash o‘yinlari hamisha ma‘lum maqsadga qaratilgan o‘yinlar bo‘lib, bolalardan murakkab o‘quv, malaka va bilimlarni talab qiladi. Qurish-yasash o‘yinlarida bolalar turli narsalarning detallari (ya’ni ayrim qismlari) faqat tashqi tomon dangina emas, balki ichki tomon dan ham o‘zaro uzviy bog‘liqligini bilib oladilar.

Odatda biron narsani qurish-yasashga kirishishdan, ya’ni konstruksiyalashdan oldin uni sinchiklab qarab chiqiladi va diqqat bilan idrok qilinadi. Undan so‘ng kerakli qismlarni to‘plab ishga

kirishadilar. Qurish-yasash o'yini rasm chizish yoki applikatsiya nisbatan bolalardan butunlay boshqa malaka va o'quvlarni talab qiladi. Shuning uchun qurish-yasash ishlari bilan bolalar juda qiziqsalar ham ilk yoshdagi bolalar bu ishning uddasidan chiqa olmaydilar. Ularga ayrim malakalar, epchillik, tajriba yetishmaydi. Bu yoshdagi bolalar yog'och va taxtachalarni ustma ust qo'yib, ko'prikkha o'xshagan narsalar yasashdan nariga o'ta olmaydilar. Kattaroq yoshdagi bolalar esa rasmga (andazaga) qarab turli narsalar yasashni uddasidan chiqa oladilar. Odatda qurish-yasash faoliyatining quyidagi turlari farqlanadi:



Qurish-yasash ishlari.

- a) andazaga qarab qurish-yasash;
- b) ma'lum shartlar yoki ko'rsatmalar asosida qurish-yasash;
- d) tasavvurlar asosida qurish-yasash.

Qurish-yasash ishlari bilan bolalar yolg'iz o'zlarini va jamoa bo'lib shug'ullanishlari mumkin. Har ikki holda ham qurish-yasash faoliyati bolalarning idroki, diqqati, kuzatuvchanligi, xotirasini hamda tafakkur qilish jarayonlarini rivojlantirishga yordam beradi. Tarbiyachilar qurish-yasash o'yinlarini tashkil qilishda bolalarga ko'rsatma va yo'llanma berishi kerak. Kattalar bolalarning ishini baholashi, boshqa bolalarni ish jarayoni va natijasi bilan qiyoslashi, bolani o'z harakatlarini to'g'ri nazorat qilishiga va o'z bilim va imkoniyatlarini baholashiga sabab bo'ladi. Bajarilgan o'quv topshirig'iga nisbatan

bolalarda o‘zini nazorat qilish va baholash ko‘nikmalari yuzaga keladi. Ko‘p hollarda maktab yoshiga yaqinlashgan bolalar o‘zlarini istamagan holda, oson tuyilgan topshiriqlarni bajaradilar, va bola nuqtayi nazaridan qaraganda, erishilgan bilim va qobiliyat darajasiga mos keladigan natijaga intiladilar.

### **Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan «Davlat talablari»da bolaning rivojlanishi va bilim egallashiga oid nazariy tamoyillar**

*Bolaga yo‘naltirilgan amaliyot*

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining «Maktabgacha ta’limni rivojlantirish» loyihasida (Maktabgacha muassasalar xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish Respublika o‘quv-metodika Markazi tomonidan 2012 yili ishlab chiqilgan) maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishi va bilim olishiga oid quyidagi nazariy tamoyillar, bolaga yo‘naltirilgan amaliyotda (BYA) juda muhim sanaladi. Mazkur tamoyillar Piaje, Vigotskiy, Erikson va boshqalarning ilmiy qarashlariga asoslangan.

Tamoyil	Amaliyot
Bolalarning jismoniy holati va ruhiy ehtiyoji inobatga olingan bo‘lsa va bolalar o‘zlarini xavfsiz his qilsalar, yaxshi bilim oladilar.	BYA bolalarning biologik ehtiyojini inobatga oлади. Masalan, bolalarni uzoq vaqt davomida yozuv, chizuvga yoki kattalarning ma’ruzasini tinglashga majbur qilinmasligi kerak. BYA bolalarni faol o‘yinlar va dam oladigan sokin mashg‘ulotlarda bilim beradi. Hamma bola bir xil qabul qilgandagina muhitni xavfsiz deb atasak bo‘лади.
Bolalar bilimni yaratishadi.	Bilim – shaxs hamda jismoniy va ijtimoiy muhitning o‘zaro aloqaga kirishi bilan yaratiladi. Bola esa bilimni faol tajribalar o‘tkazish orqali kashf qiladi. Tajribaga yo‘naltirilgan «mazkur xatolar» bolaning aqliy rivojlanishida juda muhim hisoblanadi. Bolalar aqlini ishga solib o‘zining shaxsiy faraz va jismoniy turtkilarini yaratadi, atrofni kuzatib, solishtirib, savollar berib va javoblar kashf qiladi va yangi ma’lumotni qabul qilish uchun aqliy farazni moslashtiradi.


Bolalar kattalar va tengdoshlari bilan ijtimoiy muloqotga kirishib ham o'rganadilar.	Eng asosiy namuna bu – bola va ota-onas munosabati. Tarbiyachi bolaga ota-onasi va tengdoshlari bilan munosabatning yaxshi rivojlanishiga turtki beradi va keyinchalik mustaqil bo'lishini ta'minlaydi. Bolani qo'llab-quvvatlash, yo'naltirish va bilim olish hamda rivojlanishiga chorlash tarbiyachining asosiy vazifalaridan hisoblanadi.
Bolalar o'yin orqali bilim oladilar.	O'yin bolaga kashf qilish, tajriba o'tkazish va motivatsiya kabi imkoniyatlarni beradi. O'yin bolaga bilim olishga, o'rganishga yordam beradi. O'yin davomida bolalar o'zlarining bilimlarini insonlar va atrof-muhitdan oladigan tasavvur orqali boyitadilar. Aynan o'yinlar orqali bolalar o'z ijodkorligi va tasavvurini kengaytiradilar. Boshlang'ich guruhlarda o'yin bolaga mustaqil bo'lish va hamkorlik qilish ko'nikmalarini o'rgatadi. Bu esa bolani ijtimoiy, hissiy va aqliy (intellektual) rivojlantiradi.
Bolalarning qiziqishlari va «bilishga ehtiyoj-lari» o'rganishga turtki beradi.	Bolalar o'zlarining tajribalarini bilishlari kerak. Guruh xonalarida tarbiyachi bolaning o'rganishga qiziqishini oshiradigan yo'llarni topib, bolalarga muammolarni birga hal qilishga yordam beradi. Bolalarning ehtiyojiga javob beradigan mashg'ulotlar bilan bolaning qiziquvchanligi, e'tibori va o'zini boshqara olishi ortadi.
Insonning rivojlanishi va o'rganishi uning shaxs xususiyatlari turli xil ekanligi bilan ta'riflanadi.	Shaxs xususiyatlari turli ekanliklari oddiy hayot haqiqatidir. Har bir shaxsning o'ziga xos rivojlanish jarayoni mavjud. Oilaviy va madaniy muhit ham turlichcha bo'ladi.

### Nazorat savollari:

1. Ta'limiy mashgulotning psixologik xususiyatini aytib berling.
2. Maktabgacha yoshdag'i bolalarda bilim olishda aniq va barqaror qiziqish nimada namoyon bo'ladi?

3. Didaktik o‘yinlarning bola bilimlarni egallashidagi o‘rnini nimada?
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy faoliyatini xususiyatlari nimadan iborat?
5. Qurish-yasash faoliyatlarini bola bilish jarayonlariga qanday ta’sir qiladi?

### **Ta’lim olish jarayonidagi o‘zgarishlar**



#### **7.4. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar mehnat faoliyatining xususiyatlari. Maktabgacha yoshda mehnat elementlari**

Bolalarning mehnat mashg‘ulotlari asosan bog‘cha yoshidagi davrdan boshlanadi. Bu yoshda bolalarning mehnatlari juda sodda va elementar bo‘lsa ham ularning psixik taraqqiyotlarida juda katta ahamiyatga egadir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyachining o‘tkazgan suhbatlari orqali mehnatning inson hayotidagi ahamiyati, kattalar mehnati haqida tushunchalarni egallaydilar. Bolalar tarbiyachining savollari bilan o‘z ota-onalarining qayerda, kim bo‘lib ish-

layotganliklarini, qanday mahsulot ishlab chiqarishda ishtirok etayotganliklarini bilib oladilar.

Ana shunday suhbatlar natijasida bolalarda mehnatga nisbatan ijobjiy munosabat, mehnat qilish ishtiyobi tug‘iladi. Kattalarning mehnat faoliyatlariga taqlid qilish dastavval bolalarning o‘yinlarida namoyon bo‘ladi. Bolalar kattalarning mehnat faoliyatlarini o‘zlarining o‘yinlarida taqlidan takrorlash bilan cheklanib qolmay, balki kattalar mehnatida bevosita qatnashish uchun harakat qila boshlaydilar. Masalan, qiz bolalar onalari kir yuvayotganda suv tashish, ayrim kichikroq narsalarni (dastro‘molchalarni) chayishda qatnashadilar, uy va hovlilarni yig‘ishtirib, supurishga, o‘g‘il bolalar esa otasi bajarayotgan ishda qatnashishga intila boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalar mehnatining natijasiga emas, balki mehnat jarayonining o‘ziga qiziqishi psixologik jihatdan xarakterlidir.

Maktabgacha yoshdagи bolalarning mehnatlariga baho berib borish ularda mehnatga nisbatan ijobjiy munosabatni tarbiyalashda katta rol o‘ynaydi. Bolalar kuchlari yetadigan ishlarni bajarayotganlarida ko‘p xatolarga yo‘l qo‘yishlari turgan gap. Lekin bunda bolalarni mehnatga jalb qilmaslik kerak, bolalar bajara-digan ishni kattalarning o‘zлari birpasda qilib qo‘yishlari mumkin, degan ma’no kelib chiqmaydi. Sharq xalqida bir maqol bor: «Bolani ishga buyur, ketidan o‘zing yugur». Bu juda to‘g‘ri, hanyotiy gap. Bolalarga biron yumush buyurilganda, uni qanday bajarayotganliklarini kuzatib turish kerak, degan ma’noni bildiradi.

Kichik yoshdagи bolalarda hali mehnat malakalari yo‘q, qo‘l muskullari yaxshi rivojlanmagan bo‘ladi. Ana shuning uchun bolalar qasddan yoki aniqovliklaridan emas, balki eplay olmasliklaridan biron narsani tushirib, singdirib yuborishlari mumkin. Ana shunday «falokat» yuz bergan paytda bolani «Anqov, merov, ko‘zingga qarasang bo‘lmaydimi?» deyish yoki urish yaramaydi. Buning o‘rniga bolaga shu mehnatni qanday qilib bajarishni ko‘rsatib berish kerak. Kichik yoshdagи bog‘cha bolalari o‘zlarining mehnat faoliyatlarini hali yo‘lga qo‘ya olmaydilar. Shuning uchun ular mehnatning juda sodda turlari bilan, ya’ni o‘simpliklarga suv quyish, baliqlarga ovqat berish, hovliga suv sepish va shu kabilar bilan shug‘ullanadilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda ularni inoq jamoaga uyushtirish katta ahamiyatga egadir. Jamoa bo'lib mehnat qilishda tarbiyachi har bir bolaga ma'lum bir mehnatni bajarishni buyuradi. Ana shu tariqa bolalar birgalikda mehnat faoliyati bilan shug'ullanadilar. Masalan, katta guruh bolalari jamoa bo'lib navbatchilik qiladilar. Bunda bir bola stolga dasturxonlarni yozib chiqsa, ikkinchisi qoshiq va vilkalarni qo'yib chiqadi, uchinchi bola esa stulchalarni qo'yib chiqsa, to'rtinchi bola stolga nonlarni qo'yib chiqadi. Bog'chada navbatchilikka o'rgangan bolalar oilada ham yordamlashadigan bo'ladilar. Bolalar bunday mehnatda jon-u dili bilan qatnashadilar.

O'rta va katta yoshdagi bolalarga oilada kuchlari yetadigan mehnat topshiriqlarini berish kerak. Bu ularda mehnat malakalari hosil bo'lishi uchun imkoniyat yaratadi. Ijtimoiy foydali mehnatda ishtirok etmagan bolani keyinchalik mehnatga jalb qilish juda qiyin bo'ladi. Bog'chada bolalar jalb qilinadigan mehnat faoliyatining turi juda xilma-xildir. Masalan, tabiat burchagidagi jonivor yoki o'simliklarni parvarish qilish, bog'cha uchastkasida ishslash, oshxonada va guruhda navbatchilik qilish, kichkintoylarni kiyintirishga yordam berish va boshqalar.

O'rta va katta guruh bolalari mehnat faoliyatini o'yindan batamom farqlab, unga nisbatan jiddiy munosabatda bo'la boshlaydilar. Ular mehnatdan kelib chiqadigan natijani, ya'ni mehnatning ijtimoiy mohiyatini, kim uchun, nima uchun mehnat qilish lozimligini tushunadi. Ular kattalarning oiladagi uy-ro'zg'or ishlariiga zo'r ishtyoq bilan yordamlashadilar, kichkintoylar uchun qog'ozdan, kartondan, faner va plastilindan turli o'yinchoqlar yasaydilar. Pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil qilingan mehnat faoliyati bolalarning har tomonlama jismoniy, psixik, estetik, axloqiy tomondan rivojlanishiga juda katta ta'sir qiladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Bog'cha yoshidagi bolalarning mehnat mashg'ulotlari va uning psixologik xususiyatlarini aytib bering.
2. O'z-o'zini tarbiyalashda qanday ertaklar yordam beradi?

## VIII bob. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR PSIXIK JARAYONLARINING TARKIB TOPISHI

### 8.1. Bolalarda sezgi va idrokning rivojlanishi

**Sensor taraqqiyot bosqichlari va ularning bola faoliyati bilan aloqasi.** Bolaning bog'cha yoshidagi davri sezgi a'zolari va idrokning intensiv rivojlanish davri hisoblanadi. Bolalar sezgi va idroklarining yordami bilan tevarak-atrofdagi narsalarning shaklan katta-kichikligini va ranglarini bilib oladilar. Ularning sezgi a'zolari (ko'rish, eshitish, hid, ta'm-teri, taktil) va idroklari dunyoni bilish qurolidir. Shuning uchun bolalarning psixik taraqqiyotlari asosan ana shu yuqoridagi sezgi a'zolari va idroklarining taraqqiyotiga bog'liq.

Ana shuning uchun ham hozirgi kunda bog'chada bolalarga beriladigan sensor tarbiyaning roli nihoyat darajada ortib bormoqda. Bu yerda shunday bir savol tug'iladi. Sensor tarbiya deganda nimani tushunamiz? Sensor tarbiya aqliy tarbiyaning bir bo'lagi bo'lib, biz bunda sezgi a'zolari va idrokni maqsadga muvofiq ravishda rivojlantirish va mukammallashtirishni tushunamiz.

Bolalar tarbiyachining rahbarligi ostida turli mashg'ulotlarda narsalarning har xil xususiyatlarini, qattiq-yumshoqligini, rangini, shaklini qayta-qayta idrok qilar ekanlar, ularning ongida narsalarning turli xususiyatlariga doir etalonlar (andaza, obrazlar) yuzaga keladi. Keyinchalik bolalar narsalarning xususiyatlarini, belgilarini idrok qilganlarida o'z tasavvurlaridagi etalonlarga taqqoslab, solishtirib ko'radilar. Shuning uchun bog'chada bolalarga sensor tarbiyasini berish orqali ularda etalon tasavvurlarni hosil qilish katta ahamiyatga egadir.

**Sezgi a'zolari** hissiy yo'l bilan egallanadi. Ana shuning uchun sezgi a'zolarini yoshlik davridan boshlab o'tkirlashtirish, ya'ni sensor tarbiya nihoyatda zarurdir. Odamlargagina xos bo'lgan musiqa tovushlariga nisbatan sezgirlik, tovushlarning nozik tomonlarini anglay bilish sezgirligi, biron narsaning tekkanini sezza bilish kabi nihoyatda muhim xususiyatlar bog'chada amalga oshiriladigan sensor tarbiya orqali rivojlantiriladi.

Bog'cha yoshidagi bolalar narsalarni o'z qo'llari bilan bevosita ushlamasalar ham, ko'rish va eshitish bilan qanoatlanadigan

bo‘ladilar. Bolaning **ko‘rish sezgisi** bog‘cha yoshigacha bo‘lgan davrda juda tez takomillashadi. Shuning uchun bolaning ko‘zi katta yoshdagi odamlar ko‘ziga nisbatan uzoqni ko‘ra oladi. Agarda bolaning ko‘zi biron kasallikka uchramay, normal va sog‘lom taraqqiy etsa, ko‘rish o‘tkirligi katta yoshdagi odamlarnikiga nisbatan ikki-uch barobar ortiq bo‘ladi.

Bog‘cha yoshidagi bolalar sezgisini o‘stirishda tarbiyachining roli juda kattadir. Tarbiyachi turli qiziqarli mashg‘ulotlar orqali bolalar sezgi a’zolarining sezgirlik darajasini o‘stirishga yordam berishi kerak. Bunda bolalar sezgi a’zolarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni aniq va mazmunli o‘yinlar bilan bog‘lab o‘tkazish yaxshi natija beradi. Masalan, bolalarda uzoqdagi narsalarning farqini ajrata olish sezgirligini takomillashtirish uchun rangli va har xil kattalikdagi qutichalar yoki kubiklarni ma’lum uzoqlikka qo‘yib, farqini ajrata olish o‘yinini o‘tkazish mumkin. Bunda bolalarning ko‘rish sezgirliklari darajasiga qarab, kubiklar qo‘yilgan masofalarni ayrim bolalarga nisbatan uzoqlashtirish va boshqa bolalarga nisbatan esa yaqinlashtirish mumkin.

Har bir tarbiyachi o‘z qo‘l ostidagi bolalar sezgi a’zolarining holatini, sezgirlik darajasini yaxshi bilishi kerak. Turli mashg‘ulotlarni tashkil qilishda buning ahamiyati juda kattadir. Ba’zi bolalarda kamqonlik yoki boshqa bir sabab tufayli ko‘rish sezgirligi zaif bo‘ladi. Ayrim tarbiyachilar esa buni o‘z vaqtida aniqlamaydilar, natijada bola aybsiz bo‘lsa ham tarbiyachidan tez-tez dakki yeb turadi.

Masalan, tarbiyachi rasm bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda (rasmga qarab so‘zlab berish) ko‘rish sezgirligi zaif bolani orqa-roqqa o‘tqazib qo‘yishi mumkin. Natijada bola rasmdagi ayrim detallarni mutlaqo ko‘rmaydi yoki g‘ira-shira ko‘rsa ham, ajrata olmaydi. Tarbiyachi esa, bolada ko‘rish sezgirligining zaifligini bilmay, uni diqqatsizlikda ayblab, urisha boshlaydi.

Bolalar bog‘cha yoshida ranglarning farqini yaxshi ajrata oладиган bo‘ладilar. Biroq ular faqat asosiy ranglarni yaxshi biladilar, murakkab ranglar, masalan, sarg‘ish, ko‘kimir, pushti, jigarrang, to‘q qizil, och havo rang, zangori, binafsha rang, oqimtir, timqora kabilarni esa yaxshi bilmaydilar. Bog‘cha yoshidagi bolalar bu

murakkab ranglarning nomini ham to‘g‘ri ayta olmaydi. Shuning uchun bolalar gaplarning bunday murakkab nomlarini tarbiyachilardan eshitish orqali o‘zlashtiradilar. Ba’zi paytlarda esa o‘zlari bilganlaricha ayta boshlaydilar. Masalan, timqorani – ja qora, pushti rangni – sal qizil, yashil, zangori, binafsha ranglarni umumiy ravishda «ko‘k» deb ataydilar.

Har bir tarbiyachi o‘z ish tajribasidan biladiki, kichik guruh bolalariga nisbatan katta guruh bolalari ranglarning o‘zini ham, nomlarini ham yaxshi farqlay oladilar. Bu, albatta, mashq qilish va turmush tajribasining ortishi natijasidir. Bolalar yorqin (juda yaltiroq) ranglarni yoqtiradilar. Yorqin ranglar ularga qandaydir zavq bag‘ishlaydi.

Bola ranglarni hali bir-biridan yaxshi farqlay olmaydi. Uniga ranglarning farqini bilishga yordam qiladigan o‘yinchoqlar berish lozim. Bolalar rasmli kitobchalar va o‘yinchoqlar bilan shug‘ullanganlarida ularni ko‘zlariga juda yaqin tutadilar. Mana shunday paytlarda bolalarga rasmli kitob va o‘yinchoqlarni ko‘zlaridan birmuncha uzoqroq masofada tutishni o‘rgatish lozim. Bolalarni ta’limiy mashg‘ulotlardan so‘ng kengroq joyga olib chiqib, ochiq havoda o‘ynatish kerak. Bunda bolalar uzoq masoфа va manzaralarni tomosha qiladilar hamda shuning bilan birga mashg‘ulotda toliqqan ko‘zlariga dam beradilar.

Shunday qilib, bog‘chada bolaning tasavvuri, xotirasi, tafakkuri va xayolining taraqqiyoti uchun turli-tuman yorqin obrazlar beruvchi ko‘rish sezgisining faoliyatini har xil mashqlar orqali izchil ravishda oshirib borish kerak.

Bog‘cha yoshidagi bolalarning psixik jihatdan taraqqiy etishlarida **eshitish** sezgisining ham roli juda kattadir. Bola eshitish orqali nutqni egallaydi. Nutq esa inson taraqqiyotining eng muhim manbalaridan biridir. Eshitish sezgisi, yuqorida aytib o‘tganimizdek, bolalarda yildan yilga tez rivojlanadi. Agar bog‘cha yoshidagi bolaning eshitish a‘zosi (qulog‘i) biron kasallikka uchramay, normal rivojlanib borsa, tez orada kamolotga erishadi va natijada eshitish sezgirligi kuchayadi. Bolalarning eshitish a‘zolari anatomik jihatdan katta odamlarnikiga nisbatan birmuncha nozik va zaif bo‘ladi. Ayrim bolalarning ko‘rish sezgilarini zaifroq bo‘lgani singari boshqa bir bolalarning eshitish

sezgilarini zaifroq bo'lishi mumkin. Tarbiyachi bog'cha yoshidagi bolalar eshitish sezgilarini sezgirligini tekshirib ko'rishi kerak. Yaxshi eshitmaydigan bolalar odatda anqov va hadiksiraydigan bo'ladilar. Bunday bolalar «kar», «kar qulqoq», «anqov» degan laqab olishdan qo'rilib, o'zlarining ayblarini hech kimga, hatto tarbiyachiga ham bildirmaslikka tirishadilar. Eshitish sezgisi zaif bo'lgan bolalar nutqi o'zlashtirishdan orqada qoladi. Bu esa ularning umuman psixik taraqqiyotdan orqada qolishlariga olib kelishi mumkin.

Tarbiyachi eshitish sezgisi zaif bo'lgan bolalarni aniqlab olgandan so'ng ularga nisbatan individual munosabatda bo'lishi kerak. Bunday bolalarni hikoya o'qib berish yoki suhbatlashish kabi mashg'ulotlarda eng oldingi qatorga o'tkazish lozim. Bunday tashqari, eshitish sezgisi zaif bolalar ayrim narsalarni qayta-qayta so'raganlarida ularni jerkib tashlamay, osoyishtalik bilan aniq javob berish lozim. Ba'zi bir ota-onalar va tarbiyachilar bunday bolalarning qayta-qayta so'roqlariga osoyishtalik bilan javob berish o'rniga «Ha, nima, kar qulqomisan eshitib o'tir, ovsar!» deb urishib beradilar. Natijada bola o'z tengdoshlari o'rtasida mulzam bo'lib, ikkinchi marta so'rashga yuragi bezillaydigan bo'lib qoladi. Mana shunday g'ayri pedagoglik munosabatda bo'lish bolalarning umumiy psixik taraqqiyotiga juda salbiy ta'sir etadi. Chunki bola eshita olmagan va, binobarin, tushuna olmagan narsalarni kattalardan so'rab olish o'rniga, o'zi bilganicha talqin qilishga odatlanib qoladi. Ana shularni nazarda tutib, bog'cha yoshidagi bolalarning asosiy bilish qurollari bo'lgan ko'rish va eshitish sezgilarini normal rivojlantirish ishiga zo'r mas'uliyat bilan qarash lozim.

Bog'cha yoshidagi bolalar umuman ta'mni emas, balki ta'mning barcha turlarini deyarli ajrata oladilar. Hidlarga nisbatan ham xuddi shunday. Biroq bu ishdagi bolalarning turmush tajribalari juda ozligi tufayli ayrim hidlarning nomini to'g'ri ayta olmasliklari mumkin. Bog'cha yoshidagi bolalarning hid va ta'm bilish a'zolari anatomiq tuzilishi jihatidan katta odamlarning hid va ta'm bilish a'zolaridan deyarli farq qilmasada, lekin funksiyasi, ya'ni o'z vazifasini qay darajada bajarishi jihatdan biroz farq qiladi. Bu farq hid va ta'm bilish sezgirligining o'tkirligida namo-

yon bo‘ladi. Katta odamlarda hid va ta’m bilish sezgirligi bolalarga nisbatan o’tkirroq bo‘ladi. Shu narsa diqqatga sazovorki, boshqa sezgilarga nisbatan hid va ta’m bilish sezgilarini bog‘cha yoshidagi bolalarda qandaydir yo‘l bilan mashq qildirish orqali rivojlantirish birmuncha qiyin.

Ilk yoshdagи bolalar har bir narsani o‘z qo‘llari bilan ushlab, timirskilab ko‘rishga harakat qiladilar. Bolalardagi bu xususiyat ularning bog‘cha yoshidagi davrlarida ham saqlanib qoladi. Ana shu sababli bog‘cha yoshidagi bolalar ham har bir narsani shunday sirtdan ko‘rib qo‘ya qolish bilan qanoatlanmay, «Qani, men bitta ko‘ray», «Qani menga berib turing» degan iboralar bilan qo‘llarini cho‘zib intilaveradilar. Bog‘cha bolalaridagi bu xususiyatni ularning haddan tashqari qiziquvchanliklari va turmush tajribalarining ozligi bilan tushuntirish mumkin. Shu sababli bolalardagi bunday intilishni bo‘g‘masdan, imkoniyat boricha so‘ragan narsalarini ushlab ko‘rishlariga ijozat berish kerak.

Teri sezgirligi bog‘cha yoshidagi bolalarda ham xuddi katta odamlardagi kabi organizmning ayrim joylarida kuchli, ayrim joylarida esa kuchsizroq joylashgan bo‘ladi. Bolalarda qo‘l barmoqlarining uchi va yuz qismlari boshqa joylariga nisbatan g‘oyat sezgirdir. Teri sezgirligini turli mashg‘ulotlar va mashqlar orqali rivojlantirish mumkin. Masalan, ko‘zni bog‘lab, turli narsalarni qo‘l bilan paypaslab aniqlash, har xil taxtachalarning silliqlik darajasini aniqlash, bog‘chalarda keng qo‘llaniladigan ajoyib xaltacha va hokazo o‘yinlarni o‘tkazish mumkin. Teri sezgirligini rivojlantirish mumkinligining isboti sifatida ko‘r tug‘ilgan bolalarni ko‘rsatish mumkin. Chunki, tug‘ma ko‘r tug‘ilgan bolalar tevarak-atrofdagi narsalarni bilishda asosiy qurol hisoblangan teri sezgirligini kishini hayratda qoldiradigan darajada rivojlantira oladilar.

Shunday qilib, bolaning butun bog‘cha yoshidagi davrida hamma sezgi a’zolari jadal rivojlnib boradi. Normal sharoitda tarbiyalangan sog‘lom bola yaxshi takomillashgan ko‘rish, eshitish, hid bilish, ta’m va teri sezgilariga ega bo‘ladi. Mana shu sezgi a’zolari tashqi olamdagи narsa va hodisalarni aks ettirishda birdan-bir vositadir. Mashhur chek pedagoglaridan Yan Amos Komen-skiy bilish jarayonida sezgi a’zolarining (analizatorlarning) rolini

juda obrazli qilib tasvirlab bergen edi. Yan Amos Komenskiyning fikricha: «Sezgi a'zolarimiz ongimizdan (miyadan) tashqi olamga qarata ochilgan darchalardir. Biz ongimizda aks ettirayotgan hamma narsa va hodisalar faqat mana shu darchalar orqali ongimizga kiradi». Bu haqiqatan ham juda to'g'ri o'xshatishdir. Chunonchi, biron ta darcha bekilib qolgan bo'lsa (ya'ni biron ta sezgi a'zolarimiz ishdan chiqqan bo'lsa) u paytda biz shu sezgi a'zoyimiz bilan bog'liq bo'lган narsalarni to'la aks ettira olmaymiz. Ongimizdan tashqari olamga qarata ochilgan mana shu darchalar qanchalik keng va ravon ochilgan bo'lsa, atrofimizdagi narsa va hodisalarni shunchalik chuqur hamda atroflicha aks ettiramiz. Mana shuning uchun bog'chada ham, oilada ham bolalarning sensor tarbiyalariga, ya'ni sezgi a'zolarini takomillashtirishga alohida ahamiyat bilan qarash kerak.

### *Bolalarda idrokning rivojlanishi*

Bola uch yoshga to'lib bog'chaga qatnay boshlagach, birinchidan, bolaning faoliyat darajasi juda kengayib ketadi, ikkinchidan, nutqi g'oyat zudlik bilan o'sa boradi. Buning natijasida bola juda ko'p narsalar bilan mustaqil hamda bevosita munosabatta bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bola hayotidagi bu o'zgarish o'z navbatida uning idrokiga ta'sir etmay qolmaydi. Ular kundalik faoliyatları davomida juda ko'p narsalar bilan to'qnashadilar. Shunday bo'lishiga qaramay katta yoshdagagi bog'cha bolalari ham o'zлari idrok etayotgan narsalarning nima ekanligini har doim kattalarning yordamisiz bilavermaydilar.

Bog'cha yoshidagi bolalar idrokida ikkinchi signallar sistemasi (nutq)ning roli nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, tevarak-atrofdagi narsalarni anglab idrok qilishda faqat narsaning o'zigina emas, balki uning nomi ham birga qatnashadi. Bolalar idrokini takomillashtirish maqsadida uyushtiriladigan ekskursiyalarda (hayvonlar va o'simliklar dunyosi bilan tanishtirishda) bolalar idrokida ikkinchi signallar sistemasining rolini oshirishga intilish kerak. Chunki, qo'zg'atuvchilarning (ya'ni ekskursiya paytida ko'rsatilayotgan narsalarning) ayni bir paytda har ikkala signallar sistemasiga barobar ta'sir etishi idrok qilinayotgan narsalarning butun va to'la-to'kis aks etishini ta'minlaydi.

Bog‘cha yoshidagi bolalar idrokining xarakterli tomonlaridan biri shundaki, ular turli narsalarni idrok qilishda bu narsalarning ko‘zga tashlanib turadigan belgilariga asoslanadilar. Biroq tajribalari hali yetarli bo‘limgani, ya’ni ko‘p narsalarning mohiyatiga mutlaqo tushuna olmasliklari tufayli narsalarning mohiyati bilan bog‘liq bo‘lgan eng muhim va umumiy belgilarni aks et-tira olmaydilar. Ular narsalarni idrok qilishda faqat aniq tasavvurlarga asoslanadilar. Shu sababli bog‘cha yoshidagi (xususan kichik bog‘cha yoshidagi) bolalar uchun narsalarning eng asosiy va muhim belgilari ularning rangi va shaklidir. Bog‘cha yoshidagi bolalar shuning uchun ham o‘xshash narsalarning shaklini bir-biridan bemalol ajrata oladilar. Lekin, bog‘cha yoshidagi kichik bolalar (kichkina guruh bolalari) narsalarning shaklini farqlashda biroz qynaladilar. Chunonchi, kichik yoshidagi bog‘cha bolalariga mavhum geometrik shakllar yoki ularning rasmi ko‘rsatilsa, ular bu shakllarni o‘zlariga ma’lum bo‘lgan aniq narsalar bilan bog‘lab, ya’ni predmetlashtirib idrok qilishga intiladilar. Masa-lan, ular aylanani «g‘ildirak», to‘rtburchakni «deraza» yoki «es-hik» deb ataydilar.

Rus psixologlaridan S.L. Rubinshteyn, S.N. Shabalini va M.N. Volokitinalar tajribalarining ko‘rsatishicha, bog‘cha yoshidagi bolalar aniq narsalarning shaklinigina emas, balki bu narsalarning qora rang bilan qilgan siluetlariga (andazalariga) qarab ham ularni bir-biridan farqlay oladilar. Bolalar siluetga qarab (ya’ni qora rangda ishlangan quruq shaklga qarab) bu narsalarning nima ekanligini yanglishmay aytib bera oladilar. Bunda shu narsa ma’lum bo‘ladiki, bog‘cha yoshidagi bolalar narsalarning shakllarini ularning mazmuni bilan bog‘liq ravishda idrok qila boshlaydilar. Demak, bog‘cha yoshidagi bolalar tevarak-atrofdagi turli-tuman narsalarni idrok qilishda shu narsalarning mazmuni, mohiyati bilan organik bog‘liq bo‘lgan shaklga ham asoslanadilar. Kichik guruh bolalari turli geometrik shakllardan qilingan mozaikalar bilan o‘ynaganlarida ularni shakliga qarab, ya’ni to‘rtburchakni to‘rtburchaklar guruhiiga, uchburchakni uchburchaklar guruhiiga, aylanani aylanalar guruhiiga yanglishmay ajratadilar. Bu o‘rinda shu narsa xarakterlik, mozaikadagi geometrik shakllar har xil rangda bo‘lishiga qaramay, ular rangni emas,

balki shaklni asos qilib olib guruhlarga ajratadilar. Bog‘chada bolalarning narsalarni shakliga qarab to‘g‘ri farqlay olish xususiyatlarni o‘stirish kerak. Bunga loy yoki plastilindan turli narsalar yasash va rasm chizish mashg‘ulotlari o‘tkazish orqali erishish mumkin.

Bog‘cha yoshidagi bolalar idrok qilish paytida narsalarni chur-qur analiz qila olmaydilar. Bolalar idrokidagi bu yetishmovchilik turli rasmlarni idrok qilishlarida yaqqol ko‘rinadi. Bolalar (xususan kichik yoshdagi bog‘cha bolalari) rasmida tasvirlangan narsalarning holatiga va fazoviy munosabatlariga tamomila be-farq bo‘ladilar. Ular rasmlarni teskari ushlab ham zavq bilan tomosha qilaveradilar. Buning asosiy sababi rasmni idrok qilishga nisbatan bolalarning analitik munosabatda bo‘lolmasliklaridir. Bolalar rasmida tasvirlangan narsalarni bir-biri bilan ma‘lum munosabatda emas, balki tasvirlangan narsalarning hammasini butunligicha idrok qilishga intiladilar. Ularda hali analiz qilish xususiyatlari yaxshi rivojlanmagan bo‘ladi. Shuning uchun rasmlar bilan o‘tkazilgan mashg‘ulotlarda tarbiyachi bolalariga yo‘naltiruvchi savollar berib, ularni analiz qilishga o‘rgatib borishi lozim. Ana shunday mashg‘ulotlarda bolalar diqqatini, biringchidan, ko‘rsatilayotgan rasmning mazmunini to‘g‘ri idrok qilishga, ikkinchidan rasmning umumiyligi ko‘rinishida har bir tasvirlangan narsaning o‘rnini to‘g‘ri idrok qilishga, ya’ni rasmdagi narsalarni bir-biridan keskin farq qila bilishga, uchingchidan esa, rasmida tasvirlangan narsalar o‘rtasidagi munosabatlarni to‘g‘ri idrok qilishga qaratish kerak. Rasmlarni idrok qilish ana shunday tarzda yo‘lga qo‘yilgandagina bolalarning analitik idrok qilish qobiliyatini hamda kuzatuvchanlik xususiyatini rivojlantirish mumkin.

Bog‘cha yoshidagi bolalarning asosiy faoliyatlarini o‘yin faoliyatidir. Ular o‘zlarining kundalik o‘yin faoliyatlarida juda ko‘p narsalarga to‘qnash keladilar. Bu narsalarni bilganlaricha idrok qilib, bir-birlariga tushuntiradilar. Umuman o‘yin faoliyatida ularning idroki to‘xtovsiz rivojlanib boradi. Bog‘cha yoshidagi bolallarda turmush tajribasining yetarli emasligi ba’zan ular idrokining rivojlanishiga to‘sinqinlik qiladi. Bu murakkab idrok jarayonida, ya’ni fazo hamda vaqtini idrok qilishda yaqqol ko‘rinadi. Ma-

salan, ular narsalar o'rtasidagi fazoviy munosabatlarni, fazo hamda vaqt o'lchovlarini to'g'ri idrok eta olmaydilar, Narsalar o'rtasidagi fazoviy munosabatlarni hamda vaqtni bolalar asosan bog'cha yoshidagi davrda o'zlashtira boshlaydi. Bolalar o'zidan uzoq va yaqin, baland va past joylashgan narsalar bilan bevosita munosabatda bo'lish jarayonida fazoviy tushunchalarni to'g'ri idrok qila boshlaydilar. Bunda tarbiyachilarning narsalar o'rtasidagi har xil fazoviy munosabatlarni so'z bilan ifoda etishlari bolalar idrokining rivojlanishiga katta yordam beradi. Uzoq-yaqin, baland-past, chuqur-yuza, katta-kichik, keng-tor kabi fazoviy tushunchalarni hamda narsalar o'rtasidagi bunday fazoviy munosabatlarni bolalar o'z faoliyatlarida, ya'ni o'yin va mashg'ulotlarda ma'lum darajada o'zlashtirib boradilar. Lekin, chap va o'ng kabi tushunchalarni bolalarga o'z vaqtida o'rgatish zarur, chunki bola chap va o'ng qo'lning farqiga bormay ko'p ishlarni chap qo'lida bajaradigan bo'lib qolishi mumkin.

Bog'cha yoshidagi bolalarda fazoviy tasavvurlarning yetarli darajada aniq emasligini ularning chizgan rasmlarida yaqqol ko'rish mumkin. Masalan, kichik va o'rta guruh bolalari rasm chizganlarida narsalarning hajm munosabatlariga unchalik e'tibor bermaydilar. Ularning chizgan rasmlarida uyning balandligi avtomashinaning balandligi bilan, odamning bo'yi esa terakning bo'yi bilan barobar bo'lishi mumkin. Bu bog'cha bolalarini mutlaqo hayron qoldirmaydi. Fazoviy munosabatlarni to'g'ri idrok qilish va fazoviy munosabatlar haqida to'g'ri tasavvurga ega bo'lish asta-sekinlik bilan bolalarning turmush tajribalari orta borishi davomida o'sib boradi.

Bog'cha yoshidagi bolalarning vaqtni idrok qilishlari fazoni idrok qilishlari kabi mukammal xarakterga ega emas. Bolalarda vaqtni to'g'ri va anglab idrok qilish fazoni idrok qilishdan ham qiyinroq desak yanglishmaymiz. Bolalar uchun vaqtni idrok qilishda qiyin tomonlaridan biri shuki, ular vaqtning uzlksiz o'tuvchanligini (ya'ni vaqtning beto'xtov harakatini) anglay olmaydilar va, binobarin, idrok ham qila olmaydilar. Bu narsani ularga ko'rgazma asosida ko'rsatib bo'lmaydi. Natijada bolalar vaqt o'lchovlarini ma'lum narsalar va hodisalar orqali aniqlash tirib idrok qilishga intiladilar.

Odatda so‘zlar bilan ifodalanadigan quyidagi asosiy vaqt o‘lchovlari bordir: «soniya», «daqiqqa», «soat», «kun», «hafta», «oy», «yil», «asr», «kecha», «bugun», «ertaga» «indinga», «ertalab», «peshin», «kechqurun», «kechasi», «avval», «keyin» kabilar. Ana shu vaqt o‘lchovlaridan bog‘cha yoshidagi bolalar erkin foydalana bilmaydilar. Chunki bu vaqt o‘lchovlari (vaqt tushunchalari) nisbiy hamda mavhum xarakterga egadir. Bolalar ertaning bugunga, bugunning kechaga, kechaning o‘tgan kunga tabiiy ravishda aylanib qolishini hech bir tasavvur eta olmaydilar.

Bog‘cha yoshidagi bolalarning ayrim vaqt o‘lchovlarini idrok qilishlarida rejimning roli juda kattadir. Bolalarning kundalik hayotlarida doimiy ravishda takrorlanib turadigan rejim (kun tartibi) ayrim vaqt o‘lchovlarini birin-ketin ajratib olishga yordam beradi. Bundan tashqari, ular ayrim vaqt o‘lchovlarini vaqtning asosiy belgilariga qarab ham farqlay oladigan bo‘ladilar. Masalan, «Kun (quyosh) chiqqanda – ertalab bo‘ladi», «Kun botganda – kechqurun bo‘ladi», «Qorong‘i bo‘lib hamma uxlaganda – kechasi bo‘ladi» deb aniqlaydilar.

Shu narsani aytish kerakki, vaqt tushunchalarini idrok qilish qiyin bo‘lgani uchun bog‘cha yoshidagi bolalar (xususan kichik guruh bolalari) asosan hozirgi zamon (shu bugungi) tushunchasi asosida yashaydilar. Ana shu sababli ular kelasi va o‘tgan zamon tushunchalariga nisbatan hozirgi zamonga oid vaqt o‘lchovlarini to‘g‘ri idrok qila oladigan bo‘ladilar. Shuning uchun bolalar dastavval «ertalab», «peshin», «kechqurun», «kechasi», «bugun» kabi vaqt tushunchalaridan to‘g‘ri foydalananadigan bo‘ladilar.

Bog‘cha yoshidagi bolalarning uzoq zamonga oid narsalarni tushuntirishlari o‘ziga xos xarakterga egadir. Ular bunday narsalarni vaqt tushunchalari orqali emas, balki qalblarida chuqur iz qoldirgan taassurotlar orqali tushuntirishga intiladilar. Masalan, qachonlardir bir bo‘lgan hodisani yoki qachonlardir ko‘rgan narsalarini «Hov bir marta bayramda...», «Hov bir marta to‘y bo‘lganda...» kabi. Ular xotiralarida qolgan ayrim hodisalarning qaysi yil va qaysi oyga tegishli ekanini aniq vaqt o‘lchovida (vaqt tushunchasida) aytib bera olmaydilar.

Kichik yoshdagagi bog‘cha bolalarining vaqtini idrok qilishlari da shu narsa ko‘zga tashlanib turadiki, ular bir-biri bilan tez al-

mashib turadigan vaqt o‘lchovlarini qiyinlik bilan o‘zlashtiradilar. Shuning uchun ular bunday vaqt o‘lchovlarini ko‘pincha bir-biri bilan almashtirib yuboradilar. Masalan, kichik yoshdagi bog‘cha bolalari: «Kecha bugunmi?» «Bugun ertagami?» «Qachon ertaga bo‘ladi?» «Bugun ham kechasi bo‘ladimi?» degan savollarni berishlari mumkin.

Vaqtni to‘g‘ri idrok qilish ham xuddi fazoni idrok qilish kabi bolalarning amaliy faoliyatları, ya’ni turmush tajribalari bilan bog‘liqdir. Bog‘cha bolalari o‘zlarining har kungi xilma-xil faoliyatları davomida vaqt munosabatlarini o‘z ko‘zlari bilan ko‘radilar va sekin-asta o‘zlashtirib boradilar. Lekin vaqt bolalarga bevosita ko‘rinmaydi. Shuning uchun vaqtni to‘g‘ri idrok qilishni bolalarga yoshlikdan boshlab o‘rgatish kerak. Bolalar eng sodda, ya’ni bo‘linmaydigan vaqt o‘lchovlarini osonroq o‘zlashtiradilar. Bunday sodda o‘lchovlardan «hozir», «oldin», «keyin» kabi tushunchalarni ko‘rsatish mumkin. Shundan so‘ng bir qadar mu rakkab, ya’ni bir necha qismlarga ajratish mumkin bo‘lgan vaqt o‘lchovlarini (ya’ni «bug‘un», «kecha», «ertaga», «indinga» kabi) o‘zlashtirishlari mumkin. Katta guruh bolalari ana shu yuqoridagi vaqt tushunchalaridan tashqari kunlarning nomlarini (ya’ni yakshanba, dushmanba, seshanba, chorshanba, payshanba, juma, shanba) ham yaxshi o‘zlashtirib, «hafta», «oy» va hatto ba’zan «yil» kabi murakkab vaqt tushunchalaridan ham foydalana oladigan bo‘ladilar.

Tevarak-atrofdagi narsalar o‘rtasida mavjud bo‘lgan fazoviy munosabatlarni (baland, past, katta, kichik kabi) to‘g‘ri idrok qilishda bolalarning atrofdagi turli-tuman narsalar bilan bevosita munosabatda bo‘lishlari katta rol o‘ynasa, vaqt munosabatlarini to‘g‘ri idrok qilishda vaqt o‘lchovlarini (tushunchalarini) ifodalovchi so‘zlarnig ko‘proq ishlatalishi katta rol o‘ynaydi. Shuning uchun bolalar bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda, suhbatlarda, hikoyalardan o‘qib berishda bolalar so‘z boyligida hozirgacha yo‘q bo‘lgan vaqt o‘lchovlariga oid tushunchalarni kiritish kerak. Umuman bolalarga bog‘chada vaqt o‘lchovlarini (ya’ni hozir soat 2 bo‘lib, tush payti bo‘lib qolganligini, soat 5 dan oshib kech kirib qolganligini) muntazam ravishda eslatib turish kerak. Bu bolalarda vaqt hissini rivojlantirishga yordam beradi. Vaqt his-

si esa vaqt o‘lchovlarini to‘g‘ri idrok qilishni ta’minlaydi. Bolalar vaqt tushunchalarini to‘g‘ri o‘zlashtirayotganlarini aniqlash uchun ularga «qachon», «qaysi kuni», «qancha vaqtdan so‘ng», «qaysi biri oldin», «qaysi haftada», «qaysi oyda» kabi savollarni berib turish lozim.

Bog‘chada idrokni rivojlantira borish asosida kuzatuvchanlikni ham tarbiyalash kerak. Kuzatuvchanlik odamning butun hayoti, butun o‘qish va mehnat faoliyati davomida juda zarur bo‘lgan fazilatdir. Bog‘chada turli didaktik mashg‘ulotlar o‘tkazish, ekskursiyalar tashkil qilish orqali bolalarda kuzatuvchanlikni tarbiyalab boriladi. Bu jihatdan yil fasllari (bahor, yoz, kuz, qish) bo‘yicha o‘tkaziladigan ekskursiyalar, rasmga qarab so‘zlatish (kim ko‘proq narsani ko‘radi) yaxshi natija beradi. Albatta, ekskursiya va mashg‘ulotlar paytida bolalarga beriladigan savollar oldindan o‘ylab olingen, ya’ni rejali asosda bo‘lishi kerak.

Bog‘cha yoshidagi bolalar idrokining normal o‘sishi hamda ularda kuzatuvchanlikning kamol topishi ko‘p jihatdan tarbiyalchilarga, ularning pedagoglik mahoratiga bog‘liqdir.

### **Nazorat savollari:**

1. Sensor tarbiya nima?
2. Sezgirlik xususiyatlari nimada ifodalanadi?
3. Sezgirlikni rivojlantirishda tarbiyachining roli.
4. Bog‘cha yoshidagi bolalar idrokining xarakterli tomoni nimada namoyon bo‘ladi?
5. Bolalar idrok qilish paytida narsalarni qanday analiz qiladilar?
6. Idrok shakllarining bolalarda kechishi haqida so‘zlab bering.

### **8.2. Bolalarda diqqatning rivojlanishi.**

#### **Bolaning bog‘cha yoshidagi davrida ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqati**

Maktabgacha yoshidan boshlab bolalarda ixtiyoriy diqqat rivojlanma boshlaydi.

Biroq maktabgacha kichik yoshdagi bolalarda ixtiyorsiz diqqat ustunlik qiladi. Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarda kun sayin paydo bo‘ladigan yangi-yangi qiziqishlar, o‘yin faoliyatlarining

xilma-xil bo'la borishi ularda ixtiyorsiz diqqatni asta-sekin takomillashtirib boradi.

Maktabgacha ta'lif muassasasi tomonidan talab etiladigan tartiblarga bo'ysunish, qoidali o'yin shartlarini so'zsiz bajarish, kattalarning topshiriqlarini chidam va qunt bilan ado etish kabi hollar maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqatning ixtiyoriy turini rivojlantiradi. Bolalarda ixtiyoriy diqqatni rivojlantirishda o'yinning roli juda kattadir. Chunki, turli o'yinlar paytida bolalar diqqatlarini bir joyga to'plab, o'z tashabbuslari bilan ma'lum maqsadlarni ilgari suradilar. O'yinlarning qanday qoidalar asosida o'ynalishini o'zлari mustaqil ravishda tanlab oladilar. O'yin qoidasidan chetga chiqib ketmaslik uchun o'z harakatlarini o'yin qoidalariga moslashtirishga va o'yinda qatnashuvchi o'rtoqlarining harakatlarini ham kuzatib borishga tirishadilar. Ana shunday o'yinlarda **ixtiyorsiz diqqat** bilan birga ixtiyoriy diqqat ham aktiv ishtirok etadi.

Bolalarning o'yin faoliyatları ularda ixtiyoriy diqqatning rivojlanana boshlashi uchun sharoit yaratib beradi. Shuni ham nazarda tutish kerak-ki, ixtiyoriy diqqat iroda bilan bog'liq, shuning uchun ham bolalar diqqatning bu turini o'zlaricha mustaqil tashkil eta olmaydilar. Dastlabki paytlarda diqqatning ixtiyoriy turini har xil savollar va topshiriqlar berish yo'li bilan rivojlantirib borish kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqatning ayrim xususiyatlari, ya'ni diqqatning **kuchi va barqarorligi** ham tarkib topa boshlaydi. Buni biz bolalarning (xususan o'rta va katta guruh bolalarining) bir ish ustida uzoq vaqt davomida o'tira olishlaridan, ba'zi o'yinlarni zerikmay soatlab o'ynay olishlaridan, ta'limi mashg'ulotlarda chidam bilan o'tira olishlaridan ko'rishimiz mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalar diqqatining rivojlanishi faqat MTM dagi sharoitgagina emas, balki ko'p jihatdan oiladagi sharoitga ham bog'liqdir. Shuning uchun ham bolalarning diqqati bir tekisda va bir xil darajada rivojlanmaydi. Ayrim bolalar oilada tegishli nazorat ostida bo'lmasligi yoki haddan tashqari erka qilib, taltaytirib yuborilganligi tufayli o'zlarining xatti-harakatlarini, xulq-atvorlarini tartibga sololmaydilar. Bunday bolalar hamma narsalarga ruxsat-

siz tegaveradigan, bir joyda tinib-tinchib o‘tirolmaydigan, tartibga chaqirilganda gapga qulq solmaydigan bo‘ladilar. Bunday bolalarda diqqat juda beqaror bo‘lgani uchun ular hech bir narsa ustida qunt bilan mashg‘ul bo‘la olmaydilar. Diqqatni boshqara bilmaslik, ya’ni ma’lum muddat davomida bir narsaga yo‘naltira olmaslik, mashg‘ulotlarda intizom buzishga va boshqalarga xalaqt berishga olib keladi. Ana shuning uchun tarbiyachilar bunday bolalarga nisbatan ipdividual munosabatda bo‘lishlari (har xil mas’uliyatli topshiriqlar berish va hokazo), ularda diqqatning kuchini hamda barqarorlik xususiyatini tarbiyalab borishlari zarur.

Maktabgacha yoshdagি bolalarda avvalgi davrlarga nisbatan **diqqatning ko‘lami** (hajmi) ham ancha kengayadi. Bolalar diqqatining ko‘lami katta odamlarnikiga nisbatan hali ham juda tor bo‘ladi. Masalan, katta odamlar diqqatining ko‘lami ayni vaqtida 5–6 narsani (bir-biri bilan ma’naviy bog‘lanmagan harflarni yoki raqamlarni) sig‘dira olsa, maktabgacha yoshdagи bolalar diqqatining ko‘lami ayni bir vaqtida 1–2 narsanigina (kichik guruh bolalari 1 ta, o‘rta va katta guruh bolalari 2 ta) sig‘dira oladi. Kichik guruh bolalari diqqatlarini ikkita narsaga bo‘lishga harakat qilsalar ham, ammo buning uddasidan chiqsa olmaydilar. Masalan, 3 yoshli bolaga bir piyola suv olib kelish buyurilsa, u albatta suvni to‘kib-sochib olib keladi, bu uning uquvsizligi, bo‘shangligi yoki anqovligidan emas, balki o‘z diqqatini ayni bir vaqtida ikkita narsaga bo‘la olmaslidandir. Bola o‘zining diqqatini yurib kelish bilan piyoladagi suvni to‘kmay, chayqaltirmay olib kelishga bo‘la olmaydi. Shuning uchun bunday hollarda bolalarni urishish mumkin emas.

Diqqat ko‘laming kengligi aniq idrok qilish bilan bog‘liq bo‘lgan xususiyatdir. Bu xususiyat ayniqsa bolalarning o‘qish faoliyatları uchun zarur. Shuning uchun bolaning maktabgacha yoshidagi davrida barcha imkoniyattardan keng foydalanib, diqqatning bu xususiyatini rivojlantirishga jiddiy ahamiyat berish lozim. Bunda, asosan ekskursiyalar, sahnalashtirilgan o‘yinlar, har sohaga doir rasmlar bilan o‘tkaziladigan suhbatlar katta rol o‘ynaydi. Maktabdagi ta’lim jarayoni uchun zarur bo‘lgan ixtiyoriy diqqat maktabgacha ta’limda didaktik mashg‘ulotlar, hikoyalalar o‘qib berish davomida rivojlantiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning diqqati ko‘pincha ularning qiziqish hamda hissiyotlari bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli konsentrlashgan, ya’ni bir narsaga qaratilgan bo‘ladi. Ana shuning uchun bu yoshdagi bolalarda diqqatning **bo‘linuvchanlik** xususiyati deyarli rivojlanmagan bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar diqqati bo‘linuvchanlik xususiyatining zaifligi va ko‘laming torligi sababli ular ayrim narsalarni qayta-qayta idrok qilib, eslarida olib qolishga intiladilar. Masalan, maktabgacha yoshdagi bolalar, odatda, bir hikoyani qayta-qayta eshitaveradilar. Bu hodisaning sababi shundaki, bolalar diqqatining ko‘lami hikoyaning syujetini va personajlarini birdaniga sig‘dira olmaydi. Shuning uchun ular hikoya va ertaklarni qayta-qayta ayttirib eshitaveradilar.

Shunday qilib, bolaning maktabgacha yoshidagi davrida diqqat ancha tez rivojlanadi. Bu davrda asosan diqqatning ixtiyorsiz turi ortiqroq rivojlanadi. Lekin bolaning maktabgacha yoshida faoliyatlarining va xususan didaktik hamda mehnat mashg‘ulotlarining izchil tarzda ortib borishi ularda ixtiyoriy diqqatning rivojlanshiga olib keladi. Ma’lumki, maktabdagi ta’lim jarayoni ixtiyoriy diqqatsiz bir qadam ham siljiy olmaydi. Shuning uchun maktabgachada turli majburiy mashg‘ulotlar orqali bolalarda ixtiyoriy diqqat va diqqatning asosiy xususiyatlarini rivojlantirishga harakat qilish kerak. Diqqatning bundan keyingi taraqqiyoti maktabdagi ta’lim jarayonlarida amalga oshiriladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Ilk yosh davridagi bolalarda diqqatning rivojlanishi haqida so‘zlab bering.
2. Bog‘cha yoshidagi davrida ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqatni rivojlantirish sharoitlari qanday?
3. Diqqatning kuchi va barqarorligi kabi xususiyatlari nima-da ko‘rinadi?
4. Diqqatning ko‘lami va bo‘linuvchanlik xususiyatlari nima-da ko‘rinadi?
5. Bolalar diqqatini rivojlantirishda tarbiyachi nimalardan foydalanadi?

### **8.3. Xotiraning bolalarda rivojlanishi**

Bog‘cha yoshidagi bolalar o‘zlarining faoliyatlari uchun qandaydir ahamiyatga ega bo‘lgan, ularda kuchli taassurot qoldirgan va ularni qiziqtirgan narsalarni beixtiyor eslarida olib qolaveradilar. Ular biror narsani eslarida olib qolishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ymaydilar va hali maqsad qo‘yishni uddasidan ham chiqa olmaydilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda asosan ixtiyorsiz esda olib qolishning hukmron bo‘lnishi tasodifiy hol emas. Buning o‘z sabablari bor. Har bir tarbiyachi pedagog bolalar xotirasiga doir xususiyatlarni yaxshi bilishi kerak. Ana shunda bolalar xotirasini to‘g‘ri rivojlantirish mumkin. Bog‘cha yoshidagi bolalar xotirasining katta odamlar xotirasidan keskin farqi, avvalo ular oliy nerv faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liqligidadir. Bir qator rus psixologlari tomonidan o‘tkazilgan ilmiy tekshirish ishlari natijalarining ko‘rsatishicha, bog‘cha yoshidagi bolalar oliy nerv faoliyati quyidagi maxsus xususiyatlarga ega.

Birinchidan, bog‘cha yoshidagi bolalarning nerv sistemasi xuddi ilk yoshdagi bolalar nerv sistemasi kabi juda plastik xarakterga egadir, ya’ni ularning nerv sistemalari haddan tashqari egi-luvchan, ta’sirotga beriluvchandir. Shuning uchun ham bu yoshdagi bolalarda vaqtli bog‘lanishlar (assotsiatsiyalar) juda yengillik bilan hosil bo‘ladi. Bolalar nerv sistemasining xususiyati ularning esda olib qolish qobiliyatlariga ham ta’sir etmay qolmaydi. Shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalar qo‘shiq, ritmli she’r, qiziqarli va chuqur ta’sir etadigan narsalarni beixtiyor hamda juda tez eslarida olib qolaveradilar.

Ikkinchidan, bog‘cha yoshidagi bolalar nerv sistemasi yengil qo‘z-g‘aluvchan bo‘lishi bilan birga yuzaga keladigan vaqtli bog‘lanishlar (assotsiatsiyalar) juda beqaror bo‘ladi, ya’ni mustahkam bo‘lmaydi. Shuning uchun bu yoshdagi bolalar tomonidan idrok qilingan turli narsa va hodisalar ularning xotiralarida uzoq vaqt saqlanib qolmaydi. Ular tez esga olishlari bilan birga tez unutib ham yuboradilar. Ko‘pincha narsa va hodisalarning bog‘cha yoshidagi bolalar xotiralarida mustahkam saqlanib qolishi shu narsa va hodisalarning bolaga qanchalik emotsiyalik ta’sir qilishiga bog‘liq bo‘ladi.

Uchinchidan, bog'cha yoshidagi bolalar nerv sistemasida qo'zg'алиш jarayoniga nisbatan tormozlanish jarayoni ancha sust bo'lганлиги tufayli ular o'xshash va birdaniga, ya'ni bir vaqtning o'zida juda ko'п idrok qilingan narsalarning farqini yaxshi ajrata olmaydilar. Shuning uchun ular birdaniga idrok qilgan juda ko'п narsalarni bir-biri bilan aralashtirib yuboradilar. Agar bog'cha yoshidagi boladan kechagi bayram kuni bo'lgan, ya'ni idrok qilgan narsalarini bir boshidan so'zlab berish iltimos qilinsa, u ma'noli va izchil qilib so'zlab berolmaydi. Bola bunday holda gapni tasodifiy esiga tushib qolgan narsalardan boshlab ketaveradi. Chunki birdaniga ko'рган juda ko'п narsalarini bola tamoman aralashtirib yuborgan bo'ladi.

Bola esida olib qolgan narsalarida hali izchillik yo'q. Shuning uchun bola dastavval chuqur taassurot qoldirgan, ya'ni esida chuqur o'rnashib qolgan narsalardan boshlab gapiraveradi. Demak, bundan shunday xulosa chiqarish mumkin. Agar bog'cha yoshidagi bolalarga bir vaqtning o'zida haddan tashqari ko'п narsalar ko'rsatilsa, ular hamma narsalarni bir-biri bilan aralashtirib yuboradilar va birontasini ham puxtarq esda olib qololmaydilar.

O'tkazilgan tajribalarning ko'rsatishicha, kichik bog'cha yoshidagi bolalarga nisbatan o'rtta va katta yoshdagи bog'cha bolalarida **ixtiyorsiz va mexanik ravishda esda olib** qolish hamda esga tushirish qobiliyati biroz susayadi. Ammo bundan, bolalar ulg'aygan sari ularning xotirasi kuchsizlanadi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Bu yerda gap shundaki, bolalar o'sib, turmush tajribasi ortgan va nutqi o'sgan sari ular narsa va hodisalarni surunkasiga, ya'ni to'g'ri kelganicha emas, balki tanlab, ya'ni o'zlariga kerakligini esda olib qoladigan bo'la boshlaydilar. So'nggi yillarda o'tkazilgan eksperimental tekshirishlar natijalarining ko'rsatishicha, bog'cha yoshidagi bolalarda ham narsa va so'zlarning ma'nosiga tushunib esda qoldirish samarali ekani aniqlangan. Lekin bog'cha yoshidagi bolalarning mantiqiy esda qoldirishlari ularga to'la tushuniladigan ma'lumotlar berilganda ochiq ko'rindi.

Kichik bog'cha yoshidagi bolalarda ko'proq **obrazli xotira** rivojlangan bo'ladi. Shuning uchun ular eshitgan narsalariga nisbatan ko'рган narsalarini yaxshi eslarida olib qoladilar. Buning

asosiy sababi, birinchidan, kichik bog‘cha yoshidagi bolalarning idroklari aniq obrazli xarakterga ega, ikkinchidan, ularda hali nutq to‘la-to‘kis shakllanmagan. Bolalar yuqori guruhlarda nutqni anchagina egallab olganlaridan keyingina so‘z orqali ifodalan-gan narsalarni esda yaxshi olib qoladigan bo‘ladilar.

Bolalar juda ko‘p narsalarni asosan turli o‘yin faoliyatları davomida eslarida olib qoladilar. Shuning uchun ularning esda olib qolishlari ko‘pincha epizodik va tasodifiy xarakterga ega bo‘ladi. Bu esa eslarida olib qolgan narsalarni ma’lum bir sis temaga solishni qiyinlashtiradi. Shu tufayli bolalarning xotiralaridagi narsalar tartibsiz, bir-biri bilan aralashib ketadi. Natijada biron narsani esga tushirishlari qiyin bo‘ladi. Bog‘cha yoshidagi bolalar xotirasiga xos bo‘lgan tartibsizlikni yo‘qotish va xotirasini o‘stirish juda ko‘p jihatdan tarbiyachilarga bog‘liqdir. Tarbiyachi bolalarni esda olib qolishlari lozim bo‘lgan ma’lumotlarni ularning yosh xususiyatlariga mos qilib tanlashi kerak. Bolalar xotirasini mashq qildirishda turli mazmunli o‘yinlardan, mashq va treninglardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, «magazin-magazin» o‘yini, har turli loto o‘yinlari, topishmoqli o‘yinlar, didaktik va maxsus xotira o‘yinlari shular jumlasidandir. Umuman, bolaning ma’lumotni esda olib qolishini va qayta esga tushirishini tarbiyachi doimo boshqarib borishi zarur. Chunki bog‘cha yoshida xotiraning hamma tiplari o‘sса boshlaydi. Biroq shu narsa xarakterligi, xotiraning asosiy turlari orasida (masalan, obrazli, mexanik, mantiqiy kabi) harakat xotirasi nisbatan kuchliroq rivojlanadi. Shuning uchun ham turli harakatlarni hamda musiqa ostida o‘ynashni bu yoshdagи bolalar osonlik bilan o‘zlashtiradilar. Mexanik tarzda o‘zlashtiriladigan nutq ma’lumotlari ham qisman harakat xotirasiga kiradi. Shu sababli bog‘cha yoshidagi bolalar tez aytildigan turlicha ritmida-gi she’rlarni bir-ikki qaytarishdayoq yodlab oladilar (masalan, bekinmachoq, o‘yinini o‘ynash oldidan aytildigan «sanash»lar). Bekinmachoq o‘yininining «sanash»larida hech qanday ma’no yo‘q, lekin juda ifodali, jarangli ritmika bor.

Bog‘cha yoshidagi bolalarda emotsiyonal xotira yaxshi bo‘lsa ham, lekin xotiraning bu turi bolalarga nisbatan katta odamlarda kuchliroq bo‘ladi. Katta odamlar kuchli emotsiyonal ta’sir

qilgan ba’zi narsa va hodisalarini hech vaqt eslaridan chiqarmaydilar. Bog‘cha yoshidagi bolalar esa kuchli emotsiyal ta’sir qilgan narsalarini ham ba’zan eslaridan chiqarib qo‘yishlari mumkin. Bolalar xotirasini o’stirishda tarbiyachi va ota-onalarning nutqi ham nihoyatda katta rol o‘ynaydi. Bola bilan gaplashilganda nutq sodda, talaffuz aniq va tushunarli bo‘lishi kerak. Xotiraning taraqqiyoti bolaning bog‘cha yoshidagi davrida tugallanmay bolaning bundan keyingi taraqqiyotida, ya’ni ta’lim-tarbiya va turmush tarziga qarab o‘zgarib, o‘sib boradi.

Shuni ham qayd qilib o‘tish kerakki, ma’lumotni idrok qilishda sezgi organlari qanchalik ko‘p ishtirok etsa, ma’lumot shunchalik tez va puxta esda qoladi. Bu haqda mashhur rus pedagoglaridan K.D. Ushinskiyning quyidagi gaplari juda ham o‘rinlidir. «Bolanning esida biror narsaning mahkam o‘rnashib qolishini xohlovchi pedagog, bola sezgi organlarining mumkin qadar ko‘prog‘ini ko‘zi, qulog‘i, tovush organi, muskul sezgisi va hatto, agar iloji bo‘lsa, hidlash va ta’m bilish organlarini esda tutib qolish jaronida qatnashtirishga harakat qilishi kerak». Demak bola xotirasi ustida qancha ko‘p va puxta ishlansa bolanning maktab ta’limini o‘zlashtirishi ham shunchalik oson kechadi.

### **Nazorat savollari:**

1. Ilk yoshdagi bolalarda xotiraning o‘sishi sharoitlari nimalardan iborat?
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarda esda olib qolish turlarini aytib bering.
3. Xotira turlarining bolalarda rivojlanishi.
5. Ixtiyorsiz va mexanik ravishda esda olib qolishning ahamiyati nimada?

### **8.4. Tafakkurning bolalarda rivojlanishi**

Tafakkur bolaning bog‘cha yoshidagi davrida juda tez rivojlana boshlaydi. Bolalarda turmush tajribasining ko‘payishi, ikkinchidan, nutqning nisbatan o‘sganligi, bolalarining juda ko‘p erkin va mustaqil harakatlari qilish imkoniyatiga ega bo‘lishlari bunga sabab bo‘ladi. Bolalar o‘zlarining mustaqil harakatlari davomida atrofidagi turli xil narsalar bilan bevosita taqqoslash,

analiz qilish va, nihoyat, umumlashtirish kabi fikr qilish jarayonlarini vujudga keltiradi va takomillashtiradi.

3 yoshdan oshgan bolalarning tafakkurlari **ko'rgazmali-obrazli** xarakterga ega bo'ladi. Ular o'zlarining mulohazalarida mavhum tushunchalarga emas, balki ko'z o'ngidagi aniq narsalarga asoslanadilar. Ko'rgazmali-obrazli tafakkur ko'rgazmali-harakat tafakkuriga qaraganda nutq bilan ko'proq bog'liq bo'ladi. Bu davrda ham bolalarning turli faoliyatlarida aniq obrazli tafakkur bilan nutq birga, ya'ni ketma-ket amalga oshiriladi. Bolalar ko'z o'ngidagi turli narsalar haqida mulohaza yuritganlarida bu narsalarning nomlarini ataydilar. Lekin bu yoshdagi ba'zi bolalarning mulohazalarida so'zlarga nisbatan obrazlar katta o'rinnegallaydi. Ularning tafakkurida so'zlar qandaydir ikkinchi darajali, yordamchi rolni o'ynaydi, so'zlardan erkin foydalana olmaydilar. Buni aniqlash uchun professor B.C. Muxina shunday misol keltiradi. 4–5 yoshli bolalarga ataylab buzilgan o'yinchoqlar berilib, ularning buzilish sabablarini aniqlash va tuzatish talab qilingan. Ko'pchilik bolalar buzilgan o'yinchoqlarning buzilish sababini aniqlab, ularni tuzatganlar. Lekin qanday qilib tuzatganlarini so'z bilan aytib bera olmaganlar. Ular o'yinchoqlarning mana bu yerini unday qildik, mana bu yerini bunday qildik, deb aniq ravishda ko'rsatish bilan cheklanganlar. Ana shu misoldan ko'rinish turibdiki, aniq obrazli tafakkurda ham hali so'z yetakchi rol o'ynamaydi.

4–5 yoshli bolalar nutqni jadallik bilan o'zlashtiradilar. Bu yoshdagagi bolalar sodda tarzda umumlashtirish, guruhlash qobiliyatiga ega bo'la boshlaydilar. Bu davrni mantiqiy tafakkurni egalashga tayyorgarlik davri deyish mumkin.

Katta mактабгача yoshdagagi bolalarda **mantiqiy tafakkur** rivojlana boshlaydi. 6–7 yoshdagagi bolalarda mantiqiy tafakkur taraqqiyotining barcha imkoniyatlari yuzaga kelgan bo'ladi. Birinchidan, bu yoshdagagi bolalarda nutq yetarli darajada rivojlangan, ikkinchidan, tushunchalar tarkib topa boshlagan. Bolalar obrazlardan, tasavvurlardan foydalanmay, mustaqil ravishda so'zlar orqali tafakkur qila olishlari uchun ular vogelikdagi narsa va hodisalarining eng muhim xususiyatlarini aks ettiradigan tushunchalarni o'zlashtirishlari kerak. Bolalarda avval so'zlar bilan ifo-

dalanadigan tasavvurlar tarkib topadi. Lekin bu tasavvurlar o‘z-o‘zidan tushunchaga aylanib qolmaydi. Tushunchalarni tarkib toptirishda bu tasavvurlardan foydalanish mumkin. Tushunchalar va ularga asoslangan mantiqiy tafakkur shakllari bolalarning turli sohalarga doir bilim asoslarini o‘zlashtirish jarayonida tarkib topa boshlaydi. Tushunchalarni izchil tarzda o‘zlashtirish matabdagagi ta’lim bilan bog‘liqdir. Bolalar ma’lum darajada tushunchalar ni o‘zlashtirganlaridan so‘ng mantiqiy tafakkur qilish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Bunda bolalar berilgan masalani aql bilan yecha oladigan bo‘ladilar.

Bolaning maktabgacha yoshdagi davrida uning erkin harakat qilish maydoni kengayadi. Bu esa tafakkurning rivojlanishi uchun juda katta ahamiyatga egadir. Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘z tajribalarida ancha narsalarni bilib olganlaridan so‘ng narsalar ning ichki xususiyatlari bilan ham qiziqqa boshlaydilar. Shu sababli ularda juda ko‘p savollar (Bu nima? Nega bunaqa? Kim qilgan? Qayerdan kelgan? Nima qiladi? kabi) paydo bo‘ladi. Bu tafakkurning aktiv va jadal rivojlanishi uchun zamin hozirlaydi.

Bolalarning savollariga doimo ahamiyat bilan qarash kerak. Bola o‘z savoliga javob topa olmasa yoki katta odamlar uning savoliga ahamiyat bermasalar, undagi qiziquvchanlik, sinchkovlik susaya boshlaydi. Bolalarning savollariga javob berish qiyin, chunki ular o‘zlari hali mutlaqo tushunmaydigan narsalar va hodisalar haqida ham savol beraveradilar. Tarbiyachi bolalarning son-sanoqsiz savollariga ularning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda javob berishi va tushuntirishi lozim.

Odatda, har qanday tafakkur jarayoni biron narsaga tushuna olmaslik, biron narsadan taajjublanish, hayron qolish natijasida hosil bo‘ladi. Juda ko‘p ota-onalar va ayrim tarbiyachilar bolalar ortiqcharoq savol bersalar, ularni «Ko‘p mahmadona bo‘lma», «Sen bunday gaplarni qayerdan o‘rganding», deb jerkib tashlaydilar. Bola bir necha marta ana shunday pand yegandan so‘ng, kattalarga savol bermaydigan, ayrim murakkab narsalarni o‘z bilganicha yoki afsonalardagi kabi xato tushunadigan bo‘lib qoladi. Masalan, 7 yoshli bola «Yomg‘ir qayerdan yog‘adi?» degan savol berdi. Bu bolaga yomg‘irning yuzaga kelishi juda sodda va tushunarli qilib gapirib berildi (hatto sovuq oynaga issiq par bi-

lan ta'sir qilganda suv zarrachalarining yuzaga kelishi misol qilib ko'rsatildi). Bola biroz qarab turib, yo'q unaqa emas deb javob berdi. Bo'lmasa, qani sen tushuntirib ber, deb so'raldi. Shunda bola quyidagicha tushuntirib berdi: «Yomg'ir osmonda yashaydi, uning uyi bulutlardan ham balandda. Bulutlar ochilib ketgan paytda yomg'ir yiqilib ketadi...», – deb tushuntirdi. Bolaning ana shunday afsonaviy tushunchasidan voz kechib, to'g'ri, ilmiy tu-shunchani yuzaga keltirguncha ancha vaqt ketadi.

Bolalarning beradigan savollari juda qiziq bo'lishiga bir necha sabablar bor:

- 1) bolalar tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarini qanday bo'lsa, shundayligicha, ya'ni yaxlit holda, xuddi rasmdagidek aks etti-radilar;
- 2) narsa va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlik va sababiylikni chur-qur analiz va sintez qila olmaydilar;
- 3) ularda turli tabiat va jamiyat hodisalariga doir ilmiy tu-shunchalar tarkib topmagan va yetilmagan bo'ladi;
- 4) bolalarda ularning turmush tajribalari juda oz bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagি bolalarning beradigan savollaridan ular tafakkurining aniq obrazli xarakterga ega ekanligi ham ko'rinish turadi. Masalan, katta bog'cha yoshidagi bolalar quyidagi savollarni berishlari mumkin: Bulutlar nega yuradi? Osmon kattami, yer kattami? Yulduzlar nechta? Osmondagи yulduzlar nima uchun kunduzi ko'rinxaydi? Daraxtlar nima yeb o'sadi? Qorbobo odammi? Hozir qorbobo qaerda? Nima uchun qorbobo yozda kelmaydi? Elektr toki qayerdan keladi? Nega simda olov ko'rinxaydi? Bolalarini tabiat va jamiyatdagi narsalarining sababiyligini hamda ichki taraqqiyot qonunlari emas, balki shu narsalarining o'zi qiziqtiradi. Ular hamma narsani biliishga intiladilar. Katta guruh bolalarining gaplariga diqqat qilsak, ular shunday hodisalar haqida mulohaza yurgizishayotgani ning guvohi bo'lamic. «Temir og'ir narsa bo'lgani uchun suvda cho'kadi, yog'och yengil, shuning uchun u oqadi», «Ichi bo'sh banka yengil, shuning uchun u cho'kmaydi», «Urug'ni yerga eksa, ko'karib chiqadi» va shu kabilar.

Ayrim bolalar haddan tashqari ko'p savol beradilar, boshqa bir bolalar esa deyarli hech savol bermaydilar. Bolalarning juda

ko‘plab savollar berishlari ijobjiy xarakterga ega bo‘lib, bu ularning qiziquvchanligi, faolligi va mustaqilligidan darak beradi. Odatda, juda passiv va tortinchoq bolalar savol bermaydilar. Bunday bolalarga turli mashg‘ulotlar va ekskursiyalar vaqtida tarbiyachining o‘zi savol berishi, shu bilan ularni faollashtirib borishi lozim.

Maktabgacha yoshdagি bolalar fikr yuritish jarayonida aynи shu chog‘da idrok qilayotgan narsalargina emas, balki ilgari idrok qilgan narsalariga ham tayana oladilar. Masalan, bolaga ilgaridan ma‘lum bo‘lgan biron topshiriq yoki savol berilsa, u o‘z tasavvuriga asoslanib, qiynalmay, darhol javob qaytaradi. Chuningchi 6 yoshli bir boladan «Yong‘oq suvda cho‘kadimi yoki oqadimi?» deb so‘ralganda, u «oqadi» deb javob bergen. Bola ning to‘g‘ri javob berganligiga sabab shundaki, u o‘z tajribasida yong‘oqni suvga tashlab ko‘rgan. Bu bolalarda induktiv va deduktiv xulosa chiqarishning eng sodda shakllari yuzaga kela boshla ganini ko‘rsatadi.

Bog‘cha yoshidagi bolalar tafakkurining xarakterli xususiyatlaridan biri ular tafakkurining hamon obrazli bo‘lishidir. Ular o‘zlarining mulohazalarida mavhum tushunchalarga emas, balki aniq faktlarga asoslanadilar. Shuning uchun ular mavhum tusda berilgan oddiy vazifalarni hal qila olmaydilar. Biroq, katta guruh bolalarida, ayrim narsa va hodisalarning muhim belgilari ga qarab, umumlashtirish qobiliyati yuzaga kela boshlaydi. Masalan, bola olma, o‘rik, nok, olcha, olxo‘ri, uzum, anor, behi va anjirlarning rasmlarini to‘plab, meva deb ataydi. Ular endi meva degan umumiyl tushunchadan o‘z nutqlarida erkin foydalana oladigan bo‘ladilar. Bolalar xilma-xil rasmlı lotolar bilan o‘ynash jarayonida ana shunday umumlashtirishga o‘rgana boshlaydilar. Bunday o‘yinlarda ba‘zan tarbiyachining aralashuvi va bolalarga umumlashtirish yuzasidan (masalan, hayvonlar, hasharotlar, gullar, qushlar, o‘yinchoqlar va hokazolar) berilgan topshiriqlar ni bajarilishiga yordam beradi.

Bola narsalarni bir-biriga taqqoslab, o‘xshash va farq tomonlarini ajrata boshlaydi. Masalan: «Kvadrat va to‘rtburchakni taqqoslab, kvadrat va to‘rtburchakni to‘rt tomoni bor, shuning ushun ular o‘xshash. Lekin farqi shundaki, kvadratni to‘rtala tomoni va to‘rt burchagi teng, to‘rtburchakning esa qarama-qarshi

tomonlari teng». Bolalarning oddiy masalalarini yechish haqida fikr yuritishga va u haqida so‘zlab berishga imkonni bo‘ladi. To‘rtbesh yoshli bola masalani amaliy harakat bilan yechadi va u haqida nutqi orqali so‘zlab beradi. Masalan: 4 yoshli bola kuch bilan quvurga ilinib qolgan bayroqchali tayoqchani tortadi, lekin chiqara olmaydi. Shunda bola quvur ichiga yuqorida qarab tayoqchani ehtiyyotkorlik bilan aylantiradi va bayroqchani chiqarib oladi. Masala hal etildi. Demak, kichik guruh bolalari masalani amaliy harakat orqali yechadilar va bajarilgan ishga nutqlari bilan yakun yasaydilar. 5–6 yoshli bolalar oldiga qo‘yilgan masalani oldindan o‘ylab, uning rejasini tuzib oladilar. Bu ichki, ovozsiz nutq orqali amalga oshiriladi. Masalani og‘zaki yechadilar: Masalan: «Daraxtga 7 ta qushcha qo‘nib turibdi. Ulardan ikkitasi uchib ketdi, daraxtda nechta qushcha qoldi?» Demak, bola tafakkurini o‘stirishda turli xil ta’limiy mashg‘ulotlarning roli katta. Mashg‘ulotlar bola aqlini o‘stirishda, mustaqil fikrlashga o‘rgatadi. Bolaning tafakkurini o‘stirishda birinchi navbatda tu-shunchalar hosil qilishdan boshlanadi.

Mashg‘ulotlar yordamida elementar matematik tasavvurlarini o‘stirish bolalarda taqqoslash qobiliyatini o‘stiradi: ularni xulosalar chiqarishga va sodda masalalarini yechishga o‘rgatib boradi. Kubiklar, doirachalar, kvadratlar va poloskalar yordamida bolalarga narsalarni taqqoslashga, o‘xshatish va farq tomonlarini ajrata olishga, ayrim narsalardan guruh to‘zish va guruh orasidan bittasini ajratib olishga narsalarni bir necha teng qismga, ya’ni 2 ga va 4 ga bo‘lishga o‘rgatish va ularni taqqoslashga o‘rgatib borish zarur.

Tayyorlov guruhlariga borganda o‘n ichida tartib bilan sanashga va og‘zaki masalalar yechishga o‘rgatish bilan bola tafakkurini o‘stirish mumkin. Bolalarning ekskursiya va sayllar paytida kuzatuvchanligi ortadi, ular turli narsalarni taqqoslashga, analiz-sintez qilishga o‘rganadi. Masalan: boqqa ekskursiyaga chiqqan bolalar bog‘ning bir chekkasida yer kovlayotgan toshbaqanining oyoqlarini belkurakka o‘xshatsa, ikkinchi bola ekskavatorning kovushiga o‘xshatadi. Bunday taqqoslovchi mulohazalar bolalar tafakkurini o‘stirishga aktiv ta’sir etadi.

Bolalar juda qiziquvchan bo‘ladilar. Ular hodisalarning sabbini bilishga, hamma narsaning siridan xabardor bo‘lishga inti-

ladi. Bu ularning bilish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan qiziqishlaridir. K.D. Ushinskiy aytganidek: «Qiziqish bu to‘la fikrlashdir». Bolalar tafakkurini o‘stirishda ana shu qiziqishlardan ham foydalanish lozim, chunki qiziqish bolaning bilimlarini chuqurlash-tiradi. Demak, maktabgacha davrda yosh bolaning tafakkuri tez suratlar bilan o‘sib borar ekan, uni yanada taraqqiy ettirish va rivojlantirish hozirgi kunda bolalar muassasalari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir.

### **Nazorat savollari:**

1. Bog‘cha yoshidagi bolalarda tafakkurning qaysi turlari rivoj-lana boshlaydi?
2. Mantiqiy tafakkur necha yoshdan boshlab rivojlanan boshlaydi? Nima uchun?
3. Bolalarning beradigan savollari juda qiziq bo‘lishiga sabab nima?
4. Tafakkurni umumlashtirish, taqqoslash, tasniflash xususiyatlariga misollar keltiring.
5. Xulosa chiqarish turlari nimada ko‘rinadi?
6. Qanday ta’limiy mashg‘ulotlarda bolaning fiklash jarayoni rivojlanadi?

### **8.5. Bolalarda nutqning rivojlanishi**

Bola bog‘cha yoshiga yetgach, so‘z boyligining ancha ortishi bilan birga ayrim jumlalarni grammatik jihatdan to‘g‘ri ishlata boshlaydi, so‘z zaxirasi juda tez ortadi.

Bu yoshda bolaning nutqi faqat miqdor jihatdangina ortib bormay balki sifat jihatidan ham ancha takomillashadi. Masalan: ilk yoshdagi bolalar ancha so‘z boyligiga ega bo‘lishlariga qaramay ayrim tovushlarni (r, l, y, sh, z kabi) yaxshi farqlay olmaydilar va shu tufayli so‘zlarni noto‘g‘ri talaffuz etadilar. Bundan tashqari, bog‘cha yoshidagi bolalar o‘z ona tillarining grammatik tuzilishi ni amaliy tarzda o‘zlashtira boshlaydilar.

So‘z boyliklari miqdor jihatidan bog‘cha yoshidagi bolalarning hammasida bir xil bo‘lmaydi. Bog‘cha yoshidagi bolalar so‘z zaxirasining miqdori asosan bola tarbiyalanib o‘sayotgan oilaning madaniyatiga, ma’naviyatiga bog‘liqdir. Bir xil oilalarda

bola nutqining o'sishi bilan maxsus ravishda shug'ullaniladi. Boshqa bir oilalarda esa bola nutqining o'sishi bilan mutlaqo shug'ullanmaydilar. Ana shuning natijasida bog'cha yoshidagi bolalar so'z zaxirasi o'rtasida sezilarli farq yuzaga keladi. Agar ilk yoshdagi bolalarning nutqi asosan ular ayni shu chog'da idrok qilib turgan narsalar va harakatlar bilan bog'liq bo'lsa, bog'cha yoshidagi bolalarning nutqi hozir idrok qilib turgan narsalardan tashqari ilgari idrok qilingan narsalar hamda xayoliy narsalar bilan ham bog'liq bo'ladi. Shuning uchun bolalar katta kishilar aytib yoki o'qib bergen ertaklarni izchil ravishda qayta aytib bera oladilar. Bu yoshda bolalar nutqni juda tez egallaydilar. Shuning uchun ular o'z ona tillarining grammatik tuzilishini ham faqat og'zaki tarzda o'zlashtiradilar. Bolalarning o'z ona tillari grammatikasining ayrim tomonlarini o'zlashtirishlari maktab bolalarning o'zlashtirishlaridan batamom farq qiladi.

Bola yoshi	1 yosh	2 yosh	3 yosh	4–5 yosh	6–7 yosh
So'z boyligi	8–12	25–400	1200–1300	2500–3000	4000–5000

Bog'cha yoshidagi bolalar grammatik qoidalarni o'rganib yodlarida saqlab qolmaydilar. Ular ot, fe'l, sifat, olmosh, suffiks, kelishik kabi grammatik kategoriyalarning borligini ham, nima ekanligini ham bilmaydilar. Shuning uchun ular grammatikaning juda ko'p qo'llaniladigan eng sodda qoidalarini kattalarning nutqlari orqali mazmunli o'yinlarda taqlidiy yo'llar bilan amaliy ravishda o'zlashtira boradilar. Ma'lumki, nutqning o'sishi jarayonida bolalar so'z turkumlaridan otlarni tez o'zlashtiradilar. Bunga asosiy sabab shundaki, bolalar narsalarning nomlarini, otlarini o'z nutqlarida ko'proq ishlatalardilar. O'rta va katta yoshdagi bog'cha bolalari otlarni ko'plik, birlik, bo'lishli, bo'lishsiz shakllarda va turli kelishiklarda to'g'ri ishlata oladigan bo'ladilar. Katta guruh bolalari so'zlarni to'g'ri talaffuz eta oladilar. Shuning uchun ular o'zlaridan kichik yoshdagi bolalar so'zlaganlarida, «bunaqa deb bo'lmaydi» deb ularning nutqlarini to'g'riliyadigan bo'ladilar. Otlardan so'ng bolalar so'z turkumlaridan fe'llarni va sifatlar-

ni o'zlashtira boshlaydilar. Fe'llarning shaxs qo'shimchalarini osonlik bilan egallasalar ham, lekin fe'llarning zamonga qarab o'zgarishini o'zlashtira olmaydilar. Kichik guruh bolalarida tur-mush tajribasi juda oz bo'lganligi tufayli ularda o'tgan va kelasi zamon tushunchalar hali shakllanmagan bo'ladi. Shuning uchun ular o'z nutqlarida fe'llarning zamon qo'shimchalarini almash-tirib yuboradilar. O'rta va katta guruh bolalari fe'lning zamonga qarab o'zgarib borishini to'g'ri ishlatadigan bo'ladilar.

Nutq faqat boshqa odamlar bilan amalgalashuvda oshiriladigan alo-qqa vositasigina bo'lib qolmay, balki u bolalar uchun xulq-atvor ni boshqarish vositasi hamdir. Turli yoshdagi bog'cha bolalari o'z xulq-atvorlarini, ya'ni ma'lum ijtimoiy sharoitda o'zlarini qanday tutishlarini tafakkur orqali o'ylab idora qiladilar. Bunda nutq birinchi darajali ahamiyatga egadir. Odatda kichik yoshdagi bog'cha bolalarining nutqlari ikkinchi bir odamga emas, balki o'zlariga qaratilgan bo'ladi. Masalan: «Anvar uxlaydi», «Anvarning qorni ochdi» deb gapiradilar. Bolalarning ana shunday o'zlariga qaratilgan nutqi **egostentrik nutq** deb yuritiladi. Katta yoshli bog'cha bolalarida egostentrik, ya'ni o'z-o'ziga qaratilgan nutq tugallanib normal holga keladi.



Nutq o'stirish mashg'ulotlari.

Shunday qilib, asosiy aloqa vositasi bo‘lgan nutq bola psixika-sining taraqqiyotida benihoya katta rol o‘ynaydi. Bog‘chada va oilada to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan ta’lim-tarbiya va xususan, bog‘chada ona tilidan o‘tkaziladigan maxsus mashg‘ulotlar tufayli bola nutqini normal o‘stirish mumkin. Bola bog‘cha yoshining oxirgi bosqichiga kelganda og‘zaki nutqning hamma turlaridan erkin foydalana oladigan bo‘ladi. Bola nutqining bundan keyingi taraqqiyoti maktabda, o‘qish jarayonida amalga oshiriladi.

**Tarbiyachining nutqi** nutq talablariga rioya qilingan holda bo‘lishi kerak. Ya’ni nutqning tushunarligi, soddaligi, ta’sirchanligi, boyligi, raxonligi, sofligi, ifodaliligi, mazmundorligi, aniqligi, chiroyliligi, to‘g‘riliqi bilan ajralib turishi kerak. Ba’zi tarbiyachilarning nutqi juda ta’sirchan bo‘ladi. Bunday tarbiyachilar nutqi his-tuyg‘u bilan sug‘orilgan bo‘lib, ular o‘zları gapirayotgan gaplardan o‘zları ta’sirlanadilar, ana shundagina bolalarga ham muayyan kayfiyatni «yuqtiradilar». O‘tkazmoqchi bo‘lgan mashg‘ulotiga tarbiyachining o‘zi qiziqishi va uning o‘zida ham samimiyy his-tuyg‘u hosil bo‘lishi shart. Tajribali bir pedagog yosh tarbiyachilarga shunday deydi: «Bolalarga hikoyani shunday so‘zlab beringki, go‘yo o‘scha voqealarda o‘zingiz ham qatnashgandek bo‘ling...». Lekin hamma tarbiyachilar ham obrazga kirib hikoya yoki ertakni aytib bera olmaydilar. Ba’zi tarbiyachilarda esa nutq ancha ohista, ta’sirsiz, kam ifodali, qat’iy izchillikka rioya qilingan holda, dalilli va mantiqiy bo‘ladi. Bunday nutq biroz zerikarli bo‘lib bolalarni mashg‘ulotga diqqatini jamlab olishi qiyinroq kechadi. Bunday nutq yo‘naltirilgan yoki boshqacha aytganda undalma nutqdan iboratdir.

Yana shunday tarbiyachilar ham borki, ularning nutqi emotional ham, mulohazali ham emas, ammo bolalar ular nutqini yaxshi o‘zlashtiradilar. Bunday nutqlarda zo‘r ishonch kuchi yangraydi, gapirilayotgan gapga chuqur ishonch paydo qiluvchi kishining irodasi borligi sezilib turadi, o‘z bolalarida ixtiyorsiz ishonch hosil qiladi. Tarbiyachi o‘z fikrlarini haqchanligiga, bolalarni ishontirishga qattiq kirishganligi o‘z-o‘zidan ko‘rinib turadi. Ularning to‘g‘riliqi va muhimligiga ishonch ixtiyorsiz ravishda bolalarga o‘tadi. Bu katta ishonch va ta’sir kuchiga ega bo‘lgan

irodali nutq deyiladi. Lekin bunday nutq avtoritar xarakterga ega bo‘lib bolalardagi mustaqil fikrlashni cheklab qo‘yadi.

Zarur iboralarni tez tanlay olish: so‘z boyligiga, fikrlash jaryonining tezligiga, gapirilayotgan mavzuni yaxshi bilgan bo‘lishiga, topqirligiga, kishining shu paytgacha umumiy holatiga va boshqa ko‘pgina sabablarga bog‘liqdir. O‘z nutqini qulay va to‘g‘ri tuza bilishda badiiy adabiyotni o‘qib turish katta ahamiyatga ega. Kitob o‘qiganda shaxsda lug‘at boyligi ko‘payadi, fikrining obrazliligi ortadi, nutq ravshan, chiroyli va adabiy bo‘ladi. Nutqda murakkab jumlalar va notanish qiyin so‘zlar bo‘lmasa, u ham ravshan, ham tushunarli bo‘ladi. Murakkab bo‘limgan qisqa jumlalar bayon etiladigan ma’lumotni tez tushunib olishga yordam beradi.

Ammo fikrni bayon etishda juda ezmalanish ham bo‘lmaydi. Nutqning juda qisqaligi, mavzuning haddan tashqari ko‘pligi, hodisalarini ko‘p keltirish bolalarning tushunmay qolishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bayon etish aniq, ifodalar ravshan, xulosa va umumlashtirishlar aniq bo‘lsa, tarbiyachining bayoni tushunarli hamda tez esda qoladigan bo‘ladi. Tarbiyachi nutqining sodda bo‘lishini unior mazmunga aylantirib yubormasligi kerak. U yetarli mazmunga ega bo‘lishi kerak. Uning murakkablashib ketishidan, bolalarning charchab qolishidan qochish kerak.

Tarbiyachi nutqining tashqi shakli: tarbiyachi ovozining yoqimliligi (uning bo‘yoqliligi va kuchi), ravnligi, ohangdor bo‘lishi katta ahamiyatga ega. Nutqning bu tomonini yaxshilash ustida ishslash har bir pedagog uchun juda muhimdir. Tarbiyachining ovoz tembri juda past va juda yuqori ham bo‘lmasligi kerak. U bir tekis baland ovoz bilan gapirganda fikrni bo‘rttirib ko‘rsatish uchun ovozini goh baland, goh past qilib gapirish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi. Bundan tashqari, tarbiyachining baland ovozi bolalarni asabiylashtiradi, shu bilan birga tarbiyachi sinfdagi shovqinni ham eshitda olmaydi. Juda past ovoz bilan gapirilgan nutq ham bolalarga yaxshi eshitilmaydi. Eng yaxshi pedagoglarning tajribasi mavzuni o‘tishda bolalarning bilim darajasiga, yoshiga, o‘tiladigan o‘quv materialining mazmuniga, tarbiyachi tomonidan qo‘yiladigan vazifaga, ishning boshqa sharoitlariga qarab nutqning biror shaklidan maqsadga muvofiq foydalanish lozimligini ko‘rsatadi.

Tarbiyachining vazifasi o‘quvchilarga faqat ta’lim berish bilan chegaralanib qolmay, balki ularni har bir hikoya ustida o‘ylashga, uni emotsiyal his qilishga o‘rgatishdan iboratdir.

### *Tarbiyachi nutqiga qo‘yiladigan talablar*

Tarbiyachi quyidagi qoidalarga amal qilishi kerak:

1. Mashg‘ulotga puxta tayyorlanish; mavzuga taalluqli bevosita voki boshqa muhim va qiziqarli materiallarni to‘plashi lozim. Ayniqla endi ish boshlagan yosh tarbiyachining eshituvchilar oldidagi qo‘rqishi uning mashg‘ulotni o‘tkazishiga juda xalal beradi, nutq muvaffaqiyatsiz chiqadi. So‘zlash oldidan hayajonlanmaslik uchun, o‘zingga ishongan bo‘lishing kerak, bu esa mashg‘ulotga puxta tayyorlanishga bo‘g‘liq. Tarbiyachi mashg‘ulotga qanchalik yaxshi tayyorlansa, u so‘zlashda shunchalik kam hayajonlandi. Hech kimga oldindan ma’lum bo‘lmagan mehnat notiq ishonchining garovidir. Bu ishonch o‘scha soatda, nutq vaqtida, notiq nima bo‘lishini va yana nima aytishini o‘zi his qilgandagina paydo bo‘ladi.
2. Ovozni o‘zgartirish – fikrga bog‘lab uni ko‘tarish va pasaytirish lozim. Bolalarning yoshiga mos ravishda erkalash ohanglaridan foydalanish lozim. Uning ovozi va intonatsiyasi diqqatni o‘ziga tortadi. Ba’zan ovozni ancha «pastlatish» kerak, pauza qilib baland ovozdan past ovozga o‘tiladi.
3. Gapirayotganda qo‘l va gavdani harakatlantirish nutqni jonlantiradi, biroq bundan ehtiyyotkorlik bilan foydalanish lozim. Haddan tashqari ko‘p harakatlar yoki u yoq-bu yoqqa yuraverish ham diqqatni chalg‘itadi. Eshituvchilarning ayrim guruhiga tikilib gapirish ham foydali. Bu bilan eshituvchilar diqqati tortildi va notiqda muhabbat paydo bo‘ladi. U yaqqol ko‘rinishi, «yuzyi, tili bilan gapirishi», ya’ni mimikadan unumli foydalanishi kerak.
4. Nutq shakli oddiy, tushunarli bo‘lsin. Ko‘gazmali taq-qoslash, o‘xshatish, ifodalilik ham yaxshi ta’sir etadi.
5. Eshituvchilar diqqatini bo‘sashtirmsandan, hatto uni os-hirish ham zarur.
6. Ortiqcha (sheva va «shunday qilib», «demak», «ana», «anaqa» va shu kabi) mazmunsiz so‘zlarni ishlatmaslik, qisqa gapirish karak.

7. Nutqni uzmay gapirish bu notiqning keraksiz ortiqcha gaplarga to'xtalmasdan, nutqning yangi qismiga o'tishidir.

8. Qisqa chekinishlar ham qilish mumkin, bunday chekinishlar yengil, hatto komik xarakterda bo'lishi va ayni vaqtida nutqning ana shu joyiga tegishli mazmun bilan bog'lanishi lozim.

9. Nutq oxirida xulosa qilish, ya'ni uning muqaddimasi bilan bog'lash lozim.

Shunday qilib, tarbiyachi nutqining boyligi bolalar bilan munosabatga kirishishni, ya'ni «bola tili»ni bilish hamda tarbiyachining o'z-o'zini tayyorlashda eng muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi. Buning natijasida u bolalarda zarur his-tuyg'u hosil qiladi va shu bilan birga ularga zarur tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, jonli fikr uyg'otadi va emotsiyonal o'lchovda, ishonarli hamda tu-shunarli, yorqin gapirishni o'zlashtirishiga yordam beradi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Bog'cha yoshida nutqning o'sishi xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi?

2. Bola nutqining o'sishiga oila muhiti qanday ta'sir ko'rsatadi?

3. Egosentrik nutq nima?

4. Tarbiyachining nutqi qanday nutq talablariga rioya qilingan holda bo'lishi kerak?

5. Tarbiyachi nutqiga qanday talablar qo'yiladi?

#### **8.6. Xayolning bolalarda rivojlanishi**

Bog'cha yoshidagi bolalarda xayol bir xilda rivojlanmaydi. Agar kichik yoshdagи bog'cha bolalarida asosan tiklovchi xayol o'sgan bo'lsa, o'rta va katta yoshdagи bog'cha bolalarida xayolning ijodiy turi ham o'sa boshlagan bo'ladi.

Bolaning bog'cha yoshida harakat doirasining kengayishi, bilimlarining ortishi, turli xil yangi ehtiyoj va qiziqishlarning paydo bo'lishi unda xayol jarayoni birmuncha tez sur'at bilan rivojlanishiga olib keladi. Shuning uchun bog'cha yoshidagi bolalarning xayol qilish qobiliyatları bog'chagacha tarbiya yoshidagi bolalar xayoldidan har tomonlama ustun turadi.

Bog'cha yoshidagi bolalarning xayoli asosan ixtiyorsiz va tiklovchi xayol bo'lib, ularning turli-tuman faoliyatlarida o'sib boradi.

Biroq shu narsa diqqatga sazovorki, agar bog‘cha yoshidagi bolalarda xayol qilish qobiliyati bo‘lmasganda edi, ularning o‘yinlari ham xilma-xil bo‘lmashadi. Demak, bolalarining xayol qilish qobiliyatları ularni turli xil o‘yinlar o‘ynashga undasa, o‘z navbatida o‘yin ularning xayolini o‘stiradi. Bog‘cha yoshidagi bolalarining xayoli mashg‘ulotlarda ham o‘sib boradi. Masalan, bolalar loy o‘ynashni, ya’ni loydan turli narsalar yasashni (shu jumladan, plastilindan ham), qumdan turli narsalar qurishni, rasm chizishni yaxshi ko‘radilar. Bu mashg‘ulotlar, ayniqsa, rasm chizish mashg‘uloti bolalar xayolini o‘stirishga juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Kichik yoshdagi bog‘cha bolalarida hali ijodiy xayolning yo‘qligi ularning rasm chizishlarida yaqqol ko‘rinadi. Masalan, kichik yoshdagi bog‘cha bolalarining chizgan rasmlari hamma vaqt ro‘zg‘or mavzularidan nariga o‘tmaydi. Chunki, bu yoshdagi bolalar har kuni ko‘rib turadigan narsalari haqidagina xayol qila oladilar.

O‘rta va, xususan, katta guruh bolalarining rasm chizishlarida ijodiy xayolning yuzaga kela boshlagani aniq ko‘rinadi. Ular rasm chizishda faqatgina uy-ro‘zg‘or mavzulari bilan cheklanib qolmay, uzoq o‘tmish va kelajakdagagi narsalarga oid rasmlar ham chizadilar. Bu yoshdagi bolalar o‘z o‘yinlarida va chizgan chizmalarida katta odamlarning turli-tuman faoliyatlarini mustaqil tasvirlashga intiladilar. Bunday paytda ular faqat xayoliy tasavvur etish yoki taqlid qilish bilan cheklanib qolmay, balki o‘zlarini ijodiy ravishda yangiliklar ham qo‘shib boradilar. Masalan, ular mazmunli o‘yin o‘ynaganlarida yangi-yangi rollarni o‘ylab chiqaradilar «poyezd» yoki «vokzal» o‘yinida poyezdda yoki vokzalda xizmat qiluvchi kishilardan tashqari yo‘lovchilarni vokzalga olib keluvchi transport, ya’ni taksi haydovchi rollarini qo‘sadilar.

Katta yoshdagi bog‘cha bolalari o‘zlarining rasmlarida xayoliy obrazlarni (hatto orzularini) aks ettiradilar. Shuning uchun ular ko‘pincha erkin temada; o‘zlarini qiziqtirgan va ayni chog‘dagi ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lgan narsalar haqida rasm chizadilar. Ana shunday erkin temada rasm chizish jarayonida bolalarining ijodiy xayol qilish qobiliyatları o‘sib boradi. Bog‘cha yoshidagi bolalar xayolining rivojlanishiga turli xil hikoya va ertaklar ham ta’sir ko‘rsatadi. Xalq turli qiziqarli, ibratli va ta’limiy ertaklar ijod etishda bog‘cha yoshidagi bolalarni ham unutmagan. O‘zbek

xalqining og‘zaki adabiyotida yosh bolalarga tushunarli, sodda til bilan yaratilgan ertaklar mavjud. Bularidan tashqari, rus va boshqa xalqlarning tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan ertaklar ham ko‘pdir. Bog‘cha yoshidagi bolalar uchun yaratilgan ertaklarning ko‘pi antropomorfizm xarakteriga egadir. Buning ma’nosi shuki, ertaklarning qahramonlari odamlarga o‘xshab «gapiradi-gan» hayvonlardan iboratdir. Bolalar bunday ertaklarni juda yoqtiradilar va har doim maroq bilan tinglaydilar.

Bog‘cha yoshidagi bolalar hayvonlar haqidagi turli ertaklarni eshitganlarida ularda shu ertaklardagi obrazlarga nisbatan ma’lum munosabat yuzaga keladi. Masalan, doim yovuzlik qiladigan bo‘ri obrazini, haddan tashqari ayyor tulki obrazlarini bolalar sevmaydilar. Ularga qo‘rroq quyon, xo‘roz, g‘oz, echki, beozor hayvonlarning obrazlari yoqadi. Turli ertaklar bolalarning xayollariga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir etadi. Ular o‘z xayol kuchlarini ishga solib, eshitayotgan yoki eshitgan ertaklaridagi turli obrazlarning qiyofasiga kiradilar. Boshqacha qilib aytganda, eshitgan ertaklari ular o‘yinining mazmuniga ham ta’sir etadi.

Bolalar uchun chiqarilgan turli ertaklarning tarbiyaviy ahamiyatini nazarda tutib, pedagog-tarbiyachilar bolalarga ertak aytib berish va o‘qib berishga alohida e’tibor bilan qarashlari lozim.

Shunday qilib, xayol bog‘cha yoshidagi bolalarning taraqqiy etishlarida katta o‘rinni egallaydi. Shuning uchun ham bog‘cha yoshi davrida bolaning xayoli yetarli o‘sgan bo‘lishi kerak. Chunki maktabdagi o‘qish jarayonining birinchi kunidan boshlab bolalarda xayol qilish qobiliyati, xususan tinglash qobiliyati yaxshi o‘sgan bo‘lishi talab qilinadi.

### **Nazorat savollari:**

1. Bolalar xayolining rivojlanishi xususiyatlari.
2. Ilk yoshidagi bolalarda xayolning rivojlanish xususiyatlari nimada ifodalanadi?
3. Aktiv xayolning bolalarda rivojlanishi xususiyatlari.
4. Bog‘cha yoshidagi bolalarning xayol jarayoni kattalarga nisbatan yaxshi rivojlangan degan fikr mayjud. Bu fikr to‘g‘rimi, tahlil qilib bering.
5. Xayolning rivojidagi turli tadbirlarning o‘rnini nimada?

## **IX bob. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR SHAXSINING SHAKLLANISHI**

### **9.1. Ilk yoshda bola shaxsining shakllanishi**

**Ilk yoshda mustaqil harakatlar va muloqotga kirishish xususiyatlari.** Inson ontogenezida uning 1 yoshdan 3 yoshgacha bo‘lgan o‘sish davri alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu davrda insonga xos eng muhim sifatlar, xarakter xislati, atrof-muhitga, o‘zgalarga munosabat, xulq-atvor, tafakkur va ong kabi psixik aks ettirishning turli ko‘rinishlari shakllanadi. Bularning barchasi qarama-qarshiliklar kurashi ostida tarkib topadi.

Bolaning yurishga urinishi, turli narsalar bilan ovunishi va shug‘ullana olish imkoniyatlari kengayishi, uning kattalarga bevosita tobeligi, ularga bog‘liqligi nisbatan kamayadi. Asosiysi, uning mustaqil harakat qilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

R.Y.Abramovich-Lextmanning tadqiqotlarida ifodalanishicha, bir yoshli va bir yosh-u ikki oylik bolada turli narsalar bilan harakat qilishning oddiy turi jadal rivojlanadi. Boshqacha aytganda, unda jismlar bilan muayyan harakatni amalga oshirishning nisbatan barqaror usullari shakllana boradi. Shunday harakatlar tobora ortadi va murakkablashadi, ularning mohiyati borgan sari chuqurlashadi.

D.B. Elkonin fikricha, bolalarda keng ko‘lamli va ko‘p miqdordagi predmetlarni tanish, idrok qilish, ularning xususiyatlarini o‘zlashtirish ehtiyojining ortishi katta yoshdagi odamlar bilan muloqotga kirishish mayli, **tuyg‘usi va istagini** kuchaytiradi. Shunday bo‘lsada, bu muammo bola shaxsiy o‘yin faoliyatini tashkil qilishda hali kattalarning yordami va rag‘batiga muhtojligini ko‘rsatadi.

Bir yoshli bolaning turli harakatli o‘yinlarda muvaffaqiyatsizlikka uchrashi, ko‘zlagan ishini bajarishidagi noxush kechinmalar uning psixikasida dastlabki affektiv holatni vujudga keltiradi. Shuningdek, o‘z faoliyatida uchraydigan ko‘ngilsiz voqealarga shaxsiy munosabatini bildirish, aks ettirishning yangi shakli ta’sirlanishni tarkib toptiradi. G‘azablanish, jahl, qahr-u

g‘azab tuyg‘ularining xususiyatini tadqiq qilgan T.E. Konnikova ma'lumotlariga binoan, bir yoshli bolada ko'pincha bezovtalanish, xatti-harakatdagi «portlash», qahri qattiqlik yuzaga keladi. Uning fikricha, bola psixikasida paydo bo'layotgan xulq natijasi tirishqoqlikning o'ziga xos ko'rinishidan iborat bo'lib, u o'zi yoqtirgan narsani tezroq qo'liga olish xohishi bilan uzviy bog'liqidir.

Odatda, affektiv holatga berilishni yoki affektiv ta'sirlanishni bola kattalar bilan muloqotda psixik jihatdan qoniqmaslikni hosil qiladi. Psixologik ma'lumotlarga ko'ra, 1 yoshli inqiroz vaqtida «portlash», «lov etish» xususiyatiga ega bo'lgan affekt quyidagi sabablar bilan vujudga keladi:

- 1)kattalar bolaning xohish-istikclarini tushunmasligi, imoshorasini va yuz-chehra harakatlariga, pantomimikasiga (yuz bilan tana harakatlari qo'shilishi) e'tiborsizligi;
- 2)bolaning ixtiyorsiz xatti-harakatiga batamom qarshilik ko'r-satish, uning talabini bajarmasligi, qoniqtirmasligi;
- 3)bolaning o'zgarishlarga oid bilimlardan bexabarligi, bu o'zgarishlarni oldindan sezsa olmasligi va boshqalar.

Jazavaga tushishning xususiyati va darajasi bolaning yashash sharoiti hamda unga kattalarning munosabatida o'z ifodasini topadi va mahalliy mezonlar yordami bilan aniqlanadi. N.A. Menchinskaya o'z kundaliklarida bir yarim yoshli o'g'lining o'jarligini shunday ta'riflaydi: «Mumkin emas!» degan taqiqlashga javoban Sasha o'jarlik qilar, sho'xligini yana zo'r berib davom ettirishga urinar edi; uning o'jarona xohishini boshqa obyektga tortish bilangina bartaraf qilsa bo'lar edi: ko'pincha taqiqlashga qarshi yig'lab injiqlik qilar, hatto, o'zini polga otar, qo'l va oyoqlarini tapillatar, ammo bunday «jazava» uning xulqida juda kam sodir bo'lib, uni bunday sho'xliklaridan tez va oson chalg'itish mumkin edi...».

Psixologlardan L.S. Vigotskiy, P.P. Blonskiy va ularning shogirdlari olib borgan ishlardan ko'rinishadiki, bolada paydo bo'lgan dastlabki so'z va ibora go'daklik davridan ilk bolalik davriga o'tishning eng muhim sharti hisoblanadi. Harakat bilan so'zning bog'lanishi bolaning mustaqilligi va mustaqil faoliyatni amalga oshirishi uchun zarur sharoit yaratadi. Nutq orqali muloqot ehti-

yojining paydo bo‘lishi bolaning psixik jihatdan o‘sishida muhim turtki vazifasini bajaradi va uni mustaqillik sari yetaklaydi.

D.B. Elkoninning fikricha, so‘zlarning hosil bo‘lishi va bolaning nutqiga aylanishi, eng avvalo, so‘zning ma’nosini tushunib va idrok qilishga bevosita bog‘liqdir. Buning natijasida bolaning lug‘at boyligi keskin ko‘payadi, ikkinchidan, nutqida ikkita so‘zdan iborat gap tuzish imkoniyati vujudga keladi va uchinchidan, predmetlarning nomiga qaratilgan savollar tug‘iladi. Bu jarayon 1,5 yoshdan oshgandan so‘ng boshlanadi va bolada kattalar bilan muloqotning yangi bosqichi paydo bo‘lganini bildiradi. Nutq orqali bolalarga vaziyat va holat nomlari emas, balki predmetlarni anglatuvchi so‘zlar o‘rgatiladi. Go‘daklik davridan ilk bolalik davriga o‘tish uning faoliyatida va kattalar bilan muloqotida jiddiy olg‘a siljish bilan ajralib turadi. Ana shu siljish bolada atrofdagi odamlar va narsalarga tabaqali munosabatni shakllantiradi. Biroq bu munosabatlar faqat kattalar bilan hamkorlikdagi faoliyat orqali amalga oshadi. Kattalar bilan hamkorlikdagi yoki mustaqil predmetli harakatlarni egallashdagi yutuq yoki muvaffaqiyatsizlik, omadsizlik hollari bolada turli histuyg‘u va kechinmalarni (quvonch, tashvish, achinish, qayg‘urish, samimiylilik, loqaydlik va hokazolarni) vujudga keltiradi. Shaxsnинг faolligi, harakatchanligi, tashabbuskorligi, intiluvchanligi, bilishga ishtiyoqmandligi, dadilligi asosan yuqoridagi omillarga uzviy bog‘liqdir va bunga befarq qaramaslik kerak.

**Ehtiyojlarning qondirilishi asosida turli hissiy holatlarning yuzaga kelishi.** 2–3 yoshli bolalarning harakatlari juda impulsiv – ixtiyorsiz bo‘ladi. Bola paydo bo‘lgan his-tuyg‘u va istaklarini darhol harakatlarda ko‘rsata boshlaydi. Shu sababli bola o‘ziga yoqqan qulay va qiziqarli faoliyatdan qanoatlanadi va hamisha shunday faoliyatga intiladi. Bolaning his-tuyg‘usi kayfiyati va kechinmalarining o‘zgarib turishi bilan xarakterlanadi. Shodlik bilan xafalik bir-biriga yaqin turadi, kulgu orqasidan yig‘i, yig‘i orqasidan esa kulgu keladi. Norozilik, g‘azab, o‘jarlik va jahl kabi affektlar juda uzoq davom etmaydi. 2–3 yoshli bolalar o‘z tuyg‘ularini tutib tura olmaydilar, bolalar katta odamlarning «mumkin emas» deb ogohlantirishlariga qaramay, birdaniga qatting yig‘lashlari, kulishlari yoki qichqirishlari mumkin. 2–3 yosh-

li bolalarga boshqalarning tuyg‘ulari tez ta’sir etadi. 1–2 yoshli bola yig‘lashi bilanoq boshqa bolalar ham yig‘lashga tushadilar. Demak, bolalar bir-biriga ixtiyorsiz taqlid qiladilar. Lekin bu xususiyat bola o’sgan sari zaiflashib boradi.

Keyinchalik bolalar kattalarning erkalashini, norozilik ko‘pincha, rad etish va talab qilishlarini farq qila boshlaydilar. Bolaning xatti-harakatlariga nisbatan tevarak-atrofdagi odamlarning munosabati va oilada bola hayotining qanday tashkil etilganligi uning xatti-harakatlarida o‘zining ijobjiy yoki salbiy ifodasini topadi.

Bola o‘zining his-tuyg‘ularini, o‘zidagi hissiy holatni hali yaxshi boshqara olmaydi. Arzimagan narsa bilan kulib turgan bolaning birdan yig‘lab yuborishi yoki yig‘lab turgan bolaning birdan kulib yuborishi hech gap emas.

Bolaning o‘sishi va nutqining rivojlanishi natijasida yuksak hissiyotlar, ya’ni intellektual, estetik, o‘rtoqlik hislari yuzaga kela boshlaydi. Bola o‘zini ajablantirgan yangi narsalarni ko‘rib hayratda qoladi, bu bilan aqliy tuyg‘ulari namoyon bo‘ladi. 2 yoshdan oshgan bola chiroqli, jozibador narsalarni yoqtiradi. Bolaga chiroqli kiyim kiygizilsa u o‘zini juda mamnun sezadi. Bola musiqaga, ya’ni sho‘x va chiroqli kuylarga nisbatan juda ijobjiy va aktiv munosabatda bo‘la boshlaydi. Musiqaga iste’dodli bolalar hatto o‘zları ashula ham aytadigan, raqsga tushadigan bo‘ladilar, bolalarning ana shunday faoliyatlarida ularning estetik tuyg‘ulari yaqqol namoyon bo‘ladi. Bola o‘zining turli ehtiyojlarini anglab, o‘zining shaxsini shakllantira boshlaydi.

Rus fiziolog I.M. Sechenovning tili bilan aytganda, bola ana shu davrdan boshlab o‘z sezgilarini tevarak-atrofdagi narsalar dan ajratib, o‘z-o‘zini anglay boshlaydi. Bu yoshdagagi bolalarning so‘z boyligida o‘z shaxsini bildiruvchi «men» degan olmosh tez-tez uchrab turadigan bo‘ladi. 2–3 yoshli bola o‘zining kayfiyati ta’sirida o‘ylamay harakat qiladi. Shu yoshdayoq bolalar bir-biridan o‘zlarining axloqiy xislatlari bilan farq qiladilar. Bir bola boshqa bir bolaning qo‘lidagi havas qiladigan narsasi ga hasadsiz, xotirjam qaray oladi, ikkinchi bir bola birovlarining narsasini so‘roqsiz olmaydi, bu harakat axloqiy tormozning ifodasidir. Lekin xuddi shu yoshdagagi boshqa bir bola uradi. Uni

o‘zini, istagini idora qilish odati yo‘q, chunki unga bunday odat o‘rgatilmagan. Ana shu tariqa bola juda elementar tarzda bo‘lsa ham o‘zini shaxs sifatida anglay boshlaydi. Binobarin, ana shu davrdan boshlab bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bolalarning individual xususiyatlari namoyon bo‘la boshlaydi. Bolaning mustaqil harakatlarini tashkil etishdan e’tiboran unda irodaviy xislatalar tarbiyalana boshlaydi. Sochilgan o‘yinchoqlarni yig‘ishtirib, o‘z joyiga qo‘yish, yo‘qolgan narsalarni o‘ziga toptirish vazifasining o‘ziyoq bola uchun muhim topshiriqdir. Bunday topshiriqlar bolani mustaqillikka va sabot-matonatlilikka o‘rgatadi.

Bu davrda bolada «Men o‘zim» konsepsiyasining vujudga keliishi shaxsiy fazilatlar shakllanishiga olib keladi va xuddi shu paytlarda bola shaxs sifatida tarkib topa boshlaydi. Bolada shaxsiy harakatlar paydo bo‘lishi o‘sishning yangi davri boshlanganini bildiradi. Bu davrda bola o‘z ismini juda yaxshi o‘zlashtirib oлади va qattiq himoya qiladi. Uni boshqa ism bilan chaqirishlariga norozilik bildiradi.

**Ilk yoshdagi bolalar shaxsi shakllanishining shart-sharoitlari.** Uch yoshli bolalarga to‘g‘ri tarbiya berish, ta’sir o‘tkazish, ularning harakatlarini maqsadga muvofiq yo‘naltirish orqali ularda mustaqil holda ovqatlanish, kiyinish, yuvinish, o‘z o‘rnini yig‘ishtirish ko‘nikmalarini tarkib toptirishga, ayrim topshiriq va vazifalarни puxta bajarish malakasini shakllantirishga erishish mumkin. Mazkur yosh xususiyatlarini tadqiq qilgan N.M. Shchelovanov, D.B. Elkonin va boshqalarning fikricha, bolaning uch yoshgacha o‘sishida erishgan yutuqlari uning xulq-atvorini, bilish jarayonlarini sifat jihatidan ancha o‘zgartirib yuboradi. Shunga qaramay bolaning o‘sishiga kattalarning ta’siri yetakchiligi qolaveradi. Bolaning mustaqilligi faqat uning jismoniy va aqliy imkoniyatida, kuchi yetadigan jarayonga nisbatan o‘z munosabatini kattalarning yordamisiz amalga oshirishida emas, balki kuchi yetmaydigan ma’lum amaliy ko‘nikmalarni egallay olmagan muammo-larni hal etishda ham ko‘rinadi. Bola «Menga bering», «Men ham qilaman», «Meni ko‘taring», «Men ham boraman» kabi talablarни o‘z istagi va ehtiyojini qondirishning manbasi deb hisoblaydi. Bolada vujudga keladigan xohish, istakning qondirilishi kattalar tomonidan boshqariladi. Mana shu davrda namoyon bo‘ladigan

tarbiya jarayonidagi ayrim qiyinchiliklarning tashqi va ichki belgilari boladagi o'jarlik, negativizm, qaysarlik, injiqlik, katta-larning bolalar nazarida obro'sizlanishi va qadrsizlanishi kabilar bilan bog'liq. Bu yoshdagi bolalarning his-tuyg'ulari va irodasi-da muhim o'zgarishlar sodir bo'ladi va bularning hammasi bola-dagi xudbinlik, rashk, sharoit bilan bog'liq bo'lgan qaysarlik kabilarda yaqqol ko'rindi. Bolaning shaxsiga nisbatan e'tiborsiz, mensimay munosabatda bo'lish bolalardagi injiqliklarning bosh sababchisi hisoblanadi.

Bolaning xulqida ma'lum sharoit ta'siri bilan paydo bo'lgan o'jarlik va noma'qul qiliqlar mavjudligi uning psixikasida jiddiy o'zgarish ro'y berganini, endi bolaga uning hozirgi o'sish daraja-sini hisobga olib munosabatda bo'lish zarurligini bildiradi. Bola-lar psixikasida vujudga keladigan inqiroz sabablari:

- kattalar bolaning jismoniy va aqliy imkoniyatlarini;
- xohish va istagini mustaqil holda turmushda qaror topti-rishga intilishini;
- ayrim ko'zga tashlangan qiyinchiliklarni bartaraf qilishga urinishini;
- o'z holicha ish tutishni cheklashlaridir.

Kattalar bolaning mustaqilligiga, istagiga qarshi turmasdan, mumkin qadar istagiga, intilishiga yordam bersalar, uning shax-sini shakllantirish jarayonidagi qiyinchilik o'z-o'zidan barham topadi, nizolarning oldi olinadi. Oilada va MTMda shaxslararo munosabatlarning ilmiy asosda qurilishi, pedagogik odob doirasi-dan chetlashmaslik yuqoridagi ziddiyatlarning oldini oladi.

Bolaning xohish va istagi ularning tasavvurlari bilan bog'liq bo'lib, faoliyat turlarida (rolli o'yinlar, ijodiy, tasviriy va konstruktiv faoliyat, sodda mehnat faoliyati) yaratiladi. Bola o'z faoliyatida tevarak-atrofdagi narsalar va hodisalar to'g'risidagi tasav-vur obrazlaridan amaliy foydalanish bilan chegaralanib qolmay, ularga nisbatan o'zining shaxsiy emotSIONAL munosabatini ham bildiradi. Bu hol ko'pincha ularning ijodiy o'yinlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ijodiy o'yinlarda bolaning kattalar faoliyati ha-qidagi, ularning o'zaro munosabati to'g'risidagi tasavvuri aks etadi, u o'zini kattalar bilan birga harakat qilayotgandek his etadi, hatto vogelikning bevosita qatnashchisi vazifasini o'taydi.

Bunday vaziyatlar bolada yangidan yangi xohish-istiklarni keltirib chiqaradi. Hatto, bolaning o‘zi uncha qiziqmaydigan faoliyatga ham undashi yoki tanish faoliyatga yangicha shakl va mazmun berib uni bajarishga yo‘naltirishi mumkin. Psixologik manbalardan ma’lumki, mazkur yoshdag‘i bolalarning o‘zlarini xohlamaydigan zerikarli faoliyatga (chunonchi, yozishga, rasm chizishga, mehnatga, harakatli o‘yinga) majbur qilish mumkin emas. Ular o‘zlarini xohlamagan mashg‘ulotlarda juda tez charchaydilar. Shunday mashg‘ulotlarga amaliy jihatdan yondashilsa, bolalar ishga astoydil, butun vujudlari bilan kirishib ketadilar. Natijada ularda shu mashg‘ulotga ijodiy munosabat vujudga keladi.

3 yoshli bolalar o‘zlarini o‘zgalar bilan taqqoslay boshlaydilar, buning natijasida bolada o‘z-o‘zini baholash vujudga keladi.

**Uch yoshli inqiroz.** Jismoniy jihatdan mustaqillikka erishish (yurish, yugurish) bolada erkin, kattalarning nazoratisiz, o‘z holicha qandaydir ishlarni bajarish, ijtimoiy muhitda shaxs sifatida yashash istagini tug‘diradi. 3 yoshli bolalar o‘zlarini kattalar bilan taqqoslay boshlaydilar, hatto kattalar qilishi mumkin bo‘lgan (huquqi bo‘lgan), ular bajara oladigan harakatlarni bajarishga intiladilar. «Men katta bo‘lsam mashina haydayman», «Men sizga katta tort olib kelaman», «Mening 100 ta qo‘g‘irchog‘im bo‘ladi» kabi istaklarini kelasi zamonda gapisra ham bugun amalga oshirishga harakat qiladi. Ko‘pincha bu harakatlar qat’iylik va qaysarlik bilan namoyon bo‘ladi.

Psixologik tadqiqotlarning ko‘rsatishicha bolalar mazkur inqiroz davrida bir necha ko‘rinishdagi qaysarlik yoshini bosib o‘tadilar.

Ana shu ko‘rinishlarning biri bolaning 3 yoshiga to‘g‘ri keladi. Shu davrda uning psixikasida sifat va miqdor jihatidan turli o‘zgarishlar ro‘y beradi. Bu o‘zgarishlar uning olamni o‘zicha kashf qilayotganiga, psixikasining ma’lumot va axborotlar bilan soat sayin boyib borayotganiga bog‘liqdir. Ayni shu yoshda bolada o‘z irodasiga ishonch hissi tug‘iladi, u o‘zligini anglay boshlaydi. O‘zligini anglash qarama-qarshiliklarni, ziddiyatlarni yengish bilan amalga oshadi.

Mazkur yoshdag‘i bola ba’zan o‘ziga aytilgan so‘zning mohiyatini tushunmasligi, anglab yetmasligi, goho o‘yinga haddan

tashqari berilib ketib, kattalarning ovozini eshitmay qolishi mumkin. Bunday paytda bolada tashqi ta'sirga yoki qo'zg'atuvchiga e'tibor berish qobiliyati yetishmasligi, bunga uning ko'tarinki yoki tushkun kayfiyati xalal berishi mumkin. Ba'zan bola o'z o'ylari va ichki kechinmalar bilan bandligi sababli uning tashqi ta'sirga javob qaytarishi biroz kechikishi ham mumkin. Ana shu jarayonga o'zgalarning psixologik qonuniyatga rioya qilmay qo'pollik bilan aralashuvi yoqimtoy, odobli bolalarni ham darrov jahli chiqadigan, gap ko'tara olmaydigan, nozik tabiatli shaxslarga aylantirib qo'yishi mumkin. Bunda kattalarning muloqotdagagi dag'al munosabatlarini ko'rgach qaysarlik belgilarini yaqqol namoyon eta boshlaydi. U har qanday taklifni, buyruqni, hatto, iltimosni ham rad qiladi, o'ziga berilgan barcha savollarga bir maromda «yo'q», «kerakmas», «bermayman», «bilmayman» deb javob qaytaraveradi. Kattalar bilan bola o'rtasidagi munosabatning buzilishi tufayli uning xatti-harakatida o'jarlik paydo bo'ladi. Buning asosiy sababi bolada o'zining ichki kechinmalar, his-tuyg'ulariga bog'liq harakatlarni mustaqil bajarish istagi tug'ilishi, «men» bilan bog'liq butunlay yangi nuqtayi nazarning vujudga kelishidir.

Mazkur davrni inson shaxsini shakllantirishda eng murakkab davr desak, xato qilmagan bo'lamiz. Shunga ko'ra katta yoshdagi odamlar, ota-onalar, bog'cha tarbiyachilar shu davrda bolaga undagi o'zgarishlarni, murakkab ichki kechinmalarning mohiyatini, psixologik inqirozni inobatga olgan holda yonda-shishlari lozim. Bu davrda bolada irodaviy sifatlarning takomillashuvi natijasida shaxsning xarakter xislatlari barqarorlashadi. Bola o'zligini anglashining tashqi va ichki belgilari yaqqol ko'zga tashlanadi. «O'zim» bilan bog'liq ezgu niyat mustaqillikka intilish tuyg'usini vujudga keltiradi, binobarin, ularning ta'siri tufayli unda o'z xulq-atvori «yurish-turishi» bilan kattalarning maqtovi va olqishini eshitish ishtiyoqi tug'iladi. Shaxsning xulqini baholash keyinchalik o'zini o'zi baholash daraja-siga yetadi.

Katta yoshdagi odamlar, ota-onalar, tarbiyachilar bunday holarda o'zlarini osoyishta tutishlari, sharoitga qarab bolaga biroz yon berishlari, ba'zan ularga aytganlarini qildirishlari, kerakli

vaqtida masalani ochiq qoldirishlari lozim, chunki shaxslararo munosabatning ba'zan muammoligicha qolishi ham maqsadga muvofiqdir. Yaxshisi asabiylik vaziyatida bolaning diqqatini boshqa narsaga jalb qilish, uni mushkul holatdan chalg'itish ma'qul. Bu holat bolaning psixikasiga qattiq ta'sir qiladi, u o'zining nojo'ya qiliqlari kattalarga aslo yoqmayotganini anglaydi, ichidan chuqur iztirobga tushadi.

Shu davrda organizmning tez sur'atlar bilan o'sishi oqibatida bola sho'x, serg'ayrat, tinib-tinchimas hamma narsaga qiziquvchan, harakatchan bo'lib qoladi. Undagi bu o'zgarishlar tabiiy ekanligini kattalar yaxshi bilishlari, o'zlarining kichkin-toylarga muomala va munosabatlarini tubdan o'zgartirishlari lozim. Bola oldiga qo'yiladigan talablar muayyan shart va sharoitga muvofiq bo'lishi kerak. O'zgarishlarni hisobga olmaslik kattalar bilan bolalarning o'zaro munosabatlarda qator qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. Bola ota-onalar va tarbiyachilarning gapiga quloq solmaydigan, topshiriqlarni bajarmaydigan, qo'rs, hech narsaga ko'nmaydigan bo'lib qoladi. Bunday xatti-harakatni keltirib chiqaruvchi bosh sabab bolalarning mustaqillikka intilishini kattalar tan olmaslidir. Shuning uchun ular goho kattalardan o'rinli xafa bo'ladilar, nizoning sababini to'g'ri anglaydilar.

Ayrim kishilar bolaga topshiriq beradilar-u, lekin uning nati-jasi bilan qiziqmaydilar, bola qanday yutuqqa erishganiga e'tibor bermaydilar. Bola o'ziga kattalarning mensimay, hurmatsizlik bilan munosabatda bo'layotganini darrov sezadi. Shaxslararo munosabatda vujudga kelgan anglashilmovchilik va ginaxonlik ana shu holatga oqilona baho berilgunicha davom etadi.

Erkalanish bilan vujudga keladigan o'jarlik ham uch yosh-lilar ruhiy dunyosida ko'p uchraydi. Bolaga me'yordan ortiq mehr-muhabbat qo'yish, uni haddan tashqari erkatalish, har qanday xohishini qondiraverish, talab va ehtiyojini so'zsiz ado etish ham unda erkilik va o'jarlikni paydo qiladi. Shuningdek, bolaning xulq-atvorini, qilgan ishini maqtayverish, uni o'rinsiz tallaytirish yoki unga nisbatan befarq munosabatda bo'lish ham o'jarlikni keltirib chiqaradi. Bolani e'tiborsiz qoldirish, nazorat qilmaslik, tekshirmslik ham noxush oqibatlarga olib keladi. Ma-

salan, e'tiborsizlik bolani qattiq iztirobga soladi, unda tanholik tuyg'usini, umidsizlik, begonasirash hissini vujudga keltiradi. Bular esa bolada kattalarga nisbatan ichki qarama-qarshilikni, o'zaro ziddiyatni, nizo alomatlarini tug'diradi. Ko'p hollarda bolalar ni o'z mayliga, o'z holiga tashlab qo'yiladi, ularga juda barvaqt erkinlik, mustaqillik beriladi, ammo bunday qilish bola shaxsini tezroq takomillashtirishga xizmat qilmaydi. Hayot va faoliyatda har bir bolaning oldiga aniq, yaqqol talab va topshiriqlar qo'ymaslik, uni rag'batlantirmaslik bolaning psixikasiga qattiq ta'sir etadi, u o'kinadi va ichidan kuyinadi. O'zining himoyachisi yo'qligini his qilish ham bolada o'jarlikni yuzaga keltiradi. Bolada kattalarga nisbatan paydo bo'lgan gina-adovat uni o'jarlikka yetaklaydi. Shaxslararo munosabatdaadolat qaror topgunicha, ziddiyatning bosh sababchisi o'z xulqiga iqror bo'lgunicha qarama-qarshilik davom etadi.

O'jarlik paydo bo'lgan bolaga muomalada uni behuda erkalatmaslik, maqtamaslik, uning barcha orzu-istikclarini qondirmaslik kerak. Xoh oilada, xoh bog'chada hammaga bir xil, bir maromda e'tibor berish, bolani o'z holiga tashlab qo'ymaslik o'jarlikning oldini olishga xizmat qiladi.

Bolalarda vujudga keladigan illatlar – o'jarlik, qaysarlik, injqlik va hokazolarning sababini u kamol topayotgan muhitdan, unga ko'rsatilayotgan tarbiyaviy ta'sirdan, sharoitdan, shaxsni shakllantirish jarayonidagi kamchiliklardan qidirish lozim. Eng muhim, ota-onalar ham, tarbiyachilar ham boladagi salbiy psixik holat o'tkinchi ekanini bilishlari, uning sabablarini haqqoniy aniqlashlari, bola bilan umumiy til topishishlari, unga nisbatan samimiy munosabatda bo'lishlari zarur. Hayot va faoliyatda kattalar bolaning shaxsini hurmat qilishlari, uning ehtiyojlari bilan hisoblashishlari, his-tuyg'usini boshqarish imkoniyatlarini aniqlashlari kerak. Bolani sevish, uning yosh xususiyatlarini hisobga olish, qiziqishlariga e'tibor berish o'jarlikning oldini olishning muhim shartidir.

Uch yoshli bola jamoat joylarida, ko'pchilik orasida o'z xulqini qanday boshqarish kerakligini bilmaydi. Shuning uchun bu ni kattalar tushuntirishlari, amaliy ko'rsatmalar berishlari shart. Biroq bu ish harakat bilan uzviy bog'lanmasa, ko'zlangan nati-

jaga erishish mumkin emas. O‘yin faoliyatida bola shaxsida xulq va odob malakalari asta-sekin shakllantiriladi. Uch yoshlilar shaxsini shakllantirishda ularni boshlagan ishni oxiriga yetkazishga, qiyinchiliklarni yengishga, sabr-toqatga, asabiylashmaslikka, bardoshlilikka, yig‘idan o‘zini tiyishga, ortiqcha xatti-harakat qilmaslikka o‘rgatish juda katta ahamiyatga ega. Bolada ijobjiy axloqiy ko‘nikma va malakalar, odatlar mustaqil ishlarni bajarishga intilishda vujudga kela boshlaydi. Shuning uchun kattalar o‘z holiga tashlab qo‘ymay, topshiriqni qanday bajarishi ni nazorat qilib turishlari lozim. Bolaning shaxsi tarkib topishi da kattalarning axloqiy ibrati alohida ahamiyatga egadir. Lekin yuksak fazilatlarni, insoniy xislatlarni shakllantirishda shuning o‘zigma yetarli emas, chunki bola mustaqil faol harakat qilmasa, hamkorlikdagi faoliyatda ishtirok etmasa, xulq-atvor ko‘nikmalari hosil bo‘lmaydi. Ma’lumki, o‘yin faoliyatida va muloqot jarayonida bolaning shaxsiy fazilatlari hamda xarakter xislatlari uning nutqiga bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Bolaning nutqi faoliyati qanchalik ravon va boy bo‘lsa uning o‘zaro fikr almashishi ham shunchalik qulay va oson amalga oshadi. Kamolotning mazkur bosqichida egosentrik nutq (o‘z-o‘ziga qaratilgan nutq) muhim ahamiyat kasb etadi. Harakatli, rolli, mazmunli, milliy o‘yinlar jarayonida amaliy xatti-harakat bilan uzviy bog‘liq holda bola shaxsida insoniy xislatlar tarkib topa boradi. O‘yin faoliyati va turli o‘yinlar bolada irodaviy sifatlarni takomillashtirishda, his-tuyg‘uni boshqarishda yetakchi faoliyat vazifasini o‘taydi.

### **3 yoshli bolalarning psixik rivojlanishidagi asosiy o‘zgarishlar.**

<b>Yosh davrlari</b>	<b>Bilishi</b>	<b>Harakatlari</b>	<b>Muloqoti</b>
1 hafta	Harakatlarni kuzatish.		
2 hafta	Onasining tovushidan boshqa tovushlarni farqlashi, shaqildoq tovushiga reaksiya.	Ko‘rvuq diqqati.	

1–2 oylik	Ko‘rish, eshitish, ta’m, hid bilish reseptorlari- ga nisbatan shartli ref- lekslar hosil bo‘ladi.	Eshitish diqqati. Jonlanish kom- pleksi.	Guvranish.
3 oylik	Ko‘rish qobiliyatining shakllanishi, obyektni ko‘zi bilan qidirish.	Yon tomon- ga o‘girilish qo‘llarni ma’lum maqsad bilan harakatlantirish.	Jilmayish va ovozga javob qay- tarish, mulo- qotga intilish. Emotsional reak- siyalarning paydo bo‘lishi.
5 oylik	Dinamik stereotiplar- ning dastlabki ko‘rinishi. Rangli ma- tolarni ezg‘ilash, to- vush kelgan tomonga tez va to‘g‘ri qarash.	Dastlabki emak- lash harakatlari. Yordam bilan o‘tirish.	Kattalarga mu- nosabatning pay- do bo‘lishi. Ku- lish, qiyqirish, yotsirash, gap ohangidan tushu- nish, javob reak- siyalari.
7 oylik	Taqlidiy harakatlar.	Yordam bilan turishi.	So‘zlar bilan bu- yumlar aloqa- sini anglash, ko‘z bilan so‘ralgan buyumga qarash.
8 oylik	Sensomotor intellek- ning yuzaga kelishi. Paypaslash, ushslash, og‘ziga solish.	Tayanib yurish, tanish ohangga mos harakatlar qilish.	No verbal mulo- qoti
9–10 oylik	Nutqni tushunish.	Emaklash, yu- rish harakatlari.	Kattalarga bog‘liqlik, begona muhit va begona kishilardan xa- votirlanish, yot- sirash. Bolalarga qarab kulish.

1 yosh	Kubik, piramidalarni taxlash, yorqin ranglar- ga intilish.	Mustaqil hol- da tik turish va yurish.	Nutqdan foy- dalanishning dastlabki belgi- lari, birinchi so‘zlar. Predmet- larning nomlarini aytishni so‘rash.
1,5–2 osh	Oriyentirovka reflek- si, ko‘rgazmali-harakat tafakkurining rivojla- nishi.	Mayda muskul harakatlarini bajarish, ip bog‘lash, tug- macha taqish va h.k.	Nutqning jadal rivojlanishi. Be- gonalardan qoch- maslik.
2–2,5 yosh	Sensor rivojlanishning senzitiv davri. Qizi- qishlarning kuchayishi. «Bu nima?» savolining paydo bo‘lishi.	Serharakat va ermak o‘yinlar.	300–400 so‘zni ishlatish, 3–4 ta so‘zdan iborat gap tuzish, aktiv muloqot.
3 yosh	O‘z-o‘zini ijtimoiy muhitda anglash, ba- holash, taqqoslash. Ilk layoqat nishonala- rining ko‘rinishi. 3 yoshli inqiroz.	O‘z harakat- larini irodaviy boshqarish, predmetlar bilan harakatlar ba- jarish.	Nutqdan muomalada ak- tiv foydalanish, tengdoshlar bilan muloqot.

### Nazorat savollari:

1. Ilk yoshda mustaqil harakatlar va muloqotga kirishishda qanday xususiyatlar ko‘zga tashlanadi?
2. 1 yoshli inqiroz qanday kechadi?
3. Ehtiyojlarni qondirilishi asosida qanday hissiy holatlar yu- zaga keladi?
4. Ilk yoshdagи bolalar shaxsi shakllanishining zaruriy shart- sharoitlari nimalardan iborat?
5. Uch yoshli inqiroz haqida so‘zlab bering.

## **9.2. Kichik va o‘rta bog‘cha yoshida (3–5 yosh) shaxsning shakllanishi**

*Maktabgacha yoshdagi bola shaxsining shakllanishida ijtimoiy  
muhitning o‘rni*

Bola jismoniy taraqqiyotining 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan davrini qamrab oluvchi maktabgacha ta’lim yoshida psixik rivojlanishda ham katta o‘zgarishlar ro‘y beradi. Bu davr mobaynida bola shaxsini belgilab beruvchi xususiyatlar shakllanadi. Bolaning shaxs sifatida shakllanish nuqtayi nazaridan qaraganda maktabgacha yoshdagi davrini uch bosqichga ajratish mumkin:

Birinchi bosqich – 3–4 yoshni o‘z ichiga oladi va ushbu bosqich bolada emotsiyal jihatdan o‘z-o‘zini boshqarishning mustahkamlanishi bilan bog‘liq.

Ikkinci bosqich – 4–5 yoshgacha bo‘lgan davr asosan axloqiy jihatdan o‘zini-o‘zi boshqarishi kuchayadi.

Uchinchi bosqich – 6–7 yoshni qamrab olib bolada ishbilarmonlik, o‘z-o‘zini anglash, shaxs xususiyatlarining shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Bu davrlashtirish jihatidan qaralganda birinchi va ikkinchi bosqichlar kichik va o‘rta bog‘cha yoshiga, 3-bosqich esa katta bog‘cha yoshiga to‘g‘ri keladi.

**Bola shaxsining rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar.** Bola rivojlanib borar ekan yangi psixik sifatlarni va xulq-atvor ko‘rinishlarini o‘zlashtiradi. Shu tariqa u shaxsga, jamiyatning kichik bir a‘zosiga aylanadi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bola butunlay shakllanib ulgurmagan va keyinchalik kamol topishga qodir bo‘lgan shaxs hisoblanadi, lekin bunga qaramay bolada nisbatan barqaror ichki dunyo shakllanadi-ki, u bolani ilk bora shaxs deb atashga asos bo‘la oladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish sharoitlari avvalgi yosh bosqichidan jiddiy farq qiladi. Kattalar tomonidan bolaning xulqiga bo‘lgan talablar sezilarli darajada oshadi. Jamiyatda barcha uchun majburiy bo‘lgan axloq qoidalariga, ijtimoiy odob normalariga amal qilish asosiy talabga aylanadi. Atrof-muhitni bilish imkoniyatlarining o‘sishi, bolani yaqinlari tashkil qilgan tor doiradan olib chiqadi va o‘zaro munosabatlar shaklini

ilk bora o'zlashtira boshlaydi. Bola o'zaro munosabatlar shaklini ilk bora kattalarning ta'lif, mehnat kabi asosiy faoliyati turlarida o'zlashtirib boradi. Bola tengdoshlari bilan birga o'ynaydi, o'z harakatlarini tengdoshlarining harakatlari bilan muvofiqlashirishni, o'rtoqlarining qiziqishlari va fikrlari bilan hisoblashishni faoliyat jarayonida o'rganadi. Maktabgacha bo'lgan bolalik davri davomida bola harakatlarida o'zgarishlar va qiyinchiliklar ro'y beradi. Ular bolaning idroki, fikrlashini, xotirasinigina emas, o'zining xulqini yo'lga qo'yishini ham talab qiladi. Shaxslararo munosabatlardagi axloq-odob namunalarini o'zlashtirish kattalar ta'siri ostida boshqariladi. Bu kattalarning bola shaxsini shaklanishiga ko'rsatgan asosiy ta'siridir.

Bola shaxsining rivojlanishi ikki jihatni o'z ichiga oladi. Ular dan biri bolani atrof-muhitni asta-sekin anglab borishini va unda o'z o'rnini his qilishini bildiradi. Bular sababli bola xulqi da o'zgarishlar ro'y beradi va ular ta'siri ostida bola u yoki bu harakatlarni sodir qiladi. Boshqa jihat esa his-tuyg'u va irodani rivojlanishini taqozo etadi. Ular yuqorida aytilgan o'zgarishlar ta'sirini, xulq-atvorni mustahkamligini, uning tashqi sharoitlar ga bog'lanib qolmasligini ta'minlaydi. Bolalar uchun odob namunasi sifatida kattalarni o'zi avvalo ularning harakatlari, o'zaro munosabatlari xizmat qiladi. Bola atrofidagi yaqin insonlarning xulqi unga bevosita jiddiy ta'sir ko'rsatadi. U ularga taqlid qilishga, odatlarini o'xshatishga, odamlarga, hodisalarga, narsalar ga bo'lgan fikrlarini o'zlashtirishga moyildir. Lekin yaqinlari bilan ish cheklanib qolmaydi. Maktabgacha yoshdagи bola kattalar hayoti bilan har xil yo'llar orqali tanishadi: ularning mehnatini kuzatadi, hikoya, she'r va ertaklarni tinglaydi. Boshqalarning mehr, hurmat va maqtovlariga sazovor bo'lgan odamlar bola uchun namuna vazifasini o'taydi. Shu bilan birga bolalar guru-hida ijobjiy baholangan va mashhur bo'lgan tengdoshlarining harakatlari ham u uchun namuna bo'la oladi. Va nihoyat, ertaklarda aks ettirilgan personajlarning harakatlari ham namunalikda katta ahamiyatga ega. Bunday personajlar u yoki bu odob fazilatlariga ega bo'ladi. Bolaning yaqinlari doirasiga kirmaydigan, shunday bo'lsa ham uning e'tiborini qozona olgan odamlar fikri uning namunali xulqni o'zlashtirishida katta ta'sir o'tkazishi mumkin.

Bola bu odamlarga qattiq bog‘lanib qolganligi sababli, ularning kattalarga, bolalarga, hikoya va ertak qahramonlariga bergen bahozi u uchun boshqalarnikidan ishonarli tuyiladi.

Kichik va o‘rtalarda yoshdagagi bolalar axloq namunalariga katta qiziqish bildiradilar. Masalan, ertak yoki hikoya eshitayotib, ular kim yaxshi va kim yomon ekanligini aniqlashga tushadilar. Bu ma’noda noaniqlikka chiday olmaydilar va hattoki o‘z nuqtayi nazarlaridan jonsiz predmetlarni ham baholamoqchi bo‘ladilar. O‘rmonda adashib qolgan va daraxt kesuvchi tomonidan qutqarib qolning bola haqidagi ertakni tinglab bo‘lgach besh yoshli bola: «Bolani topib olgan amaki yaxshi ekan, o‘rmon esa yomon, u bolani adashtirib qo‘ydi», dedi. To‘rt yoshli bola bo‘lsa, tentak haqidagi bir qator ertaklarni eshitib bo‘lgach: «Oyijon tentaklar yaxshi bo‘ladimi yo yomonmi?» – degan savolni berdi (Muxina tadqiqotlari). Bolalarning o‘zi ham, atrofdagilar ulardan kutayotgan xulq haqidagi tasavvurdan kelib chiqqan holda, sekin-asta o‘z harakatlarini baholay boshlaydilar.

Kichik va o‘rtalarda yoshdagagi bolalar madaniy-gigiyenik ko‘nikma qoidalarini, tartibga rioya qilish va o‘yinchoqlar bilan muomala qilish qoidalarini o‘zlashtiradilar. Ular kattalar talablariga bo‘ysunish bilan birga, qoidalarga ham ega bo‘lishga harakat qiladilar. Tengdoshlari axloq qoidalarini buzganligi haqida bog‘cha tarbiyachisiga arz va shikoyat bilan murojaat qiladilar. Aksariyat hollarda bunday shikoyatlar chaqimchilik emas, balki o‘ziga xos bo‘lgan iltimosni, qoidaga rioya qilish hamma uchun majburiy ekanligini bildiradi. Kichik va o‘rtalarda yosh davrida boshqa bolalar bilan o‘zaro munosabat qoidalarini o‘zlashtirish birinchi darajali ahamiyatga ega bo‘ladi. Do‘sining fikrini, uning huquqlarini va xohishini hisobga olish majburiyati ko‘pincha bolalar faoliyatini murakkablashtiradi. O‘zaro munosabat qoidalarini o‘zlashtirish bolalar uchun oson kechmaydi, aniq bir holat xususiyatini tushunmay, bolalar bu qoidalarni dastlab rasman qabul qiladilar. Ular tomonidan muomala qoidalarining amalda o‘zgartirilishi, buzilishi va tiklanishi orqali bolalarda tajriba paydo bo‘ladi.

Kattalarning bolaga nisbatan «yaxshi bola»ga bo‘lgandek **emotsional munosabat** tug‘ilgandan va o‘z jinsiga dastlabki ko‘nikishdan so‘ng, bolada yangi ijtimoiy muhit shakllana-

di, ya'ni kattalar talablariga javob berishga va tan olinishga intilish paydo bo'ladi. Ma'naviy his va vijdon hurmat qozonishga intilishning ijobiy tarafidir. Odamlarning kundalik munosabatlarida vijdon «kerak» so'zi bilan izohlanadi. Tarbiya orqali insoniyat ma'naviy madaniyatini yuqori yutug'i bo'lgan mukammallik tuyg'usi aniq bir shaxsning yutug'iga aylanadi. Shaxsning axloqiy shakllanishini bola egallayotgan bilimlar; atrofdagi odamlar bilan muloqot paytida o'zlashtirilgan axloqiy xulq odatlari, odamlar bilan o'zaro aloqa paytida yutuq va yo'qotishlarni birga emotsional boshdan kechirishlar tashkil qiladi. Maktabgacha bo'lgan davr mobaynida ong darajasi o'zgaradi va buning oqibatida bolalar axloq qoidalarini bajarishni boshlaydilar.

Kichik va o'rta bog'cha yoshidagi bolalar qoidalarga amal qilishga ko'nikadilar va ba'zida hattoki «tartibga ortiqcha mehr» qo'yadilar, qoidalarni kichik buzilishiga ham chiday olmaydilar. Maktab yoshiga yaqinlashganda esa odatdagি qoidaga riox qilish ongli ravishda bajarishga aylanadi. Bu davrda bolalar nafaqat o'zlarini qoidalarga bo'ysuna boshlaydilar, balki boshqa bolalar ham ularga amal qilishlarini nazorat qiladilar.

Kichik va o'rta bog'cha yoshidagi bolalarda g'urur va uyatchanlik rivojlanishi axloq namunalari va qoidalarni o'zlashtirishda katta ahamiyatga ega. Bola o'z harakatlarini kattalarning bergan bahosi va maqtovlari bilan muvofiqlashtirishga majbur bo'ladi. Bu yoshdagи bola faqat kattalar tomonidan qo'llab-quvvatlanish uchun emas, balki o'z ijobiy fazilatlari (jasurlik, rostgo'ylik, boshqalar bilan bo'lishishga tayyorlik) uchun ham, g'urur hissini tuyadi. U o'z harakatini ijobiy baholanadigan namuna bilan o'lchaydi, u bilan o'xshashlik unga o'zi bilan g'ururlanishga asos bo'la olishini tushunadi.

Uyatchanlik bolada kattalarni bolalikning ilk davrida uning ishlariga to'g'ridan to'g'ri aralashishi tufayli orttiriladi. Maktabgacha yoshidagi bolada uyatchanlik boshqalar kutgandan yomonroq, aniqrog'i qoidani buzish, ijobiy baholanadigan namunadan chetlashishdek, harakat qilganligini tushunib yetgan holda ham vujudga keladi. Bola o'zida qo'rkoqlik, qo'pollik, qizg'anchiqlik, qo'rslik va hokazolar namoyon bo'lishidan ham uyaladi. Kichik va o'rta bog'cha yoshida avvalgidek bolani kattalarga bog'liqligi

saqlanib qoladi. Katta odamning xulqi bola faoliyatining ham faollashishiga sabab bo'ladi.

Aniqlanishicha, katta yoshdagi odam bolani o'ziga moyil qilos-sa, uning yantuqlariga sherik va yo'qotishlariga qayg'udosh bo'lsa, bola har doim o'zini ruhan tetik his qiladi va hattoki omadsiz damda ham harakatga va qarshiliklarni yengib o'tishga tayyor bo'ladi. U kattalar bilan ijobjiy aloqalar o'rnatganda, ularga ishonadi, boshqa bolalar va kattalar bilan oson aloqaga kirishadi.

Katta yoshdagi odamning bolaga begonalarcha muomalasi uning ijtimoiy faolligini pasaytiradi, buning oqibatida bola o'zi bilan o'zi ovora bo'lib qoladi, o'zini erkin sezolmaydi, o'ziga bo'lgan ishonchi yo'qoladi, yig'lashga doim tayyor bo'lib, tengdoshlariga nisbatan tajovuskor bo'lib qoladi. Aksariyat kattalar tomonidan begonadek qabul qilingan bolalar boshlagan ishlarini to'xtatadilar, sust va befarq bo'lib qoladilar. Bolalarni boshqa qismi, aksincha ish sur'atini oshiradi, lekin bunga qaramay ishni samarasи past bo'ladi. Katta yoshdagi odamning bolaga ochiq ko'rsatayotgan salbiy munosabati unda odatiy reaksiyalarni kel-tirib chiqaradi: bola yo begonalik to'sig'ini buzishga, katta odam bilan aloqa o'rnatishga intiladi, yo o'zi bilan o'zi ovora bo'lib qoladi va muloqotdan o'zini olib qochishga harakat qiladi.

Ma'lumotlarga qaraganda, boshqa odam mehriga bo'lgan tashnalik va biron odamga mehr berish istagi birinchi darajali, juda ham zarur ehtiyoj hisoblanadi. Bolaning onaga bo'lgan mehri bu yo'sinda alohida o'rin egallaydi. Uning barcha ehtiyojlari ona orqali amalga oshadi, chunki u bolaning quvonch, himoya hissi va emotsiyonal xotirjamlik manbaidir. Bola onaning bevosita mehr ko'rsatishiga muhtoj bo'ladi va har qanday yo'l bilan uning e'tiborini tortishga harakat qiladi. Yosh bola ayniqsa onasiga yoki uning o'rnnini bosuvchi odamga bog'liq bo'ladi. Lekin, vaqt o'tishi bilan, maktabgacha yoshda bo'lgan bolalar odamlarga bog'liqlik va ko'pgina o'ziga yaqin odamlarga nisbatan ehtiyoj sezsa boshlaydi. Kattalar bilan o'zaro yaxshi aloqa o'rnatish va uni saqlash bolaning ijtimoiy rivojlanishini belgilab beradigan yetakchi omil hisoblanadi. Bolaning kattalar bilan o'zaro aloqasi ko'p hollarda kattalar tomonidan unga nisbatan qilinadigan muomalaga bog'liq bo'ladi.

Kattalar tomonidan yaxshi emotsional muomala sharoitida bola o'sha katta yoshli kishiga ishonch bilan qaraydi, o'z faoliyatlida muvaffaqiyatli bo'lishga va o'ziga tanish bo'lgan odob-axloq qoidalariga amal qilishga harakat qiladi. Dilkashlik va xayrixohlik bolada ijobiy xislatlarni vujudga kelishiga sharoit yaratadi.

Undan uzoqlashish, jahldorlik va hattoki kattalarning ozgina bee'tiborligi ham, bolani noxush hislardan qochishiga va o'zi bilan o'zi ovora bo'lishiga olib keladi. Kattalarni begonalashishi quyidagi salbiy xislatlarni rivojlanishiga zamin yaratishi mumkin: odamovilik, tajovuskorlik, yolg'onchilik, tilyog'lamatlik, lagabardorlik va itoatkorlik. Bolaga ta'sir ko'rsatishning emotsional munosabatlarini katta odam ehtiyyotkorona tanlashi kerak. Bolaga ijobiy va salbiy ta'sir usuli bexosdan qo'llanilishi kerak emas (katta yoshli odamning kayfiyatiga qarab), aksincha o'ziga xos muomala quroliga aylanishi kerak. Ijobiy hislar muomala muhitini tashkil qiladi, begonalashish esa bolaning jiddiy xatosiga tanbe shaklida qo'llanilishi lozim.

**Kichik va o'rta bog'cha yoshidagi bolalarning tengdoshlari bilan munosabatlari.** Tengdoshlar suhbatiga bo'lgan ehtiyoj kichik va o'rta bog'cha yoshidagi bolalar shaxsining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ilk bolalik davrida paydo bo'lgan boshqa bolalarga mayl, maktabgacha yoshdagi davrga kelib tengdoshlar bilan suhbat ehtiyojiga aylanadi. Bolalarni birga o'yin o'ynashlari, topshiriqlarni birga bajarishlari oqibatida suhbatga bo'lgan ehtiyoj oshadi.

Ijtimoiy maktabgacha ta'lim sharoitida bolalar jamoasi, bola boshqa bolalar bilan birgalikda va ular bilan har xil aloqalar o'rnatganda paydo bo'ladi. Bu yerda bola jamoa ichidagi ilk axloq ko'nikmalarini, atrofdagilar bilan muomala qilish malakalarini orttiradi. Bolaning tengdoshlari bilan suhbatida shu paytgacha o'zlashtirgan axloq qoidalarini amalda qo'llash, va bu qoidalarni turli xil konkret vaziyatlarga moslashtirish zaruriyati bilan to'qnashishida, bolada shaxsning rivojlanishiga tengdoshlar guruhining ta'sirida namoyon bo'ladi. Bolalarning birgalikdagi faoliyati harakatlarni muvofiqlashuvga olib kelish, tengdoshlarga xayrixoh munosabat ko'rsatish, umumiyl maqsadlarga erishish uchun shaxsiy xohish-istiklardan voz kechish kerak bo'lgan vaz-

yatlar uzlusiz vujudga keladi. Bunday vaziyatlarda bolalar har doim ham kerakli xulq, muomala usulini topa olmaydilar. Tengdoshlarining huquqini hisobga olmay, o‘z huquqlarini himoya qiladilar, ular orasida ko‘pincha janjal yuzaga keladi. Janjalga aralashib, uni bartaraf qila borib, tarbiyachi bolalarga axloq qoidalarini ongли ravishda bajarishni o‘rgatadi.

Suhbat va guruhdagi umumiy faoliyat bolalarda to‘g‘ri harakat qilishga o‘rgatish vazifasini bajaradi. Bunday mashq bolalarga axloq qoidalarini faqat bilishi uchun emas, balki ularni amalda qo‘llash uchun ham zarurdir. Bolalar axloq qoidalarini o‘zlashtirishida guruhda umumiy fikr shakllanishi katta ahamiyatga ega. Bu ularda shaxsning rivojlanishi uchun bolalar jamoasi ta’siri bo‘lib xizmat qiladi.

Uch yoshli bolalar guruhida u yoki bu predmetlar, hodisalar, harakatlar haqida hali umumiy fikr bo‘lmaydi. Bir bolaning fikri odatda boshqa bolaning fikriga ta’sir qilmaydi. Lekin to‘rt-besh yoshdan boshlab bolalar tengdoshlari fikrini e’tiborga ola boshlaydilar va garchi u o‘z taassurot va bilimlariga to‘g‘ri kelmasada ko‘pchilik fikriga qo‘shiladi. Bunday ko‘pchilikning fikriga bo‘ysunish konformlik deb nomlanadi. Tajribada konformlikni aniqlashingiz mumkin. Masalan, bir nechta bolaga ataylab, stol ustida turgan qora va oq piramidachalarni ikkalasi oq deyishga o‘rgatasiz. Kelishuvda qatnashmagan bola, ikki-uch tengdoshining fikrini eshitgach, «Piramidachalar qaysi rangda?» degan savolga «Ikkalasi ham oq» deb javob beradi.

Olti yoshda konformlik bolalarda ancha susayadi. Konformlik maktabgacha yoshdagি bolalarda o‘z fikrini muvofiqlashtira olishga erishishda o‘tish davri hisoblanadi. Lekin ba’zi bolalarda u mustahkam o‘rnashib olib va shaxsning salbiy fazilatlariga aylanishi mumkin.

**O‘zaro baholar.** Bolalar o‘z tengdoshlariga berayotgan baholar dastlabki hollarda tarbiyachi bahosini oddiy takrorlanishidir. Uch-to‘rt yoshli bolalardan «Guruhda kim eng yaxshi bola?» deb so‘rashganda, «Lola, chunki u tez ovqatlanadi» yoki «Vali, chunki u aytganni qiladi» degan javobni beradi. Lekin sekinsta baholar ma’noga ega bo‘lib boradi. Har xil o‘yin turlarini biladigan, o‘rtoqlari bilan o‘yinchoqlarini bo‘lishadigan, zaif-

larni himoya qiladigan va hakozo bolalar ijobjiy baholanadigan bo'ladi.

To'rt-besh yoshdan boshlab, bolalar uchun guruh bahosi junda muhim bo'ladi. Ular o'zlarini tengdoshlari ma'qul topmaydigan harakatlardan tiyishga va ijobjiy munosabatga erishishga intiladilar. Bolalar bog'cha guruhida har bir bola, tengdoshlarini unga bo'lgan munosabatini bildiruvchi, aniq o'ringa ega bo'ladi. Katta shuhrat qozongan ikki-uch bola ajralib turadi: ular bilan ko'plar do'stlashishni, mashg'ulotlarda birga o'tirishni, ularga o'xshashni xohlashadi, ularning iltimoslarini mammuniyat bilan bajarishadi, o'yinchoqlarini bo'lishishadi. Shu bilan bir qatorda tengdoshlari umuman suymaydigan bolalar ham topildi. Ular bilan kam gaplashishadi, o'yinga qo'shishmaydi, ularga o'yinchoqlarini berishni xohlashmaydi. Bolalarning qolgan qismi bu ikki «qutb» orasida joy topgan. Bolani qanday qabul qilishlari ga sabab bo'ladigan bir necha omillar mavjud: uning bilimi, aqliy rivoji, fazilatlari, boshqa bolalar bilan aloqa o'rnatda olishi, tashqi ko'rinishi, jismoniy kuchi, chidamliligi va hokazo. Bolaning tengdoshlar guruhidagi o'rni ular tomonidan qanchalar qabul qilinganini, qanchalar e'tirof etilish xohishi amalga oshgan yoki oshmaganini ko'rsatadi.

**Bola shaxsining rivojlanishida irodaviy harakatlar va nutqning o'rni.** Maktabgacha yosh davri o'z xulq-atvorini, ichki va tashqi harakatlarini ongli tarzda boshqarish qobiliyati sifatida irodaning tarkib topish davridir. Ta'lim-tarbiya jarayonida kattalar va tengdoshlari ta'siri ostida bolada o'z xatti-harakatlarini boshqarish, maqsadga erishish ko'nikmalari shakllanadi. Bunda bola yuzaga kelgan qiyinchiliklarni yengib o'tishga harakat qiladi. Bola o'z holatini, masalan, mashg'ulotlarda tarbiyachi talab etganidek tinch o'tirish, qimirlayvermaslik kabi harakatlarni nazorat qilish malakalarini egallaydi.

Bog'cha yoshidagi bola o'z idroki, xotirasi, tafakkurini boshqara boshlaydi. Agar 3 yoshli bolaga muzda sirpanchiq uchayotgan bolalar tasvirlangan rasmni ko'rsatib, ulardan qaysi biri qo'lqopini yo'qotganligi so'ralsa (bolalardan biri qo'lqopsiz va qo'lqop qor ustida yotgani tasvirlangan) bola bunga javob bermaydi. Masalani

hal qilish uchun barcha rasmdagi figuralarni ketma-ket ko‘zdan kechirish lozim. Bolaning nigohi esa tartibsiz tarzda biridan ikkinchisiga sakrab ketadi, keyinchalik bola kattalar yordamida ixтиiyoriy idrok qilishga o‘rganadi va shunga o‘xshash masalalarni muvaffaqiyatli yechsa boshlaydi. Esda olib qolish va qayta esga tu-shirish boshqariladigan jarayonga aylana boradi. To‘rt yoshga yetganda bola o‘z oldiga kattalar topshirig‘ini yoki yoqimli she‘rni esda olib qolish maqsadini qo‘ya oladi. To‘rt yoshli bolalarda aqliy faoliyatni boshqarish qobiliyati kuzatiladi. Masalan, boshqotirmani hal qilishda ular qismlarni bir butun, yaxlit qilib birlash-tirishda sabr bilan turli xil variantlarni qo‘llab ko‘radilar, bunda ular bir variantdan izchil tarzda ikkinchisiga o‘ta oladilar.

Bu yoshda xulq-atvorni ongli ravishda boshqarish shaklla-na boshlaydi. Irodaviy harakatlar yuzaga kelishi bilan bir qator-da ixtiyorsiz, impulsiv harakatlar ham saqlanib qoladi. Irodaviy harakatlar genezisiga murojaat qiladigan bo‘lsak, maktabgacha davr mobaynida irodaviy harakatlar ham ularning umuman xulq-atvorida vazni ham o‘zgarib boradi. Kichik bog‘cha yoshida bolaning xulq-atvori deyarli butunlay impulsiv xatti-harakatlardan tashkil topsa, 4–5 yoshli bolalarda iroda namoyon qilish kuchayadi, biroq xulq-atvorda ular katta o‘rin egallamaydi. Faqat katta bog‘cha yoshida bola nisbatan irodaviy zo‘riqishlarga qobil bo‘la boshlaydi. Shunday qilib, irodaviy harakatlarning yuzaga kelishi va rivojlanishi xarakterli bo‘lib, xulq-atvorda ularni qo‘llash soha-si hamda egallagan o‘rni chegaralangan.

Bola irodasining rivojlanishi maktabgacha yosh davrida yuz beradigan xulq-atvor motivlarining o‘zgarishi bilan uzviy bog‘langan. Bola uchun eng muhim bo‘lgan motivlar guruhi-ning birinchi o‘rinda turishi shunga olib keladiki, bola qo‘yilgan maqsadga ongli tarzda erisha boshlaydi.

Maktabgacha yoshdagagi bolalar irodaviy harakatlarining rivoji-da o‘zaro bog‘liq 3 ta tomonni ajratib ko‘rsatish mumkin. Bular:

- 1) harakatlar maqsadga yo‘nalganligining rivojlanishi;
- 2) harakatlar maqsadi va motivi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘-liqligining o‘rnatalishi;
- 3) harakatlarni bajarishda nutqning boshqaruvchanlik roli-ning o‘sishi.

Maktabgacha yosh davrida harakatlar maqsadga yo'nal-ganligining tarkib topishida vazifani bajarish jarayonidagi muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik katta ahamiyat kasb etadi. Ular qiyinchiliklarni yengib o'tish va maqsadni ushlab turish davomiyligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Maqsadga erishishdagi omadsizlik bolani unchalik tashvishlantirmaydi. 4–5 yoshli bolalarda esa omadsizlik ularni quyushqondan chiqaradi; faoliyat muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan bo'lsa bolalar ishni oxirigacha yetkazishga intiladilar. Katta bog'cha yoshidagi bolalar ham o'zlarini shunday tutadilar. Hatto ularning ba'zilari ishga boshqacha munosabatda bo'la boshlaydilar, nima bo'lsa ham qiyinchiliklarni yengib o'tishga harakat qiladilar, o'z kuchlarini yana bir bor sinab ko'rishlari uchun imkon so'raydilar, yengilishdan bosh tortadilar.

Bog'cha yoshi davrida tarbiyachi ta'siri ostida bola o'z harakatlarini maqsaddan ancha yiroq motivlarga, xususan ijtimoiy xarakterdagi motivlarga (onasiga sovg'a qilish) bo'ysundirishga o'rgana boshlaydi. Bola irodasiga qarama-qarshi motivlar to'qnashish vaziyatlari alohida talablar qo'yadi. Bola bo'lishi mumkin bo'lган ikkita qarordan birini tanlashi zarur bo'ladi. Ushbu vaziyatda motivlar kurashi ro'y beradi va ulardan birining g'alabasi bilan yakunlanadi. 3 yoshli bola xulq-atvori qarama-qarshi turtkilarning to'qnashuvi sababli yuzaga keluvchi ichki nizolar bilan xarakterlanadi. Biroq bola ko'pincha ongsiz, tanlovsiz, kuchliroq turtki ta'siri ostida harakat qiladi. Ular uchun tanlov vaziyati juda murakkab bo'lib, bunday vaziyatga tushib qolgan bola biron-bir qaror qabul qilishga noqobil bo'ladi. Tanlov vaziyatida, masalan, o'yinchoqni tanlashda 4–5 yoshli bolalar o'zlarini boshqacharoq tutadilar. U qo'lini goh u o'yinchoqqa, goh bu o'yinchoqqa cho'zadi. Bunday holda juda sodda bo'lsa ham motivlar kurashi yuzaga keladi, bola qaysi bir o'yinchoqni olish haqida qarorga kelolmaydi. Tanlovga «ishbilarmenlik» bilan yondashuv, uzoq davom etmaydigan ikkilanishlar kuzatiladi. Bolalar o'z tanlovlarini asoslab, ayni vaqtda o'zlarida yo'q bo'lган va ega bo'lishni xohlayotgan narsani oladilar.

O'rta va katta yoshdagi bog'cha bolalarida ko'rindigan ba'zi iroda sifatlari (qat'iylik, mustaqillik kabi) ko'pincha epizodik xa-

rakter kasb etadi. Bu yoshdagи bolalar bajarayotgan ishlarida biron to'sqinlik uchrab qolsa, o'zлari mustaqil ravishda bartaraf qilishga urinadilar. Lekin bu ishning ular uchun og'irlilik qilayotganligi sezilib turadi. Shu sababli bunday to'sqinliklar chiqib qolgan paytda ular kattalarni yordamga chaqiradilar. Uzoqroq davom etadigan to'sqinliklarni yengishga bog'cha yoshidagi bolalarning sabrlari yetmaydi. Bajarayotgan ishlari ularni juda qiziqtirsa, ular uzoq davom etadigan to'sqinliklarni ham chidam bilan yengishga harakat qiladilar.

Bog'cha yoshidagi bolalar irodaviy harakatlarining rivojlanishida ular nutqining tobora o'sib borishi juda katta ahamiyatga ega. Tarbiyachilar va ota-onalar turli yoshdagи bolalarga og'zaki suratda turli xil vazifalarni topshiradilar. Bolalar ayni chog'dagi o'yinlari yoki boshqa qilayotgan ishlarini qo'yib, kattalarning topshirgan vazifalarini bajarishlari kerak. Ana shunday topshiriqlar berish orqali bolalarda ixtiyoriy harakatlarni o'stirib borish mumkin. Lekin og'zaki topshiriqlarni bog'cha yoshidagi hamma bolalar ham bir xilda bajaravermaydilar. Masalan, kichik yoshdagи bog'cha bolalari, ya'ni uch yoshli bolalar og'zaki berilgan topshiriqlarni xotiralarida uzoq vaqt saqlab turolmaydilar. Ular topshiriqni tezda unutib qo'yib, uning o'rniga o'zлari xohlagan ish bilan shug'ullanadilar. Bunday holat ularni tashvishlantirmaydi ham. Nutq asosan o'rta va katta guruh yoshidagi bolalar irodasini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bu yoshda bolalar topshiriqlarni ixtiyoriy ravishda bajarishda so'z orqali tushuntirib berilgan usullarga rioya qilishga intiladilar.

Bog'cha yoshidagi bolalar irodaviy harakatlarining rivojlanishida o'yin juda katta rol o'ynaydi. O'yin bolalar irodasini o'stiruvchi va mustahkamlovchi omillardan biridir. Bolalar o'zlarining turli-tuman o'yinlarida o'z oldilariga ma'lum maqsadlarni qo'yadilar, ba'zan uchrab qolgan to'sqinliklarni yengib, ko'zlagan maqsadlarni amalga oshirishga harakat qiladilar. Bog'cha yoshidagi bolalar irodaviy harakatlarini o'stirish va mustahkamlashda rollarga bo'linib o'ynaydigan hamda qoidali o'yinlarning ahamiyati g'oyat kattadir. O'yin qoidalariga rioya qilishda o'z iroda kuchini ishga solishga to'g'ri keladi, chunki bola o'yin paytida o'zining harakatlarini o'ynovchilarning

maqsadlari bilan moslashtirishi kerak. Kichik guruh bolalari esa buning uddasidan chiqa olmaydilar, ya'ni o'yin qoidalariga to'la rioya qila olmaydilar. Shuning uchun ular qoidali o'yinlarga qatnashganlarida juda sodda rollarni bajaradilar. Masalan, «poyezd» o'yinida faqat yo'lovchi (passajir) rolini o'ynaydilar.

Katta bog'cha yoshida aql bilan qaror chiqarish imkoniyatlari kengayadi, qaror qabul qilish ahamiyatli bo'lган motiv bilan belgilanadi. Bu esa o'z-o'zini boshqarishning rivojlanishi, vaziyat bilan bog'liq istak, his-tuyg'ular va ularning namoyon bo'lishini jilovlash malakalari taraqqiyotiga olib keladi va bola irodasini mustahkamlaydi.

### *Bola shaxsining shakllanishida o'yin faoliyatining ta'siri*

Kattalar va tengdoshlarning ta'siri asosan faoliyatda amalga oshiriladi. Bolalarning faoliyatini tashkillashtirib kattalar o'yin sujeti, rasmlar to'g'risida maslahat va ko'rsatmalar beradilar. Bolalarni tasvirlangan odamlarning o'zaro munosabati va ishi bilan tanishtiradilar, bolalarning ishi va harakatlariga ham ma'lum talab qo'yadilar, baholaydilar, faoliyat paytida vujudga keladigan qiyinchilik va nizolarni hal qilishga yordam beradilar. O'zaro birgalikdagi faoliyatda bolalar birlashadilar, bolalar jamoasi asosi bo'lган va uning a'zolarida shaxsni rivojlanishiga yordam beradigan o'zaro aloqaga kirishadilar.

Shaxsning rivojlanishida o'yin muhim rol o'ynaydi. Kattalar rolini o'z zimmasiga olayotib, ular faoliyatini va o'zaro munosabatlarini tasvirlayotib, bola ularga xos bo'lган qoida va axloq motivlari bilan tanishadi. Ulardan o'zaro muloqot paytida foydalanadilar. Masalan, ustaxonadagi ishchi rolini bajarayotib, bola o'z ishiga javobgarlik bilan yondashadi, shifokor rolini bajarayotib kasallarga jonkuyarlik va e'tiborlilik munosabatida bo'ladi va h.k..

O'yin bolalarni o'ziga jalb qiladi, ularni tasvirlanayotgan personajlar hissiy holatini – mayl, kasallarga, bolalarga hamdardlikni haqiqatdan ham qilishga majbur qiladi. O'yin davomida qo'g'irchoqlarga va o'yinchoq hayvonlarga bola muloyimlik bilan munosabatda bo'ladi. O'yinga qiziqish, rolni yaxshi bajarish istagi

bolalarda shunchalar yuqoriki, bunday sharoitlarda o‘zlar uchun murakkab, yoqimsiz harakatlarni bajaradilar, yoki boshqa xohishlarni qoniqtirishdan o‘zlarini tiyadilar. Maktab o‘quvchilarini tasvirlayotib, maktabgacha yoshdagi bolalar uzoq vaqt va hafsa-la bilan zerikarli, bir xil ish bilan shug‘ullanadilar, ya’ni bir xil harflarni bir necha marta ko‘chirish ular uchun qiziqarli emas. Sotuvchi rolini o‘ynayotib, besh yoshli qizaloq o‘z tasarrufidagi pechenyelarni yemaydi, chunki bu xaridorlarga tegishlidir, sotuv-chi manfaatlariga zid.

Lekin o‘yin davomida erishilgan yutuqlar bolalar tomonidan boshqa sharoitlarga, kundalik xulq-atvorlariga bevosita ko‘chirilishi mumkin deb o‘ylash noto‘g‘ri. Shifokor rolda bemor qizga g‘amxo‘rlik qilayotgan bola, o‘yin tugagandan so‘ng shu qizdan, ko‘z yoshlariga ahamiyat bermay o‘yinchoqni tortib olayotganini ko‘pincha ko‘rish mumkin.

O‘z zimmasiga rol olish tufayli bolalar ma’lum xulq-atvor motivlari, kattalar harakati, hissiyotlari bilan tanishadilar. O‘yin bolalarni faqat mazmuni, tavsirlanadigan rollari tomoni bilan tarbiyalamaydi. O‘yin xususida bo‘lgan real munosabatlar paytida, o‘yin mazmunini muhokama qilishda, rollarni, o‘yin materiallarini bo‘lishishda bolalar o‘z o‘rtog‘ining qiziqishlarini inobatga olishni, unga hamdard bo‘lishni, yon berishni, umumiyl ishga o‘z hissasini qo‘shishni o‘rganadilar. Bolalar orasida o‘yinni kim tashkillashtirishi yoki o‘tkazishi xususida nizo chiqadi. Bunday nizo sababi, odatda, o‘z reja va harakatlarini muvofiqlashtira olmaslikning natijasidir. Bunday holda yordamga tarbiyachi keladi.

O‘yin qancha murakkab bo‘lsa, qatnashchilar soni ko‘p bo‘lsa, mazmuni ular orasida birdamlikni, bog‘liqlikni talab qilsa, tarbiyachini bolalar xulqiga, o‘zaro munosabatlariga, ularning harakatlarini muvofiqlashtirishga bo‘lgan talabi ham shuncha katta bo‘ladi. Shuning uchun o‘yinning murakkabligi bilan maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining rivojlanishidagi ahamiyati ham oshadi.

Aksariyat o‘yinlarda turli xil bolalar tomonidan ijro etiladigan rollar bir xil bo‘lmaydi. Asosiy rollar (kapitan, shifokor, tarbiyachi ayol) va ikkinchi darajali (matros va yo‘lovchilar, hamshiralar, sanitarlar va bemorlar, enaga va bolalar) rollar bo‘ladi.

Asosiy rollar ko‘proq e’tiborga ega bo‘lganligi uchun, ular bolalarni o‘ziga ko‘proq jalb qiladi. Bola yolg‘iz o‘ynayotganda va boshqa personajlarni, qo‘g‘irchoqlarni aks ettirayotganda asosiy rolni albatta o‘ziga oladi. O‘yinda bir necha bola qatnashayotganda esa, tabiiyki, ularning bari asosiy rolga da’vo qila olmaydilar. Odatda, bolalar bog‘cha guruuhlaridanoq o‘yin o‘ylab topadigan va uni tashkillashtiradigan, rol bo‘lishni boshqaradigan, bolalariga kerakli harakatlarda yo‘l ko‘rsatadigan bolalar ajralib turadilar. Ular odatda asosiy rolni ijro etadilar, yoki uni olishni xohlagan boshqa bolaga beradilar.

Bu o‘yin bilan bog‘liq bo‘lgan real munosabatlar qanday ruhda kechishi, bunday «yo‘lboshchilarni» axloq xususiyatlariga, ular qanday yo‘llar bilan o‘z talablari bajarilishiga erishishlariga yetarli darajada bog‘liq bo‘ladi. Bunday vaziyatlarda alohida e’tibor, mehr qozongan, tengdoshlari bilan kelisha oladigan, ularning istaklarini hisobga oladigan, tushunmovchiliklarni bartaraf etadigan bolalar bo‘lishi mumkin. Boshqa hollarda esa «yo‘lboshchi» sifatida buyruq berishga intiladigan, boshqalarni bo‘ysundiradigan, buyruq beradigan, jismoniy ta’sir o‘tkazadigan bolalar paydo bo‘ladi.

O‘yin orqali bolalar orasida bunday munosabatlarni tashkil-lashtirish tarbiyachiga bog‘liq. Ular bola shaxsining rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Zarur paytda tarbiyachi bolalarga o‘yin mazmunida yordam beradi, rollar taqsimlanishini tekshirib boradi (ba’zida aralashish kerak bo‘ladi), bolalar kelishib harakat qilishlarini kuzatib boradi. Bolalar asta-sekin oddiy qatnashuvchilardan o‘zaro munosabatlar talab qiladigan, bir-birlari bilan ko‘proq maslahatlashishga majburlaydigan o‘yinlarga o‘tishi lozim. O‘yin «yo‘lboshchilari»ga alohida e’tibor berish zarur. Boshqa bolalar ularga taqlid qilganliklari sababli ularning harakatlarini boshqarish kerak.

### *Kichik va o‘rta bog‘cha yoshidagi bola axloqiy motivlarining umumiy xususiyatlari*

Bolaning axloq motivlari butun bolalik davri davomida jiddiy o‘zgaradi. Maktabgacha kichik yoshdagi bola, his-tuyg‘ulari va istaklari ta’sirida harakat qiladi. Ular turli xil sabablar tufayli paydo bo‘ladi, bola o‘z harakatlari haqida, uni u yoki bu ish-

ni qilishga nima majbur qilganligi haqida o‘ziga hisob bermaydi. Maktabgacha katta yoshdagи bola harakatlarni ko‘proq anglagan holda amalgа oshiradi. Ko‘p hollarda u nega boshqacha emas ayanan shunday ish qilganini zehni bilan tushuntirib beroladi. Uch yoshli bola tovuqlarga donni ularning hamma yoqdan yugurib kelib bir yerda to‘planishlarini va cho‘qilab yeyishlarini ko‘rish uchun bersa, olti yoshli bola buni onasiga uy ishlarida yordam bo‘lsin deb qiladi.

Bularga asoslanib, butun maktabgacha yoshga xos bo‘lgan va bola xulqiga katta ta’sir ko‘rsatuvchi motivlarni bir necha turlarga ajratish mumkin. Bu birinchi navbatda bolalarning kattalar dunyosiga qiziqishi, ularni kattalardek harakatlarga intilishi bilan bog‘liq. Bolani katta yoshli odamga o‘xhash xohishi mazmunlirolli o‘yinlar orqali amalgа oshiriladi. Bunday xohish ko‘pincha bolani kundalik hayotda u yoki bu talabni bajarishiga erishish quroli sifatida foydalaniladi. «Sen katta bolasan, kattalar o‘zi kiyinadi» deyish, bolani mustaqil harakat qilishga undaydi. «Kattalar yig‘lamaydi» degan gap bola ko‘z yoshini tutishi uchun kuchli turtki bo‘ladi.

Bolalar xulqida doim namoyon bo‘ladigan motivlarning yana bir guruhi bu o‘yin, o‘yin jarayonining o‘ziga bo‘lgan qiziqish bilan bog‘liq motivlardir. Bu motivlar o‘yin faoliyatini egallash mobaynida yuzaga keladi va kattalardek harakat qilish ishtiyoqi bilan chatishib ketadi. O‘yin faoliyatidan chetga chiqqan holda ular bolani butun axloqini yo‘lga soladi va maktabgacha yosh davrining qaytarilmas o‘ziga xosligini yuzaga keltiradi. Har qanday ishni bola o‘yinga aylantirishi mumkin. Kattalar bola jiddiy mehnat bilan band va qunt bilan biron nimani o‘rganayapti deb o‘ylagan paytda, bola aslida o‘zi xayolida vaziyat yaratib o‘ynayotgan bo‘ladi. Masalan, psixologik tadqiqot vaqtida bolalarga to‘rt predmet tasviridan (odam, sher, ot va arava) «ortiqchasini» ajratish so‘raldi. Bolalar sherda to‘xtadilar va o‘z tanlovlарini shunday izohladir: «Amaki otni aravaga qo‘sadi va haydar ketadi, sher unga nimaga kerak bo‘ladi? Sher uni o‘zini ham, otni ham yeb qo‘yishi mumkin, uni hayvonot bog‘iga jo‘natish kerak».

Kichik va o‘rta bog‘cha yoshidagi bola xulqida kattalar va boshqa bolalar bilan ijobiy munosabatlar o‘rnatish va ularni saqlab

qolish motivlari katta ahamiyatga ega. Bola atrofdagilar bilan yaxshi munosabatda bo‘lishni xohlaydi, bu bola uchun juda zarurdir. Kattalarning erkalatishlariga, ma‘qullashlariga, maqtoviga erishish xohishi bola xulqining asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Bolalarning ba’zi harakatlarini shu xohish bilan izohlash mumkin. Kattalarning ijobjiy munosabatiga intilish bolani ular fikri va baholari bilan hisoblashishiga, ular tomonidan o‘rnatilgan axloq qoidalarini bajarishga majbur qiladi.

Tengdoshlari bilan aloqa kuchaygani sari bola munosabati doirasi murakkablashib boradi. Uch yoshli bola birinchi marta bolalar bog‘chasiga kelganda, u bir necha oy davomida boshqa bolalarni sezmasligi, xuddi ular yo‘qdek harakat qilishi mumkin. Masalan, o‘tirishni istasa, boshqa bola o‘tirgan stulni tortib olishi mumkin. Lekin vaqt o‘tgan sari holat o‘zgaradi. O‘zaro faoliyatda bo‘lish, bolalar jamoasining shakllanishi, tengdoshlarining ijobjiy bahosi va ularni e’tiboriga erishish bola axloq motivlarini ijobjiy tomonga o‘zgartiradi.

O‘z shaxsiyatini namoyon qilish, izzattalablik motivlari kichik va o‘rta bog‘cha yoshi davrida ko‘rina boshlaydi. Maktabgacha yosh davrida o‘zini boshqa odamlardan ajratish, katta yoshli odamga munosabatda bo‘lgandek muomala qilishni xohlaydi. Kattalarning ishga borishi, bola ko‘z o‘ngida mehnat turlari bilan shug‘ullanishi, o‘zaro munosabatlarga kirishishi, shuningdek, uni, bolani tarbiyalashlari, talablar qo‘yib ularning bajarilishiga erishishlarini kuzatadi, ko‘radi. Bola uni ham boshqalar hurmat qilishlariga va quloq solishlariga, unga e’tibor berishlariga, uni istaklarini amalga oshirishlariga da‘vo qila boshlaydi. O‘yin faoliyatida ham bosh rolni ijro etish talabi o‘z shaxsiyatini namoyon qilishning ko‘rinishidir. Bolalar ko‘pincha bola rolini ijro etishni yoqtirmaydilar. Hurmat va obro‘ qozongan katta yoshli odam roli doimo ularni o‘ziga jalg qiladi. Hayotga mos kelishi yoki kelmasligi haqida o‘ylamasdan ham o‘zlarida jasurlik, kuch va boshqa xislatlarni keragidan bo‘ttirib ko‘rsatadilar. Kuchi haqida berilgan savolga, bola albatta kuchliman, hattoki «filni» ko‘tara olaman, deb javob beradi.

O‘z shaxsiyatini namoyon qilishga intilish ayrim hollarda injiqlik va qaysarlik kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalar injiqliklari uch yoshli bolalarning krizis paytida uchraydigan negativizmni juda ham eslatadi. Injiqliklar ko‘pincha bolaga bu davrda noto‘g‘ri yondashuv, yuzaga kelgan salbiy munosabatlarning oqibati hisoblanadi. Lekin injiqlikning psixologik tabiatи «krizis» shaklidan farq qiladi. Krizis paytida bola o‘z mustaqilligiga qat’iy ishontirmoqchi bo‘ladi. Injiqlik esa barchaning e’tiborini o‘ziga qaratish, kattalardan «ustun» kelish usulidir. Ko‘pincha zaiflashgan, tashabbuskor bo‘lmagan bolalar injiq bo‘lib qoladilar. Ular o‘z shaxsiyatlarini namoyon qilish istagini boshqa yo‘l bilan, ayniqsa tengdoshlar bilan suhbatda qoniqtira olmaydilar.

Kichik va o‘rtta bog‘cha yoshi davrida bolalar faoliyatini mu-rakkablashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan motivlarning yangi turi shakllanadi. Ularga bilim olishga intilishning o‘zaro raqobatchilik motivlari kiradi. Bola uch-to‘rt yoshidayoq atrofdagilarni savollarga ko‘mib tashlashi mumkin: «Bu nima?»; «Qanday qilib?»; «Nima uchun?» va h.k.. Keyinchalik «Nimaga?» degan savol ko‘p uchraydigan bo‘ladi. Bolalar ko‘pincha faqat savol bermaydilar, balki o‘zları ham unga javob topishga, kichik tajribalari bilan tushunarsiz narsalarni izohlashga, gohida hattoki «eksperiment» o‘tkazishga ham harakat qiladilar. Barchaga yaxshi ma’lumki, bolalar o‘yinchoqlarni «ichida nima borligini bilishga» urinib, «ichak-chavog‘ini olib tashlashni» yoqtiradilar.

Bunday dalilni maktabgacha yoshdagi bolalarga xos bo‘lgan qiziquvchanlik belgisi deb hisoblashadi. Aslida esa bolalarning savollari ularni bilimga qiziqishini, atrof-muhit haqida biron yangi ma’lumot olishga intilishini bildirmaydi. Kichik va o‘rta yoshdagi bolalar beradigan savollarning aksariyat qismi kattalar e’tiborini o‘ziga tortishni, ularni suhbatga chorlashni, ular bilan vujudga kelgan kechinmalarni bo‘lishishni maqsad qiladi. Bolalar ko‘p hollarda o‘z savollariga javobni kutmaydilar va oxirigacha eshitmaydilar, katta yoshli odamning gapini bo‘lib, yangi savolla ga o‘tib ketadilar. Faqatgina unga o‘rgatuvchi, turli xil bilimlarni yetkazuvchi, shu bilan birga savollarga asosli va tushunarli tarzda javob beruvchi kattalar ta’siri ostida, bola asta-sekinlik bilan atrof-muhitga ko‘proq qiziqishni, yangi narsalar haqida bilishga intilishni boshlaydi.

### **Nazorat savollari:**

1. Kichik va o‘rta bog‘cha yoshida bola shaxsining shakllanishida ijtimoiy muhitning o‘rni nimada namoyon bo‘ladi?
2. Kichik va o‘rta yosh davrida boshqa bolalar bilan o‘zaro munosabat qoidalari nimalardan iborat?
3. Bolalarning tengoshlari bilan munosabatlari qanday kechadi?
4. Bola shaxsining rivojlanishida irodaviy harakatlar va nutqning qanday o‘rni bor?
5. Bola shaxsining shakllanishiga o‘yin faoliyatining ta’siri nimada?
6. Bolaning axloq motivlari butun bolalik davri davomida qanday o‘zgaradi?

### **9.3. Katta bog‘cha yoshda (5–7 yosh) shaxsning shakllanishi.**

#### **Maktabgacha yoshda o‘z-o‘zini anglash**

Maktabgacha yoshda axloq motivlarining rivojlanish yo‘llaridan biri bu ongning yuksalishidir. 5–7 yoshga kelib bola o‘zidagi faoliyatga undovchi kuch va o‘z harakatlarining oqibati haqida borgan sari aniqroq hisob bera boshlaydi. Bu bolada o‘zini anglash xislati rivojlanayotganini bildiradi, ya’ni u o‘zi kim ekanligi, qanday fazilatlarga ega ekanligi, atrofdagilar unga qanday munosabatda ekanligi va bu munosabat nima bilan izohlanishini tushunadi. Bu xislat o‘z yutuq va omadsizliklarini, o‘z fazilatlari va imkoniyatlarini bola qanday baholashida, yana-da kuchli namoyon bo‘ladi.

O‘zligini anglash zamirida katta bog‘cha yoshining oxirlarida sodir bo‘ladigan, boshqa odamlardan o‘zini ajratish yotadi. Katta bog‘cha yoshiga kelib, bola o‘z fazilatlari haqida hech nima bilmasada, o‘zining mavjudligini his qiladi. Katta bog‘cha yoshidagi bolada hali o‘zi haqida asosli va to‘g‘ri fikr mavjud emas. Bola kattalar tomonidan ma’qullanadigan ijobiy xislatlarni ko‘r-ko‘rona o‘zlashtiradi. O‘zini tartibli deb hisoblaydigan boladan, «Tartiblilik nima?» – deb so‘ralganda: «Men qo‘rmayman» deb javob beradi. Boshqa o‘zini tartibliliqi haqida gapirgan bolalar ham bu savolga: «Bilmayman», – deb javob beradilar. O‘zini to‘g‘ri baholashga o‘rganish uchun, bola avval boshqalarni, atrofdagi odam-

larni baholashni o'rganishi kerak. Bu esa darhol amalga oshmaydi. Bu davrda bola tengdoshlarini baholayotib, kattalarni ular haqida aytgan fikrini takrorlaydi. O'zini baholashda ham bu holat takrorlanadi: «Men yaxshi bolaman, oyim shunday deydilar».

Bolani boshqalarning harakatlari va fazilatlarini mustaqil baholashi, uning ularga bo'lgan munosabatiga bog'liq bo'ladi. Bu asosan hikoya personajlari harakatlarini baholashda ko'proq bilinadi. Ijobiy qahramonning har qanday harakati ijobiy baholanaadi, «salbiy» qahramon esa salbiy baholanaadi. Lekin sekin-asta personajlar harakati va fazilatlarini bahosi ularga bo'lgan umumiy munosabatdan ajraladi, va vaziyatni bu harakat va fazilatlarga ega bo'lgan ma'noni anglash asosida quriladi. «Uycha» ertagini eshitgach, bola savollarga quyidagicha javob beradi: «Ayiq yaxshi ish qildimi?», «Yo'q, yomon». «Nima uchun yomon?», «Chunki u uychani ezib tashladi». «Senga ayiq o'zi yoqadimi?», «Yoqadi». «Men ayiqchalarni yaxshi ko'raman».

O'zlashtirilgan axloq qoidalari bolaning boshqalarni baholashida foydalanadigan me'yirlarga aylanib qoladi. Lekin bu me'yorlarni o'zida qo'llashi ancha murakkab kechadi. Bolani qamrab olgan, uni u yoki bu harakatni amalga oshirishga undovchi kechinmalar, undan bajarayotgan harakatining asl mazmunini yashiradi, ularni beg'araz baholashiga yo'l qo'ymaydi. Bunday beg'araz baho faqatgina o'z harakatlari va imkoniyatlarini boshqalar harakati, fazilati va imkoniyatlari bilan taqqoslaganda amalga oshishi mumkin. O'zini boshqalar bilan taqqoslay olish bilan bola katta bog'cha yoshiga kelib to'g'ri baholash mala-kasiga ega bo'ladi.

Katta bog'cha yoshidagi bolalar o'z afzalliklari va kamchiliklarini yaxshi biladilar hamda atrofdagilarning bunga munosabatini inobatga oladilar. Bu bolada shaxsning rivojlanishida, axloq motivlarini o'zlashtirishida, ijobiy axloq namunalariga ergashishida katta ahamiyatga ega bo'ladi. Shu bilan birga bola atrofdagilarni u yoki bu harakatiga va fazilatiga bo'lgan munosabatidan biror maqsadda foydalanishga qodir bo'ladi. Bolalar bu yoshda, ko'pincha qaysarlik axloq me'yorlarining buzilishi ekanligini yaxshi biladilar va ularga yon beradigan kattalarga ataylab qaysarlik qiladilar. Bola o'z onasiga bolalik xislatlarini ko'rsatgan

holda, bola rolini o‘ynashi mumkin. Bu onada mehr uyg‘onishiga va ko‘ngli yumshashiga olib keladi va bola shu tariqa turli xil xur-sandchiliklarga erishadi.

Bu yoshda bola ataylab o‘z foydasiga yolg‘on gapirishi, hasad yomon xislat ekanligini bilib, atrofdagilardan yashirinchcha hasad qilishi mumkin. Ammo maktabgacha yoshdagি bola o‘zining ijobiy xislatlari va kamchiliklariga uzoq ahamiyat bermaydi. Bola-da tahlil qilish kerakli darajada rivojlangan bo‘lsada, u ko‘proq o‘ziga emas, boshqa shaxslarga qaratilgan bo‘ladi.

Katta bog‘cha yoshiga kelib bola o‘z shaxsiyatining o‘tmishiga qiziqa boshlaydi. «Men kichkinaligimda qanday edim, gapirib bering?» kabi savollarni bera boshlaydi. O‘z o‘tmishiga tushunish, ko‘ngilchanlik bilan munosabatda bo‘lish ko‘rina boshlaydi. Shu bilan birga o‘z shaxsining kelajagi haqida ijobiy fikrlar bildirilishini istaydi. «Men katta bo‘lganimda...». Bu davrda kelajakka, hozirgi va o‘tgan zamonga bo‘lgan qiziqish borgan sari oshib va chuqurlashib boradi. Endi u kattalarga o‘zi haqida gapirib berishlarini so‘rabgina murojaat qilmaydi, balki o‘zi ham o‘zi haqida eslaydi. O‘zining o‘tmishdagi ishlarini u xolis muhokama qiladi, bu unga o‘zi haqida tanqidiy fikr bildirishiga imkon beradi. Bola uchun uning o‘tmishi, hozirgi kuni va kelajagi hayotda o‘z o‘rnini anglash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi va o‘zini o‘tmishdagi hayotida baholash va keljakni tasavvur qilish imkonini beradi. Bola hayotida istiqbol rejalarining paydo bo‘lishi uning motivatsiya darajasining oshishiga imkon beradi va bu o‘z navbatida uning shaxsining rivojlanishini belgilaydi. U albatta yaxshi, mehribon va omadli bo‘ladi. Agar u o‘g‘il bola bo‘lsa, kuchli, erkin, aqli bola, agar qiz bola bo‘lsa, chiroyli, dono qiz bo‘ladi. U shubha-siz doim o‘z yaqinlariga g‘amxo‘rlik ko‘rsatadi, o‘z onasini doim yaxshi ko‘radi. U yer yuzida doim tinchlik bo‘lishi, hamma sog‘ va baxtli bo‘lishi uchun hamma ishni qiladi. U kosmonavt, shifokor, bog‘bon va hattoki sehrgar ham bo‘ladi. Shaxs xislatlari to‘g‘ri rivojlanayotgan bola ezgu maqsadlarga boy bo‘ladi, bu unga bugundan boshlab atrofdagilarga nisbatan yaxshi munosabatda bo‘lishiga va o‘zini ijobiy baholashiga asos bo‘ladi.

**Bola shaxsining ma’naviy jihatdan shakllanishida ijobiy va salbiy xususiyatlarning o‘rni.** Bola shaxsining ma’naviy rivojlanishi

quyidagilardan tashkil topgan: axloq me'yorlarini bilish, axloqiy odatlar, axloq me'yorlariga bo'lgan emotsiyal munosabat va bolaning o'zining ichki holati.

Bola shaxsining to'g'ri shakllanishi uchun, birinchi navbatda, axloqiy me'yorlarni bilishi katta ahamiyat kasb etadi. Ilk va mакtabgacha yosh davrida bola atrofidagi insonlar (kattalar, tengdoshlar va boshqa yoshdagi bolalar) bilan muloqot orqali axloqning ijtimoiy me'yorlarini egallaydi. Me'yorlarni egallash, birinchidan, bola uni tushuna boshlashi hamda mohiyatiga yeta boshlashini nazarda tutadi. Me'yorlarni egallash, ikkinchidan, bolaning keyinchalik boshqa insonlar bilan muloqoti davomida axloqiy odatlari paydo bo'la boshlaydi. Bola emotsiyal his qilinadigan odatiy qilmishlarini buzgan holda harakat qilsa, bu unda noqulaylikni keltirib chiqaradi. Me'yorlarni egallash, uchinchidan, bolaning ushbu me'yorlarga bo'lgan ma'lum bir psixik munosabatga kirishishini ifodalaydi. Axloqiy me'yorlar va ularni bajarishga bo'lgan aqliy va axloqiy munosabat bolalarda kattalar bilan muloqot davomida rivojlanadi. Katta odamlar bolalarga ma'lum bir axloqiy xatti-harakatning to'g'riliги yoki kerakligi haqidagi fikrlashga yordam beradilar, katta odamlar bolaning ma'lum bir xatti-harakatiga nisbatan o'z munosabati bilan ko'rsatma beradi. Katta odamlarga hissiy bog'liqlik zamirida bolada tan olinishga intilish rivojlanadi.

Kattalar tomonidan tan olinishga intilish va tan olinish bolanning eng muhim ehtiyojlaridan biridir. Uning jamiyat ijtimoiy talablariga javob berishi o'z yutuqlariga yuqori baho berilishiga bo'lgan intilishiga asoslanadi. Katta bog'cha yoshida yangi ijtimoiy mazmundagi harakat va faoliyatga bo'lgan motivlarning ko'rinishi sodir bo'ladi. Bu davrda butun motivatsion soha qayta quriladi, shu jumladan tan olinishga bo'lgan ehtiyojning vujudga kelishi o'zgaradi. Bolalar o'zlarining intilishlarini yashira boshlaydilar, o'z-o'zini ochiq maqtash kamdan kam hollardagina uchraydi. Tan olinishga bo'lgan intilishning amalga oshirilmasiligi, bola ataylab yolg'onni o'ylab topishi yoki maqtanishi kabi noma'qul xatti-harakat turlariga olib kelishi mumkin.

Maktabgacha yoshda tan olinishga bo'lgan ehtiyoj boladagi o'z axloqiy sifatlariga ishonch hosil qilishida ko'rinadi. Bo-

la o‘zining kelgusi harakatlariga nisbatan boshqalarning munosabatini tasavvur qiladi va bunda u insonlar undan minnatdor bo‘lishlari, uning yaxshi ishlarini tan olishlarini xohlaydi. Tan olinishga bo‘lgan intilishni amalga oshirishga ehtiyoj bolalarning o‘z faoliyatları natijalarini hamda shaxsiy yutuqlarini bahołash maqsadida kattalarga yanada ko‘proq murojaat qilishlarida ko‘rinadi. Bunday holatda bolani qo‘llab-quvvatlash juda muhim. Bolaga hech qachon: «Sen buni qila olmaysan», «Sen buni bilmaysan», «Qo‘lingdan kelmaydi», «Bekorchi savollar bilan boshimni qotirma» va hokazo qabilidagi iboralarni qo‘llamaslik kerak. Kattalarning bunday hurmatsiz iboralari bolada o‘z imkoniyatlariga nisbatan ishonchszlikni keltirib chiqaradi. Bolada nomukammallik kompleksi, o‘zining ojizligi hissi paydo bo‘ladi. Nomukammallik kompleksi – insonning eng murakkab axloqiy kamchiliklaridan biri bo‘lib u boshqa insonlar bilan muloqotga kirishishni murakkablashtiradi hamda og‘ir ichki hissiyotini keltirib chiqaradi.

### *O‘g‘il va qiz bolalar*

**Bolani jinsiy identifikatsiyasida kattalarning tutgan o‘rni.** Bolani o‘z mohiyatini tushunishida uning kattalar bilan aloqasi katta ahamiyatga ega. Bu aloqa unda buyumlar dunyosiga, barcha tirik mavjudodlarga, odamlarga va o‘ziga bo‘lgan ma’lum munosabatga qaratiladi. Kattalar bola uchun o‘zi haqidagi ma’lumot manbai bo‘lib xizmat qiladi. Ular bolaga o‘zini qaysi jinsga mansubligini aniqlashda ham yordam beradilar.

Ilk yoshning oxirlarida bola o‘z jinsini tushunadi, lekin hali «o‘g‘il» yoki «qiz bola» so‘zlari qanday ma’noga ega ekanligini bilmaydi. Kattalar ongli yoki ongsiz ravishda, bolaga hamma qabul qilgan andaza tarzida o‘g‘il yoki qiz bola nima ekanligini tushuntiradilar. O‘g‘il bolalarga jahlni ko‘proq namoyon qilishga ruxsat beradilar, faollikni va tashabbuskorlikni qo‘llab-quvvatlaydilar, qiz bolalardan samimiylilik, emotsionallik va ta’sirchanlikni kutadilar. Bolada o‘z jinsining ahamiyati haqidagi tushuncha asosan oilada hosil qilinadi. Har bir ota-onan o‘z jinsining xususiyatlari haqida ma’lumotlarga ega bo‘ladi. Masalan, samimiylilik, ta’sirchanlik va emotsionallik ayollarga xos

fazilat; jasurlik, qat’iyatlilik, dadillik erkaklar ega bo‘lgan fazilatlardir.

Xalqlar madaniyatida bola tarbiyalashda qo’llaniladigan mustahkam qoliplar mavjud. Kichkina bolaga: «Yig‘lama. Qiz bolamas, o‘g‘il bolasan» deyishadi. Shundan keyin bola ko‘z yosh to‘kmaslikni o‘rganadi. Qizlarga: «Urishma, devor, daraxtlarga chiqma. Sen qiz bolasan» deb o‘rgatishadi. O‘yinqaroq qiz o‘zini tiyishiga to‘g‘ri keladi, nima qilsa ham qiz bolada! Jinsga qarab xulq-atvor qoidalarini belgilash shundan boshlanadi.

Bevosita erkak va ayollar xulq-atvorini kuzatish orqali, va shuningdek, san’at orqali bola psixologiyasiga ayol va erkakning yurish-turish tarzi singib boradi. Birinchi navbatda bola ayol va erkaklarning kiyimida va o‘zini tutishida tashqi farqni aniqlaydi. Insonning shaxsiy xususiyatlarini bola ba’zida ma’lum jins xislati deb qabul qiladi. Masalan, kuzatishlarda besh yoshli o‘g‘il bola tanish bo‘lgan yosh erkak kishiga taqlid qila boshlaydi, bolaning bunga g‘oyatda berilganini ko‘rgan erkak kishi hazillashib: «Haqiqiy erkak, mana bunday qilishi kerak» deb chaqqonlik bilan va ko‘z zo‘rg‘a ilg‘aydigan harakat bilan boshini orqaga tashlaydi. Haqiqiy erkakni bunday fazilatidan hayratlangan bola boshini uzlusiz orqaga tashlaydigan bo‘ladi.

Bola barcha narsaga taqlid qiladi: atrofdagilarga foyda keltiradigan axloq qoidalari turlariga, kattalar uchun andaza bo‘lib qolgan ijtimoiy zararli odatlarga (so‘kishlar, chekish va boshqalar). Bola hali bu «botirlik ramzlaridan» amalda foydalanmasada, ularni o‘yin mundarijasiga kiritadi.

**Jinsga mansublik va o‘yinda rol tanlash.** Maktabgacha yosha o‘g‘il va qiz bolalarning o‘zaro munosabatlarida farq paydo bo‘ladi va rivojiana boshlaydi va o‘z jinsiga mansub bolalarga nisbatan go‘yo samimiyadolatsizlik aniqlanadi: o‘g‘il bola o‘g‘il bolalarni tanlaydi, qiz bola qizlarni. O‘zligini anglash rivojlandi va uning asosiy tarkibiy qismi sifatida o‘zini o‘g‘il bola – erkak yoki qiz bola – ayol sifatida his qilish paydo bo‘ladi.

«Oila» o‘yinini o‘ynashda ham bolalar o‘z jinslaridan kelib chiqqan holda rol tanlaydilar. O‘yin paytida bolaning emotsiyalligi namoyon bo‘ladi va ayol yoki erkakka mos keluvchi yurish-turish tarzi o‘rganiladi. Qiz bolalar yuzaga kelgan vaziyatga

tezroq ko‘nikadilar, yangi sharoitga xotirjamroq, tezroq va oson-roq kirishadilar. O‘g‘il bolalar ko‘p shovqin ko‘tarishadi. Rolli o‘yinlarda o‘g‘il bolalar kattalarga taqlid qilib, haydovchi, kos-monavt, harbiy askarlar rolini tanlaydilar, qizlar bo‘lsa ona, shifokor, tarbiyachi rolini o‘zlariga oladilar.

Tanlangan rollar har xil jinsdagisi bolalarning ijtimoiy intilishlarini aks ettiradi. O‘g‘il bolalar qiziqishlari texnikaga, g‘alabaga, yutuqqa va peshqadamlikka yo‘naltirilgan musobaqa o‘yinlariga qaratilgan. Kuchli, jasur va tashabbuskorlarni o‘g‘il bolalar lider deb qabul qiladilar. Oila muhiti o‘yinlari ko‘pincha qiz bolalar o‘yinida aks etadi. Qiz bolalarning qiziqishlari ko‘proq shaxslararo munosabatlarga qaratilgan. Qizlar yumshoq fe’lli, quvnoq va ko‘ngilchan tengdosh qizlarni yoqtirishadi.

**Jinsga mansublik va o‘yinchoq tanlash.** O‘yinchoqlar o‘yinning tayanch materiali bo‘lib xizmat qiladi, o‘yin sujetining rivojlanishiga yordam beradi va ularni tanlash bolalarning qaysi jinsga mansubligiga ko‘ra amalga oshiriladi.

Maxsus tajriba vaqtida bolalarga to‘rt xil to‘plamdagagi o‘yinchoqlardan ikkitasini erkin tanlash sharti taklif qilindi. To‘rt patnisda quyidagi o‘yinchoqlar turi taklif qilindi: mashina, turli idish-tovoqlar, kubiklar, qo‘g‘irchoqlar. Boladan barcha o‘yinchoqlarga nom berishni, ko‘proq yoqtirgan o‘yinchoqlar joylashgan ikki patnisni olishni va bu o‘yinchoqlarni o‘ynash so‘raldi. Ularning barcha harakatlari yozib borildi. Oqibatda o‘g‘il va qiz bolalarda to‘rt yoshdan boshlab, o‘yinchoq tanlashda farq yuzaga kelishi aniqlandi. Mashina, kubiklar asosan o‘g‘il bolalar tomonidan, qo‘g‘irchoq va turli idishlar qizlar tomonidan tanlanshi ma’lum bo‘ldi.

Maktabgacha davr oxiriga kelib bola jinsga mansublik abadiy ekanligini tushunadi va shunga qarab o‘z xulqini shakllantiradi. Bu vaqtda bolalarda boshqa jinsdagilarga nisbatan o‘ziga xos munosabat yuzaga keladi. Bunday munosabatlar har bir bolada o‘ziga xos ko‘rinishda bo‘ladi. Masalan, o‘g‘il bola tengdosh qizni yoki kattaroq yoshdagagi chiroyli qizni ko‘rganda, xursand bo‘lishi, munosabatga intilishi mumkin. Kattalar bolaning his-tuyg‘ulariga hurmat bilan qarashlari lozim. Bunday instinctlar kichik yoshdayoq ko‘zga tashlanadi. Chiroyli qizlarni sochidan tortish, o‘ziga

yoqqan qizni himoya qilish, avaylash, mehr ko'rsatish kabilar tabiiy ravishda shakllanib boradi. Kattalarning «Guruhiingda eng chiroyli qiz kim?» kabi savollari ham bunga turtki bo'ladi. Lekin bolaning qiziquvchanligini kuchaytirib yuborish ham to'g'ri emas, aksincha, uning e'tiborini boshqa narsaga, uning tuyg'ulari va xayolini yangi kuch bilan o'ziga jalb qila oladigan narsaga qaratish lozim.

Yosh bolalarga xos qiziquvchanlik, yoqtirish maylini kattalarning sevgi, uylanish va bolalik bo'lish haqidagi tushunchalaridan ajrata olish lozim.

**O'z jinsini ajratish.** Bolada bu yoshga kelib odam tanasiga va o'z tanasining tuzilishiga qiziqish paydo bo'ladi. O'zini qaysi jinsga mansubligini anglash «shaxs»ning tuzilishiga ulanadi. Kattalardan: «Sen o'g'il bolasan!» yoki «Sen qiz bolasan!» degan so'zlarni eshitgach, bola bunday tushunchalar uning jinsiy xislatlari bilan bog'liqligini anglay boshlaydi. Bola o'z tanasiga va jinsiy organiga nisbatan qiziquvchan bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ulg'aygani sari begona odamlar oldida yechinishda o'zlarini noqulay sezadilar. Xijolatlilik, uyat hissi tarbiyaviy ta'sir natijasidir.

Ko'p hollarda hozirgi bolalar qiz va o'g'il bola tanasiga xos bo'lgan belgini ancha erta o'zlashtirmoqda. Bundan tashqari ular kattalarning tanaga bo'lgan munosabatini ham o'zlashtirmoqdalar. Aksariyat kattalar kiyimsiz tanaga qarashni taqiqlaydilar, o'zları esa bunday tomoshalarni bola oldida ko'raveradilar. Go'yoki bola hali hech narsani tushunmaydi deb o'yaydilar. Agar ota-onasi kiyim almashtirishda boladan xijolat tortsa, bu xislat bolaga ham o'tadi. Agar ota-onasi o'zini tabiiy tutsa, bola ham yalang'och tanani ko'rganda xijolat bo'lmaydi. Ammo bu holda hammaning o'z chuqur o'ylangan yondashuvi bo'lishi kerak. Jinsiy tarbiya erkin yo'lga qo'yilgan ba'zi oilalarda, shifokorlar, rassomlar, hayvonlar hayoti bilan tanish bo'lgan qishloq bolalarida ba'zan jinsiy organlarni rasmda aks ettirganlarini ko'rish mumkin. O'g'il bolalar hayvonlar va erkaklarni jinsiy organlarini qizlarga qara-ganda ko'proq chizadilar. Bu holatni o'g'il bolalar o'z tanasining jismoniy ko'rinishiga o'xshatadilar. Ko'p maktabgacha yoshdagি bolalar odamlarning jismoniy ko'rinishidagi farqini nafaqat xa-

yollariga keltiradilar, balki bu farqni kiyimsiz naturaga qaragan-da ham ko'rmaydilar.

Maxsus tajriba o'tkazilgan. Har bir boladan kiyimsiz (o'g'il va qiz bola) qo'g'irchoqning rasmini chizish so'raldi. Ularni tana tuzilishi o'g'il va qiz bolalarning jismoniy tuzilishiga mos kelishi kerak edi. Ba'zi bolalar qo'g'irchoqqa qarab chizishga harakat qili shadi, lekin shunda ham ular jinsni farqlovchi xislatlarni shunchaki sezmaydilar. Ularning tasvirlarida o'g'il bola qo'g'irchoq va qiz bola qo'g'irchoq bir-biridan hech farq qilmaydi. Masalan, «Biz yaqinda bir qizni yuzini yasadik va chizdik. Lekin menimcha libosdagi qizni chizgandik. O'xshamasachi? O'g'il va qiz bolalar o'xshaydilar. Ular jingalak soch bo'ladi va ayyorona jilmayadilar. O'g'il bola bilan qiz bolaning farqini topish kerakmi? O'g'il bolalar ko'z rangi to'q, qizlarniki och bo'ladi. Fe'li har xil bo'ladi: haqiqiy erkak yig'lamaydi. Boshqa farqni men ko'rmayapman». Ba'zi bolalar oilada jinsiy tarbiya haqidagi tushunchadan shunchalar «himoya qilinganlarki», kiyimsiz naturada jins farqiga e'tibor berib, to'g'ri chizishni so'rashganda ham, jins farqini ko'rmaydilar. Bolalarni boshqa qismi umrida bиринчи мarta kiyimsiz o'g'il bola va qiz bola qo'g'irchoqni ko'rib, darhol uning jismoniy qiyofasidagi farqiga e'tibor qaratadilar. Bunda bir xil bolalar xotirjamlik bilan o'g'il va qiz bolalarning tasvirini tushirishga, boshqalari esa, qo'g'irchoqni ko'rinishidan uyalib, ko'zlarini yashiradilar. E'tirof etish kerakki, bolalar ulg'aygani sari, ular orasida kiyimsiz qo'g'irchoqlarni ko'rganda uyat hissi kuchayadi. Bolalar qiqirlashni, teskari qarashni, qo'llari bilan ko'zlarini yopishni boshlaydilar. Odadta bunday bolalar talab qilingan naturani hech ham chizishni xohlamaydilar (V.S. Muxina materiallaridan).

**Maktabgacha yoshdagи davrda jinsiy tarbiya.** Jinsga mansublik, har bir oilada individual ravishda olib boriladi. Har bir xalqning o'z mentalitetini hisobga oladigan bo'lsak, o'zbeklarda jins tarbiyasiga alohida e'tibor qaratiladi. Bolaga juda yoshligidanoq milliy liboslarga xos kiyinish, ya'ni qiz bola ko'yak va lozim (o'z nomi bilan «lozim») kiyishi, o'g'il bolaga xos kiyimlarini kiymaslik, qiliqlarini qilmaslik, orastalik, muloyimlik va boshqa xarakter xislatlari singdirib boriladi. Bola bog'chadagi davrida o'g'il bolalar shortikda, qizlar yubkada yurishlari ko'p-

gina bog‘chalarda saqlanib qolgan. Lekin afsuski milliylikka e’tibor bola katta bo‘lgan sari g‘arb tarbiyasi ostida yo‘qolib bormoqda. Bunday munosabat bola oilasida va uning atrofida-gilarda bo‘lgan axloq andazalari ta’sirining natijasidir. Kattalar tomonidan to‘g‘ri, axloqiy va aqlli ko‘rsatmalar bolada jinslar farqiga va aloqasiga sog‘lom munosabatni shakllantiradi. Bola ota-onasiga va tarbiyachiga jinslar farqi haqida, bolalar paydo bo‘lishi yo‘llari va hokazo haqida savollar berishi mumkin. Ko‘p bolalar o‘zaro bu savollarni muhokama qilishadi. Bunday savollarga bo‘lgan tabiiy qiziquvchanlik kattalar tomonidan to‘g‘ri tushuntirilishi kerak. Shuning uchun bolalar berishi mumkin bo‘lgan savollarga oldindan javob tayyorlash foydalidir. Katta yoshli odam bu muammoga shaxsning axloqiy tarbiyasiga bo‘lgandek jiddiy munosabat bildirishi lozim. U bola bilan suhbatlasha turib, zaruriy odob saqlashi va har bir bolaning yoshini va psixologik xususiyatini inobatga olishi kerak. Bolaga haqiqatni uyalmasdan gapirish kerak, lekin bu unga kattalar ega bo‘lgan bor ma’lumotlar zaxirasini ochish kerak degani emas.

Tarbiyachi ota-onalarning bolalarni jinsiy tarbiyalashga bo‘lgan fikrini bilishi lozim va ular bilan, ayniqsa bu muammoga nisbatan xurofotga ega bo‘lgan ota-onalar bilan ma’rifiy ishlarni olib borishi kerak. Bolaning o‘z tanasini begona ko‘zlardan tabiiy himoya qilish zaruriyatini kattalar hurmat qilishlari va bolaning uyatchanligini iloji boricha asrab qolishlari kerak.

### *Shaxsda salbiy tuzilmalarning paydo bo‘lishi*

Har qanday rivojlanish jarayonida bo‘lganidek axloqiy rivojlanishda ham ziddiyatlar kurashi bo‘lib o‘tadi. Bizning hayotiy tajribamizdan bevosita qanday insoniy qadriyatlar shaxsiy ijobiy yutuqlarni belgilishi, ziddiyatlar kurashi qanday kechishi hamda qanday qilib shaxsda salbiy tuzilmalar paydo bo‘lishini kuzatish imkoniyati chetda qoladi. Salbiy tuzilmalar – xatti-harakatning sotsial ko‘rinishi hamda shaxsning muayyan xislatlari – mohiyatiga ko‘ra rivojlanish mahsuli bo‘lib ular maxsus o‘rganishni tablab qiladi.

Agar bola tan olinish ehtiyojini his qilmasa boshqa insonlar bilan muloqotda rivojlanishi nomukammal bo‘ladi. Biroq shu

ehtiyojni amalga oshirish ham salbiy holatlarga olib kelishi mumkin, masalan, yolg'on — g'arazli maqsadda haqiqatni yashirish yoki hasad — boshqa birovning yutug'idan alamzadalik hissi. Al-batta, yolg'on tan olinishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj bilan birga yurishi mumkin, ammo bu ehtiyojning zaruriy qismi hisoblanmaydi. Ontogenezda, bolaning ichki holati endigina jamiyat tomonidan berilgan qoliplarga o'rganayotgan paytda yolg'on paydo bo'lishi mumkin. Shaxsda salbiy tuzilmalarning paydo bo'lish sabablaridan biri ijtimoiy jihatdan yetilmagan, shaxsning tan olinish ehtiyoji hisoblanishi mumkin.

Kundalik hayot doimiy tarzda bolani turli holatlar bilan to'qnashtiradi hamda ularning har birini axloqiy me'yorlar orqali osonlik bilan hal qiladi, boshqalari esa u tomondan qoidalarni buzish va yolg'on ishlatilishiga turtki bo'ladi. Ular obyektiv jihatdan, ya'ni axloqiy me'yorlarni bolaning impulsiv istaklari bilan mos kelmasligi kabi muammoli vaziyatlardir. Bunday muammoli vaziyatga tushgan bola uni quyidagicha hal qilishi mumkin:

- 1) qoidani bajarish;
- 2) o'z ehtiyojini qondirish va shu bilan birga qoidani buzish hamda buni kattalardan yashirmsaslik;
- 3) o'z ehtiyojini qondirish va shu bilan birga qoidani buzishi, lekin jazolanishdan qo'rqib uni yashirish. Uchinchi turdag'i harakat yolg'onnинг paydo bo'lishiga olib keladi.

**Bolalar yolg'oni.** Yolg'on haqiqatning ataylab yashirilishi sifatida bolaning ma'lum bir kattalar tomonidan o'rnatilgan qoidalarga bo'ysunmasligini tushunib yetganida sodir bo'ladi. Bunday vaziyatlar bola uchun «ikkilangan motivatsiya» vaziyatlariga aylanadi. Bola kattalar tomonidan tan olinishga intilib, qoidani buzib, ko'p hollarda yolg'on ishlatadi.

Hayotda yolg'onchilik kabi bunday salbiy holatlar bilan kurash ko'p hollarda kattalar tomonidan bolani yolg'onga yetaklovchi intilishi darajasining pasayishiga olib keladi. Masalan, «Sen yolg'onchisan!» kabi. Kuchli oshkor etilgan yolg'on ijobiy natijalarga olib kelmaydi. Katta odam bolaga ishonchni, bundan keyin yolg'on orqali o'zini kamsitmasligiga ishonchini singdira olishi kerak. Bola tarbiyasida asosiy e'tibor tan olinishga bo'lgan intilishni pasaytirishga emas, balki bu ehti-

yojni rivojlantirishning to‘g‘ri yo‘nalishini bera olishga qaratiladi. Bola intilishlari bilan birga boruvchi salbiy tuzilmalarni olib tashlash yo‘llarini topish, salbiy to‘sqliarni ongli ravishda yengishni o‘rgatish kerak.

Yolg‘on bolada boshqa insonlarga nisbatan rostgo‘ylik munosabatlariga ehtiyojining shakllanmaganligi, haqgo‘ylik, boshqa insonlar nazarida bolaning sifatini belgilovchi me‘yor sifatida e’tirof etilmasligi natijasida rivojlanadi. Bolaga va’da qilingan narsani bermaslik ham uning ko‘ngliga yolg‘onchilik urug‘ini sochishi mumkin.

**Tengdoshlari orasida tan olinishga intilish.** Kattalar bilan mu-loqot jarayonida yuzaga keladigan ehtiyojlar tengdoshlari orasida ham tan olinishga o‘ta boshlaydi. Bunday holatda tan olinishga ehtiyoj prinsipial yangi asoslarda rivojiana boshlaydi: agar kattalar bolaning yutuqlarini qo‘llashga harakat qilsalar, tengdoshlar murakkab munosabatga kirishadilar va bunda o‘zaro qo‘llash va raqobatlashish holatlari muvofiqlashadi. O‘yin asosiy faoliyat hisoblanar ekan, intilishlar birinchi navbatda o‘yinning o‘zida, borishidagi real munosabatlarda namoyon bo‘ladi.

O‘yinda tan olinishga ehtiyoj boshqa ma’noda namoyon bo‘ladi: bir tomondan bola «hammaga o‘xhash»ga, boshqa tomondan esa «hammadan zo‘r» bo‘lishga intiladi. Bolalar tengdoshlari-ning yutuqlari va harakat shakllariga moslashadilar. «Hammaga o‘xhash»ga intilish ma’lum darajada bolaning rivojlanishiga turtki bo‘ladi va uni umumiy o‘rtta darajaga olib chiqadi.

Tan olinishga intilish «hammadan yaxshiroq bo‘lish»ga intilishda ham ko‘rinishi mumkin. Bunday turdagи tan olinishga ehtiyoj o‘yinda ma’lum bir mavqe yoki rolga intilish orqali ifodalanadi. Shuning uchun bolalarning o‘zlariga yoqqan rolga intilishini muhokama qilishdan oldin, bola harakatlarining kamida ikki tarkibiy qismini tahlil qilish kerak: istagan rolga intilish va bu intilishni amalga oshirish imkoniyatlarini tushunish qobiliyati. Bu masalani tadqiq qilish uchun bolani qo‘g‘irchoq-dublor bilan almashtirish usulidan foydalanildi va uning yordamida bolalarning barcha uchun yoqimli rolga intilishlari aniqlandi.

Tadqiqot sujetli-rolli o‘yinning tabiiy sharoitlarida o‘tkazildi. Barcha sotsiometriya mavqeidiagi besh-yetti yoshdagи bolalar tad-

qiq qilindi. Tajriba uchun uch guruh tiplari shakllantirildi. Birinchi guruh – o‘yin «yulduzlar»; ikkinchisi – faqat mashhur bo‘lmajanlar; uchinchisi istalgan real guruh bo‘yicha (bu guruh «yulduzlar», mashhurlar va mashhur bo‘lmajanlardan iborat). Besh kishidan iborat har bir guruhga tadqiqotchi o‘yindagi rol haqida gapirib berdi. Bunda u bosh rolni alohida ta’kidladi.

*Birinchi tayyorgarlik bosqichi.* Tadqiqotchi barcha guruh tiplarida rollarni taqsimladi. Bolalar berilgan sujetni o‘ynashlari kerak edi.

*Ikkinci tayyorgarlik bosqichi.* Tadqiqotchi rollarni o‘z egalari ga qoldirgan holda qayta taqsimlaydi. Bu safar o‘yin qo‘g‘irchoq-dublorlar yordamida o‘tdi. Har bir o‘yinchi o‘zining hamda birlarining qo‘g‘irchoqlarini bilar edilar (qo‘g‘irchoqlar bolaning xususiyatlari, jinsiga muvofiq tanlangan, bundan tashqari har bir qo‘g‘irchoqda o‘zi almashtirilgan bolaning fotosurati yopishtirilgan). Bolalar bu sujetni qo‘g‘irchoqlar orqali o‘ynashlari kerak edi.

*Uchinchi – asosiy bosqich.* Taqsimlash huquqi har bir o‘yinchiga berildi. Rollar taqsimoti qo‘g‘irchoq-dublorlar orasida guvohlar-siz, ya’ni manfaatdor o‘yin ishtirokchilarining yo‘qligida amalga oshirildi. Tajriba quyidagicha bo‘ldi. Tajriba xonasida beshta bolalar stulida qo‘g‘irchoq-dublorlar turadi. Har bir bola qo‘g‘irchoq-dublorlarga rol berish uchun ularning yoniga keladi. Bu uchun u qo‘g‘irchoq-dublorlarni rol bo‘yicha belgilangan stulchalarga o‘tqazib qo‘yishi kerak edi.

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, qo‘g‘irchoqlarning almash-tirilishi bolaning o‘yindagi rolga nisbatan haqiqiy intilishini aniqlab berdi. Ta’kidlash kerakki, rolga ataylab alohida ahamiyat berilsa, aksariyat bolalar unga intiladilar. Intilish bolaning guruhdagi mavqeい va uning o‘yinchi tengdoshlarini boshqarish bo‘yicha real imkoniyatlariga bog‘liq bo‘lmaydi. «Boshqalardan zo‘r bo‘lish»ga intilish yutuqqa erishish motivini yaratadi, irodaning rivojlanishi hamda refleksiya shakllanishining shartlaridan biri hisoblanadi, ya’ni o‘z yutuq va kamchiliklarini anglab yetadi.

Katta bog‘cha yoshida tengdoshlar bilan o‘zaro harakat jarayonida tan olinishga bo‘lgan ehtiyoj guruhda o‘z tengdosh-lari orasida barcha uchun ahamiyatli o‘rinni egallashga intilish orqali ifodalanadi. Biroq bu holatlar yuzaki ko‘rinmaydi, chun-

ki barcha uchun ahamiyatli o‘rinni egallashga intilishini bola atrofdagilardan yashiradi. Ijtimoiy rivojlanish hayotiy pozitsiya, dunyoqarash darajasiga ko‘tarilmagan sharoitlarda intilishlar shaxslararo munosabatlar darajasida ishlab chiqiladi. Bu yerda bola shaxsining ijobiy yutug‘iga shunday salbiy holatlar hamroh bo‘lishi mumkinki, ularni hattoki tarbiyachilarning o‘zi kutmagan bo‘ladi. Boshqa xatti-harakatlar orqali amalga oshiriladigan intilishlar «hamma kabi bo‘lish», «hammadan zo‘r bo‘lish» ularning asosi bo‘lib hisoblanadi.

Quyidagicha tajriba o‘tkazildi. «Soxta vaziyat» tashkil qilindi. Natijalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, «barcha kabi bo‘lish»ga intilish konform xatti-harakatga olib kelishi mumkin.

Tajribada bolalar guruhi ishtirok etdi. Bu guruhga tajriba o‘tkaziladigan bola ham kiritildi. Butun guruh bir xil ta‘mdagi bo‘tqani, tajriba o‘tkaziladigan bolaga esa alohida bo‘tqa berildi. Bo‘tqaning 9/10 qismi shirin edi, 1/10 – sho‘r. Tadqiqotchi bolalarga bo‘tqalarni tatib ko‘rishni va so‘ng ta‘mini aytib berishni taklif qildi (barcha shirin bo‘tqa oldi, tajriba o‘tkaziladigan bola esa sho‘rini). Tajriba o‘tkazilgan bolaning noto‘g‘ri qarorga keliishi, ya’ni bo‘tqani hamma kabi «shirin» deyishi xatti-harakatning tabiiyligini saqlab qoladi va butun guruh tajriba o‘tkazilgan bolaga o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Guruhning ishonchi tajriba o‘tkaziladigan bolaning o‘z hislariga qarshi holda guruhga qo‘shilishga, «barcha kabi bo‘lish»ga olib keladi.

Demak, uch-to‘rt yoshli bolalar odatda tengdoshlarining gaplariga ko‘p e’tibor bermaydilar, o‘zlarining his-tuyg‘ulariga tayanadilar. Bolalarning boshqalar fikriga qo‘shilmagan tarzda o‘z fikrini bayon eta olishi xatti-harakat tanlovining mustaqilligi bilan emas, balki jamoaga qarab ish qilishning yo‘qligi bilan ifodalananadi. Agar kichik bog‘cha yoshidagi bolalar guruh ortidan ergashsa, demak bu bolaning katta odam tomonidan berilgan savolni tushunib yetmaganligi, o‘sha paytda boshqa bir yumush bilan bandligi hamda savolning mohiyatini tushunib yetmaganligi oqibati sifatida qaraladi va bu teskari reaksiya beradi.

Besh-olti yoshda bolalar tengdoshlarining fikrini faol tinglay boshlaydilar. Ularning nega ular haqiqatdan yo‘q narsani takrorlashlariga bo‘lgan tushuntirishlari bir xil bo‘ladi: «Chunki bola-

lar shunaqa deyishdi», «Ular shunaqa deyishdi» kabi. Bunda bola o‘zini xavotirli his qila boshlaydi. Bu vaqtda sujetli o‘yinlar tengdoshga nisbatan xuddi muloqot sherigi sifatida umumiy munosabatni shakllantiradi hamda uning fikri bilan bola doimiy qo‘silishi kerak bo‘ladi.

Olti-yetti yoshdagি bolalar o‘zlariga yaxshi tanish bo‘lgan tengdoshlari orasida o‘zlarini yetarli darajada mustaqil his qiladilar, ammo notanishlar orasida, qoida bo‘yicha komformizmni his qiladilar. Tajribadan so‘ng, ular o‘z bilimlariga zid ravishda boshqalarga ergashgan paytida, ular kattalarga haqiqatdan ham qanday qilib to‘g‘ri javob berish kerakligini ko‘rsatishga harakat qiladilar. Tadqiqotdan so‘ng bola: «Nega ular bunday noto‘g‘ri javob berishdi? Sho‘rni shirin, qizilni ko‘k deyishdi». «Nega sen o‘zing bunaqa deding?», «Men? Hamma shunday degani uchun».

Katta bog‘cha yoshida o‘yindagi bosh rolga, sport murosbaqalaridagi g‘oliblikka va munosabatlardagi liderlikka va boshqa o‘xshash vaziyatlarga intilish davomida bolalarda hasad paydo bo‘lishi mumkin. U bolalarda, birinchi navbatda, tashqi ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy ierarxiya (Kim boshliq?) orqali paydo bo‘ladi. Liderlikka intilish bolani qo‘g‘irchoq-dublor bilan almashtirish usuli orqali o‘rganildi (yuqorida qarang). Ma’lum bo‘lishicha, besh-yetti yoshdagи bolalar liderlikka bo‘lgan intilishini faqatgina tajriba vaziyatida ochiq namoyon qilishdi. Rollarni taqsimlashda boshqalarning yonida, ba’zi bolalar bosh rolni boshqa tengdoshiga so‘zsiz beradilar, bir qism bolalar bosh rolga o‘zining haqi borligini aytadi. Ko‘pchilik rollarni taqsimlashda bilvosita harakat qiladi: bola, rolni taqsimlash haqidан foydalanib, bir bolani tanlaydi, lekin bunda u bola ham uni tanlashini shart qo‘yadi. Bolalarning bir-biri bilan o‘zaro munosabatlari o‘z-o‘zini tahlil qilish va refleksiya qobiliyatlarining rivojlanishiga olib keladi. Bu qobiliyatlarning shakllanishi zamirida bolalarning tengdoshlari orasida tan olinishga intilishi rivojlanadi.

Bola tavakkal qilishdan qo‘rqadi, u o‘zi uchun ahamiyatli bo‘lgan o‘rinni egallashda rad javobini olishdan qochadi. Birroq tengdoshlar orasida o‘zi uchun ahamiyatli o‘ringa intilish u uchun shaxsiy ahamiyat kasb etadi. Eng yaxshi o‘ringa bo‘lgan intilishning so‘ndirilishi hasadni keltirib chiqaradi.

Maxsus qurilgan «Omad o'yini» vaziyatlarida hasadning paydo bo'lishi kuzatilgan. Bu maqsadda uch boladan iborat guruhlar tashkil qilindi. Tajriba besh, olti va yetti yoshdagi bolalarda o'tkaziladi. Bolalar doirani (ruletka) aylantirib ballar oladilar va o'zlarining toshlarini finish sari yo'naltiradilar. Ular muvaffaqiyat omadlilik natijasida keladi deb o'ylaydilar. Biroq tadqiqotchi kim yutishini o'zi hal qiladi. Har safar yutgan bola qolgan boy bergen ikki bolalar o'rtasida alohida mavqeni egallagan. Qolgan ikki bola birlashib unga qarshi noroziliklarini ifodalashdi, uning oldingi ayblari va ularga qilgan umumiylar xarakterdagi yomonliklarini eslashdi. Tadqiqotchi hodisani o'zgartirishi va g'oliblik boshqa bir bolaga berilishi zahotyoq bolalar o'rtasida juda tez qayta guruhashish yuz berdi – yangi yutuvchi bola ham psixik tan olinmaslik vaziyatiga tushib qoldi. Yutqazgan bolaga g'olib bola bilan dardini baham ko'rish, xursandchili-giga qo'shilish qiyin bo'ladi. Bu bilan birga ba'zi bir bolalar hamdardlik hissiga ega bo'lishlari mumkin. Muvaffaqiyatli bola bilan muvaffaqiyatsiz bolada alohida do'stona holat paydo bo'ladi: bu vaziyatda barcha ishtirokchilar bir-birlariga nisbatan e'tiborliroq bo'ladir, yaxshilik tilaydilar. Biroq raqobatli vaziyatlarda bolalar ko'p hollarda hasad, ko'rolmaslik, mensimaslik, manmanlik kabi salbiy ko'rinishlarni namoyon qiladilar. Boshqa birining yutug'ini oldindan aytish uchun bola o'ziga xos ramziy harakatlarni bajaradi. Bu harakatlar o'ziga xos bola «sehr-jodusi» orqali amalga oshiriladi: «Tushmaysan, tushmaysan!», «Xato! Xato!» kabi.

Tengdoshlar guruhidagi hissiy holat bola shaxsiyatining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bola qanchalik o'zini tinch, qanoatlangan tutishi, qay darajada tengdoshlari bilan munosabat me'yorlarini o'zlashtirishi bunga bog'liq bo'ladi.

«Yulduz»lar guruhdagi bolalar tomonidan chin yurakdan va samimiy yaxshi ko'rildi. Bola hammani rom qilishi, vaziyatni tez baholashi va do'stona harakatlari, nimani xohlashini bilishi, ikkilanmasdan mas'uliyatni o'ziga olishi, tavakkaldan qo'rqmasligi va hokazo orqali yulduzga aylanadi. Biroq ortiqcha mashhurlikka uchragan bolalar haddan ziyod o'zlariga ishonib qo'yadilar va manman bo'lib qoladilar.

«Kamsitilgan», «ajralib qolgan» bolalar ko‘p hollarda o‘zlarini tengdoshlari tomonidan qiziqtirilmaydigan shaxs sifatida baholanadilar yoki kamsitilganini tan oladilar. Bunday bolalarda alam to‘planib qolmaydi va ular guruhdagi hayotiy sharoitlarga nisbatan bosh ko‘tarmaydilar. Boshqa holatlarda bunday bolalar «yulduzlar» bilan xushomadgo‘ylik, sovg‘alar va so‘zsiz bo‘ysunish orqali yaqinlashish yo‘llarini qidiradilar. «Ajralib qolgan bola» tengdoshlari bilan muloqotga qoniqmaslikni his qiladi. Uning hislari o‘tkir bo‘ladi: u guruhdagi bolani o‘z shaxsiga nisbatan jasorati uchun yaxshi ko‘rishi hamda kamsitilganligi uchun yomon ko‘rib qolishi mumkin.

Qanday qilib «yakkalanib» qolgan bolalar guruhi yuzaga keladi?

Bolalar hayotida o‘yin alohida o‘rin tutadi, ularning maqsadi esa o‘z kuchini sinab ko‘rish, o‘z qadr-qimmatini bilish tuyg‘usini shakllantirish, ya’ni, «Men uzoqqa sakray olaman!», «Men zo‘r meraganman!», «Men hammadan ham uzoq tupura olaman!», «Men eng qo‘rmasman!». Shunday qilib bolalar davrasida bu kurashda o‘z muhitida tan olinishi shakllanadi. Bolalarning xotirjamligi nafaqat bunga, balki qanday qilib ularga kattalar va shu bilan birga tengdoshlarining baho berishiga bog‘liq bo‘ladi.

«Ajralgan»lar bir qancha sabablarga ko‘ra shakllanishadi. Bir bola ketma-ket kasal bo‘ladi, kamdan kam hollarda bolalar bog‘chasiga boradi va bolalar unga odatlanishga ulgurishmaydi, shu bilan birga u ham hech kimni bilmaydi, u har doim yangi bola bo‘ladi. Boshqa bolaning jismonan kamchiligi, kirligi, burni oqishi; semizligi, tez chopasligi sababli bolalar davrasiga qo‘sila olmaydi, uni qabul qilishmaydi.

Uchinchilari umuman bog‘chaga bormagan – boshqa bolalar bilan muloqotda bo‘lмаган, muloqot qilish malakasi hamda o‘yin usullariga ko‘nikmasi yo‘q – ular ham bolalar guruhiga qabul qilinmaydi. Demak, bola «ajralgan» bo‘lishining sababi: birinchidan – ijtimoiy rivojlanish to‘liq amalga oshmaganligi. Bolaning guruhda tan olinmaganligi, o‘z tengdoshlari tomonidan yordam ololmasligi va ular ko‘pincha o‘taketgan xudbin, odamovi, uzoqlashgan bo‘lishadi. Bunday bola arazlaydi va noliydi, maqtanchoq va o‘z ustunligini ko‘rsatishga harakat qiladi, mug‘ombirlik qila-

di va yolg'on ishlatadi. Bunday bolalar o'zini yomon his qiladi va u bilan birga bo'lgan boshqa bolalar ham o'zlarini yomon his qiladilar. Bu ijtimoiy kasallik surunkali holatga, shaxsning ijtimoiy tarkibiy qismiga aylanmasligi kerak. Bolaga o'zining tengdoshlari orasida tan olinishiga yordam berish kerak. Shunday ijtimoiy terapiya o'tkazish lozimki, bolaning noto'g'ri rivojlanayotganligini oldini olish, bolaning faolligini shakllashtirishni osonlashtirish imkonи mavjud bo'lsin.

Ijtimoiy terapiya hozirgi holatda ikki asosiy vaziyatdan kelib chiqishi kerak. Birinchidan, bolalar jamoasida shunday ma'lum bir ijtimoiy mikroiqlimni yaratish kerak-ki, har xil mashqlarni tanlash, har bir bola o'zining talabini tan olinishini o'zlashtirishi kerak. Ikkinchidan, ajralib qolgan bolalarning ijtimoiy muloqotga kirishish ko'nikmasini alohida rivojlanirish kerak. Albat-ta, bolaning qo'lga kiritilgan muvaffaqiyati kattalar tomonidan rag'batlantirilishi doimiy bo'lmaydi. O'z tengdoshlari bilan har kungi muloqot sharoitida bolaning haqqoniy yutug'i bilan mustahkamlanishi lozim.

Bolalarning o'zaro munosabatini to'g'ri yo'lga qo'yish, guruhda sog'lom ijtimoiy munosabat muhitini yaratish, guruhdagi turli bolalarni tenglashtirish uchun tarbiyachidan katta ko'lmandagi ish talab qilinadi.

**Axloqiy harakatga bo'lgan intilishning rivojlanishi.** Bola uchun odob namunasi sifatida uning bolalar guruhida mashhurlikka ega bo'lgan tengdoshlari ham xizmat qilishi mumkin. Axloqiy etalonlarning o'zlashtirilishi ular bilan guruhdagi muloqot jarayonida kechadi va unda bola doimiy tarzda amalda egallagan axloqiy me'yirlarni boshqa insonlarga qo'llash, turli-tuman konkret vaziyatlarda ushbu me'yor va qoidalarni muvofiqlashtirish zaruriyatiga duch keladi. Ijtimoiy rivojlanish ham aynan insonning konkret vaziyatlardan bog'liq holda o'z xatti-harakatlarini tanlashidan iboratdir.

Kattalar hamda tengdoshlar tomonidan bolaga ta'sir etish asosan o'yin faoliyati davomida amalga oshiriladi. Insoniy munosabatlar me'yirlari o'yin orqali bolaning axloqini tuzatishning manbasiga aylanadi. Ijobiy axloqiy etalon (namuna)ga intilish boshqalar tomonidan tan olinishga bo'lgan intilish orqali

tushuntiriladi. Agarda, ijtimoiy nazorat pasaytirilsa, bola ko‘p hollarda vaziyatdan kelib chiqib o‘z xohishiga ko‘ra harakat qiliшга tayyor bo‘ladi. «Ko‘rinmas odamga aylanib qolsang nima qilarding?» – degan savol bola uchun ijtimoiy nazorat go‘yoki pasayganday bo‘ladi. Etalonga muvofiq axloqiy harakatni amalga oshirib, bola kattalarning ijobiy bahosini kutadi, chunki ma‘qullanish uning tan olinishga intilishini mustahkamlaydi. Atrofdagilar tomonidan ma‘qullanishni kutishda bola ataylab o‘zining fazilatlarini ko‘rsatishga moyil bo‘lib qolishi mumkin. Ba’zan bola maqtov olish uchun qo‘lidan kelgan barcha ishni qilsa, unda axloqni namoyish etish shakllari paydo bo‘lishi mumkin. U ataylab o‘zining yaxshi fazilatlarini ko‘rsatadi. Aynan eng yuqori axloqiy harakatda bola oxir-oqibat o‘zi uchun qanoatlanish hissini boshidan kechiradi. Ko‘pgina bolalar muloqot shakllarini yaxshi biladilar, muloyimlikning natijasini tushuna oladilar. Birroq muloyimlik turli vaziyatlarda turlicha namoyon bo‘ladi. Masmunli-rolli o‘yin davomida bolalar orasidagi munosabatlarda muloyimlikning ko‘rinishi, real munosabatlardagi muloyim so‘zlarni bolalar ko‘pincha manfaatdor bo‘lgan vaziyatlarda qo‘llashlaridir. Psixik zo‘riqish holatida muloyimlik osonlik bilan buziladi. Ijtimoiy tajribalar go‘yoki o‘yindagi sherigidan kelib chiqqan yutuqqa tahdid holatida bola tomonidan muloyimlikning «yo‘qotilish» dinamikasini namoyon qiladi.

Katta bog‘cha yoshidagi bolalarda o‘yindagi sheringining muvaffaqiyatsizligi holatidagi muloyimligi va hamdardligi, umuman olganda ko‘p hollarda o‘z o‘rnini jahl va qo‘pollik bilan almashadiradi. Bolaning boshqalarga nisbatan muloyim, g‘amxo‘r munosabatga bo‘lgan ehtiyojini tarbiyalash, agar bolaga nafaqat muloyimlikning mohiyatini tushuntirganda, balki ular bilan doimiy tarzda muloyimlik me’yorlariga muvofiq muloqot qilganda muvafiqiyatli bo‘ladi. Faqat bu holatda muloyimlik namoyon qilinadigan harakatdan mustahkam ko‘nikmaga aylanadi.

Oilaning bola shaxsini shakllanishi va rivojlanishidagi o‘rni. Oila bolani o‘rab turgan ijtimoiy muhitning eng muhim bo‘g‘inidir. Uning bola shaxsi shakllanishiga ko‘rsatadigan ta’siri benihoya kattadir. Bolaning mustaqilligi nisbiy bo‘lib, u ko‘p jihatdan kattalar qaramog‘i va yordamiga muhtoj bo‘ladi. Ota-onaning fikri

va munosabati bu davrda shunchalik katta undovchi kuchga ega bo‘ladiki, u xulq-atvorning regulatori va psixik rivojlanishning stimulatori bo‘lib xizmat qiladi. Psixiatrlarning ta’kidlashicha, bolani haddan tashqari qattiqxo‘llik bilan tarbiyalash unda nevrozlarni va psixosteniyani keltirib chiqaruvchi omillardan biridir.

Har bir oiladagi munosabatlar o‘ziga xos hamda takrorlanmasdir. Biroq ota-onalar bolalar xulq-atvorini boshqarishda qanday usullardan foydalanishlariga ko‘ra o‘rtadagi munosabatlar ko‘pincha «demokratik» va «avtoritar» kabilarga ajratiladi. Bolalar ga oilaviy ta’sir etishning «demokratik» shakli uchun quyidagilar xos: bolaga ko‘p narsaga ruxsat beriladi, bola bilan ko‘p muloqot qilinadi, unga ishonch va hurmat bilan munosabatda bo‘linadi, ota-onalar bo‘lar-bo‘lmas taqiqlar qo‘ymasikka harakat qiladilar, buning o‘rniga ular bolalarga oiladagi tartib-qoidalarni tushuntirishga intiladilar, iloji boricha bolalarning savollariga javob berishga, ularning qiziquvchanliklarini qondirishga harakat qiladilar. Oiladagi «avtoritar» muhit bolalarga nisbatan haddan tashqari taqiqlarining ko‘pligi bilan xarakterlanadi. «Hukmron» ota-onalar boladan to‘liq bo‘ysunishini talab qiladilar. Bunday oilalarda bolalarga xulq-atvor qoidalarni tushuntirishga qaratilgan muloqot kamdan kam o‘tkaziladi. Shu narsa aniqlanganki, «avtoritar» va «demokratik» oilalarda tarbiyalanuvchi bolalarning shaxsiy xususiyatlarda muayyan farq mavjud bo‘ladi. «Demokratik» oilalarning farzандлари ijodkorlikka moyil, tashabbuskor, liderlikka intiluvchan, konformizmni (guruh fikriga tobe bo‘lishni) inkor etuvchi, ijtimoiy munosabatlarida ko‘proq emotsiyalarni his etuvchi bo‘ladilar.

Sotsiometrik tajribalardan ma’lum bo‘lishicha oiladagi muhit iliq, ota-onalar va bola o‘rtasidagi munosabatlar demokratik asosga qurilgan bo‘lsa, bola o‘z tengdoshlarining orasida jamoada yuqori mavqega, aksincha, nosog‘lom oilada tarbiyalanayotgan bolalar ancha past mavqega ega bo‘ladilar. Shu narsa aniqlanganki, bola qanchalik ko‘p erkalatilsa, shaxs sifatida shuncha sekin yetiladi, u passivlikka moyil bo‘ladi, ehtimol, keyinchalik uning xarakteri kuchsiz bo‘lib shakllanadi. Oiladagi psixologik iqlim, ya’ni bolalar bilan bo‘lgan muloqot xarakteri, ularga mehr-muhabbat, diqqat-e’tibor bilan munosabatda bo‘lish o‘sib kelayotgan inson axlo-

qiy qiyofasining shakllanishida o‘ta muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun ham barkamol inson tarbiyasi avvalo oiladagi muhitning sog‘lom bo‘lishini taqozo qiladi. Bog‘cha yoshidagi bolalarning oila a‘zolariga bo‘lgan munosabatlari o‘g‘il va qiz bolalarda farqlanadi. Masalan, o‘g‘il bolalar qizlarga nisbatan ko‘proq o‘z jinsidagi oila a‘zolari – otasi, akasi, bobosiga o‘zini yaqin tutadi.

**Oilaning bola shaxsini shakllanishi va rivojlanishidagi o‘rni** beqiyos ekan, oila a‘zolari bolalarning psixik rivojlanishi ni ta‘minlash uchun oilada sog‘lom munosabatlar muhitini yaratishlari lozim, tarbiyachilarining eng asosiy yordamchisiga aylanishlari kerak. Ko‘p bolali oilalarda o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bola shaxsining rivojlanishiga aka-ukalari, opa-singillari ham kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Aka-ukalar va opa-singillar bolaga eng yaqin bo‘lgan mikromuhit tarkibiga kиrib, unda markaziy o‘rinni egallaydi. Ba’zi tadqiqotchilar, hatto, oila a‘zolarining soni ko‘paygan sari bolalarga ota-onaning ta’siri susayib, aka-ukalar, opa-singillar ta’siri kuchayib boradi degan fikrni ham bildirganlar. Katta akalari va opalari davrasida bola o‘zini emotsiyal himoyalanganday his qiladi. Aka-opalar esa o‘zlarini mehribonlik his-tuyg‘ularini, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ular o‘rtasida bola o‘zining tashvishlari, qiziqishlari bilan o‘rtoqlashishi mumkin. Aka, opalar esa uning ehtiyojlarini, jumladan, muloqot ehtiyojini qondirishlari mumkin.

Demak, bog‘cha yoshdagi bolalarning boshqa bolalar bilan bo‘lgan ancha murakkab va xilma-xil munosabat turlari shakllanadi va ana shu munosabatlar ma’lum miqdorda uning shaxs siyatida shakllanishini belgilab beradi.

### **Nazorat savollari:**

1. Katta bog‘cha yoshida o‘z-o‘zini anglash nimada ifodalandi?
2. Bolaning jinsiy identifikatsiyasida, o‘yinchoq tanlashida, jinsiy tarbiyasida kattalarning tutgan o‘rni qanday?
3. Bola shaxsida qanday salbiy tuzilmalar paydo bo‘ladi?
4. Oilaning bola shaxsini shakllanishi va rivojlanishidagi o‘rni haqida gapirib bering.

## X bob. BOLALAR PSIXODIAGNOSTIKASI

### 10.1. Psixodiagnostika metodlari va ulardan foydalanish

Bolalar bog'chasida olib boriladigan ta'lif-tarbiya jarayoni bolalarning qobiliyat va layoqatlarini har tomonlama rivojlan-tirishga, ular shaxsini shakllantirishga qaratilgan. Pedagogika jarayonining mahsuldorligi pedagogning o'z tarbiyalanuvchilarini yaxshi bilishiga, ta'lif va tarbiyaning xilma-xil metodlarini qo'llashiga bog'liq. Psixologiya fan sifatida tarbiyachiga tay-yor retseptlarni bera olmaydi. Bunday ko'nikmalar bolalar bilan bevosita muloqot jarayonida, bola xulq-atvori motivlarini, shax-siy xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida egallanadi. Bu haqda K.D. Ushinskiy quyidagicha yozgan edi: «Biz unday yoki bunday qiling deb tushuncha bermaymiz. Biz ularga Siz boshqarmoqchi bo'lgan psixik hodisalarining qonuniyatlarini o'rganing va ularga mos ravishda harakat qiling», – deymiz.

Taraqqiyotdan chetlashish yoki buzilish sodir bo'lgan holatlар chegara holatlari sifatida, psixik taraqqiyot kamchiligi si-fatida, shaxs aksentuatsiyasining turli ko'rinishi sifatida tasnif-lanishi mumkin. Ularni aniqlash uchun bolalar psixologiyasi, klinik potopsixologiya va psixiatriya kabi sohalardagi bilimlar talab qilinadi. Bunday tashqari tarbiyachiga akseleratsiya (tez yetilish), pedagogik qarovsizlik kabi muammolarni hal qilishga to'g'ri keladi.

Tarbiyachi ta'lif va tarbiyadagi qiyinchiliklar nima uchun va qanday qilib paydo bo'lishini tushunishi uchun, u avvalo bo-la psixik taraqqiyotining asosiy qonuniyatlarini bilishi va turli psixik holatlarni psixologik diagnostika metodlarini egallashi zarur. Tarbiyachining psixodiagnostik tadqiqot yoki doimiy kuza-tish jarayonida olingan natijalarni bolalar bilan ishslashda qanchalik to'g'ri foydalana olishi ham zarur hisoblanadi.

Tajribaga asoslangan psixologik diagnostika fan sifatida XIX asr oxirida vujudga keldi. Xuddi shu davrda psixologiya-da o'lhash g'oyasi keng tarqaldi. Psixodiagnostikaning mustaqil fan sohasiga aylanishi olimlarning insonlar psixikasidagi individual farqlarga qiziqishining ortishi bilan bog'langan.

Psixodiagnostika psixologik diagnoz qo'yish haqidagi fandir. Bunda diagnoz ko'rsatkich va tavsifnomalarni birgalikda tahlil qilish asosida sinaluvchining holati va xususiyalari haqidagi xulosalaridan iboratdir. **Psixologik diagnoz (diagnosis grekcha aniqlash, bilish degan ma'noni anglatadi)** shaxs individual-psixologik xususiyatlarining hozirgi holatiga baho berish, rivojlanishini oldindan aytib berish (prognoz qilish) va psixodiagnostik tekshiruv vazifalaridan kelib chiqib, tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan psixolog faoliyatining so'nggi natijasidir.

Psixodiagnostik tadqiqotlar amaliyotida psixologik diagnoz qo'yishning 3 bosqichi farqlanadi:

- 1) simptomatik diagnozda dasturi mavjud har qanday EXM bajarishi mumkin bo'lgan tadqiqotdan olingan natijalar qayta ishlanadi;
- 2) etnologik diagnozda (kelib chiqish sabablari) biror xususiyatning mavjudligini emas, balki uning vujudga kelish sabablari ham hisobga olinadi;
- 3) tipologik diagnozda sinaluvchi shaxs tuzilishidan olingan natijalarning ahamiyati va o'rni aniqlanadi.

Bolalarni psixodiagnostik tadqiq qilish yosh xususiyatlariga, u yoki bu yosh davri uchun yetakchi faoliyat turining ta'siriga, individual tipologik tavsifnomalarning taraqqiyot darajasiga bog'liq ravishda ba'zi xususiyatlarga ega. Bola taraqqiyotining har bir yosh davri bolalar bilan ishslashning usullari va vazifalarini talab qiladi.

Kichik yoshdagi bolalarni psixodiagnostik tekshiruv yosh va pedagogik psixologiyaning sohasi hisoblanadi. Olingan natijalar yordamchi xarakterga ega bo'lib, pedagog tomonidan bola psixik taraqqiyoti xususiyatlarini aniqlashda qo'llaniladi. Bunda ta'lim va tarbiya dasturi, turli hayotiy sharoitlarda: faoliyatda, muloqotda va boshqalarda (shaxs xulq-atvori xarakteristikalarini tuzishda) hisobga olinadi.

Eksperimental tadqiqotdan olingan natijalar oilada, bog'chada, maktab va boshqa jamoat joylarida individual va guruhiy tarbiyaviy-pedagogik tadbirlar sxemasini tuzishda qo'llanishi mumkin. Tarbiyachi o'z ishida doimo bolalar psixofizik taraqqiyoti masalalari bilan to'qnashadi. Uni vaqtinchalik natijalargina emas,

(masalan, yarim yillikning oxiriga kelib bolalarning egallagan ko'nikma, malakalari kabi), balki u yoki bu jismoniy va ruhiy si-fatlar rivojlanishining istiqbollarini aytib beradigan natijalar qiziqtiladi.

Bolalar bog'chalarida psixodiagnostik tadqiqotlar quyidagi vazifalarni hal qiladi:

**1. Diagnostika uchun zarur ma'lumotlarni olish.** Bunda bolanning psixik holati va shaxsiy xususiyatlaridagi ba'zi belgilarining ko'rinishini o'rganish maqsadida tadqiqot olib boriladi. Tadqiqotdan olingan ma'lumotlar yordamchi xarakterga ega bo'lib, bola xulq-atvorining haqiqiy kuzatilgan xususiyatlari, uning psixik funksiyalari, taraqqiyot darajasi bilan taqqoslashda foydalaniladi. Masalan: mashg'ulotda bola diqqatining beqarorligi, diqqatini bir joyga to'plashga qiynalishi, aqliy ish qobiliyatining pastligi, tez chalg'ishi va boshqalar bilan ajralib turadi. Lekin xulq-atvoring ko'rsatilgan belgilari (bilan) bola xulq-atvori ehtiyojlari va motivlari ierarxiyasining (bosqichma-bosqich) o'zgarishi natijasi bo'lishi mumkin. Bunda shaxs nonormal holati ko'rinishlaridan biriga, yoki miya yetishmovchiliklarining funksional belgilariga duch keladi. Ikkala holatda ham u yoki bu bola o'zlashtirishi va intizomining pasayishi tashqaridan sezilsada, psixodiagnostik tadqiqotlarda o'rganilayotgan o'zgarishlar manbalari, rivojlanishi va kelgusida qanday bo'lishining psixologik holat belgilari ham o'rganiladi. Psixodiagnostik tadqiqotlar bola psixik funksiyalari rivojlanish darajasining aqliy taraqqiyot darajasi, yosh va ma'lumot bilan o'zaro bog'liqligini o'rganish uchun ham o'tkaziladi. Bu tadqiqotlar bolada ma'lum qiziqishlar, amaliy malakalar va kasb tanlash payti kelganda juda muhimdir.

**2. Psixik taraqqiyot o'zgarishini o'rganish uchun zarur ma'lumotlarni to'plash.** Bolaning psixik hayot taraqqiyoti xususiyatlari rivojlanishining ta'lim va tarbiya jarayonida o'rganish orqali zaruriy ma'lumotlar to'planadi. Bunda psixologyaning ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalaniladi.

O'yin va o'qish faoliyatida ko'p martalab o'tkazilgan eksperimental-psixologik tadqiqotlar bola shaxsini shakllanishi va rivojlanishida ma'lum faoliyatning ta'sir ko'rsatkichi bo'lishi mumkin. Bolada o'tkazilgan psixodiagnostik tadqiqotlar muhim prognostik

ahamiyatga egadir, chunki qo'llanilgan turli metodlarning o'quv tarbiyaviy ta'sirini hisobga olgan shaxs rivojlanishi istiqbollarini aniqlash imkonini yaratiladi. Tarbiyachi eksperimental-psixologik tadqiqotlarni qanchalik ko'p o'tkazsa, tajribasi shunchalik ortib boradi. U quydagilarni o'z ichiga oladi: bola faoliyatining xususiyatlarini o'yin va o'quv vaziyatlarida tahlil qilish; maktab, bolalar bog'chasi, oila sharoitiga moslashish, moslasha olmaslik darajasini aniqlash; bolaning ichki hayotini tushunib olish istagi; shaxs xususiyatlarini har tomonlama rivojlantirishda unga har qanday yordam ko'rsatish.

Bo'lajak tadqiqotchi o'zida quydagi sifatlarni shakllantirishi lozim:

- a) tadqiqot qarorlarini tez va aniq tuzish;
- b) o'z diqqatini bola topshiriqni qanday bajarayotganligiga va uning xulq-atvorini kuzatishga qaratish;
- d) bola bilan yaxshi aloqaga kirishish, uning hamma aytgalarini yozib, uning xulqidagi ba'zi reaksiyalarni to'g'ri baholash qobiliyatini yo'qotmaslik va boshqalar.

Quydagi kuzatishni keltiramiz: tarbiyachi bog'chada mashg'ulotlar o'tkazish jarayonida Gulnora ismli qizning xulq-atvorida ba'zi boshqalarnikiga o'xshamagan xususiyatlarni payqab qoldi. Qiz mashg'ulotlarda tez chalg'ib ketadi, ko'pincha pariszonxitir. Tarbiyachi topshirig'ini tez bajarmaydi. Bir topshiriqni qo'yib ikkinchisiga tez o'tib ketadi, ishni oxiriga yetkazmaydi. O'quv topshiriqlari bajarilmaydigan boshqa vaqtida esa o'zgalardan farq qilmaydi.

Qizning diqqat, tafakkur, hissiy holatini o'rganish uchun bog'chada tadqiqot o'tkazildi. Tekshiruv natijalari shuni ko'rsatadiki, qizning psixik jarayonlarida hech qanday o'zgarish yo'qligi tasdiqlandi. Topshiriqni bajarish vaqtida charchash, faol diqqat darajasining pastligi kuzatilgan. Lekin bu xususiyatlar sinaluvchi diqqatini ishning boshqa shakliga ko'chirish bilan osonlikcha bartaraf etilgan. Tarbiyachining vazifasi qizga ta'sir etayotgan boshqa omillarni to'g'ri aniqlash, individual ish olib borish, ko'rsatilgan xususiyatlarni yo'qotishdan iborat. Bu tadqiqot natijasi shuni ko'rsatadiki, qizdag'i ixtiyoriy diqqat darajasining, ish qobiliyatining pastligi o'zining obyektiv sabablariga ega. Qiz-

ning 3 yoshgacha rivojlanish tarixidan ma'lum bo'ldiki u asfiksiya (kislorod yetishmasligi) bilan tug'ilgan, tug'ruqdan so'ng bosh miyasi yallig'langan. Uzoqroq ish faoliyatida bu narsa o'z ta'sirini ko'rsatgan, qiz tez charchab qolgan. Tarbiyachi qiz bilan ishlaganda shularni hisobga olishi zarur.

**3. Aqli zaiflik darajasini, yoki boshdan kechirgan kasallik tutayli psixik kamchiliklarni aniqlashga** qaratilgan psixodiagnostik tadqiqotlar maxsus yoki yordamchi mактабда o'qish haqida masala hal bo'layotganda tibbiy pedagogik hay'at (komissiya) tomonidan foydalanishi mumkin.

**4. Bolalarda paydo bo'lgan yetarlicha o'rganilmagan yangi psixik holatlarni tahlil qilish** uchun ilmiy maqsadda psixologok tadqiqot o'tkazish. Vazifa bunday qo'yilganda tadqiqotchini qiziqtirgan masala katta guruhlarda o'tkaziladi. Bu yerda olingan natijalarining statistik ishonchliligi muhim ahamiyat kasb etadi.

#### *Psixodiagnostika metodlarini tanlash va qo'llash*

Psixologik diagnostikada metodikalarning ishonchliligi muhim hisoblanadi. Maqsadga muvofiq tanlangan metodika va testlar psixik faoliyat ko'rinishlarini to'liq va har tomonlama o'rganish imkonini beradi. Bolalar ustida psixologik tadqiqotlar o'tkazish tajribasi shundan dalolat beradiki, qo'llanilayotgan psixodiagnostika metodikalarini shartli ravishda u yoki bu psixik jarayonlarni o'rganish metodikalariga ajratish mumkin. Masalan, bola xotirasi haqida faqat bir metod asosida xulosa chiqarish mumkin emas, buning uchun metodikalar majmuini qo'llash kerak. Shu bilan bir vaqtida, har bir eksperimental metodikalar o'zining asosiy yo'nalishidan tashqari (ya'ni shaxsning ma'lum xususiyatini o'rganishdan tashqari) psixikaning boshqa xususiyatlari holati haqida ba'zi ma'lumotlarni beradi. Masalan: bolalarga berilgan 10 ta so'zni qanday yodlashiga qarab, faqat uning xotirasi haqidagini emas, balki ixtiyoriy diqqati, harakatlarining maqsadga qanday yo'nalganligi, ularning sabablari haqida ham bilsa bo'ladi.

Tarbiyachi-tadqiqotchi u yoki bu metodikani tanlaganida, ko'rsatmani salgina o'zgartirganida metodikaning yo'nalishi o'zgarib ketishini nazarda tutishi kerak. Topshiriqni bajarishga ki-

rishishdan oldinroq bolaga unga bo‘lgan ko‘rsatmani to‘g‘ri tushunganligiga ishonch hosil qilish kerak. Bajarilayotgan topshiriqning muvaffaqiyati ko‘p hollarda shunga bog‘liq bo‘ladi. Psixologik-pedagogik tadqiqotning sifati eksperimental qo‘llaniladigan metodikalar soniga bog‘liq bo‘ladi. Lekin bog‘cha va mакtab yoshidagi bolalarda tadqiqot o‘tkazilganda ularning tez charchashini hisobga olish zarur. Tadqiqot o‘tkazish uchun eksperimental metodikalarini tanlashda quyidagilarni e’tiborga olish zarur:

- a) tadqiqot maqsadi – psixik taraqqiyot darajasini aniqlash, uning yoshga, ma’lumotiga mosligi, shaxs xususiyatlarini aniqlash;
- b) sinaluvchining yoshi va uning hayot tajribasi, uning ta’lim va tarbiyasi, amalga oshirilayotgan sharoit;
- d) bolaning eksperimental tadqiqotga moslashishi, muloqotga kirishishi, verbal aloqa o‘rnatish xususiyatlari.

Tanlangan eksperimental-psixologik metodikalarni bolaga darajasining o‘sib borishini hisobga olgan holda berish kerak. Tajriba jarayonida tadqiqotchi bola nimadan qiynalayotganligini aniqlaydi va unga yordamlashadi.

Turli yosh davridagi bolalar guruhini tekshirishda psixodiagnostika metodikalari o‘z xususiyatlariga ega. Masalan: chaqaloqlik davridagi bolalarni tekshirishda sensamotor harakatlarni o‘rganishga mo‘ljallangan metodlar qo‘llaniladi. 3 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan bolalarni tekshirishda sodda harakatlarni yoki og‘zaki qo‘llanmalarni bajarishga qaratilgan topshiriqlar beriladi: qalam, qog‘oz, plastilin va boshqa o‘quv vositalari qo‘llaniladigan topshiriqlar bola katta bo‘lgan sayin qiyinlashtirib boriladi. Masalan, 1–2 yoshli bolalar sensamotor sohasini tekshirishda an‘anaviy metodlardan foydalanib u yoki bu harakat malakalarining qanday shakllanganligiga, ular ma’lum yosh davrida o‘rtacha ko‘rsatkichga qanchalik mosligiga e’tibor beriladi.

Ko‘pincha bu tadqiqotlar bolalar motor harakati rivojlanishida kechikishning mavjudligi keyinchalik bolaning barcha psixik taraqqiyotida kechikish sodir bo‘lishining obyektiv zamini sifatida qaralishi kerak. Shu bilan birga, erta yurgan bola o‘z tengdoshlarini barcha tomondan qoldirib ketadi, deb faraz qilish ham xatodir. Bola xayotining birinchi ikki yilidagi umumiy jis-

moniy taraqqiyot bolaning keyingi aqliy taraqqiyotini belgilamaydi. (R.N. Myussen, 1987).

Bolaning sensamotor sohada rivojlanish darajasi haqida uning atrofidagi turli predmetlar, jumladan, o‘yinchoqlar bilan harakat qilish xususiyatlari darak berib turadi. O‘yinchoqdan diagnostik qurol sifatida foydalanish uning tevarak-atrofida-gi hodisalarni bilihga intilishi va faollik darajasi hamda predmetlardan foydalanishda amaliy ko‘nikmalarning mavjudligini aniqlab beradi.

Kattaroq bolalarni tekshirishda konkret psixologik metodikalaridan foydalanish mumkin. Chunki, xuddi shu davrdan boshlab so‘zli topshiriqlarni bajarish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlarni tushuna boshlaydi, unda zarur shaxsiy sifatlar shakllangan bo‘ladi, bilihga qiziqish rivojlangan bo‘ladi, u kattalar bilan birga eksperimental psixologik tadqiqotlarda nisbatan uzoqroq ishtirok etish holatida bo‘ladi.

Quyida metodikalardan namunalar keltiramiz.

### **Segen doskasi**

Bu metodika oligofrenopedagogika asoschilaridan biri E. Segen tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, bolaning shakllarni farqlash qobiliyatini aniqlashga, motorika xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan (N.A. Shivarev, 1970). Qattiq qog‘oz yoki kartonga quyidagi figuralar chiziladi.

Keyin ularni ehtiyyotkorlik bilan qirqib olinadi. Har bir variant bir-biridan murakkabligi bilan ajralib turadi.

1-doskada 10 ta har xil butun figuralar bor;





2-doskada 2 ta figura bo‘lib, ularning har biri ikki va uch qismdan iborat;

3-doskada har biri ikki va uch qismdan iborat 4 ta figura;

4-doskada ikki qismdan iborat 5 ta (figura) shakl.

Bolaga 10 soniya davomida doska ko‘rsatiladi. Keyin doskada-gi shakllar stol ustiga tushadigan qilib ag‘dariladi. Eksperimentator ularni aralashtirib, har bir shaklni o‘z joyiga qo‘yishni boladan so‘raydi. Tajriba boshida eksperimentator 2–3 namunani ko‘rsatib berishi mumkin. Keyin bolaning topshiriqni qanday bajarayotganini diqqat bilan kuzatadi. Bola «sinash va xato qilish» kabi

harakatlar qiladi, bunda bola shakllarni joyiga qo'yishga diqqat-e'tibor berishi, kuzatishi kerak. Birinchi topshiriqni bajargandan so'ng, keyingi qiyinroq topshiriqqa o'tiladi. Sinaluvchining har bir topshiriqni bajarishga sarflangan vaqt, uning qilgan harakatlari maxsus qarorga yozib boriladi. Sinaluvchi topshiriqlarni o'zi bajara olmasa, 1 daqiqadan so'ng unga yordamlashish mumkin.



#### **Shakllarni joylashtirish bo'yicha topshiriqlarni bajarish qarori.**

Doska №	Sinaluvchi harakatlari	Ko'rsatilgan yordam turi	Topshiriqni bajarish vaqtি

Bu metodika juda sodda bo'lib 3 yoshdan katta bolalarni tekshirishda foydalanish mumkin. Bolalar figuralarni o'yin deb qabul qilib, bu topshiriqlarni qiziqib o'ynaydilar.

#### **Koss kubiklari**

Bu metodika 1923-yilda S.S. Koss tomonidan taklif etilgan bo'lib fazoda ish tutish, diqqat, ziyraklik, qurish-yasash xususi-

yatlarini o'rganishga mo'ljallangan. Bu metodika D. Vekslerning (1939–1955) metodikasiga aqlni tekshirish subtesti sifatida kiritilgan.

Odatda bu metodni kattalarni tekshirishda qo'llashadi, lekin bunday topshiriqlarni bolalar ham qiziqib o'ynaydilar. Bolalar berilgan namunaga ko'ra kubiklardan shakllar yasashlari kerak. Tajriba o'tkazish uchun bir xil bo'yalgan plastmassa yoki yog'och kubiklar kerak bo'ladi. Kubiklarning kattaligi  $3 \times 3$  sm, shakli va rangi har xil shakllar chizilgan 10 ta rasm zarur.

Sinaluvchi uchun ko'rsatma: «Shunday shaklni to'rtta kubikdan yasab ko'r». Rasmning birinchi namunasi ko'rsatiladi va sinaluvchi taklif etilgan shakllarni kubiklardan yasay boshlaydi.

Kubiklarni rasmning ustiga qo'yib topshiriqni bajarish man etiladi. Vaqt hisobga olinadi. Topshiriqni bajarishning aniqligiga va bajarilish vaqtiga bog'liq ravishda miqdoriy baho qo'yiladi. Bog'cha yoshidagi va boshlang'ich sinfdagi bolalar topshiriqni bajarishganda ozroq yordam berish lozim. Agar bola qiynalsa, 1–2 shaklni yasab ko'rsatish mumkin. Bunda eksperimentator faqatgina yasab ko'rsatmasdan, qurish prinsipini ham tushuntiradi. Shaklni yasab bo'lgach eksperimentator kubiklarni buzib tashlaydi va sinaluvchiga mustaqil kubiklarni yasashini aytadi. Tadqiqot qarorida ko'rsatilgan yordam va bajarilgan vaqt yozib qo'yiladi.

### Link kubi

Bu metodika diqqat barqarorligini, ziyrakligini, hissiy reaksiyani aniqlashga imkon beradi. Tajriba o'tkazish uchun  $3 \times 3$  sm kattalikda bir xil 27 ta kichik kubchalar kerak. Kichik kubchalarning tomonlari 3 xil (qizil, yashil, sariq) ranglarga bo'yalgan bo'ladi, ulardan tashqi tomonidan bir xil rangdagi katta kubik yasash mumkin bo'lsin.

Bolaga bir xil rangli kub ko'rsatiladi (masalan, qizil), so'ngra buzib tashlab, xuddi shundayini yasash kerakligi aytildi. Eksperimentator qo'shimcha ravishda bolaga, agar u qizil tomonini ichkarida qoldirsa, unda qizil rang tashqari tomonda yetishmasligi aytildi. Topshiriqni bajarish vaqtida sinaluvchining ziyrakligiga, tez bajarishiga, hissiyotiga ahamiyat beriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tadqiq qilishda bu metodikalaridan tashqari yana Shult jadvali bo‘yicha sonlarni izlash, xotirani o‘rganish, «Bavosita esda olib qolish metodikasi» (A.N. Leontyev, 1928), qismlardan rasm hosil qilish (A.N. Bernshteyn, 1911), klassifikatsiyalash, ortiqchasini o‘chirish (rasmli variant) kabilarni qo‘llash mumkin.

### KO‘RISH VA ESHITISH XOTIRASI

Rasmlarning 1-seriyasi	Rasmlarning 2-seriyasi	So‘zlarning 1-qatori	So‘zlarning 2-qatori
no‘xot	chig‘anoq	karton	telefon
eshak	krovat	vagon	hafta
kalit	truba	dehqon	so‘m
arava	nok	pianino	arra
qo‘ng‘iroqcha	supurgi	bodring	uy

va hakozo, hammasi bo‘lib 6 ta so‘zlar to‘plami mavjud.

Tajriba o‘tkazish uchun turli predmetlar tasvirlangan 6 ta rasm ikki seriyada va 6 ta so‘zlar to‘plami 2 qatorda kerak bo‘ladi.

Ko‘rish xotirasi o‘rganilayotganda quyidagi qo‘llanma beriladi: «Hozir men sizga turli predmetlar tasvirlangan rasmlarni ko‘rsataman, siz ularning nomini istalgan tartibda aytasiz. Rasmlarning har biri 2 soniya ko‘rsatiladi, 10 soniya tanaffusdan keyin sinaluvchi predmetlarni hamda rasmda qo‘sib qo‘yilgan predmetlarning nomini yozib boradi. Rasmlarning 2-seriyasi boshqa kuni, so‘zlar qatori bo‘yicha tajribalar ham boshqa kuni o‘tkaziladi.

Sinaluvchiga quyidagi qo‘llanma beriladi: «Men hozir sizga so‘zlar qatorini o‘qib beraman, siz bo‘lsa eshitib bo‘lganingizdan so‘ng, ularni istalgan tartibda menga aytib berasiz». Tadqiqotchi tadqiqot qatoriga sinaluvchi aytgan barcha so‘zlarni takrorlanganlarini ham, yo‘q so‘zlarini qo‘sib qo‘yanlarini ham yozib

boradi. Olingan natijalar foizlarda miqdoriy o‘lchash orqali tahlil qilinishi mumkin.

### *«Rasmda nima berkitilgan?» metodikasi*

Ko‘rsatma: «Rasmda senga tanish bo‘lgan buyumlar chizilgan. Ularning har birini birma-bir aytib ber». Vazifani bajarishga bir daqiqa vaqt beriladi.

#### **Natijalarni baholash:**

10 ball – vazifani 20 sekund davomida bajardi;

8–9 ball – vazifani 21–30 sekund davomida bajardi;

6–7 ball – vazifani 31–40 sekund davomida bajardi;


4–5 ball – vazifani 41–50 sekund davomida bajardi;

2–3 ball – vazifani 41–50 sekund davomida bajardi;

0–1 ball – vazifani bajarishga 60 sekunddan ko‘p vaqt sarflab uni bajara olmadi.

#### **Rivojlanish darajasi:**

10 ball – juda yuqori, 8–9 ball – yuqori, 4–7 ball – o‘rta, 2–3 ball – past, 0–1 ball – juda past.



### *«Chalkashliklar» metodikasi*

Bu metodika yordamida bolaning atrof-muhit to‘grisidagi obrazli tasavvurini hamda olamdagи narsa va hodisalar o‘rtasidagi mantiqiy tafakkur munosabatlarini bilishini va o‘z fikrlarini to‘g‘ri ifodalay olishini o‘rganishga yordam beradi.

Ko‘rsatma: «Bu rasmga diqqat bilan qarab, uni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri chizilganini aniqla. Agarda xato topsang uni ko‘rsatib, nima uchun xato ekanligini tushuntirib ber. Aslida bu narsalar qanday bo‘lishi kerakligini aytib ber».

Vazifani bajarish uchun 3 daqiqa vaqt beriladi.

### *«Nimaligini top!» metodikasi*

Bolaga rasmning A qismi ko‘rsatilib (qolganlari qog‘oz bilan berkitiladi) bu rasmda nima chizilganini topish so‘raladi. Vazifani bajarishdan avval bolaga boshqa rasm yordamida namuna ko‘rsatiladi. Vazifani bajarishga 10 sekund vaqt beriladi.

Agar bola ushbu vaqt davomida vazifani bajara olmasa rasmning B qismi ochib ko‘rsatiladi va hokazo. Rasmni aniqlashga sarflangan umumiy vaqt hisobga olinadi.

#### **Natijalarni baholash:**

10 ball – vazifani 10 sekund davomida A variantida bajardi.

7–9 ball – vazifani 11–20 sekund davomida B varianti ko‘rsatilgandan so‘ng bajardi.

4–6 ball – vazifani 21–30 sekund davomida D varianti ko‘rsatilgandan so‘ng bajardi.

2–3 ball – vazifani 30–40 sekund davomida E varianti ko‘rsatilgandan so‘ng bajardi.

0–1– ball – A,B,D variantlar ko‘rsatilib 50 sekunddan ko‘p vaqt sarflab vazifani bajara olmadi.

#### **Rivojlanish darajasi:**


10 ball – juda yuqori;

8–9 ball – yuqori;

4–7 ball – o‘rta;

2–3 ball – past;

0–1 ball – juda past.



a

b

d

e

### Nazorat savollari:

1. Psixodiagnostika fani nimani o'rganadi?
2. Psixodiagnostikaning vazifalari va xususiyatlari nimadan iborat?
3. Diagnoz qo'yish bosqich turlarining nomlarini ayting va ular haqida tushunchalar bering?
4. Psixodiagnostik tadqiqotlar qanday maqsadlarda qo'l-laniladi?
5. Sensomotor haqida tushunchalar bering?
6. Tadqiqot metodikalarini o'tkazish haqida so'zlab bering.

### **10.2. Bolalarni maktabdagagi ta'lim jarayoniga psixik jihatdan tayyorlash**

Maktabga borish bolalarning hayotida juda katta voqeadir. Maktab hayoti bolalarga yangi bir dunyoni ochib beradi, maktab davrida bolalarning asosiy faoliyatlari o'zgaradi. Maktab yoshidan boshlab bolalarning asosiy faoliyatlari va vazifalari o'qish, fan asoslarini puxta o'zlashtirish bo'lib qoladi.

Yetti yoshli bolalar uchun yangi faoliyat bo'lgan o'qish ular-dan yangi sifat, yangi xususiyatlarga ega bo'lishlarini talab qila-di. O'qish faoliyati uchun bolalarda barqaror diqqat, o'tkir zehn, mustahkam xotira, tafakkur, yaxshi nutq, iroda va shuning bilan birga mustaqillik, ishchanlik, tartiblilik hislari bo'lishi kerak.

Bolalarning mактабга о‘тишлари ularning ilk yoshdan bog‘chaga o‘тишларига qaraganda murakkab bosqichdir. Bolalar mактабга о‘тишлари natijasida ularning ijtimoiy holatlarida ham o‘zgarish yuz beradi. Masalan, yetti yoshga yaqinlashgan bolalar bog‘chada «katta», ya’ni katta guruh bolalari deb hisoblanar edi. Mактабга о‘тишлари bilan yana «eng kichkinalar» qatoriga tuшиб qoladilar. Yetti yoshdagи bolalarning mактабга о‘тишлари bilan yuzaga keladigan ana shunday jiddiy o‘zgarishlarni nazarda tutib, ularni mактабдаги yangi hayotga har tomonlama tayyorlash kerak.

Ma’lumki, bolalar bog‘chasining asosiy vazifalaridan biri bolalarga har tomonlama tarbiya berib, ularning taraqqiyot darajalarini mактабда o‘qiy oladigan qilishdan iboratdir. Bu esa, o‘z navbatida mактабдаги o‘qish bilan bog‘chadagi ta’lim-tarbiya o‘rtasida ma’lum izchillik bo‘lishini talab qiladi.

Bog‘chada bolalarning jismoniy o‘sishlariga qanchalik e’tibor berilsa, ularning aqliy va axloqiy o‘sishlariga ham shunchalik e’tibor beriladi. Bolalarning mактабга chiqishlari doimo nazarda tutilib ular bilan o‘tkaziladigan ta’limiy mashg‘ulotlarda bolalarning idroki, diqqati, tasavvur va xotiralar, xayol hamda tafakkurlari, irodaviy sifatlari izchil ravishda taraqqiy ettirib boriladi. Bolalarni mактабдаги o‘qish jarayoniga tayyorlashda ularning nutqini o‘stirish juda zaruriy shartlardandir. K.D. Ushinskiyning ko‘rsatishicha, bolalarning nutqni egallashlari ularning mактабдаги o‘qishga tayyor ekanliklarini ko‘rsatuvchi eng ishonchli dalildir. Shuning uchun tayyorlov guruhi bolalarini mактабдаги o‘qishga tayyorlashda ularning o‘z ona tillarini yaxshi, puxta o‘rganishlariga, ya’ni so‘z boyligini orttirishga, to‘g‘ri talaffuz qilishlariga va to‘la hamda to‘g‘ri jumla tuza olishlariga ahamiyat berish kerak.

Mактабгача yoshdagи bolalarni mактабга tayyorlashda ularning qiziqishlaridan foydalanish lozim. Katta guruh bolalari mактаб hayoti bilan juda qiziqa boshlaydilar. Bolalardagi bunday qiziqishni tarbiyachi qo‘llab-quvvatlashi va yanada orttirib borishi kerak. Buning uchun mактаб va unda o‘qish haqidagi qiziqarli suhbatlar o‘tkazish hamda yaqin atrofdagi mактабга ekskursiya uyushtirish yaxshi natija beradi. Bog‘chalardagi yet-


ti yoshga to‘lgan bolalarning hammasi ham maktabdagi o‘qish mashg‘ulotlariga bab-barobar tayyor bo‘lavermaydi. Ayrim bolalar maktabdagi yangi sharoitga tez kirishib keta olmaydi. Ularda o‘qish mashg‘ulotlari (dars) uchun qandaydir bir xususiyat yetishmayotgandek ko‘rinadi. Bu o‘rinda shunday bir savol tug‘iladi. Bolalarni qay paytda psixologik jihatdan maktabdagi o‘qish jarayoniga tayyor deb hisoblash mumkin? Ayrim psixologlarning fikricha, bola maktabda o‘qish uchun atrofdagi narsa va hodisalarga doir anchagina tasavvur va tushunchalarga ega bo‘lishi hamda ma’lum darajada aqliy jihatdan o‘sgan bo‘lishi lozim. Lekin bu bolaning o‘qishga tayyor ekanligini aniqlashda hal qiluvchi omil emas, chunki bu yerda yosh masalasi ham bor. Yetti yoshga to‘lish davri bog‘cha yoshi davrining tugallanishi va o‘smirlilikning boshlanishi davriga to‘g‘ri keladi. Xuddi ana shu davrdan boshlab bolalarda o‘z-o‘zini anglash tarkib topa boshlaydi. Shuning uchun ham shu davrdan boshlab bolalarni izchil o‘qitishga o‘tish maqsadga muvofiqdir. K.D. Ushinskyning fikricha, bolaning maktabdagi o‘qish faoliyatiga tayyorligi ayrim psixik jarayonlarning taraqqiyot darajasi bilangina emas, balki bola shaxsining umumiylar taraqqiyot darajasi bilan aniqlanadi.

Shunday qilib, bolaning maktabdagi o‘qishga tayyorligi shaxsning ijtimoiy yetuklik bosqichlaridan biridir. Lekin ijtimoiy tarqqiyotning bunday yetuklik bosqichiga bola o‘z-o‘zidan ko‘tarilmaydi. Uni bu bosqichga bog‘chadagi va oiladagi butun ta’lim-tarbiya ishi ko‘taradi. Bola yetti yoshga to‘lganda u jiemoniy jihatdan ancha o‘sadi, o‘zini idora qilishga, nojo‘ya xatti-harakatlardan o‘zini tiyishga, xulq-atvor qoidalarini o‘zlashtirishga harakat qiladi. U o‘zini bemalol eplaydigan bo‘ladi, o‘z kuchiga yarasha mehnat qila oladi, jamoada yashashga ko‘nika boshlaydi. Bu davrda bolaning turmush tajribasi anchagina ortadi, ko‘p narsalarning nomini va ulardan qanday foydalanishni biladi. Xotirasi va tasavvurlari o‘sib, ko‘pgina she’r va hikoyalarni yoddan bilib oladi. Yetti yoshli bolaning nutqi ma’lum darajada rivojlanib, so‘z zaxirasi ko‘payadi. Natijada u o‘z o‘rtoqlari va kattalar bilan erkin suhbat qila oladigan bo‘ladi.

Yetti yoshga to‘lgan bolalarda turli harakatlar ham mustahkamlanadi. U qaychi, igna, qalam, ruchka kabi ish qurollariidan foydalanish malakasini egallay boshlaydi. Biroq bu davrda ham bolada beixtiyor aktivlik hali ustunlik qiladi. Shu sababli bolani qiziqtiradigan yoki unga kuchli ta’sir qiladigan narsalar uning diqqatini o‘ziga jalb qiladi. Bola mакtabga chиqqanidan keyin ham uning hayotida o‘yin juda katta o‘rin egallaydi. Bola o‘qish mashg‘ulotlaridan bo‘sh paytida har xil o‘yinlarni o‘ynashda davom etaveradi. O‘yin jarayonida bola o‘z-o‘zini idora qilishga, o‘z harakatlarini o‘yin qoidalariga bo‘ysundirishga, javobgarlikni sezishga, jamoa manfaatini ustun qo‘yishga odatlanadi. O‘yin va bog‘chadagi didaktik mashg‘ulotlar jarayonida bolalarning aql-idroki, xotira va tafakkuri o‘sadi. Bular, o‘z navbatida, bolaning mакtabda o‘qiy olishi uchun psixologik zamin tayyorlaydi. Bunday zaminni tayyorlash va mustahkamlashda, albatta, oilada hamda bolalar bog‘chasida olib boriladigan ta’limtarbiya ishlari hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Bolalarda 5–6 yoshdan ijtimoiy ong tarkib topa boshlaydi. Bolalar o‘zлari yashab turgan ijtimoiy muhitda o‘z o‘rnini belgilashga, kattalar bilan yanada yaqinroq munosabatlarga kiriшishga intiladilar. Katta guruh bolalari mакtabga chиqishdan ancha ilgariroq mакtab haqida orzu qiladilar, mакtabda nimalar bo‘lishini kattalardan so‘rab surishtira boshlaydilar. Mакtabga borish vaqtini sanaydilar. Agar birorta o‘rtoqlari mакtabga o‘tib ketsa o‘zлari bog‘chada qolganliklaridan o‘ksinib yuradilar. Katta yoshdagи bog‘cha bolalarining mакtabga intilishi ijtimoiy munosabatlar doirasida yangi mavqeni egallahsga intilayotganidan dalolat beradi. Ta’limga psixologik tayyorgarlik deganda bolaning obyektiv va subyektiv tayyorgarligi nazarda tutiladi. Bola mакtab ta’limiga avval psixologik jihatdan tayyorlanadi, uning psixikasi bilim olishga yetarli darajada rivojlanadi. Shu yoshdagи bola idrokining o‘tkirligi, ravshanligi, sofligi, bolaning qiziquvchanligi, ishonuvchanligi, dilkashligi, xayrixohligi, tafakkurining yaqqolligi bilan boshqa yoshdagи bolalardan ajralib turadi.

## Bolaning mакtabga tayyorgarligi



Ko'rib turganimizdek, bolalarning maktabga psixologik jihatdan tayyorligi faqatgina uning o'qish va yozishni bilishi bilangina baholana olmaydi.

Olti yoshli bolaning maktabga psixik jihatdan tayyorligi haqidada gapirliganda ko'pincha ma'lum reja asosida, tartibli, ko'p qirrali maqsadga yo'naltirilgan o'zaro munosabatlarga asoslangan mantiqiy bog'liq, izchil boshlang'ich ta'limga zamin vazifasini o'tovchi o'sish darajasi nazarda tutiladi. Bundan tashqari bolaning oilaviy sharoiti, sog'ligi, jismoniy o'sish darajasi, oddiy ko'nikmalarni o'zlashtirganlik darajasi kabi omillar ham nazarda tutiladi. Bolani o'rab turgan ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya jarayoni va yuqorida aytib o'tilgan tayyorlik darajasi mакtab ta'limgiga tayyorgarlikning obyektiv tomoni hisoblansa, bolaning maktabga intilishi, qiziqishi, istagi, muloqotchanligi kabilar subyektiv

tomoni hisoblanadi. Olti yoshli bolalar maxsus ravishda joylarda tashkil qilingan tashxis markazlarida suhbatdan o'tkaziladi.

Tashxis markazlarida faoliyat ko'rsatuvchi psixologlar turli uslublar, testlar, so'rovnomalari yordamida har bir bolaning o'ziga xos psixik xususiyatlarini aniqlab beradi. Bunda psixolog bolanning individual xususiyatlarini, sog'ligini va psixik tomondan sog'lomlik holatlarini, psixik jarayonlari, xususiyatlari, holatlarini aniqlab beradi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da bolalarning rivojlanishi va mакtabga tayyorlash dasturining asosiy vazifalari: «Bolalarni har tomonlama yetuk, ularning qobiliyatları, intilishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda maktab ta'limiga tayyorlash hamda milliy, umuminsoniy qadriyatlarga, mustaqillik g'oyalariga sodiq holda voyaga yetib borishini ta'minlashdan iborat»dir. Bolaning maktabga tayyorligi davlat me'yoriy hujjalari bilan aniqlanadi. Davlat talablarining asosiy maqsadi yosh avlodni milliy istiqlol mafkurasi asosida sog'lom, har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalashdan va maktab ta'limiga tayyorlashdan iboratdir:

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan «Davlat talablari» (2012 yil), O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, respublikada idoraviy bo'ysunishi va mulkchilik shaklidan qat'iy nazar maktabgacha ta'lim tizimi hamda oilalarda bolani to'laqonli tarbiyalash, ta'lim berish va rivojlantirish, uni maktabga samarali tayyorlashda qo'llanishi majburiy bo'lgan davlat hujjatidir. Davlat talablari 0–7 yoshli bolaning qay darajada rivojlanganligi va egallagan yutuqlarini baholab boruvchi talablar bo'lib, ular bilim, malaka va ko'nikmalar rivojlanishining ko'rsatkichlarini belgilaydi:

- 1) jismoniy rivojlanish, o'z-o'ziga xizmat va gigiena;
- 2) ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- 3) nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik;
- 4) bilish jarayoni, atrof-olam to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lish.

Mazkur 4 ta yo'nalish 0 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning o'z-o'ziga xizmat ko'nikmalarining shakllanishi, nutq, o'qish va savodga tayyorlash darajasini, atrof-olam haqidagi tu-

shunchalarni va qo‘yilgan talablarni egallashi uchun asosiy omil hisoblanadi.

U maktabgacha ta’lim tizimining mohiyatini belgilaydi va maktabgacha ta’lim muassasalarini, mulkchilik shaklidan qat’i nazar, barcha bolalarning tengligi va bolalik qadriyatini saqlagan holda har bir bolaning individual rivojlanishini ta’minlashga yo‘naltiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta’limiga o’tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqish va munosabatlarida jiddiy, tub o‘zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagи bolani maktabgacha ta’lim muassasasida yoki uydayoq mакtab ta’limiga tayyorlash, bolaning yosh xususiyatiga doir bilim, ko‘nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo‘ladi. Bunday tanishtiruv, moslashuv davrining jiddiy qiyinchiliklaridan xalos bo‘lishga yordam beradi.

Bolaning maktabga tayyorgarligi undagi idrok, kuzatish, xo-tira, tafakkurning rivojlanishi, vaqt va fazoviy tushunchalar ola-mi, ijtimoiy hodisalar haqidagi tasavvurlarning shakllanishi bilan belgilanadi.

Maktabga tayyor bo‘lmagan bolalar o‘qituvchiga birmuncha qiyinchiliklar olib keladi. Ularning yarmidan ortig‘i keyinchalik o‘zlashtirmovchilar qatoriga qo‘shiladilar. Birinchi sinf dasturi-da berilgan bilimlarni oldindan egallagan bolada ham maktabda o‘qishga nisbatan qiziqish so‘nadi. Mana shularning hammasi o‘qituvchining psixodiagnostik mahorati bilan belgilanadi. Bu mahorat o‘qituvchining odamlarni ajrata olish xususiyatida ko‘rinadi.

Bolalarning psixik jihatdan maktabga tayyorligini aniqlashda quyidagi testlardan foydalanish mumkin.

**1-test.** Ushbu test 6–7 yoshli bolalarning obrazli tafakkurini aniqlashga qaratilgan.

### **«To‘rtinchisi ortiqcha».**

Bolaga ketma-ket ravishda har birida 4 tadan tanish predmetlar tasvirlangan 10 ta kartochka ko‘rsatiladi. 4 tadan 3 tasi bir guruhga taalluqli. Bola ortiqcha bo‘lgan bir predmetni aniqlashi va nima uchun ortiqchaligini tushuntirib berishi lozim.

1. Piyoz, pomidor, olma, sholg‘om.

2. Tol, terak, qayrag‘och, atirgul.
3. Echki, tulki, it, mushuk.
4. Divan, krovat, stul, narvon.
5. Qo‘g‘irchoq, qalam, daftar, ruchka.
6. Tovuq, quyon, kurka, xo‘roz va hokazo.

Natijalarni tahlil qilish:

**Yuqori natija:** 7–10 ta kartochkani to‘g‘ri ko‘rsatish va tu-shuntirish.

**O‘rta natija:** 7–10 ta kartochkani yarim tushuntirishlar bilan ortiqcha predmetning ko‘rsatilishi. Masalan: «Ortiqcha predmet atirgul, qolganlari daraxtlar».

**Past natija:** 7–10 ta kartochkada ortiqcha predmetning tu-shuntirishsiz aniqlanishi.

**2-test.** Maktabga qabul qilinayotgan bolaning fikrashi va xotirasini quyidagi matn yordamida aniqlash mumkin. «Kunlardan bir kuni sher kasal bo‘lib qoldi. U o‘z uyiga o‘rmondagи barcha hayvonlarni taklif qildi. Ularning ichida tulki ham bor edi. Tulki sherning uyiga kirmsadan, eshik oldida turdi. Sher unga: «Sen nega uyga kirmayapsan?» deb so‘raganida tulki shunday javob beribdi: «Men sening uyingga eltuvchi ko‘plab izlarni ko‘rdim, lekin qaytayotgan bironta ham iz ko‘rmadim». Tulkining javobi ni izohlab bering.

**3-test.** Bolalarga so‘zning antonimini topish vazifasini berib, ularning fikrashi va xotirasini aniqlash mumkin:

Baland-past, issiq-sovuq va hokazo.

## VAQTNI MOSLASHTIRA OLISH HAQIDAGI BILIM-LARNI ANIQLASH BO‘LIMI BO‘YICHA TEST-SAVOLNOMA

**Testning maqsadi:** Bolaning vaqtini moslashtira olishini bilish hamda hafta kunlari va sutkadagi vaqtlarni bilishini aniqlash:

1. Ko‘chada qachon qorong‘i bo‘ladi?
2. Hozir ertalabmi yoki kunduzimi?
3. Yilning qaysi faslini yaxshi ko‘rasan va nima uchun?
4. Kecha haftaning qaysi kuni edi?
5. Qachon quyosh chiqadi?

6. Yilning qaysi oylari (kuzgi, qishki, bahorgi, yozgi) senga yoqadi? Nima uchun?
7. Bir daqiqa ko'pmi yoki kammi? Nima uchun?
8. Bir yil ko'pmi yoki kammi? Nima uchun?
9. Bir daqiqa ichida o'rin yig'ishtirish, pol yuvish mumkin-mi?
10. Bir soat ko'pmi yoki kammi? Nima uchun?
11. Bir soat ichida ko'yakni yuvish mumkinmi? Uy qurishi?
12. Kun uzunmi yoki oyimi?
13. Haftada necha kun bor?

**Izoh:** Agar bola elementar matematik tasavvurlarini rivojlanish darajasini aniqlash testlari bo'yicha birorta ham savolga javob berolmasa, yoki faqat 1–2 ta savolga javob bersa, unda bu bolaning tafakkur darajasini aniqlash maqsadida «Nima uchun?» testidan o'tkazish kerak. Agar bola mana shu testning 2–3 ta savoliga ijobjiy baho bersa, bu uning tahlil qila olishi va mustaqil xulosalar chiqarishidan dalolat beradi.

### **«NIMA UCHUN?» TESTI. TABIAT HAQIDAGI TASAVVURLARNING SHAKLLANISHI BO'LIMI**

Testning maqsadi: Bolalaning mantiqiy tafakkuri, tahlil qilish va taqqoslash hamda xulosa chiqarishni bilish darajasini aniqlash.

1. Nima uchun qor qo'lga olganda erib ketadi?
2. Nima uchun hayvonlar va o'simliklar jonli tabiatga kira-di?
3. Nima uchun tosh, qum, suv jonsiz tabiatga kiradi?
4. Nima uchun fil ovqatni og'zi bilan olmaydi?
5. Nima uchun bahor kelishi bilan hamma narsa uyg'onadi va jonlanadi?
6. Nima uchun qishda daraxtlarda barg bo'lmaydi?
7. Nima uchun sigir, it, qo'y uy hayvonlari hisoblanadi?
8. Uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlardan qaysi birlariga yashash qiyinroq va nima uchun?
9. Nima uchun hayvonlarga mo'yna kerak?

10. Qalam bilan ruchka nimasi bilan bir-biriga o‘xshaydi?
11. Mixning boltadan nima farqi bor?
12. Mushuk tovuqdan nimasi bilan farq qiladi?

**Izoh:** «Nima uchun?» testi bo‘yicha bola xulosa qilmasdan, faqat dalillar keltirsa hisobga olinmaydi. Masalan, «Nima uchun hayvonlarga mo‘yna kerak?» degan savolga to‘g‘ri javob «Mo‘yna hayvonga uni sovuqdan saqlanish uchun kerak» bo‘lishi kerak.

### VERBAL TAFAKKUR (KERN-YERASEK) TESTI

Testning maqsadi tafakkur operatsiyalari, mantiq operatsiyalari, mantiqiy so‘z boyligi taraqqiyotini ko‘rsatish. Bolalarga turli mazmundagi savollarga javob berish taklif etiladi. Natijalarни qayta ishslash quyidagi tartib asosida olib boriladi: ballar yig‘indisi alohida savollar bo‘yicha aniqlanadi.

Verbal tafakkur rivojlanishining 1-darajasi 24 va undan yuqori;

- 2-daraja – 14–23 gacha – o‘rtadan yuqori;
- 3-daraja – 0–13 gacha – o‘rtacha (norma);
- 4-daraja – (–1) – (–10) gacha – past;
- 5-daraja – (–11) va undan past – juda yomon.

### TEST SAVOLLARI

- 1. Qaysi hayvon kattaroq: otmi yoki itmi?**
  - a) ot – 0 ball
  - b) it – (– 5 ball).
- 2. Ertalab biz nonushta qilamiz, tushda esa ...**
  - a) tushlik qilamiz, sho‘rva ichamiz, go‘sht yeymiz –1 ball;
  - b) kechki ovqatni yeymiz, uxlaymiz va h.k.. – (– 3 ball).
- 3. Kunduzi yorug‘, kechqurun esa ...**
  - a) qorong‘i – 0 ball;
  - b) noto‘g‘ri javob – (–4 ball).
- 4. Osmon moviy (ko‘k), o‘t esa ...**
  - a) yashil – 1 ball;
  - b) noto‘g‘ri javob – (–4 ball).
- 5. Gilos, nok, olxo‘ri, olma – bular nima?**
  - a) mevalar – 1 ball;

b) noto‘g‘ri javob – (–1 ball).

**6. Nima uchun poyezd o‘tishidan oldin shlagbaum tushiriladi?**

a) avariya bo‘lmasligi, hech kim poezd tagiga tushib ketmasligi va h.k. uchun – 0 ball;

b) noto‘g‘ri javob – (–1 ball).

**7. Moskva, Toshkent, Chirchiq (tanish shaharlar) nima?**

a) shaharlar – 1 ball;

b) stansiyalar – 0;

c) noto‘g‘ri javob – (–1 ball).

**8. Soat necha (soatdan 18, 15, 19, 11, 5 daqiqani ko‘rsating)?**

**Bola soatni o‘zi belgilaydi.**

a) agar barcha javoblar to‘g‘ri bo‘lsa – 4 ball;

b) 1 ta javob to‘g‘ri bo‘lsa – 3 ball;

c) noto‘g‘ri javob – (0 ball).

**9. Sigirning bolasi – buzoqcha, itning bolasi – ..., qo‘yning bolasi – ...**

a) kuchukcha, qo‘zichoq – 4 ball;

b) ikkitadan bittasi – 0 ball;

c) noto‘g‘ri javob – (–1 ball).

**10. Kuchuk ko‘proq mushukka o‘xshaydimi yoki tovuqqa?**

a) mushukka – (nimasi bilan o‘xhash?) – 4 ta oyog‘i, yungi, tirnoqlari va shu kabi o‘xhashlik tomonlari aytilsa – 0 ball;

b) o‘xhashlik belgilarisiz – (–1 ball);

c) noto‘g‘ri javob – (–3 ball).

**11. Nima uchun barcha avtomobillarda tormoz bo‘ladi?**

a) tog‘liklar, burilishlarda (2 ta sabab) yoki boshqa joylarda tormoz berish uchun – 1 ball;

b) bitta sabab ko‘rsatilsa – 0 ball;

c) noto‘g‘ri javob – (–1 ball).

**12. Bolta bilan bolg‘a nimasi bilan bir-biriga o‘xshaydi?**

a) agar 2 ta umumiy belgi ko‘rsatilsa (yog‘och-temir, mix qo-qish mumkin, asboblar orasi tekis) – 3 ball;

b) bitta belgi ko‘rsatilsa – 2 ball;

c) noto‘g‘ri javob – 0 ball.

**13. Olmaxon bilan mushuk nimasi bilan bir-biriga o‘xshaydi?**

- a) sute Mizuvchilar ekanligi yoki 2 ta umumiy belgisi (panjasni, mo'ynasi, daraxtlarga chiqa olishi) ko'rsatilsa – 3 ball;
- b) bitta o'xshashligi ko'rsatilsa – 2 ball;
- c) noto'g'ri javob – 0 ball.

**14. Mix vintdan nimasi bilan farq qiladi? Agar ular stol ustida turgan bo'lsa, ularni qanday ajratgan bo'lar eding?**

- a) rezbasidan – 3 ball;
- b) vint buraladi, mix qoqiladi, vintning gaykasi, mixning shapkachasi bo'ladi – 2 ball;
- c) noto'g'ri javob – 0 ball.

**15. Futbol, suvg'a sakrash, tennis, suzish, gimnastika – bu...?**

- a) sport, fizkultura – 3 ball;
- b) o'yinlar, mashqlar, musobaqalar – 2 ball;
- c) noto'g'ri javob – 0 ball.

**16. Transport vositalaridan qaysilarini bilasan?**

Agar bola «U nima?» deb so'rasha, «Transport – bu harkatlanish vositasi», deb tushuntiriladi.

- a) agar 3 ta – yerda yuruvchi transportni, samolyot yoki kemani aytsa – 4 ball;
- b) faqat yerda yuruvchi taransportni aytsa – 2 ball;
- c) noto'g'ri javob – 0 ball.

**17. Qari odam yosh odamdan nimasi bilan farq qiladi?**

- a) 3 ta belgi (ajinlari, yomon eshitishi, ko'rishi bilan) – 4 ball;
- b) bitta yoki ikkita belgi aytsa – 2 ball;
- c) noto'g'ri javob – 0 ball.

**18. Nima uchun odamlar sport bilan shug'ullanishadi?**

- a) ikkita sabab ko'rsatsa – 4 ball;
- b) bitta sabab ko'rsatsa – 2 ball;
- c) noto'g'ri javob – 0 ball.

**19. Agar biror odam ishlashdan bosh tortsa, nima uchun bu xatti-harakat yomon, noto'g'ri, axloqqa qarshi harakat hisoblanadi?**

- a) boshqa odamlar u uchun ishlashi kerak bo'ladi (yoki kimdir jabr chekadi) yoki dangasalik qiladi va hech narsa sotib ololmaydi – 5 ball;
- b) noto'g'ri javob – 0 ball.

## **20. Nima uchun xatning ustiga marka yopishtiriladi?**

- a) xatni jo‘natish uchun – 5 ball;
- b) noto‘g‘ri javob – (-2 ball).

## **TEST SAVOLLAR BLOKI (J.G. SAIDNAZAROVA)**

### **Testni baholash ko‘rsatkichlari**

1. Agar bola hamma savollarga to‘liq javob bersa, bu 100% deb baholanadi va (H) belgisi bilan qayd etiladi.

2. Agar bola savollarning yarmisiga javob bersa 50% deb baholanadi va (X) belgisi bilan qayd etiladi.

3. Agar bola savollarning yarmisidan kamiga javob bersa 25% deb baholanadi va (-) belgisi bilan qayd etiladi.

**Izoh:** Agar bola testda berilgan savollarga javob bera olmasa, lekin nazariy jihatdan bu savollarni bilsa, bunday holatlarda javob hisobga olinmaydi. M.; bolaga xonadagi kvadrat va to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi predmetlarni aytish taklif qilinadi. Agar bola predmet va to‘g‘ri to‘rtburchak deb nimaga aytishini bilsa, ammo ularni ko‘rsatib bera olmasa, bolaning bergen javobi hisoblanmaydi.

Bolaning aqliy taraqqiyotini aqliy jihatdan ortda qolgan, deb qaramaslik kerak. Aqliy rivojlanishning ortda qolish sabablarini shu bola bilan olib boriladigan korreksion ishlarda aniqlash zarur. Bunday bolalar tenglashtirish sinflarida o‘qitilishi va psixik jaryonlarini rivojlantiruvchi o‘yin va mashqlar o‘tkazish lozim.

### **Bolalarni mакtabga qanday tayyorlash lozim.**

#### **(Ota-onalar uchun tavsiyalar)**

1. Kichkintoyingiz maktabgacha ta’lim muassasasiga jon-u dili bilan borishiga g‘amxo‘rlik qiling.

2. Bolangizga yoshiga xos me’yorlar va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda talab qo‘ying.

3. Bola xatti-harakatlar va so‘zlar orqali sizning mehringizni sezishiga intiling.

4. Oilada uning uchun sharoit yarating.

5. Har doim bir xilda, balki undan ham ortiq qo’llab-quvvatlang, chunki uni maktabga moslashuv davrining qiyinchiliklari kutmoqda.

6. Maktab yoshiga xos yetuklik darajasini biling va ularni o‘z vaqtida shakllantirishga harakat qiling.
7. Aqliy rivojlanishi uchun sharoit yarating, uning orqada qolmasligiga harakat qiling.
8. Ertak va she’rlar o‘qib bering. Rasm chizing. U bilan iloji boricha ko‘proq suhbatlashing, turli mavzularni muhokama qiling.
9. Qo‘sishq o‘rgating, birga musiqa eshiting, multfilm, bolalar uchun filmlarni ko‘ring.
10. Muzey, teatr, sirk, hayvonot bog‘lariga olib boring.
11. Yoshiga xos o‘yinchoqlarni tez -tez olib bering va iloji boricha birga o‘ynang.
12. Mazmunli-rolli o‘yinlar va rejissyorlik o‘yinlarini ma’qullang. Tengdoshlari bilan munosabatini qo’llab-quvvatlang.
13. Hissiy dunyosiga e’tibor qarating. O‘zingiz va farzandingiz hislarini muhokama qiling.
14. Bolaga his-tuyg‘ularni jilovlay olishni o‘rgating, Sizdan emotsiyal jihatdan mustaqil bo‘lsin.
15. Sog‘lig‘i va kayfiyatini muntazam kuzatib boring.
16. Tarbiyachidan kamida bir yil ilgari bolaning maktabga yetuklik darajasini so‘rab biling yoki mutaxassislar ishtirokida test o‘tkazing.
17. Agar bolangiz maktab ta’limiga tayyor bo‘lmasa uni Sizing iltimosingizga ko‘ra maktabga qabul qilishlariga urinmang. Siz farzandingizni faqatgina tibbiy-pedagogik hay‘at tomonidan tavsiya etilgan maktabga olib borishingiz lozim.

### **Nazorat savollari:**

1. Bolalarning maktabga o‘tishlari ularning hayotida qanday o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi?
2. Maktabgacha yoshdagি bolalarni maktabga tayyorlashda ularning qiziqishlaridan qanday foydalanish kerak?
3. Olti yoshli bolaning maktabga psixik jihatdan tayyorligi qanday tekshiriladi?

## MUAMMOLI PSIXOLOGIK MASALALAR

### Maktabgacha (3–6 yosh) davri

1. 6 yoshli Nigoraning onasi shunday dedi: «Mening qizim menga uy ishlarida doimo yordam berishni xohlaydi. Men qaysi ishga qo‘l urmay u darrov yordamga keladi. Lekin u ishimni tez bitirib olishimga faqat xalal beradi xolos, keyin men uni o‘ynashga chiqarib yuborib, o‘zim uy ishlarini tezda bajarib olaman».

**Savol:** Nigoraning onasi to‘g‘ri yo‘l tutyaptimi? Siz onaga qanday maslahat berar edingiz?

2. 5 yoshli Sanjar notinch oilada o‘syapti. Otasi, har kuni mast holda o‘g‘li oldida onasini, haqorat qiladi, uradi. Bog‘chada rasm mashg‘ulotida Sanjar xunuk bir erkakning rasmini chizdi. Tarbiyachining: «Bu kim?», – degan savoliga: «Bezori...Aroq ichish yomon», – deb javob berdi.

**Savol:** Tarbiyachi Sanjar bilan ishlashda nimalarga e’tibor berishi kerak?

3. Nuriddin to‘xtamasdan savol beraveradi: Bu nima? Bu qanday mashina? O‘tirgan qanaqa odam? Nimaga shar qizil? va hokazo. Javobni oxirigacha eshitmay ketib qoladi, qaytib kelib yana savollar bera boshlaydi: Fil kuchlimi, sherchi? Yomg‘ir qayerdan tushadi? va h.k..

**Savol:** Qaysi yoshdagি bolalar bunday savollarni berishadi. Qanday hollarda savollar berishga ehtiyoj tug‘iladi?

4. Maktabga tayyorlov guruhi bolalari o‘yin vaqtida bir-birini itarishib bir bolani yiqitib yuborishdi. Natijada bolaning qo‘li qattiq og‘rib yig‘lab yubordi. Bu vaqtda tarbiyachi guruhda yo‘q edi.

**Savol:** Bunday vaqtda tarbiyachining birinchi qiladigan ishi nimadan iborat? Bunday vaziyatlarda tarbiyachiga qanday jazo qo‘llaniladi? Siz tarbiyachi bo‘lganiningizda bolaning ota-onasiga vaziyatni qanday tushuntirar edingiz?

5. 6 yoshli Madinaning onasi qizini kattalar suhbatiga quloq solib o‘tirishni yaxshi ko‘rishini sezib qoldi. Madina suhbatga goho aralashib ketar, boshqalardan eshitganlarini xursand holda aytib berar edi. Onasi bu holatni ijodiy qarshilar edi.

**Savol:** Ona to‘g‘ri yo‘l tutyaptimi. Agar xato deb hisoblasangiz izohlab bering. Onaga qanday maslahat berar edingiz?

6. Anvar 4 yosh-u 5 oylik bog‘chada kunduzgi uyqu vaqtida to‘polon qiladi. Boshqa bolalarning uqlashiga xalal beradi. Kara-votida tinch yota olmaydi.

**Savol:** Siz Anvar bilan ishlashda qanday yo‘l tutar edingiz?

7. Bolalar ota-onalar olib bergan o‘yinchoqlarni ichini kovlab, buzib tashlab yana yangisini olib berishni talab qilishadi. Ular-ni urishishganida, nimadan yasalganini ko‘rmoqchi edim, deb o‘zlarini oqlashadi.

**Savol:** Bolalardagi bunday holatni izohlab bering. Ulardagi asosiy motiv nimadan iborat?

8. Ayrim ota-onalar, agar ularning farzandlari qulop solmasa, shunday deyishadi: «Buyoqqa kel, bo‘lmasam seni hozir bo‘bo‘ yeb qo‘yadi», «Ovqatingni yemasang doktor kelib senga ukol qiladi», «Qulop solmasang militsioner kelib olib ketib qoladi», «Ana olabo‘ji kelyapti» va h.k.

**Savol:** Bola tarbiyasida bunday usullardan foydalanish mumkin-mi? Agar yo‘q bo‘lsa, nega? Xulosalaringizni tushuntirib bering.

9. Ayrim bolalar qorong‘iliqdan, sichqonlardan, biron narsa-ning ustidan sakrab o‘tishdan, kasal bo‘lishdan va boshqa shu kabi narsalardan qo‘rqa boshlaydilar.

**Savol:** Nimaga bolalarda qo‘rquv paydo bo‘ladi? Psixologik tomonidan asoslab bering.

10. Po‘lat mifiktabning tayyorlov guruhi qatnaydi. Tarbiya-chi ayrim paytlarda Po‘latni maqtaydi, lekin onasining ko‘ngli to‘lmaydi. Bola hamma narsani sekin, ishonchsizlik bilan bajaradi. Onasi uni dangasalik qilyapti deb hisoblaydi. U o‘g‘liga o‘qishni va yozishni o‘rgatishni boshladi. U daftarlarga yozmoqda, agar yomon yozsa yoki xato qilsa, uni boshidan bajarishga majburlamoqda. Oxiri Po‘lat shunday dedi: «Men bilmayman, o‘xshamayapti, yaxshisi men o‘ynayman». Ona tushunmagan holda hayron bo‘ladi: «Qanchongacha o‘ynash mumkin? Balki uni ko‘proq maqtash kerakdir. Lekin nima uchun?»

**Savol:** Po‘latning o‘qishga xohishini yo‘qolishiga olib kelgan sabablarni aytib bering. Kattalar qanday xatolarga tez-tez yo‘l qo‘yishadi?

11. Bizning Abror tez va erta gapirishni o‘rganib oldi. Bog‘chaga bormadi. Hozir 6 yoshda. Uning nutqi juda yaxshi

rivojlangan. To‘g‘ri u bog‘chadagi hamma bolalar kabi chizmaydi, yasamaydi va keyin bunga intilmaydi ham. Biz uning bu harakatlarini qo‘llab-quvvatlamadik. Lekin o‘g‘limizni yaxshi o‘qib ketadi deb hisoblaymiz, chunki u kattalar kabi fikr yuritmoqda.

**Savol:** Abrorning oiladagi tarbiyasini baholang. Abrorning o‘qishdagi natijalarini oldindan ko‘ra bilish mumkinmi?

12. Mushuk sichqonni qo‘rqitadi, it mushukni qo‘rqitadi, er-tak va multfilmlarda go‘yoki unga buyruq beradi, boshqaradi.

**Savol:** Tarbiyachining bolalarni qo‘rqitib tarbiyalashiga qanday qaraysiz? Bolalarni qo‘rqitish mumkinmi, agar mumkin bo‘lsa qanday hollarda?

13. Ma‘sud (6 yosh) xona ichida koptok o‘ynab guldronni sindirib qo‘ydi. Onasi kechqurun ishdan qaytgach vazani kim sindirganini so‘raganida u aybni ukasiga ag‘dardi. Ona o‘g‘lini yolg‘on gapirayotganlikda aybladi va jazoladi.

**Savol:** Ma‘sudning yolg‘on gapirishiga sabab nima? Ona far-zandi tarbiyasida qanday xatoga yo‘l qo‘ymoqda? Onaga qanday maslahat berish mumkin?

14. Abdulloh qurilish materiallaridan narsalar yasashni juda yaxshi ko‘radi. Katta guruh tarbiyachisi namuna bo‘yicha «Kim tez va eng chiroyli uy qura oladi?» mavzusida musobaqa uyush-tirdi. Bolalar zo‘r hafsla bilan uy qurishni boshlab yuborishdi. Abdulloh esa uy qura olmadidi. Lekin tarbiyachi unga: «Barakalla!» dedi va hamma qatori unga ham konfet berdi. Abdulloh konfetni oldi, lekin uni yeishdan qat’iy voz kechdi. Muvaffaqiyatsizlik sababli bu konfet unga «achchiq» tuyildi.

**Savol:** Tarbiyachining tutgan yo‘lini izohlang. Tarbiyachi uzoq motivni ko‘zlab ish tutdimi?

15. Oilada ikki egizak farzand Fotima va Zuhra voyaga yetyapti. Ona har ikkala qiziga bir xil tarbiya usulini qo‘llaydi: bir xil muomala, bir xil topshiriqlar, bir xil rag‘bat. Lekin qizlar bunga turlicha munosabat bildirishadi. Natijada tortishuvlar, talashishlar, janjallar.... Ona esa hayron. Men bir xil tarbiya beryapman-ku, nega qizlarim har xil?

**Savol:** Ona to‘g‘ri yo‘l tutyaptimi? Ona qizlaridagi qanday individual-psixologik xususiyatlarni hisobga olmayapti?

16. Bolalar bog‘chasidagi asosiy muammolardan biri bu bolaning bog‘chaga kelishni xohlamasligidir. 6 yoshli endi bog‘chaga qatnay boshlagan Xolida har kuni buvisi bilan kela-di va har safar yig‘lab, dodlab keladi, buvisi uni majburan tash-lab ketadi. Har kuni quyidagi bir xil manzarani ko‘rish mum-kin: «Buvijon, o‘zimning buvijonim meni tashlab ketmang, jon buvijon, men bu yerda qolsam o‘lib qolaman, uyda hamma ayt-gan ishlaringizni qilaman, supuraman, pol artaman, idishlar-ni yuvaman, sizga qarashaman, faqat tashlab ketmang, iltimos buvijooon...» Xuddi katta odamlardek. So‘ng guruh faoliyatida umuman qatnashmaydi, hammaning asabiga tegadigan bir xil ovozda ming‘irlab 2–3 soatcha yig‘lab o‘tiradi, tarbiyachining so‘zlariga ham kirmaydi. Bu har kuni davom etavergach tarbi-yachi ham, bolalar ham e’tibor bermay qo‘yishdi, go‘yoki shun-day bo‘lishi kerakdek. Sayr vaqtlarida uni «Yig‘loqi!» deb mas-xaralashadi.

**Savol:** Xolidadagi bu holat yo‘qola boshlaydimi? U bog‘cha sharoitiga ko‘nika oladimi? Bunday holat tarbiyachi uchun qanday qiyinchilik tug‘diradi? Tarbiyachi Xolida bilan qanday ish-lashi kerak, yana kimlarni jalg qilishi kerak?

17. Guruhda ikki bola tarbiyalanadi. Yusufjon og‘ir, vazmin, savollarga shoshilmasdan javob beradi, mashg‘ulotlarda ham jon-li qatnashmaydi, ishni sekin bajaradi, lekin ishlari va javoblari mukammal. Tarbiyachi vaqtni tejash maqsadida bu boladan ko‘p so‘ramaydi, lekin har safar ishlarini namuna sifatida ko‘rsatadi. Nuriddin esa chaqqon, hali qarasangiz u yerda, hali bu yerda, bir yerda tinch tura olmaydi. Hamma narsani bilishga intiladi, har bir narsani ushlab ko‘rishi kerak, har bir savolga javob berishi kerak. Ishlari va javoblari goh to‘liq, gohi chala. Agar mashg‘ulotga qiziqsa oxirigacha bajaradi, majbur qilib bo‘lmaydi. Har narsa-ni so‘rayverib, oldingizga kelaverib joningizga tegib ketadi, le-kin ko‘rinmay qolsa qidirib qolasiz. Bu bolalar haqida «Ikkovini qo‘sib, yangidan ikkiga bo‘lib qo‘yish kerak, shunda ikkita nor-mal bola chiqadi», — deyishadi.

**Savol:** Bu bolalarning individual-psixologik xususiyatlari ha-qida gapirib bering. Tarbiyachi bunday bolalar bilan ishlashda ni-malarni hisobga olishi kerak?

18. 2–3 yoshli bolalar guruhida ishlovchi bir tarbiyachi shunday deydi: «Mening guruhimda 14 ta bolam bor. Qayerga yursam orqamdan ergashishadi. Yotoqqa kirsam ham, yuvinish xonasiiga kirsam ham orqamdan qatorlashib kirib kelishadi. Tashqari-ga-ku chiqolmayman, yig‘lab qolishadi. Nimadir yesam, menga ham deb turishadi».

**Savol:** Bu yoshdagi bolalarning psixikasiga xos xususiyatlar ni aytib bering.

Bu tarbiyachiga «Tarbiyachiga qo‘yilgan talablar» bo‘yicha izohlar bering.

19. a) Surayyo 3–4 yoshli nogiron (tayanch-harakat apparati buzilgan) bolalar guruhida tarbiyachi bo‘lib ishlaydi. Guruhdagi bolalarni navbatni bilan ko‘tarib, ovutib yurishiga, pamperslarini ham almashtirishiga to‘g‘ri keladi. Har kuni bolalar bilan shug‘ullanish uchun logoped keladi. Oyligi ham yuqori.

b) Umida oddiy 3–4 yoshli bolalar guruhida tarbiyachi bo‘lib ishlaydi. Guruhda 36 ta bola. Har kungi reja asosida o‘z vazifasini bajaradi. Oyligi Surayyoga nisbatan pastroq.

**Savol:** Qaysi tarbiyachining ishi og‘irroq, nima uchun? Siz qaysi guruhda ishslashni xohlar edingiz, nima uchun?

20. 5 yoshli Shuhrat bog‘chaga bormaydi. Oilada guvernyor-tarbiyachi nazoratida shug‘ullanadi. Soat 16.00 dan so‘ng kompyuter oldidan turmaydi. Kompyuter o‘chirilsa, DVDda multfilm ko‘rishga shoshadi. Ishdan charchab kelgan ota-onaning ham gapiga qulq solmaydi. Kompyuter yoki DVD majburan o‘chirilsa yig‘i-sig‘i, dod-faryod, uyqusi ham notinch o‘tadi. Bunday hol-larda ota-ona qanday yo‘l tutishga hayron.

**Savol:** Agar Siz bu oilada guvernyor-tarbiyachi bo‘lsangiz bolaning 16.00 dan keyingi holati uchun ota-onasiga nima tavsiya qilar edingiz? Bolaning oiladagi (yolg‘iz o‘zi) ta’lim-tarbiyasi bilan bolalar bog‘chasidagi ta’lim-tarbiyaviy jarayon o‘rtasidagi farq nimada?

21. Ko‘philik bolalar bog‘chadan uylariga borib kompyuter oldidan turishmaydi. Ko‘chalarda ochilgan kompyuter xonalari ham bolalar bilan to‘lgan. Qizig‘i shundaki ular asosan kompyuter o‘ynlarini o‘ynashadi.

**Savol:** Bolalarning kompyuter bilan muloqotining ijobiyl salbiy tomonlarini sanab bering. Bola necha yoshdan boshlab

kompyuter bilan shug‘ullanishi mumkin, necha yoshda necha soatdan, qanday mavzularda?

22. «Mening katta farzandlarim qo‘rqinchli kinoli disklarni olib kelib tomosha qilishadi. Goho televizorda ham bunday kinolar qo‘yiladi. 4 yoshli o‘g‘lim ham ko‘raman deb xarxasha qiladi. Bir-ikki ruxsat berdim qo‘rqmayapti, o‘rganib qoldi» — deydi ona.

**Savol:** Necha yoshdan boshlab bolalarga qo‘rqinchli «Ujas», «Vampir»lar haqidagi kinolarni ko‘rishga ruxsat berish mumkin? Kunning qaysi vaqtlarida? Bu mazmundagi kinolarni ko‘rish nati-jasida bolada qanday xarakter xislatlari paydo bo‘lishi mumkin?

23. Bir ona shunday deydi: «O‘g‘lim endi 4 yoshga kirgan, lekin u bola emas bir balo. Haddan tashqari sho‘x va to‘polonchi. U qo‘pol so‘zli emas, yumshoq muomalali bola, ba’zi vaqtda juda qobil bo‘ladi, ba’zan esa to‘nini teskari kiyib oladi. Hech qanday pand-nasihat foyda bermaydi: kechirim so‘rab, endi qilmayman deydiyu, darrov yana avvalgi qilig‘ini qilaveradi. Unga tanbeh bersang, kulimsirab turadida: «Oyijon achchiqlanmang» — deydi. Uning bu gapiga beixtiyor kulging ham keladi. Yana bir odati o‘yinchoqlarni saqlay olmaydi. Ularni bog‘chasiga olib boradi-da yo‘qotib keladi yoki bolalarga ulashib beradi. Men uni qizg‘anchiq bo‘lmasin deyman, lekin o‘yinchoqlarni ehtiyoj qilib tutish kerak-ku axir!»

**Savol:** Bolaning xulq-atvorini qanday izohlaysiz? Onaga qanday maslahat berar edingiz?

24. Bir ota: »O‘g‘lim televizor ko‘raman deb janjal qiladi, shunda bolani qiyomaslik uchun kechki teletomoshalarni ko‘rishiqa ruxsat beraman; pultli yangi mashina olib berishimni xohlab qoladi, uni xafa qilmaslik uchun talabini bajarishim kerakmi? Keyin yana nimanidir oldirish uchun janjal....

**Savol:** Bolaning injiqliklariga sabab nima? Uning injiqliklari- ga ko‘naverish to‘g‘ri bo‘ladimi?

25. 5 yoshli Anvar uyga bir o‘yinchoq olib keldi. Onasi o‘yinchoqni qayerdan olganini so‘raganda: «O‘rtog‘im o‘ynab turishga berdi», — deb javob qaytardi. Bir necha kundan keyin ona tasodifan o‘g‘li o‘yinchoqni ruxsatsiz olganini bilib qoldi.

**Savol:** Ona Anvar bilan qanday munosabatda bo‘lishi kerak? Ba’zi bolalar bolalar bog‘chasidan o‘yinchoqlarni berkitib uylariga olib ketadilar, lekin ular «Men o‘g‘rilamadim, o‘ynab turish

uchun oldim!» – deb izohlaydilar. Bunday hollarda tarbiyachi va ota-onalar qanday yo'l tutishi kerak?

26. Bolalar bog'chasida Madina o'zini odobli tutadi. O'yin-choqlarni o'rtoqlaridan qizg'anmaydi, kattalarga joy beradi, boshqa bolalarga yordamlashadi. Uyida esa o'zini butunlay boshqacha tutadi. Ovqat vaqtida unga hammadan oldin choy berilmasa, u: «Menga nima uchun choy quyib bermadingiz?» – deb baqiradi. Onasi shoshib-pishib unga choy quyib beradi va stolga vazada konfet qo'yadi. Madina yaxshi ko'rgan konfetlarini tezgina vazadan olib, o'z oldiga qo'yadi. Onasi vazani yana konfet bilan to'ldirib qo'ymoqchi bo'lsa, Madina: «Konfetning qolganini vazaga solmang. Menga olib qo'ying. Uni ertaga men yeypman!» – deydi.

**Savol:** Madinaning bolalar bog'chasi va uyda o'zini qanday tutishiga baho bering. Nima uchun Madina uyda o'zini shunday tutadi? Onasi Madinaga bo'lgan munosabatini qanday o'zgartirishi kerak?

27. «Odiljon, avval ovqatingni yeb ol, keyin shokolad beraman» – deydi ona bir marta. Odiljon yig'lab, yo'q deb berishni talab qiladi. «Mumkin emas!» – deydi ona. Odiljon yana yig'laydi, yana shokolad talab qiladi, bu hol uchinchi, to'rtinchi marta takrorlana-di. Beshinchi martada ona taslim bo'ladi: «Mana shokolad, yeya qol, faqat ovozingni o'chir, hadeb jonimga tegaverma!» – deydi. Endi Odiljon «Mumkin emas!» degan so'zning kuchi yo'qligini, ust-ustiga talab qilaversa, har bir xohlagan narsasi muhayyo qilinishini biladi.

**Savol:** Onaning xatosini tahlil qiling.

28. 5 yoshli Ma'sud otasining soati qanday tuzilganini bilishga qiziqib qoldi. U soatni astagina olib, qulog'ini buradi. Keyin soatning ichini ochib, undagi g'ildirakchalarni ushlab ko'rdi; g'ildirakchalar ko'p edi... soat to'xtab qoldi. Ma'sud yig'lay bosh-ladi. Onasi soatni yurgiza olmadi.

– Endi menga dadam nima deydilar? – qo'rqib ketib so'radi Ma'sud.

– Qo'rqma bolajonim, dadangga soatni mushugimiz yerga tushirib yubordi, – deymiz, deb yupatdi o'g'lini ko'ngli g'ash bo'lgan ona.

**Savol:** Ma'sudning onasi va otasi o'rtasidagi munosabat haqidagi nima deyish mumkin? Bu munosabat bolaga qanday ta'sir qiladi?

29. «Agar hozir xonangni yig‘ishtirmasang senga multfilm ko‘rishga ham, o‘ynagani chiqishga ham ruxsat bermayman!» – deydi 6 yoshli Saidaning onasi. Bu hamma oiladagi odatiy holat.

**Savol:** Bolada ozodalik, batartiblik ko‘nikmasini hosil qilish uchun yana qanday usullarni tavsiya qilasiz? Ona bolasini qilgan ishi uchun maqtashi kerakmi, nima uchun? Agar bola yumushni bajarmasa ona qanday yo‘l tutishi kerak?

30. Bolasining qilgan o‘g‘irligi haqida birinchi marotaba onaga tarbiyachisi yoki uning o‘rtog‘i aytib qoldi. Ona bundan nomus qilib bolasini urishdi, urdi. Tarbiyachi bu xabarni onani ayplash, yomon ona ekanligini bildirish uchun emas, balki bolani tarbiyalash uchun imkoniyat hisoblab aytgan edi.

**Savol:** Bunday xabarni eshitgach bolani urish kerakmi? 6 yoshdan kichik bolalar hali o‘g‘rilikning nimaligini, uning oqibatini kattalar o‘ylaganchalik tushunmaydilar. Bolaning o‘g‘rilik qilgan yoki qilmaganligini bilish uchun boladan qanday so‘ragan ma’qul?

31. 2 yoshli bola kechirim so‘rashning mazmun-mohiyatini tushunib yetmaydi. 3 yoshli bola esa «kechiring» deb ayta olishi mumkin. 4 yoshga yetib bolalar kechirim so‘rashga odatlanadilar va ma’lum bir qiliqlaridan voz kechishlari lozimligini tushuna boradilar.

**Savol:** Kechirim so‘rash xohlagan qilig‘ini qilaverish uchun imkoniyatmi? Qanday hollarda kechirim so‘raladi? Tarbiyachi, ota-onaga, umuman kattalar boladan qilgan yoki aytgan nojo‘ya harakatlari uchun kechirim so‘rashlari kerakmi? Nima uchun?

32. Ba’zi bolalar ota-onasi aytganini qilishmasa polga yotib olib yig‘lashadi.

**Savol:** Bunday hollarda nima qilgan ma’qul? Bu hol mehmonda, bog‘chada, do‘konda tez-tez yuz berib tursa ota-onaga qanday maslahat berar edingiz? O‘jar va qaysar bolalar bilan ishslash tarbiyachiga qanday qiyinchilik tug‘diradi?

### **JAVOBLAR:** **Maktabgacha (3–6 yosh) davri**

1. Nigoraning onasi noto‘g‘ri yo‘l tutyapti. Bunday tarbiya usulida Nigorada mehnat qilishga ishtiyoq yo‘qolib ketishi mumkin. Ona va qiz birgalikda biror ishni boshlab, qiziga o‘rgatib,

sabr bilan malaka hosil qilishi kerak. Qizining har bir bajargan ishining natijasini baholashi kerak.

2. 5–6 yoshli bolalar o‘z oila a’zolarining rasmini chizishni yaxshi ko‘rishadi, yoqtirmagan yaqinlarini xunuk qilib chizadilar. Sanjar bilan ishlashda tarbiyachi juda ehtiyotkor bo‘lishi, garchi ular hukmga (ayplashga) loyiq bo‘lsalar ham ularni yomonlamasi ligi kerak. Bu yoshdagi bolalar o‘z yaqinlari haqidagi o‘zgalar fikriga e’tibor bilan qaraydilar. Bola uchun o‘z yaqinlari doimo yaxshi odamligicha qoladi.

3. Kim? Nima? Qanday? kabi savollar 3–4 yoshli bolalarga xos. Bu yoshda biror narsa haqida ma’lumot olishga intilish kam, shuning uchun javobni oxirigacha eshitmay ketib qoladilar. Tarbiyachi bunday bolalar bilan erinmay ishlashi, izohlab, tushuntirib berishi kerak.

4. Bu fikr noto‘g‘ri. Bolada hali hayot tajribasi yo‘q. Lekin xayol (fantaziya) bola hayotida asosiy rol o‘ynaydi. U hamma o‘yinlarga xayolan kiradi. Kattalar bolalarning xayoliy va haqiqiy harakatlarini nazorat qilib turishlari kerak.

5. To‘g‘ri, gapga quloq solib o‘tirish, gap tashish, kattalar suhbatiga aralashish odobsizlik ekanligini ona tushuntirishi kerak. Bunday holatlar ko‘pincha kattalarning farzandlariga e’tibor bermasligi, o‘z tashvishlari bilan bo‘lib qolishlari natijasida yuzaga keladi. Madina kattalar e’tiboriga tushishni xohlayapti. Bunday paytlarda qizchaga biror ish buyurish va uni albatta maqtash lozim.

6. Agar bola tarbiyachining ogohlantirishlariga ham quloq solmasa, hamma bolalar uyqudan turganda uni turg‘izmaslik; «Hamma bolalar uxlayotganda cen to‘polon qilding, sen char chading, hali dam olib bo‘lmading, yana biroz yotasan» — deyishi mumkin. Shunda bola keyingi safar vaqtida uxlashga, hech bo‘limganda tinch yotishga harakat qiladi.

7. Bunga sabablar ko‘p. Ular: o‘yinchoqning nimadan yasalganini bilishga, nima uchun, qanday qilib yurayotganini bilishga intilish va o‘yinchoqni to‘g‘ri o‘ynash, ehtiyot qilish, asrash kabilalar o‘rgatilmaganligidadir.

8. Amalga oshmaydigan narsalar bilan qo‘rqitish mumkin emas. Bunday hollarda bolada kattalar gapiga quloq solmaslik

odatini kattalar o‘zlari bilmagan holda hosil qilib qo‘yadilar va o‘zlari nega meni bolam qulqosiz, deb nolib yuradilar.

9. Bola endi atrof-olam bilan tanishayotganda, yangilikka duch kelganda unda hayron qolishdan tashqari shu narsaga qiziqish ham uyg‘onadi. Ba’zan kattalar o‘zlarining boshqacha holatlari, ovozlari, tashqi ko‘rinishlari bilan bolani shu narsadan qo‘rqtib qo‘yadilar. Keyinchalik bola qo‘rquv vaqtida kuchli hayajonlanishni boshidan kechiradi. Tez-tez qo‘rquv hissini boshidan kechirish bolaning ham jismoniy ham psixik rivojlanishiiga ta’sir qiladi. Kattalar bolalarda ehtiyotkorlikni unutmagan holda erkinlik va botirlikni tarbiyalashlari lozim.

### **Tarbiyachining ota-onalar bilan ishlashi.**

#### **Onalarga tavsiyalar. Kichkintoylar va uy yumushlari**

Bolani uy ishlarini bajarishga, o‘z xonasini tartibli saqlashga o‘rgatish uchun unga buyruq berish orqali maqsadga erishib bo‘lmaydi, chunki yosh bolalar hali buyruqni tushunmaydi. Shuning uchun bolani tartibga o‘rgatish uchun qandaydir bir topshiriq berayotganda dastlab uni qanday bajarish kerakligini bolaga ko‘rsatib berish zarur.

Quyidagi maslahatlar onalarga bolalarga uy yumushlarini bajarishni o‘rgatishlarida yordam berishi mumkin.

- Uyda ozodalik, tartibni saqlashga nisbatan bo‘lgan munosabatni qayta ko‘rib chiqing. Agar siz juda tartibli, ozoda bo‘lsangiz-u tur mush o‘rtog‘ingiz betartib bo‘lsa, bolalarning tartibli bo‘lishi juda qiyin. Shuning uchun ota-onalar o‘z xulqining oqibati haqidada o‘ylab ko‘rishlari lozim.

- Bolangiz yoshiga yetmasdanoq, uning o‘yinchoqlarini yig‘ishtirayotganiningizda nima qilayotganiningizni gapirib yig‘ishtiring. Masalan, «hozir biz xonani tartibga solamiz, o‘yinchoqlarni sekin yashikka solamiz» – deb o‘yinchoqlarni olib qutiga solib qo‘ying. Bunday xatti-harakatning mohiyati shundan iboratki, bola ular yordamida siz keyin unga buyuradigan so‘zlarni ma’nosini anglab, mashg‘ulotlarni takrorlash natijasida o‘zlashtirib boradi.

- Bolaga uy ishlarini bajarishni o‘rgatishda ularga baland ovozda gapirish yoki jismoniy jazolashdan saqlanish kerak. Kuch bilan

hech nimaga erisha olmaysiz. Bolaga aniq o‘ylangan buyruqlarni berish orqali qiladigan ishlarini tushunishiga yordam bering.

• Xonani yig‘ishtirish haqidagi umumiy buyruq bolada qiyinchi-lik tug‘diradi va uni tashvishga soladi. Shuning uchun u bajarish lozim bo‘lgan ishni qismlarga bo‘lib bering. Avval bolaga sochilib yotgan kitoblarni, o‘yinchoqlarni qanday yig‘ishtirishini aytинг va h.k..

• Bolani tartibga o‘rgatishda imkon qadar kitob javoni yoki o‘yinchoqlar uchun alohida yashikchalardan foydalaning. Agar har bir o‘yinchoqning o‘z joyi bo‘lsa, uyni yig‘ishtirish va bolani bunga odatlantirish osonroq kechadi.

• Bolalar biror ishni butun vujudi bilan xohlab qilganlarida ham, uni sekin bajarishlari yoki chala qilishlari mumkin. Shuning uchun «Bolaga ish buyur, orqasidan o‘zing yugur» deyilganidek, bu ishni tezlashtiraman, deb uni o‘zingiz bajarmang. U yoki bu ish tez yoki sifatlari bajarilganidan ko‘ra unda bolaning ishtirok etishi muhimroq. Uy yumushlarini bajarishda bola ishtirokini ta‘minlash bilan unga ko‘proq yordam bergen bo‘lasiz.

• Bola uy yumushlarini bajarayotganda, dars qilayotganda televizorni o‘chirib qo‘ying. Aks holda, bola televizorda berilayotgan ko‘rsatuvga chalg‘ib, nima qilishi lozimligini unutib qo‘ishi mumkin. U diqqat-e’tiborini bitta narsaga qaratishi kerak. Ayniqsa, o‘g‘il bolalarni tarbiyalashda bu yanada muhumroqligini yodda tutish lozim.

• Bolaga «agar sen rasm chizishni, suratlarni bo‘yashni xohlasang, avval xonani yig‘ishtirib qo‘y» deng. Bu kabi gaplarni o‘rni kelganda tez-tez takrorlab turing, shunda bola tez orada o‘zi o‘ynayotgan joyni o‘ynab bo‘lgandan so‘ng (bir ishdan boshqasiга o‘tayotganda) yig‘ishtirib qo‘yishga o‘rganadi.

• Bolaga uy yumushlarini bajarishda sizga yordam berishiga ruxsat bering. Bola tomonidan bajariladigan ishlarga qo‘yiladigan talab kattalarga nisbatan qo‘yiladigan talablardan farq qilishi lozim. Bola yig‘ishtirilgan xonadagi tartib juda yuqori darajada bo‘lmasa (hamma narsani joy-joyiga qo‘ymagan bo‘lsa) ham, uning xatolarini aytmay, tanqid qilmay, biroz maqtab kelgusi safar bundan ham yaxshiroq bajarishi mumkinligini ta’kidlab rag‘batlantiring. Bu bolada ishlarini o‘zi uddalaganligidan faxr tuyg‘usini yuzaga keltiring.

- Bolani tartibliligi, ozodaligi, o‘yinchoqlarni joyiga qo‘yganligi, sizga yordam bergenligi uchun maqtang. Bu o‘rinda maqtov so‘zlarga xasislik qilmang. Maqtovni bolani o‘pib, quchoqlab qo‘yish bilan mustahkamlab qo‘ysangiz yana ham yaxshi bo‘ladi. (ayniqsa kichkintoylar uchun).
- Turmush o‘rtog‘ingizga yoki biror tanishingizga bolangizni yaxshi bola bo‘lganligini, sizga yaqin yordamchi bo‘lib qolganligini aytib, maqtang. Bunday maqtovlarni atayin bolaga eshittirib gapiring.
- Bolangiz xonasini yig‘ishtirmagan bo‘lsa uni «Oqshom ertaklari»ni ko‘rishdan mahrum qilishingiz, unga o‘sha kuni televizor ko‘rishga ruxsat bermaganingiz ma’qul. Bola qaroringizni o‘zgartirishingiz mumkinligini tushunsa, ya’ni belgilangan jazoni olmasligini bilsa, u keyinchalik sizning aytgananingizni qilmaydigan bo‘lib qolishi mumkin.
- Uy yig‘ishtirishni o‘yinga aylantirib yuboring. Ishlarni qo‘shiq aytib, musiqa tinglab, ohangiga moslab o‘ynab, «kim tezroq o‘yinchoqlarni joy-joyiga qo‘yish» o‘yini tarzida bajartiring. Bunda vaqtini nazorat qilish uchun qum soati yoki vaqtini bildiradigan o‘lchovlardan, qo‘ng‘iroqlardan, ovoz chiqaradigan, gapi-radigan soatlardan foydalansangiz yana ham yaxshi bo‘ladi.
- Uy yig‘ishtirishni butun oila a’zolari birgalikda bajaradigan ishga aylantiring, uy ishlarini bolalar bilan birgalikda bajaring. Bunday sharoitda ular uy ishlarini bajarishga tez va oson o‘rganadilar va o‘zlarini oilaning faol, kerakli a’zosidek his qiladilar.
- Uyni yig‘ishtirib bo‘lganiningizdan so‘ng bolaning atrofida tartib va ozodalikning bo‘lishi yaxshi ekanligini tushunganiga ishonch hosil qiling. Buning uchun unga minnatdorchlik bildiring, so‘ng: «Qaranglar, xonamiz yoqimli ko‘rinaypti-a. O‘yinchoqlar har yoqda sochilib yotmay, joy-joyida tursa qanday yaxshi. Mana endi o‘tirib bemalol ertak o‘qish mumkin» yoki «Qara ozoda xonada o‘tirish qanday yoqimli», – kabi mulohazalariningizni bildiring. Bu bilan bola o‘z mehnati natijalarini baholashga o‘rganadi.

### **Bolani jazolash**

Tarbiya jarayonida bolaga ta’sir etishning bir qancha uslublarini qo‘llash mumkin. Lekin farzandga jismoniy jazo berish ta’sir etish

uslublarining oxirgisi bo'lib hisoblanadi. Va bu usulga ota yoki ona so'nggi chora sifatidagina murojaat etishi kerak. Afsuski hozirgi paytda jismoniy jazoga murojaat yo'li qisqarib bormoqda va uni qo'llash ko'p jihatdan bolaning xulq-atvori natijalari bilan belgilanmay, balki ota-onaning tajang holatidan kelib chiqib belgilanmoqda. Tadqiqot natijalariga ko'ra tarbiya jarayonida jismoniy jazoni u yoki bu hollarda qo'llash tarafдорлари ko'pchlikni tashkil etar ekan. Shuni hisobga olgan holda bu borada ba'zi mulohazalarni taqdim etamiz:

Iloji boricha bolaga jismoniy jazo berishdan o'zingizni tiying. Bolani jazolash tarbiyaviy natijani ko'zda tutgan holda amalga oshirilishi kerak. Bolangizni tarbiyalash jarayonida qattiq jahlingiz chiqqanda o'zingizni boshqarishingiz qiyin bo'lsa, iloji boricha boshqa narsaga chalg'ishga harakat qiling. Agar bola tarbiyasida oila a'zolaridan yana kimdir ishtirok etsa, kelishib olinglar: kimningdir jahli chiqib, o'zini idora etishi yo'qolganda, ikkinchisi unga ko'makka kelishi va iloji boricha uni xotirjam qilishga urinishi kerak. Masalan, alohida xonaga olib kirish, odamni yengillashtiruvchi so'zlar aytish, bolani nazorat qilish jarayonini o'z qo'liga olish va hokazo.

### **Quyidagi uchta jazo turini qo'llamang**

Jismoniy jazo qaysi shaklda bo'lishidan qat'i nazar, u bola hayoti va sog'lig'iga xavf soladi. Bolaga nisbatan jismoniy jazo qo'llash bola tomonidan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarining o'zlashtirilishini sekinlashtiradi, unda tashabbuskorlikning rivojlanmasligiga, itoatkorlik, xavotirlanish, yolg'onchilik, tajovuzkorlikning ortishiga olib keladi.

- Tanbeh berish, bola harakatlarini taqiqlash, uning shaxsiyga nisbatan to'g'ridan to'g'ri yoki kinoya bilan salbiy munosabatda bo'lish, salbiy baho berish ko'rinishida bo'ladi. Buning natijasida bolaning shaxs sifatida rivojlanishi buziladi, ya'ni bolada o'z-o'zini baholash darajasi pasayib, unda mutelik, o'ziga ishonmaslik, ichidagini hech kimga aytmaslik, hasadgo'ylik kabi sifatlarning shakllanishiga olib keladi. Ota-oná tomonidan bolaga turli xil «yorliqlarning yopishtirilishi» unda ota-onasi tomonidan chetga surib qo'yilgandek va ular meni yaxshi ko'rmaydi, degan xulosaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

- Ota-onan mehridan mahrum qilish. Bunda ota-onalar o‘z salbiy munosabatlaruni: «Men seni yaxshi ko‘rmayman», «Sen bizga kerak emassan», «Ortiqcha yuksan» kabi so‘zlar bilan bolaga ochiq-oydin bildirishadi.

### **Quyidagi jazolarni o‘rni kelganda qo‘llash mumkin**

Bolani turli xil imtiyozlardan mahrum qilish. Jazoning bunday usuli odatda bola o‘rgangan holatlarga nisbatan cheklashlar ko‘rinishida bo‘ladi. Ya’ni bolaga biror narsa shirinlik, o‘yinchoq olib bermaslik, televizor yoki video ko‘rishdan, yoqtirgan o‘yinini o‘ynashdan yoki biror joyga borishdan mahrum qilish kabilar ko‘rinishida amalgalash oshiriladi. Bunday jazoning foydali tomoni shundaki, bola o‘zi sodir qilgan harakatining qanchalik yomonligini va uning oqibatini tushunadi. Jazoning salbiy tomonida bola ota-onaning qattiq jazosidan ularning hokimligini, ustunligini va o‘zining ularga tobe ekanligini his qilib siqiladi.

- Biror ishni bajarishga majburlash. Bu holatda bolaning shaxs sifatida rivojlanishiga salbiy ta’sir etadigan ikki jihat shakllanishi mumkin, birinchisi, bolada ota-onasiga va ijtimoiy talablarga nisbatan salbiy munosabat uyg‘onadi; ikkinchisi, o‘zidan yuqori yoki kuchlilarga itoatgo‘ylik va bo‘ysunuvchanlikka o‘rganadi. Bunday tashqari, bolani har doim biron-bir ishni bajarishga majbur qilish, keyinchalik uning mustaqil bo‘lishiga va o‘z-o‘zini boshqarishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

- Bolaning qilgan xatosini o‘ziga to‘g‘rilatish. Bunday jazoning ijobiy tomoni – bu ancha samarali usul bo‘lib, bola qilgan xatosini o‘zi to‘g‘rilashga o‘rganadi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, bolani bu usul bilan jazolashda uning o‘zini ayblashi-ga, vijdoni qiynalishiga, boshqalardan uyalishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak, buning uchun ota-onan ham uni ayblashi, unga zarda, do‘q-po‘pisa qilishi kerak emas. Jazolashning eng yaxshi yo‘li ota-onan bolaning o‘zi qandaydir yo‘l qabul qilishi uchun biror muddat indamasdan kutib turishidir. Bunda ota-onan bolaning o‘zi biror narsa qilishi (uzr so‘rashi, qilgan xatosini to‘g‘rilashi) uchun imkoniyat berishi kerak. Bu usulda jazolash uchun bolaning yoshi va yetarli ma’lumotga ega ekanligini ham hisobga olish lozim.

- Noo‘rin ishga, harakatga to‘sinq qo‘yish. To‘sinq qo‘yish bolaning bajaradigan yoki bajarmoqchi bo‘lgan ishini to‘xtatishdir. Shundan so‘ng qiyinchilikni yuzaga keltirgan vaziyat albatta tahlil qilinishi kerak.
- Mantiqiy tushuntirish va asoslash. Bolaning qilgan ishi qanday oqibatlarga olib kelganligini mantiqiy jihatdan asoslab va tushuntirib berish kerak. Bu usulning afzalligi shundaki, uning yordamida bolada qilgan ishi atrofdagilar uchun qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini his qilish shakllanadi. Bu usulda tarbiyalash bolaning axloqiy jihatdan yaxshi tarbiyalanishiga olib keladi.

### **Jazoning foydali bo‘lishi uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilinishi kerak**

- Bolani jazolayotganda uning yoshi va xatoning qay darajada og‘ir yoki yengilligiga e’tibor berish kerak.
- Bolaning xatosi uchun uni jazolashni kechiktirmaslik kerak, kechiktirilgan jazo bolada qo‘rquv, tashvish, xavotir, depressiyalarga olib kelishi mumkin.
- Ota-oná hech qachon jahli chiqib turganda jazo qo‘llashi kerak emas.
- Ota-oná bolaga qarshi birlashib olmasliklari kerak. Ularning har biri o‘zini odatdagidek tutishi, agar ularning tarbiya sohasidagi qarashlari mos tushmasa, u holda bolaning oldida urishib-tortishib, bir-birini tanqid qilmasligi, kamsitmasligi kerak.
- Bolaning qilgan xatosini ko‘pchilik ishtirokida, ayniqsa, uning o‘rtoqlari yoki tanishlari davrasida muhokama qilmang. Aksincha uning «siri»ni saqlasangiz u bu qiliqlarini boshqa qaytarmaslikka harakat qiladi.

### **Bolalarning yolg‘on gapirishlari**

Bolalarning yolg‘on gapirmaslikka o‘rgatish uchun quyidagi maslahatlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

- Yolg‘onchilik bilan bog‘liq bo‘lgan har bir vaziyatdan iloji boricha to‘g‘riso‘z bolani tarbiyalashda foydalaning.
- Bolani hadeb yolg‘onchi deb atayvermang, negaki u haqiqatdan ham yolg‘onchi bo‘lib qolishi mumkin.

- Bolalarning oldida «Men erim (xotinim)ga bu ko‘ylak (yoki boshqa narsa)ni qanchaga olganimni aytmayman», kabi izohlar-ni ishlatmang.
- Bola bilan birgalikda yolg‘on to‘qimang, bu bilan uni yolg‘on-chilikka juda oson o‘rgatasiz. Masalan: «Biz dam olishga ketayapmiz, sen ham maktabga bormasdan biz bilan birga ketasan, o‘qituvchingga esa seni «kasal» deb aytamiz», – deb yolg‘onga o‘rnatmang.
- Bola o‘zini yaxshi ko‘rsatish maqsadida to‘qigan yolg‘oni uchun uni boshqalar oldida urishmang. Uning o‘ziga alohida tu-shuntiring.
- Yolg‘oni uchun bolani jazolayotganingizda unda o‘ziga nis-batan nafrat uyg‘otishdan ehtiyoj bo‘ling.

### **Bola o‘g‘rilik qilgan bo‘lsa nima qilish kerak?**

- Agar sizning farzandingiz nimanidir o‘g‘irlagan bo‘lsa, va-himaga tushmang – bu hali «u jinoyatchi bo‘ladi», degani emas. Haddan tashqari qattiq jazo berish bolani sizdan uzoqlashtiradi. 6 yoshdan kichik bolalar hali o‘g‘rilikning nimaligini, uning oqibatini biz o‘ylaganchalik tushunmaydilar.
- Sizning maqsadingiz – bolaga nima uchun o‘g‘rilik qilish yaxshi emasligini tushuntirish. Bundan tashqari siz bola o‘ziga yoqqan narsani indamasdan olishini emas, balki so‘rab olishini xohlaysiz. Bunga bolani asta-sekin o‘rgatib borish kerak.
- Bolangizni qilgan o‘g‘riliqi haqida birinchi marotaba sizga uning o‘qituvchisi yoki o‘rtog‘i aytib qoldi. Bundan nomus qilib, jahlingiz chiqib bolani urib-so‘kmang. Ular bu «xabar»ni sizning yomon ota-onan ekanligingizni ta’kidlash uchun aytmadilar, siz ham buni o‘zingizni ayblash uchun emas, balki bolani tarbiyalash uchun imkoniyat deb hisoblang.
- Agar siz bola o‘g‘rilik qilgan yoki qilmaganligini uning o‘zi-dan bilmoqchi bo‘lsangiz, undan: «Shohidaning o‘yinchog‘i yo‘qo-lib qolibdi, uning onasi menga «qizingiz olgan bo‘lishi mumkin» deyapti. Shu gap to‘g‘rimi?», – qabilida so‘rasangiz ma’qulroq.
- Agar bola haqiqatdan ham qo‘g‘irchoqni olganligini bo‘yniga olsa, uni to‘g‘riso‘zligi uchun maqtab qo‘ying. Agar bola o‘z aybini tan olmasa, uni o‘g‘rilikda ayblamang ham. Bolaga o‘zining gapi (fikri)ni aytishga imkon bering. Balki bola qo‘g‘irchoqni «topib

oldim» deyishi mumkin. Nima deyishidan qat'i nazar unga birovning narsasini so'ramasdan olish yaxshi emasligini tushuntiring.

- Bola bilan bir marta gaplashganingizdan keyinoq u o'g'rilik qilmaydi, deb kutmang. Bunday suhbatlarni takrorlab turing.

- Kichik bolalar odatda yolg'on gapirmaydi, shuning uchun ulardan yaxshilab so'rash kerak. Agar bola aybdor emasligini ta'kidlasa, unga ishonishingiz kerak.

- Agar bolangizga gapiroayotgan gaplaringiz ta'sir qilmasa va u o'g'rilik qilishda davom etaversa, bir o'ylab ko'ring-chi, uni shu darajada – hatto gap ta'sir qilmaydigan darajada erkalatib yubormaganmikinsiz? Agar shunday bo'lsa, endigi erkatalishingiz me'yorida bo'lishiga e'tibor berishni boshlasangiz, xato qilmaysiz.

- Ba'zan bolaning ota-onasi, oila a'zolari unga nisbatan nohaq munosabatda yoki bemehr bo'lganlarida u o'zini begona his etishi va o'g'rilik qilishi mumkin. Bunday bolani maqtab turish lozim va shunday qilish kerak-ki, oilaning hamma a'zosi uni yaxshi ko'risiga ishonsin.

### **Boladan kechirim so'rash**

- Boladan kechirim so'rash yoki so'ramaslikni hal qilishda muhimmi «oilada kim bosh ekanligi» haqida emas, balki «adolatlilik» haqida qayg'urishdir. Bolalar beg'araz ota-onalarga ko'proq ishonadilar.

- Agar kechirim so'rashingizga qaramay bola o'zining salbiy xulqini namoyon qilaversa, u holda intizom choralaridan foydalanish lozim bo'ladi.

- Bolangiz o'zini yomon tutgan vaqtda siz jazo sifatida uni «Oqshom ertaklari»dan mahrum etsangiz, u hamma aytganlaringizni qilishga tayyor bo'ladi. Agar siz bolaga o'z nazoratingizni namoyon etsangiz, bola oiladagi o'zining o'rni haqida o'ylay boshlaydi.

- Bolaga jazo choralarini qo'llashda quyidagilarni esda tuting: har doim bolaning nojo'ya harakati bilan uning shaxsini ajratib qarang. Shuning uchun munosabatingizda Siz bolaga uni yaxshi ko'rishingizni, lekin uning o'zini tutushi sizga yoqmayotganligini tushuntirishga harakat qiling.

- Ba'zan arzimagan narsalar yuzasidan tortishuvlar yuzaga kelganda har ikkala tomon «o'z obro'si»ni yo'qotmay, o'zaro muzokara asosida kelishishlari lozim. Gohida ota-onalar bola-

ga nisbatan haddan tashqari talabchanlik qilganliklarini yoki behuda ayblaganliklarini tushunadilar. Bunday vaziyatda kechirim so'rash ota-onaning unga bo'lgan hurmatini namoyon qilishga yordam beradi, shuningdek, ahil oilalarda bola xato qilsa, uni kechirishlari va sevishda davom etishlarini anglatadi.

• Ikki yoshli bolalar kechirim so'rashning mazmun-mohiyatini tushunib yetmaydi, uch yoshli bola esa «kechiring» deb ayta olishi mumkin xolos, lekin ota-onalar ularga o'z xulqini qanday o'zgartirish mumkinligini tushuntirishlari kerak. To'rt yoshga yetib bolalar kechirim so'rashga odatlanadilar va ma'lum bir qiliqlaridan voz kechishlari lozimligini tushuna boshlaydilar.

### **Quyida bolani kechirim so'rashga o'rgatishda ota-onalar o'ylab ko'rishi lozim bo'lgan ayrim mulohazalarni keltirib o'tamiz**

1. Bola qilgan nojo'ya xatti-harakati yoki qiliqlari uchun ko'rko'rona kechirim so'rayverish kerak emasligini tushunishi kerak. Kechirim so'rash – xohlagan qilig'ini davom ettirish uchun imkoniyat bo'lmasligi kerak.

2. Odatda ikki holda kechirim so'raladi:

• oddiy afsuslanish belgisi sifatida kechirim so'rash (masalan, tasodifan kim biladir turtinib ketganda uzr so'rash);

• kishi o'z xatosini tan olishi va kechirim so'rashi (masalan, «...men hech qachon bu ishni qilmayman» qabilida). Bolani kichkinaligidan boshlab bu farqlarni anglab olishi va o'zlashtirishi uchun o'rgatib borish kerak. Lekin bu anchagina og'ir kechadigan saboq, shuning uchun uni o'zlashtirish ma'lum vaqt talab qiladi.

3. Bolalar, kundalik hayotda, biz kattalar o'z xatolarimizni qanday tuzatayotganligimizni kuzatib boradilar va bu kuzatishlar asosida, xato qilish – fofja emasligi haqida xulosaga keladilar. Agar biz o'z xatolarimizni tan olsak, kechirim so'rasak va shunga mos ravishda o'z xulqimizni, munosabatimizni o'zgartira olsak, bu bilan biz bolalarimizni kechirim so'rashga va xulqini o'zgartirishga o'rgatib boramiz.

4. Bolalar o'zi qilgan aybi yoki xatosi uchun javob berishi lozimligini tushunishi kerak, biz o'z xatolarimizni tan olish orqali buni bolalarga tushuntirishimiz mumkin.

5. Ba’zan shunchaki «kechiring» deyishning o‘zi kamlik qiladi. Sodir etilgan hodisani oila davrasida muhokama qilish zarur. Oil a davrasidagi muzokaralar keyinchalik yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan behuda tortishuvlarning oldini oladi. Bunday muhokamalarnatijasida ko‘pincha to‘g‘ri xulosalarga kelinadi.

6. Ba’zida kechirim so‘rash ishonch alomatidir. Shuning uchun jahl bilan: «Sen nimaga bu ishni qilding?», — deb so‘rash shart emas. Ko‘pincha odamlar o‘zi sodir etgan xatti-harakatlari boisi tushuntira olmaydilar, agar ularga xatosini tuzatishga imkon berilsa, ular bundan minnatdor bo‘ladilar.

### **Sustkashlik va unutuvchanlik**

- Sustkash yoki unutuvchan bolaga o‘z vaqtini taqsimlashni o‘rganishiga va xulqini boshqara olishiga yordam bering.

- Ba’zi bolalar o‘z diqqatini to‘play olmasligi, e’tiborsizligi tufayli o‘z buyumlarini unutib yuradilar. Kichik yoshdagibolaarning diqqatini rivojlantirish oddiy uy yumushlari va odatlardan boshlanadi. Masalan, belgilangan vaqtda dasturxon atrofida oila a’zolarining jamuljam bo‘lishi va shunga o‘xhash kundalik ishlar bolada vaqtga, joyga e’tibor bera boshlashni shakllantiradi.

- Uyda oddiy vazifalarni bajartirish orqali bolalarni tartib-intizomga va ozodalikka o‘rgatib borishga erishish mumkin. Masalan, ularga oyoq kiyimlari va kiyim boshlarini yig‘ishtirib qo‘yish topshirilsa, ular o‘zlariga topshirilgan uy yumushlarini munta-zam bajarib borish jarayonida tartibga odatlanib boradilar. Buning uchun ota-onalariga biror-bir yumushni bajarish davomida bola bilan gaplashishi, o‘zining nima qilayotganini tushuntirib borishi kerak. Masalan, «kerak bo‘lganida qidirib yurmaslik uchun, oldin qo‘lqopingni yechib kurtkangning cho‘ntagiga solamiz, keyin kurtkangni ilib qo‘yamiz» kabi.

- Kichkintoylar kattalar harakatini kuzatish, uy yumushlarida ota-onalariga yordam berish jarayonida har bir buyum o‘z joyiga ega ekanligini bilib boradilar va tartibni qadrlashga o‘rganadilar.

- Sustkashlikning sababi, ko‘p hollarda bolaning o‘ziga kattalarning e’tiborini qaratish uchun atayin qilayotgan haraka-ti bo‘lishi mumkin. Agar shunday bo‘lsa, unga ko‘proq e’tibor bering, masalan u bilan birga o‘ynang, rasm chizing, kubiklar yig‘ing, kitoblar o‘qing yoki sayrga chiqing.

- Bolaning uyqusirab yurishi yoki xayolparastligini tashlatishga urinmang, buning o‘rniga ma’lum bir ishni keyinga surmay, o‘z vaqtida bajarishga o‘rgating va shunday qilish zarurligini tushunishiga yordam bering. Ko‘pincha ularni har doim bo‘lajak o‘zgarishlar haqida ogohlantirib, ularga xatti-harakatlar ketma-ketligini tusuntirib borsangiz bu yaxshi natija beradi. Masalan, «hozir o‘ynab turishing mumkin, undan keyin esa yuvinasan», qabilida voqeahodisalarning qay tartibda rivojlanishini bolaga tushuntirib borilsa, bolaning bir mashg‘ulotdan boshqasiga o‘tishi osonlashadi.

### **Boladagi sustkashlik va unutuvchanlik odatlaridan qutulish uchun quyidagi holatlarga amal qilish lozim**

- Bolada bu odatlarni bartaraf etish uchun unga ma’lum bir jazo belgilashdan ko‘ra bolaning diqqatini jamlay olish qobiliyatini rivojlantirish ko‘proq foyda beradi.

- Bola bilan qayerda gaplashish yoki unga nimani tushuntirishingizdan qat’i nazar har doim shuni yodda tutingki, tushuntirishlarining oddiy bo‘lgani ma’qul. Bolani gapga ko‘mib tashlamaslikka harakat qiling.

- Uyingizda buyumlar va o‘yinchoqlar o‘zining doimiy joyiga ega bo‘lishiga harakat qiling. Buning uchun ko‘p vaqt sarflash va o‘ta tartibli bo‘lish shart emas. Masalan o‘yinchoqlarni polkaga terib qo‘yish shart emas, ularni shunchaki yashikka solib qo‘ysangiz kifoya.

- Shuni bilingki, bolalar «qiymat», «narx» degan murakkab tushunchalarni anglab yetmaydilar. Shuning uchun bolangiz mabodo biror buyum yoki o‘yinchog‘ini qayerdadir unutib qoldirgan bo‘lsa, bunday hollarda bolaga o‘sha buyumning narxi haqida gapirib o‘tirishning hojati yo‘q, chunki bu uning uchun hech qanday ahamiyatga ega emas.

- Agar bola biror narsani yo‘qotib qo‘ygudek bo‘lsa, unga keyingi safar yana biror narsani yo‘qotib qo‘ymasligi uchun ni-ma qilish kerakligini tushuntiring. Masalan, unga: «Bog‘chada oyoq kiyimni shkafga yaxshilab joylab qo‘yish kerak, shunda ular yo‘qolmaydi», – deb o‘rgating. Bolaga u o‘zini xulqini kuza-tib borishi kerakligini tushuntiring.

- Bolangizga hadeb pand-nasihat qilavermang. Unga xafa bo‘lmaydigan qilib tanbeh berishning o‘zi kifoya.

- Kattalar xato qilganidek, bola ham xato qilishi mumkinligini unutmang. Bolalar ham kattalar kabi o‘zlari uchun yangi bo‘lgan vaziyatlarda hayajonlanishlari, masalan, mакtabda, mакtabda o‘qishning birinchi haftasida – u yoki bu narsalarini unutib qo‘yishlari mumkin. O‘zingizda ham ba’zan kalit, qaychi yoki shunga o‘xshash narsalarini qayerga qo‘yaningizni eslay olmasdan qidirib qolish hollari bo‘lib turishini yodda saqlang.
- Bolani tez-tez harakat qilishga undang, buning uchun uning har bir yutug‘ini shirin so‘z bilan, o‘pib qo‘yish bilan rag‘batlantirib boring yoki oddiy mashg‘ulotni ham o‘yinga ay-lantirib yuboring. Shunday qilishga erishingki, belgilangan vaqt-gacha bola narsalarini yig‘ishtirishga ulgursin.
- Odatdagи tartib (masalan, o‘z vaqtida o‘tirib ovqatlanish yoki soat sakkizgacha kiyinib ulgurish)dan chetlashish zarurati bo‘lsa, bolaga buning sababini tushuntirish va bu o‘zgarish faqat bugungagina tegishli ekanligini aytинг.
- Agar bolangiz sustkash yoki parishonxotir bo‘lsa, uning xul-qini yaxshilashni o‘z oldingizga vazifa qilib oling. Ma’lum bir reja tuzib, unga qat’iy amal qiling. Agar siz rejaga qo‘l siltaydigan bo‘lsangiz, u holda sizning barcha say-harakatlaringiz behuda ketadi. Intizom bu bolangizning ham, o‘zingizning ham xulqin-gizni o‘zgartirishdir. Lekin bu ishda darhol muvaffaqiyatga eri-shaman deb kutmang, bu oson ish emas va buning o‘rniga asta-sekin muvaffaqiyatga erishishga harakat qiling.

### **Bolangiz o‘jar: nima qilganingiz ma’qul?**

Bolasi o‘jarlik yo‘liga o‘tgan onalarga quyidagilar tavsiya qilinadi:

- Bolaning o‘jarligi va qaysarligiga qarama-qarshi tomonlar-ning kurashi emas, balki bolani tarbiyalash imkoniyati deb qarang. Bola qaysarligini bartaraf etishda izchil va qat’iyat bilan harakat qiling.
- Agar farzandingiz odamlar orasida qaysarlik qilsa, «boshqalar nima deb o‘ylaydi», deb tashvishlanmang, buning o‘rniga butun diqqatingizni yig‘layotgan bolaga qarating va iloji boricha uni boshqa joyga olib keting.
- Agar do‘kondan bolangiz aytgan narsani olib bermasangiz va u xarxasha qilishni boshlasa, yig‘lab to‘polon qilishga o‘tsa,

tashvishlanmang yoki asabiylashmang, bunday paytda quyidagi fikrni yodda tuting: o‘z aytganingizda qat’iy tursangiz, bolaning bu kabi qiliqlari asta-sekin yo‘qolib boradi.

- Farzandingizni mehmondorchilikda yoki qarindoshlarin-giznikida biror nojo‘ya harakati yoki talabi uchun jazolasan-giz va u yig‘lab, atrofdagilarning qiqqatini tortsa, Siz atrof-dagilarga o‘z pozitsiyangizni tushuntiring: «Biz farzandimizga odam istagan hamma narsasini olaverishi mumkin emas, deb o‘rgatmoqchimiz. Bu bizning tarbiya usulimizdir. Agar bu bilan sizlarga noqulaylik tug‘dirgan bo‘lsak, uzr so‘rayman», – deb aytib qo‘yaqoling.

- Agar farzandingiz yig‘lab, «dod-voy» solib to‘polon qilayot-gan bo‘lsa, atrofda uning tanasiga zarar etkazadigan narsalar (pi-choq, vilka va h.k.) yo‘qligiga ishonch hosil qiling.

- Ba’zi bolalar yerga yotib yig‘lashadi. Bu holda bola yig‘lab bo‘lguncha kutgan ma’qul. Ba’zida janjal sizning to‘g‘ri qaror qabul qilganingiz natijasida ham bo‘lishi mumkin. Bunday paytda o‘z qaroringizda qat’iy turing. Bolaga o‘z so‘zingizda qat’iy turishin-gizni va gapingizdan qaytmasligingizni ayting. Shuningdek, unga o‘zini boshqacha tutishi mumkinligini va uning me’yorlarini tu-shuntiring.

- Ba’zi bolalar yerga yotib yig‘layotganlarida ularni ko‘tarsak, yanada qattiqroq chinqirib yig‘lashi mumkin. Hechqisi yo‘q, bola birpas qo‘lingizda yig‘lay qolsin.

- Ba’zida bolalar shunchalik qattiq chinqirib yig‘lashadiki, onaning xayoliga «bolam xushini yo‘qotib qo‘ymasmikan» de-gan vahimali fikr kelishi mumkin. Bunday holda bolani birpasga bo‘lsa ham chalg‘itishga urinib ko‘ring. Bola chalg‘ib, chuqr na-fas olganidan so‘ng yig‘isida davom etaversin.

- Bola xarxasha qilganda unga istagan narsasini muloyim-lik bilan so‘rashi kerakligini, maqsadga yomon xulq yoki to‘polon bilan emas, xushxulqlik bilan ham erishish mumkinligini tu-shuntiring va undan shuni talab qiling.

- Ota-onalar, boladagi tarbiya nuqsonlarni faqat izchil va qat’iyatli harakatlarmiz orqaligina bartaraf etishimiz mumkin-ligini doimo yodda tuting.

## MAVZULAR BO‘YICHA TEST TOPSHIRIQLARI

### Psixologiya fanining predmeti

#### 1. Psixologiya fani nimani o‘rganadi?

- a) odam psixikasini, odam psixik faoliyatining qonuniyatlarini, fakt va mexanizmlarini o‘rganadi;
- b) amaliyotchi psixologlar ishini o‘rganadi;
- c) odamning psixik taraqqiyotini o‘rganadi;
- d) obyektiv hodisalarning mohiyati va imkoniyatlarini o‘rganadi.

#### 2. Psixik holatlар to‘g‘ri berilgan qatorni belgilang.

- a) sezgi, idrok, xotira;
- b) his-tuyg‘ular va iroda;
- c) qobiliyat, xarakter, qiziqishlar, ehtiyojlar;
- d) tafakkur, xayol, nutq, diqqat.

#### 3. Quyidagi berilgan hodisalarning qaysi qatori psixik jarayonlarga kiritiladi?

- a) miya, his-tuyg‘ular, ong, diqqat;
- b) xohish, idrok, instinkt, harakat;
- c) sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, nutq, diqqat;
- d) qobiliyat, xarakter, qiziqishlar, ehtiyojlar.

#### 4. Psixologiya fani qachon va qayerda vujudga kelgan?

- a) bundan 2–2,5 ming yillar avval qadimgi Gretsiyada;
- b) bundan 2 ming yillar avval qadimgi Olmoniyada;
- c) bundan 1,5 ming yillar avval qadimgi Gretsiyada;
- d) bundan 2,5 ming yillar avval O‘rta Osiyoda;

#### 5. Psixologiya tarixi necha davrga ajratiladi?

- a) 3 davrga; c) 6 davrga;
- b) 2 davrga; d) 8 davrga.

#### 6. «Sharq Aristoteli» unvoniga sazovor bo‘lgan mashhur mulla taffakir kim?

- a) Abu Rayhon Beruniy; c) Abu Nasr Forobiy;
- b) Alisher Navoiy; d) Abu Ali ibn Sino.

#### 7. Psixologiya faniga asos solgan faylasuf olim kim?

- a) Gippokrat; c) Dekart;
- b) Arastu; d) Abu Ali ibn Sino.

#### **8. Qobiliyat, xarakter, temperament – shaxsning ...**

- a) psixik jarayonlari; c) psixik xususiyatlari;  
b) psixik holatlari; d) psixika hisoblanadi.

### **9. Aristotelning ustozı kim?**

- a) Aflatun; c) Abu Ali ibn Sino;  
b) Dekart; d) Gippokrat.

**10. Aristotelning qaysi asari tana va ruhning birligini isbotladi va psixologiyani yuqori cho'qqiga olib chiqdi?**

- a) «Jon haqida»; c) «Tib qonunlari»;  
b) «Bosh miya reflekslari»; d) «Qobusnama».

## Hozirgi zamон psixologiyasining vazifalari, tarmoqlari va fanlar tizimida tutgan о‘рни

## **11. Psixologiya qaysi fanlar bilan bog'langan?**

- a) ijtimoiy fanlar, bolalar psixologiyasi, logopediya;
  - b) falsafa, sotsiologiya, pedagogika, tabiiy fanlar, iqtisodiyot, biatshunoslik, texnika fanlari;
  - c) umumiy, sotsial, yuridik, savdo, harbiy, yosh davrlari psixologiyasi;
  - d) defektologiya, biologiya, fiziologiya, kimyo, anatomiya.

1. shdi:                  2. bci:                  3. shdi:                  4. ad:

### 12. «Bosh miya reflekslari» kitobini kim yozgan?

- a) Z. Freyd; c) Fexner;  
 b) A M Sechenov; d) B M Teplov

**13. Psixologiya fan sifatida tabiatshunoslikdan qachon ajralib chigqan?**

- a) XIX asrning ikkinchi yarmida;
  - b) XIX asrning birinchi yarmida;
  - c) XX asrning birinchi yarmida;
  - d) XX asrning birinchi yarmida.

**14. Psixologiya fanining tabiatshunoslik fanidan ajralib chiqishiga nima sabab bo‘lgan?**

- a) I.P. Pavlovning refleks nazariyasi;
  - b) A.M. Sechenovning «Bosh miya reflekslari» kitobi;
  - c) F.Fexner eksperimenti;
  - d) Ibn Sinoning «Tib qonunlari» kitobi.

### **15. Ijtimoiy psixologiya nimani o'rganadi?**

- a) turli yoshdagи odamlar shaxsini shakllanishini;
- b) psixik faoliyatning umumiy qonuniyatlarini;
- c) odamlarning jamiyatdagi birgalikdagi ish faoliyatlari natijasida hosil bo‘ladigan hissiy kechinmalar va xulq-atvolarini;
- d) ta’lim va tarbiya berishning psixologik qonuniyatlarini.

**16. Maxsus psixologiya nimani o‘rganadi?**

- a) keksalikni;
- b) psixik normal rivojlanmagan, tug‘ma yoki keyinchalik orttirilgan nuqsonlar ta’sirida bo‘lgan insonlarni;
- c) yosh davrlari taraqqiyotini;
- d) kichik yosh davrini.

**17. Psixologiyaning tarmoqlari (asosiy):**

- a) ijtimoiy fanlar, bolalar psixologiyasi, logopediya;
- b) falsafa, sotsiologiya, pedagogika, tabiiy fanlar, iqtisodiyot, texnika fanlari;
- c) umumiy psixologiya, eksperimental psixologiya, mehnat psixologiyasi, aviatsiya, pedagogik, tibbiyot psixologiyasi yuridik, san’at, harbiy, sport, savdo, yosh davrlar, maxsus psixologiya;
- d) defektologiya, biologiya, fiziologiya, kimyo, anatomiya.

**18. Yosh davrlar psixologiya fanining o‘rganish sohasi:**

- a) psixik normal rivojlanmagan, tug‘ma yoki keyinchalik orttirilgan nuqsonlar ta’sirida bo‘lgan insonlarni;
- b) kichik yosh davrini;
- c) insonning tug‘ilgandan umrining oxirigacha bo‘lgan davrdagi psixik rivojlanishini;
- d) bolalar psixikasi xususiyatlarini.

**19. Pedagogik psixologiya fanining asosiy vazifasi ko‘rsatilgan qatorni belgilang.**

- a) o‘qitishning samarali metod va usullarini topish, ijtimoiy faoliyatga tayyorlash;
- b) darslik va o‘quv qurollariga bo‘lgan talabni aniqlash;
- c) o‘quvchilarda kasbga moyillikni aniqlash va kelgusi mehnat faoliyatiga tayyorlash;
- d) o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlari, o‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan talablarni o‘rganish.

## Psixologiya fanining metodlari

### **20. Psixologiya fanining ilmiy-tadqiqot metodlari qanday guruhlarga ajratiladi?**

- a) kuzatish, suhbat, test, eksperiment, modellashtirish;
- b) kuzatish, tajriba, suhbat, faoliyat mahsulini o'rganish, test, biografiya, anketa, sotsiometriya;
- c) tashkiliy, empirik, statistik, sharhlash;
- d) hamma javob to'g'ri.

### **21. Empirik (amaliy ishlar) metod necha turga bo'linadi?**

- a) umumiy, ijtimoiy, yuridik, yosh davrlari, tibbiy, texnik, bolalar;
- b) kuzatish, eksperiment, so'roq, faoliyat mahsulini o'rganish, test, biografiya, sotsiometriya, modellashtirish;
- c) suhbat, test, modellashtirish, kuzatish;
- d) o'yin, ta'lif, mehnat, muloqot, ijtimoiy dam olish.

### **22. Test metodi:**

- a) odam psixikasining sifatlari, qobiliyatlar va shaxsning ta-raqqiyot darajasini aniqlab beruvchi standartlashtirilgan metod;
- b) odam psixik faoliyatini ekperimental o'rganuvchi metod;
- c) odam psixikasini kuzatish orqali o'rganuvchi metod;
- d) formula va hisoblashlar orqali shaxs psixikasiga baho beruvchi metod.

### **23. Ma'lum predmetning mohiyatini yoritish va ma'lumotlar to'plash uchun foydalaniladigan maxsus usullar va vositalar yig'indisi ... deb ataladi.**

- a) kuzatish;
- b) so'roq;
- c) eksperiment;
- d) metod.

### **24. Eksperiment metodining turlari to'g'ri berilgan qatorni ko'rsating.**

- a) laboratoriya, tabiiy, pedagogik-psixologik;
- b) tashqi, ichki, erkin kuzatuv, guruh ichidagi va tashqarisidagi;
- c) og'zaki, yozma (anketa), suhbat, standartlashtirilgan;
- d) so'rov, topshiriq, proyektiv, sotsiometrik.

### **25. Kuzatish metodining turlari to'g'ri berilgan qatorni ko'rsating.**

- a) laboratoriya, tabiiy, pedagogik-psixologik;

- b) tashqi, ichki, erkin kuzatuv, guruh ichidagi va tashqarisidagi;
- c) og'zaki, yozma (anketa), suhbat, standartlashtirilgan;
- d) so'rov, topshiriq, proyektiv, sotsiometrik.

**26. So'rov metodining turlari to'g'ri berilgan qatorni ko'r-sating.**

- a) laboratoriya, tabiiy, pedagogik-psixologik;
- b) tashqi, ichki, erkin kuzatuv, guruh ichidagi va tashqarisidagi;
- c) og'zaki, yozma (anketa), suhbat, standartlashtirilgan;
- d) so'rov, topshiriq, proyektiv, sotsiometrik.

**27. Shaxsning yozib qoldirgan kundalik va asarlari, xatlari, chizgan rasmlari qaysi metod orqali o'rganiladi?**

- a) kuzatish;
- b) so'roq;
- c) eksperiment;
- d) faoliyatining mahsullarini o'rganish metodi.

**28. ... metodida bizni qiziqtiruvchi jarayon qachon paydo bo'lishi kutib o'tirilmaydi, psixik jarayonning sodir bo'lish sharoitlarini o'zgartirib turish va shu yo'l bilan mazkur jarayon ha-qida ko'proq kerakli ma'lumotlar to'plash mumkin.**

- a) kuzatish;
- b) so'roq;
- c) eksperiment;
- d) modellashtirish.

**Psixikaning nerv-fiziologik asoslari**

**29. Odam miyasining og'irligi o'rtacha necha grammni tashkil etadi?**

- a) 1650 gr;
- b) 1500 gr;
- c) 1400 gr;
- d) 1850 gr.

**30. Bitta nerv hujayrasi nima deb ataladi?**

- a) dendrit;
- b) neyron;
- c) o'simta;
- d) neyrit.

**31. Odamning murakkab psixik faoliyatini miyaning qaysi qismi boshqaradi?**

- a) orqa miya;
- b) katta miya yarimsharlari;
- c) miyaning po'stloq va po'stloq osti qismi;

d) miyacha.

**32. Katta miya yarimsharlari po'stloq qismi necha mldr. nerv hujayralaridan tashkil topgan?**

- a) 15 mldr;
- b) 12 mldr;
- c) 10 mldr;
- d) 18 mldr.

**33. Organizmning tashqi ta'sirotlarni nerv sistemasi va miyasiga ta'siri natijasida qabul qilishi va ularga javoban harakatga kelishi nima deb ataladi?**

- a) dendrit;
- b) neyron;
- c) refleks;
- d) neyrit.

**34. Yangi tug'ilgan bola miyasining og'irligi o'rtacha necha grammni tashkil etadi?**

- a) 1650 gr;
- b) 1500 gr;
- c) 1400 gr;
- d) 380–400 gr.

**35. ... nazariyasi bundan 300 yil oldin Dekart tomonidan, keyinchalik I.M. Sechenov va yana keyinroq I.P. Pavlov (1849–1936) tomonidan rivojlantirildi, shartli va shartsiz reflekslar atalib o'rGANildi.**

- a) signal faoliyati;
- b) dinamik stereotiplar;
- c) refleks;
- d) qo'zg'alish va tormozlanish.

**36. Odam va hayvonlarning katta yarimsharlari po'stlog'ida qanday nerv jarayonlari sodir bo'ladi?**

- a) signal faoliyati;
- b) dinamik stereotiplar;
- c) refleks;
- d) qo'zg'alish va tormozlanish.

**37. Ikkinci signallar sistemasi bu ...**

- a) inson nutqi va tafakkuridir;
- b) narsa va hodisalarning sezgi organlariga ta'sir ko'rsatishi tufayli miyaga keluvchi signallar;
- c) organizmning tashqi ta'sirotlarni nerv sistemasi va miyasiga ta'siri natijasida qabul qilishi va ularga javoban harakatga kelishi;
- d) miya po'stlog'idagi qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari.

**38. Dinamik stereotip nima?**

- a) yunoncha stereo – mustahkam, o'chmas; tupos – iz, tamg'a.

b) narsa va hodisalarining sezgi organlariga ta'sir ko'rsatishi tufayli miyaga keluvchi signallar;

c) organizmning tashqi ta'sirotlarni nerv sistemasi va miyasiga ta'siri natijasida qabul qilishi va ularga javoban harakatga kelishi;

d) qo'zg'alishlarning takrorlanib turishi natijasida miya po'stlog'ida mustahkam o'rashib qolgan o'choqlari;

1-abcd;      2-ad;      3-bcd;      4-acd.

**39. ... holatida tormozlanish qisman bo'lib po'stloqni to'liq qamrab olmaydi va odamga keraklicha ta'sir o'tkaziladi.**

a) Gipnoz;

b) Dinamik stereotip;

c) Refleks;

d) Qo'zg'alish va tormozlanish.

### **Psixika va ong taraqqiyoti**

**40. Evolutsion taraqqiyot deb nimaga aytildi?**

a) tirik organizmlarning dastlab paydo bo'lgan davridan boshlab odamgacha bo'lgan rivojlanish yo'li;

b) taraqqiyotning chirish va yemirilish yo'li;

c) tabiat va jamiyatdagi qonunlarning o'zgarishi;

d) organik materianing yuzaga kelishi.

**41. Evolutsion taraqqiyot bosqichlari nechta?**

a) 2 ta;      b) 3 ta;      c) 4 ta;      d) 6 ta.

**42. Harakatning intellektual shakli bu ...**

a) shartsiz reflekslar bilan bog'liq harakatlar;

b) muhit o'zgarishlariga moslashish;

c) shartli reflekslar bilan bog'liq harakatlar;

d) fahm-farosat bilan bog'liq bo'lgan aqliy harakatlar.

**43. Ong strukturasini ko'rsating.**

a) idrok, diqqat, xotira;

b) tafakkur, xayol, xotira, sezgi, idrok;

c) xarakter, iroda, hissyot, xayol;

d) anglash, obyekt va subyekt.

**44. Subyekt va obyekt tushunchalari o'rtasidagi farq nimada?**

a) ongning yuksak darajasi bo'lmish tafakkurda;

b) subyekt — «boshqalar», obyekt — «men»;

c) subyekt — «men», obyekt — «men emas»;

d) subyekt – narsalar, obyekt – odam.

**45. Harakatning instinktiv shakli bu ...**

- a) hayvonlarga tug‘ma yo‘l bilan beriladigan va ularning tashqi olamga muvofiqlashuvini ta’minlaydigan harakatlar shakli;
- b) muhit o‘zgarishlariga moslashish;
- c) shartli reflekslar bilan bog‘liq harakatlar;
- d) fahm-farosat bilan bog‘liq bo‘lgan aqliy harakatlar.

**46. Hayvonlar harakatning individual shaklini o‘z hayotlari davomida egallab boradilar. Bu qanday mexanizm hisoblanadi?**

- a) hayvonlarga tug‘ma yo‘l bilan beriladigan va ularning tashqi olamga muvofiqlashuvini ta’minlaydigan harakatlar shakli;
- b) muhit o‘zgarishlariga moslashish;
- c) shartli reflekslar bilan bog‘liq harakatlar bo‘lib tashqi muhitga moslashuv;
- d) fahm-farosat bilan bog‘liq bo‘lgan aqliy harakatlar.

**47. Ong ta’riflari to‘g‘ri berilgan qatorni belgilang.**

- a) mustaqillik, ongsizlik, obyekt va subyekt;
- b) ixtiyoriy-ixtiyorsiz xotira, fikrlash-bilish, maqsadli diqqat, obyektiv va subyektiv yondashuv;
- c) obyekt va subyekt, ong-anglash, maqsadni ko‘zlovchi faoliyat, hissiyotlar olamidagi murakkab munosabatlar;
- d) ataylab qilinadigan va ataylab qilinmagan harakatlar.

**48. Ong bu ...**

- a) evolutsion taraqqiyot qonunlari ta’sirida ro‘y beradigan o‘zgarishlar;
- b) anglash, bilish, taqlid qilish, mashq qilish, o‘rganish demakdir;
- c) inson va hayvonlarga berilgan oliy darajadagi aks ettirish, olamni bilish mexanizmidir;
- d) faqat insongagina xos bo‘lgan oliy darajadagi aks ettirish, olamni bilish mexanizmidir;

**49. Ong osti holatlari bu ...**

- a) oliy darajadagi aks ettirish, olamni bilish mexanizmi;
- b) I va II signallar faoliyati;
- c) ongsizlik, odam ongiga borib yetmaydigan psixik jarayonlar, xususiyatlar va holatlar;
- d) ataylab qilinadigan va ataylab qilinmagan harakatlar.

**Shaxs va faoliyat.  
Shaxs psixologiyasi**

**50. Kelib chiqishi jihatidan ijtimoiy bo‘lgan, o‘z e’tiqodiga, qarashlariga, munosabatlariga, baholariga ega bo‘lgan subyekt ...**

- a) shaxs deb ataladi;                           c) individuallik deb ataladi;  
b) individ deb ataladi;                           d) tashkilotchi deb ataladi.

**51. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning nechanchi bobita’lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi?**

- a) 3.1;   b) 4.2;   c) 4.5;   d) 3.3.

**52. Individuallik nima?**

- a) yakkaxonlik, shaxsga xos xususiyatlar yig‘indisi;  
b) shaxsiy ko‘nikmalar, malakalar;  
c) shaxsning ongли faoliyati;  
c) individ.

**53. Shaxs nechta turda tuzilgan?**

- a) 3 ta – reflektiv, biologik, hissiy;  
b) 2 ta – biologik, ijtimoiy;  
c) 4 ta – sotsiometrik, endopisixik, individual, tabiiy;  
d) 3 ta – ekzopsisixik, tabiiy, ijtimoiy.

**54. Kishining o‘ziga xosligini, uning boshqa odamlardan farqini aks ettiruvchi psixologik fazilatlar birikmasi qanday ataladi?**

- a) saxiylik;   c) individ;  
b) mantiqiylik;   d) individuallik.

**55. E’tiqod deb nimaga aytildi?**

- a) shaxsning ongли yo‘nalishini belgilab beruvchi, o‘z qarashlari, prinsiplari, dunyoqarashiga mos tarzda yashashiga imkon beruvchi xususiyatlar yig‘indisiga;  
b) kishining o‘z oldiga qo‘yan maqsadiga erishish yo‘lida qilgah harakatlariga;  
c) kishining nimagadir e’tibor berishga, predmet yoki hodisani bilishga intilishiga;  
d) insonning xulq-atvorini, faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar yig‘indisiga.

**56. Shaxsning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillarni ko‘rsating.**

- a) o'qituvchi va tarbiyachilar jamoasi, ota-onalar, qarindoshlar;
- b) irsiyat, ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya, shaxsiy faoliyat;
- c) oila, mahalla jamoasi, muhit, mакtab jamoasi;
- d) katta va kichik, referent guruhlar.

**57. Sharq mutafakkirlari talqinida Komil inson tarbiyasi dunyoqarash va e'tiqod ustuvorligiga ko'ra izohlanadi. Dunyoqarash nima?**

- a) tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan, shaxsni ma'lum qolipda, o'z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda jamiyatda munosib o'rin egallahsga chorlovchi tasavvurlar va g'oyalar majmui;
- b) shaxsning shaxsligini ma'naviyatini ko'rsatuvchi motivlar yig'indisi;
- c) ijtimoiylashuv darajasi;
- d) kishining o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish yo'lida qilgah harakatlari.

**58. Individ nima?**

- a) o'zida individlikni mujassamlashtirgan ong egasi – shaxs;
- b) katta yoshdagi odam, chaqaloq, tilni va oddiy malakani egallay olmaydigan telba;
- c) individuallik;
- d) tashkilotchi.

### **Shaxsning ehtiyojlari, motiv va qiziqishlari**

**59. Jonli mavjudot hayot kechirishining konkret shart-sharoitlarga qaramligini ifoda etuvchi va unga nisbatan faolligini namoyon qiluvchi holat nima deyiladi?**

- a) qiziqish;
- b) ehtiyoj;
- c) motivatsiya;
- d) faoliyat.

**60. Ehtiyojlar qanday turlarga bo'linadi?**

- a) bevosa, bilvosita;
- b) biologik, ijtimoiy;
- c) mazmunli, mazmunsiz;
- d) keng, tor.

**61. Moddiy, ma'naviy, jismoniy, aqliy, estetik, mehnat qilish ehtiyojlari qanday ehtiyojlar hisoblanadi?**

- a) tabiiy;
- b) biologik;
- c) ijtimoiy;
- d) tug'ma.

**62. Kishining nimagadir e'tibor berishga, predmet yoki hodisani bilishga intilishi ... deb ataladi.**

- a) ehtiyoj;
- c) stress;
- b) kayfiyat;
- d) qiziqish.

**63. Motiv deb ... aytildi.**

- a) shaxsning konkret shart-sharoitlarga qaramligiga;
- b) faoliyatdagи shaxs maqsadlariga;
- c) shaxsning faollik darajasiga;
- d) ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq bo'lган ichki turtki kuchlarga.

**64. Inson xulq atvorini, bog'lanishi, yo'nalishi va faolligini tu-shuntirib beruvchi psixologik sabablar majmui qanday ataladi?**

- a) motiv;
- c) stress;
- b) motivatsiya;
- d) qiziqish.

**65. Motivatsiya necha turda bo'ladi?**

- a) 1;
- b) 2;
- c) 3;
- d) 6.

**66. Qiziqishlar mazmuniga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?**

- a) keng va tor;
- c) shaxsiy va ijtimoiy;
- b) bevosita va bilvosita;
- d) barqaror va beqaror.

**67. Motivlar necha turda bo'ladi?**

- a) 1;
- b) 2;
- c) 3;
- d) 6.

**68. Qiziqishlar maqsadiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?**

- a) keng va tor;
- b) bevosita va bilvosita;
- c) ijtimoiy-siyosiy, intellektual, estetik, sport;
- d) barqaror va beqaror.

**Faoliyatning psixologik tahlili**

**69. Faoliyat deb ... aytildi.**

- a) inson faolligini mujassamlashtiruvchi harakatlar jarayoni-ga;
- b) ruhiy jarayonlar, holatlar, xususiyatlarga;
- c) biologik omillarga;
- d) tug'malik alomatlari bor bo'lган belgilarga.

**70. Faollik necha turga bo'linadi?**

- a) ta'lim, mehnat;
- b) muloqot, ijtimoiy dam;
- c) tashqi, ichki;
- d) aqliy, jismoniy, amaliy, nazariy.

**71. Asosiy faoliyat turlari bu ...**

- a) ijtimoiy dam, bevosita va bilvosita muloqot;
- b) keng, tor, chuqur, yuzaki qiziqishlar;
- c) barqaror va beqaror ehtiyojlar;
- d) o‘yin, ta’lim, mehnat.

**72. Kishi mehnati faoliyatining mazmuni asosan nima bilan belgilanadi?**

- a) ehtiyoj bilan;
- b) maqsadlar bilan;
- c) faollik bilan;
- d) motiv bilan.

**73. Subyektni o‘rganishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yan faoliyati qanday ataladi?**

- a) ijod;
- b) mehnat;
- c) o‘yin;
- d) ta’lim.

**74. Inson faolligini mujassamlashtiruvchi harakatlar jarayoni:**

- a) faoliyat;
- b) faollik;
- c) xulq;
- d) harakat.

**75. Kishi o‘z faoliyati jarayonida hosil qilingan bilimlar yoki malakalarga asoslangan biror ishni bajarishning mukammal usuli bu ... hisoblanadi.**

- a) motiv;
- b) ko‘nikma;
- c) mashq;
- d) odat.

**76. Mehnat faoliyati turlari to‘g‘ri berilgan qatorni ko‘rsating.**

- a) aqliy, jismoniy;
- b) malakaviy, amaliy;
- c) maqsadli, mazmunli;
- d) axloqiy, nazariy.

**77. Mehnat faoliyati deb nimaga aytildi?**

- a) inson o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun faoldir;
- b) hayvonot olamidan ajralib chiqishga, ongning rivojanishiga olib kelgan faoliyat;
- c) ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan, moddiy va ma’naviy ne’matlarni yaratishga aytildi;
- d) katta insonlarga xos bo‘lgan faoliyat turi.

**78. Ta’lim faoliyati deb nimaga aytildi?**

- a) ongli o‘zlashtirishdan iborat bo‘lgan, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikdagi faoliyat;
- b) inson tomonidan maqsadga qaratilgan yozuv, nutq kabi harakatlarni bajarishdagi faoliyatdir;

- c) maxsus tashkil etilgan yakka va umumiy tarzda amalga oshiriladigan faoliyatdir;
- d) insonning ichida amalga oshiriladigan alohida aqliy harakatlar yordamida tashqi dunyoni bilishdir.

**79. Faoliyatning tarkibiy qismlari:**

- a) yakka faoliyat, uzoq faoliyat, sistemali faoliyat;
- b) maqsadni belgilab olish, ishni rejalashtirish, bajarishning eng ma'qul usulini topish, amalga oshirish, natijani tekshirish, tuzatish, yakun yasash;
- c) amallarni bajarish, vazifani oldindan belgilab olish, puxta o'ylash, ishlab chiqish, qaytadan takrorlash;
- d) ishni rejalashtirish, natijani tekshirib chiqish, maqsadni belgilab olish, tuzatish, bajarishni eng ma'qul usulini topish, yakun yasash.

**80. Oddiy shakllardan bo'lib, lekin u tobora takomillashib, sodda harakatlardan, keyinchalik sujetli-rolli, hatto sportgacha murakkablashib borgan faoliyat turi:**

- a) o'yin;
- b) ta'lim;
- c) mehnat;
- d) bilish.

**Ko'nikma, malaka va odatlar va ularning inson hayoti va faoliyatidagi ahamiyati**

**81. Ko'nikma deganda nimani tushunasiz?**

- a) ehtiyojga aylanib qolgan holatlar;
- b) ongimizning yo'naltirilgan narsasi;
- c) kishi o'z faoliyati jarayonida hosil qilgan bilimlar yoki malakalarga asoslangan biror ishni bajarishning ma'lum darajada mukammal usulidir;
- d) faoliyatning yanada rivojlanishi.

**82. Boladagi zararli odatlarning oldini olish uchun nima qilish kerak?**

- a) jazolash;
- b) takrorlamaslik;
- c) qo'rqtish;
- d) tushuntirish.

**83. Kishining xulq-atvorida mustahkamlanayotgan va uning ehtiyojiga aylanib qolgan harakatlar ... deyiladi.**

- a) malaka;
- b) ko'nikma;
- c) mashq;
- d) odat.

**84. Malaka nima?**

- a) avval ongli bajarilib keyinchalik avtomatlashgan ish-harakatlar;
- b) odamning qalbiga juda chuqur o'rnashib olib, uning ehtiyojiga aylangan harakatlar;
- c) I va II signallar sistemasidagi muvaqqat bog'lanishlar;
- d) murakkab bilimlar asosida hosil qilingan mayllar.

**85. Malakalar necha xil bo'ladi?**

- a) 2;
- b) 3;
- c) 4;
- d) 6.

**86. Odad deb nimaga aytildi?**

- a) xatti-harakatlarni mustahkamlanishi asosida avtomatlashgan tarkibiy qismlarga aytildi;
- b) oilada tarkib topgan va mustahkamlanib qolgan amaliy harakatlar;
- c) ta'lif-tarbiya ta'siri asosida tarkib topgan va bajarilishi ehtiyojimizga aylanib qolgan faoliyatlar;
- d) kishining xulq-atvorida mustahkamlanayotgan va uning ehtiyojiga aylanib qolgan harakatlar.

**87. Malakalarning ko'chirilishi bu ...**

- a) ilgari hosil qilingan malakalardan yangi malakanini tarkib toptirishga ijobiy ta'siridir;
- b) ilgari hosil qilingan malakalarning yangi malakalar hosil qilishga zararli, salbiy ta'sir ko'rsatishidir;
- c) mustahkamlangan malakalarning so'nish hodisasisidir;
- d) muayyan faoliyatni takomillashtirish maqsadida ishlarning takroriy bajarilishidir.

**88. Malakalarning interferensiyasi bu ...**

- a) ilgari hosil qilingan malakalardan yangi malakanini tarkib toptirishga ijobiy ta'siridir;
- b) ilgari hosil qilingan malakalarning yangi malakalar hosil qilishga zararli, salbiy ta'sir ko'rsatishidir;
- c) mustahkamlangan malakalarning so'nish hodisasisidir;
- d) muayyan faoliyatni takomillashtirish maqsadida ishlarning takroriy bajarilishidir.

**89. Malakalarning deavtomatizatsiyasi ...**

- a) mustahkamlangan malakalarning so'nish hodisasisidir;

- b) ilgari hosil qilingan malakalarning yangi malakalar hosil qilishga zararli, salbiy ta'sir ko'rsatishidir;
- c) ilgari hosil qilingan malakalardan yangi malakani tarkib toptirishga ijobjiy ta'siridir;
- d) muayyan faoliyatni takomillashtirish maqsadida ishlarning takroriy bajarilishidir.

**90. ... mashq deyiladi.**

- a) Ilgari hosil qilingan malakalardan yangi malakani tarkib toptirishga ijobjiy ta'siriga;
- b) Ilgari hosil qilingan malakalarning yangi malakalar hosil qilishga zararli, salbiy ta'sir ko'rsatishiga;
- c) Mustahkamlangan malakalarning so'nish hodisasiga;
- d) Mayyan faoliyatni takomillashtirish maqsadida ishlarning takroriy bajarilishiga.

**91. Malakalar necha xil bo'ladi?**

- a) sodda va murakkab;
- b) ijobjiy va salbiy;
- c) maqsadli, mazmunli;
- d) axloqiy, nazariy.

**Guruhlar va jamoalardagi o'zaro munosabatlar**

**92. Guruh deb nimaga aytildi?**

- a) muloqot ehtiyoji qondiriladigan, birgalikda faoliyat bilan shug'ullanuvchi odamlar uyushmasiga aytildi;
- b) tadqiqotchi tomonidan ma'lum belgilar asosida birlash-tirilgan uyushmaga aytildi;
- c) odamlar bilan haqiqiy munosabatga kirish yo'li bilan hosil bo'ladicidan jamoaga aytildi;
- d) qiziqishlari bir xil bo'lgan odamlar uyushmasiga aytildi.

**93. Shartli guruhlar qanday hosil qilinadi?**

- a) yosh belgisiga ko'ra;
- b) tasodifan to'planadi;
- c) tadqiqotchi tomonidan ma'lum belgilar asosida birlashtiri-ladi;
- d) odamlar bilan munosabatga kirish yo'li bilan hosil qilinadi.

**94. Konkret jamiyatda yashab odamlar bilan haqiqiy munosabatga kirish yo'li bilan hosil bo'ladicidan guruhlar qanday ataladi?**

- a) referent guruh;
- c) shartli guruh;

- b) real guruh; d) mehnat guruhlari.

**95. Trening so‘zi ... ma’nosini anglatadi.**

- a) mashq qilmoq; c) ta’sir etmoq;  
b) chiniqmoq; d) qo‘zg‘almoq.

**96. Guruh turlari berilgan javobni ko‘rsating:**

- a) referent, rasmiy, norasmiy, aralash, jamoa, shartli, real;  
b) keng, tor, chuqur, yuzaki qiziqishlar;  
c) barqaror va beqaror ehtiyojlar;  
d) o‘yin, ta’lim, mehnat.

**97. Shaxs ishongan, o‘zaro sirdosh va normalarini maqul-  
laydigan va xatti-harakatlaridan andazalar oladigan guruh turi:**

- a) shartli; c) rasmiy, norasmiy;  
b) real; d) referent.

### DIQQAT

**98. Maqsad va irodaviy zo‘r berish qaysi diqqat turida mavjud?**

- a) ixtiyorsiz; c) ixtiyoriydan so‘nggi;  
b) ixtiyoriy yoki maqsadli; d) maqsadsiz.

**99. Ixtiyorsiz diqqat qanday hosil bo‘ladi?**

- a) to‘satdan ta’sir etib, bizning xohishimizdan tashqarida hosil  
bo‘ladi;  
b) qat’iy maqsad asosida hosil bo‘ladi;  
c) irodaviy zo‘riqish asosida hosil bo‘ladi;  
d) diqqatning to‘planishi asosida hosil bo‘ladi.

**100. Bir vaqtning o‘zida diqqat doirasiga 2–3 tadan ortiq nar-  
sani sig‘dira olmaslik diqqatning qaysi xususiyatiga tegishli?**

- a) ko‘lami; c) taqsimlanishi;  
b) ko‘chishi; d) barqarorligi.

**101. Diqqat turlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni belgilang:**

- a) 2 ta; ixtiyoriy, ixtiyorsiz;  
b) 4 ta; ixtiyoriy, ixtiyorsiz, ixtiyoriydan so‘nggi, maqsadsiz  
diqqat;  
c) 3 ta; ixtiyoriy, ixtiyorsiz, ixtiyoriydan so‘nggi diqqat;  
d) 5 ta; ixtiyoriy, ixtiyorsiz, ixtiyoriydan so‘nggi, maqsadsiz,  
majburiy diqqat.

**102. Ongli ravishda diqqatni ma’lum obyektga qaratish diq-  
qatning ... deyiladi.**

- a) ko'chirilishi;
- b) ko'lami;
- c) taqsimlanishi;
- d) barqarorligi.

**103. Parishonxotirlik qaysi psixik jarayon bilan bog'liq?**

- a) diqqat;
- b) xotira;
- c) idrok;
- d) xarakter.

**104. Diqqatning nerv-fiziologik asosini nima tashkil etadi?**

- a) muvaqqat nerv bog'lanishlari;
- b) «Bu nima?» refleksi?
- c) qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari;
- d) oreintirovka refleksi va optimal qo'zg'alish manbai.

**105. Ongning narsa, hodisa yoki faoliyatga qaratilishi hamda to'planishi nima deb ataladi?**

- a) xotira;
- b) diqqat;
- c) sezgi;
- d) tafakkur.

**106. Odamda ma'lum irodaviy zo'r berishdan so'ng paydo bo'lib go'yo ishga «kirishib» ketishi, ishga diqqatini yengillik bilan to'play boshlashi, odamning anglangan maqsadi bo'lishi diqqatning qaysi turiga kiradi?**

- a) ixtiyorsiz;
- b) ixtiyoridan so'nggi diqqat;
- c) ixtiyoriy;
- d) maqsadsiz.

**107. Tarbiyachining bir vaqt ni o'zida diqqatni bir nechta obyekta qarata olishi diqqatning qaysi xususiyatiga tegishli?**

- a) ko'lami;
- b) ko'chishi;
- c) taqsimlanishi;
- d) barqarorligi.

**108 Faoliyat shakliga ko'ra diqqat necha xil bo'ladi?**

- a) individual, guruhiy, jamoaviv;
- b) tashqi, ichki;
- c) iixtiyoriy, ixtiyorsiz, ixtiyoridan so'nggi diqqat;
- d) ixtiyoriy, ixtiyorsiz, ixtiyoridan so'nggi, maqsadsiz diqqat.

**109. Diqqatning fiziologik asoslarini yoritishda qaysi olimlarning hissasi katta?**

- a) Shcherbakov, Ivanov;
- b) I.P. Pavlov, Uxtomskiy;
- c) Kuzmina, B.I. Muxina;
- d) A.V. Petrovskiy, I.P. Pavlov.

## **Shaxsning psixik jarayonlari. Sezgilar**

### **110. Sezgi bu ...**

- a) sezgi organlariga ta'sir etib turgan narsa va hodisalarning yaxlitligicha aks ettirilishi;
- b) sezgi a'zolarining bir obyektga qaratilishi;
- c) odamning tashqi olamdagи narsa va hodisalarni tashqi sezgi organlari orqali sezib olishi;
- d) odamning tegishli sezgi organlariga moddiy olamdagи narsa va hodisalar ta'sir etganda ulardagi ayrim xossalarning aks ettirilishi.

### **111. Sezgirlik nima?**

- a) seza olish qobiliyati sezgirlik deb ataladi;
- b) qo'zg'alishning sal-pal aniqroq sezgi hosil qiluvchi eng past darajasiga aytildi;
- c) sezgi hosil qila olmaydigan qo'zg'atuvchilarga sezgirlik deb ataladi;
- d) kuchli ta'sir etuvchi qo'zg'atuvchilarga aytildi.

### **112. Sezgi guruhlari to'g'ri ajratilgan qatorni belgilang.**

- a) muskul-harakat, kinestetik;
- b) tashqi va ichki;
- c) eksteroretseptiv, proprioretseptiv, interoretseptiv;
- d) organik, statik.

### **113. Analizatorlar necha qismdan iborat?**

- a) 3 qism: retseptorlar, nerv yo'llari, maxsus hujayralar;
- b) 2 qism: o'tkazuvchi nerv yo'llari, hujayralar;
- c) 1 qism: eksteroretseptorlar;
- d) 3 qism: analitik, sintetik, umumiy.

### **114. Issiqni, sovuqni, og'riqni sezish bu ...**

- a) teri-tuyish sezgilar;
- b) hid bilish sezgilar;
- c) taktil sezgilar;
- d) organik sezgilar.

### **115. Ko'rish, eshitish, teri-tuyish, hid bilish va ta'm-maza sezgilari bu ...**

- a) eksteroretseptorlar;
- b) interoretseptorlar;
- c) proprioretseptorlar;
- d) organik sezgilar.

**116. Sensibilizatsiya nima?**

- a) analizatorlar sezgirligining ortib ketishi;
- b) ichki a'zolardagi sezgilar;
- c) sezgi a'zolarining muhit o'zgarishlariga moslashuvi;
- d) bir sezgi o'rnini ikkinchi sezgi analizatori egallashi.

**117. Kompensatsiya nima?**

- a) analizatorlar sezgirligining ortib ketishi;
- b) ichki a'zolardagi sezgilar;
- c) sezgi a'zolarining muhit o'zgarishlariga moslashuvi;
- d) bir sezgi o'rnini ikkinchi sezgi analizatori egallashi.

**118. ... bu sezgi a'zolarining muhit o'zgarishlariga moslashuvadir.**

- a) Vibratsiya sezgilari;                           c) Kompensatsiya;
- b) Adaptatsiya;                                   d) Kinestetik sezgilar.

**119. Analizatorlar ustunligiga ko'ra idrok qanday turlarga ajratiladi?**

- a) ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm-maza, teri-tuyish kinestetik;
- b) vaqtni, fazoni, harakatni idrok qilish;
- c) persepsiya, appersepsiya, illuziya, gallutsinatsiya;
- d) konstantlilik, yo'naluvchanlik, predmetlilik, barqarorlik.

**120. Sezgi xususiyatlari necha turga bo'linadi?**

- a) 2;   b) 4;   c) 6;   d) 3.

**121. I.P. Pavlovning yozishicha, katta yarimsharlar qo'zg'a-tuvchilarning analiz qilish organidir. Shu sababdan I.P. Pavlov sezgilarni paydo bo'lishini ta'min etuvchi barcha fiziologik apparatni ... deb atagan.**

- a) eksteroretseptor;                           c) reseptor;
- b) analizator;                                   d) organik sezgilar.

**IDROK**

**122. Idrok deb ....**

- a) odamning tegishli sezgi organlariga moddiy olamdag'i narsa va hodisalar ta'sir etganda ulardagi ayrim hossalarining aks ettirilishiga aytildi;
- b) sezgi organlariga ta'sir etib turgan narsa va hodisalarning yaxlitligicha aks ettirilishiga aytildi;

c) narsa va hodisalarni rejali, izchil, ma'lum maqsadni ko'zlab idrok qilishga aytildi;

d) ongning narsa, hodisa yoki faoliyatga qaratilishi hamda to'planishiga aytildi.

**123. Idrok xususiyatlari to‘g‘ri berilgan qatorni belgilang.**

a) konstantlilik, yo‘naluvchanlik, predmetlilik, onglilik, ikkilanuvchanlik, tanlab oluvchanlik, yaxlitlik;

b) persepsiya, appersepsiya, illuziya, gallutsinatsiya;

c) layoqatlilik, sistemalilik, kontrastlik, sezgirlik;

d) yakka, umumiyl, vositali.

**124. Sezgi organlariga ta’sir etib turgan narsa va hodisalarning yaxlitligicha aks ettirilishi ... deyiladi.**

a) sezgi; c) diqqat;

b) idrok; d) xotira.

**125. Sezgi a’zolariga ta’sir etib turgan narsalarni noto‘g‘ri, buzib idrok qilish nima deb ataladi?**

a) persepsiya; c) illuziya;

b) appersepsiya; d) gallutsinatsiya.

**126. Kuzatishni to‘g‘ri o’tkazish uchun qanday shartlarga rivoя qilish zarur?**

a) obyektiv va subyektiv kuzatish turlaridan foydalanish kerak;

b) odamda kuzatuvchanlik qobiliyati bo‘lishi kerak;

c) shaxsning psixik xususiyatlarini, ichki dunyosini yaxshi payqab olish kerak;

d) maqsad, bilim bo‘lishi, reja bo‘yicha mukammal o’tkazilishi kerak.

**127. Gallutsinatsiya nima?**

a) ongimizda turli obrazlarning xayoliy ravishda paydo bo‘lishidan iborat psixopatologik hodisa;

b) lot. hallucinatio – tasvir, yaxlit shakl, tuzilish;

c) narsa va hodisalarni rejali, izchil, ma'lum maqsadni ko'zlab idrok qilish;

d) narsalarni noto‘g‘ri buzib idrok qilish.

**128. Idrok darajalari to‘g‘ri berilgan qatorni belgilang.**

a) konstantlilik, yo‘naluvchanlik, predmetlilik, barqarorlik;

b) yakka, umumiyl, vositali;

c) yaxlitlik va onglilik;

d) persepsiya, appersepsiya, illuziya, gallutsinatsiya.

**129. Obyektiv va subyektiv idrok qilish idrokning qaysi shakli-ga taalluqli?**

- a) vaqt ni idrok qilish;
- b) fazoni idrok qilish;
- c) harakatni idrok qilish;
- d) umumi y idrok qilish.

**130. Konstantlilik nima?**

- a) doimiylik;
- b) qarama-qarshilik;
- c) davriylik;
- d) yaqqol ko'rish.

**131. Psixologik kuzatuvchanlik nima?**

- a) shaxsning e'tiqodlarini bilib olish;
- b) obyektiv, subyektiv kuzatish;
- c) shaxsning kelajak orzularini aytib berish;
- d) shaxsning psixik xususiyatlarini, ichki dunyosini yaxshi payqab olish.

**132. Kuzatuvchanlik necha xil bo'ladi?**

- a) 3;
- b) 4;
- c) 6;
- d) 2.

**133. Kuzatuvchanlik necha turda bo'ladi?**

- a) 3 ta – reflektiv, biologik, hissiy;
- b) 2 ta – biologik, ijtimoiy;
- c) 2 ta – psixologik, narsalarga nisbatan;
- d) 3 ta – tabiiy, ijtimoiy.

**134. Idrok shakllari to'g'ri berilgan qatorni belgilang.**

- a) persepsiya, appersepsiya;
- b) illuziya, gallutsinatsiya;
- c) adaptatsiya, kompensatsiya;
- d) vaqt, fazo, harakatni idrok qilish.

**135. Vaqt ni idrok qilishning qanday usullari mavjud?**

- a) obyektiv, subyektiv;
- b) tashqi va ichki;
- c) biologik, ijtimoiy;
- d) tabiiy, ijtimoiy.

**136. Idrokning kishi psixik hayoti mazmuniga, shaxsiga xos xususiyatlariga, o'tmish tajribaga bog'liqligi qanday ataladi?**

- a) appersepsiya;
- b) illuziya;
- c) gallutsinatsiya;
- d) persepsiya.

**137. «Perceptio» so'zi qaysi tildan olingan va qanday ma'noni anglatadi?**

- a) lotin tilidan «qabul qilish, idrok»;

- b) grek tilidan «nisbatan», «idrok»;
- c) lotin tilidan «oziga tortish»;
- d) lotin tilidan «yaqqol ko‘rish».

**138. Retseptorlari paylarda, bo‘g‘inlarda va asosan muskullarda joylashgan muvozanat, harakat segilari sezgilarning qaysi guruhiga taalluqli?**

- a) interoretseptorlar;
- b) propriotseptorlar;
- c) eksterotseptorlar;
- d) hamma javob to‘g‘ri.

**139. Karlar kaftlarini royal qopqog‘i ustiga qo‘yib yoki muviqqa asbobiga orqa o‘girib o‘tirib muviqqa «tinglar» ekanlar, bu qaysi sezgilar orqali sodir bo‘ladi?**

- a) vibratsiya — tebranma sezgilar;
- b) adaptatsiya — muhit o‘zgarishlariga moslashuv;
- c) kinestetik — harakat sezgilar;
- d) muvozanat — gavdaning fazodagi holati.

## XOTIRA

**140. Xotira tasavvurlari deb nimaga aytiladi?**

- a) ilgari idrok qilingan, hozir ko‘z oldimizda bo‘lmagan obrazlarni ongimizda gavdalantirish;
- b) ilgari idrok qilinmagan obrazlarni o‘ngimizda yaratish;
- c) ilgari idrok qilingan narsalar o‘rtasidagi o‘xshashlik;
- c) ilgari idrok qilingan va qilinmagan obrazlar yaratish.

**141. Xotira deb ...**

- a) oldindan egallangan taassurotlarni esda saqlashga aytiladi;
- b) kishining sezgi va idrokları asosida o‘z tajribasini boyitish qobiliyatiga aytiladi;
- c) oldin egallangan tajribalarni amaliy faoliyatda qo‘llash, esda saqlash va esga tushirishga aytiladi;
- d) ilgari idrok qilingan narsa va hodisalarni esda olib qolish, esda saqlab turish hamda keyinchalik esga tushirish va unutishdan iborat psixik jarayonlarga aytiladi.

**142. Esda olib qolish turlari to‘g‘ri berilgan qatorni belgilang.**

- a) ixtiyoriy, ixtiyorsiz, mantiqiy;
- b) ixtiyoriy, ixtiyorsiz, mexanik, ma’nosiga tushunib;
- c) operativ, fenomenal, emotsiyal, motor;
- d) takrorlash, uqib olish, assotsiativ.

**143. Tasavvurlar necha xil bo‘ladi?**

- a) ixtiyoriy tasavvurlar va ixtiyorsiz tasavvurlar;
- b) so‘z mantiq tasavvurlari, mexanik tasavvurlar;
- c) emotsiyal tasavvurlar, obraz tasavvurlari;
- d) xotira tasavvurlari, xayoliy tasavvurlar.

**144. Xotira turlarini ko‘rsating.**

- a) harakat, emotsiyal, obraz, so‘z-mantiq;
- b) ixtiyoriy, ixtiyorsiz;
- c) ko‘rgazmali, mantiqiy, izchil;
- d) fenomenal xotira.

**145. Xotira jarayonlarini ko‘rsating.**

- a) harakat, emotsiyal, obraz, so‘z-mantiq;
- b) ixtiyoriy, ixtiyorsiz, mexanik, ma’nosiga tushunib;
- c) ixtiyoriy, ixtiyorsiz, shartli;
- d) esda olib qolish, esda saqlab turish, esga tushirish, tanish, unutish.

**146. Assotsiatsiyalar necha xil bo‘ladi?**

- a) 2 xil; eksteriorizatsiya, interiorizatsiya;
- b) 3 xil; izdoshlik, o‘xshashlik, kontrastlik;
- c) 3 xil; sezgi, idrok, xotira;
- d) 2 xil; neyron, maxsus hujayralar.

**147. Inson bevosita amalga oshirayotgan faol, tezkor harakatlar, usullar uchun xizmat jarayonini anglatuvchi mnemik holat xotiraning qaysi turi?**

- a) operativ;
- b) tasavvur;
- c) ixtiyorsiz;
- d) so‘z-mantiq.

**148. Idrok qilish jarayonida sezgi a’zosining ustunlik qilishiga qarab tasavvurlar qanday turlarga bo‘linadi?**

- a) ko‘rish, eshitish, hid bilish, ta’m bilish, harakat tasavvurlari;
- b) ixtiyoriy, ixtiyorsiz, mexanik, ma’nosiga tushunib;
- c) ixtiyoriy, ixtiyorsiz, shartli;
- d) xotira tasavvurlari, xayoliy tasavvurlar.

**149. Uqib olish deb ...**

- a) muayyan bilimlarni egallash uchun sistematik va ixtiyoriy ravishda esda qoldirishga aytildi;
- b) ilgari idrok qilingan narsa va hodisalarni qayta idrok qilishga aytildi;

- c) faqat takrorlash bilan esda olib qolishga aytildi;
- d) o‘z oldimizga ma’lum bir maqsad qo‘ymasdan va irodaviy kuch sarf qilmasdan esga tushirishga aytildi.

**150. Mexanik esda olib qolish deb ...**

- a) muayyan bilimlarni egallash uchun sistematik va ixtiyoriy ravishda esda qoldirishga aytildi;
- b) faqat takrorlash bilan esda olib qolishga aytildi;
- c) ilgari idrok qilingan narsa va hodisalarni qayta idrok qilishda aytildi;
- d) o‘z oldimizga ma’lum bir maqsad qo‘ymasdan va irodaviy kuch sarf qilmasdan esga tushirishga aytildi.

**151. Tanish deb ...**

- a) muayyan bilimlarni egallash uchun sistematik va ixtiyoriy ravishda esda qoldirishga aytildi;
- b) faqat takrorlash bilan esda olib qolishga aytildi;
- c) ilgari idrok qilingan narsa va hodisalarni qayta idrok qilishda aytildi;
- d) o‘z oldimizga ma’lum bir maqsad qo‘ymasdan va irodaviy kuch sarf qilmasdan esga tushirishga aytildi.

## **TAFAKKUR**

**152. Tafakkur nima?**

- a) atrof-muhitdagи voqelikni nutq yordami bilan bavosita, umumlashgan holda aks ettiruvchi psixik jarayon hamda ijtimoiy-sababiy bog‘lanishlarni anglangan, yangilik ochishga va bashorat qilishga yo‘naltirilgan aqliy faoliyat;
- b) jonli mavjudot hayot kechirishining konkret shart-sharoit-larga qaramligini ifoda etuvchi va unga nisbatan faolligini namoyon qiluvchi holat;
- c) tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan, shaxsni ma’lum qolipda, o‘z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda jamiyatda munosib o‘rin egallahga chorlovchi tasavvurlar va g‘oyalar majmui;
- d) his-tuyg‘ularning paydo bo‘lishi tezligi va kuchida hamda kishining umumiy harakatchanligida namoyon bo‘ladigan individual-psixologik xususiyatlar yig‘indisi.

**153. Tafakkur operatsiyalarini ko‘rsating.**

- a) tushuncha, hukm, xulosa;

b) konvergent, divergent, produktiv, reproduktiv, nazariy, amaliy;

c) analiz, sintez, taqqoslash, mavhumlashtirish, umumlashtirish, tasniflash, sistemalashtirish;

d) ko'rgazmali-harakat, ko'rgazmali-obrazli, mavhum.

**154. Tafakkur shakllaridan biri bo'lmish xulosa turlarini belgilang.**

a) umumiy, yakka, juz'iy;

b) konkret, abstrakt, nazariy, amaliy;

c) induktiv, deduktiv, analogik;

d) konvergent, divergent, produktiv, reproduktiv.

**155. Tafakkur turlari to'g'ri berilgan qatorni belgilang?**

a) ko'rgazmali harakat, ko'rgazmali-obrazli, mavhum;

b) obrazli so'z, so'z-mantiq;

c) ixtiyorli-ixtiyorsiz, nazariy-amaliy;

d) tushunchali, konkret, mavhum.

**156. Tafakkur shakllari necha xil bo'ladi?**

a) 1 xil; operativ;

b) 3 xil; tushuncha, hukm, xulosa;

c) 2 xil; analiz, sintez;

d) 4 xil; ko'rgazmali harakat, ko'rgazmali-obrazli, mavhum, mantiqiy.

**157. Narsa va hodisalarning o'xshash belgilarini fikran birlash-tirib bir tushuncha holiga keltirish nima deb ataladi?**

a) analiz;

b) umumlashtirish;

c) tasniflash;

d) sintez.

**158. Biron narsani tasdiqlash yoki inkor qilishdan iborat bo'lgan tafakkur shaklini aniqlang:**

a) tushuncha;

c) xulosa;

b) hukm;

d) fikr.

**159. Xulosalar necha xil bo'ladi?**

a) 1 xil;              b) 3 xil;              c) 2 xil;              d) 4 xil.

**160. Tafakkur sifatlarini aniqlang:**

a) fikrning kengligi, chuqurligi, mustaqilligi, tezligi, tanqidiyligi, mazmundorligi, sertashabbusligi, pishiqligi;

- b) fikrning torligi, chuqurligi, mustaqilligi, kengligi;
- c) fikrning tezligi, sayozligi, mazmundorligi, kaltaligi;
- d) fikrning mustaqilligi, epchilligi, yuzakiligi, kengligi.

**162. Tafakkur har ikkala signal sistemasi ishtirok etgan, lekin ... sistemasi yetakchi o‘rin egallagan taqdirdagina normal ishlaydi.**

- a) ikkinchi signal;
- b) birinchi signal;
- c) nerv;
- d) shartli reflekslar sistemasi.

## NUTQ

**163. Nutq deb nimaga aytildi?**

- a) insonlarni o‘z fikr-ma’lumotlarini o‘zaro almashishiga aytildi;
- b) o‘zgalarga ta’sir etish vositalarini amalga oshirishga aytildi;
- c) til orqali o‘y-istiklarini o‘zgalarga bildirmaslik, avlod tajribalarini o‘zlashtirishga aytildi;
- d) kishilarning til vositasida o‘zaro munosabatda bo‘lish jaryoniga aytildi.

**164. Verbal (tovushli) nutq turi ko‘rsatilgan qatorni aniqlang:**

- a) imo-ishora, mimika, pantomimika, exologik, daktiologik;
- b) og‘zaki, yozma, ichki, tashqi, monologik, dialogik, epik;
- c) monologik, dialogik, mimikali, imo-ishorali, mexanik;
- d) ichki, tashqi, ixtiyorsiz, ixtiyoriy, amaliy, nazariy.

**165. Og‘zaki nutq turlari?**

- a) monologik va dialogik;
- b) tovushli va tovushsiz;
- c) ichki va tashqi;
- d) aktiv va passiv.

**166. Monologik nutq bu –**

- a) bir kishining nutqidir;
- b) ikki yoki undan ortiq kishining nutqi;
- c) ma’ruza;
- d) imo-ishorali nutq.

**167. Nutq sifatlari necha guruhga ajratiladi?**

- a) 1;
- b) 3;
- c) 2;
- d) 4.

**168. Kommunikativ, tilni (tajribani) avloddan avlodga o‘tkazish, rejallashtirish, ekspressiv bu nutq ...**

- a) nutq funksiyalari hisoblanadi;
- b) nutq turlari hisoblanadi;
- c) nutq sifatlaridir;
- d) nutq vositalari hisoblanadi.

**169. Mimika va pantomimika orqali fikrlarni uzatish, qaysi nutq turiga kiradi?**

- a) ichki;
- b) noverbal;
- c) verbal;
- d) tashqi.

**170. Afaziya nima?**

- a) nutq funksiyalari hisoblanadi;
- b) nutq turlari hisoblanadi;
- c) nutq sifatlaridir;
- d) nutq buzilishidir.

## XAYOL

**171. Shaxsning o‘zi uchun eng yoqimli istiqbol obrazlarini xayolida yaratishi.**

- a) fantaziya;
- b) ijod;
- c) orzu;
- d) tasavvur.

**172. Biz ilgari idrok qilmagan predmet va hodisalarini ongimizda yaratishdan iborat psixik jarayon qanday ataladi?**

- a) xayol;
- b) ijod;
- c) orzu;
- d) tasavvur.

**173. Orzu necha xil bo‘ladi?**

- a) 4 xil; ixtiyoriy, ixtiyorsiz, mavhum;
- b) 2 xil; foydali, zararli;
- c) 3 xil; yoqimli, yoqimsiz, shirin;
- d) 2 xil; tasavvuriy, xayoliy.

**174. Xayolning turlari nechta?**

- a) 4 ta; ixtiyoriy, ixtiyorsiz, ijodiy, qayta tiklovchi;
- b) 3 ta; maqsadli, maqsadsiz, ixtiyoriy;
- c) 4 ta; fantaziya, orzu, illuziya, shirin xayol;
- d) 5 ta; ijodiy, tiklovchi, maqsadli, maqsadsiz, ixtiyoriy.

**175. Xayol deb nimaga aytildi:**

- a) ilgari idrok qilgan va qilmagan tasavvurlar asosida yangi predmet va hodisalarini ongimizda yaratishdan iborat bo‘lgan psixik jarayonga xayol deb aytildi;

- b) biz ilgari idrok qilgan predmet va hodisalarni ongimizda yaratishdan iborat bo'lgan psixik jarayonga xayol deb ataladi;
- c) ayni chog'da yo'q bo'lgan narsa va hodisalarni ongimizda qayta gavdalantirishimizga xayol deb aytildi;
- d) hayotda mavjud bo'limgan narsalarni faoliyatda yaratishimizga aytildi.

### **176. Orzu nima?**

- a) hamisha kelajakka qaratilgan bo'lib, kishining istaklarini ifodalandaydi;
- b) «go'yo» degan so'z yordami bilan o'yinga olib kirilgan xayoliy vaziyatdir;
- c) ijodiy xayol obrazlarni mustaqil ravishda yaratishdan iborat holat;
- d) parishonxotirlik.

### **177. Fantaziya nima?**

- a) hamisha kelajakka qaratilgan bo'lib, kishining istaklarini ifodalandaydi;
- b) «go'yo» degan so'z yordami bilan o'yinga olib kirilgan xayoliy vaziyatdir;
- c) ijodiy xayol obrazlarni mustaqil ravishda yaratishdan iborat holat;
- d) parishonxotirlik.

### **178. Tipiklashtirish (yunon. *tipos* – iz, chiziq) nima?**

- a) obrazlarni kattalashtirish yoki kichraytirishdir;
- b) kundalik hayotda birlashtirib bo'lmaydigan turli sifatlarni birlashtirib, narsa va hodisalarning yangi obrazlarini yaratishdan iborat xayol fenomenidir;
- c) rassomning o'simliklar dunyosidan andaza olib, naqsh yaratishidir;
- d) badiiy adabiyotda keng qo'llanilib, muhim tomonlari ajratilib konkret obrazlarda gavdalantirilishidir.

### **179. Agglutinatsiya (lot. *agglutinare* – yopishtirmoq, yelimla-moq) nima?**

- a) kundalik hayotda birlashtirib bo'lmaydigan turli sifatlarni birlashtirib, narsa va hodisalarning yangi obrazlarini yaratishdan iborat xayol fenomenidir;
- b) obrazlarni kattalashtirish yoki kichraytirishdir;

c) rassomning o'simliklar dunyosidan andaza olib, naqsh yaratishi;

d) badiiy adabiyotda keng qo'llanilib, muhim tomonlari ajratilib konkret obrazlarda gavdalantirish.

**180. Giperbalizatsiya (yunon. huperbole – bo'rttirish, kuchaytirish) nima?**

a) kundalik hayotda birlashtirib bo'lmaydigan turli sifatlarni birlashtirib, narsa va hodisalarining yangi obrazlarini yaratishdan iborat xayol fenomenidir;

b) obrazlarni kattalashtirish yoki kichraytirishdir;

c) rassomning o'simliklar dunyosidan andaza olib, naqsh yaratishi;

d) badiiy adabiyotda keng qo'llanilib, muhim tomonlarini ajratilib konkret obrazlarda gavdalantirish.

**181. Sxematizatsiya (yunon. schema – obraz, shakl vujudga keltirish) nima?**

a) kundalik hayotda birlashtirib bo'lmaydigan turli sifatlarni birlashtirib, narsa va hodisalarining yangi obrazlarini yaratishdan iborat xayol fenomenidir;

b) obrazlarni kattalashtirish yoki kichraytirishdir;

c) rassomning o'simliklar dunyosidan andaza olib, naqsh yaratishi;

d) badiiy adabiyotda keng qo'llanilib, muhim tomonlari ajratilib konkret obrazlarda gavdalantirish.

**Shaxsning hissiy-irodaviy holatlari.**

**His-tuyg'ular**

**182. Yuksak hislar berilgan qatorni ko'rsating.**

a) ma'naviy, intellektual, nafosat;

b) axloqiy, aqliy, ma'naviy;

c) muhabbat, burch, do'stlik;

d) burch, vijdon, e'tiqod;

**183. Stress so'zining ma'nosi nima?**

a) yunon. – zaiflik;

b) lot. – ichki hayajonlanish;

c) ingl. – zo'riqish, jiddiylik, keskinlik;

d) yunon. – kuch.

**184. Nisbatan zaif, lekin ancha uzoq davom etadigan, kishining holatiga ta'sir etadigan hissiy holat qanday ataladi?**

- a) kayfiyat;
- c) qiziqish;
- b) iroda;
- d) qobiliyat.

**185. Irodaviy nazoratni yo'qotgan holda tez va kuchli paydo bo'lib, shiddat bilan o'tadigan emotsiyal holat:**

- a) kayfiyat;
- c) affekt;
- b) ehtiros;
- d) stress.

**186. «Emotsiya» so'zining ma'nosi...**

- a) lotincha – «qo'rquvni his qilish»;
- b) lotincha – «ruhiy qo'zg'alish, hayajonga solish»;
- c) yunoncha – «sezish»;
- d) yunoncha – «his qilish».

**187. Yumor, hazil-mutoyiba qaysi hislarga tegishli?**

- a) estetik;
- c) intellektual;
- b) ma'naviy;
- d) aqliy.

**188. His-tuyg'ular deb nimaga aytildi?**

- a) odamlar bilan o'zaro munosabatda hosil bo'ladigan kechinmalarni miyamizda aks ettirilishiga aytildi;
- b) odamning o'zi bilgan va bajarayotgan narsaga o'z munosabatini boshdan kechirishi;
- c) mimikada yaqqol namoyon bo'ladigan xatti-harakatlarga ta'sir qiluvchi emotsiyalarga aytildi;
- d) kuchsiz lekin uzoq davom etadigan holatga aytildi.

**188. Ustanovka so'zining ma'nosi nima?**

- a) ingl. – set bo'lib ko'rsatma berish, anglanmagan mayllar, yo'l-yo'riq ko'rsatish ma'nosini bildiradi;
- b) ingl. – set bo'lib biologik va psixologik jahbalar qorishmasi ma'nosini bildiradi;
- c) ingl. – set bo'lib kishi rivojlanishidagi psixikaning aynishi ma'nosini bildiradi;
- d) ingl. – set bo'lib nerv tizimidagi buzilishlar, tug'ma mayl, istaklar ma'nosini bildiradi.

**189. «Stress» tushunchasini psixologiyaga kim olib kirgan?**

- a) 1879-yili nemis psixologi V. Vundt;
- b) 1900-yili nemis psixologi V. Shtern;
- c) 1908-yili angliyalik psixolog U. Makdugall;

d) 1936-yili kanadalik fiziolog G. Seyle.

**190. Intellektual hislar berilgan qatorni aniqlang:**

a) zavq, shodlanish, lazzatlanish, quvonish, go'zallikni his qilish, yoqimli, kulgili;

b) qiziqish, hayajonlanish, ajablanish, erinchoqlik, ishtiyoqmandlik, shubhalanish;

c) vijdon, hayo, burch, uyalish, or-nomus,adolat, fidoyilik, javobgarlik, iffat, do'stlik;

d) qayg'u, g'am, alam, nafrat, yig'i, afsus-nadomat, iztirob, tushkunlik, og'riq.

**191. Kishining fikrlari va xatti-harakatlari yo'nalishini belgilaydigan barqaror, chuqur va kuchli his-tuyg'u qanday ataladi?**

a) kayfiyat;      b) ehtiros;      c) affekt;      d) stress.

**192. Hissiyot shakllari nechta?**

a) 4;      b) 6;      c) 3;      d) 5.

### IRODA

**193. Kishining o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish uchun ichki va tashqi to'siqlarni harakat yordamida yengish vaqtida vu-judga keladigan psixik jarayon ...**

a) hissiyot deb ataladi;      c) temperament deb ataladi;  
b) qobiliyat deb ataladi;      d) iroda deb ataladi.

**194. Iroda kuchi nimada namoyon bo'ladi?**

a) qabul qilingan qarorni qat'iyatlilik bilan amalga oshirishda;  
b) maqsadni belgilashda;  
c) motivlar kurashida;  
d) II signallar sistemasi faoliyatida.

**195. Shaxsning xavfli yo'lida qilgan xatti-harakati nima deb ataladi?**

a) tavakkalchilik;      c) intuitsiya;  
b) qarorga kelish;      d) qat'iyatlilik.

**196. Kishining boshqalar ta'siriga berilmasdan qaror qabul qilishi qanday irodaviy sifat hisoblanadi?**

a) mayl;      c) mustaqillik;  
b) sabr-toqat;      d) sabotlilik.

**197. Irodaviy sifatlar nechaga bo'linadi?**

- a) 4;      b) 6;      c) 8;      d) 2.

**198. O'ziga mahliyo qiluvchi maqsadga erishish yo'lida xavf-xatar, yo'qotish dahshati, muvaffaqiyatsizlik bilan hamohang, ogoh, dadil harakat qanday irodaviy sifatga kiradi:**

- a) sabr-toqat;      c) qat'iyatlilik;  
b) o'zini tuta bilish;      d) tavakkalchilik.

**199. Ongli ravishda amalga oshiriladigan va maqsadni ko'zda tutgan barcha ixtiyoriy harakatlar nima deb ataladi.**

- a) irodaviy harakatlar;      c) reflektiv harakatlar;  
b) ixtiyoriy harakatlar;      d) qat'iyatli harakatlar.

**200. Anglangan yoki anglanmagan istak, xohish, mayl, us-tanovka va shu kabilarning ichki turkisi ta'sirida ro'yobga chiqadigan rejalashtirilmagan harakatlarlar qanday ataladi?**

- a) irodaviy harakatlar;      c) reflektiv harakatlar;  
b) ixtiyoriy harakatlar;      d) qat'iyatli harakatlar.

**201. Ongli ravishda maqsadni ko'zlab qilingan harakatlar qanday ataladi?**

- a) irodaviy harakatlar;      c) reflektiv harakatlar;  
b) ixtiyoriy harakatlar;      d) qat'iyatli harakatlar.

**202. Irodaviy harakatlarni ko'rsating.**

- a) ixtiyoriydan so'nggi, ixtiyorsiz;  
b) amaliy, nazariy;  
c) ixtiyoriy, ixtiyorsiz;  
d) ijtimoiy, shaxsiy.

### **Shaxsning psixik xususiyatlari.**

#### **Temperament**

**203. Temperament bu ...**

- a) his-tuyg'ularning paydo bo'lish tezligi va kuchida hamda kishining umumiy harakatchanligida namoyon bo'ladigan individual psixologik xususiyatlar yig'indisi;
- b) kishining voqelikka bo'lgan munosabatida vujudga keldigan va uning xulqi va harakatida ta'sir qoldiradigan psixik xususiyatlar yig'indisi;
- c) ongning nazoratisiz yoki yetarli ishtirokisiz ma'lum maqsadni ko'zlamay qilingan harakatlar;
- d) shaxsiy bilim, ko'nikmalar va malakalarni nisbatan osonlik bilan egallab olishdan iborat bo'lgan psixik sifatlar.

**204. I.P. Pavlov ta'limotiga ko'ra melanxolik tipni xarakterlang.**

- a) kuchli, muvozanatsiz, harakatchan;
- b) kuchli, muvozanatli, harakatchan;
- c) kuchli, muvozanatli, kam harakat;
- d) kuchsiz.

**205. Shaxsnинг faolligi va reaksiyasi tashqi ta'sirotlarga bog'liqligi qanday ataladi?**

- a) ekstravertlik; c) rigidlik;
- b) intravertlik; d) senzitivlik.

**206. Shaxsnинг faolligii va reaksiyasi ichki ta'sirotlarga, timsol-larga, tassavvurlarga, o'tmish hamda kelajak bilan uyg'unlashgan mulohazalarga bog'liqligi, mulohazalari va fikrlarini erkin bayon qila olmasligi qanday ataladi?**

- a) reaktivlik; c) rigidlik;
- b) ekstravertlik; d) intravertlik.

**207. Eramizdan avvalgi 460–356 yillarda yashab o'tgan, qa-dimgi grek shifokori va tabiatshunosi Gippokrat organizmdagi nimaga asoslanib temperamentning 4 tipologiyasini yaratgan?**

- a) nerv sistemasining tuzilishiga;
- b) harakatlar faolligiga;
- c) organizmdagi suyuqlik miqdoriga;
- d) organizmning muvozanati va kuchiga.

**208. Qaysi tipdagи o'quvchilarga ko'p harakat qilish, faollik ko'rsatish imkonini berish, darslarda tez-tez so'rab turish hamda faollik va chaqqonlikni talab qiladigan vazifalarini topshirish kerak?**

- a) xolerik; c) melanxolik;
- b) sangvinik; d) flegmatik.

**209. Kuchli, muvozanatli, harakatchan tipni belgilang.**

- a) xolerik; c) melanxolik;
- b) sangvinik; d) flegmatik.

**210. I.P. Pavlov temperament xususiyatlarini organizmda-gi suyuqlik miqdoriga ko'ra emas balki nerv sistemasining tuzili-shiga ko'ra belgilab beruvchi 3 oliy nerv tizimi xossalarni ajratgan. Ular to'g'ri ko'rsatilgan qatorni belgilang.**

- a) organizmdagi safro – shole, qon – sanguinis, shilliq narsa – phlegma, qora safro miqdoriga ko'ra;

b) nerv tizimining kuchli qo‘zgatuvchilar ta’siriga bardoshi, shunga ko‘ra odamlardagi chidam kabi sifatlar va ularga teskari sifatlarning namoyon bo‘lishiga ko‘ra;

c) kuch, muvozanatlashganlik, harakatchanligiga ko‘ra;

d) qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonidagi o‘zaro almashinish jarayonining tezligi va harakatchanligiga ko‘ra.

### **211. Kuch nima?**

a) nerv tizimining kuchli qo‘zg‘atuvchilar ta’siriga bardoshi, shunga ko‘ra odamlardagi chidam kabi sifatlar va ularga teskari sifatlarning namoyon bo‘lishi;

b) asabdagi tormozlanish va qo‘zg‘alishning o‘zaro mutanosibligi yoki o‘zini tuta bilishi bosiqlik kabi sifatlarning namoyon bo‘lishi;

c) shaxsning faolligi va reaksiyasi ichki ta’sirotlarga, timsol-larga, tassavvurlarga, o‘tmish hamda kelajakka bog‘liqligi;

d) qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonidagi o‘zaro almashinish jarayonining tezligi va harakatchanligi.

### **212. Muvozanatlashganlik nima?**

a) qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonidagi o‘zaro almashinish jarayonining tezligi va harakatchanligi;

b) asabdagi tormozlanish va qo‘zg‘alishning o‘zaro mutanosibligi yoki o‘zini tuta bilishi bosiqlik kabi sifatlarning namoyon bo‘lishi;

c) shaxsning faolligi va reaksiyasi ichki ta’sirotlarga, timsol-larga, tassavvurlarga, o‘tmish hamda kelajakka bog‘liqligi;

d) nerv tizimining kuchli qo‘zg‘atuvchilar ta’siriga bardoshi, shunga ko‘ra odamlardagi chidam kabi sifatlar va ularga teskari sifatlarning namoyon bo‘lishi.

**213. Hayotning og‘ir sinovlari paytida odam beixtiyor namoyon qiladigan reaksiyalari uning qanday individual-psixologik xususiyatlarini ko‘rsatadi?**

a) temperamentini;

c) qobiliyatini;

b) xarakterini;

d) shaxsiy sifatlarini.

**214. Juda faol, har bir narsaga ham qattiq kulaveradi; yolg‘on dalillarga jahli chiqadi, atrofdagi narsalar, ma’ruzalar diqqatini tez jalb etadi, imo-ishoralarini ko‘p ishlataadi, chehrasiga qarab kayfiyatini aniqlab olish qiyin emas. Juda sezgir bo‘lishiga qaramay**

**kuchsiz ta'sirni (qo'zg'atuvchilar) seza olmaydi, serg'ayrat, ishchan, toliqmas. Bu qaysi tip?**

- a) xolerik;
- b) sangvinik;
- c) melanxolik;
- d) flegmatik.

**215. Kuchli, muvozanatsiz, behalovat tipni belgilang.**

- a) xolerik;
- b) sangvinik;
- c) melanxolik;
- d) flegmatik.

**216. Necha xil temperament turlari bor?**

- a) 1 xil;
- b) 2 xil;
- c) 3 xil;
- d) 4 xil.

**217. Vazmin, kam-harakat, imo-ishorasi, mimikasi ko'zga yaqqol tashlanmaydi, lekin serg'ayrat, ishchan, faol, chidamli, matonatli. Nutq va harakat surati sust. Faoliyati kamroq. Diqqatni to'plashi osoyishta. Diqqatni ko'chirishi qiyin. Intravertlashgan, kamgap, ichimdan top, yangilikni qabul qilishi qiyin. Bu qaysi tip?**

- a) xolerik;
- b) sangvinik;
- c) melanxolik;
- d) flegmatik.

**218. Kuchli, muvozanatli, kamharakat tipni belgilang.**

- a) xolerik;
- b) sangvinik;
- c) melanxolik;
- d) flegmatik.

**219. Nerv sistemasining tuzilishiga ko'ra temperament tiplari-  
ga ajratgan olim kim?**

- a) M.I. Sechenov;
- b) I.P. Pavlov;
- c) Dekart;
- d) Abu Ali ibn Sino.

**220. Kuchli temperamentga ega bo'lgan bolalar ishga kirishish  
uchun bir oz taraddudlanadilar, ammo topshiriqni uzoqroq ba-  
jaradilar. Ular qaysi tiplar?**

- a) xolerik, sangvinik, melanxolik, flegmatik;
- b) xolerik, sangvinik, flegmatik;
- c) melanxolik, xolerik, sangvinik;
- d) sangvinik, melanxolik, flegmatik.

**221. Xoleriklar ancha o'zini tutgan, sangviniklar qunt bilan ish-  
laydigan, flegmatiklar faolroq, melanxoliklar o'zlariga ishonadigan  
bo'lib qolishlari uchun nimalarga e'tibor berish kerak?**

- a) oilada va maktabda ta'lif-tarbiyaviy ishni to'g'ri yo'lga  
qo'yish;
- b) bolalar temperamentidagi salbiy xususiyatlarni tugatish;

- c) bolalarda o‘zini tuta bilish malakasini tarbiyalash, ma’lum sharoitlarda o‘zini to‘xtata olishga o‘rgatish;
- d) kuchsiz tipdagisi bolalarga kuchli tipdagilarni namuna sifatida ko‘rsatish.

## XARAKTER

### **222. Xarakter so‘zi qaysi tildan olingan va ma’nosini nima?**

- a) lotin. – «tug‘ma dog‘lar»;
- b) grekcha – «zarb qilish, belgi»;
- c) lotincha – «belgi, nishon, xislat»;
- d) grekcha – «tug‘ma layoqat».

### **223. Xarakter bu ...**

- a) kishining aqliy, emotsiyonal va irodaviy xislatlariga bog‘liq bo‘lmagan xususiyatlari;
- b) kishining voqelikka bo‘lgan munosabatida vujudga keladigan va uning xulqi, harakatida ta’sir qoldiradigan psixik xususiyatlar yig‘indisi;
- c) his-tuyg‘ularning paydo bo‘lish tezligi va kuchida namoyon bo‘ladigan individual psixologik xususiyatlar yig‘indisi;
- d) shaxsiy bilim, ko‘nikmalar va malakalarni nisbatan osonlik bilan egallab olishdan iborat bo‘lgan psixik sifatlari.

### **224. Kishining voqelikka bo‘lgan munosabatida vujudga keladigan va uning xulqi, harakatida ta’sir qoldiradigan psixik xususiyatlar yig‘indisi qanday ataladi?**

- a) iroda;
- b) temperament;
- c) xarakter;
- d) qobiliyat.

### **225. Kishining atrofdagi voqelikka munosabati nuqtayi nazariidan xarakter xususiyatlari nechta tizimga ajratiladi?**

- a) 2;
- b) 3;
- c) 4;
- d) 6.

### **226. Yaxshilik, mehribonlik, talabchanlik, takabburlik va bosh-qalar xarakterning qaysi xislatlariga taalluqli?**

- a) mehnatga bo‘lgan munosabatni aks ettiruvchi xususiyatlar;
- b) narsalarga bo‘lgan munosabatni aks ettiruvchi xususiyatlar;
- c) shaxsning o‘ziga bo‘lgan munosabatni aks ettiruvchi xususiyatlar;
- d) jamoada va ba’zi insonlarga bo‘lgan munosabatni aks ettiruvchi xususiyatlar.

**227. Xarakterning nerv-fiziologik asosini nima tashkil etadi?**

- a) qiziqishlar;
- c) qobiliyat;
- b) iste'dod;
- d) temperament.

**228. Kishining xarakteriga doir xususiyatlar yig'indisi....**

- a) sezgirlik deb ataladi;
- b) xarakter xislatlari deb ataladi;
- c) shaxsiy fazilatlar deb ataladi;
- d) xarakter tiplari deb ataladi.

**229. O'z qadr-qimmatini bilish tuyg'usi, kamtarlik, mag'rurlik, uyatchanlik, jizzakilik, xudbinlik, egosentrizm xarakterning qaysi tizimiga taalluqli?**

- a) mehnatga bo'lgan munosabatni aks ettiruvchi xususiyatlar;
- b) narsalarga bo'lgan munosabatni aks ettiruvchi xususiyatlar;
- c) shaxsning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatni aks ettiruvchi xususiyatlar;
- d) jamoada va ba'zi insonlarga bo'lgan munosabatni aks ettiruvchi xususiyatlar.

**230. Xarakterning qanday xususiyatlari farqlanadi?**

- a) ijobiy va salbiy xususiyatlari;
- b) tug'ma va hayot davomida orttirilgan xususiyatlari;
- c) atrofdagilarga bo'lgan munosabatlari;
- d) tanqidiy va talabchanlik xususiyatlari.

**231. Ta'limg-tarbiya, yashash sharoiti natijasida bola xarakterida qanday xislatlar tarkib topadi?**

- a) axloqiy, aqliy;
- c) ma'naviy, estetik;
- b) ijobiy, salbiy;
- d) shaxsiy, madaniy.

**232. Mehnatsevarlik, dangasalik, vijdonlilik, mas'uliyatlilik va bunga teskari xususiyatlar xarakterning qaysi tizimiga taalluqli?**

- a) jamoada va ba'zi insonlarga bo'lgan munosabatni aks ettiruvchi xususiyatlar;
- b) narsalarga bo'lgan munosabatni aks ettiruvchi xususiyatlar;
- c) shaxsning voqelikka bo'lgan munosabatini aks ettiruvchi xususiyatlar;
- d) mehnatga bo'lgan munosabatni aks ettiruvchi xususiyatlar.

**234. O'zbeklar xarakterida asrlar davomida saqlanib kelayotgan samimiylilik, mehmonnavozlik, ibo, sharm-hayo, takalluf, mehnatsevarlik kabi sifatlar avloddan avlodga o'tib, ma'naviy qadriyatlarga**

**aylanib qolgan. O‘zbekning o‘zligini namoyon qiluvchi bu barqaror xususiyatlar qanday ataladi?**

- a) axloqiy xarakter;
- b) ijobjiy xarakter;
- c) milliy xarakter;
- d) shaxsiy xarakter.

**235. Xarakterda kishining .... jamlanadi.**

- a) odatlari;
- b) xislatlari;
- c) yutuq va kamchiliklari;
- d) ko‘nikma va malakalari.

**236. Odamovilik, muomalada va atrofdagilar bilan aloqa o‘rnatishda qiynalish, o‘zi bilan o‘zi bo‘lib qolish qaysi xarakter tipiga xos?**

- a) ekstrovert tip;
- b) introvert tip;
- d) boshqarib bo‘lmaydigan tip;
- c) ambivert tip.

**237. Kishining jamiyat talablariga javob beradigan ma’naviy xulq-atvorini belgilab beruvchi xususiyatlar qanday xarakter xususiyatlari hisoblanadi?**

- a) axloqiy;
- b) ijobjiy;
- c) ma’naviy;
- d) shaxsiy.

## **QOBILINYAT**

**238. Shaxsiy bilim, ko‘nikmalar va malakalarni nisbatan osonlik bilan egallab olishdan iborat bo‘lgan psixik sifatlarga ... deyiladi.**

- a) xarakter;
- b) qobiliyat;
- c) qiziqish;
- d) idrok.

**239. Qobiliyatlar nimada namoyon bo‘ladi?**

- a) faoliyatda;
- b) yashash jarayonida;
- c) san’atda;
- d) ta’lim jarayonida.

**240. Intellekt bu ...**

- a) shaxslararo munosabatlar yig‘indisi;
- b) tug‘malik alomatlari bor individual sifatlar;
- c) aql-idrokning o‘lchab, o‘zgartirib, rivojlantirib boradigan bo‘lagi;
- d) har tomonlama rivojlangan, nihoyatda kuchli qobiliyat.

**241. Layoqat turlari to‘g‘ri berilgan qatorni ko‘rsating.**

- a) tabiiy, ijtimoiy;
- b) tabiiy, tug‘ma;
- c) kuchli, kuchsiz;
- d) ichki, tashqi.

**242. Daholik geb nimaga aytildi?**

- a) tug‘malik alomatlari bor individual sifatlarga;
- b) biror faoliyatning ayniqsa muvaffaqiyatli, mustaqil va original tarzda bajarilishini taqozo qiladigan zo‘r qobiliyatlar birikmasiga;
- c) ijtimoiy hayotda, fan, adabiyot, san’at va shu kabi sohalarda prinsipial ravishda yangi biror narsa yaratgan kishilarga;
- d) har tomonlama rivojlangan, nihoyatda kuchli va takrorlanmas qobiliyatlarga.

**243. Qobiliyat turlarini ko‘rsating.**

- a) tabiiy, ijtimoiy; c) shaxsiy, ma’naviy;
- b) umumiy, maxsus; d) pedagogik, didaktik.

**244. Yarq etib namoyon bo‘ladigan, har tomonlama rivojlangan, nihoyatda kuchli va takrorlanmas xususiyat nima deb ataladi?**

- a) layoqat; c) iste’dod;
- b) iqtidor; d) mahorat.

**245. Faoliyatining turli xillari bilan muvaffaqiyatli shug‘ullana oluvchi, barcha fanlardan yaxshi va qynalmay o‘qiydigan bolalar qobiliyatlarning qaysi turiga kiritiladi?**

- a) umumiy qobiliyatga ega o‘quvchilar;
- b) maxsus qobiliyatga ega o‘quvchilar;
- c) iqtidorli bolalar;
- d) iste’dodli o‘quvchilar.

**246. Tabiiy layoqat nima?**

- a) qobiliyatni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoit;
- b) oily nerv tizimi faoliyatining xususiyatlari, miya yarimsharlari faoliyati, qo‘l-oyoqlarning biologik va fiziologik sifatlari, biliish jarayonlarini ta‘minlovchi sezgi organlari – ko‘z, qulqoq, burun, teri kabilarning xususiyatlari, ya’ni ota-onadan genetik tarzda o‘tuvchi xususiyatlar;
- c) bola tug‘ilishi bilan uni o‘rab turgan muhit, muloqot usullari, so‘zlashish madaniyati;
- d) juda ko‘p turdagи faoliyat talablariga javob beradigan umumiy yoki tor fazilatlar yig‘indisi.

**247. Tug‘malik alomatlari bor individual sifatlar qanday ataladi?**

- a) intellekt; c) daholik;
- b) layoqat; d) qobiliyat.

**248. Talant nima?**

- a) tug‘malik alomatlari bor individual sifatlarga;
- b) har tomonlama rivojlangan, nihoyatda kuchli va takrorlanmas qobiliyatlarga;
- c) ijtimoiy hayotda, fan, adabiyot, san’at va shu kabi sohalarda prinsipial ravishda yangi biror narsa yaratgan kishilarga;
- d) biror faoliyatning ayniqsa muvaffaqiyatli, mustaqil va original tarzda bajarilishini taqozo qiladigan zo‘r qobiliyatlar birikmasiga.

**249. Layoqatning necha foizi tug‘ma ravishda beriladi?**

- a) 80%;
- b) 50%;
- c) 10%;
- d) 100%.

**250. Insoning o‘z xatti-harakati, bilimlari, imkoniyatlari, malakalariga nisbatan subyektiv munosabati nima deb ataladi?**

- a) talant;
- b) iqtidor;
- c) iste’dod;
- d) mahorat.

**251. Matematik, texnikaviy, adabiy, musiqaviy, tasviriy san’atga bo‘gan qobiliyatlar qanday ataladi?**

- a) iste’dod;
- b) maxsus;
- c) umumiy;
- d) layoqat.

**252. Qobiliyatlarning fiziologik asosini nima tashkil etadi?**

- a) tabiiy anatomik-fiziologik layoqat nishonalari;
- b) bola tug‘ilishi bilan uni o‘rab turgan muhit, muloqot usullari;
- c) qo‘l-oyoqlarning biologik va fiziologik sifatlari, bilish jaryonlarini ta’minlovchi sezgi organlari;
- c) I-II signallar sistemasi.

**253. Bola tug‘ilishi bilan uni o‘rab turgan muhit, muloqat usullari, so‘zlashish madaniyati, maxsus maktab, to‘garaklarga berish layoqatning qaysi turiga kiradi?**

- a) fiziologik layoqat;
- b) tabiiy layoqat;
- c) maxsus layoqat;
- d) ijtimoiy layoqat.

**254. Qobiliyat deb nimaga aytildi?**

- a) his-tuyg‘ularning paydo bo‘lish tezligi va kuchida hamda kishining umumiy harakatchanligida namoyon bo‘ladigan individual psixologik xususiyatlar yigindisi;
- b) ongning narsa, hodisa yoki faoliyatga qaratilishi hamda to‘planishiga;

c) kishining voqelikka bo‘lgan munosabatida vujudga keladigan va uning xulqi, harakatida ta’sir qoldiradigan psixik xususiyatlar yigindisi;

d) shaxsiy bilim, ko‘nikmalar va malakalarni nisbatan osonlik bilan egallab olishdan iborat bo‘lgan psixik sifatlarga.

**255. Iqtidor – ...**

a) insoning o‘z xatti-harakati, bilimlari, imkoniyatlari, malakalariga nisbatan subyektiv munosabatidir;

b) har tomonlama rivojlangan, nihoyatda kuchli va takrorlanmas qobiliyatdir;

c) kishiga qandaydir murakkab mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli, mustaqil va orginal tarzda bajarilishi imkonini beradigan qibiliyatlar majmuasidir;

d) biror faoliyatning ayniqsa muvaffaqiyatli mustaqil va orginal tarzda bajarilishini taqozo qiladigan zo‘r qibiliyatlar birikmasi.

**256. Iste’dod – ...**

a) insoning o‘z xatti-harakati bilimlari, imkoniyatlari, malakalarga nisbatan subyektiv munosabatidir;

b) har tomonlama rivojlangan, nihoyatda kuchli va takrorlanmas qobiliyatdir;

c) kishiga qandaydir murakkab mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli, mustaqil va orginal tarzda bajarilishi imkonini beradigan qibiliyatlar majmuasidir;

d) biror faoliyatning ayniqsa muvaffaqiyatli mustaqil va orginal tarzda bajarilishini taqozo qiladigan zo‘r qibiliyatlar birikmasi.

1-abcd;                  2-bc;                  3-acd;                  4-ab.

**257. Geniallik (daho) darajasiga ega bo‘lgan shaxsni aniqlang:**

- |               |                    |
|---------------|--------------------|
| a) A. Oripov; | c) O‘. Tansiqboev; |
| b) A. Navoiy; | d) Sh. Burxonov.   |

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. «Ta’lim to‘grisida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy das-turi». Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq HMK – 1997.
2. I.A. Karimov. Barkamol avlod orzusi. – T.: «O‘zbekiston» – 2000.
3. I.A. Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat. – 2008.
4. M. Vohidov. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent. «O‘qituvchi» – 1882.
5. A.V. Petrovskiy va boshqalar. Umumiy psixologiya. – T.: «O‘qituvchi». –1992.
6. P.I. Ivanov. Umumiyl psixologiya. – Toshkent. – 2007.
7. E. G‘oziyev. Psixologiya. Darslik. «O‘qituvchi» nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – Toshkent. – 2008.
8. V.M. Karimova, F.A. Akramova. Psixologiya. Ma’ruzalar matni. FTDK, DITAF – Toshkent. – 2000.
9. B.C. Мухина. Возрастная психология. – Москва. – 2008.
10. E. G‘oziyev. Psixologiya (pedagogik). – Toshkent. «O‘qituvchi» – 1994.
11. F.N. Gonobolin. Psixologiya. – Toshkent. «O‘qituvchi» – 1976.
12. M.G. Davletshin, Sh. Do‘stmuhamedova, M. Mavlonov, S. To‘ychiyeva. Yosh davrlari va pedagogic psixologiya (o‘quv-me-todik qo‘llanma). TDPU, – T.: – 2004.
13. Z. Nishanova. Bolalar psixodiagnostikasi. TDPU nashri-yoti. Toshkent – 1998.
14. P.I. Leventuyev, A.A. Asqarxo‘jayev, V.E. Chudnovskiy, M.V. Vohidov. Bolalar psixologiyasi ocherklari. – Toshkent. «O‘qituvchi» nashriyoti.
15. Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. – Москва. «Мысль». –1965.
16. Запорожец А.В., Элконин Д.Б. Психология детей дошкольного возраста. – Москва. Просвещение. – 1964.

17. Венгер Л.А., Мухина В.С. Психология. – Москва. Просвещение – 1988.
18. Moss P., Petrie P. (2002), From Children's Services to Children's Spaces: public provision, children and childhood. London: Routledge Falmer.
19. N.M. Aksarina. Go'dak bolalar tarbiyasi. – Toshkent. Meditsina. – 1983.
20. M. Rahmonova. Psixologiya kursida ko'rsatmalilik. – T.: «O'qituvchi». – 1981.
21. Джон О'Киффи. Семидневний курс тренировки ума. – Москва. Золотой телёнок. – 1997.
22. N.V. Latipova. Kichkintoy tarbiyasi. – Toshkent. Meditsina. –1989.
23. O'yaymiz, o'ynaymiz – aqlimizni charxlaymiz. – Toshkent. – 2006.
24. Onalarga tavsiyalar. Respublika o'quv-metodika markazi. Toshkent. – 2004
25. M. Rasulova, D. Abdullayeva, S. Oxunjonova. Bolalarning mакtabga psixologik tayyorligi. – Toshkent. – 2003.
26. S.X. Jalilova va boshqalar. Shaxsning psixik taraqqiyoti diagnostikasi. – Toshkent. – 2009.

# MUNDARIJA

## KIRISH . . . . . 3

### I bob. PSIXOLOGIYAGA KIRISH

1.1. Psixologiya fanining predmeti . . . . .	5
1.2. Hozirgi zamon psixologiyasining vazifalari, tarmoqlari va fanlar tizimida tutgan o'rni. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»dagi vazifalarni amalga oshirishda psixologiya fanining ahamiyati . . . . .	15
1.3. Psixologiya fanining ilmiy-tadqiqot metodlari . . . . .	23
1.4. Psixikaning nerv-fiziologik asoslari . . . . .	38
1.5. Psixika va ong taraqqiyoti. Psixikaning paydo bo'lishi va rivojlanishi . . . . .	45

### II bob. SHAXS VA FAOLIYAT

2.1. Shaxs psixologiyasi . . . . .	60
2.2. Faoliyatning psixologik tahlili . . . . .	75
2.3. Shaxs insoniy munosabatlar tizimida . . . . .	86
2.4. Diqqat. Diqqat haqida tushuncha . . . . .	95

### III bob. SHAXSNING PSIXIK JARAYONLARI

3.1. Sezgilar. Sezgilar to'g'risida umumiyl tushuncha.	
Analizatorlar . . . . .	109
3.2. Idrok . . . . .	116
3.3. Xotira. Xotira to'g'risida tushuncha va uning fiziologik asoslari . . . . .	130
3.4. Tafakkur. Tafakkur haqida tushuncha . . . . .	140
3.5. Nutq. Nutq haqida tushuncha . . . . .	154
3.6. Xayol. Xayol tavsifi, fiziologik asoslari . . . . .	159

### IV bob. SHAXSNING HISSIY-IRODAVIY HOLATLARI

4.1. His-tuyg'ular. Hissiyot va emotsiya to'g'risida tushuncha . . . . .	171
4.2. Iroda. Iroda to'g'risida tushuncha. Tavakkalchilik . . . . .	185

### V bob. SHAXSNING INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

5.1. Temperament. Temperament haqida tushuncha . . . . .	193
5.3. Xarakter. Xarakter haqida umumiyl tushuncha . . . . .	210
5.3. Qobiliyatlar. Qobiliyat haqida umumiyl tushuncha. . . . .	217

### VI bob. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASI

6.1. Bolalar psixologiyasining umumiyl masalalari . . . . .	222
---	-----

6.2. Psixik taraqqiyotning asosiy qonuniyatlari.	
Bola psixik taraqqiyoti haqida tushuncha . . . . .	226
6.3. Psixik taraqqiyot va yosh bosqichlari . . . . .	236
6.3. Chaqaloqlik va go'daklik davrida psixik taraqqiyot.	
Chaqaloqlik davri . . . . .	244
6.4. Ilk yosh davrida psixik taraqqiyot.	
Ilk yoshdagi bolaning jismoniy jihatdan o'sishi . . . . .	265
<b>VII bob. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR FAOLIYATINING PSIXOLOGIK TAVSIFI</b>	
7.1. Maktabgacha yoshdagi bolalar taraqqiyoti va faoliyatining psixologik tavsifi . . . . .	287
7.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin faoliyatining xususiyatlari. Bola hayotida o'yinning ahamiyati . . . . .	295
7.3. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'limiylar . . . . .	306
7.4. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar mehnat faoliyatining xususiyatlari.	
Maktabgacha yosha mehnat elementlari . . . . .	316
<b>VIII bob. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR PSIXIK JARAYONLARINING TARKIB TOPISHI</b>	
8.1. Bolalarda sezgi va idrokning rivojlanishi . . . . .	319
8.2. Bolalarda diqqatning rivojlanishi. Bolaning bog'cha yoshidagi davrida ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqati . . . . .	330
8.3. Xotiraning bolalarda rivojlanishi . . . . .	334
8.4. Tafakkurning bolalarda rivojlanishi . . . . .	337
8.5. Bolalarda nutqning rivojlanishi . . . . .	343
8.6. Xayolning bolalarda rivojlanishi . . . . .	349
<b>IX bob. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR SHAXSINING SHAKLLANISHI</b>	
9.1. Ilk yosha bola shaxsining shakllanishi . . . . .	352
9.2. Kichik va o'rta bog'cha yoshida (3-5 yosh) shaxsning shakllanishi . . . . .	365
9.3. Katta bog'cha yoshida (5-7 yosh) shaxsning shakllanishi.	
Maktabgacha yosha o'z-o'zini anglash . . . . .	382
<b>X bob. BOLALAR PSIXODIAGNOSTIKASI</b>	
10.1. Psixodiagnostika metodlari va ulardan foydalanish . . . . .	403
10.2. Bolalarni maktabdagagi ta'lim jarayoniga psixik jihatdan tayyorlash . . . . .	415
<b>MAVZULAR BO'YICHA TEST TOPSHIRIQLARI . . . . .</b> 451	
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR . . . . .</b> 492	

Sabohat Xalilovna Jalilova  
Sayyora Mirsoatovna Aripova

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASI**

*o‘quv qo‘llanma*

Muharrir: *M. Tursunova*  
Musahhih: *M. Turdiyeva*  
Dizayner sahifalovchi: *D. Ermatova*

«Faylasuflar» nashriyoti.  
100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko‘chasi, 32-uy.  
Tel.: 236-55-79; Faks: 239-88-61.

Nashriyot litsenziyasi: AI №255, 16.11.2012.  
Bosishga ruxsat etildi 15.08.2013. «Uz-Times» garniturasi. Ofset usulida chop etildi. Qog‘oz bichimi  $60 \times 90^1 / _{16}$ . Bosma tabog‘i 31,0. Nashr hisob tabog‘i 31,5. Adadi 1 326 nusxa. Buyurtma №\_\_\_.  
\_\_\_\_\_

«START-TRACK PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: Toshkent shahri, 8-mart ko‘chasi, 57-uy.